G.M.SHADIYEVA, D.S.MUSINOV

TRANSPORT IQTISODIYOTI

DARSLIK

- TRANSPORT TIZIMI
- TRANSPORT IQTISODIYOTI
- LOGISTIKA VA TA'MINOT ZANJIRI
- XALQARO TRANSPORT MUNOSABATLARI



TRANSPORT
YANGI IMKONIYATLARGA
YO'L OCHADI

IQTISODIY O'SISH | BARQAROR RIVOJLANISH | YAXSHI KELAJAK

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 95 yilligiga bag‘ishlanadi

G.M.SHADIYEVA, D.S.MUSINOV

TRANSPORT IQTISODIYOTI

DARSLIK

Samarqand-2026 y.

UO‘K: 338.47(075.8)
Sh15
KBK: 65.37ya73

G.M.Shadiyeva, D.S.Musinov.

TRANSPORT IQTISODIYOTI *[Matn]:* ***darslik*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2026 - 628 bet.*

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida “Transport iqtisodiyoti” fani iqtisodiyot va boshqaruv bilan bog‘liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslik “Transport iqtisodiyoti” fani bo‘yicha tayyorlangan bo‘lib, transport sohasini rivojlantirishning xususiyatlari va istiqbollari, transport sohasini rivojlantirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, transport korxonalar shakllari, ularning ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilishi, ishlab chiqarish turlari, xususiyatlari, asosiy ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar, tashkilotning infratuzilmasi, ishlab chiqarish harajatlari, mahsulot va xizmatlar tannarxi, innovatsiya va investitsiya siyosati, biznes-reja, transport korxonalarining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari kabi masalalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

“Transport iqtisodiyoti” darsligi innovasion iqtisodiyot sharoitda transport bozori ishtirokchilari o‘rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning nazariy asoslari va amaliy jihatlarini o‘rganadigan talabalari uchun mo‘ljallangan.

Darslikning asosiy yo‘nalishi transport sohasining, shuningdek, butun mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo‘liga kirish yo‘nalishi bo‘yicha yaqin kelajakda ijobiy natijalar bergan yoki berayotgan vazifalar va takliflarni taqdim etishga qaratilgan.

Taqrizchilar:

N.A.Xodjaeva - Toshkent davlat transport universiteti professori, i.f.d.

Z.S.Artikov - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Real iqtisodiyot ” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent.

Darslik institut Kengashining 2026-yil 28-Avgustdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (1-sonli majlis bayoni, ro‘xatga olish raqami 386-28/08).

ISBN: 978-9910-5432-7-2

© G.M.Shadiyeva va b., SamISI. 2026 y.
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2026 y.

KIRISH

So‘nggi yilllarda mamlakatimizda transport sohasidagi davlat siyosati natijasida transportning barcha turlari bo‘yicha iqtisodiyot va aholining transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiradigan samarali transport tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda mamlakatning barcha hududlari bilan fazoviy bog‘lanish ta’minlandi, avtomobilda yo‘lovchi va yuk tashish sohasida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirildi hamda global transport makoniga faol va samarali qo‘shilish uchun sharoitlar yaratildi. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakat transport tizimi samaradorligini pasaytiradigan bir qator jiddiy muammolarni hal qilish talab etiladi. Buning uchun mamlakat transport siyosatini takomillashtirish, yo‘lovchi va yuk tashish sifati va hajmining keskin o‘sishini ta’minlash, iste’molchilar uchun ularning narxini pasaytirish, O‘zbekiston orqali tranzit yuklarni tashish hajmini oshirish va transport-logistika xizmatlarining raqobatdosh bozorini shakllantirish, xavfsizlik va ekologik xavfsizlikni yaxshilashga qaratilgan jiddiy instituttsional o‘zgarishlarni amalga oshirish zarur. O‘zbekiston hududi Buyuk Ipak yo‘lining markazida joylashgan bo‘lib va bu Yevropadan Osiyoga eng qisqa transport yo‘laklari ushbu yo‘l orqali o‘tganligi bilan ifodalanadi. Mintaqada markaziy o‘rinni egallab turgan O‘zbekiston G‘arb va Sharq mamlakatlari munosabatlarida geosiyosiy ko‘prik rolini bajaradi. O‘zbekistonning geografik joylashuvi G‘arbiy va Sharqning, shuningdek, Yevroosiyo qit’asining shimoliy va janubi chorrahasida foydalanish, Yevrosiyo qit’asining ko‘plab mamlakatlariga quruqlik va transport aloqalarini uzluksiz amalga oshirish imkoniyatini ochib beradi. O‘zbekiston Respublikasida rivojlangan temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari tarmog‘i, xalqaro aeroportlar majmuasi, shuningdek, davlat hududini xalqaro va birinchi navbatda, tranzit tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondiradigan havo yo‘llari mavjud. Shunday qilib, zamonaviy O‘zbekiston ulkan transport salohiyatiga va mavjud tranzit resurslaridan foydalangan holda transportning barcha mumkin bo‘lgan turlari bo‘yicha barcha yo‘nalishlarda ham tovarlarni, ham yo‘lovchilarni tashishda mamlakat ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga ega. Mamlakatimiz zamonaviy transport tarmog‘i quyidagi asosiy transport turlari bilan ifodalanadi: avtomobil, temir yo‘l, daryo-suv, havo, quvur liniyalari.

Biroq, O‘zbekiston transport tizimining asosini avtomobil transporti tashkil etadi, chunki birinchidan, u yuklarning qariyb 70 foizini va

yo‘lovchilarning 50 foizini tashishni tashkil etadi, ikkinchidan, avtomobil transporti ko‘pincha uzoq borish qiyin bo‘lgan hududlar bilan yagona aloqa hisoblanadi. O‘z hududida yashovchi oz sonli aholi.

Avtomobil transporti sanoatining yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, ishlab chiqarilgan tovarlarning ham, iste’mol tovarlarining ham sotilish narxi ko‘p jihatdan transport darajasiga va qo‘shimcha harajatlarga bog‘liq. Shu sababli, yo‘l transporti sohasini rivojlantirishga, yuklarni va yo‘lovchilarni tashish harajatlarini optimallashtirishga, yo‘llar tarmog‘ini modernizatsiyalashga qaratilgan boshqaruv qarorlari O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimining har bir tarkibiy tuzilmasi faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Transport sanoatining ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati samaradorligini ta’minlash uchun avtotransport korxonasi faoliyatining iqtisodiy asoslarini bilish va korxona (tashkilot) ning iqtisodiy faoliyati natijalarini tavsiflovchi moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish qobiliyati zarur.

Umumiy kasbiy va maxsus iqtisodiy tayyorgarlik blokining muhim tarkibiy qismi hisoblangan Transport iqtisodiyoti” o‘quv fani innovatsion iqtisodiyot sharoitida transport korxonalarini boshqarish asoslarini va uning iqtisodiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganganish uchun transporti sohasi mutaxassislari uchun mo‘ljallangan “Transport iqtisodiyoti” fanini puxta o‘zlashtirish natijasida talaba transport tizimi va transport korxonalarining iqtisodiy faoliyatiga oid nazariy hamda amaliy bilimlarga ega bo‘lishi zarur. Jumladan, talaba transport korxonasining mohiyati, uning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, transport sohasida yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning mazmuni hamda ushbu tarmoqni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini bilishi lozim. Shuningdek, transport korxonalarida boshqaruv faoliyatini tashkil etish, strategik va operativ rejalashtirish tamoyillari, yuk va yo‘lovchi tashish xizmatlari bo‘yicha narx shakllantirish asoslari hamda korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantirish mexanizmlarini chuqur anglab yetishi talab etiladi.

Mazkur fan doirasida talaba transport korxonasining texnik va moddiy ta’minot tizimini samarali tashkil etish, ishlab chiqarish resurslariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash va ularni hisoblash, korxona xodimlarining ish haqi fondini shakllantirish hamda transport xizmatlari tannarxi va narxini iqtisodiy jihatdan asoslab hisoblash kabi amaliy vazifalarni bajarish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, talaba transport korxonalarida strategik va operativ boshqaruv usullaridan foydalanish, ishlab chiqarish resurslarini tahlil

qilish va rejalashtirish, transport vositalari bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullarini qo‘llash malakasini egallashi lozim. Shu bilan birga, personalni boshqarish, ish haqi va rag‘batlantirish fondlarini tashkil etish, transport xizmatlarini narxlash usullarini amaliyotda qo‘llash hamda korxonaning moliyaviy natijalari ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha zarur kompetensiyalarni shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fan yakunida talaba transport korxonasini rivojlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash, investitsion qarorlarning natijadorligini oddiy va dinamik usullar asosida hisoblash hamda transport tarmog‘ida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi.

Har qanday milliy iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo‘g‘ini bo‘lib korxona xizmat qiladi. Demak, transport iqtisodiyoti asoslarini bilish malakali mutaxssislar tayyorlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Mazkur fan transport korxonalari iqtisodiyoti bo‘yicha muayyan bilimlarni egallashga ko‘maklashadi.

Zamonaviy sharoitlarda korxona faoliyatini amalga oshirishni ta’minlovchi zamonaviy iqtisodiy mexanizm, kadrlar salohiyati va kadrlar siyosati, mehnatga haq to‘lash, resurslar va ulardan foydalanish, ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlashtirish, investitsion va innovatsion faoliyat, harajat, daromad va rentabellik, tashish tannarxi va bahosini shakllantirish, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi kabi masalalar ushbu fan doirasida ko‘rib o‘tiladi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o‘ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur’atlar bilan o‘sishini, inflyatsiyani prognoz ko‘rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta’minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar

yaratilishiga xizmat qildi. Bugungi kunda transport, transport xizmatlarining iqtisodiy mazmuni, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Shuningdek, mazkur soha bilan shug‘ullanganlar Бычков В.П[1], Ye.P.Volodin., N.I.Gromov[2], Ya.F.Gulev, P.K.Lebedinskiy[3], M.Q.Pardaev, I.S.Ochilov[4], E.S.Fayziev[5], A.Raximov[6] va boshqa olimlarning izlanishlari, ayniqsa diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.[7] angi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va uni bosqichma-bosqich liberallashtirish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiyada iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish hamda hududlarda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish siyosatini izchil davom ettirish muhim vazifa sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, iste’mol tovarlari va butlovchi qismlar importi o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga aylangan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning mustaqillik yillarida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li va erishilgan natijalar chuqur tahlil qilinmoqda. Jahon bozorida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va xalqaro raqobatning keskin kuchayib borishi iqtisodiyotni boshqarishda mutlaqo

---

[1] Бычков В.П. Предпринимательская деятельность на автомобильном транспорте: перевозки и автосервис [Текст]: учеб, пособие / В.П. Бычков. — М.: Академический проект, 2009. — 420 с

[2] Володин Е.П.,Громов Н.И. Организация и планирование перевозок автомобильнқм транспортом.Учебник М.,1999

[3] Гулев Я.Ф., Лебединский П.К. Основные показатели и измерители работы транспорта: Справочник М., «Транспорт», 2001.

[4] Пардаев М.Қ., Очилов И.С. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида самарадорликни ошириш йўллари.монография. Т.: 2011й, 172 б.

[5] Файзиев Э.С,Сервис тизими асослари., Ўқув қўлланма., Самарқанд, 2010 й.

[6] Рахимов А.А Йўловчи ташиш хизматлари самарадорлигини ошириш йўллари. Монография.Тошкент, 2012 й.

[7] Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон, https://lex.uz/docs/5841063

yangi yondashuvlar hamda zamonaviy tamoyillarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatini yanada takomillashtirish, innovatsion rivojlanish omillarini keng joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashni talab etadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barcha sohalarni liberallashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi. Xususan, investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish va iqtisodiyotni raqamlashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar doirasida muhim tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jumladan, milliy valyutaning erkin konvertatsiyasi joriy etilishi O‘zbekiston iqtisodiyotining ochiqligini ta’minlashda muhim bosqich bo‘ldi. Ushbu islohot xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda chet el investorlarining daromadlarini erkin repatriatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Natijada mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi oshib, xalqaro iqtisodiy aloqalar yanada faollashdi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish jarayonida ilg‘or g‘oyalar, “smart” texnologiyalar, innovatsion ishlanmalar va zamonaviy nou-xaularga asoslangan taraqqiyot modeliga bosqichma-bosqich o‘tish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratilmoqda. Bu esa Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida venchur fondlar faoliyatini tashkil etish va venchur moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha zarur huquqiy asoslarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etishni rag‘batlantiruvchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish va

yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Davlat tomonidan innovatsion faoliyat subyektlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator soliq imtiyozlari ham joriy etilgan. Xususan, 2023-yil 1-yanvargacha venchur fondlar, yuqori texnologik startap loyihalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, innovatsiya markazlari hamda loyiha-konstruktorlik byurolariga yangi texnologiyalarni tadbirkorlik subyektlariga sotish yoki ulardan foydalanish huquqini taqdim etishdan olingan daromadlar bo‘yicha soliq yengilliklari berilishi belgilandi. Ushbu imtiyozlar innovatsion faoliyatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga hamda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Yer uchastkalarini ajratish jarayonida shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash maqsadida elektron savdo tizimlarini joriy etish rejalashtirilgan. Jumladan, internet tarmog‘i orqali elektron auksionlarni tashkil etish hamda davlat aktivlarini elektron savdo maydonchalari orqali realizatsiya qilish tizimini shakllantirish ko‘zda tutilmoqda. Mazkur tizim korrupsion holatlarning oldini olish, ochiqlikni ta’minlash va tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish ham iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan banklar va bank faoliyatiga oid qonunchilikni tubdan qayta ko‘rib chiqish, “raqamli banking”, “internet-banking” hamda boshqa zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish choralari amalga oshirilmoqda. Bu esa moliyaviy xizmatlarning qulayligi va tezkorligini oshirish, aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda moliya sektorining raqamli transformatsiyasini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Soliq va bojxona siyosatini takomillashtirish ham iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususan, soliq yukini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, soliq va bojxona ma’murchiligini soddalashtirish bo‘yicha islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Ushbu choralar iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda turizm sohasini jadal rivojlantirish ham ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. O‘zbekistonning boy tarixiy-

madaniy merosi va tabiiy resurslaridan samarali foydalanish asosida turizmning yangi yo‘nalishlarini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. An’anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan bir qatorda ziyorat, ekologik, ma’rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog‘lomlashtirish, qishloq, sanoat va ishbilarmonlik turizmi kabi istiqbolli yo‘nalishlarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, bolalar va yoshlar turizmi, oilaviy turizm hamda keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish orqali turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish maqsad qilingan. Hududlarda yangi turistik yo‘nalishlarni tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm obyektlari va marshrutlari bo‘yicha yagona milliy reyestrlarni shakllantirish hamda ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishga qaratilgan milliy va hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan. Bu esa turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

Mazkur fanning maqsadi - talabalarga barcha iqtisodiy masalalar yechimini topish, kelajakda iqtisodiy bilimlar olish uchun o‘ziga xos poydevor bo‘lib xizmat qiluvchi tarmoq korxonalari iqtisodiyoti asoslarini va boshqaruv asoslarini o‘rganishga ko‘maklashishdir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq belgilab olingan islohotlar strategiyasi, uning pirovard maqsadi, ya’ni ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga asoslanuvchi, erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini qurish va shu asosda xalqimizning farovonligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar o‘zining beqiyos samarasini bermoqda. Biroq, bu islohotlar hali davom etmoqda. Ayni paytda, jahonni larzaga solgan, ko‘plab mamlakatlar iqtisodiyotiga katta talofatlar yetkazib, izdan chiqargan pandemiya sharoitida jarayonlarining murakkab va og‘ir sinovlaridan o‘tayotgan mamlakatimizning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish orqali yanada samarali va mustahkam bo‘lib bormoqda.

Darslikda shu kabi yana ko‘plab ulkan muvaffaqiyatlarimiz barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, huquqiy demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so‘zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan, jahon miqyosida obro‘-e’tibor qozongan jamiyat barpo etish borasidagi uzoq va murakkab yo‘lning faqat bir qismi ekani, ayni vaqtda erishilgan yutuqlarga mahliyo bo‘lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilish, real voqelikdan uzilib qolish

mamlakatimiz taraqqiyotining samaradorligi va istiqboliga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligiga alohida e’tibor qaratildi.

Qo‘llanma “Transport iqtisodiyoti” kursi bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘rganish va mustahkamlashga, transport korxonalarini boshqarish sohasidagi zarur bilim va malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Mazkur qo‘llanma “Transport iqtisodiyoti” fanini o‘rganadigan barcha o‘quv shakllari talabalariga tavsiya etiladi.

I BOB. “TRANSPORT IQTISODIYOTI” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. Transport iqtisodiyotining ob’ekti, predmeti va vazifalari.
1.2. Innovasion iqtisodiyot sharoitida transportning rolini baholash.
1.3. Transport mahsulotlari va uning xususiyatlari.
1.4. Har xil transport turlarining funktsional xususiyatlari
1.5. O‘zbekistonda transport xizmatlari: joriy holati va rivojlanish prognozlari.
1.6. Qishloq joylarda avtoservis xizmatlari bozori va rivojlanish istiqbollari.

1.1 Transport iqtisodiyotining ob’ekti, predmeti va vazifalari.

Transport iqtisodiyoti iqtisodiy tizimning ajralmas va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U jamiyatda ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol jarayonlarining uzluksiz amalga oshirilishini ta’minlash orqali milliy iqtisodiyot rivojida muhim o‘rin egallaydi. Transport tizimi iqtisodiy faoliyat subyektlari o‘rtasidagi hududiy va xo‘jalik aloqalarini mustahkamlab, ishlab chiqaruvchi hamda iste’molchi o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani ta’minlovchi asosiy infratuzilmaviy tarmoqlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur fan transport tizimining iqtisodiy mohiyatini, uning ishlab chiqarish jarayonidagi funksional ahamiyatini hamda transport xizmatlari bozorining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Shu bilan birga, fan doirasida transport korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash, resurslardan oqilona foydalanish, transport xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirish masalalari ham keng tahlil etiladi.

Transport iqtisodiyoti transport infratuzilmasining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sirini ham chuqur tadqiq qiladi. Xususan, transport tarmog‘ining rivojlanishi hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, logistika tizimlarini takomillashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli transport iqtisodiyoti nafaqat transport korxonalari faoliyatini samarali tashkil

etish, balki mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi.[8]

Transport iqtisodiyoti fanining o‘rganish ob’ekti sifatida mamlakatning yagona transport majmuasi namoyon bo‘ladi. Ushbu majmua umumiy foydalaniladigan magistral transport tarmoqlari, umumiy foydalanilmaydigan transport tizimlari, logistika markazlari, terminallar, yuk ortish-tushirish majmualari, kirish yo‘llari, servis korxonalari va boshqa yordamchi infratuzilmalarni o‘z ichiga oladi[9].[2] Yagona transport tizimi tarkibiga avtomobil, temir yo‘l, havo, dengiz, daryo va quvur transporti kirib, ular mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga xizmat ko‘rsatadi hamda hududlararo iqtisodiy aloqalarni ta’minlaydi.

Transport bozori iqtisodiy tabiatiga ko‘ra tabiiy monopoliyalar va raqobat muhiti uyg‘unlashgan murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi. Shu sababli transport sohasida davlat tomonidan tartibga solish, strategik boshqaruv va nazoratni amalga oshirish zarurati mavjud bo‘ladi. Ayniqsa, temir yo‘l magistrallari, aeroportlar, magistral quvur tarmoqlari va yirik logistika infratuzilmalari tabiiy monopoliyaga mansub bo‘lib, ularning samarali faoliyat yuritishi davlat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi[10].

Transport tizimi o‘zining murakkab ishlab chiqarish-iqtisodiy va tashkiliy tuzilishi bilan boshqa iqtisodiyot tarmoqlaridan ajralib turadi. Har bir transport turi hududiy joylashuvi, texnologik xususiyatlari, tashish imkoniyatlari va iqtisodiy samaradorligi bilan tavsiflanadi. Masalan, temir yo‘l transporti katta hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga nisbatan arzon narxlarda tashish imkoniyatiga ega bo‘lsa, avtomobil transporti yuklarni manzildan manzilgacha yetkazib berish qulayligi bilan ajralib turadi. Havo transporti yuqori tezlik va xalqaro integratsiya imkoniyatlari bilan tavsiflanadi, quvur transporti esa energetik resurslarni uzluksiz tashish tizimi sifatida muhim o‘rin egallaydi[11].

Transport majmuasi iqtisodiyotning ishlab chiqarish infratuzilmasi sifatida tovar qiymatini yaratish jarayonining davomiyligini ta’minlaydi. Chunki ishlab chiqarilgan mahsulot iste’molchiga yetkazib berilmaguncha uning iqtisodiy qiymati to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Shu sababli transport tizimi ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi bog‘lovchi

[8] Абдуллаев А.А. Transport iqtisodiyoti. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – Б. 12.
[9] Левиков Г.А. Экономика транспорта. – М.: Транспорт, 2020. – С. 24.
[10] Самуэльсон П., Нордхаус У. Экономика. – М.: Вильямс, 2019. – С. 682.
[11] Rodrigue J.P. The Geography of Transport Systems. – New York: Routledge, 2022. – P. 41.

bo‘g‘in sifatida faoliyat yuritadi[12]. Transport tizimi orqali xomashyo, tayyor mahsulotlar, energiya resurslari va yo‘lovchilar harakati amalga oshiriladi, natijada iqtisodiy makonning yaxlitligi ta’minlanadi.

Transport iqtisodiyoti fanining o‘rganish ob’ekti faqat transport korxonalari bilan chegaralanmaydi. Mazkur fan logistika markazlari, servis korxonalari, ta’mirlash ishlab chiqarishlari, ombor xo‘jaliklari, kapital qurilish tizimlari, transport kommunikatsiyalari va transport xizmatlarini tashkil etuvchi boshqa infratuzilmalarni ham qamrab oladi. Bundan tashqari, yuk tashish, yo‘lovchi tashish, tranzit tashuvlar, multimodal logistika xizmatlari ham transport iqtisodiyotining muhim tadqiqot ob’ektlari hisoblanadi[13].

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida transport tizimi iqtisodiy o‘sishning eng muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiyotida logistika zanjirlarining murakkablashuvi, elektron tijorat hajmining ortishi, xalqaro savdo hajmining kengayishi transport tizimining iqtisodiy ahamiyatini keskin oshirmoqda. Ayniqsa, “raqamli logistika”, “aqlli transport tizimlari”, “yashil transport” va “barqaror transport infratuzilmasi” kabi tushunchalar zamonaviy transport iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishlariga aylanmoqda[14].

2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida transport va logistika sohasi iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Xususan, barcha transport turlari orqali jami 1 601,0 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 4,3 % ga oshgan. Transport yuk aylanmasi esa 84 021,1 mln tonna-kilometrni tashkil etib, 1,9 % lik o‘sish qayd etilgan.

Transport turlari tarkibida avtomobil transportining ulushi eng yuqori bo‘lib, umumiy yuk tashish hajmining 89,6 % aynan ushbu transport turiga to‘g‘ri kelgan. Temir yo‘l transportining ulushi 6,7 %, quvur transporti 3,7 % va havo transporti 0,01 % ni tashkil etgan. Bu holat mamlakat ichki iqtisodiy aloqalarida avtomobil transportining yetakchi rol o‘ynayotganligini ko‘rsatadi.

2025-yil davomida avtomobil transportida 1 434,5 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 4,7 % ga oshgan.

Shu bilan birga, avtomobil transporti yuk aylanmasi 26 110,3 mln tonna-kilometrni tashkil etib, 7,2 % lik o‘sish qayd etilgan. Mazkur holat mamlakatda ichki logistika xizmatlari va hududiy iqtisodiy integratsiyaning rivojlanayotganligini anglatadi.

---

[12] Котлер Ф. Основы маркетинга. – СПб.: Питер, 2021. – С. 512.

[13] Хейне П. Экономический образ мышления. – М.: Диалектика, 2020. – С. 217.

[14] World Bank. Transport Services and Economic Development Report. – Washington DC, 2024. – P. 18.

Temir yo‘l transportida esa 2025-yil davomida 107,9 mln tonna yuk tashilib, 5,1 % lik o‘sish qayd etilgan. Ayniqsa, tranzit va import yuklar hajmining oshishi temir yo‘l transportining iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Xususan, Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy va Qirg‘iz Respublikasidan kelayotgan yuk oqimining ortishi O‘zbekistonning xalqaro transport koridorlaridagi o‘rnini mustahkamlamoqda.

Havo transporti sohasida ham yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda. 2025-yilda havo transporti orqali tashilgan yuklar hajmi 205,2 ming tonnani tashkil etib, 20,7 % ga oshgan. Bu esa elektron tijorat, tezkor logistika va xalqaro yuk tashuvlariga bo‘lgan talabning ortayotganligini ko‘rsatadi.

Transport iqtisodiyotining predmeti transport tizimida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarni o‘rganishdan iboratdir. Jumladan, transport korxonalari va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o‘rtasida yuzaga keladigan ishlab chiqarish munosabatlari, transport xizmatlari iste’molchilari va transport tashkilotlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar, davlat boshqaruvi organlari va transport subyektlari o‘rtasidagi tartibga solish mexanizmlari transport iqtisodiyotining asosiy predmetini tashkil etadi[15].

Bundan tashqari, transport iqtisodiyoti mehnat jamoalari, transport korxonalari bo‘linmalari, logistika operatorlari va servis xizmatlari o‘rtasidagi iqtisodiy manfaatlar tizimini ham tadqiq etadi. Ushbu ishlab chiqarish munosabatlari iqtisodiy qonunlar asosida shakllanadi. Xususan, qiymat qonuni, vaqtni tejash qonuni, mehnat unumdorligini oshirish qonuni va ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga mosligi qonuni transport iqtisodiyotining nazariy asoslarini tashkil etadi[16].

Transport tizimining samaradorligi ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy sharoitda transport tizimida raqamlashtirish, GPS monitoring, elektron logistika platformalari, sun’iy intellekt elementlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va elektron hujjat aylanish tizimlari keng joriy qilinmoqda. Natijada transport xizmatlari sifati oshib, logistika xarajatlari kamaymoqda hamda yuk yetkazib berish tezligi ortmoqda[17].

2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 050 292,5 mlrd so‘mni tashkil etib, 14,7 % ga oshgan. Xizmatlar tarkibida tashish va saqlash xizmatlarining yuqori o‘sishi

[15] Гаджинский А.М. Логистика. – М.: Дашков и К, 2021. – С. 44.
[16] Маркс К. Капитал. – М.: Эксмо, 2020. – С. 311.
[17] OECD. Digital Transformation of Transport Systems. – Paris, 2024. – P. 27.

transport tizimining xizmatlar iqtisodiyotidagi rolini yanada kuchaytirgan.

2025-yilning yanvar–dekabr oylarida tashish va saqlash hamda axborot va aloqa xizmatlarining yalpi qo‘shilgan qiymati 149 508,8 mlrd so‘mni tashkil etib, ushbu sohada 14,5 % lik o‘sish kuzatilgan. Bu esa transport-logistika tizimining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi va iqtisodiy ahamiyati tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Transport iqtisodiyoti fanining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– transport tizimining iqtisodiy mohiyatini o‘rganish;

– transport xizmatlari bozorining rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq etish;

– transport korxonalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash;

– transport infratuzilmasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash;

– yuk va yo‘lovchi tashish jarayonlarini optimallashtirish;

– logistika xarajatlarini kamaytirish va xizmatlar sifatini oshirish;

– innovatsion va raqamli texnologiyalarni transport tizimiga joriy etish;

– transport xavfsizligini ta’minlash;

– xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

– ekologik barqaror transport tizimini shakllantirish;

– transport tizimini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishdan iboratdir[18].

Transport iqtisodiyoti o‘z tadqiqotlarida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, balans usuli, ekspert baholash, prognozlash va optimallashtirish usullaridan keng foydalanadi. Ayniqsa, zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida transport oqimlarini boshqarish transport tizimi samaradorligini oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda.[19]

Umuman olganda, transport iqtisodiyoti fani transport tizimining iqtisodiy asoslarini, uning mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rnini, transport xizmatlari bozorining rivojlanish qonuniyatlarini hamda zamonaviy innovatsion rivojlanish tendensiyalarini o‘rganadigan muhim iqtisodiy fan hisoblanadi. Transport tizimining samarali faoliyat yuritishi

[18] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Транспорт ва логистика тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. – Т., 2024.

[19] Винокуров Е.Ю. Транспортная логистика. – СПб.: Питер, 2022. – С. 58.

iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, hududlararo integratsiyani kuchaytirish, xalqaro savdo hajmini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi[20].

1.2. Innovasion iqtisodiyot sharoitida transportning rolini baholash

So‘nggi o‘n yilliklar davomida dunyo iqtisodiyotida, jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham iqtisodiy munosabatlarning tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslarida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modelga o‘tish mamlakat iqtisodiy hayotining barcha sohalarida chuqur tarkibiy islohotlarni yuzaga keltirdi. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi natijasida ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol jarayonlari yangi iqtisodiy mexanizmlar asosida rivojlana boshladi[21].

Rejali iqtisodiyot sharoitida davlat tomonidan qat’iy nazorat qilinadigan xo‘jalik yuritish tizimi amal qilgan bo‘lsa, bozor iqtisodiyotida iqtisodiy subyektlarning mustaqilligi, erkin raqobat, xususiy mulkchilik va iqtisodiy manfaatdorlik asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur model tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash qonunlariga tayangan holda shakllanadi hamda sotuvchi va xaridorlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning erkin rivojlanishini ta’minlaydi[22].

Bozor iqtisodiyoti tizimida iqtisodiy munosabatlarning asosiy mazmuni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish va iste’mol qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bozor sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida amal qilib, aynan shu mexanizm orqali mahsulotlarning ijtimoiy foydaliligi aniqlanadi. Bozor orqali ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning iste’molchilar tomonidan tan olinishi yuz beradi hamda iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishi ta’minlanadi[23].

Bozor subyektlari odatda ikki yirik guruhga ajratiladi: sotuvchilar va xaridorlar. Sotuvchilar bozorga tovar va xizmatlarni taklif etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘lsa, xaridorlar ushbu mahsulot va xizmatlarga talab bildiruvchi iste’molchilar hisoblanadi. Bozor ushbu subyektlarning manfaatlarini bir-biriga bog‘laydi, muvofiqlashtiradi va

[20] Шадиева Г.М. транспорт иқтисодиёти. – Самарқанд: SamISI, 2023. – Б. 91.
[21] Samuyelson P., Nordxaus U. *Ekonomika.* – Moskva: Vilyams, 2019. – B. 64.
[22] Xeyne P. *Ekonomicheskiy obraz myshleniya.* – Moskva: Dialektika, 2020. – B. 91.
[23] Kotler F. *Osnovi marketinga.* – Sankt-Peterburg: Piter, 2021. – B. 136.

iqtisodiy muvozanatni shakllantiradi. Natijada ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi[24].

Bozorning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan mahsulotlar va xizmatlarni iste’molchilarga yetkazib berishdan iboratdir. Aynan bozor orqali ishlab chiqarilgan mahsulot o‘z iste’molchisini topadi, ishlab chiqarish hajmi shakllanadi va iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishi amalga oshiriladi. Shu jihatdan bozor ishlab chiqarish bilan iste’mol o‘rtasidagi eng muhim iqtisodiy bog‘lovchi mexanizm hisoblanadi[25].

Bozor iqtisodiyoti tizimida turli xil bozor shakllari amal qiladi. Jumladan, tovar bozori sotuvchi va xaridorlar o‘rtasidagi tovar hamda xizmatlar ayirboshlanishi bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Moliyaviy bozor pul mablag‘lari, investitsiyalar va kapital harakati bilan bog‘liq iqtisodiy aloqalarni qamrab oladi. Mehnat bozori esa ish beruvchilar bilan xodimlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida shakllanadi[26].

Mazkur bozorlar tizimida transport bozori alohida o‘rin egallaydi. Tor ma’noda transport bozori xizmatlar bozorining tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq keng ma’noda qaralganda, iqtisodiyotdagi barcha bozorlarning samarali faoliyat yuritishi transport tizimisiz mumkin emas. Chunki ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchiga yetkazib bermasdan turib, ularning iqtisodiy qiymatini amalga oshirish imkonsizdir[27].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy aloqalarni ta’minlash transport tizimining samarali faoliyat yuritishiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlari, multimodal tashuvlar, elektron tijorat va xalqaro savdo jarayonlarining kengayishi transportning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yanada oshirmoqda[28].

Transport hech qanday yangi moddiy mahsulot yaratmaydi. Biroq u tovarlar va odamlarni makonda harakatlantirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondiradi. Shu jihatdan transport sanoat va qishloq xo‘jaligida boshlangan ishlab chiqarish jarayonining davomiyligini ta’minlaydi. Mahsulot ishlab chiqarilgan hududdan iste’mol qilinadigan

[24] Abdullayev A.A. *Iqtisodiyot nazariyasi.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – B. 153.
[25] Samuyelson P., Nordxaus U. *Ekonomika.* – Moskva: Vilyams, 2019. – B. 158.
[26] OECD. *Market Economy and Economic Systems Report.* – Paris, 2023. – P. 27.
[27] Levikov G.A. *Ekonomika transporta.* – Moskva: Transport, 2020. – B. 49.
[28] Rodrigue J.P. *The Geography of Transport Systems.* – New York: Routledge, 2022. – P. 52.

hududgacha yetkazilgandan keyingina uning qiymati to‘liq amalga oshadi. Shu sababli transport ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi[29].

Quyidagi rasmda innovatsion iqtisodiyot sharoitida transport tizimining iqtisodiy jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan.



1.2-rasm. Innovatsion iqtisodiyotda transport tizimining o‘rni

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyot sharoitida transport tizimi raqamli texnologiyalar, elektron tijorat va logistika tizimlari bilan uzviy integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, multimodal transport tizimlari, avtomatlashtirilgan logistika markazlari va sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlari transport xizmatlari samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda[30].

Bugungi kunda transport tizimida GPS monitoring, elektron hujjat aylanishi, aqlli logistika platformalari va raqamli dispetcherlik tizimlarining keng qo‘llanilishi transport xarajatlarini kamaytirish hamda yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, “aqlli transport tizimlari” (Intelligent Transport Systems – ITS) zamonaviy logistika jarayonlarining eng muhim elementlaridan biri sifatida shakllanmoqda[31].

[29] Gadjinskiy A.M. *Logistika.* – Moskva: Dashkov i K, 2021. – B. 59.
[30] OECD. *Digital Transformation of Transport Systems.* – Paris, 2024. – P. 41.
[31] OECD. *Smart Transport Infrastructure Outlook.* – Paris, 2024. – P. 37.

O‘zbekiston Respublikasida ham transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish, avtomobil va temir yo‘l infratuzilmasini rekonstruksiya qilish, logistika markazlarini tashkil etish hamda raqamli transport tizimlarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakatning xalqaro tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda[32].

2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida barcha transport turlari orqali 1 601,0 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 4,3 foizga oshgan. Transport yuk aylanmasi esa 84 021,1 mln tonna-kilometrni tashkil etgan. Bu mamlakat iqtisodiyotida transport xizmatlariga bo‘lgan talabning barqaror ravishda ortib borayotganligini ko‘rsatadi[33].Ayniqsa, avtomobil transportining ulushi yuqori bo‘lib, umumiy yuk tashish hajmining 89,6 foizi ushbu transport turiga to‘g‘ri kelgan. Temir yo‘l transporti ulushi 6,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, quvur transporti 3,7 foiz va havo transporti 0,01 foiz ulushni egallagan. Mazkur holat ichki iqtisodiy aloqalarda avtomobil transportining ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi[34].

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ekologik xavfsizlik masalalari ham transport tizimining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Yashil logistika konsepsiyasi asosida energiya tejamkor transport vositalari, elektromobillar, ekologik toza yoqilg‘ilar va karbon chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Natijada transport tizimining ekologik barqarorligini ta’minlashga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda[35].

Quyidagi jadvalda transport tizimining innovatsion iqtisodiyotdagi asosiy funksiyalari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri keltirilgan.

Quyidagi jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, transport tizimi innovatsion iqtisodiyotning barcha asosiy elementlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, raqamli logistika, multimodal tashuvlar va elektron monitoring tizimlari iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynamoqda. Transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi mamlakatning raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi[36].

[32] O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ma’lumotlari. – Toshkent, 2025.
[33]O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – Toshkent, 2025.
[34] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – Toshkent, 2025.
[35] UNCTAD. *Green Logistics and Sustainable Transport Report.* – Geneva, 2024. – P. 44.
[36] World Economic Forum. *Global Competitiveness Report.* – Geneva, 2024. – P. 102.

1.1-jadval.

Innovatsion iqtisodiyotda transport tizimining asosiy funksiyalari

Transport funksiyasi	Iqtisodiy ahamiyati	Innovatsion natija
Yuk tashish	Tovar ayirboshlashni ta’minlaydi	Logistika tezlashadi
Yo‘lovchi tashish	Mehnat resurslari harakatchanligini oshiradi	Urbanizatsiya rivojlanadi
Multimodal logistika	Xarajatlarni kamaytiradi	Yetkazib berish samaradorligi oshadi
Raqamli monitoring	Nazoratni kuchaytiradi	Shaffoflik oshadi
Elektron logistika	Onlayn boshqaruvni ta’minlaydi	Vaqt tejaladi
Xalqaro tranzit	Eksport-import hajmini oshiradi	Integratsiya kuchayadi

Transportning innovatsion rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-demografik jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Transport tizimi hududlararo migratsiyani rivojlantiradi, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlaydi, xalqaro integratsiyani kuchaytiradi va aholi harakatchanligini oshiradi. Zamonaviy transport infratuzilmasining rivojlanishi hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi[37].

Shuningdek, zamonaviy transport tizimining rivojlanishi uzoq masofalarga mahsulotlarni tezkor va muntazam yetkazib berish imkonini yaratmoqda. Natijada ommaviy ishlab chiqarish samaradorligi oshib, xalqaro savdo hajmi kengaymoqda hamda ijtimoiy mehnat taqsimoti chuqurlashmoqda. Ayniqsa, xalqaro logistika koridorlarining rivojlanishi davlatlarning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini kuchaytirmoqda[38].

Bugungi kunda “Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa” transport koridorlari, “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi va multimodal logistika markazlari xalqaro iqtisodiy integratsiyaning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. O‘zbekistonning geostrategik joylashuvi esa mamlakatning

[37] UNDP. *Human Development Report.* – New York, 2024. – P. 91.
[38] WTO. *Global Trade and Transport Report.* – Geneva, 2024. – P. 22.

tranzit-logistika salohiyatini oshirish uchun katta imkoniyat yaratmoqda[39].

Shunday qilib, innovatsion iqtisodiyot sharoitida transport iqtisodiy o‘sish, logistika samaradorligi, xalqaro integratsiya, hududiy rivojlanish va aholi farovonligini ta’minlovchi strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu sababli transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli logistika tizimlarini joriy etish, multimodal tashuvlarni rivojlantirish va ekologik barqaror transport tizimlarini shakllantirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda[40].

1.3. Transport mahsulotlari va uning xususiyatlari

Transport mahsulotlari iqtisodiyotning o‘ziga xos mahsulot turlaridan biri hisoblanadi. Transport mahsuloti deganda odamlar, yuklar va turli moddiy boyliklarning vaqt va makonda fizik hamda kimyoviy xususiyatlarini o‘zgartirmagan holda bir hududdan boshqa hududga ko‘chirilishi tushuniladi. Shu sababli transport mahsuloti moddiy ishlab chiqarishning yakuniy natijasi emas, balki ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘lovchi xizmat sifatida namoyon bo‘ladi[41].

Transport mahsulotining asosiy iqtisodiy mazmuni yuklar va yo‘lovchilarni makonda harakatlantirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdan iboratdir. Transport tizimi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berish, mehnat resurslarining harakatchanligini ta’minlash, hududlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va logistika tizimining uzluksiz ishlashiga xizmat qiladi. Shu sababli transport mahsuloti zamonaviy iqtisodiyotda infratuzilmaviy xizmat sifatida strategik ahamiyat kasb etadi[42].

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida transport mahsulotining iqtisodiy mazmuni yanada kengaymoqda. Endilikda transport mahsuloti faqat yuk yoki yo‘lovchini tashish bilan cheklanib qolmay, balki logistika, axborot almashinuvi, elektron monitoring, marketing va servis xizmatlarini ham o‘z ichiga oluvchi kompleks xizmatlar tizimi sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, raqamli logistika platformalari va aqlli transport tizimlarining

[39] Asian Development Bank. *Central Asia Transport Corridors Report.* – Manila, 2024. – P. 57.
[40] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining transport va logistika tizimini rivojlantirishga oid qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2024.
[41] Levikov G.A. *Ekonomika transporta.* – Moskva: Transport, 2020. – B. 71.
[42] Rodrigue J.P. *The Geography of Transport Systems.* – New York: Routledge, 2022. – P. 67.

rivojlanishi transport mahsulotlarining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib kelmoqda[43].

Transport mahsulotlarining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular iqtisodiyotning barcha tarmoqlari faoliyati uchun zarur bo‘lgan infratuzilmaviy xizmatni ta’minlaydi. Transport vositalari yuk va yo‘lovchilarni korxona ichida, korxonalar o‘rtasida, hududlar, mintaqalar hamda davlatlar o‘rtasida tashish uchun zarur hisoblanadi. Tovarlarni harakatlantirish qo‘shimcha mehnat sarfini talab qiladi va natijada mahsulot tannarxi transport xarajatlari miqdoriga oshadi. Shu sababli mahsulotlarni tashish jarayonida ularning iste’mol qiymati hududiy jihatdan o‘zgaradi va yangi iqtisodiy qiymat shakllanadi[44].

Quyidagi rasmda transport mahsulotlarining iqtisodiy mazmuni va tarkibiy elementlari aks ettirilgan.



1.3-rasm. Transport mahsulotining shakllanish jarayoni

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, transport mahsuloti ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi iqtisodiy zanjirning ajralmas qismi hisoblanadi. Transport xizmatlari mahsulotlarni ishlab chiqarish hududidan iste’mol qilinadigan hududgacha yetkazib berish orqali iqtisodiy jarayonlarning uzluksizligini ta’minlaydi. Ayniqsa, logistika

[43] OECD. *Digital Transformation of Transport Systems.* – Paris, 2024. – P. 45.
[44] Marks K. *Kapital.* – Moskva: Eksmo, 2020. – B. 433.

tizimlari va transport infratuzilmasining rivojlanganligi mahsulotlarning tezkor va xavfsiz yetkazib berilishida muhim rol o‘ynaydi.[45]

Transport mahsulotining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u tashish jarayonining o‘zida yaratiladi va iste’mol qilinadi. Shu sababli transport mahsulotlarini oldindan ishlab chiqarib omborga joylashtirish yoki zaxira shaklida saqlash mumkin emas. Masalan, foydalanilmagan transport reysi yoki bo‘sh o‘rin iqtisodiy jihatdan yo‘qotilgan imkoniyat hisoblanadi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot ehtiyojlarini uzluksiz qondirish uchun transport vositalari va harakatlanuvchi tarkib zaxiralari mavjud bo‘lishi zarur[46].

Transport sohasining o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, mazkur tarmoq yangi moddiy mahsulot yaratmaydi. Shu sababli transport xizmatlari tannarxini hisoblashda ishlab chiqarish sanoatidagi kabi “xomashyo va asosiy materiallar” xarajatlari asosiy o‘rin egallamaydi. Transport xarajatlari tarkibida yoqilg‘i-energetika resurslari, amortizatsiya, mehnat haqi, texnik xizmat ko‘rsatish va logistika xarajatlari ustunlik qiladi[47].

Tovarlar yoki yo‘lovchilarni tashish jarayoni odatda uch asosiy bosqichdan iborat bo‘ladi:

1. Yuklarni yuklash yoki yo‘lovchilarni chiqarish;
2. Tashish jarayonini amalga oshirish;
3. Yuklarni tushirish yoki yo‘lovchilarni tushirish.

Mazkur bosqichlarning har biri transport mahsulotining yakuniy sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuklarni yuklash va tushirish jarayonlarining samarali tashkil etilishi logistika xarajatlarini kamaytirish va transport xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.[48]

Yuk tashish segmentida transport mahsulotlari bir qator iqtisodiy va texnik parametrlar bilan tavsiflanadi. Jumladan:

- transport korrespondensiyasi;
- jo‘natish va belgilangan manzil;
- yuk turi;
- tashish hajmi;
- yetkazib berish tezligi;
- ishonchlilik darajasi;
- xavfsizlik ko‘rsatkichlari;
- logistika sifati;

[45] Gadjinskiy A.M. *Logistika.* – Moskva: Dashkov i K, 2021. – B. 73.
[46] Vinokurov E.Yu. *Transportnaya logistika.* – Sankt-Peterburg: Piter, 2022. – B. 81.
[47] Levikov G.A. *Ekonomika transporta.* – Moskva: Transport, 2020. – B. 84.
[48] OECD. *Logistics Performance and Freight Systems Report.* – Paris, 2024. – P. 39.

- transport xarajatlari darajasi.

Mazkur ko‘rsatkichlar transport xizmatlarining raqobatbardoshligini aniqlashda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi[49].

Transport mahsulotlarining eng muhim xususiyatlaridan biri ularning nomoddiy xarakterga ega ekanligidir. Transport mahsuloti boshqa xizmatlar kabi moddiy shaklga ega emas. Shu sababli transport xizmatlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilish jarayonlari bir-biridan ajralmaydi. Transport mahsulotining nomoddiyligi uning buzilmasligi, o‘zaro almashtirib bo‘lmasligi va sifatining o‘zgaruvchanligi kabi xususiyatlarni yuzaga keltiradi[50].

Masalan, Toshkent–Samarqand yo‘nalishidagi transport xizmatini boshqa yo‘nalish bilan almashtirish mumkin emas. Har bir transport mahsuloti ma’lum vaqt, hudud va yo‘nalish bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli transport xizmatlari sifatini baholashda an’anaviy moddiy mahsulotlar uchun qo‘llaniladigan mezonlardan farqli ravishda alohida yondashuv talab qilinadi.[51]

Transport mahsulotining yana bir muhim xususiyati uning zaxirada saqlab bo‘lmasligidir. Transport xizmatlari ishlab chiqarilgan zahoti iste’mol qilinadi. Masalan, foydalanilmagan aviareys yoki bo‘sh yuk mashinasi keyinchalik qayta sotilishi yoki zaxirada saqlanishi mumkin emas. Shu sababli transport korxonalari transport vositalaridan maksimal darajada samarali foydalanishga intiladi[52].

Transport mahsulotlarini o‘lchash ham murakkab iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Chunki transport faoliyatini oddiy bitta ko‘rsatkich bilan baholash mumkin emas. Shu sababli transport mahsulotlarini o‘lchash uchun bir nechta iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi[53].

Transport mahsulotlarini o‘lchashning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Tashilgan yuk hajmi va yo‘lovchilar soni;
2. Yuk aylanmasi va yo‘lovchi aylanmasi;
3. Qisqartirilgan tonna-kilometr ko‘rsatkichlari;
4. Transport xizmatlaridan olingan daromadlar.

Quyidagi formula qisqartirilgan tonna-kilometr ishini aniqlashda qo‘llaniladi

[49] World Bank. *Global Logistics Development Report.* – Washington DC, 2024. – P. 54.
[50] Kotler F. *Marketing Management.* – London: Pearson, 2021. – P. 214.
[51] Rodrigue J.P. *The Geography of Transport Systems.* – New York: Routledge, 2022. – P. 93.
[52] OECD. *Transport Efficiency Outlook.* – Paris, 2024. – P. 28.
[53] Abdullayev A.A. *Transport iqtisodiyoti.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – B. 118.

$$\sum Pl_{прив} = \sum Pl_{гр} + \sum Пl \cdot K_{пр}$$

Bu yerda:

- ∑Plgr – yuk aylanmasi;
- ∑Pl – yo‘lovchi aylanmasi;
- Kpr – pasaytirish koeffitsienti.

Temir yo‘l transportida mehnat unumdorligini baholashda mazkur koeffitsient odatda 2 ga teng deb olinadi. Bu esa yo‘lovchi tashishning yuk tashishga nisbatan yuqori mehnat sig‘imiga ega ekanligini ifodalaydi[54].

Quyidagi jadvalda transport mahsulotlarining asosiy xususiyatlari keltirilgan.

1.2-jadval.

Transport mahsulotlarining asosiy xususiyatlari

Xususiyat	Mazmuni	Iqtisodiy ahamiyati
Nomoddiylik	Moddiy shaklga ega emas	Xizmat sifati muhim ahamiyat kasb etadi
Saqlanmaslik	Zaxirada saqlab bo‘lmaydi	Transport vositalaridan samarali foydalanish talab qilinadi
Uzluksizlik	Ishlab chiqarish va iste’mol bir vaqtda amalga oshadi	Logistika jarayonlari tezlashadi
Hududiy bog‘liqlik	Muayyan yo‘nalish bilan bog‘liq	Transport koridorlari rivojlanadi
Komplekslik	Logistika va servis xizmatlarini qamrab oladi	Integratsiyalashgan xizmatlar rivojlanadi

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, transport mahsulotlari boshqa moddiy mahsulotlardan tubdan farq qiladi. Ayniqsa, transport xizmatlarining nomoddiyligi va saqlab bo‘lmasligi transport korxonalaridan yuqori darajadagi logistika samaradorligi va boshqaruv tizimini talab qiladi[55].

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida transport mahsulotlari foydalanuvchilarga yetkazib berishning to‘liq sikli bo‘yicha ko‘rsatiladigan kompleks xizmat sifatida qaralmoqda. Endilikda transport mahsulotlari tarkibiga logistika, marketing, servis, elektron monitoring, axborot texnologiyalari va raqamli boshqaruv tizimlari ham kirib bormoqda. Shu sababli zamonaviy transport mahsulotlari iqtisodiyotning eng innovatsion xizmat turlaridan biri sifatida shakllanmoqda.[56]

[54] Vinokurov E.Yu. *Transportnaya logistika.* – Sankt-Peterburg: Piter, 2022. – B. 95.
[55] World Economic Forum. *Global Competitiveness Report.* – Geneva, 2024. – P. 119.
[56] OECD. *Innovation in Transport and Logistics Systems.* – Paris, 2024. – P. 46.

1.4. Har xil transport turlarining funktsional xususiyatlari

Transport (lot. transporto — tashiyman) — ijtimoiy moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i. yuklarni va yo‘lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat viloyat va tumanlari, korxonalari, xalq xo‘jalik tarmoqlari o‘rtasida, shuningdek, mamlakat ichida ayirboshlash va aloqani ta’minlaydi[57].

Quyidagi transportlar mavjud: yer usti transporti (temir yo‘l, avtomobil, quvur yo‘llari), suv transporti (dengiz va daryo), havo transporti (aviatsiya). Vazifasiga ko‘ra ichki ishlab chiqarish. (sanoat) transportiga va umumiy foydalaniladigan transportga bo‘linadi. Bu transport turlari bilan bir qatorda shaxsiy foydalaniladigan avtotransportlarxam mavjud. Vazifasi va xususiyatiga ko‘ra, temir yo‘lovchilar va yuk tashuvchi transportga bo‘linadi. Ichki ishlab chiqarish. transporti bevosita moddiy ne’matlar ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiladi va korxona ishlab chiqarish vositalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumiy foydalaniladigan transport (yer usti, suv va havo) ijtimoiy ishlab chiqarish.da muhim sohani tashkil etadi. Umumiy foydalaniladigan Transportning moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida paydo bo‘lishi sanoat to‘ntarishi bilan bog‘liq.

Mamlakatlar o‘rtasida tashqi savdoning o‘sishi dengiz kemachiligining rivojlanishiga turtki berdi. Avtotransport 19-asrning oxirida paydo bo‘ldi, 20-asrning 20-yillarida qisqa masofaga yuk va yo‘lovchilar tashishni amalga oshirib, temir yo‘l va daryo Transport bilan raqobat qila boshladi. Fuqaro havo transporti 20-asrning 1-choragida vujudga keldi.

20-21-asrlarda jahon transporti tizimi juda yuksaldi. Rivojlangan mamlakatlarda transport tizimlarining barcha transport turlari (AQSH, Kanada) yoki ayrim transport turlari (G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Yaponiya)ning yuksak darajada rivojlanganligi bilan tavsiflanadi.

20-asr boshlariga qadar O‘zbekistonda yuk va yo‘lovchilar, asosan, temir yo‘l, otulov transportlarida, tuya, xachir va boshqa yuk tashuvchi hayvonlarda tashilgan. 20-asrning 20-yillaridan avtomobil va xavo transporti, yirik sanoat korxonalari qurilishi bilan sanoat transporti vujudga keldi. 80-yillar oxiriga kelib respublika transportining moddiytexnika bazasi birmuncha yaxshilandi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi.da ishlab chiqarish.ning o‘sishi, keng miqyosdagi kapital

[57] https://uz.wikipedia.org/wiki/Transport

qurilishi va transport moddiytexnika bazasining yuksalishi bilan yuk va yo‘lovchilar tashish hajmlari ham orta bordi.

Respublika mustakillikka erishganidan keyin transportning xalq xo‘jaligiga va ahrliga xizmat ko‘rsatishini tubdan yaxshilash va transportni boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadlarida "O‘zbekiston havo yo‘llari" milliy aviakompaniyasi (1992-yil 28-yanvar), "O‘zbekiston avtomobil transporti" davlataksiyadorlik korporatsiyasi (1993-yil 8-yanvar), "O‘zbekiston temir yo‘llari" davlataksiyadorlik kompaniyasi (1994-yil 7-noyabr) va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakatda transport korxonalari davlat ishtirokidagi aksiyadorlik, ochiq turdagi aksiyadorlik, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi. Respublikada avtotransport vositalarining bir qismi (avtobuslar, yuk va yengil mashinalar) jamoa xo‘jaliklari, fuqarolarning mulkiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniladigan yuk va yo‘lovchilar tashuvchi transportning barcha turi —temir yo‘l, avtomobil, aviatsiya, shahar elektr transporti (tramvay,, trolleybus, metropoliten), daryo transporti, quvur yo‘llari transporti, shuningdek, umumiy foydalanilmaydigan (sanoat) transporti turlari — temir yo‘l, avtomobil, tasmali. transport, osma arqon transporti rivoj topgan (yana quyidagilar Avtomobil transporti, Daryo transporti, Dengiz transporti, Havo transporti, Temir yo‘l transporti, Shahar transporti). Respublikaning transport tizimi temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan temir yo‘l vokzallari, styalari, bekatlari, yuk omborlari, pristanlar, g‘avo flotining yirik aerovokzallari va boshqa infratuzilma bo‘linmalarini qamraydigan xalq xo‘jaligi kompleksini tashkil etadi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2021-yil 1-sentabrdan barcha transportlarga texnik ko‘rikdan o‘tgani to‘g‘risidagi talonlarni berish amaliyoti bekor qilinadi (xorijiy davlatlarga chiqadigan transportlar bundan mustasno). Shuningdek, qaror bilan transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom ham tasdiqlandi[58].

Har xil turdagi transportning tashkilotlari, nazorat qiluvchi organlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari yo‘lovchilar va yuklarni tashish bo‘yicha bajariladigan funktsiyalarning xilma-xilligi, ushbu

[58]https://bugun.uz/2021/03/10/ozbekistonda-1-centyabrdan-yangi-transport-vositalari-tehnik-korikdan-otkazilmajdi/

tashishlarning hajmi va shartlari bilan tavsiflanadi, bu esa boshqaruvni tashkil etish va boshqaruv qarorlarini tanlashga ta’sir qiladi.

Ba’zi korxonalar faqat yo‘lovchilarni tashishga ixtisoslashgan, boshqalari faqat yuklarni tashishga ixtisoslashgan; yo‘lovchi va yuk tashishni amalga oshiradigan aralash turdagi korxonalar mavjud. Funktsiyalarning ixtisoslashuvidan qat’i nazar, korxonalar turli xil texnik va iqtisodiy xususiyatlarga ega, bu ularning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatini tashkil etishga, transport bozorlarida iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ta’sir qiladi.

Temir yo‘l transporti.[59] - yuk va yo‘lovchilarni lokomotiv va motorvagonlar vositasida temir yo‘l bo‘ylab tashiydigan transport turi. Uning paydo bo‘lishi yirik sanoat taraqqiyoti, ayniqsa, tog‘kon va metallurgiya sanoati taraqqiyoti bilan bog‘liq. 18-asr oxiri va 19-asr boshlarida kapitalizmning rivojlanishi yuk aylanmasi tuzilmasini tubdan o‘zgartirdi, temir rudasi, ko‘mir, qurilish materiallari va shu kabini ommaviy tashishga ehtiyoj o‘sdi.

1825-yil jahonda birinchi umumiy foydalanishdagi Stokton — Darlington temir yo‘l (21 km, Angliya) J.Stefenson tomonidan qurilgan.

30-yillarda Avstriya, Germaniya, Belgiya, Fransiya, Rossiyada xam temir yo‘l kurildi. 1850—70 yillarda Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika va Avstraliyada xam qurila boshladi. 20-asr boshlarida jahonda temir yo‘l tarmog‘i 1 mln. km dan oshdi. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida temir yo‘l tarmoklarini tez rivojlantirgan sabablardan biri, uning katta harbiystrategik ahamiyatga egaligi bo‘lib, Transport yo‘lit. xo‘jalik, iktisodiy va strategik vazifalarga xizmat qilish bilan bir qatorda mamlakatlararo, hududlararo madaniy aloqalarni rivojlantirish, ijtimoiy masalalar, xalkaro turizm sohasida xam ishtirok etadi, mamlakatning ilmiytexnik taraqqiyotiga xam salmokli hissa ko‘shadi. Temir yo‘l transportining afzalliklaridan biri — boshqa transportga nisbatan yuk tashish kiymatining arzonligi, yilning har qanday faslida va bir yo‘la katta hajmdagi yuklarni tashish imkoniyatiga egaligidir.

O‘zbekistonda dastlabki temir yo‘l 1886—88 yillarda Zakaspiy temir yo‘lining Forob styasidan Samarqandgacha yotqizilgan (podsho Rossiyasi tomonidan imperiyaning jan. chegaralarini mustahkamlashga qaratilgan va harbiy strategik maqsadlardagi Zakaspiy harbiy temir yo‘l nomi bilan 1880-yil noyabrdan 1886-yil dekabrgacha qurib bitkazilgan Krasnovodsk — Chorjo‘y temir yo‘lning davomi). 1888-yil may oyida

[59] https://uz.wikipedia.org/wiki/Temir_yo%CA%BBl_transporti

Amudaryo orkali 2,7 km uzunlikdagi yog‘och ko‘prik kurib bitkazilishi bilan temir yo‘lda Samarqandgacha poyezdlar qatnovi boshlandi.

Keyinchalik bu yo‘l 1895—1897-yillarda Ursatyevskaya (Xovos) styasidan Qo‘qongacha davom ettirildi. 1899-yil temir yo‘l Toshkentga yetkazildi (qarang Samarqand — Andijon temir puli). 1890-yil kuzida 1874-yilda Rossiya imperiyasining maxsus temir yo‘l komissiyasi qurish zarur deb topgan Toshkent— Orenburg temir yo‘l qurilishi boshlandi. 1906-yil yanvarda Toshkent — Orenburg temir yo‘l (Toshkent temir yo‘li) ishga tushirildi. 1907-yil Kogon—Buxoro, 1913—16 yillarda Farg‘ona halqa temir yo‘lning Qo‘qon—Namangan—Andijon qismi, 1913—15 yillarda Kogon—Amudaryo styasi va Qarshi—Kitob shoxobchalari kurildi. 1917-yilga qadar hozirgi O‘zbekiston hududida jami temir yo‘l uzunligi 1,1 ming km edi.

20-asrning 20y.laridan boshlab fuqarolar urushi yillarida vayron bo‘lgan temir yo‘l harakat tarkibi va yo‘l xo‘jaligini tiklash uchun zarur choralar kurildi. Shahar va portlarni birlashtiruvchi yangi temir yo‘l liniyalari kurilishiga ham e’tibor berildi. Farg‘ona (Iskobil) — Quvasoy (1922), Qarshi— Kitob (1924), Amudaryo (Samsonovo) — Termiz (1925), Asaka —Shahrixon (1931) va boshqa temir yo‘l liniyalari qurilib foydalanishga topshirildi. 1929—31 yillarda qurilgan uzunligi 1452 km bo‘lgan Turkiston—Sibir temir yo‘li (Turksib) O‘zbekiston temir yo‘l bilan ulandi.

30-yillarda O‘zbekiston temir yo‘lda EU seriyadagi yangi parovozlar ishlay boshladi, yirik styalarda vagonlar saralashda qulay bo‘lgan maxsus moslamalar, nim do‘nglik (gorka)lar, konteyner maydonlari kurildi, katta, masofalarda temir yo‘l liniyalari rekonstruksiya qilindi, poyezdlarning harakat tezligi oshirildi, yuk va yo‘lovchilar tashish ko‘paydi.

1941—1945 yillardagi urush davrida Temir yo‘l t.da front uchun zarur yuklar tashildi. Urushdan keyingi yillarda transportning bu soxasida tub o‘zgarishlar qilindi. Lokomotivlar kuvvati oshirildi, poyezdlar tig‘iz qatnaydigan joylarda ikkinchi yo‘llar qurildi. Parovozlar o‘rniga elektrovoz va teplovozlar ko‘llanildi. Styalarning texnika bilan jihozlanishi yaxshilandi. Bu davrda magistral yo‘llardan sanoat shaharlariga (Toshkent—Angren, Toshkent— Chirchiq) shoxobcha yo‘llar kurildi. 1963-yili Krasnovodsk—Boku parom yo‘lining ishga tushirilishi bilan Toshkent—Krasnovodsk liniyasi Ozarbayjon temir yo‘l bilan muntazam boglandi. 1964-yil O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston temir yo‘llari boshqaruvi Toshkentda bo‘lgan yagona O‘rta Osiyo temir yo‘lga birlashtirildi. 1971-yilda Qozog‘iston orqali

Rossiyaga chiqadigan Qo‘ng‘irot—Beynov temir yo‘l kurildi. 1982-yil Termiz shahri yaqinida Amudaryo orqali Afg‘onistonga o‘tadigan temir yo‘l va avtomobil yo‘li ko‘prigi foydalanishga topshirildi. Aksariyat viloyat markazlarida yangi temir yo‘l vokzallari kurildi.

1994-yil noyabrda O‘rta Osiyo temir yo‘lning O‘zbekiston Respublikasida joylashgan temir yo‘l korxonalari va bo‘limlari, loyihakonstruktorlik va boshqa tashkilotlari, muassasalari negizida “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasi tashkil etildi. Respublika temir yo‘l transportini rivojlantirish istiqbollari Iktisodiy hamkorlik tashkiloti mamlakatlarining Kvetta rejasida belgilangan vazifalar qatoridan o‘rin olgan.

21-asr boshida O‘zbekiston Transport yo‘li tarkibida ijtimoiy sohalar va ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan korxona muassasa va tashkilotlardan iborat bo‘lgan yagona texnologik ishlab chiqarish majmuiga aylandi.

Kompaniyaning temir yo‘ldan foydalanishga masʼul bo‘lgan Toshkent, Farg‘ona, Qo‘qon, Buxoro, Qo‘ng‘irot, Qarshi— Termiz mintaqaviy temir yo‘l uzellari faoliyat ko‘rsatadi (2004).

Yuk tashishda teplovozlar (respublika temir yo‘lda parovoz 1974-yilgacha ishlatildi), yo‘lovchilar tashishda teplovoz va elektrovozlar xizmat ko‘rsatadi. Transport yo‘lini elektrlashtirish dastlab 1970-yil Toshkent—Yangiyo‘l uchastkasida boshlangan. Keyinchalik Xo‘jakent—Sirdaryo liniyasi (148 km)da elektr poyezdlari katnovi yo‘lga qo‘yiddi. 1985-yildan temir yo‘lni o‘zgaruvchan tokda elektrlashtirishga o‘tildi. 1993-yilda Transport yo‘lining Xovos—Bekobod va Xovos—Jizzax liniyalari elektrlashtirildi. 2003-yildan Toshkent—Samarqand yo‘nalishida “Registon” elektropoyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning yagona temir yo‘l tarmog‘ini vujudga keltirish bo‘yicha uz. 700 km ga yaqin Navoiy — Uchquduq — Nukus temir yo‘li qurib bitkazildi, 223 km li Toshguzar — Boysun — Qumqo‘rg‘on temir yo‘li qurilishi boshlab yuborildi. Bu yo‘llar xududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasi tasarrufida asosiy temir yo‘lning foydalanish uzunligi 3992 km. Bundan tashqari, 1992,7 km stya yo‘llari va 362,4 km respublika korxonalari shoxobcha yo‘llaridan foydalaniladi. Elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyalari uzunligi 620 km (2004-yil 1 yanvar).

2003-yilda umumiy foydalaniladigan Transport yo‘li tarkibida asosiy qismi toshko‘mir, neft yuklari, qurilish yuklari, sement, kimyoviy va mineral o‘g‘itlar, don mahsulotlari va boshqalardan iborat bo‘lgan 45,1

mln. t yuk tashildi, yuk aylanmasi 19,1 mlrd.t. km ni tashkil etdi (2000-yilda tegishlicha 42,4; 15,4). Mamlakat ichida tashilgan jami yuklarning 9,7%, uzoq xorij mamlakatlariga jo‘natilgan yuklarning 40,7% Transport yo‘li tarkibi hissasiga to‘g‘ri keldi. Temir yo‘l transportida jo‘natilgan yo‘lovchilar esa 15,3 mln. kishidan, yo‘lovchi aylanmasi — 2,065 mlrd. yo‘lovchi. km dan iborat bo‘ldi (2000-yilda tegishlicha 14,5; 2,2).

“O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasining lokomativ parki yangi tipdagi teplovozlar, elektrovozlar, elektropoyezd (seksiyalar)laridan tashkil topgan. “O‘ztemiryo‘lmashta’mirlash” unitar korxonasi — Toshkent teplovoz ta’mirlash zdida yirik magistral teplovozlar ta’mirlanadi, harakatlanuvchi tarkib uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi. “O‘zvagonta’mir” aksiyadorlik jamiyatida barcha turdagi yuk tashish vagonlari ta’mirlanadi. 2001-yilda yo‘lovchi tashish vagonlarini ta’mirlaydigan “Toshkent yo‘lovchi vagonlarini ta’mirlash zdi” aksiyadorlik jamiyati tashkil qilindi. 1998-yildan kompaniya tarkibida asosiy faoliyati shahar atrofi, shaharlararo — mahalliy va xalqaro yo‘nalishlarda yo‘lovchi, pochta, qo‘l yuki tashishga ixtisoslashgan va bir kunda 10 mingdan ortiq fuqarolarga xizmat ko‘rsatadigan “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” aksiyadorlik jamiyati faoliyat ko‘rsatadi.

Respublika Transport yo‘lit. qurilishini loyihalash ishlarini Toshkent transport loyihalashqidiruv instituti (Tashgiprotrans, 1952) va Toshkent temir yo‘l loyiqalash — qidiruv instituti (“Toshtemiryo‘lloyiha”, 1969) olib boradi. Temir yo‘l transporti uchun muhandis va texnik xodimlar “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyasining Akmal Ikromov nomidagi Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti (1931), Toshkent (1932), Samarqand (1932), Xovos (1979) temir yo‘l transporti kollejlarida tayyorlanadi.

Jahonning barcha rivojlangan davlatlarida Transport yo‘lit. yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Bu transport turini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri yuqori tezlikda harakatlanuvchi yer usti transport turini joriy qilish hisoblanadi. Bu tizimda harakatlanish tezligi 200 km/soatdan yuqori bo‘lib, bunday temir yo‘llar 2-avlod temir yo‘l toifasiga kiritiladi. G‘arbiy Yevropa va Yaponiyaning ba’zi temir yo‘l uchastkalarida poyezdlar tezligi 350–500 km/soatga yetkazilgan. Rivojlangan mamlakatlarda 20-asrning 90y.larida temir yo‘l uzunligi (ming km): AQShda—205, Bukj Britaniyada — 16,6, Kanadada — 93,5, Fransiyada — 34,6, Yaponiyada —23,9, Italiyada — 25,8

Dengiz transporti[60]**.**– okean, dengiz, dengiz kanallari orqali kemalarda yuk va yo‘lovchi tashuvchi suv transporta turi. Xizmat ko‘rsatish doirasiga ko‘ra, uning ichki Dengiz transporti (bir mamlakat o‘rtasidagi portlararo qatnaydigan) va xalqaro Dengiz transporti (mamlakatlararo qatnaydigan) turlari mavjud.

Dengiz transporti vazifasiga ko‘ra, yo‘lovchilar, quruq va suyuq yuklarni tashuvchi hamda yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi kemalardan iborat bo‘ladi. Dengiz transporti tarixi taxminan miloddan avvalgi 6-4-asrlarda inson dengizni o‘rganib, o‘zlashtira boshlagach, paydo bo‘ldi. Dastlab eshkakli kemalar, miloddan avvalgi 3-asrlarda esa yelkanli kemalar kashf etildi. Bu kemalar bir necha asrlar mobaynida suv yo‘llari orqali aloqa bog‘lashda, savdo munosabatlari yuritishda keng qo‘llanildi. Sanoatning o‘sishi va xalqaro savdoning kengayishi bilan Dengiz transporti ham takomillashib bordi.

Bug‘ mashinasi ixtiro qilinganidan keyin birinchi bug‘ bilan harakatlanadigan mexanik dvigateli paroxodlar yaratildi. So‘ng o‘z navbatida, ichki yonuv dvigatelli teploxodlar, atom reaktorli — atom muzyorar kemalari ixtiro qilindi. Hozirgi zamonaviy Dengiz transporti murakkab muhandislik qurilmasi bo‘lib, ular kompyuterlashtirilgan avtomat boshqaruv va nazorat qurilmalari, murakkab elektron radionavigatsiya vositalari bilan ta’minlangan. Ulardan ayrimlarining yuk tashish quvvati 500 ming tonnagacha, asosiy elektr energiyasi quvvati 73,6 MVt (100 ming ot kuchi) gacha yetadi.

Hozirgi vaqtda kemalarda yo‘lovchi tashish o‘rnini havo transporti egallagan bo‘lib, ular faqat dengizda sayohat maqsadidagina amalga oshiriladi. Yuk tashish borasida Dengiz transportining salmog‘i katta bo‘lib, geografik xususiyatlarga ko‘ra bu ko‘rsatkich mamlakatlarda turlichadir. Dengiz transporti asosan AQSh, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Yaponiya, Germaniya, Rossiya, Polsha, Yugoslaviya va b. davlatlarda keng rivojlangan (masalan, Yaponiyada 1062 port, Frantsiyada 300 port bor, shundan 6 tasi eng yirik va hokazolar). 20-asrda Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O‘zbekistan uchun ham Dengiz transporti muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Buyuk Ipak yo‘lini tiklash loyihasi doirasida barpo etilgan Yevropa—Kavkaz—Osiyo transport yo‘lagi orqali Kaspiy dengizida Turkmanboshi, Boku, qora dengizda Poti, Batumi portlaridan Yevropa mamlakatlari yo‘nalishlarida yuklar zamonaviy Dengiz transportida tashiladi.

[60] https://milliycha.uz/dengiz-transporti/

Dengiz floti tarkibiga kiruvchi bandargoxlar, kema ishlab chiqarish va ta’mirlash zavodlari va boshqa Dengiz transportiga xizmat ko‘rsatadi.

Daryo transporti.[61]— transportning asosiy turlaridan biri; tabiiy (daryo, ko‘l) va sun’iy (kanal, suv ombori va boshqalar) suv havzalari orqali yuk va yo‘lovchi tashiydi. Vazifasiga ko‘ra, bir qancha davlatlar o‘rtasida tashqi savdo aloqalarida yuk tashishga xizmat qiluvchi magistral daryo yo‘llarida (mas, Dunay, Oder, Reyn, Amur, Paragvay va boshqalar), mamlakat ichida yirik mintaqalararo (mas, Yanszi, Volga, Missisipi), ichki hududiy aloqalarga xizmat ko‘rsatadigan mahalliy (hudud ichida) Daryo transporti turlari mavjud.

Daryo transporti kemalari foydalanish maqsadlariga ko‘ra transport, texnik va yordamchi kemalariga bo‘linadi. Transport kemalari tarkibiga yo‘lovchi, palubasida quruq yuk tashuvchi, tryumiga suyuq yuk tuldiriladigan yoki palubasida maxsus baklar o‘rnatilgan suyuq yuk (neft, neft mahsulotlari) tashuvchi, suruvchi va shatakchi kemalar kiradi. Texnik flot da daryolar tubini chuqurlashtiruvchi snaryadlar, suv yo‘llarini sozlashga xizmat ko‘rsatadigan yordamchi kemalardan foydalaniladi. Yordamchi kemalar ga ta’mirlash ustaxonalari, suzuvchi magazinlar, kemalar, paromlar, qum va shag‘al qazib oladigan jihozlar va boshqalar kiradi. Daryo transportida bug‘, yonilg‘i, elektr energiyasi, gaz dvigatellari yordamida harakat qiladigan kemalar (paroxod, teploxod, elektroxod) hamda barja va sollardan foydalaniladi. Daryo transportida yuk va yo‘lovchilarni tashish quruqlikda harakat qiluvchi transportga nisbatan ancha arzon (avtomobil transportiga nisbatan 3—5 marta).

Yuk va yo‘lovchilarni manzilga yetkazishda Daryo transportidan foydalanish qadimdan ma’lum. Miloddan ming yillar ilgari Mesopotamiya (Dajla va Furot daryolari) va Misr (Nil daryosi)da eshkakli va hatto, yelkanli kemalar ishlatilgan.

Dunyoda daryo yo‘llarining umumiy uzunligi 550 ming km ga yaqin. Yevropada Daryo transporti bir-muncha yaxshi rivojlangan. Masalan, Polshada Odra, Visla daryolari, Germaniyada Quyi Oder, O‘rta Elba va boshqalar, Vengriyada Dunay, Tisa, Kyoryosh, Fransiyada Reyn, Rossiyada Volga daryolarida yuk va yo‘lovchi tashuvchi kemalardan keng foydalaniladi. Shuningdek, AQSH, Braziliya, Kanada va boshqalar davlatlarda ham yuk tashishda Daryo transporti muhim ahamiyatga ega.

O‘rta Osiyoda qadimdan Amudaryo va Sirdaryoda qayiqlardan transport turi sifatida foydalanilgan. 18-asrda Rossiyaning boshqa mamlakatlar bilan savdo munosabatlari O‘rta Osiyoda daryo

[61] https://uz.wikipedia.org/wiki/Daryo_transporti

transportining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jahon bozorida rus xom ashyosi (yog‘och, don, kanop, momiq) va Rossiya orqali o‘tadigan sharq tovarlari (choy, ipak, paxta va boshqalar) ga talab ortdi. 1847-yilga kelib Orol dengizining shim. qirg‘og‘i va quyi Sirdaryoni egallagan Rossiya ruslarning tayanch punktlarini qo‘riqlash va yangi hududlarni o‘rganishga mo‘ljallangan Orol harbiy flotiliyasini tuzdi.

Amudaryoda bug‘ bilan yuradigan kemalarning uzluksiz qatnovi 1873-yildan yo‘lga qo‘yildi (shu yilning aprelda Orol dengizidan Nukus shahrigacha birinchi kema yurdi). 1877-yilda daryoning Chor-jo‘ygacha bo‘lgan qismi ham o‘rganildi, suv yo‘li uzaytirildi. 1887-yilga kelib Rossiyaning O‘rta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy mavqeini mustahkamlash maqsadida Amudaryo harbiy flotshshyasi tashkil etildi (Amudaryo harbiy flotiliyasini tashkil etish to‘g‘risidagi qaror 1893-yilda tasdiqlangan). 1913-yilda flotiliyada 8 paroxod, 14 barja bo‘lib, ular garnizonlarga xizmat ko‘rsatish, To‘rtko‘ldan Termizgacha bo‘lgan masofaga doimiy pochta, yo‘lovchi va yuk tashishni yo‘lga qo‘yishga mo‘ljallangan edi. 1923-yilda Amudaryo harbiy flotiliyasi natsionalizatsiya qilindi va “O‘rta Osiyo paroxodchiligi” aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Kema va qayiqlar qatnaydigan suv yo‘llarining umumiy uz. 887 km edi. O‘sha davrda O‘rta Osiyo suv yo‘llarida umumiy yuk ortish quvvati 7 ming t bo‘lgan 20 kema va 50 barja, umumiy yuk ortish quvvati 24 ming t bo‘lgan 1500 qayiqbor edi. 1923-yilda boshqaruv idorasi Toshkentda joylashgan O‘rta Osiyo paroxodchilik boshqarmasi tuzildi (1934-yilda boshqarma Chorjo‘yga ko‘chirildi, 1956-yildan O‘rta Osiyo paroxodchiligi sobiq Ittifoq Dengiz floti vazirligi ixtiyoriga o‘tkazildi).

1930-yilda Toshkentda dengiz texnikumi ochildi (1939-yilda Chorjo‘yga ko‘chirilgan). Xorazm vohasi, Qoraqalpog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston daryo transporti 50-yillarning 2-yarmigacha bu xududlarning iqtisodiy rivo-jida muhim o‘rin tutdi. 1950-yil Termizda daryo porti ochildi, 1952-yilda Xo‘jaylida kema ta’mirlash zavodi qurildi. Amudaryo sohillarida yangi Sharlavuq, To‘rtko‘l, Beruniy, Qoratov, Xo‘jayli bandargoh (pristan)lari foydalanishga topshirildi. 1980-yilga kelib O‘zbekistonda suv yo‘llarining umumiy uzunligi 2800 km ga yetdi. Amudaryoda Panj (Tojikiston) bandargo-qidan Mo‘ynoqqa qadar paroxodlar qatnovi amalga oshirildi.

Daryo suvining kamayishi va Orol dengizining qurib borishi natijasida suv yo‘llari keskin qisqardi, ammo shunga qaramay 1980-yil Daryo transportida 1420 ming tonna yuk tashildi.

1991-yilda O‘rta Osiyo respublikalari mustaqillikga erishganlaridan keyin O‘rta Osiyo paroxodchiligi boshqarmasi mulki Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston o‘rtasida taqsimlandi. 1994-yil 11-mayda O‘zbekistan Respublikasida joylashgan daryo floti bo‘linmalarini boshqarish tartibi qayta tashkil etildi. O‘rta Osiyo paroxodchiligining O‘zbekistondagi mulki va bo‘linmalari negizida “Termiz daryo porti”, “Xorazm daryo floti”, “Qoraqalpog‘iston daryo floti” ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi (1995). 2001 yil iyun oyidan O‘zbekistan avtomobil va daryo transporti agentligi (1998)ning Kemachilik registri va kemachilik inspeksiyasi bo‘limi flotning texnik holati va suv yo‘llarining holatini nazorat qilish ishlarini olib boradi.

Respublikada Termiz daryo porti, Sharlavuq, To‘rtko‘l, Beruniy, bratov, Xo‘jayli bandargoxlari, Amudaryo orqali To‘rtko‘l — Xonqa, Chalish — Beruniy suzma ko‘priklari, Xo‘jayli kema ta’mirlash zdi bor (2001). Termiz daryo porti yiliga 2 mln. t dan ortiq yukni qabul qilish — jo‘natish quvvatiga ega, Afg‘onistonning Hayraton bandargohi orqali eksport-import yuklarini yetkazib berish xalqaro ahamiyatga molik. Respublika daryo flotida 200 dan ortiq teploxod, shuningdek, barjalar, zemlesoslar, su-zuvchi ekskavatorlar, port kranlari va boshqalar yordamchi kemalar texnika vositalari bor. Respublikada suv yo‘llarining umumiy uzunligi 1000 km ga yaqin. Xalq xo‘jaligi yuklari asosan Termiz — Hayraton, Sharlavuq — To‘rtko‘l, Xo‘jayli — To‘rtko‘l, Xo‘jayli — Beruniy, Qoratov — Taxiatosh yo‘nalishlarida tashiladi. O‘zbekistonning port va bandargoxlari temir yo‘llar bilan bog‘langan.

Avtomobil transporti. Bu yuqori manevrlik, yuklarni uyma — uy" to‘g‘ridan-to‘g‘ri etkazib berish qobiliyati va yuklarni etkazib berishning nisbatan yuqori tezligi bilan tavsiflanadi-kuniga 350-400 km. va boshqalar. Yuklarni tashishning o‘rtacha narxi temir yo‘l narxidan 20-25 baravar yuqori. Yuklarni yaxshi yo‘llarda poezdlarda tashishda u 2-3 baravar kamayadi. Avtomobil transportida mehnat unumdorligi eng past-120-150 ming tonnagacha bir xodim uchun. Transport birliklarining cheklangan yuk ko‘tarish qobiliyati, transportning yuqori energiya va mehnat zichligi, transportning etarlicha yuqori muntazamligi va ularning xavfsizligi avtomobil transportining o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

Shunga qaramay, avtomobil shahar ichidagi va shahar atrofidagi transportda, shuningdek sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarida transportning texnologik turi sifatida ajralmas bo‘lib qolmoqda. Tashqi savdo yuklarini tashishda transport vositalarining roli ortib bormoqda.

Havo transporti. Ushbu turdagi transportning afzalliklari orasida “transport yo‘lagi” rolini o‘ynaydigan tabiiy muhitning mavjudligi, yuk va yo‘lovchilarni quruqlikning istalgan, eng chekka nuqtalariga va okeanlarga etkazishning yuqori tezligi kiradi. Havo transportida yuklarni tashish narxi temir yo‘l transportiga qaraganda 60-70 baravar yuqori. Yo‘lovchi tashish narxi yuk tashishga nisbatan 10-12 baravar past (umumiy og‘irligi 90 kg bo‘lgan 1 yo‘lovchini qo‘l yuki bilan tashish 1 tonna yukga teng). Havo transportining o‘rtacha tezligi soatiga 400 km ni tashkil qiladi. (pistonli samolyotlarda - 300 km / soatgacha, turbojet - 800-900, tovushdan tez - 2500 km / soatgacha).

Havo transportining kamchiliklariga yuqori energiya intensivligi, ob-havo sharoitlariga bog‘liqlik, tashiladigan yuklarning cheklangan o‘lchamlari va og‘irligi kiradi. Ushbu kamchiliklarga qaramay, havo transporti xalqaro yo‘lovchi tashishda asosiy transport turi sifatida o‘z mavqeini mustahkam saqlab kelmoqda. Uning ichki yo‘nalishlarda shaharlararo yo‘lovchi tashishdagi roli ham yuqoriligicha qolmoqda.

Yuk tashishda samolyotlar asosan erta sabzavot, meva va boshqa tez buziladigan mahsulotlarni, shuningdek pochta, qimmatbaho va kamyob yuklarni (qimmatbaho buyumlar, ehtiyot qismlar va boshqalar) uzoq masofalarga yetkazib berishda ishlatiladi. So‘nggi yillarda tashqi savdo yuklarini tashishda havo transportining roli ortib bormoqda.

Quvur transporti. Quvur transportining xususiyatlari (neft quvurlari, mahsulot quvurlari va gaz quvurlari) harakat tarkibining yo‘qligi, shuning uchun uning bo‘sh qatnovi, ob-havo va iqlim sharoitidan qat’iy nazar barqaror ishlashi, foydalanish va tashishning qulayligi, bunda haqiqiy tashish va yuklash va tushirish operatsiyalari yagona jarayonga birlashtiriladi.

Quvurlar ixtisoslashtirilgan transport turi bo‘lib, uning ishlashining iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Neft va neft mahsulotlarini quvurlar orqali haydash qiymati tegishli temir yo‘l tashish narxidan 2-3 baravar past. Operatsion xarajatlarda yuqori ulushni doimiy qurilmalarga xizmat ko‘rsatish xarajatlari egallaydi, ular nasos hajmiga juda bog‘liq emas, shuningdek energiya xarajatlari.

Xuddi shu yuk tashish quvvatiga nisbatan temir yo‘l investitsiyalaridan taxminan 2 baravar past. Neft yuklarini quyish tezligi quvur liniyasining diametriga bog‘liq va kuniga o‘rtacha 70-80 km. Operatsiyalarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning yuqori darajasi tufayli quvur transportida mehnat unumdorligi eng yuqori — 12 million tonnadan ortiq km.bitta xodim uchun.

Quvur transporti bir hil hajmdagi yuklarni ishlab chiqarish maydonlaridan purkash joylariga (hudud bo‘ylab taqsimlash) tashishda, oqim tezligi yiliga yuz minglab tonnadan millionlab tonnagacha bo‘lgan yuklarni tashishda qo‘llaniladi.

Xususiylashtirish (davlat tasarrufidan chiqarish) va aksiyalashtirish yillarida transportning ishlab chiqarish va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari tubdan o‘zgardi. Transport tarmoqlari yagona ishlab chiqarish va texnologik komplekslar sifatida o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Ular o‘zlarining "xavf-xatarlari" uchun biznes bilan shug‘ullanadigan ko‘plab mustaqil transport tashkilotlariga bo‘linib ketishdi.

Bundan tashqari, mamlakat hududida bir necha mingta yuk avtomobil xo ‘jaliklari faoliyat ko‘ rsatmoqda yuridik shaxs, aralash turdagi (yuk-yo‘lovchi) mulkchilikning turli shakllaridagi mingga yaqin korxona va taxminan bir xil miqdordagi sof yo‘lovchi korxonalari. Avtobuslar 32 ming yo‘nalishda ishlaydi, ulardan 6 mingtasi shaharlararo, 16 mingtasi shahar atrofi va 10 mingtasi shahar. Avtobuslar 1300 ga yaqin shahar va shahar tipidagi shaharlarga xizmat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston respublikasi davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, transportning barcha turlari bo‘yicha yuk tashish holati quyidagi rasmda keltirilgan (1.1- rasm)[62]



1.1-rasm Transportning barcha turlari bo‘yicha yuk tashish.

[62] Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Transportning barcha turlarida yuk tashish bo‘yicha avtomobil transporti (552,0 mln. tonna) ustunlik qiladi. Quvur transporti orqali 30,6 mln. tonna gaz quyilgan, temir yo‘l transporti orqali – 34,1 mln. tonna yuk tashildi. Yuk tashish bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich havo transportida – 2,3 ming tonna qayd etildi.

1.1-Jadval

Transport turlari bo‘yicha yuk tashish va yuk aylanmasi[63]

	2020 yil yanvar-iyun	**O‘tgan yilning yanvar-iyuniga nisbatan, % da**	
		2020 y.	**2019 y.**
Transportda tashilgan yuklar, mln. t	**616,7**	**102,0**	**105,9**
– **temir yo‘l transporti**	34,1	101,1	102,2
– **avtomobil transporti**	552,0	103,1	106,8
– **havo transporti, ming t**	2,3	47,0	67,2
– **quvur transporti**	30,6	86,5	96,4
Transport yuk aylanmasi, mln. t-km	**32 858,1**	**93,4**	**100,2**
– **temir yo‘l transporti**	11 772,0	101,6	100,0
– **avtomobil transporti**	7 281,2	101,1	111,7
– **havo transporti**	62,3	142,4	72,5
– **quvur transporti**	13 742,6	84,0	95,8

Transport turlari bo‘yicha yuk tashish tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyidagi 1.2.-rasmda keltirilgan Umumiy yuk tashish

[63] Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari

hajmida eng yuqori ulushni avtomobil transporti – 89,5 % egallaydi, boshqa transport turlarida yuk tashish ulushi 10,5 % ga to‘g‘ri keladi.

Transport turlari bo‘yicha yuk tashish tarkibi, % da



1.2.- rasm Transport turlari bo‘yicha yuk tashish tarkibi[64]

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish tarkibida avtomobil transporti yetakchilik qilmoqda. Uning jami yo‘lovchi tashish hajmidagi ulushi – 99,0 % ni tashkil etadi. (1.3- rasm)

Transport turlari bo‘yicha yulovchi tashish tarkibi, % da



1.3- rasm Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish tarkibi

[64] Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Yo‘lovchi aylanmasi bo‘yicha nisbatan yuqoriroq o‘sish sur’ati avtomobil transportida – 90,9 % kuzatildi.(1.4- rasm)



1.4 - rasm Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasining o‘sish sur’atlari[65]

Avtomobil transporti yuk va yo‘lovchilarni tashishda muhim ahamiyatga egadir. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yuk aylanmasi 78,9 mln. t-kmga oshib, 7 281,2 mln. t-kmni tashkil etdi yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,1 % ga yuqori bo‘ldi.



1.5 -rasm. Avtomobil transporti yuk va yo‘lovchi aylanmasini taqqoslanishi[66]

[65] Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari
[66] Manba: O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari

1.5.O‘zbekistonda transport xizmatlari: joriy holati va rivojlanish prognozlari

Transport sohasining samarali faoliyat olib borishi har qanday mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligi, aholining farovon turmush tarzi, milliy xavfsizligi ta’minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Havo yo‘llari, quruqlik va suvdagi barcha yo‘lovchilarni, shuningdek, yuk tashish kabi xizmatlarni qamrab oluvchi ushbu soha murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish maqsadida islohotlar amalga oshirilmoqda2025 yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida barcha transport turlari bo‘yicha jami 1 601,0 mln tonna yuk tashildi[67]. Bu ko‘rsatkich 2024 yilga nisbatan 4,3 foizga o‘sib, milliy transport tizimining barqaror iqtisodiy sharoitda ham rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi. Mazkur o‘sish transport sektorining nafaqat ichki talabni, balki tashqi savdo va tranzit yo‘nalishdagi yuklanmani ham kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Yuk tashish hajmida avtomobil transporti mutlaq ustunligini saqlab qoldi: 1 434,5 mln tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu umumiy hajmning 89,6 foizini tashkil etdi; o‘sish sur’ati 4,7 foizni qayd etdi. Temir yo‘l transportida 107,9 mln tonna yuk tashildi — 2024-yilga nisbatan 5,1 foizlik o‘sish bilan. Ushbu o‘sishga asosan Tojikiston, Rossiya va Qirg‘iz Respublikasidan yo‘naltirilgan tranzit yuklar hamda Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy, Belarus va Qirg‘iz Respublikasidan kelgan import yuklarining ortishi ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Havo transportida yuk tashish ko‘rsatkichi 205,2 ming tonna bilan 2024-yilga nisbatan 20,7 foizlik jadal o‘sish qayd etdi — bu barcha transport turlari orasida eng yuqori sur’at. Quvur transporti orqali 58,4 mln tonna gaz uzatildi; biroq bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 5,4 foizga pasaydi. Pasayishga asosan gaz qazib olish va Rossiyadan import hajmining kamayishi, shuningdek iste’molchilarning muqobil energiya manbalariga o‘tishi ta’sir ko‘rsatdi.

[67] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: Transport va aloqa. 2025 yil yanvar-dekabr. Toshkent: Milliy statistika qo'mitasi, 2025.

1.2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida transport turlari kesimida yuk tashish va yuk aylanmasi ko‘rsatkichlari (2025 yil yanvar-dekabr)[68]

Transport turi	Yuk tashish (mln t)	O‘sish sur’ati (%)	Yuk aylanmasi (mln t-km)	O‘sish sur’ati (%)	Yuk aylanmasidagi ulush
Jami	**1 601,0**	**+4,3**	**84 021,1**	**+1,9**	**100%**
Avtomobil transporti	1 434,5	+4,7	26 110,3	+7,2	31,1% (2024: 29,6%)
Temir yo‘l transporti	107,9	+5,1	28 384,1	+3,3	33,8% (2024: 33,3%)
Havo transporti	205,2 ming t	+20,7	2 269,6	+22,5	2,7% (2024: 2,2%)
Quvur transporti	58,4	−5,4	27 257,1	−5,3	32,4% (2024: 34,9%)

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yuk aylanmasi tarkibida 2025-yilda muhim siljishlar yuz berdi. Quvur transportining yuk aylanmasidagi ulushi 2024-yildagi 34,9 foizdan 32,4 foizga tushdi — 2,5 foiz band pasayish. Aksincha, avtomobil transportining ulushi 29,6 foizdan 31,1 foizga, havo transporti 2,2 foizdan 2,7 foizga, temir yo‘l transporti esa 33,3 foizdan 33,8 foizga ko‘tarildi. Bu transport tarmoqlari o‘rtasidagi funksional qayta taqsimlanish jarayonining jonli ifodasi.

Temir yo‘l transportidagi 107 881,1 ming tonna umumiy yukda tarkibiy jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar kuzatildi. [1] Har xil rudalar (13,3 foiz ulush, 140,6 foizlik o‘sish) va qora metallar (6,2 foiz, 166,4 foizlik o‘sish) hamda sement (127,8 foiz o‘sish) eng yuqori sur’atlar qayd etdi. Bu metallurgiya va qurilish sektorlarining kuchli iqtisodiy faolligidan dalolat beradi. Neft yuklari (10,7 foiz ulush, −2,2 foiz) va kimyoviy va mineral o‘g‘itlar (3,5 foiz, −8,6 foiz) esa kamayish tendensiyasini ko‘rsatdi.

[68] *Manba: O'zR Milliy statistika qo'mitasi, 2025 yil yanvar-dekabr axborotnomasi asosida muallif tuzildi*

1.3-jadval.

Magistral temir yo‘l transportida asosiy turdagi tashilgan yuklar (2025 yil yanvar-dekabr)[69]

Yuk turi	Hajmi (ming t)	Ulushi (%)	O‘sish sur’ati (%) va izoh
Jami	**107 881,1**	**100,0**	**+5,1 — o‘rtacha sur’at**
Har xil rudalar	14 354,3	13,3	+40,6 — eng yuqori ulush; metallurgiya talabining keskin o‘sishi
Neft yuklari	11 519,0	10,7	−2,2 — quvur orqali tashish oshishidan siqib chiqarilishi
Ko‘mir	9 743,6	9,0	+1,8 — energetika importining barqaror talabi
Qora metallar	6 671,9	6,2	+66,4 — infratuzilma qurilishi bo‘yicha talabning portlashi
Don va un mahsulotlari	8 421,9	7,8	+10,9 — oziq-ovqat importi va eksportining o‘sishi
Qurilish yuklari	4 334,4	4,0	+0,3 — nisbatan barqaror talabni ko‘rsatadi
Kimyoviy va mineral o‘g‘itlar	3 752,1	3,5	−8,6 — o‘g‘it ishlab chiqarish va eksportidagi qisqarish
Sement	2 479,9	2,3	+27,8 — qurilish sektori talabining jadal o‘sishi
Boshqa yuklar	43 118,6	40,0	−5,3 — diverse yuklarning qayta yo‘naltirishi

2025-yilning yanvar-dekabr oylari davomida barcha transport turlarida yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichi 2024-yilga nisbatan 5,3 foizga o‘sib, 7 299,5 mln nafar yo‘lovchini tashkil etdi. [1] Ushbu o‘sish milliy iqtisodiyotning iste’mol faolligini, aholining mobilligini va turizm hamda ish aloqalari intensivligini ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy signal hisoblanadi.

[69] *Manba: O'zR Milliy statistika qo'mitasi, 2025 yil yanvar-dekabr axborotnomasi*

Yo‘lovchi tashish tarkibida avtomobil transporti mutlaq ustunlik qiladi: 6 989,0 mln nafar yo‘lovchi (5,2 foiz o‘sish) tashildi. [4] Havo transportida jami 9 656,6 ming nafar yo‘lovchi tashildi — bu 2024-yilga nisbatan 28,5 foizlik rekord o‘sish. Havo transporti yo‘lovchi tashishdagi ushbu jadal o‘sish O‘zbekistonning xalqaro havo ulanishlar tizimini kengaytirish siyosati va «O‘zbekiston havo yo‘llari» AJning parkaini modernizatsiya qilishi bilan bevosita bog‘liq.

Temir yo‘l transportida 10,5 mln nafar yo‘lovchi tashildi (5,0 foiz o‘sish). Shahar elektr transportida jami 290 312,1 ming yo‘lovchi tashildi — 6,0 foizlik o‘sish bilan. [1] Shahar elektr transportining 98,8 foizini metropoliten egallab, 286 753,9 ming yo‘lovchi tashidi (6,1 foiz o‘sish). Troleybusda 641,2 ming yo‘lovchi tashildi va bu ko‘rsatkich avvalgi yilga nisbatan biroz kamaydi — troleybusdan elektrobus tizimiga o‘tish jarayonining natijasidir.

1.4-jadval.

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi ko‘rsatkichlari (2025 yil yanvar-dekabr)[70]

Transport turi	Tashilgan yo‘lovchilar (mln nafar)	O‘sish (%)	Yo‘lovchi aylanmasi (mln yo‘l.-km)	O‘sish (%)	Izoh
Jami	**7 299,5**	**+5,3**	**174 896,0**	**+5,8**	**Barcha transport turlari bo‘yicha**
Avtomobil transporti	6 989,0	+5,2	144 862,2	+3,5	Eng katta ulush: 95,7% yo‘lovchi va 82,8% aylanma
Havo transporti	9,7 (9 656,6 ming)	+28,5	23 615,9	+23,0	Eng yuqori o‘sish sur’ati; yo‘lovchi aylanmasida 13,5% ulush
Shahar elektr transporti	290,3 (shundan	+6,0	2 118,2	+6,0	Metro — 98,8%; tramvay —

[70] *Manba: O'zR Milliy statistika qo'mitasi, 2025 yil yanvar-dekabr axborotnomasi*

	metro: 286,8)				1,0%; troleybyc — 0,2%
Temir yo‘l transporti	10,5	+5,0	4 299,7	+5,6	Yuqori tezlikli Afrosiyob poyezdlari ulushi oshib bormoqda

Jami yo‘lovchi aylanmasi 5,8 foizga o‘sib, 174 896,0 mln yo‘lovchi-km ga yetdi. Yo‘lovchi aylanmasining tarkibiy tahlili avtomobil transportining hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi: 144 862,2 mln yo‘lovchi-km bilan jami yo‘lovchi aylanmasining 82,8 foizini ta’minladi. Havo transporti yo‘lovchi aylanmasida 23 615,9 mln yo‘lovchi-km bilan 13,5 foizli ulushga ega — bu ko‘rsatkich 23,0 foiz o‘sish bilan eng yuqori dinamika qayd etmoqda. Ushbu tendensiya O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi bozorining jadal rivojlanib, xalqaro yo‘lovchilar tashish ulushini oshirib borayotganini ko‘rsatadi.

Hududlar kesimidagi ma’lumotlar Toshkent shahri avtomobil yo‘lovchi tashishida 21,5 foizlik (1 504,7 mln nafar) dominant mavqega ega ekanligini ko‘rsatadi. [1] Toshkent viloyati (12,4 foiz, 868,5 mln nafar) va Andijon viloyati (11,1 foiz, 773,2 mln nafar) keyingi o‘rinlarda turadi. Eng yuqori o‘sish sur’ati Toshkent shahrida (109,9 foiz), Qashqadaryo (108,9 foiz) va Samarqand (108,3 foiz) viloyatlarida qayd etildi. Sirdayo va Jizzax viloyatlarining ulushi 1,4 foizdan iborat bo‘lib, bu hududlarning transport infratuzilmasini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari davomida O‘zbekiston Respublikasida umumiy yo‘l transport hodisalari (YTH) soni 9 226 tani tashkil etdi. [13] Bu ko‘rsatkich 2024 yilga nisbatan 138 taga (1,5 foizga) kamaydi. Ushbu ijobiy tendensiya yo‘l harakatini tartibga soluvchi chora-tadbirlar va profilaktik ishlarning ta’siri natijasida yuzaga keldi.

Hududlar kesimida eng ko‘p yo‘l transport hodisalari Toshkent shahrida (1 225 ta), Farg‘ona (1 191 ta), Samarqand (1 188 ta) va Toshkent (1 153 ta) viloyatlarida qayd etildi — bu to‘rt hududning ulushi respublika ko‘rsatkichining 51,6 foizini tashkil etdi.[13] YTH da jarohat olgan (jabrlangan)lar soni 8 901 kishida qolib (2024-yil bilan bir xil), biroq hududlar bo‘yicha taqsimotda sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi: Samarqand viloyatida jabrlanganlar 237 kishiga oshgani alohida tashvish uyg‘otadi.

1.5-jadval.

Hududlar kesimida yo‘l transport hodisalari va jabrlanganlar soni (2025-yil yanvar-dekabr)[71]

Hudud	YTH 2024 (ta)	YTH 2025 (ta)	Farq (±)	Jabrlanganlar 2025 (kishi)	Jabrlanganlar farqi
O‘zbekiston Resp. jami	**9 364**	**9 226**	**−138**	**8 901**	**0 (o‘zgarmagan)**
Toshkent shahri	1 280	1 225	−55	1 468	−100 kishi
Farg‘ona viloyati	1 201	1 191	−10	1 177	+28 kishi
Samarqand viloyati	1 049	1 188	+139	1 111	+237 kishi — eng yuqori o‘sish
Toshkent viloyati	1 347	1 153	−194	1 036	−106 kishi
Qashqadaryo viloyati	478	538	+60	492	+58 kishi

YTH ko‘rsatkichining respublika bo‘yicha umuman kamayishi ijobiy tendensiyani aks ettirsa-da, Samarqand (+139 hodisa, +237 jabrlangan), Qashqadaryo (+60 hodisa) va Navoiy (+51 hodisa) viloyatlarida o‘sish kuzatilgani alohida e’tiborni talab etadi. [13] Ushbu hududlarda yo‘l xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurati namoyon bo‘lmoqda. Toshkent viloyatida hodisalar soni 194 taga kamayishi — butun respublika bo‘yicha eng katta ijobiy o‘zgarish — profilaktik ishlarning samarali natijasi sifatida baholanishi mumkin.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari davomida O‘zbekiston Respublikasida aloqa va axborotlashtirish sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmi sezilarli darajada oshdi.[12] Telekommunikatsiya xizmatlari hajmi 24 892,2 mlrd so‘mni tashkil etib, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari jami hajmida 31,3 foizli ulushga ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich 2024-yil bilan solishtirganda 8,2 foizga o‘sdi.

2026 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, mobil aloqa bilan ta’minlangan abonentlar soni 37 209,7 ming birlikni tashkil etdi; bu ko‘rsatkich har 100 kishiga 98,2 birlikka to‘g‘ri keladi.[12] 2025 yil boshida bu raqam 36 251,7 ming edi, ya’ni yil davomida 957,7 ming nafar yangi abonent qo‘shildi.

[71] *Manba: O'zR IIV JXD YHX xizmati ma'lumotlari asosida muallif tuzildi*

Toshkent shahri eng yuqori o‘sish sur’atini (108,0 foiz) qayd etib, 8 957,1 ming abonentga yetdi.

Internet tarmog‘iga ulanish xizmatlarini ko‘rsatish uchun ruxsatnomaga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni 2026 yilning 1 yanvariga 293 birlikni tashkil etdi. [12] Xalqaro axborot uzatish kanallarining o‘tkazuvchanlik qobiliyati 2025-yil III choragi yakuriga nisbatan 200 Gbit/s ga oshib, 4 400 Gbit/s ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich raqamli infratuzilmaning muttasil kengayib borayotganini va O‘zbekistonning «raqamli iqtisodiyot» strategiyasi doirasidagi islohotlarning amaliy natijasini ko‘rsatadi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bo‘yicha norasm va yashirin iqtisodiyotni baholash natijalarini hisobga olgan holda, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 050 292,5 mlrd so‘mni tashkil etdi.[2] Bu ko‘rsatkich 2024-yil bilan solishtirganda 14,7 foizga oshdi. 2024-yildagi 840 146,5 mlrd so‘mlik bazaga nisbatan o‘sish 210 146,0 mlrd so‘mni tashkil etdi. Iqtisodiy faollikning ushbu ko‘rsatkichi milliy iqtisodiyotdagi xizmatlar sektorining tobora muhimroq o‘rin egallayotganini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son qarorida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan va ularni monitoring qilish ko‘zda tutilgan.[10] Ushbu siyosatning dastlabki samarasi 2025-yil natijalari orqali yaqqol ko‘zga tashlanmoqda: xizmatlar sohasi YaIM o‘sishiga muhim hissa qo‘shib, iqtisodiyotning divesifikatsiyasiga xizmat qilmoqda.

1.6-jadval.

O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari (2025 yil yanvar-dekabr)[72]

Xizmat turi	**2024 yil (mlrd so‘m)**	**2025 yil (mlrd so‘m)**	**O‘sish sur’ati va tarkibdagi ulush**
Xizmatlar — jami	**840 146,5**	**1 050 292,5**	**+14,7 foiz**
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	183 946,5	226 955,8	+10,4% — eng katta ulush: 21,6%; oziq-ovqat xizmatlari 95,9%
Transport xizmatlari	151 825,0	188 270,8	+10,8% — 17,9% ulush; avtomobil 50,9%, havo 15,6%, yordamchi 14,8%, quvur 10,5%, TY 8,2%

[72] *Manba: O'zR Milliy statistika qo'mitasi, xizmatlar sohasi axborotnomasi, 2025 yil yanvar-dekabr*

Savdo xizmatlari	154 995,1	186 957,3	+13,8% — 17,8% ulush; chakana 53,2%, ulguji 32,3%
Moliyaviy xizmatlar	135 832,5	171 867,0	+24,6% — eng yuqori o‘sish; 16,3% ulush; moliyaviy xizmatlar 88,0%
Aloqa va axborotlashtirish	56 865,2	79 485,5	+22,7% — 7,6% ulush; kompyuter dasturlash 43,2%, telekom 31,3%
Ta’lim xizmatlari	32 110,5	39 626,7	+10,4% — 3,8% ulush; oliy ta’lim 49,4%
Sog‘liqni saqlash xizmatlari	15 961,8	19 890,6	+14,2%; shifoxonalar 31,2%, stomatologiya 16,0%
Ko‘chmas mulk xizmatlari	20 900,6	25 921,6	+13,1%; ijara va boshqaruv 95,7%

Xizmatlar sohasi o‘sishiga moliyaviy xizmatlar eng katta hissa qo‘shdi: 24,6 foizlik o‘sish bilan 4,0 foiz band ta’sir ko‘rsatdi. [2] Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (22,7 foiz o‘sish, 1,5 foiz band) ham yuqori dinamika qayd etdi — bu raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy modeli bilan bir to‘kishdan darak beradi. Transport xizmatlari 10,8 foizlik o‘sish bilan 2,0 foiz band miqdorida jami o‘sishga hissa qo‘shdi.

2025-yilda kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 595 090,5 mlrd so‘mni tashkil etib, jami bozor xizmatlari hajmining 56,7 foizini egalladi. [2] Bu ko‘rsatkich 2024 yil bilan solishtirganda 14,3 foizga o‘sdi. Kichik biznesning xizmatlar hajmidagi ulushi Farg‘ona (75,6 foiz), Namanган (75,1 foiz), Surxondaryo va Qashqadaryo (75,0 foizdan) viloyatlarida eng yuqori bo‘lib, bu hududlarda kichik tadbirkorlik xizmatlar sektorining asosi ekanligini ko‘rsatadi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2025-yilda 27 719,6 ming so‘mni tashkil etdi — 2024 yildagi 22 602,0 ming so‘mga nisbatan 5 117,6 ming so‘mga (12,5 foizga) o‘sish. [2] Eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 126 343,7 ming so‘m bilan qayd etildi — bu respublika o‘rtachasidan 4,5 barobar yuqori. Eng past ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatida 11 940,5 ming so‘m bilan qayd etildi. Ushbu keskin tafovut hududlararo iqtisodiy tengsizlikni va viloyatlarda xizmatlar sektorini rivojlantirish zaruratini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

2025 yil transport va xizmatlar sohasining umumiy natijalari O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanish yo‘lida davom etayotganini tasdiqlaydi.[3] Asosiy tendensiyalar quyidagilardan iborat: yuk tashish 4,3 foizga o‘sib, 1 601,0 mln tonnaga yetdi; yo‘lovchi tashish

5,3 foizga o‘sib, 7 299,5 mln nafarni tashkil etdi; havo transporti barcha transport turlari orasida eng jadal o‘sish sur’atini (yuk tashishda +20,7%, yo‘lovchi tashishda +28,5%) qayd etdi.

Quvur transporti yuk aylanmasidagi ulushining 34,9 foizdan 32,4 foizga pasayishi energiya samaradorligi va muqobil energiya manbalariga o‘tish jarayonlarining natijasini aks ettiradi. [8] Biroq quvur transporti yuk aylanmasi hajmi jihatdan hali ham temir yo‘l bilan deyarli teng darajada bo‘lib (27 257,1 va 28 384,1 mln t-km), O‘zbekiston transport tizimida strategik ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Xizmatlar sohasi 14,7 foizlik o‘sish bilan 1 050 292,5 mlrd so‘mga yetdi; bu milliy YaIM da xizmatlar ulushining oshib borayotganini ko‘rsatadi. [14] Raqamli texnologiyalar va axborotlashtirish xizmatlari (22,7 foiz o‘sish) hamda moliyaviy xizmatlar (24,6 foiz o‘sish) sektorlar ichida eng dinamik bo‘lib, O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamlashyв va moliyaviy chuqurlashuv yo‘lida tezlashib borayotganidan dalolat beradi.

1.6. Qishloq joylarda avtoservis xizmatlari bozori va rivojlanish istiqbollari[73]

Avtoservisning iqtisodiy mohiyati va uning transport tizimidagi o‘rni

Postindustrial iqtisodiyotda xizmatlar sohasi yetakchi o‘ringa chiqib, qiymat yaratish jarayoni moddiy ishlab chiqarishdan ko‘ra ko‘proq intellektual, innovatsion va servisga yo‘naltirilgan faoliyat turlari, raqamli texnologiyalar, inson kapitali hamda iste’molchi bilan uzviy hamkorlik orqali amalga oshmoqda. Mazkur jarayonda avtoservis transport tizimining ajralmas bo‘g‘ini sifatida nafaqat avtotransport vositalarining texnik holatini saqlab turuvchi yordamchi faoliyat, balki transport xizmatlarining uzluksizligi, xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlovchi strategik sohaga aylanib bormoqda. Zero, transport mahsuloti — yuk va yo‘lovchilarni ko‘chirish — faqat texnik jihatdan soz, ishonchli va xavfsiz harakat tarkibi mavjud bo‘lgan taqdirdagina yaratiladi; bu esa avtoservisni transport xizmatlarini ishlab chiqarish jarayonining zaruriy sharti darajasiga ko‘taradi.

O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa qishloq hududlarida, avtotransport vositalari sonining muttasil ortishi va ulardan foydalanish jadallashuvi avtoservis xizmatlariga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashish, mahalliy savdo, oilaviy tadbirkorlik va

[73] Ushbu paragrafni yozishda Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi ishtirok etdi.

aholining hududlararo mobilligi bevosita avtotransportga bog‘liq bo‘lganligi sababli, qishloq joylarda avtoservis infratuzilmasi hududiy iqtisodiy faollikning muhim omiliga aylandi. Qishloq aholisi uchun avtomobil ko‘p hollarda shunchaki harakatlanish vositasi emas, balki oilaviy daromad keltiruvchi asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi: masalan, oilaviy tashuv va savdo faoliyatida foydalaniladigan Damas avtomobilining bir kunlik majburiy to‘xtab qolishi oila byudjeti uchun 150–200 ming so‘mgacha qo‘shimcha yo‘qotishga olib kelishi aniqlangan [3; 9].

Avtoservis xizmatlari boshqa xizmat turlaridan bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. *Birinchidan*, ular moddiy va nomoddiy elementlarning uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi: xizmat jarayonida ehtiyot qismlar, uskunalar va materiallardan foydalanilsa-da, asosiy qiymatni mutaxassisning malakasi yaratadi. Shu bois avtoservis «tovar–xizmat uyg‘unligi» shkalasida oraliq o‘rinni egallaydi — diagnostika, ta’mirlash, maslahat jarayoni nomoddiy xarakterga ega bo‘lsa, uning natijasi (ta’mirlangan avtomobil, almashtirilgan uzel) moddiy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. *Ikkinchidan*, zamonaviy avtomobillarning elektron boshqaruv tizimlari, sensorlar va dasturiy ta’minot bilan jihozlanganligi avtoservisni yuqori texnologik faoliyatga aylantiradi. *Uchinchidan*, avtoservis majmuaviy xarakterga ega bo‘lib, diagnostika, ta’mirlash, profilaktika, ehtiyot qismlar bilan ta’minlash va qo‘shimcha xizmatlarni qamrab oladi. *To‘rtinchidan*, avtoservis tajribaviy va ishonchga asoslangan ne’matlar qatoriga kiradi: iste’molchi xizmat sifatini ko‘pincha undan foydalanganidan keyingina baholay oladi, bu esa bozorda axborot asimmetriyasini yuzaga keltiradi va xizmat sifatini standartlashtirish hamda nazorat qilish mexanizmlarini talab etadi.

Iqtisodiy ne’mat nuqtai nazaridan avtoservis asosan xususiy xizmatlar qatoriga kiradi — unda raqobat, narx shakllanishi va iste’mol tanlovi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yo‘l harakati xavfsizligi, ekologik talablar va texnik reglamentlarga rioya etilishi davlat tomonidan tartibga solinishi avtoservisga aralash (ijtimoiy-xususiy) xizmat xususiyatlarini ham baxsh etadi. Sifatsiz ta’mirlash yo‘l-transport hodisalari ehtimolini oshiradi, ishlatilgan akkumulyatorlar, shinalar va motor moylarining noto‘g‘ri utilizatsiya qilinishi esa atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazadi. Demak, avtoservis salbiy va ijobiy tashqi samaralarga ega bo‘lgan, shu sababli davlat va xususiy sektor hamkorligida rivojlantirilishi maqsadga muvofiq bo‘lgan soha hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda avtoservis tushunchasiga turlicha yondashuvlar shakllangan. Ye.S.Kuznetsov avtoservisni avtomobil transportiga xizmat ko‘rsatuvchi soha sifatida, V.V.Volgin esa avtomobillarni ta’mirlash orqali iste’molchilarga mamnuniyat ulashuvchi biznes sifatida talqin etadi. G.F.Fastovsev va N.N.Ribin avtoservis tarkibiga texnik xizmat bilan bir qatorda maslahat, ehtiyot qismlar va ekspluatatsion materiallar savdosi, avtomobillarni saqlash, yuvish va shatakka olish kabi faoliyat turlarini ham kiritadi. V.V.Shmal va O.V.Malixina avtoservisni milliy iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liq tarmoqlari majmui va iqtisodiyot infratuzilmasining unsuri sifatida qaraydi, S.N.Petrochenkov va Ye.G.Yakovenko esa sotuvdan oldingi tayyorgarlik, sotish, sug‘urtalash va kafolatli ta’mirlashni qamrab oluvchi kompleks servis tizimini ta’kidlaydi. Qishloq sharoitiga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda (G.D.Kokorev, G.G.Kuzminich, E.Z.Asadullin, N.M.Sobirov, X.K.Ishmuratov, R.K.Hamroyev) mavsumiy yuklama, «holatiga ko‘ra ta’mirlash» strategiyasi, kooperativ va assotsiatsiyalar tashkil etish, to‘lovga qodir talab va norasmiy sektorning o‘sishi kabi masalalarga urg‘u berilgan. Mazkur yondashuvlarni umumlashtirish ularning har biri avtoservisning muayyan jihatini chuqur yoritganini, biroq qishloq hududlari xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaganini ko‘rsatadi (1.7-jadval).

1.7-jadval

Avtoservis tushunchasiga oid ilmiy yondashuvlarning tasnifi[74]

Yondashuv	Namoyandalari	Ilmiy afzalligi	Qishloq sharoitiga nisbatan cheklovi
Funksional-xizmatlar	F.Kotler, V.Zeytaml, M.Bitner, D.Gremler, N.N.Ribin, G.F.Fastovsev	Avtoservisning amaliy mazmuni va tarkibini ochib bergan, xizmatlar diversifikatsiyasini asoslagan	Hududiy tafovutlar va logistik cheklovlar hisobga olinmagan
Tizimli-institutsional va hududiy	O.D.Markov, I.E.Gribut, V.V.Shmal, O.V.Malixina, G.G.Kuzminich, E.Z.Asadullin, N.M.Sobirov	Avtoservisni iqtisodiyot infratuzilmasi va qiymat zanjiri elementi sifatida asoslagan, kooperatsiya ahamiyatini ko‘rsatgan	Ko‘p hollarda dilerlik (firma) servisiga mo‘ljallangan, norasmiy sektorga moslashmagan
Biznes-bozor	V.V.Volgin, V.P.Bichkov, N.V.Penshin	Marketing, narx siyosati, raqobat va kichik biznes uchun ahamiyatini ochib bergan	Mavsumiylik va ehtiyot qismlar logistikasi xatarlari chuqur tahlil qilinmagan

[74] *Manba: D.H.Shaymardonova tadqiqotlari asosida tuzilgan [1; 5; 6].*

Yondashuv	Namoyandalari	Ilmiy afzalligi	Qishloq sharoitiga nisbatan cheklovi
Texnik-texnologik	G.D.Kokorev, X.K.Ishmuratov, R.K.Hamroyev	Texnik ishonchlilik, «holatiga ko‘ra ta’mirlash» va mavsumiy yuklamani hisobga olgan	Iqtisodiy va marketing jihatlariga kam e’tibor berilgan
Sotuvdan oldingi va keyingi servis	S.N.Petrochenkov, Ye.G.Yakovenko, D.R.Saidov	Avtoservisni qiymat yaratish zanjiri va mijoz bilan uzoq muddatli munosabatlar bilan bog‘lagan	Yirik shaharlardagi dilerlarga yo‘naltirilgan, qishloqda amalda cheklangan

Yuqoridagi yondashuvlarni umumlashtirish va ularning afzalliklarini birlashtirish asosida D.H.Shaymardonova tomonidan avtoservisning quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etilgan [1; 5]:

Avtoservis *— avtotransport vositalarining butun hayotiy sikli davomida (sotuvgacha tayyorgarlik, sotish, ekspluatatsiya, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash, sotuvdan keyingi servis) ularning ishonchliligi, xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligini ta’minlashga qaratilgan, mijoz ehtiyojlarini qondirish hamda qo‘shilgan qiymat yaratish zanjirida ishtirok etuvchi texnik, iqtisodiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir.*

Ushbu ta’rifning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, avtoservis alohida ta’mirlash operatsiyalari yig‘indisi sifatida emas, balki avtomobilning to‘liq hayotiy siklini qamrab oluvchi uzluksiz jarayon sifatida talqin etiladi. Ikkinchidan, uning maqsadi texnik soz holatni saqlash bilan cheklanmay, ishonchlilik, xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikning birligi sifatida belgilanadi. Uchinchidan, avtoservis qo‘shilgan qiymat yaratish zanjirining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi — bu esa uni mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv, logistika va raqamlashtirish vositalari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. «Tizim» atamasi o‘rniga «chora-tadbirlar majmui» iborasining qo‘llanilishi esa ta’rifni qishloq joylarga xos bo‘lgan tarqoq, kichik va qisman norasmiy servis sub’ektlariga ham tatbiq etishga imkon yaratadi.

Avtoservis xizmatlarining zamonaviy tasnifi va raqamli-ekotizimli biznes modeli

Amaldagi tasniflar asosan texnik va funksional belgilarga tayanadi, shu sababli raqamli diagnostika, prognozli texnik xizmat, mobil servis, ekologik yo‘naltirilgan xizmatlar kabi yangi xizmat turlari ularning doirasiga sig‘maydi. Bu esa hududiy rivojlanishni rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va ustuvor yo‘nalishlarni belgilashda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi. Sanoat 4.0 (Industry 4.0), servis ustuvorligi mantiqi (Service-Dominant Logic, SDL) va aqlli

mobillik (Smart Mobility) konsepsiyalariga tayangan holda D.H.Shaymardonova tomonidan avtoservis xizmatlarining an’anaviy funksional tasnifi intellektual, raqamli va ekotizimli mezonlar bilan boyitilgan (1.8-jadval).

1.8-jadval

Avtoservis xizmatlarining Sanoat 4.0 va servis ustuvorligi konsepsiyalari asosida takomillashtirilgan tasnifi[75]

Tasniflash belgisi	Xizmat turlari	Qishloq joylar uchun ahamiyati
Funksional jihatiga ko‘ra	diagnostika; ta’mirlash; texnik xizmat ko‘rsatish; ehtiyot qismlar ta’minoti; funksional-qiymatli (mijoz bilan birgalikda qiymat yaratish)	Bir tashrifda kompleks xizmat olish imkoniyati yaratiladi
Texnologik darajasiga ko‘ra	an’anaviy servis; avtomatlashtirilgan servis; raqamli servis; aqlli servis (real vaqt nazorati — Smart Service 2.0; sun’iy intellektga asoslangan — Smart Service 3.0; robotlashgan ustaxona — Smart Service 4.0)	Bosqichma-bosqich raqamlashtirish: oflayn dasturlar, mobil diagnostika
Hududiy xizmat modeliga ko‘ra	shahar servis markazlari; mahalliy servis; qishloq ustaxonalari; mobil servis; kichik avtomat servis nuqtalari; sun’iy intellektga asoslangan mobil servis; hududiy avtoservis ekotizimi	Masofa omilini kamaytiradi, xizmatning yetib borishini ta’minlaydi
Ekologik mezoniga ko‘ra	yashil avtoservis; nol chiqindili avtoservis; sirkulyar avtoservis (qismlarni qayta ishlash); ekoraqamli avtoservis	Moy, akkumulyator va shinalarni hududiy yig‘ish va utilizatsiya qilish
Biznes-modeliga ko‘ra	oylik «servis paketi»; natija uchun to‘lov (Pay-per-performance); avtomobilni to‘liq servis bilan ijaraga berish (Vehicle-as-a-Service, VaaS)	To‘lov qobiliyati cheklangan aholi uchun moliyaviy moslashuvchanlik

Taklif etilgan tasnif avtoservisni statik tasnifdan dinamik, ma’lumotlarga asoslangan va ekologik-intellektual tizimga o‘tkazish imkonini beradi. Uning amaliy mazmuni avtoservis korxonalarining biznes modelidagi tub o‘zgarishda namoyon bo‘ladi: an’anaviy «ta’mirlash» modelida korxona nosozlik yuz bergandan keyingina ishga kirishadi va daromadi faqat bajarilgan ishlar hajmi bilan belgilanadi. Taklif etilayotgan **«doimiy qiymat yaratuvchi» raqamli-ekotizimli**

[75] *Manba: [1; 5; 6] asosida tuzilgan.*

biznes modelida esa avtoservis korxonasi avtomobil egasining butun ekspluatatsiya davri mobaynida uning hayotiy qulayligini oshirishga yo‘naltirilgan uzluksiz xizmatlar oqimini tashkil etadi (1.6-rasm).

Raqamli-ekotizimli modelning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: *raqamli transformatsiya* (onlayn qabul, avtomatik diagnostika, kichik biznes uchun soddalashtirilgan CRM dasturlari, milliy avtoservis onlayn platformalari); *mijozga yo‘naltirilganlik* (shaxsiylashtirilgan xizmat paketlari, call-markaz va messenjerlar orqali doimiy aloqa, xodimlarni servis madaniyatiga o‘qitish, og‘zaki kelishuvdan shartnoma shakliga o‘tish); *diversifikatsiya* («bir joyda barcha xizmat» modeli, universal servis, ehtiyot qismlar marketpleysi, kooperatsiya asosida biznes yuritish); *yashil tamoyillar* (texnologik chiqindilarni yig‘ish punktlari, energiyatejamkor eko-uskunalar). Ushbu to‘rt yo‘nalishning kompleks joriy etilishi qishloq avtoservis korxonalari raqobatbardoshligining va qishloq joylar iqtisodiy rivojining muhim sharti hisoblanadi.



1.6-rasm. Avtoservis korxonalarining an’anaviy «ta’mirlash» modelidan «doimiy qiymat yaratuvchi» raqamli-ekotizimli biznes modeliga o‘tishi

Manba: [1; 5] asosida tuzilgan.

O‘zbekistonda avtoservis xizmatlari bozorining holati

Aholi turmush darajasining o‘sishi, avtosanoatning modernizatsiyalanishi, avtokredit bozorining faollashuvi va hududlararo iqtisodiy integratsiya mamlakatda avtomobillashuv darajasining jadal

o‘sishini ta’minladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, avtoservis xizmatlari, ehtiyot qismlar savdosi, ikkilamchi avtomobil bozori va transport logistikasi rivojlanishining asosiy drayveriga aylandi. Avtoservis bozorining asosiy ko‘rsatkichlari 1.7-jadvalda keltirilgan.

1.7-jadval

O‘zbekiston Respublikasi va Samarqand viloyatida avtoservis xizmatlari bozorining asosiy ko‘rsatkichlari[76]

Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2020	2023	2024	2025	2025/2010, marta
Yengil avtomobillar soni, ming dona: respublika	1650,0	2156,5	2410,4	3637,1	4200,7	4289,0	2,60
Samarqand viloyati	185,0	249,9	337,6	404,4	429,5	456,1	2,47
Avtoservis korxonalari soni, birlik: respublika	3200	4530	6414	7901	8470	9080	2,84
Samarqand viloyati	340	497	727	914	986	1064	3,13
Ko‘rsatilgan avtoservis xizmatlari hajmi, mlrd so‘m: respublika	420	827	1627	2442	2796	3201	7,62
Samarqand viloyati	38	77	156	239	275	317	8,34
Avtomobillarga ehtiyot qismlar importi (respublika), mlrd so‘m	260	558	1197	1893	2206	2570	9,88
Har 100 xo‘jalikka to‘g‘ri keladigan avtomobillar (Samarqand viloyati), dona	21	42	49	57	58	61	2,90
Bitta avtoservis korxonasiga to‘g‘ri keladigan avtomobillar (respublika), dona	516	476	376	460	496	472	0,92

Jadval ma’lumotlari bir qator muhim qonuniyatlarni ko‘rsatadi. Respublikada yengil avtomobillar soni 2010–2025-yillarda 1,65 mln donadan 4,29 mln donagacha, ya’ni qariyb 2,6 barobar oshgan. O‘sishning eng jadal bosqichi 2020–2025-yillarga to‘g‘ri kelib, bu davrda avtoparkka 1,88 mln dona avtomobil qo‘shilgan (+77,9%). Avtoservis korxonalari soni 2,8 barobar, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi esa nominal ifodada 7,6 barobar o‘sgan. Xizmatlar hajmining avtomobillar sonidan ancha tez o‘sishi bitta avtomobilga to‘g‘ri keladigan servis xarajatlarining ortib borayotganini anglatadi: 2010-yilda bu ko‘rsatkich taxminan 255

[76] *Manba: D.H.Shaymardonova dissertatsiya tadqiqoti ma’lumotlari [3; 9] asosida muallif hisob-kitoblari.*

ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 746 ming so‘mga yetgan. Bu holat avtoparkning eskirishi, avtomobillarning texnik murakkablashuvi va xizmatlar assortimentining kengayishi bilan izohlanadi. Ehtiyot qismlar importining qariyb 10 barobar o‘sishi esa avtoservis bozorining importga bog‘liqligi yuqoriligini va ehtiyot qismlar logistikasining soha samaradorligidagi hal qiluvchi rolini ko‘rsatadi.

Samarqand viloyati avtoservis bozorining rivojlanishini tahlil qilish uchun reprezentativ hudud hisoblanadi: viloyatda avtoservis korxonalari soni (3,1 barobar) va xizmatlar hajmi (8,3 barobar) respublika o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan yuqori sur’atlarda o‘sgan. Qo‘shrabot, Urgut, Toyloq va Samarqand tumanlari avtomobillar sonining eng yuqori o‘sishi bilan avtoservis va texnik xizmat sohasi uchun eng jozibador hududlar sifatida ajralib turadi. Shu bilan birga, bitta avtoservis korxonasiga to‘g‘ri keladigan avtomobillar sonining yuqoriligi (respublikada 470–500 dona) va rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan, zamonaviy diagnostika-nazorat uskunalari bilan to‘liq jihozlangan avtoservis korxonalari ulushining atigi 10% atrofida ekanligi xizmat ko‘rsatish salohiyati talabdan orqada qolayotganini ko‘rsatadi [3; 9]. Avtotransport vositalarining o‘rtacha yoshi 13,7 yilni tashkil etib, rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan 2,5–3,0 barobar yuqoriligi kelgusi 5–10 yil mobaynida avtoservisga talabning barqaror o‘sishini oldindan belgilaydi.

Qishloq joylarda avtoservis sub’ektlari faoliyati bir qator tizimli muammolar sharoitida kechmoqda: moddiy-texnik baza va diagnostika uskunalarining eskirganligi; ehtiyot qismlar ta’minotidagi uzilishlar (masalan, Cobalt va Damas avtomobillari uchun havo filtrlarini yetkazib berish muddati 2–8 kunni tashkil etadi); malakali kadrlar yetishmasligi; xizmat standartlarining shakllanmaganligi; xizmatlar assortimentining torligi; xizmatlarning katta qismi garaj ustalari va kichik xususiy ustaxonalar tomonidan norasmiy sektorda ko‘rsatilishi. Ushbu muammolar qishloq avtoservis korxonalarining raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini pasaytiradi, aholining esa sifatli servisdan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Qishloq joylarda avtoservisga talabni belgilovchi omillar va uning 2026–2030-yillarga prognozi

Avtoservis xizmatlariga talabni prognozlash transport korxonalari, mahalliy hokimliklar va investorlar uchun infratuzilmani rejalashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Avtoservis hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar vaqt qatorlari trendga ega bo‘lgan, ya’ni nostatsionar jarayonlar bo‘lganligi sababli ularni an’anaviy regressiya

usullari bilan modellashtirish soxta bog‘liqliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois bunday hollarda **xatolarni tuzatishning vektorli modeli** (Vector Error Correction Model, VECM) qo‘llaniladi. VECM bir necha birinchi tartibda integrallashgan — I(1) — vaqt qatorlari o‘rtasidagi uzoq muddatli muvozanat va qisqa muddatli dinamikani bir vaqtning o‘zida tahlil qilish imkonini beradi. Modelning iqtisodiy mantig‘i quyidagicha: agar o‘zgaruvchilar o‘rtasida uzoq muddatli muvozanat mavjud bo‘lsa, qisqa muddatli og‘ishlar vaqt o‘tishi bilan ana shu muvozanatga qaytadi.

VECM modelini qo‘llash quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi:

1. vaqt qatorlarini shakllantirish va logarifmlash;
2. vaqt qatorlarini statsionarlikka tekshirish (ADF, PP, KPSS testlari);
3. o‘zgaruvchilarning integrallashuv tartibini aniqlash (I(0), I(1), I(2));
4. Akaike (AIC) va Shvars (BIC) axborot mezonlari asosida optimal kechikish (lag) uzunligini tanlash;
5. Johansen testi yordamida kointegratsiya mavjudligi va darajasini baholash;
6. uzoq va qisqa muddatli koeffitsiyentlarni hamda xatolikni tuzatish hadini (ECT) baholash;
7. model diagnostikasi va natijalarni iqtisodiy talqin qilish;
8. prognoz qiymatlarini ishlab chiqish.

Samarqand viloyati misolida natijaviy ko‘rsatkich sifatida ko‘rsatilgan avtoservis xizmatlari hajmi (Y), omillar sifatida esa qishloq joylarda aholi daromadlari (X_1), har 100 xo‘jalikka to‘g‘ri keladigan avtomobillar soni (X_2), avtomobillarning eskirish sur’ati (X_3), avtomobillar soni (X_4) va avtomobil transportida tashilgan yo‘lovchilar soni (X_5) tanlab olingan. ADF testi natijalariga ko‘ra barcha o‘zgaruvchilar boshlang‘ich darajada nostatsionar ($p > 0,05$), birinchi farqlarda esa statsionar ($p < 0,05$) bo‘lib, ular I(1) jarayonlar ekanligi tasdiqlangan. Axborot mezonlari optimal kechikishni 2 davr deb ko‘rsatgan (AIC = 24,562; BIC = 27,551), Johansen testi esa kamida bitta kointegratsiya vektori mavjudligini tasdiqlagan ($r = 0$ gipotezasi uchun Trace = 114,32 > 95,75; $p = 0,0012$). D.H.Shaymardonova tomonidan baholangan uzoq muddatli kointegratsiya tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega [9]:

$$\ln Y = -2,84 + 0,45\ln X_1 + 0,62\ln X_2 + 0,18\,X_3 + 0,31\ln X_4 - 0,12\ln X_5$$

O‘zgaruvchilar logarifmik shaklda baholanganligi sababli koeffitsiyentlar bevosita elastiklikni ifodalaydi, ya’ni omilning 1% ga o‘zgarishi avtoservis hajmini necha foizga o‘zgartirishini ko‘rsatadi (1.8-jadval).

1.8-jadval

Samarqand viloyatida avtoservis xizmatlari hajmiga ta’sir etuvchi omillarning uzoq muddatli elastikligi

Omil	Elastiklik	Iqtisodiy talqini
X_1 — qishloq joylarda aholi real daromadlari	0,45	Daromadlarning 1% ga o‘sishi avtoservis hajmini 0,45% ga oshiradi: aholining nafaqat avtomobil sotib olish, balki professional servis uchun to‘lov qobiliyati ortadi
X_2 — har 100 xo‘jalikka to‘g‘ri keladigan avtomobillar	0,62	Eng kuchli omil: xonadonlarning avtomobillashuvi kundalik va mavsumiy talabni eng yuqori sur’atda shakllantiradi
X_3 — avtomobillarning eskirish sur’ati	0,18	Eskirish tez-tez buzilish va kapital ta’mirga ehtiyoj orqali «ichki majburiy talab»ni yaratadi, bozor kon’yunkturasi yomonlashganda ham minimal barqarorlikni ta’minlaydi
X_4 — avtomobillar umumiy soni	0,31	Bozor sig‘imi kengayishining va mijozlar oqimi jismoniy o‘sishining bazaviy ekzogen omili
X_5 — avtomobil transportida tashilgan yo‘lovchilar	–0,12	«Substitut samarasi»: jamoat transporti va taksidan foydalanishning ortishi shaxsiy avtomobillardan foydalanish va ularga servis ko‘rsatish davriyligini kamaytiradi

Manba: [9].

Qisqa muddatli modelda xatolikni tuzatish hadi $ECT_{t-1} = -0,38$ ga teng bo‘lib, statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0,01$). Bu kutilmagan iqtisodiy shoklar tufayli yuzaga kelgan nomutanosiblikning 38% qismi keyingi davrda bartaraf etilishini, ya’ni avtoservis bozori uzoq muddatli muvozanatli trendga nisbatan tez qaytishini anglatadi. Baholangan model asosida ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari 1.9-jadval va 1.7-rasmda keltirilgan.

Prognoz natijalariga ko‘ra, Samarqand viloyatida ko‘rsatilgan avtoservis xizmatlari hajmi 2025-yildagi 317 mlrd so‘mdan 2030-yilda 589 mlrd so‘mgacha, ya’ni 1,86 barobar o‘sishi kutilmoqda; besh yil davomidagi umumiy mutlaq o‘sish 272 mlrd so‘mni tashkil etadi.

1.9-jadval

Samarqand viloyatida avtoservis xizmatlari hajmining 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari

Yillar	Prognoz hajmi, mlrd so‘m	Zanjirsimon o‘sish sur’ati, %	2025-yilga nisbatan o‘sish, %	Mutlaq o‘sish, mlrd so‘m	Iqtisodiy talqini
2025 (haqiqiy)	317,0	—	—	—	Bazaviy daraja
2026	362,0	14,2	14,2	+45,0	X_2 va X_4 omillarining birgalikdagi ta’siri talabni 45 mlrd so‘mga oshiradi
2027	411,0	13,5	29,7	+49,0	Hajm 400 mlrd so‘mdan oshadi; daromadlar o‘sishi yuqori texnologik servisga talabni kuchaytiradi
2028	465,0	13,1	46,7	+54,0	O‘sish sur’ati pasaysada, mutlaq o‘sish ortadi; eskirish majburiy texnik xizmatlar hajmini oshiradi
2029	524,0	12,7	65,3	+59,0	Shaxsiy avtomobillar ko‘payishi yo‘lovchi tashishning salbiy ta’sirini to‘liq kompensatsiya qiladi
2030	589,0	12,4	85,8	+65,0	Bozor sig‘imiga yaqinlashadi; raqamli servis va elektromobillarga xizmat ko‘rsatish talab etiladi

Manba: [9].



1.7-rasm. Samarqand viloyatida avtoservis xizmatlari hajmining dinamikasi (2010–2025) va VECM modeli asosidagi prognozi (2026–2030), mlrd so‘m

Manba: [9] ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Zanjirsimon o‘sish sur’atining 14,2% dan 12,4% gacha sekinlashishi bozorning ekstensiv rivojlanishdan intensivlashuv va to‘yinish bosqichiga asta-sekin o‘tayotganidan dalolat beradi. Biroq har yilgi mutlaq o‘sishning 45 mlrd so‘mdan 65 mlrd so‘mgacha ortib borishi bozor sig‘imining kengayishda davom etayotganini va har bir foiz o‘sishning real iqtisodiy salmog‘i yildan-yilga oshayotganini ko‘rsatadi. Bu natijalar avtoservis infratuzilmasini kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va sohaga raqamli texnologiyalarni jalb etish bo‘yicha o‘rta muddatli hududiy dasturlarni ishlab chiqish uchun miqdoriy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qishloq joylarda avtoservisni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Tahlil va prognoz natijalaridan kelib chiqqan holda qishloq joylarda avtoservis xizmatlarini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- **maqsadli hududiy dasturlar.** Bozor hajmining 2030-yilgacha 1,86 barobar o‘sishini hisobga olib, raqamli diagnostika uskunalari bilan jihozlangan rasmiy dilerlik va mustaqil yirik avtoservis majmualarini tashkil etish bo‘yicha viloyat va tuman dasturlarini ishlab chiqish;
- **servis infratuzilmasini hududiy muvozanatlashtirish.** Qishloq aholisi daromadlarining talabga yuqori ta’sirini (elastiklik 0,45) inobatga olib, avtoservisning yirik shaharlarda to‘planib qolishining oldini olish,

tuman markazlari va magistral yo‘llar bo‘ylarida kichik va o‘rta servis shoxobchalari uchun imtiyozli kredit va yer maydonlari ajratish mexanizmini joriy etish;

- **eski avtoparkka ixtisoslashgan servis.** Eskirish omilining ijobiy ta’sirini hisobga olib, foydalanish muddati 10 yildan oshgan avtomobillar uchun motor, transmissiya va yurish qismlarini tiklashga ixtisoslashgan arzon va sifatli muqobil servis yo‘nalishlarini rivojlantirish;
- **raqamli platformalar.** Mijozlar oqimining o‘sishi navbatlar va ortiqcha yuklamani yuzaga keltirmasligi uchun onlayn ro‘yxatga olish, avtomobil tarixini raqamli pasport (QR-kod) orqali kuzatish va ehtiyot qismlar omborini avtomatlashtirish imkonini beruvchi CRM platformalarini joriy etish;
- **kadrlar salohiyati.** Qishloq ustalarining zamonaviy diagnostika, shuningdek, elektromobil va gibrid avtomobillar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda uzluksiz o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- **norasmiy sektorni rasmiylashtirish va yashil servis.** Uy sharoitidagi ustaxonalar va kichik sub’ektlarni soliq imtiyozlari, arzon kreditlar va diagnostika uskunalari lizingi orqali rasmiy sektorga o‘tkazish; ishlatilgan moy, akkumulyator va shinalarni markazlashgan holda yig‘ish va utilizatsiya qilish tizimini yaratish.

Mazkur yo‘nalishlarni kompleks amalga oshirish qishloq avtoservis sub’ektlarini an’anaviy ta’mirlash ustaxonalaridan mijozga yo‘naltirilgan qiymat yaratish ekotizimining ishtirokchilariga aylantiradi, qishloq aholisi uchun transport xizmatlarining uzluksizligi va xavfsizligini ta’minlaydi hamda hududlar o‘rtasidagi rivojlanish nomutanosibliklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Avtoservis sub’ektlari faoliyatini boshqarishning Lean-logistik usullari ushbu darslikning 9.6-paragrafida batafsil yoritilgan[77].

1.6 Paragraf bo‘yicha adabiyotlar

1. Shaymardonova D.H. Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o‘rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025. – № 6. – B. 223–229.

2. Shaymardonova D.H. Qishloq joylarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi sub’ektlar samaradorligini oshirish // Servis. – 2024. – № 4/1.

77

3. Shaymardonova D.H. Qishloq joylarda avtoservis xizmatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari: muammolari, istiqbollari va yechimlari // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2026. – № 1. – B. 802–806.

4. Shaymardonova D.H. Avtoservis xizmatlarini rivojlantirishni ob’yektiv zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2025. – № 3. – B. 357–360.

5. Shaymardonova D.H. Avtoservis xizmatlarining mohiyati, servislashgan jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati // Journal of New Century Innovations. – 2025. – Vol. 72, Issue 1. – B. 86–91.

6. Shaymardonova D.H. Avtoservis xizmatlarini rivojlantirishning ilg‘or xorijiy tajribalari va ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash amaliyoti // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – 2025. – № 6/2. – B. 74–76.

7. Shaymardonova D.H. Avtoservis xizmatlari bozorida marketing innovatsiyalarini qo‘llash istiqbollari (Samarqand viloyati misolida) // «Raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi taraqqiyotining zamonaviy muammo va tendensiyalari» respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Nukus, 2026. – B. 358–362.

8. Shaymardonova D.H. The Essence of the Service Sector and the Possibilities of its Development in Rural Areas // The International Journal of Leadership and Innovative Management. – 2024. – Vol. 1, Issue 1. – P. 113–115.

9. Shaymardonova D.H. Qishloq joylarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi sub’ektlar samaradorligini oshirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: SamISI, 2026.

Tayanch so‘zlar va iboralar

1-guruh — Iqtisodiy nazariya va transport bozori tushunchalari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
1	***Tadqiqot ob’ekti***	Ilmiy tadqiqot yo‘naltirilgan hodisa, jarayon yoki tizim. Transport iqtisodiyotida tadqiqot ob’ekti bo‘lib transport tizimi, bozori, korxonalari yoki alohida transport turlarining iqtisodiy munosabatlari xizmat qiladi. Ob’ektni to‘g‘ri aniqlash tadqiqotning maqsadi, vazifalari va metodologiyasini belgilaydi.
2	***Transport bozori***	Transport xizmatlari — yuk va yo‘lovchi tashish, logistika, ekspeditsiya — bo‘yicha talab va taklif o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimi. Transport bozori raqobat darajasi, tariflar, xizmat sifati va bozor ishtirokchilari soni bilan tavsiflanadi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar transport bozorini tobora integratsiyalashgan global tizimga aylantirmoqda.
3	***Transport mahsuloti***	Transport korxonasi tomonidan yuk yoki yo‘lovchi tashish xizmati ko‘rsatilishi natijasida yaratilgan foydali ta’sir; o‘lchov birligi — tonna-km (yuk uchun) yoki yo‘lovchi-km (yo‘lovchi uchun). Transport mahsuloti moddiy buyum emas, balki xizmat ekanligidan u ishlab chiqarish va iste’mol bilan bir vaqtda sodir bo‘ladi, omborda saqlab bo‘lmaydi.
4	***Transport xizmatlari bozori***	Turli transport turlari — avtomobil, temir yo‘l, havo, dengiz, quvur, daryo — tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni sotib olish-sotish munosabatlari yig‘indisi. Bu bozorda narxlar (tariflar), xizmat sifati va vaqt omili asosiy raqobat

		mezonlari hisoblanadi. 2024-yilda jahon transport xizmatlari bozori hajmi 8,5 trln AQSh dollarini tashkil etdi (UNCTAD).
5	***Transport siyosati***	Davlatning transport tizimini rivojlantirish, tartibga solish va moliyalashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarini belgilovchi chora-tadbirlar majmuasi. Maqsadlari: transport infratuzilmasini rivojlantirish; raqobat muhitini shakllantirish; xavfsizlikni ta’minlash; ekologik me’yorlarga rioya etish; xalqaro integratsiyani kuchaytirish. O‘zbekistonda transport siyosati 2017-yil Harakatlar strategiyasida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.
6	***Transport samaradorligi***	Transport tizimining sarflangan resurslar (kapital, mehnat, yoqilg‘i) bilan erishilgan natijalar (yuk va yo‘lovchi tashish hajmi, vaqt, xavfsizlik) nisbati. Iqtisodiy samaradorlik (xarajatlar minimallashtirilishi), ijtimoiy samaradorlik (aholiga qulay va arzon transport), ekologik samaradorlik (ifloslantirish minimallashtirilishi) ko‘rsatkichlari birgalikda baholanadi.
7	***Transport xavfsizligi***	Transport vositalaridan foydalanish jarayonida odamlarning hayoti, sog‘lig‘i va mulkiga zarar yetkazmaydigan darajada xavf-xatarni nazorat ostida ushlab turishni ta’minlovchi tizim. Turli transport turlari uchun ICAO (havo), IMO (dengiz), OTIF (temir yo‘l) xalqaro standartlari belgilangan. Statistikaga ko‘ra, havo transporti km hisobida eng xavfsiz, avtomobil transporti esa eng xatarli.

8	***Yuk aylanmasi***	Transport tizimida ma’lum vaqt davomida tashilgan yuklarning tonna-km da ifodalangan umumiy hajmi. Formula: Yuk aylanmasi = Tashilgan yuk hajmi (t) × O‘rtacha tashish masofasi (km). Transport tarmoqlarini taqqoslash va samaradorligini baholashning asosiy ko‘rsatkichi. O‘zbekistonda quvur transporti yuk aylanmasi jihatidan yetakchi o‘rinni egallaydi.
9	***Yo‘lovchi aylanmasi***	Transport tizimida ma’lum vaqt davomida tashilgan yo‘lovchilarning yo‘lovchi-km da ifodalangan umumiy hajmi. Formula: Yo‘lovchi aylanmasi = Yo‘lovchilar soni × O‘rtacha masofa (km). Avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasi jihatidan O‘zbekistonda yetakchi. Kichik tadbirkorlik sub’ektlari 2025-yilda avtomobil transportida yo‘lovchi tashishning 90,6 foizini ta’minladi.
2-guruh — Transport turlari va infratuzilma tushunchalari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
10	***Ishlab chiqarish infratuzilmasi***	Asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini ta’minlovchi yordamchi tarmoqlar va ob’ektlar majmuasi: transport, aloqa, energetika, suv ta’minoti, omborlar. Transport ishlab chiqarish infratuzilmasining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi — u barcha tarmoqlarni xom ashyo va tayyor mahsulot bilan bog‘laydi. Ishlab chiqarish infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning multiplikator ta’siri beradi.
11	***Ijtimoiy infratuzilma***	Aholi hayot sifatini ta’minlovchi ijtimoiy xizmatlar tizimi: ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, jamoat

		transporti, uy-joy kommunal xo‘jaligi. Jamoat transporti (shahar avtobuslari, metro, trol-leybus) ijtimoiy infratuzilmaning ajralmas qismi bo‘lib, ko‘pincha davlat subsidiyalari hisobiga faoliyat ko‘rsatadi. Ijtimoiy infratuzilma rivojlanishi human development indeksiga bevosita ta’sir qiladi.
12	***Transport infratuzilmasi***	Transport tizimining samarali ishlashini ta’minlovchi barcha fizik tuzilmalar majmuasi: yo‘llar, temir yo‘llar, aeroportlar, portlar, yo‘l ko‘priklari, tunnellar, signalizatsiya va boshqaruv tizimlari. Transport infratuzilmasi — ko‘pincha davlat mablag‘lari hisobiga quriladi, ammo DXSh mexanizmi orqali xususiy investitsiyalar ham jalb qilinadi. World Bank ma’lumoticha, YaIM ning 1 foizini transport infratuzilmasiga sarflash iqtisodiy o‘sishni 0,7 foizga oshiradi.
13	***Yuk va yo‘lovchi tashish korxonalari***	Transport xizmatlari bozorida yuk yoki yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatuvchi tijorat tashkilotlari. Tashkiliy-huquqiy shakllari: AJ, MChJ, DUK, kichik biznes sub’ektlari, yakka tadbirkorlar. Ixtisoslashuvi bo‘yicha: faqat yuk, faqat yo‘lovchi yoki aralash. O‘zbekistonda kichik biznes sub’ektlari transport xizmatlari bozorida yetakchi o‘rin egallaydi.
14	***Avtomobil transporti korxonasi***	Avtomobil yo‘llari orqali yuk yoki yo‘lovchi tashish xizmatlarini ko‘rsatuvchi transport korxonasi. Tarkibiga kiradi: avtomobillar parki, ta’mirlash ustaxonasi, dispetcherlik xizmati, haydovchilar va boshqa xodimlar. Avtomobil transporti moslashuvchanligi (har qanday nuqtaga

		yetkazish), tezligi va «oxirgi mil» xizmatida boshqa transport turlariga nisbatan ustunligini saqlab qoladi.
15	***Temir yo‘l transporti***	Рельclar bo‘ylab vagonlarda yuk va yo‘lovchi tashuvchi transport turi. Katta hajmdagi og‘ir yuk va uzoq masofali yo‘lovchi tashishda eng samarali. O‘zbekistonda «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ temir yo‘l infratuzilmasini boshqaradi. Yuqori tezlikdagi «Afrosiyob» poezdlari Toshkent–Samarqand–Buxoro yo‘nalishida faoliyat yuritadi. Tranzit konteyner tashish O‘zbekiston TY ning strategik yo‘nalishi.
16	***Havo transporti***	Havo kemalari orqali yo‘lovchi va yuk tashuvchi transport turi. Yuqori tezlik, uzoq masofa va geografik cheksizlik — asosiy afzalliklari. Jahon savdosining 1 foizini hajm, 35 foizini qiymat jihatidan tashiydi (IATA, 2024). «O‘zbekiston havo yo‘llari» 2020-yilda AJga aylantirilib, xalqaro raqobatbardoshlik uchun modernizatsiya qilinmoqda.
17	***Dengiz transporti***	Dengiz va okean yo‘llari orqali kemalar yordamida yuk va yo‘lovchi tashuvchi transport turi. Jahon savdosining 80-90 foizini ta’minlaydi (UNCTAD, 2024). Past narx, katta hajm va ekologik tejamkorlik — asosiy afzalliklari. O‘zbekiston quruqlikka o‘ralgan davlat sifatida dengiz transportiga bevosita chiqish imkoniga ega emas; Navoi yoki Toshkent–Termiz orqali tranzit bilan foydalaniladi.
18	***Quvur transporti***	Neft, gaz va boshqa suyuq-gazsimon mahsulotlarni magistral quvurlar orqali uzluksiz uzatuvchi transport turi. Yuk aylanmasi jihatidan O‘zbekistonda

		yetakchi. Past xarajat, uzluksiz ishlash, minimal mahsulot yo‘qotish — asosiy afzalliklari. 1420 mm diametrli magistral gaz quvurlari yiliga 28-33 mlrd m³ gaz o‘tkazadi. Energiya xavfsizligining strategik tarkibiy qismi.
19	***Daryo transporti***	Daryo va ichki suv yo‘llari orqali yuk va yo‘lovchi tashuvchi transport turi. Avtomobil transportiga nisbatan 3-5 barobar arzon. O‘zbekistonda ~1000 km suv yo‘llari mavjud; Kemachilik inspeksiyasi 224 ta kemani nazorat qiladi. Termiz daryo porti (yiliga 2 mln t quvvati) Afg‘oniston bilan savdoda strategik ahamiyatga ega. Orol dengizi qurishidan so‘ng suv yo‘llari keskin qisqargan.
3-guruh — Korporativ tuzilmalar va boshqaruv shakllari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
20	***Korporativ boshqaruv***	Aksiyadorlar, direktorlar kengashi, rahbariyat va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar, tizimlar va jarayonlar majmuasi. Maqsadi: korxona qiymatini maksimallashtirish va barcha ishtirokchilar manfaatlarini muvozanatlashtirish. OECD korporativ boshqaruv tamoyillari xalqaro standart sifatida qo‘llaniladi. Transport sohasida korporativ boshqaruvni kuchaytirish DXSh loyihalarini jalb etishning muhim sharti.
21	***Assotsiatsiya***	Bir soha yoki tarmoqdagi korxonalar tomonidan o‘zaro manfaatlarini himoya qilish, axborot almashish, standartlar ishlab chiqish va davlat organlari bilan muloqot qilish maqsadida tuzilgan ixtiyoriy uyushma. Transport sohasida: O‘zbekiston avtomobilchilar

		assotsiatsiyasi, yuk tashuvchilar assotsiatsiyalari kabi tuzilmalar. Assotsiatsiya tijorat maqsad ko‘zmaydi — a’zolar manfaatini himoya qiladi.
22	***Aksiyadorlik jamiyati***	Ustav kapitali aksiyalarga bo‘lingan, aksiyadorlari o‘z ulushi doirasida javob beradigan tijorat tashkiloti. Ochiq AJ (OAJ) — aksiyalar erkin muomalada; yopiq AJ (YAJ) — aksiyalar cheklangan doirada. Transport sohasida: «O‘zbekiston havo yo‘llari» AJ, «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ, «O‘zbekiston aeroportlari» AJ. AJ shakli xorijiy investorlarni jalb qilish, xalqaro kapital bozorlariga chiqish va korporativ nazoratni ta’minlash uchun qulay.
23	***Ishlab chiqarish birlashmalari***	Texnologik jarayon yoki bozorda bir-biriga bog‘liq bir nechta korxonalarning yagona tashkiliy-iqtisodiy tuzilmasida birlashishi. Gorizontal birlashma (bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchilar), vertikal birlashma (zanjirning turli bosqichlari) va konglomerat (turli tarmoqlar) turlari mavjud. Transport sohasida birlashmalar parkning kattalashishi va texnologik samaradorlikni oshirish maqsadida amalga oshiriladi.
24	***Konsern***	Huquqiy jihatdan mustaqil, lekin moliyaviy va tashkiliy jihatdan birlashgan korxonalar guruhi; odatda yagona bosh kompaniya (holding) tomonidan boshqariladi. Konsern a’zolari o‘z mustaqilligini saqlab qoladi, ammo strategik qarorlar markazdan qabul qilinadi. Transport sohasida konsernlar turli transport turlarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan

		logistika tuzilmalari sifatida keng tarqalgan.
25	***Kichik biznes subyektlari***	Belgilangan mezonlar doirasida (xodimlar soni, yillik daromad) faoliyat ko‘rsatuvchi kichik va o‘rta korxonalar. O‘zbekistonda: transport sohasida 25 kishigacha xodimli korxonalar kichik biznes maqomini oladi. Kichik biznes sub’ektlari O‘zbekiston avtomobil transportida yetakchi — 2025-yilda yo‘lovchi tashishning 90,6 foizini, yuk tashishning muhim qismini ta’minladi. Ularni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi.
26	***Hissadorlar uyushmasi***	Bitta korxona yoki holdingning aksiyadorlari tomonidan o‘z manfaatlarini birgalikda himoya qilish, ma’lumot almashish va aktsiyadorlar huquqlarini ta’minlash maqsadida tuzilgan uyushma. Transport sohasida davlat aksiyadorlik kompaniyalarida davlatning manfaatlarini ifodalovchi organ sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Korporativ boshqaruvning muhim elementi hisoblanadi.
4-guruh — Zamonaviy logistika va innovatsion transport tizimlari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
27	***Logistika tizimi***	Tovarlar, xizmatlar va ularga tegishli axborot oqimlarini ishlab chiqarish nuqtasidan iste’mol nuqtasiga samarali tarzda yetkazishni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonlari va vositalar majmuasi. Zamonaviy logistika tizimi integratsiyalashgan: transport, omborlash, zaxiralar boshqaruvi, buyurtma qayta ishlash va axborot tizimlari yagona zanjirda ishlaydi.

28	***Raqamlashtirish va informatizatsiya jarayonlari***	Transport va logistika sohasida ma’lumotlarni raqamli shaklga o‘tkazish, axborot texnologiyalarini joriy etish va jarayonlarni avtomatlashtirish yo‘li bilan samaradorlikni oshirish jarayoni. Tarkibiga kiradi: ERP tizimlar, GPS monitoring, AI asosidagi tahlil, blockchain (hujjatlashtirish uchun), IoT sensorlar. OECD ma’lumotiga ko‘ra, transport raqamlashtirish xarajatlarni 20-30% ga kamaytirishi mumkin.
29	***Logistika xizmatlari***	Transport, omborlash, yuk qayta ishlash, ekspeditorlik, bojxona rasmiylashtiruv va boshqa qo‘shimcha xizmatlar majmuasi. 3PL (uchinchi tomon logistikasi) — kompaniya logistika jarayonlarini ixtisoslashgan operator (logistika kompaniyasi)ga topshiradi. 4PL — bir nechta logistika operatorlarini muvofiqlashtiruvchi meta-operator. O‘zbekistonda logistika xizmatlari bozori jadal rivojlanmoqda.
30	***Multimodal tashuvlar***	Bir tovar yubormasini ikki yoki undan ortiq transport turi orqali yagona transport hujjati (bitim) asosida tashish. Asosiy afzalligi: har bir transport turining o‘z kuchli tomonidan foydalanish (magistral — temir yo‘l, «oxirgi mil» — avtomobil). Konteyner multimodal tashuvlarning asosi: u kemada, temir yo‘lda va avtomobilsiz qayta yuklashsiz tashiladi. Jahon savdosida keng tarqalgan.
31	***Tranzit tashuvlar***	Uchinchi mamlakatning hududidan o‘tib, boshqa mamlakatga yo‘naltirilgan yuk yoki yo‘lovchi tashish. O‘zbekiston tranzit salohiyati: Shimoliy-Janubiy yo‘nalish (Rossiya-Eron-Hindiston) va

		Sharq-G‘arb yo‘nalish (Xitoy-Yevropa). Tranzit tashuvlar mamlakatga port to‘lovlari, yoqilg‘i, xizmatlar uchun katta daromad keltiradi va iqtisodiy diplomatiyaning muhim vositasi hisoblanadi.
32	***Transport-logistika markazlari***	Turli transport turlari tugunlarida joylashib, yuklarni saralash, saqlash, qayta ishlash va turli transport turlariga o‘tkazish xizmatlarini ko‘rsatuvchi ko‘p funksiyali ob’ektlar. Tarkibiga: konteyner terminali, ombor va saqlash joylari, bojxona punkti, bank va sug‘urta xizmatlari, ta’mirlash ustaxonasi kiradi. Navoi erkin iqtisodiy zona — O‘zbekistonda transport-logistika markazi sifatida rivojlantirilmoqda.
33	***Innovatsion transport tizimlari***	Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi avlod transport yechimlari. Misollari: elektrik va vodorodli transport vositalari (CO_2 chiqindisiz); avtonom (o‘z-o‘zini boshqaruvchi) avtomobillar; Hyperloop — vakuum naychada magnit yostiqda harakat (1200 km/soat); dronlar orqali yetkazib berish; aqlli shahar transporti. Bu tizimlar transport mustaqilligini oshiradi va ekologik yukni kamaytiradi.
34	***Transport kommunikatsiyalari***	Transport tarmoqlarini bir-biriga bog‘lovchi va ularning samarali ishlashini ta’minlovchi aloqa va axborot tizimlari majmuasi. Tarkibiga: navigatsiya tizimlari (GPS, GLONASS), dispetcherlik aloqasi, yo‘l harakati boshqaruvi tizimlari, temir yo‘l signalizatsiyasi, havo harakatini boshqarish kiradi. Zamonaviy transport kommunikatsiyalari real vaqt rejimida

		ishlaydi va xavfsizlikni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi.
35	***Raqamli logistika***	Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), cloud-hisoblash va blockchain texnologiyalariga asoslangan logistika jarayonlarini boshqarish tizimi. Raqamli logistika imkoniyatlari: marshrutlarni real vaqtda optimallash; talab prognozlashni avtomatlashtirish; inventar va omborlarni dinamik boshqarish; yetkazib berish vaqtini kafolatli aniqlash. Amazon, Alibaba, DHL — raqamli logistikaning global yetakchilari.
36	***Aqlli transport tizimlari***	Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini transport infratuzilmasi va transport vositalariga integratsiya qilish orqali xavfsizlik, samaradorlik va qulaylikni oshiruvchi kompleks yechimlar (Intelligent Transport Systems — ITS). Tarkibiga: aqlli svetoforlar, adaptiv yo‘l harakati boshqaruvi, real vaqt yo‘l holatini xabarlash tizimlari, avtomatik to‘lov tizimlari (ETC), konnektiv avtomobillar kiradi.
37	***Ekologik transport***	Atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatadigan, yashil texnologiyalar va muqobil energiya manbalari asosida ishlovchi transport. Turlari: elektromobillar; vodorodli transport; siqilgan tabiiy gaz (CNG) va suyultirilgan gaz (LNG) bilan ishlovchi transport; velosiped va piyodalarning iqtisodiy tizimga integratsiyasi. Yevropa Ittifoqi 2035-yildan benzinli avtomobil sotishni to‘xtatadi. O‘zbekistonda elektromobillar almashtirish dasturi amalga oshirilmoqda.

38	***Xalqaro transport koridorlari***	Bir nechta mamlakatlar hududidan o‘tuvchi, yuqori trafik bilan tavsiflanadigan va standartlashtirilgan transport infratuzilmasiga ega yirik transport magistrallari. Asosiy global yo‘nalishlar: Transsib (Osiyo-Yevropa); Shimoliy-Janubiy koridori (Rossiya-Eron-Hindiston); O‘rta koridori (Xitoy-Markaziy Osiyo-Yevropa). O‘zbekiston uchun strategik: Toshkent «Belt and Road Initiative» ning muhim yo‘nalishida joylashgan — bu O‘zbekistonning tranzit salohiyatini oshiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyoti ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan avvalgi iqtisodiyotdan nimasi bilan farqlanadi?
2. Ishlab chiqarish (sanoat) korxonasi bozorning xo‘jalik yurituvchi boshqa sub’ektlaridan qaysi xususiyatlari bilan farqlanadi?
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar faoliyatining maqsadi nimada?
4. Korxonaning bozor va ishlab chiqarish aloqalarini ochib bering.
5. Raqobatchilik korxona faoliyatiga qay tarzda ta’sir o‘tkazadi?
6. Zamonaviy korxonalarning faoliyati qaysi qonun hujjatlariga asoslangan? Korxonalar faoliyatiga bevosita ta’sir qiluvchi muayyan qonunlarni sanab o‘ting.
7. “Transport iqtisodiyoti” fani «Mikroiqtisodiyot» va «Makroiqtisodiyot» fanlaridan nimasi bilan farqlanadi?
8. Iqtisodiy siyosat, iqtisodiy muhit va iqtisodiy fanlarning o‘zaro aloqalarini ko‘rsatib bering.
9. Korxonaning iqtisodiy faoliyati bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy mutaxassis qanday xislatlarga ega bo‘lishi lozim?
10. Avtotransport korxonasi nima? Uning maqsadi va vazifalari nimadan iborat?
11. Yuk va yo‘lovchi tashish uchun transport mahsulotlarining o‘lchamlari qanday?
12. Avtomobil transport korxonasining xususiyatlarini sanab o‘ting.

13. Yuk tashish avtomobil transport korxonasining mahsulotlari qanday?

14. O‘zbekistonda avtomobil transporti rivojlanishining xususiyatlarini tushuntiring.

15. Mamlakatimizda transport sohasida qanday muammolar mavjud?

Nazorat savollari

16. Nima uchun an’anaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari avtoservis faoliyatini to‘liq aks ettira olmaydi?

17. Lean-logistik boshqaruvning mohiyati va asosiy tamoyillarini tushuntiring.

18. Avtoservisda qanday isrof turlari uchraydi va ular qanday vositalar bilan bartaraf etiladi?

19. Integratsiyalashgan logistik tizim modelining asosiy bloklarini tavsiflang.

20. Qiymat oqimi xaritasi yordamida jarayon samaradorligi qanday aniqlanadi?

Yuk tashish hajmining oʻsishi va tashish sharoitlarining murakkablashuvi holatlarida avtotransport korxonasining asosiy fondlari, xususan, transport vositalari yetarli boʻlmasligi mumkin. Bunday holatlarda korxona shartnoma asosida kerakli transport vositalari yoki texnologik jihozlarni ijara yoki lizing asosida olishi maqsadga muvofiqdir[116]. Bu yondashuv korxonaning kapital xarajatlarini kamaytiradi, moliyaviy moslashuvchanligini oshiradi va asosiy fondlar strukturasini joriy bozor talablariga muvofiq optimallashtirish imkonini beradi.

Temir yoʻl transporti milliy iqtisodiyotning kapitaltalab tarmoqlaridan biri boʻlib, uning mulkiy tarkibida asosiy fondlar hal qiluvchi oʻringa ega. Tarmoq statistikasiga koʻra, temir yoʻl kompaniyasining jami mulkiy majmuasining 50 foizdan ortigʻini asosiy fondlar tashkil etadi[117]. Bu koʻrsatkich temir yoʻl transportini kapital zichligi boʻyicha eng yuqori tarmoqlar safiga kiritadi va asosiy fondlarni boshqarish samaradorligi tarmoq iqtisodiyoti uchun strategik masalaga aylanishini koʻrsatadi.

Temir yoʻl kompaniyasining **ishlab chiqarish asosiy vositalari** tarkibiga quyidagilar kiradi: temir yoʻl inshootlari (relslar, koʻpriklar, tonnellar, toʻsiqlar); yuk va yoʻlovchi vagonlar; lokomotivlar (dizel va elektrovozlar); texnologik mashina va dastgohlar; signallashtirish va aloqa moslamalari; energotizimlar va elektr ta’minot inshoatlari; ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiluvchi binolar, reservuarlar va transport vositalari[118]. Ushbu aktivlar guruhи kompaniyaning ishlab chiqarish asosiy vositalarining taxminan 90 foizini tashkil etadi[119].

Temir yoʻl kompaniyasining **noishlab chiqarish asosiy vositalari** ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashmaydigan vositalarni oʻz ichiga oladi: oʻquv yurtlari, madaniy-ma’rifat muassasalari, sogʻliqni saqlash ob’ektlari va ularning jihozlari. Bu aktivlar jami asosiy

[116] O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. 2020–2030 yillar uchun transport sohasini rivojlantirish dasturi. Toshkent, 2020. 9-bet.
[117] *Manba: O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni asosida tuzildi*
[118] *Manba: O'zbekiston Respublikasi "Korxonalar to'g'risida"gi Qonuni asosida tuzildi*
[119] *Manba: O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni asosida tuzildi*

vositalarning taxminan 10 foizini tashkil etadi[120]. Garchi noishlab chiqarish fondlari bevosita foyda yaratmasa-da, xodimlar malakasini oshirish, kasb xavfsizligini ta’minlash va mehnat unumdorligini yuksaltirish orqali kompaniya samaradorligiga bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2.6-jadval.

Temir yo‘l kompaniyasi asosiy vositalarini moliyalashtirish manbalari[121]

№	Moliyalashtirish manbasi	Xususiyati va yo‘nalishi
1	**Mahsulot va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar**	Asosiy manba; tashish va yordamchi faoliyatdan olingan tushum — asosiy vositalarni ishlatish, ta’mirlash va rivojlantirishga yo‘naltiriladi
2	**Amortizatsiya ajratmalari**	Asosiy fondlarni yangilash va qayta tiklashning muhim ichki manbasi; tannarx tarkibiga kiritiladi
3	**Sof foyda**	Kompaniyaning o‘z mablag‘laridan investitsiyalar uchun yo‘naltirilgan qism; modernizatsiya va kengaytirishni moliyalashtiradi
4	**Qimmatli qog‘ozlardan olingan daromadlar**	Kompaniya portfelidagi aksiya va obligatsiyalardan dividend va foizlar
5	**Byudjet ajratmalari va davlat investitsiyalari**	Markazlashtirilgan assignatsiyalar va qo‘yilmalar; strategik infratuzilma loyihalarini moliyalashtiradi
6	**Qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar**	Xorijiy investitsiyalar, lizing, kredit mablag‘lari, sheriklik moliyalashtirish va boshqalar

Jadvalda sanab o‘tilgan moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy vositalarni yangilash va rivojlantirish jarayonida ichki manbalar (amortizatsiya ajratmalari va sof foyda) ustuvor o‘rin tutadi[122]. Amaliyot ma’lumotlariga ko‘ra, "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ umumiy daromadlarining 50 foizdan ortig‘i asosiy vositalarni ishlatish, ta’mirlash va modernizatsiya qilishga yo‘naltiriladi. Ushbu ko‘rsatkich temir yo‘l transportining kapital zichligi yuqori bo‘lgan xususiyatini yana bir bor tasdiqlaydi[123].

[120] *Manba: O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni asosida tuzildi*
[121] *Manba: "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Nizomi (4-bo'lim) asosida tuzildi*
[122] O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. 2020–2030 yillar uchun transport sohasini rivojlantirish dasturi. Toshkent, 2020. 9-bet.
[123] *Manba: O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni asosida tuzildi*

Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish-texnik asosini tashkil etib, uning ishlab chiqarish salohiyati va texnologik imkoniyatlarini belgilaydi[124]. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati va raqobatbardoshligi bevosita asosiy fondlarning texnik darajasiga, ulardan foydalanish intensivligiga va yangilanish sur’atiga bog‘liq. Asosiy kapitaldan foydalanishni tavsiflash uchun iqtisodiy tahlil amaliyotida umumlashtiruvchi, pul qiymatidagi, nisbiy va natural ko‘rsatkichlar tizimi qo‘llaniladi, bu ko‘rsatkichlar haqida ushbu bobning keyingi paragraflarida batafsil so‘z yuritiladi.

Transport sohasi asosiy fondlarining alohida turini fuqaro aviatsiyasi vositalari tashkil etadi. Aviatsiya vositalari tarkibiga havo kemalari, aerodromlar va aeroportlar, texnikaviy xizmat ko‘rsatish vositalari hamda havo kemalarining parvozini tashkil etish, bajarish va ta’minlash uchun zarur bo‘ladigan boshqa mol-mulk kiradi[125].

Mulkchilik shakli nuqtai nazaridan aviatsiya vositalari xususiy va ommaviy (davlat) mulki shaklida bo‘lishi mumkin. Xususiy mulk shaklida faoliyat yurituvchi aviakompaniyalar o‘zlariga tegishli havo kemasi parkini mustaqil boshqaradi va moliyalashtiradi. Davlat mülkiga asoslangan aviatsiya vositalari esa tarmoqni tartibga solish, xavfsizlikni ta’minlash va ijtimoiy muhim yo‘nalishlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida foydalaniladi[126].

Aviatsiya vositalarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular yuqori texnologik murakkablik, qat’iy xavfsizlik talablari va sezilarli kapital zichligi bilan ajralib turadi[127]. Ushbu omillar aviatsiya sektorida asosiy fondlarni baholash, amortizatsiya siyosatini belgilash va moliyaviy boshqaruvni yuritish jarayonida alohida metodologik yondashuvlarni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, transport korxonalari asosiy fondlarining mohiyati, tarkibi va tuzilishini chuqur bilish — tarmoq iqtisodiyotini samarali boshqarishning asosi hisoblanadi[128]. Asosiy fondlarni to‘g‘ri tasniflash, ularning holati va harakatini kuzatib borish, foydalanish samaradorligini baholash va ularni yangilash siyosatini rejalashtirish — korxona raqobatbardoshligini ta’minlashning zaruriy shartidir. Keyingi

[124] Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press, 1985. P. 33.
[125] *Manba: O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni asosida tuzildi*
[126] *Manba: O'zbekiston Respublikasi "Korxonalar to'g'risida"gi Qonuni asosida tuzildi*
[127] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 18-bet
[128] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. Toshkent: TDTU, 2015. 25-bet.

paragraflarda asosiy fondlarni baholash usullari va samaradorlik koʻrsatkichlari batafsil koʻrib chiqiladi.

2.3. Asosiy fondlarni baholash usullari

Transport iqtisodiyotida ekspluatatsiya qilinayotgan asosiy fondlarning texnik holati va xizmat yoshi ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi parametrlar qatoriga kiradi. Ayniqsa mashina va sanoat uskunalarining eskirganlik darajasi korxonaning texnologik quvvati hamda raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir koʻrsatadi. Ushbu omilni miqdoriy jihatdan baholash maqsadida amaliyotda quyidagi yosh guruhlari qoʻllaniladi: besh yilgacha xizmat qilgan uskunalar, besh yildan oʻn yilgacha, oʻn yildan oʻn besh yilgacha, oʻn besh yildan yigirma yilgacha, yigirma yildan yigirma besh yilgacha va undan uzoq muddatli qurilmalar.

Tadqiqotlar koʻrsatishicha, asbob-uskunalarning ekspluatatsiya davri choʻzilishi bilan korxonadagi ishlab chiqarish quvvatlari izchil ravishda pasayadi, tayyorlanadigan mahsulot sifati yomonlashadi va texnik nosozliklar tufayli kelib chiqadigan bekor turib qolish hamda ishlab chiqarish yoʻqotishlari hajmi ortib boradi.[129] Buning ustiga, uzoq vaqt ishlatilgan texnika va jihozlarni samarali holda ushlab turish uchun texnik xizmat va ta’mirlash xarajatlari ham sezilarli darajada koʻpayadi. Shunday ekan, iqtisodiy nuqtai nazardan asosiy fondlarning yosh tarkibini kuzatib borish va ularni oʻz vaqtida yangilash korxona barqaror faoliyatining zaruriy sharti hisoblanadi.

Asosiy fondlarni pul koʻrinishida ifodalashning dastlabki va eng keng tarqalgan shakli **boshlangʻich qiymat** hisoblanadi. Bu koʻrsatkich asosiy vositalarni yaratish yoki ularga egalik huquqini qoʻlga kiritish bilan bogʻliq barcha haqiqiy xarajatlar yigʻindisini qamrab oladi — ob’ektni foydalanishga tayyor holatga keltirish uchun amalga oshirilgan yetkazib berish, montaj va sozlash kabi qoʻshimcha xarajatlar ham uning tarkibiga kiritiladi. Masalan, avtotransport korxonasi tomonidan muayyan sanada rasmiy buxgalteriya hujjatlarida qayd etilgan avtomobil xarid narxi — oʻsha transport vositasining boshlangʻich qiymati deb qabul qilinadi.

Bozor shartnomasi asosida sotib olingan asosiy vosita ob’ektining boshlangʻich qiymati bir necha turdagi xarajatlarni birlashtiradi. Birinchidan, aktivni yetkazib beruvchi tashkilot va qurilish-montaj

[129] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 189-bet.

ishlarini pudratchilarga to‘lanadigan summalar uning asosini tashkil etadi. [4] Ikkinchidan, ob’ektga bo‘lgan mulk huquqini rasmiylashtirish bilan bog‘liq davlat ro‘yxatga olish yig‘imlari, boj to‘lovlari hamda soliqlar va yig‘imlar (agar ular qaytarib berilmasa) ushbu qiymatga qo‘shiladi. Bundan tashqari, import qilinadigan ob’ektlar uchun bojxona rasmiylashtiruvi xarajatlari, sotib olish jarayonida jalb etilgan vositachilarga to‘lanadigan komission haqlar hamda axborot va konsalting xizmatlari uchun qilingan to‘lovlar ham boshlang‘ich qiymatning zaruriy tarkibiy qismlarini ifodalaydi.

Ob’ektni yetkazib berish va o‘rnatish jarayonlari ham bevosita xarajat manbai bo‘lib xizmat qiladi: transport risklarini sug‘urtalash bo‘yicha sarflar, montaj va ishga tushirish ishlari, shuningdek aktivni belgilangan maqsad bo‘yicha ishlatishga to‘liq tayyor holatga keltirish uchun amalga oshirilgan har qanday boshqa xarajatlar boshlang‘ich qiymatga kiritiladi. Biroq shuni alohida ta’kidlash lozimki, qarz mablag‘lari hisobiga sotib olingan asosiy vositalar uchun to‘lanadigan kredit foizlari boshlang‘ich qiymat tarkibiga kirmaydi — ular moliyalashtirish xarajati sifatida alohida hisobdan chiqariladi. Korxonaning o‘z kuchi bilan yaratgan asosiy vositalariga kelsak, ularning boshlang‘ich qiymati tayyorlash, qurish yoki qayta tiklash jarayonida sarflangan haqiqiy xarajatlar summasi asosida belgilanadi[130].

Quyidagi jadvalda sanab o‘tilgan to‘qqiz turdagi xarajat elementi boshlang‘ich qiymatning to‘liq tarkibiy modelini ifodalaydi. [10] Shuni ta’kidlash joizki, ushbu elementlarning har biri hujjatli asosga ega bo‘lishi va buxgalteriya registrlarida tegishli tarzda aks ettirilishi shart. Amaliyotda xarajatlarning bir qismini boshlang‘ich qiymatga kiritish yoki undan tashqarida qoldirish masalasi ko‘pincha tortishuv manbaiga aylanadi — bu holda normativ hujjat, ya’ni BHMS №5 qoidalari hal qiluvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi.

2.7-jadval.

Sotib olingan asosiy vosita boshlang‘ich qiymatining tarkibiy elementlari[131]

№	Xarajat turi	Qisqacha mazmuni
1	**Yetkazib beruvchi va pudratchilarga to‘lovlar**	Aktivni yetkazib beruvchiga to‘lanadigan summa va shartnoma asosida qurilish-montaj ishlarini bajargan pudratchi tashkilotlarga haq

[130] Hendriksen E.S., Van Breda M.F. Teoriya bukhgalterskogo ucheta. Moskva: Finansy i statistika, 2000. 346-bet.
[131] *Manba: O'zbekiston Respublikasi BHMS №5 asosida muallif tuzildi*

2	**Huquqni rasmiylashtirish xarajatlari**	Davlat ro‘yxatga olish yig‘imlari, notarial xarajatlar, boj to‘lovlari va shunga o‘xshash majburiy to‘lovlar
3	**Bojxona rasmiylashtiruvi**	Import ob’ektlari uchun bojxona boji va yig‘imlari
4	**Soliqlar va yig‘imlar**	Qoplanmaydigan QQS va boshqa soliqlar (agar tegishli imtiyoz bo‘lmasa)
5	**Axborot va konsalting xizmatlari**	Ob’ektni tanlash va sotib olish jarayonida jalb etilgan maslahatchilar va ekspertlarga to‘lovlar
6	**Transport xatarini sug‘urtalash**	Ob’ektni yetkazib berish davridagi yo‘qolish, shikastlanish risklarini sug‘urtalash bo‘yicha sarf-xarajatlar
7	**Vositachilik haqi**	Ob’ektni sotish yoki topib berish xizmatini ko‘rsatgan broker va vositachi tashkilotlarga to‘lanadigan komission haq
8	**O‘rnatish, montaj va ishga tushirish**	Ob’ektni joyiga o‘rnatish, ulash, sozlash va sinovdan o‘tkazish bilan bog‘liq barcha operatsion xarajatlar
9	**Ishchi holatga keltirish xarajatlari**	Aktivdan mo‘ljallangan maqsadda foydalanishga to‘liq tayyor holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq boshqa sarf-xarajatlar

Bozor narxlari va inflyatsiya darajasining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi boshlang‘ich qiymatning asosiy fondlarning haqiqiy bozor qiymatini adekvat aks ettirishini ma’lum vaqtdan keyin imkonsiz qilib qo‘yadi. Aynan shu zaruriyat tufayli iqtisodiy amaliyotda **tiklanish (qayta baholash) qiymati** deb atalmish ikkinchi baholash usuli qo‘llaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, asosiy fondlar yoki ularning alohida guruhlari — avtomobillar, binolar, inshootlar, ishlab chiqarish uskunalari va boshqalar — baholash sanasidagi joriy bozor sharoitida qayta ishlab chiqarish uchun qancha mablag‘ talab etishini hisoblaydi. [3] Boshqacha qilib aytganda, tiklanish qiymati ob’ektning hozirgi paytdagi ekvivalent yangi nusxasini qurish yoki sotib olish narxini aks ettiradi.

Korxona asosiy fondlarining tiklanish qiymati uch xil holatda aniqlanadi: inventarizatsiya va taftish o‘tkazilishi munosabati bilan; mamlakatda umumiy qayta baholash kampaniyasi e’lon qilinganida; yillik moliyaviy hisobot tuzish jarayonida. O‘zbekiston Respublikasi

normativ bazasiga ko‘ra, qayta baholash har yili 1 yanvar sanasiga o‘tkaziladi va shu sanada mavjud bo‘lgan bozor narxlari darajidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Qayta baholash jarayonida fondlarning to‘liq tiklanish qiymati belgilanadi — bu ob’ektlarni aynan o‘xshash yangi qurilmalar bilan to‘liq almashtirish uchun baholash sanasidagi bozor tarif va narxlari asosida zarur bo‘ladigan umumiy xarajatlar hisoblanadi. Ushbu hisob-kitobga xarid, qurilish, tashish va montaj xarajatlari, import qilinadigan uskunalar uchun esa bojxona to‘lovlari ham kiritiladi.[132]

Ma’nan eskirgan ob’ektlar uchun to‘liq tiklanish qiymatini aniqlashda alohida yondashuv talab etiladi: narxlar va tariflarning o‘zgarish darajasi hamda sur’atlari inobatga olinib, baholash sanasidagi joriy xarajatlar asosida qayta hisoblash amalga oshiriladi. Qayta baholash qamroviga korxona mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida turgan barcha asosiy vositalar — ishlatilayotgan ham, foydalanilmayotgan ham, konservatsiyada ham, hisobdan chiqarishga tayyorlangan lekin hujjatlashtirilmagan ham — kiradi. Tugallanmagan qurilish ob’ektlari va o‘rnatish uchun kutilayotgan uskunalar ham ushbu majburiy qayta baholash doirasiga kiradi.

Har yillik qayta baholash oldingi yilda bajarilgan qayta baholash natijasida olingan tiklanish qiymatidan boshlab hisoblanadi; yil davomida yangi kelib tushgan asosiy fondlar esa ularning haqiqiy xarid qiymati asosida qayta baholanadi. [133] To‘liq tiklanish qiymatini aniqlashning ikki usuli mavjud. Birinchisi — **bevosita qayta baholash usuli:** baholash sanasida bozorda mavjud bo‘lgan va hujjatlar bilan tasdiqlangan narxlar asosida har bir ob’ekt alohida baholanadi. Ikkinchisi — **indeks usuli:** asosiy fondlarning turlariga va ularni xarid qilish davriga qarab tabaqalashtirilgan qiymat o‘zgartirish koeffitsientlarini qo‘llash orqali har bir ob’ektning boshlang‘ich qiymati indekslanadi. Bir xil turdagi ob’ektlar — masalan, bir xil rusumli transport vositalari yoki uskunalar — bo‘yicha faqat yagona usul qo‘llanilishi talab etiladi. Qayta baholash korxona tomonidan mustaqil ravishda yoki tegishli litsenziyaga ega baholovchi mutaxassislar jalb etilgan holda amalga oshiriladi.

Asosiy fondlarni baholashning navbatdagi muhim ko‘rsatkichi **qoldiq qiymat** hisoblanib, u asosiy vositalarning boshlang‘ich yoki tiklanish qiymatidan shu kunga qadar to‘plangan amortizatsiya ajratmalari ayirib tashlangandan keyingi miqdorni ifodalaydi. Boshqacha

[132] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Asosiy vositalarni qayta baholash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma. Toshkent, 2004. 6–7-bandlar

[133] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Asosiy vositalarni qayta baholash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma. Toshkent, 2004. 6–7-bandlar

ta’riflaganda, qoldiq qiymat — fondlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o‘tkazilmagan, ya’ni hali "yeyilmagan" qiymat ulushidir. Ushbu ko‘rsatkich fondlarning real texnik-iqtisodiy holatini aks ettirganligi sababli korxona moliyaviy tahlilining asosiy parametrlaridan biriga aylanadi. Amalda foydalanishdan chiqariladigan yoki sotilishi mo‘ljallangan aktivlar ham ko‘pincha joriy xo‘jalik yilidagi narxlarda qoldiq qiymat asosida baholanadi.

Tugatish qiymati — bu asosiy vositaning belgilangan foydali xizmat muddati tugagandan so‘ng uni balansdan chiqarish yoki bozorda realizatsiya qilish jarayonida olinishi kutilayotgan aktivlar summasi bo‘lib, ob’ektni chiqarib tashlash bilan bog‘liq taxminiy xarajatlar bu summadan chegirib tashlanadi.[134] Tugatish qiymati amortizatsiya siyosatini shakllantirish nuqtai nazaridan alohida amaliy ahamiyat kasb etadi: u qanchalik kichik bo‘lsa, amortizatsiyaga tortilishi lozim bo‘lgan summa shunchalik katta bo‘ladi va aksincha.

Amortizatsiyalanadigan qiymat — bu boshlang‘ich (tiklanish) qiymat bilan tugatish qiymati o‘rtasidagi hisob-kitob farqi bo‘lib, u foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya ajratmalari shaklida mahsulot tannarxiga bosqichma-bosqich o‘tkaziladigan umumiy summani ifodalaydi. Moliyaviy hisobotlarda aks ettiriluvchi taxminiy tugatish qiymatini boshlang‘ich qiymatdan ayirish yo‘li bilan amortizatsiyalanadigan qiymat aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich amortizatsiya usulini tanlash va yillik ajratmalar miqdorini belgilashning hisobot asosi hisoblanadi[135].

Foydali xizmat muddati — bu korxonaning asosiy vositadan foydalanishni rejalashtirgan vaqt davri yoki ushbu vositadan foydalanish hisobiga olinishi kutilayotgan mahsulot, bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi. [4] Foydali xizmat muddatini aniqlash korxona tomonidan texnik xususiyatlar, ishlab chiqaruvchi tavsiyanomasi, sanoat normalari va o‘tmishdagi foydalanish tajribasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu muddat amortizatsiya me’yorini va shu orqali yillik xarajatlar tuzilmasini bevosita belgilaydi.

Zamonaviy buxgalteriya amaliyotida asosiy vositalarning korxona balansida va hisobotlarida rasmiy aks ettiriluvchi qiymati **balans qiymati** deb yuritiladi. Ob’ekt birinchi marta kiritilgan paytda balans qiymati boshlang‘ich qiymatga to‘liq mos keladi; keyinchalik belgilangan tartibda qayta baholash amalga oshirilganidan so‘ng esa u tiklanish qiymatiga

[134] Walther L.M., Skousen C.J. Long-term Assets. Bookboon, 2011. P. 22.
[135] Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 15th ed. Mason: Cengage, 2016. P. 411

tenglashadi. Balans qiymati va qoldiq qiymat tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘rtasidagi aloqa quyidagi munosabat bilan ifodalanadi: **qoldiq qiymat = balans qiymati − to‘plangan amortizatsiya.** Demak, balans qiymati rasmiy hisobot ko‘rsatkichi vazifasini o‘tasa, qoldiq qiymat fondlarning amortizatsiyaga qaramasdan saqlanib qolgan iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatadi[136].

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligini o‘lchash maqsadida buxgalteriya hisoboti ma’lumotlari asosida **o‘rtacha yillik qiymat (Fo‘r)** hisoblanadi. Yil davomida asosiy fondlar tarkibi o‘zgarib turadi — yangi ob’ektlar foydalanishga topshiriladi, eskilari chiqarib tashlanadi. Shu sababli yil boshi va yil oxiri qiymatlarining oddiy o‘rtachasini hisoblash o‘rniga, har bir ob’ektning yil mobaynida haqiqatda faoliyat ko‘rsatgan vaqtini oylar kesimida inobatga oluvchi quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$F_{\text{o‘r}} = F_{\text{b}} + F_{\text{k}} \times T_1 / 12 - F_{\text{ch}} \times T_2 / 12$$

Formuladagi belgilarning mazmuni quyidagicha: F_{b} — asosiy ishlab chiqarish fondlarining hisobot yili boshidagi balans qiymati; F_{k} — yil mobaynida foydalanishga qabul qilingan yangi asosiy fondlar qiymati; F_{ch} — yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan yoki tugatilgan asosiy fondlarning qiymati; T_1 — yangi qabul qilingan fondlar qabul qilingan oydan keyingi oydan boshlab yil oxirigacha ishlagan oylar soni; T_2 — chiqarib tashlangan fondlar chiqarilgan oydan yil oxirigacha foydalanilmagan oylar soni.

Mazkur formulaning oddiy arifmetik o‘rtachadan ustunligi shundaki, u aktivlar harakatining aniq vaqt parametrini hisobga oladi. Natijada yil davomida katta miqdordagi fondlar kiritilgan yoki chiqarilgan holatlarda ham o‘rtacha qiymat real iqtisodiy holatni to‘g‘ri aks ettiradi. O‘rtacha yillik qiymat fondottdachasi, fondsig‘imi, fondqurollanganligi kabi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblashda maxraj sifatida keng foydalaniladi — shu bois uning aniqligi butun tahlilning ishonchliligini belgilaydi.

Asosiy vosita foydalanish jarayoniga qo‘shilgan zahoti uning iste’mol qiymati va foydali xususiyatlari asta-sekin kamaya boshlaydi.[137] Ushbu qonuniy jarayon **jismoniy eskirish** deb ataladi va asosiy vositaning bevosita ishlatilishi yoki tashqi muhit omillari — namlik,

[136] Hendriksen E.S., Van Breda M.F. Teoriya bukhgalterskogo ucheta. Moskva: Finansy i statistika, 2000. 346-bet.
[137] Marx K. Kapital. 1-jild. Moskva: Politizdat, 1983. 193-bet.

kimyoviy ta’sir, mexanik zarbalar, harorat tebranishlari — natijasida o‘z iste’mol qiymatini yo‘qotishini anglatadi. Jismoniy eskirish ob’ektning qoldiq qiymati bilan balans qiymati nisbatiga asosida, yoxud uning haqiqiy xizmat muddatini belgilangan me’yoriy muddatga solishtirish yo‘li bilan miqdoriy jihatdan baholanadi.

Jismoniy eskirishni moliyaviy jihatdan hisobga olish mexanizmi sifatida amortizatsiya xizmat qiladi. Amortizatsiya ajratmalarining miqdori esa **amortizatsiya me’yori** orqali tartibga solinadi. Amortizatsiya me’yori deganda asosiy vositalarning muayyan toifasi uchun belgilangan davrda — odatda bir yil uchun — hisoblangan amortizatsiya ajratmalarining balans qiymatiga nisbatan foizda ifodalangan ulushi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasida amortizatsiya stavkalari qonunchilik talablari asosida asosiy vositalarning o‘xshash ob’ektlar guruhlari kesimida tabaqalanib belgilanadi — transport vositalari, ishlab chiqarish binolari, texnologik jihozlar va boshqa toifalar uchun turli stavkalar joriy etilgan.[13]

Amortizatsiya me’yorini to‘g‘ri belgilash korxona moliyaviy strategiyasining muhim qismidir[138]. Me’yor past qo‘yilsa, amortizatsiya fondi fondlarni o‘z vaqtida yangilash uchun yetarli mablag‘ to‘play olmaydi — bu texnologik orqada qolish va raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi. Aksincha, noo‘rin yuqori me’yor tannarxni oshirib, mahsulot narxini sun’iy ko‘taradi va bozordagi o‘rinni toraytiradi. Shuning uchun amortizatsiya siyosatini shakllantirish korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda texnologik, moliyaviy va raqobat omillarini bir-biriga muvozanatli bog‘laydigan murakkab boshqaruv qaroriga aylanadi. Ushbu masala keyingi — 2.4-paragrafda amortizatsiya usullari bilan birgalikda batafsil yoritiladi.

2.4. Asosiy fondlarning eskirishi va amortizatsiyasi

Asosiy fondlarni boshlang‘ich yoki tiklanish qiymati bo‘yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy fondlar jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirishi mumkin.

Jismoniy eskirish asosiy fondlarning birlamchi ishlab chiqarish-texnikaviy xususiyatlarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo‘qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko‘p jihatdan iqlimning ta’siri, asosiy fondlardan

[138] Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 15th ed. Mason: Cengage, 2016. P. 411

foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Jismoniy eskirishni (EJ) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$EJ = \frac{T_h}{T_м} \times 100;$$ yoki $$EJ = \frac{I}{P_Ş} \times 100.$$

Bu yerda:

T_h- asosiy fondlarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

T_m - asosiy fondlar xizmat qilishi kerak bo‘lgan me’yoriy muddat;

I - hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

Ps– asosiy fondlarning boshlang‘ich(qayta tashkil qilish) qiymati.

Ma’naviy eskirish - asosiy fondlarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo‘qotilishidir. U ikki ko‘rinishda yuzaga keladi: birinchisida asosiy fondlar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi ko‘rinishda asosiy fondlarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta’siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo‘lishi natijasida ro‘y beradi. Asosiy fondlar ma’naviy eskirishining yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

$$EM_1 = \frac{P - V}{P} \times 100$$

$$IM_2 = \frac{P_{ya} - P_e}{P_{ya}} \times 100$$

Bu yerda:

P - asosiy fondlarning to‘liq boshlang‘ich qiymati;

V - asosiy fondlarning tiklanish qiymati;

$P_{ya,}$ P_e - mos ravishda yangi va eski texnikaning unumdorligi.

Asosiy fondlarni qayta tiklash, ya’ni jismoniy va ma’naviy jihatdan eskirgan asosiy fondlarning o‘rnini iqtisodiy to‘ldirish uchun korxona bu vositalar qiymatidan amortizatsiya ajratmalarni ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar harajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiya bu - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (tashish, xizmatlar) tannarxiga yoki davr harajatlariga muntazam taqsimlash va o‘tkazish ko‘rinishida eskirishning qiymat shaklidagi ifodasidir.

Asosiy vositalar ob’ekti bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur ob’ekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan

keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi hamda mazkur ob'ektning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq so‘ndirilgunga qadar yoki bu ob'ektni balans hisobidan chiqarilguncha amalga oshiriladi.

Yer uchastkalariga amortizatsiya hisoblanmaydi. Shuningdek quyidagi asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya hisoblanmaydi:

a) mahsuldor qoramollar;

b) kutubxona fondlari;

v) hoqimiyatlarga bo‘ysunadigan obodonlashtirish inshootlari;

g) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o‘tkazilgan fondlar;

d) muzey qimmatliklari;

e) arxitektura va san'at yodgorliklari;

j) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari;

z) to‘liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

Amortizatsiya ajratmalari asosiy vositalarning balans qiymati va foydali xizmat muddatini hisobga olgan holda belgilanadigan yillik amortizatsiya me'yoriga nisbatan hisoblanadi. Amortizatsiya miqdorini hisoblashga quyidagi omillar hisobga olinadi:

- asosiy vositaning boshlang‘ich balans qiymati;
- asosiy vositaning qoldiq qiymati;
- asosiy vositaning xizmat muddati;
- o‘rnatilgan amortizatsiya me'yori.

Asosiy vositalarning yillik amortizatsiya me'yorini (Am) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$A_m = \frac{((AVbk + T_{x-(M_{k+AVkk})})}{AVbk \times F_m} \times 100$$

Bu yerda: $AVbk$ – asosiy vositaning boshlang‘ich balans qiymati;

$AVkk$ – asosiy vositaning qoldiq qiymati;

T_x – asosiy vositalarni taxminiy tugatish harajatlari;

M_k– asosiy vositalarni tugatilishidan olinadigan materiallarning taxminiy qiymati;

F_m – asosiy vositalardan foydalanish muddati.

Asosiy vositaning yillik amortizatsiya summasini (A_s) topish uchun:

$$A_s = \frac{AVbk + A_m}{100} \quad A_s = \frac{((AVbk + T_{x-(M_{k+AVkk})})}{F_m} \times 100$$

formularidan foydalaniladi.

Amortizatsiya quyidagi usullarni qo‘llash orqali hisoblanadi:

1. Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash.

2. Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli).

3. Jadallashtirilgan usulda amortizatsiya hisoblash:

a) ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;

b) yillar summasi usuli (kumulyativ usul).

1. Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash.

Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya teng maromda, asosiy vositalarni foydali ishlatish muddati mobaynida ularning amortizatsiyalanadigan qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblanadi.

Mazkur usulga ko‘ra asosiy vositalar ob’ektining amortizatsiyalanadigan qiymati uning xizmat muddati davomida tegishli harajatlarga teng maromda hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Usul amortizatsiya me’yori foydali xizmat muddatining faoliyatiga bog‘liqligiga asoslangan. Har bir davr uchun amortizatsiya ajratmalari summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni ob’ektdan foydalanilgan hisobot davrlaridagi soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalar ob’ektining boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan kelib chiqib, mazkur ob’ektning tugatish qiymatini va foydali ishlatish muddatini ayirgan holda, belgilanadi;

Misol:

Yuk avtomobili boshlang‘ich qiymati 10 000 000 so‘m

5 yillik foydali xizmat muddatidan so‘ng qoldiq qiymati - 1 000 000

Boshlang‘ich qiymat – qoldiq qiymat = 10 000 000 - 1 000 000 = 1 800000.

Xizmat muddati 5

Amortizatsiya summasi 1 800 000 so‘m.

Yillik amortizatsiya me’yori (amortizatsiyalanadigan qiymatdan) - 20%.

Amortizatsiya qilinadigan summa = Boshlang‘ich qiymat – Qoldiq qiymat.

2. Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli).

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usuli har bir muayyan yildagi asosiy vositalar ob’ektining mahsulotlarini hisobga olishga asoslangan. Mazkur usul bo‘yicha har yillik amortizatsiya hajmini hisob-

kitob qilish uchun butun foydali ishlatish muddatidagi umumiy baholangan mahsulotlar yig‘indisini va mazkur muayyan yildagi mahsulotlarni aniqlash lozim. Mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan mahsulot birliklari soni, ishlangan soatlar soni, o‘tib bo‘lingan tonna-kilometrlar soni va boshqalar olinishi mumkin. Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot davridagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko‘rsatkichidan hamda tugatish qiymatini ayirgan holdagi asosiy vositalar ob’ektining boshlang‘ich (tiklash) qiymatining asosiy vositalar ob’ektini butun foydali ishlatish muddatidagi nazarda tutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga nisbatan mutanosibligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Misol. Faraz qilaylik yuk avtomobili butun xizmat muddati davomida 90 000 km masofani bosib o‘tadi. Amortizatsiya harajatlari quyidagicha hisoblanadi:

Boshlang‘ich qiymati –Qoldiq qiymati =10 000000 - 1 000 000 =100 so‘m/ km.

Bajariladigan ish hajmi 90 000

2.8-Jadval

Amortizatsiya hisoblash: ishlab chiqarish usuli, (ming so‘mda).

	Boshlang‘ich qiymati	Bosib o‘tadigan masofa, km	Yillik amortizatsii summasi	Jamg‘arilgan amortizatsiya	Balans qiymati
Sotib olish sanasi	10 000	-	-	-	10 000
1-yil oxirida	10 000	20 000	2 000	2 000	8 000
2-yil oxirida	10 000	30 000	3 000	5 000	5 000
3 -yil oxirida	10 000	10 000	1 000	6 000	4 000
4 -yil oxirida	10 000	20 000	2 000	8 000	2 000
5 -yil oxirida	10 000	10 000	1 000	9 000	1 000

3. Jadallashtirilgan usulda amortizatsiya hisoblash. Asosiy vositalardan intensiv foydalanilganda, shuningdek ilmiy-texnikaviy

jarayonning katta ta’sirida asosiy vositalar amortizatsiyasi quyidagi usullarda hisoblanadigan jadallashtirilgan amortizatsiya yo‘li bilan ifodalanadi:

a) ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli amortizatsiyani hisoblash davrida amortizatsiyalanadigan aktiv qiymatining kamayishini anglatadi.

Mazkur usulga ko‘ra teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulidan ikki baravar amortizatsiya me’yori mazkur hisobot davridagi asosiy vositaning tegishli qoldiq qiymatiga ko‘paytiriladi. Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bo‘yicha amortizatsiyani hisoblashda faraz qilinayotgan tugatish qiymati boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan chegirilmaydi.

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot yili boshidagi asosiy vositalar ob’ektining qoldiq qiymatidan va mazkur ob’ektni foydali ishlatish muddatiga bog‘liq holda hisoblangan amortizatsiyaning ikki baravar me’yoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Misol. Yuk avtomobilining foydali xizmat muddati 5 yil.

Qiymatni bir tekisda taqsimlash (to‘g‘ri chiziqli) usulda hisoblangan amortizatsiya me’yori 20% (100% / 5).

Ikki baravar stavka bilan qoldiqni kamaytirish usulida amortizatsiya normasi 40% ga teng bo‘ladi (2 × 20%).

So‘ngra bu stavka har yilning oxirida ob’ektning balans qiymatiga ko‘paytirilib amortizatsiya summasi topiladi. Bu usulda amortizatsiya hisoblashda ob’ektning qoldiq qiymati hisoblashda e’tiborga olinmaydi. Ammo, oxirgi yilda uning balans qiymatini qoldiq qiymatigacha yetkazish davrida hisobga olinadi.

b) yillar summasi usuli (kumulyativ usul).

Yillar summasi usuliga (kumulyativ usulga) ko‘ra har yili amortizatsiya me’yori amortizatsiya muddati oxiriga qadar qoladigan amortizatsiyalanadigan qiymatga ulush sifatida aniqlanadi. Ulush amortizatsiya ajratmalari tugaguniga qadar qoladigan to‘liq yillar sonini amortizatsiya muddatini tashkil qiladigan yillar tartib sonlari summasiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

2.9-Jadval

Amortizatsiya hisoblash: qoldiqni kamaytirish usuli (ming so‘mda)

	Boshlang‘ich qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Amortizatsiya summasi	Balans qiymati
Sotib olish sanasi	10 000	-	-	10 000
1-yil oxirida	10 000	(40% × 10 000) = 4 000	4 000	6 000
2-yil oxirida	10 000	(40% × 6 000) = 2 400	6 400	3 600
3 -yil oxirida	10 000	(40% × 3 600) = 1 440	7 840	2 160
4 -yil oxirida	10 000	(40% × 2 160) = 864	8 704	1 296
5 -yil oxirida	10 000	296	9 000	1 000

Yillar summasi usulida (kumulyativ usulda) amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalar ob’ektining tugatish qiymati ayirilgan holda boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan hamda suratida ob’ektni foydali ishlatish muddatining oxiriga qadar qoladigan yillar soni, maxrajida esa - ob’ektni foydali ishlatish muddati yillari soni summasining nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Masalan, yuk avtomobilining kutilayotgan xizmat ko‘rsatish muddati 5 yilga teng. Ekspluatatsiya muddatida yil sonlari yig‘indisi - 15 ga teng (kumulyativ son):

1 + 2 + 3 + 4 + 5 = 15

So‘ngra teskari tartibda har bir xizmat yilini kumulyativ songa bo‘lish orqali hisoblash koeffitsentlari topiladi:

5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15.

Bu koeffitsentlarni ob’ektning har yillik qoldiq qiymatiga bo‘lish orqali amortizatsiya summasi topiladi:

9 000 000 (10 000 000 - 1 000 000).

2.10-Jadval

Amortizatsiya hisoblash: sonlar yig‘indisi-kumulyativ usul, (ming so‘mda).

	Boshlang‘ich qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Amortizatsiya summasi	Balans qiymati
Sotib olish sanasi	10 000	-	-	10 000
1-yil oxirida	10 000	(5/15 × 9 000) = 3 000	3 000	7 000
2-yil oxirida	10 000	(4/15 × 9 000) = 2 400	5 400	4 600
3 -yil oxirida	10 000	(3/15 × 9 000) = 1 800	7 200	2 800
4 -yil oxirida	10 000	(2/15 × 9 000) = 1 200	8 400	1 600
5 -yil oxirida	10 000	(1/15 × 9 000) = 600	9 000	1 000

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, birinchi yilda amortizatsiya summasining eng katta qismi hisoblanadi va keyingi yillarda bu miqdor kamayib borish xususiyatiga ega.

Soliq solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida har yillik amortizatsiya me’yorlari harajatlarga teng maromda hisobdan chiqariladigan asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan

2.11-Jadval

Asosiy vositalarning amortizatsiya me’yorlari

Asosiy vositalar guruhlari	amortizatsiya me’yori
1. Yengil avtomobillar, taksi, yo‘llarda foydalaniladigan avtotraktor texnikasi, maxsus asbob-uskuna, inventar va jihozlar. Kompyuterlar, periferiya qurilmalari va ma’lumotlarni qayta ishlash uskunalari	20 foiz
2. Yuk avtomobillari, avtobuslar, maxsus avtomobillar va avtotirkamalar. Sanoatning barcha tarmoqlari, metall quyish korxonasi uchun mashinalar va uskunalar, temirchilik-presslash uskunalari, qurilish uskunalari, qishloq xo‘jalik mashinalari va uskunalari. Ofislar uchun mebel	15 foiz
3. Temir yo‘l, dengiz, daryo va havo transporti vositalari. Kuchquvvat beradigan mashinalar va	8 foiz

uskunalar: issiqlik texnika uskunalari, turbina uskunalari, elektr dvigatellari va dizel-generatorlar. Elektr uzatish va aloqa qurilmalari. Truboprovodlar	
4. Binolar, inshootlar va imoratlar	5 foiz
5. Boshqa guruhlarga kiritilmagan, amortizatsiya qilinadigan aktivlar	10 foiz

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy fondlar asta-sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta’mirlash orqali tiklash zaruriyati tug‘iladi. O‘z vaqtida ta’mirlash asosiy fondlar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy fondlarni ta’mirlash kapital, o‘rta va joriy turlarga bo‘linadi. Bino va inshootlarni ta’mirlash o‘z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag‘larga ko‘ra, mashina va uskunalarni ta’mirlashdan farq qiladi.

2.5. Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar iqtisodiy salohiyat ko‘rsatkichlari ichida ma’lum darajada o‘z o‘rniga ega. Ushbu vositalarga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning ancha mablag‘i jalb qilingan bo‘ladi. Mazkur mablag‘larning qaytimi asosiy vositalardan samarali foydalanish evaziga amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni uch guruhga bo‘linadi: asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar; asosiy vositalar bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar; asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Ushbu guruh ko‘rsatkichlarining tasnifi quyidagi rasmda ifodalangan.

Asosiy vositalar holatini tahlil qilishda ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash lozim. Uni tahlil qilish uchun biznes-reja hisob va hisobot ma’lumotlaridan foydalaniladi. Unda biznes-rejadagi

ma’lumotlari haqiqiy ma’lumotlar bilan taqqoslanib, o‘zgarishlarning yaxshilanganligi yoki yomonlashish sabablari aniqlanadi.

Eskirish koeffitsenti (K_{esk}) eskirish summasining asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{\text{esk}} = \frac{AV_e}{AV_{\text{bq}}}$$

Bunda:

AV_e – asosiy vositalar eskirish summasi;

AV_{bq} – asosiy vositalarninig boshlang‘ich qiymati;

Asosiy vositalar yaroqlilik koeffitsenti (K_{yar}) qoldiq qiymatining (eskirish chegirilgan holdagi) boshlang‘ich qiymatga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{\text{yar}} = \frac{AV_{qq}}{AV_{\text{bq}}}$$

bunda:

AV_{qq}– asosiy vositalarning qoldiq qiymati. Asosiy vositalar yangilanish koeffitsenti (K_{yang}) yil mobaynida yangi kelgan asosiy vositalarning yil oxiridagi ular qoldig‘iga nisbatisifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{\text{yang}} = \frac{AV_{\text{yang}}}{AV_{\text{yo.}}}$$

$AV_{\text{ya.k}}$ – yangi kelgan asosiy vositalar summasi;

$AV_{\text{do.b.q}}$ – asosiy vositalarning davr oxiridagi boshlang‘ich qiymati;

Hisobdan chiqarish koeffitsenti ($Khch$) yil mobaynida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning yil boshidagi qiymatiga nisbati sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Khch = \frac{AV_{chiq}}{AV}$$

bunda:

$AV_{\text{db.b.q}}$– asosiy vositalarning davr boshidagi boshlang‘ich qiymati;

$AV_{\text{h.ch}}$ – hisobot davrida hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar.

Mazkur koeffitsentlar barcha asosiy vositalar hamda ularning alohida turlari va guruhlari bыyicha hisoblanadi, qator yillar mobaynidagi ызgarishi ko‘rib chiqiladi va tegishli xulosalarga kelinadi.

Fondlar bilan qurollanganlik darajasi asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymatining (boshlang‘ich baholanishi bo‘yicha) eng katta smenadagi ishchilar soniga nisbatidir. U ishchilarning mehnat qurollari (asosiy vositalar) bian ta’minlanganlik darajasini aks ettiradi va quyidagi formular orqali aniqlanadi:

$$K_{AVT} = \frac{AIV_q}{Is}$$

bunda:

K_{AVT} – xodimlarning asosiy vositalar bilan ta’minlanganligining koeffitsienti;

AIV_q– asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati;

I_s – eng katta smenadagi ishchilar soni.

Mahsulotning fond sig‘imi ($\boldsymbol{F_s}$)1 so‘m natija ko‘rsatkichiga qancha asosiy vosita summasi to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi va quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\boldsymbol{F_s = \frac{AV}{Q}}$$



2.1.rasm. Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning asosiy vositalari bilan yetarli darajada ta’minlanganligini o‘rganish bilan bir qatorda, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish asosiy o‘rinda turadi. Chunki, asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta’minlangan bo‘lsa-yu, lekin ulardan samarali foydalanmasak, u holda korxonaning samaradorligi pasayib ketadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik kursatkichlari korxona xo‘jalik faoliyatiga baho berishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida olinadi.

Asosiy vositalardan (Av) foydalanish samaradorligi darajasidan umuman ishlab chiqarish samaradorligi kelib chiqadi. Asosiy vositalardan qanchalik ko‘p foydalansa, shunchalik ko‘p mahsulot chiqariladi, uning tannarxi arzonlashadi, mehnat samaradorligi, foyda va rentabellik yuqori bo‘ladi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarga: Av mahsuldorligi, Av daromadliligi, Av rentabelligi, mashina va uskunalar quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti kiradi

2.12-Jadval

Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlarning nomi	Nimani ifodalashi (mazmuni)	Aniqlanish formulasi
1. Av. rentabelligi	Av.lar o‘rtacha qiymatiga nisbatan sof foydaning ulushini ifodalaydi.	SF*100 / Avo‘r,
2. Av. daromadliligi	Av. o‘rtacha qiymatiga necha foiz daromad to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	D*100/Av
3. Av. natijaviyligi (fond qaytimi)	1 so‘m Av. o‘rtacha qiymatiga qancha miqdorda natija-viy ko‘rsatkichning (to‘g‘ri kelishini ifodalaydi	Q/Avo‘r

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning turli xil ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin[139]:

birinchi guruh - umumlashtiruvchi va qiymat ko‘rsatkichlari bo‘lib, ular asosiy fondlarning turli guruhlarini dinamika va statikada baholash, tahlil qilish, zahiralarni aniqlash va bashorat qilish imkonini yaratadi. Bunday ko‘rsatkichlarga fond qaytimi, fond sig‘imi, fond rentabelligi va boshqalarni kiritish mumkin.

[139] Ikromov I., Abduraxmonov A., Nazarov M. Avtotransport iqtisodi va boshqaruvi. O‘quv qo‘llanma. . –T.: TAYI, 2003.

ikkinchi guruh - xususiy va natural ko‘rsatkichlar bo‘lib, ko‘proq asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismi - avtotransport korxonalarida transport vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq.

Har bir korxona o‘z tasarrufidagi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan iloji boricha unumli foydalanishga intilishi lozim. Bunga fondlarni ish bilan ta’minlashni yaxshilash tufayli ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish hajmini oshirish, nisbiy harajatlarni kamaytirish, foydani oshirishdan tashqari asosiy fondlarda jamiyatning o‘tmishda narsa holiga aylangan mehnati mujassamlanganligi ham zaruriyat tug‘diradi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligiga turli omillar ta’sir qiladi. Ular qatoriga quyidagilarni kiriish mumkin:

– ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi;

– asosiy vositalar o‘rtacha yillik summasi;

– ishlab chiqarishda band bo‘lgan xodimlar mehnatining samaradorligi;

– asosiy asosiylarning tarkibiy tuzilishi;

– asosiy vositalar alohida turlaridan foydalanish samaradorligi.

Korxona asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Tashkiliy yo‘nalishlar bo‘yicha:

– ishlab chiqarishni tashkil etishni va resurslar bilan ta’minlashni yaxshilash.

– asosiy vositalarning faqat korxonaga ish beradigan qisminigina olish;

– avtomobillarning bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;

– ishga chiqish koeffitsientini oshirish;

– bekor turuvchi transport vositalari va uskunalarni qisqartirish va tugatish;

– eskirgan va ma’naviy talabga javob bermaydigan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish;

– asosiy vositalarni farqlash va tarkiblashni qayta o‘zgartirish;

– asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning muvofiq shakllarini belgilash va h.k.

Texnik yo‘nalishlar bo‘yicha:

– ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli ravishda amalga oshirish;

– eskirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish;
– avtomatlashtirilgan tizimni yaratish;
– mexanizatsiyalashni kuchaytirish va h.k.

Ekspluatatsion yo‘nalishlar bo‘yicha:

– avtomobillar va uskunalarni ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarning malakasini oshirish;
– bir smenalik va ko‘p smenalik ishni tashkil etish;
– ishlab chiqarish hajmiga qarab asosiy vositalarni texnik holat va harakatini boshqarish;
– asosiy vositalar bo‘yicha javobgarlik markazlarini belgilash va x.k.

Asosiy vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirish korxona boshqaruvining ustuvor vazifasidir va quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

– ishlaydigan transport vositasi parkining soatiga (kun, oy, yil) unumdorligini oshirish, shu jumladan texnik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni takomillashtirish (yuk tashish imkoniyatlaridan foydalanish koeffitsienti, yurish masofasidan foydalanish koeffitsienti, harakatlanishning texnik tezligi), shuningdek bo‘sh bo‘sh harakatlanuvchi tarkib uchun ish vaqtining yo‘qolishini, yukni tushirish va tushirish vaqtini kamaytirish;
– xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish orqali harakatlanuvchi tarkibning ish vaqtini ko‘paytirish avtotransport korxonalari faoliyatini boshqarishni tashkil etishda va transportning tezkor boshqaruvini kompyuterlashtirishda logistika tamoyillarini faol ravishda qo‘llash (maqbul yo‘nalishni tanlash va transport vositalarining to‘liq yuklanishini ta’minlash uchun sun’iy yo‘ldosh aloqasi bilan birgalikda kompyuterlardan foydalanish);
– harakatlanuvchi tarkib parki tarkibini yuk ko‘tarish xususiyatlari jihatidan takomillashtirish, jismonan eskirgan transport vositalarining ulushini kamaytirish maqsadida transport vositalarining davriy yangilanishi;
– haydovchilarning professionallik darajasini oshirish, bu esa o‘z navbatida avtoulov parkidan yanada ehtiyotkorlik va oqilona foydalanishga, harakat tarkibining ishlash muddatini ko‘paytirishga (kapital ta’mirlash) olib keladi;
– harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish samaradorligini o‘sishiga ta’sir qiluvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi: avtomobil yo‘llari

sifatini yaxshilash; aholi punktlarida va federal yo‘llar bo‘ylab harakatlanish intensivligi;

– yuklash uskunasining transport vositasining xususiyatlariga muvofiqligi darajasi;

– yukni qadoqlash usuli; transport vositalarining tezligi chegaralari va yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari.

ATK iqtisodiy aktivlarini moliyalashtirish manbalari korxonaning o‘z mablag‘lari va qarz (qarz) mablag‘laridan iborat.

Avtomobil transport korxonasining shaxsiy kapitali bu mol-mulkining pul qiymati bo‘lib, to‘liq egalik huquqini beradi. U ustav kapitalidan, taqsimlanmagan foydaning bir qismi, turli xil ixtiyoriy badallar va xayriya mablag‘lari hisobidan shakllanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. ATK o‘z mablag‘larining manbalari.

2. Korxonaning ustav kapitali uning kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan mol-mulkning minimal miqdorini belgilaydi. Ustav kapitalining tarkibi korxonaning tashkiliy-huquqiy shakliga bog‘liq - masalan, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning (MChJ) ustav kapitali ishtirokchilarning hissalaridan iborat; aktsiyadorlik jamiyatlari (OAJ) uchun - aktsiyalarning nominal qiymatidan; ishlab chiqarish kooperativlari ushbu kapitalni mulkiy ulush badallari hisobiga shakllantirish bilan tavsiflanadi.

3. Qo‘shimcha kapital korxonaning muomalaga kirmaydigan aktivlarini qayta baholash miqdorini, shuningdek beg‘araz olingan qiymatlarni va shunga o‘xshash boshqa miqdorlarni tavsiflaydi.

Zaxira kapitali ushbu maqsadlar uchun hisobot yilining foydasi bo‘lmaganda yoki yetarli bo‘lmagan taqdirda ishlab chiqarishga oid bo‘lmagan zararlar va yo‘qotishlarni, shuningdek ishtirokchilarga daromadlar (dividendlar) ni to‘lash uchun qoplanadi.

Jamg‘arma mablag‘lari - ATKni rivojlantirishga kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish uchun foydalaniladigan mablag‘lar.

Belgilangan mablag‘ va tushumlar ATK tomonidan davlat yoki homiy tomonidan aniq maqsadli faoliyatni amalga oshirish uchun ajratadigan mablag‘lardir.

Bo‘linmagan foyda - bu soliq majburiyatlari bajarilgandan va aktsiyadorlarga dividendlar to‘langandan keyin korxona tasarrufida qoladigan foyda.

Korxonaning qarz mablag‘lari manbalari:

1. Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar - bu ATK tomonidan bankka yoki boshqa moliya institutlariga bir yildan ortiq muddatga olingan kreditlar va kreditlar uchun qarzdorlik miqdori.

[182] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Faktoring operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom. Toshkent, 2003 (tahrir 2019). 3-modda.

foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda mablag‘larni o‘tkazishni amalga oshiradi. Shu bilan birga, faktoring kompaniyasiga to‘liq bog‘ib qolish xatari ham mavjudligini nazardan qochirmaslik lozim — bunday munosabatlar korxonaning barcha axborot va boshqaruv mustaqilligini cheklab qo‘yishi mumkin.

Faktoring shartnomasi tuzish uchun ta’minotchi mijoz tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi. Birinchidan, qarzdor korxonaning faktoring operatsiyasini o‘tkazishga rozilik xati; ikkinchidan, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan oldi-sotti, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma; uchinchidan, moddiy qimmatliklarning ajratilganligini, ishlarning bajarilganligini, xizmatlarning ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlar — tovar-transport nakladnoylari, ishonchnomalar nusxalari, ish qabul qilish dalolatnomalar. To‘rtinchidan, to‘lovchiga qo‘yilgan to‘lov talabnomasining nusxasi va to‘lovchining ushbu talabni to‘lashga rozilik xati; beshinchidan, debitor va kreditor qarzlar tavsifi ko‘rsatilgan, muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik qarzlari solushtirma dalolatnomalari ilova qilingan so‘nggi sana bo‘yicha buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot; oltinchidan, boshqa banklardagi hisob raqamlari ro‘yxati va bo‘sh mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.

Aylanma mablag‘lar holatini va ta’minlanganligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi

Aylanma mablag‘lar ham iqtisodiy mazmunining bir qator jihatlari asosida asosiy fondlarga o‘xshaydi — ikkalasi ham moddiy resurslar guruhiga kiradi va ulardan foydalanish samaradorligini o‘lchash zarur. Aylanma mablag‘larni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi uchta guruhga bo‘linadi: holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Tahlil jarayonida har bir ko‘rsatkichning nima ifodalashi, uni baholash yo‘llari va axborot manbalarini to‘g‘ri belgilash muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Aylanma mablag‘larning muayyan sanadagi summasi buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida hisoblanadi va balansning aktiv qismidagi II bo‘limning yakunida aks ettiriladi. Kunlarda ifodalangan aylanma mablag‘lar miqdori esa korxonaning ishlab chiqarish dasturini bajarish chog‘ida mavjud aylanma mablag‘lar necha kunga yetishini ko‘rsatib, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo‘llaniladi.

3.5-jadval.

Aylanma mablag‘lar (Aym) holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi[183]

№	Ko‘rsatkich nomi	Iqtisodiy mazmuni	Hisoblash formulasi
1	**Aym.ning umumiy mablag‘lardagi ulushi**	Aylanma mablag‘larning balans aktivlaridagi nisbiy og‘irligini aks ettiradi	*Aym / B*
2	**Aym tarkibida pul mablag‘lari (Pm) ulushi**	Aylanma aktivlar ichida eng likvid qism — naqd va bank mablag‘larining nisbiy o‘rnini ko‘rsatadi	*Pm / Aym*
3	**Aym tarkibida tovar-moddiy zaxiralar (Zx) ulushi**	Ishlab chiqarish zaxiralarining aylanma aktivlardagi nisbiy og‘irligini ifodalaydi	*Zx / Aym*
4	**Aym tarkibida debitorlik qarzlari (Deb) ulushi**	Hali undirilmagan to‘lov talablarining aylanma mablag‘lar tarkibidagi ulushini ko‘rsatadi	*Deb / Aym*
5	**Muddati o‘tgan debitorlar (Dmud) ulushi**	Muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarining umumiy debitorlik qarzlardagi nisbatini aks ettiradi; moliyaviy xatar darajasini ko‘rsatadi	*Dmud / Deb*
6	**Aym tarkibida o‘z mablag‘lari ulushi**	Aylanma aktivlarning qancha qismi xususiy kapital hisobiga moliyalashtirilganligini ko‘rsatadi	*(O‘m + Ump − As) / Aym*

Keltirilgan jadvalda aylanma mablag‘larning holatini tavsiflovchi olti ko‘rsatkich ularning hisoblash metodikasi va iqtisodiy mazmuni bilan birga tizimli tarzda ifodalangan.

Ushbu ko‘rsatkichlar tartibi korxona tahlilchisiga balans ma’lumotlari asosida aylanma aktivlar tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarni kuzatib borish va moliyaviy xatarlarni erta aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, muddati o‘tgan debitorlik qarzlari ulushining

[183] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va korxona moliyaviy hisoboti asosida muallif tuzildi*

o‘sishi pul oqimining buzilganligi belgisi sifatida qabul qilinib, zudlik bilan boshqaruv choralarini talab etadi.

Aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik summasi o‘rtacha xronologik formula bo‘yicha hisoblab chiqiladi:[184]

$$AM_{\text{o‘rt.yil}} = (\tfrac{1}{2}AM_1 + AM_2 + AM_3 + AM_4 + \tfrac{1}{2}AM_5) / 4$$

Bu yerda: AM_1 ... AM_5 — choraqlar boshi va oxiridagi aylanma mablag‘lar summasi; denominatorda — choraqlar soni (4).

Ushbu ko‘rsatkich biznes-rejalar tuzishda ham, aylanma mablag‘lar samaradorligini baholashda ham fundamental hisoblash bazasi bo‘lib xizmat qiladi. Aylanma mablag‘larning holat ko‘rsatkichlarini to‘laqonli tahlil qilish korxona dinamikasini kuzatishni va ularni barcha aktivlar dinamikasi bilan taqqoslashni talab etadi — bu yondashuv aylanma aktivlarning umumiy aktivlar tarkibidagi ulushi qanday o‘zgarayotganligini aniqroq aks ettiradi.

Ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari korxona aylanma aktivlari bilan qanchalik qurollanganligini, me’yoriy talablarga qanchalik mos kelishini va o‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganlik darajasini ko‘rsatib beradi. Aylanma mablag‘larning summasi va aylanish tezligini belgilangan me’yorlar bilan taqqoslash; o‘z va qarz mablag‘larining muomala mablag‘lari tarkibidagi ishtirokini aniqlash; aylanma mablag‘larning umumiy hajmi va turlari bo‘yicha shakllari va manbalarini o‘rganib chiqish — ta’minlanganlik tahlilining asosiy metodologik yo‘nalishlari hisoblanadi.

3.6-jadval.

Aylanma mablag‘lar (Aym) bilan ta’minlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar[185]

№	Ko‘rsatkich nomi	Iqtisodiy mazmuni	Hisoblash formulasi
1	**Aym sig‘imi (1 so‘m natijaga to‘g‘ri keladigan Aym)**	Bir so‘m daromad yoki natija ko‘rsatkichi uchun qancha aylanma mablag‘ sarflanganligini ko‘rsatadi (natijaning fondliligi)	*Aym / Q*
2	**Aym.m ning Aym.x bilan ta’minlanishi**	Haqiqiy aylanma mablag‘lar summasining me’yor bilan qanchalik mos kelishini ko‘rsatadi	*Aym.x / Aym.m*

[184] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 143-bet.
[185] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

3	**1 so‘m asosiy vositaga to‘g‘ri keladigan Aym**	Asosiy fondlarning aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik darajasini aks ettiradi	*Aym / Av*
4	**Bir xodimga to‘g‘ri keladigan Aym**	Xodimlarning aylanma mablag‘lar bilan qurollanganlik darajasini ifodalaydi; ish unumdorligi tahlilida qo‘llaniladi	*Aym / X*

3.4. Korxona aylanma mablag‘lari samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholash va uni oshirish imkoniyatlari

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini ta’minlash va ularning aylanishini tezlashtirish nafaqat alohida korxona uchun, balki umummilliy iqtisodiyot uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.[1] Aylanish jadallashuvi resurslarning nisbiy ozod qilinishiga, ijtimoiy xarajatlarni qisqartirishga va iqtisodiy rivojlanish sur’atini oshirishga bevosita hissa qo‘shadi.

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi uch asosiy parametr orqali tavsiflanadi: aylanish tezligi, daromadlilik va rentabellik — ya’ni aylanma mablag‘larning bir so‘miga to‘g‘ri keladigan foyda miqdori. [3] Ushbu parametrlarni birlashtiruvchi ko‘rsatkichlar tizimi quyidagi jadvalda keltirilgan.

3.7-jadval.

Aylanma mablag‘lar (Aym) samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar[186]

№	Ko‘rsatkich nomi	Iqtisodiy mazmuni	Hisoblash formulasi
1	**Aym aylanuvchanligi, kunlarda**	Bir to‘liq aylanish tsikli necha kunga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi	*Aym_o‘rt × Ks / Q*
2	**Aylanish koeffitsienti, martada**	Hisob davrida aylanma mablag‘lar necha marta to‘liq tsiklni bajarganligini ifodalaydi	*Q / Aym_o‘rt*
3	**Aym rentabelligi, foizda**	100 so‘m aylanma mablag‘ga to‘g‘ri keladigan sof foydani ko‘rsatadi	*SF × 100 / Aym_o‘rt*

[186] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

4	**Aym daromadliligi, foizda**	100 so‘m aylanma mablag‘ga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadni ifodalaydi	*D × 100 / Aym_o‘rt*
5	**Yuklanish koeffitsienti**	Sotilgan har 1 so‘m mahsulotga qancha aylanma mablag‘ sarflanganini ko‘rsatadi; aylanish koeffitsientiga teskari	*Aym_o‘rt / Q*

Samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash uslubiyoti

Kunlarda ifodalangan aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi (AM_{at}) aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik summasi bilan davrdagi kunlar sonining ko‘paytmasini mahsulot sotish summasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi:[5]

$$AM_{at} = (AM_{o‘rt.yil} \times K_s) / Q$$

Bu yerda: K_s — davrdagi kunlar soni (yil uchun — 360, yarim yil — 180, chorak — 90, oy — 30); Q — mahsulot sotish summasi.

Aylanish koeffitsienti (AM_{ak}) sotilgan mahsulot summasini o‘rtacha yillik aylanma mablag‘lar summasiga bo‘lish yoki davrdagi kunlar sonini aylanish kunlariga bo‘lish yo‘li bilan topiladi:[5]

$$A_k = Q / AM_{o‘rt.yil}$$

Aylanma mablag‘lar rentabelligi (AM_{ren}) sof foyda summasining o‘rtacha yillik aylanma mablag‘larga nisbati sifatida aniqlanadi:[16]

$$AM_{ren} = (SF \times 100) / AM_{o‘rt.yil}$$

Bu yerda: SF — sof foyda summasi. Ushbu ko‘rsatkich korxona aylanma mablag‘larining 1 so‘miga qancha foyda olinayotganligini ko‘rsatadi.

Aylanma mablag‘lar daromadliligi ($AM_{daromad}$) esa daromad summasini o‘rtacha yillik aylanma mablag‘larga bo‘lish yo‘li bilan topiladi:[16]

$$AM_{daromad} = (D \times 100) / AM_{o‘rt.yil}$$

Aylanma mablag‘larni yuklanish koeffitsienti aylanish koeffitsientiga teskari qiymatni ifodalaydi va sotilgan har 1 so‘m mahsulotga sarflangan aylanma mablag‘larni tavsiflab beradi[187]:

$K_{yuk} = AM_{o‘rt.yil} / Q$

Aylanma mablag‘larning to‘liq aylanish muddati qanchalik qisqa bo‘lsa yoki aylanishlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik kam aylanma mablag‘ talab qilinadi[188]. Aksincha, aylanma mablag‘lar qancha tez aylanishda bo‘lsa, ulardan foydalanish shunchalik samarali hisoblanadi.

Aylanma mablag‘lar samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar va takomillashtirish yo‘llari

Aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlariga ko‘plab omillar ta’sir etadi.[189] Ularning asosiylarini ikki guruhga bo‘lish mumkin. Tashqi omillar: xom ashyo va materiallar narxlarining o‘zgarishi, bank kreditlari stavkalari, soliq yuklama darajasi va bozor kon’yunkturasi. Ichki omillar: mahsulot hajmining ko‘payishi, aylanma mablag‘lar tuzilishining yaxshilanishi, ularni belgilangan me’yorlar darajasiga yetkazish, debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish, xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblarni tezlashtirish.

Bugungi kunda aylanma mablag‘larda, ayniqsa korxonalarning moddiy-tovar boyliklarida band bo‘lgan yirik pul mablag‘lari ularning to‘liq saqlanishi, maqsadlarga muvofiq va samarali foydalanish, shuningdek aylanishini tezlashtirishni talab qiladi. Bu maqsadga erishish uchun fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini keng qo‘llash; ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida ilmiy jihatdan asoslangan me’yor va normativlar tizimini shakllantirish; korxonalarni uzoq muddatli xo‘jalik aloqalariga o‘tkazish va kooperatsiyani rivojlantirish; mahsulot, moliyaviy, moddiy va energetik resurslarning sifat balansini tuzish; boshqarish tizimini tashkil etishning optimal shakllarini qo‘llash zarur bo‘ladi.

Aylanma mablag‘larni mutlaq va nisbiy ozod qilish

Aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish samarasi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: mutlaq va nisbiy ozod qilish[190]. Ushbu

---

[187] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 237-bet.

[188] [2] Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 15th ed. Mason: Cengage, 2016. P. 570.

[189] Kaplan R.S., Atkinson A.A. Advanced Management Accounting. 3rd ed. New Jersey: Prentice Hall, 1998. P. 341.

[190] Blank I.A. Upravleniye oborotnym kapitalom. Kiev: Nika-Tsentr, 2005. 201-bet.

ikkita ko‘rinishni bir-biridan farqlash boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Mutlaq ozod qilish korxonaning aylanma mablag‘larga bo‘lgan jami ehtiyojini pasaytiradi va mavjud resurslardan ratsional foydalanishga qaratilgan turli tashkiliy-texnik chora-tadbirlar — jarayonlarni optimallashtirish, zaxiralarni kamaytirish, ta’minot zanjirini takomillashtirish — hisobiga amalga oshiriladi.

Nisbiy ozod qilish aylanma mablag‘lar hajmining o‘zgarishini va sotilgan mahsulot hajmining o‘sishini bir vaqtda aks ettiradi. Uni aniqlash uchun hisobot yilida aylanma mablag‘larga ehtiyojni — mahsulotni mazkur davr davomida sotish bo‘yicha haqiqiy aylanish hamda o‘tgan davrdagi aylanishni (kunlarda) inobatga olgan holda — alohida hisoblash zarur. Ular o‘rtasidagi farq nisbiy ozod qilingan vositalar miqdorini beradi. Bu ko‘rsatkich aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi o‘sganligi tufayli qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilmay turib sotish hajmini qancha ko‘paytirganligi yoki bir xil sotish hajmida qancha mablag‘ni ozod qilish mumkinligini ko‘rsatib beradi.

Xulosa tariqasida ta’kidlash lozimki, aylanma mablag‘larning samaradorligini oshirish — bu yakka ko‘rsatkich bilan o‘lchanmaydigan, ko‘p o‘lchamli va uzluksiz boshqaruvni talab qiluvchi strategik vazifadir. Faqat tizimli yondashuv — me’yorlashtirishdan tortib faktoring operatsiyalarigacha bo‘lgan barcha instrumentlarni birgalikda qo‘llash — transport korxonasining moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi va raqobat muhitida uning mavqeini mustahkamlaydi.

Tayanch so‘zlar va iboralar

1-guruh — Umumiy tushunchalar		
Nr	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
1	**Aylanma mablag‘lar**	Korxonaning ishlab chiqarishni tashkil etishga yo‘naltirilgan, muomala tsiklida doimiy harakatda bo‘luvchi joriy pul mablag‘lari majmui.
2	**Aylanma kapital**	Aylanma mablag‘larning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rinishi; korxona kapitali tarkibida qisqa muddatli aktivlar ulushi.
3	**Aylanma ishlab chiqarish fondlari**	Bir tsikl davomida to‘liq sarflanadigan va qiymatini tayyor mahsulotga bir yo‘la o‘tkazadigan moddiy resurslar.
4	**Muomala fondlari**	Muomala sohasida faoliyat yurituvchi aylanma aktivlar: naqd pul, debitorlik talablari, qimmatli qog‘ozlar.
5	**Zaxira**	Ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlash maqsadida jamg‘ariladigan moddiy-tovar boyliklar qoldig‘i.

2-guruh — Tarkib va tuzilma elementlari		
Nr	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
6	**Ichki ishlab chiqarish zaxiralari**	Korxona ichida hosil bo‘luvchi va joriy operatsion ehtiyojlarga sarflanadigan resurslar zaxirasi.
7	**Ishlab chiqarish zaxiralari**	Omborlarda saqlanayotgan, ishlab chiqarish jarayoniga kiritilishini kutayotgan xom ashyo, materiallar va yoqilg‘i.
8	**Tugallanmagan ishlab chiqarish**	Qayta ishlash bosqichiga kiritilgan, lekin hali tayyor xizmat yoki mahsulot holiga kelmagan resurslar.
9	**Kelgusi davr xarajatlari**	Joriy davrda amalga oshiriladigan, ammo iqtisodiy manfaati keyingi davrlarda namoyon bo‘ladigan xarajatlar.
10	**Aylanma fondlar tuzilmasi**	Aylanma mablag‘larning alohida elementlari o‘rtasidagi nisbat; tarmoq texnologiyasiga bog‘liq.
3-guruh — Shakllantirish manbalari		
Nr	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
11	**Xususiy aylanma mablag‘lar**	Ustav kapitali va yig‘ilgan foyda hisobiga shakllangan aylanma aktivlar; moliyaviy mustaqillikning asosi.
12	**Qarzga olingan aylanma mablag‘lar**	Bank kreditlari va boshqa qarz vositalari hisobiga jalb qilingan vaqtinchalik aylanma mablag‘lar.
13	**Faktoring**	Debitorlik talablarini maxsus moliyaviy vositachiga sotish orqali aylanma mablag‘larni tezkor to‘ldirish usuli.
4-guruh — Me’yorlashtirish va samaradorlik ko‘rsatkichlari		
Nr	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
14	**Aylanma mablag‘larni me’yorlashtirish**	Ishlab chiqarish uzluksizligi uchun zarur minimal aylanma mablag‘lar miqdorini ilmiy asosda hisoblash jarayoni.
15	**Tugallanmagan ishlab chiqarishni me’yorlashtirish**	Ishlov berilish jarayonidagi resurslar qoldig‘ining minimal zarur miqdorini belgilash uslubi.
16	**Aylanish koeffitsienti**	Sotish hajmining o‘rtacha aylanma mablag‘lar qiymatiga nisbati; aylanuvchanglik tezligini ko‘rsatadi.
17	**Aylanma mablag‘larni yuklanish koeffitsienti**	Bir so‘m mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan aylanma mablag‘lar ulushi; aylanish koeffitsientiga teskari.
18	**Bir marta aylanish davomiyligi**	Aylanma mablag‘larning to‘liq bir aylanmani amalga oshirishi uchun ketadigan kun soni.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aylanma mablag‘lar ishlab chiqarish aylanma fondlaridan qanday farq qiladi? Ularning iqtisodiy mohiyatidagi tub farqni misollar orqali tushuntiring.

2. Aylanma mablag‘larni tashkil qiluvchi asosiy elementlar qaysilar? Ularni guruhlar bo‘yicha tasniflang.

3. Aylanma mablag‘lar tuzilmasi deganda nima tushuniladi? Qaysi omillar uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi?

4. Qaysi ko‘rsatkichlar ishlab chiqarish aylanma fondlari va aylanma mablag‘lardan foydalanish darajasini tavsiflaydi?

5. Qaysi omillar aylanma mablag‘larning aylanish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi? Ichki va tashqi omillarni ajrating.

6. Korxonada mahsulotning material sig‘imini kamaytirish qanday ahamiyat kasb etadi? Bu ko‘rsatkichni pasaytirish yo‘llarini ko‘rsating.

7. Aylanma mablag‘larni me’yorlashtirishning mohiyati va ahamiyati qanday? Me’yorlashtirishning uch bosqichini izohlang.

8. Faktoring operatsiyalarining mohiyatini tushuntirib bering. Ochiq va yopiq faktoringning farqlari nimada?

9. Aylanma mablag‘larning to‘liq aylanishi necha bosqichdan iborat? Har bir bosqichning transport korxonasidagi ko‘rinishini tavsiflang.

10. Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari nimalar? Aylanish koeffitsienti, rentabellik va yuklanish koeffitsientini hisoblash formulalarini keltiring.

IV BOB TRANSPORT KORXONALARI FAOLIYATINI REJALASHTIRISH ASOSLARI

4.1. Transport korxonasini rejalashtirishning mohiyati, tamoyillari va turlari.

4.2. Strategik rejalashtirish va uning inqiroz holatlarini bartaraf etishda roli.

4.3. Biznes reja va uning mazmuni.

4.4. «O‘zbekiston temir yo‘llari» Aktsiyadorlik jamiyati Biznes-rejasi 2023-yil uchun

4.1. Transport korxonasini rejalashtirishning mohiyati, tamoyillari va turlari.

Iqtisodiy faoliyatni boshqarish nazariyasida reja deganda muayyan vaqt oralig‘iga mo‘ljallangan, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan harakatlar majmuini aniq belgilab beruvchi ish dasturi tushuniladi[191]. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish mulkchilik shaklidan, korxona hajmidan va boshqa omillardan qat’i nazar, har qanday xo‘jalik sub’ekti uchun zaruriy boshqaruv funksiyasiga aylanib bormoqda. Avtomobil transporti korxonalari ham ushbu umumiy qoidadan mustasno emas — ular ham istiqbolli biznes yo‘nalishida kompleks harakat dasturiga ega bo‘lishi lozim.

Maqsadlar va ularni amalga oshirish muddatlari, mas’ul ijrochilar, moddiy-texnik resurslarga bo‘lgan ehtiyoj, moliyalashtirish hajmi va mablag‘larni olish manbalari aniq ko‘rsatilgan holda tuzilgan reja — transport korxonasining muvaffaqiyatli ishlashining kafolatidir[192]. Aksincha, rejalashtirishsiz faoliyat yurituvchi korxona ko‘r-ko‘rona harakat qiladi: rahbariyat tomonidan qabul qilingan qarorlar real iqtisodiy holatdan uzoq bo‘lib, bu transport biznesining yakuniy natijalariga bevosita zarar yetkazadi.

Rejalashtirishning asosiy vazifalari va ahamiyati

Rejalashtirish avtomobil transportida ishlab chiqarishni boshqarish jarayonining eng muhim funksiyasi sifatida bir qator hal qiluvchi vazifalarni bajaradi[193]. Birinchidan, rejalashtirish korxonaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini oldindan ko‘rishga va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qulay imkoniyatlardan foydalanish yoki muammolarni

[191] Drucker P.F. The Practice of Management. New York: Harper & Row, 1954. P. 78.
[192] Shodiyeva G.M. Transport iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. 158-bet.
[193] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 168-bet.

zamonaviy boshqarish vositalarini tatbiq etib bartaraf etish imkonini beradi. Ikkinchidan, korxonaning barcha resurslarini — moddiy, moliyaviy va mehnat — oqilona taqsimlash va ulardan maksimal samaradorlik bilan foydalanish mexanizmini shakllantiradi.

Uchinchidan, puxta o‘ylangan rejalashtirish tizimi biznesning barqarorligini ta’minlab, to‘lovga qodir emaslik va bankrotlik xavfini sezilarli darajada kamaytiradi[194]. To‘rtinchidan, korxonada ilmiy-texnik siyosatni maqsadli, izchil va samarali amalga oshirishga yo‘l ochib beradi. Beshinchidan, bozor kon’yunkturasiga muvofiq transport xizmatlarining sifati doimiy ravishda oshirib boriladi. Oltinchidan, ishlab chiqarish samaradorligi yaxshilanib, korxonaning moliyaviy ahvoli mustahkamlanadi. Ettinchidan, korxona bo‘linmalarining harakatlarini muvofiqlashtirish ta’minlanadi va zaruriy axborotni to‘plash, tahlil qilish hamda undan to‘g‘ri foydalanish rag‘batlantiriladi. Va nihoyat, ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat tizimi takomillashtirilib, hisobot mexanizmlari yanada aniqroq va shaffofroq bo‘ladi.

Reja tuzish jarayonida boshqaruvning barcha bo‘g‘inlari rahbarlari o‘zlarining umumiy harakat dasturini birgalikda ishlab chiqadilar: mushtarak faoliyatning bosh maqsadi va kutilayotgan natijasini aniqlashtiradilar, har bir bo‘lim va xodimning umumiy ishda tutgan o‘rnini belgilaydilar, reja qismlarini yagona iqtisodiy tizimga integratsiyalaydilar hamda tasdiqlangan rejalarni hayotga tatbiq etish jarayonida mehnat harakatlarining yagona yo‘nalishi bo‘yicha qarorlar ishlab chiqadilar. Shu boisdan reja ishlab chiqishda nafaqat rejalashtirish texnikasiga rioya qilish, balki kelajakda maqsadlarga erishishning real imkoniyati ham ta’minlanishi shart.

Rejalashtirish tamoyillari va ularning mazmuni

Rejalashtirish tamoyillari korxona va uning xodimlarini rejalashtirish jarayonida yo‘naltiruvchi asosiy nazariy qoidalar sifatida talqin etiladi. Ular korxonadagi rejalashtirilgan ishlarning yo‘nalishi va aniq mazmunini oldindan belgilab beradi, shu bois ularni bilish va qo‘llash rejalashtirish samaradorligi uchun muhim shart hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda ifodalangan tamoyillar tizimi shuni ko‘rsatadiki, samarali rejalashtirish — bu nafaqat texnik jarayon, balki korxona boshqaruvining strategik madaniyatini shakllantirishdir.[195] Ayniqsa moslashuvchanlik tamoyili zamonaviy transport iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi: bozor kon’yunkturasi, yoqilg‘i narxlari,

[194] Blank I.A. Osnovy finansovogo menedzhmenta. T.1. Kiev: Nika-Tsentr, 2004. 391-bet.
[195] Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: HBS Press, 1996. P. 30.

raqobat muhiti va yo‘lovchilar hamda yuk jo‘natuvchilar talabining tez o‘zgarib turishi rejalarni muttasil tuzatishni hayotiy zaruriyatga aylantiradi.[6]

4.1-jadval.

Rejalashtirish tamoyillarining mazmuni va amaliy ifodalanishi[196]

Tamoyil nomi	Nazariy mazmuni	Transport korxonasida ifodalanishi
Birlik	Rejalashtirish ob’ekti — korxona tizim sifatida — yagona maqsadli yo‘nalishga ega bo‘lgan o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat	Barcha bo‘linmalar: harakatlanuvchi tarkib, ta’mirlash, ekspeditsiya, moliya — yagona korxona rejasida uyg‘unlashtiriladi
Uzluksizlik	Rejalashtirish to‘xtovsiz amalga oshirilishi va ishlab chiqilgan rejalar bir-birini organik ravishda almashtirib borishi lozim	Yillik reja choraklarga, chorak esa oylik va smenali kunlik rejalarga bo‘linib, uzluksiz zanjir hosil qiladi
Moslashuvchanlik	Rejalar va rejalashtirish jarayonining ichki va tashqi o‘zgarishlarga moslashib, yo‘nalishini tuzatish qobiliyati	Transport buyurtmalarining o‘zgarishi, mavsumiy tebranishlar yoki yonilg‘i narxlarining ko‘tarilishi rejaga tezkor o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etadi
Aniqlik	Reja korxona uchun mavjud va kutilayotgan muammolarni hal qilish uchun yetarli bo‘lgan aniqlik darajasiga ega bo‘lishi kerak	Uzoq muddatli rejalar strategik yo‘nalishlarni belgilasa, joriy rejalar aniq ko‘rsatkichlar va miqdoriy mo‘ljallar bilan ishlaydi
Ilmiylik	Rejalashtirish ishonchli axborot va ilmiy asoslangan usullar yordamida amalga oshirilishi, fan-texnika yutuqlarini aks ettirishi lozim	Transport me’yorlari, texnik xizmat ko‘rsatish normativlari va mavsumiy tebranishlar ilmiy hisobi rejaga asos bo‘ladi
Maqsadlillik	Korxonaning barcha qismlari yagona yakuniy maqsadga ega bo‘lib, unga erishish birinchi o‘ringa qo‘yiladi	Yuk tashish hajmi, xizmat sifati va rentabellik maqsadlari barcha bo‘limlar rejasining bosh mezoni sifatida belgilanadi

[196] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

Birlik tamoyili rejalashtirish jarayonining murakkab, tizimli xususiyatini belgilaydi. Korxona o‘zi ham o‘zaro bog‘liq va yagona maqsadli yo‘nalishga ega bo‘lgan elementlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, birlik tamoyili korxonaning alohida bo‘linmalari va turli darajadagi rejalarning rejalashtirilgan faoliyatini majburiy o‘zaro bog‘lash va muvofiqlashtirish zaruriyatini bildiradi. Korxona rejalashtirishida barcha ishlab chiqarish birliklarini qamrab olib, ular orasidagi ishda muvozanatni ta’minlash talab etiladi.

Uzluksizlik tamoyili ikki muhim talabni o‘z ichiga oladi: korxonada rejalashtirish uzluksiz amalga oshirilishi va ishlab chiqilgan rejalar bir-birini organik ravishda almashtirishi kerak. Uzluksizlikni saqlab qolishning ikki asosi bor. Birinchidan, tashqi muhitning noaniqliği va kutilmagan o‘zgarishlarning doimiy mavjudligi korxonaning istiqbollarini va rejalarini muttasil moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, korxonaning o‘z afzalliklari va imkoniyatlari haqidagi tushuncha ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Agar korxona bunday o‘zgarishlarni hisobga olmasa, rejalashtirilgan va haqiqatda olingan natija o‘rtasidagi farq katta, ba’zan esa salbiy bo‘lishi mumkin.

Moslashuvchanlik tamoyili ichki va tashqi tabiatdagi kutilmagan o‘zgarishlar yuzaga kelishi munosabati bilan rejalar va butun rejalashtirish jarayonining o‘z yo‘nalishini tuzatish qobiliyatini anglatadi. Kerakli moslashuvchanlikni ta’minlash uchun rejalarda zarur o‘zgarishlarni amalga oshirish, ularni o‘zgaruvchan sharoitlar bilan bog‘lash imkonini beradigan mexanizmlar ko‘zda tutilishi lozim. Shunday qilib, rejalarning moslashuvchanligi korxonaning o‘ziga va u amalga oshiradigan dasturlarga qo‘shimcha barqarorlik beradi.

Aniqlik tamoyili ishlab chiqilgan reja korxona uchun mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun yetarli bo‘lgan aniqlik darajasiga ega bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi. Uzoq muddatli rejalashtirish faqat strategik maqsadlar va ularni amalga oshirishning eng umumiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish bilan cheklansa, o‘rta va undan ham ko‘proq qisqa muddatli rejalar batafsil va aniq ko‘rsatkichlar bilan ishlab chiqilishi kerak.

Ilmiylik tamoyili rejalashtirishni ishonchli axborot va ilmiy asoslangan usullar yordamida amalga oshirish lozimligini nazarda tutadi. [14] Bundan tashqari, bu tamoyil rejalar fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlaridan, shuningdek dunyoda ma’lum bo‘lgan alohida korxonalarning eng yaxshi amaliyotlaridan foydalanishi lozimligini anglatadi.

Maqsadlilik tamoyili rejalashtirishning tizimli xususiyatiga asoslanib, korxonaning barcha qismlari yagona yakuniy maqsadga ega bo‘lib, uni amalga oshirish birinchi o‘ringa — ustuvorlikka ega bo‘lishini nazarda tutadi. [13] Shu bilan birga, korxona har doim yakuniy natija bog‘liq bo‘lgan asosiy zaxiralarni tanlab, ularga erishish uchun birinchi navbatda intilishi kerak. Yetakchi yo‘nalishlarni tanlash korxonadagi ishlar holati chuqur tahlilga asoslangan bo‘lishi shart.

Rejalashtirish usullari: tasnifi va qo‘llanilish sohalari

Rejalarni ishlab chiqishda bir nechta metodologik yondashuv qo‘llaniladi, ularning har biri o‘ziga xos maqsad va tatbiq etish sohalariga ega. Amaliyotda ushbu usullar odatda bir-birini to‘ldirib, majmuada qo‘llaniladi — bu esa rejalashtirishning to‘liqligini va ishonchliligini ta’minlaydi.

Balans usuli makroiqtisodiy darajada ham, korxona miqyosida ham keng tarqalgan eng universal rejalashtirish metodlaridan biridir. [7] Ushbu usulda moddiy balanslar (yoqilg‘i, elektr energiyasi, uskunalar, qurilish materiallari), mehnat balanslari (mehnat resurslari balansi, ish vaqti balansi) va moliyaviy balanslar (pul daromadlari va xarajatlar balansi, kassa rejasi) parallel ravishda tuziladi. Kompleks balanslar — ishlab chiqarish quvvati balansi va imkoniyatlar balansi — esa turli turdagi resurslarning uyg‘unligini umumiy tarzda nazorat qilishga xizmat qiladi.

Normativ usul korxonada rejalashtirish jarayonida me’yorlar va standartlarning keng tizimini qo‘llashga asoslanadi: materiallar va ehtiyot qismlar iste’moli me’yorlari, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish normativlari, mehnat zichligi normativlari, harakatlanuvchi tarkib va asbob-uskunalardan foydalanish standartlari, materiallar va yoqilg‘i zaxiralari me’yorlari, moliyaviy standartlar. Muhim shartki, me’yor va normativlar progressiv xarakterga ega bo‘lishi va yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish hamda mehnatni tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha rejalashtirilgan tadbirlarni hisobga olgan holda muntazam qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Texnik-iqtisodiy omillarga asoslangan rejalashtirish usuli ishlab chiqarish dasturini va korxona rejasining boshqa bo‘limlarini, xususan mehnat va kadrlar rejasini shakllantirishda keng qo‘llaniladi. Ushbu usulda ko‘plab omillar inobatga olinadi: texnik omillar — yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, rekonstruktsiya va texnik qayta jihozlash; ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish; transport hajmining o‘zgarishi va tashilayotgan tovarlar nomenklaturasi; bozor

omillari — inflyatsiya va narx tebranishlari; korxona, ishlab chiqarish va mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq maxsus omillar.

Maqsadli-dasturiy usul, ko‘p o‘zgaruvchili hisob-kitoblar va iqtisodiy-matematik usullar optimallash masalalarini hal qilishda qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtda ratsional marshrutlar tuzish, avtomobillarni marshrutlar bo‘ylab taqsimlash, tovar va yo‘lovchilarni aniq tashish uchun harakatlanuvchi tarkibni tanlash kabi masalalarni hal etishda iqtisodiy-matematik usullar va kompyuter texnologiyalari keng tatbiq etilmoqda. Masalalar ishlab chiqarish xarajatlarining minimumi yoki harakatlanuvchi tarkibdan maksimal daromad olish mezoni asosida yechiladi.

Rejalar turlari: muddati va funksional maqsadiga ko‘ra tasnif

Amal qilish muddatiga ko‘ra transport korxonalari rejalashtirishining uch asosiy turi farqlanadi: uzoq muddatli (strategik), joriy (yillik) va operatsion (tezkor) rejalar. Ushbu uch darajali tizim rejalashtirishning iyerarxiyasini ifodalab, har bir daraja keyingi bosqichga yo‘l-yo‘riq beruvchi va ularni bir-biriga bog‘lovchi kalit bo‘g‘in vazifasini bajaradi.

Uzoq muddatli (strategik) reja bir yildan ortiq muddatni qamrab oladi va har bir transport korxonasida majburiy tartibda ishlab chiqiladi. [1] Ushbu reja uzoq muddatli maqsadlar va ularga erishish yo‘llarini, moddiy va moliyaviy resurslarning muhim sarflarini belgilab beradi. Strategik rejalashtirishning bosh maqsadi — noaniqlikni keltirib chiqaruvchi dinamik va o‘zgaruvchan tashqi va ichki muhitda korxonaning hayotiy salohiyatini saqlab qolish va kengaytirishdir. [4] Natijada korxona uzoq muddatli maqsadlarni — faoliyatni kengaytirish, yangi bozorlarni egallash, sheriklik aloqalarini rivojlantirish — belgilaydi va ularga erishish vositalarini ishlab chiqadi.

Joriy rejalashtirish strategik rejada ko‘zda tutilgan yangi korxona imkoniyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish jarayoni hisoblanadi va oldindan belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan vazifa va vositalarni asoslaydi. Joriy rejalashtirish bir yil davomida amalga oshiriladi va yillik reja to‘rt chorakka bo‘linishi mumkin — bu transport xizmatlariga bo‘lgan mavsumiyligi kuchli bo‘lgan talabning notekis taqsimlanishidan kelib chiqadi.

Yillik reja xizmatlarga bo‘lgan talabni aks ettiruvchi mijoz so‘rovlari asosida hisoblanadi. Shu boisdan rejani tayyorlash oldidan transport xizmatlari bozorini, reklama va boshqa marketing faoliyatini atroflicha o‘rganish zarur. Reja muayyan transport turi — yuk, yo‘lovchi,

shaharlararo, xalqaro — ning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi aniq usuldan foydalanib, keng doiradagi ko‘rsatkichlar asosida hisoblanadi.

Operatsion (tezkor) rejalar bir oy, smena yoki bir kun uchun ishlab chiqiladi va joriy rejalashtirishning oxirgi bosqichi hisoblanadi. Rejalashtirish bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan oylik rejalar korxonaning barcha ishlab chiqarish bo‘linmalariga — tsexlar yoki bo‘limlarga — yetkaziladi. Ushbu rejalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar tarkibi muayyan bo‘lim bajaradigan vazifalar mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

4.2-jadval.

Transport korxonasi bo‘linmalarining operatsion rejalar tarkibi[197]

Bo‘linma turi	Operatsion reja ko‘rsatkichlari	Eslatma
Ekspluatatsiya bo‘limi (tashish xizmatlari)	Harakatlanuvchi tarkibni ishlatish dasturi; transport hajmi; operatsion ko‘rsatkichlar; haydovchilar soni va ish haqi jamg‘armasi; transport xarajatlari smetasi	Har bir haydovchiga yo‘l varaqa; tashish turi bo‘yicha tariflar hisobi
Texnik xizmat va ta’mirlash bo‘limi	Harakatlanuvchi tarkibni ta’mirlash bo‘yicha ishlab chiqarish dasturi; ta’sirlar soni va murakkabligi; ishchilar soni; ish turi bo‘yicha xarajatlar smetasi	Har bir ta’mirlash ishchisiga yumushlar ro‘yxati bilan ish buyrug‘i
Moliya va iqtisodiyot bo‘limi	Daromad va xarajatlar rejasi; soliq to‘lovlari; kassa rejasi; aylanma mablag‘lar normativlari	Ichki firma hisobida foyda markazlari sifatida mustaqil operatsion reja tuziladi
Kadrlar bo‘limi	Ish o‘rinlari bo‘yicha reja; malaka oshirish; ish haqini rejalashtirish	Mehnat unumdorligi va ish haqi jamg‘armasi bilan muvofiqlashtirish zarur

Jadvalda keltirilgan bo‘linmalar kesimidagi operatsion reja tarkibi shuni ko‘rsatadiki, transport korxonasida rejalashtirish tarmoqli xarakter kasb etadi — har bir funksional bo‘linma o‘zining maxsus vazifasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar to‘plamini ishlab chiqadi. Smena-kunlik rejalar, operatsion rejalashtirishning amaliy turi sifatida, haydovchilar va ta’mirlash ishchilari uchun aniq topshiriqlarni o‘zida mujassam etadi: har

[197] *Manba: tarmoq amaliyoti va iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

bir haydovchining vazifasi yo‘l varaqa shaklida, har bir ta’mirlash ishchisining topshiriqlari esa ish buyrug‘i shaklida rasmiylashtiriladi.

Shunday qilib, operatsion rejalashtirish korxonaning iqtisodiy faoliyatini rejalashtirishning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi va uning asosiy vazifasi — joriy rejalashtirishning strategik maqsadlardan keltirib chiqarilgan ko‘rsatkichlarini korxona va uning tarkibiy bo‘linmalarining ritmik ishlashi uchun aniq kunlik topshiriqlarga aylantirish va amalga oshirishni ta’minlashdir. O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasi talablariga muvofiq, transport sohasida rejalashtirishni zamonaviy texnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va ilmiy normativlar asosida takomillashtirish davrimizning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.[198]

4.2. Strategik rejalashtirish va uning inqiroz holatlarini bartaraf etishdagi roli.

Har bir transport korxonasi uchun istiqbolli rejalashtirish zarurati, avvalo, transport xizmatlari bozorida raqobatbardosh ustunliklarni yaratish va ularni mustahkamlash istagi bilan belgilanadi. Avtomobil transporti, ayniqsa yuk tashish segmentida raqobat juda kuchli: yirik va o‘rta korxonalar bilan bellashuvga qodir ko‘plab kichik xo‘jalik sub’ektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Transport xizmatlarining ayrim segmentlarida kichik operatorlar ustun mavqega ega bo‘lib, ular katta hajmli kompaniyalar ilgari monopol nazorat qilgan mayda partiyali yuk tashishni to‘liq o‘z qo‘llariga olgan.

Ikki yil va undan ortiq muddatni qamrab oluvchi uzoq muddatli reja ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu jarayonda korxona rivojlanish strategiyasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi — bu istiqbolli rejalashtirishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Istiqbolli rejalashtirish orqali rivojlanish strategiyasi aniqlanishi sababli u ko‘pincha strategik deb ataladi. Bu maqsadlar va ularga erishish yo‘llarini tanlash jarayoni bo‘lgan boshqaruv funksiyalaridan biridir.

Korxona missiyasi, maqsadlari va strategiyasi: uchta daraja

Korxonaning asosiy umumiy maqsadi, ya’ni uning mavjudligining aniq sababi missiya sifatida ta’riflanadi. Missiya korxona maqomini batafsil bayon qilib, turli tashkiliy darajalarda maqsad va strategiyalarni aniqlash uchun yo‘nalish beradi. Maqsadlar esa missiyani amalga oshirish yo‘lida konkret ko‘rsatkichlar sifatida ishlab chiqiladi.

[198] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni 'O'zbekiston Respublikasini 2022–2026 yillarda rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida'. Toshkent, 2022

Ishlab chiqarishning umumiy maqsadlari korxonaning umumiy missiyasi va yuqori rahbariyat yo‘naltirilgan muayyan qadriyatlar asosida shakllantiriladi. Maqsadlar bir qator xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim: aniqlik — o‘lchovli ko‘rsatkichlar bilan ifodalanishi; erishish mumkinligi — real resurslarga mos kelishi; vaqtga bog‘liqligi — bajarish muddati belgilangan bo‘lishi. [8] Ushbu to‘rtta mezon maqsadlarni qayta-qayta qayta ko‘rib chiqishni va ularning amaliy natijasi bo‘lishini ta’minlaydi.

Korxonaning rivoji kontseptsiyasini aks ettiruvchi umumiy maqsadlari uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan bo‘lib, ustuvorlik tamoyiliga ko‘ra uch yo‘nalishda tizimlashtirish mumkin. Birinchi yo‘nalish — mavjud faoliyat turlarida maksimal rentabellikni ta’minlash bo‘lib, u savdo hajmi, daromad darajasi, yillik o‘sish sur’ati, bozor ulushi, kapital tuzilishi va mahsulot sifati kabi miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi. Ikkinchi yo‘nalish — yangi turdagi xizmatlarni rivojlantirish, investitsiya va kadrlar siyosati, ijtimoiy masalalarni hal etish kabi sohalarda firma pozitsiyasini barqarorlashtirish orqali global raqobatbardoshlikni ta’minlashdir. Uchinchi yo‘nalish — xizmatlarni diversifikatsiya qilish, vertikal integratsiya, qo‘shilish va birlashishlar, axborot tizimlarini rivojlantirish kabi faoliyatning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Korxona strategiyasi deganda, uning uzoq muddatli maqsadlariga erishishga qaratilgan rivojlanishning umumiy istiqbolli yo‘nalishi tushuniladi; shu doirada korxona faoliyatida barcha boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. [2] Strategiya missiyani amalga oshirish, maqsadga erishish, faoliyatning shakllari va uslublarini, harakat yo‘nalishi va xarakterini, maqsadga erishish yo‘lini hamda korxona faoliyatining tanlangan sohalari o‘rtasida resurslarni taqsimlash tartibini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Korporativ strategiyaga ega bo‘lish transport kompaniyalariga joriy faoliyatda maqsadli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Transport korxonasi faoliyat strategiyasini ishlab chiqishda muhit tahlili

Transport korxonasining faoliyat strategiyasini ishlab chiqish uchun faoliyat yuritayotgan muhitni chuqur va ko‘p tomonlama tahlil qilish zarur. [5] Ushbu tahlil xo‘jalik yurituvchi sub’ektning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi omillarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi: mamlakat iqtisodiyotining holati, iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik bazasi, soliqqa tortish tizimi va uning transport kompaniyasining moliyaviy ahvoliga ta’siri, mehnat bozori, xaridorlar, yetkazib

beruvchilar, raqobatchilar. Ichki muhit tahlili korxonaning ishlab chiqarish va tashkiliy salohiyatini, texnik-texnologik qo‘llab-quvvatlashni, kadrlar holatini va moliyaviy ahvolni qamrab oladi.

Transport korxonasi ishlayotgan murakkab va ba’zan oldindan aytib bo‘lmaydigan tashqi muhitning iqtisodiy tahlili inqirozni bartaraf etish va rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun oqilona qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish imkonini beradi. [7] Masalan, tahlil jarayonida yaqin kelajakda transport xizmatlariga bo‘lgan talab oshishi aniqlansa, korxona transport hajmini kengaytirishni rejalashtirishi mumkin — buning uchun qo‘shimcha transport vositalari sotib olish, lizing yoki boshqa kompaniyalar bilan qo‘shilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Ortiqcha quvvat mavjud bo‘lgan holatda esa ularni vaqtincha konservatsiya qilish yoki ortiqcha harakatlanuvchi tarkibni sotish chorasi ko‘rilishi mumkin.

Korporativ strategiyalar va funksional strategiyalar tizimi

Har qanday strategik rivojlanish rejasining asosi asosiy (korporativ) strategiya bo‘lib, uni ishlab chiqish korxonaning yuqori boshqaruvi vakolatidir. [1] Korporativ strategiya korxona strategiyalarining birinchi darajasini tashkil etib, korxonaning uzoq muddatli maqsadlarini, umuman rivojlanish yo‘nalishini, resurslar va investitsiyalarni taqsimlashni, barcha strategik yo‘nalishlarni va tarkibiy o‘zgarishlarni belgilaydi. Vaziyatga qarab har bir transport korxonasi to‘rtta asosiy strategiyadan birini yoki ularning kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

Quyidagi jadvalda keltirilgan to‘rtta korporativ strategiya turining har biri o‘zining qo‘llanilish sharoiti va amaliy yo‘nalishlariga ega. O‘sish strategiyasi istiqbolli va barqaror sharoitlarda qo‘llanilsa, qisqartirish strategiyasi inqiroz holatlarida kompaniyani halokatdan saqlab qolish uchun zaruriy chora hisoblanadi.

Qisqartirish strategiyasining uchta asosiy ko‘rinishi mavjud. Birinchisi — biznesni tugatish strategiyasi — bankrotlik xavfi ostidagi korxonani tugatib, uning aktivlarini sotishni ko‘zda tutadi. Ikkinchisi — kamaytirish va qayta yo‘naltirish strategiyasi — korxona samarasiz ishlayotgan, ammo kritik nuqtaga yetib bormagan holatlarda: foydasiz ishlab chiqarishlarni qayta tuzish, mehnat xarajatlarini kamaytirish va ortiqcha resurslarni sotishdan daromad olish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Uchinchisi — ortiqcha qismni kesish strategiyasi — ayrim faoliyat sohalarini qisqartirish, birliklarni yopish yoki sotish orqali xarajatlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasidan iborat.[8]

4.3-jadval.

Transport korxonalari uchun korporativ strategiyalarning tasnifi[199]

Strategiya turi	Qo‘llanilish sharoiti	Asosiy yo‘nalishlari
O‘sish strategiyasi	Ichki resurslar yetarli; bozorda talab o‘smoqda; raqobat imkoniyatlari mavjud	Xizmatlar hajmini oshirish; aggressiv marketing; bozor chegaralarini kengaytirish; xizmat sifatini takomillashtirish
Barqarorlashtirish strategiyasi	O‘sish maqsad emas; bozor nisbatan barqaror; resurslar cheklangan	Mavjud faoliyat hajmini saqlash; tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashish; samaradorlikni oshirish
Qisqartirish strategiyasi	Iqtisodiy inqiroz; kompaniya ishlashi yomonlashgan; bankrotlik xavfi mavjud	Biznesni tugatish; kamaytirib qayta yo‘naltirish; ortiqcha qismni kesish; aktivlarni sotish
Kombinatsiya strategiyasi	Turli bo‘limlar har xil holatda; yirik diversifikatsiyalashgan korxona	Ba’zi faoliyatni qisqartirish va boshqalarini o‘stirish; har bir bo‘linmaga mos strategiya qo‘llash

Funksional strategiyalar va ularning tizimli roli

Asosiy korporativ strategiya bilan bir qatorda korxonaning alohida funksional sohalari va bo‘linmalari uchun tadbirlar va dasturlar komplekslarini o‘z ichiga olgan funksional strategiyalar ishlab chiqilishi mumkin. [6] Ular korporativ strategiyaga asoslangan holda korxonaning asosiy funksional bo‘limlari va xizmatlari tomonidan yaratiladi.

Innovatsion strategiya transport korxonasining innovatsiya, logistika kabi yangi xizmatlarni taqdim etishga tayanib, texnologik yangilanish orqali raqobatbardoshlikni ta’minlashini ko‘zda tutadi. Ishlab chiqarish strategiyasi zarur quvvatlar, harakatlanuvchi tarkibni yangilash, xarajatlarni nazorat qilish va mehnat samaradorligi bo‘yicha qarorlarni o‘z ichiga oladi.

Marketing strategiyasi narxlash siyosatini, ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmini oshirishni, yangi bozorlarga chiqishni va mijozlar bazasini kengaytirishni belgilaydi. Moliyaviy strategiya prognoz va rejalashtirilgan moliyaviy ko‘rsatkichlarni, sotiladigan hajmni, investitsiya loyihalarini baholashni, zarur moliyaviy resurslarni taqsimlash va nazorat qilishni qamrab oladi.

[199] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va tarmoq amaliyoti asosida muallif tuzildi*

Kadrlarni boshqarish strategiyasi ish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni — kadrlar almashinuvi, ishga olish, tayyorlash va qayta tayyorlash, rag‘batlantirish va mehnatni moddiy undirish tizimlarini, ishchilar soni va ish haqini — o‘z ichiga oladi. Amalda strategik rejalashtirishning rolini yetarlicha baholamaslik ko‘pincha transport korxonasi inqirozining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Puxta ishlab chiqilgan funksional strategiyalarsiz korporativ strategiya o‘z maqsadiga erisha olmaydi.

Inqiroz holatlari va inqirozga qarshi boshqaruvning mohiyati

Hozirgi vaqtda tijorat asosida faoliyat ko‘rsatayotgan transport korxonalarining salmoqli qismi og‘ir moliyaviy ahvolda. [10] Ular zararsizlik chegarasida ish olib borib, to‘lovsizlik inqirozi, investitsiyalarning qisqarishi va raqobatbardoshlikning pasayishi bilan tavsiflanadi. Korxonalar ko‘p muammolarga duch keladi va eng noqulay iqtisodiy sharoitlarda faoliyat ko‘rsatadi — bu esa ko‘p hollarda bankrotlikka olib keladi. Bunday sharoitda maxsus boshqaruv yondashuvlarini qo‘llash zaruriyati yuzaga keladi.

Korxonaning inqirozli holati, avvalo, joriy moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini saqlab qolish va barcha darajadagi byudjetlar, byudjetdan tashqari fondlar va biznes hamkorlar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar taqchilligini anglatadi. [10] Inqirozning tashqi ko‘rinishi — korxonaning kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun zarur miqdordagi aylanma mablag‘larni safarbar eta olmasligi. Ichki ko‘rinishi esa kompaniyaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini kerakli pul mablag‘lari bilan qo‘llab-quvvatlash imkoni bo‘lmagani tufayli resurslarni aylanma mablag‘larda tegishli darajada ushlab turish qiyinchiligidir.

Strategik rejalashtirish firma ichki boshqaruvining tarkibiy qismi sifatida tashqi omillar ta’siriga qarshi turishda muhim himoya vazifasini bajaradi. Strategik rejalashtirishning darajasi va sifati qanchalik yuqori bo‘lsa, inqirozli vaziyatlar xavfi shunchalik past bo‘ladi. Bundan tashqari, u inqirozga qarshi boshqaruv va korxonani inqiroz holatidan tiklashning zaruriy elementi hisoblanadi.

Inqirozga qarshi tartiblarning butun majmuini amalga oshirish faqat ishlab chiqarishning keskin pasayishi sharoitida boshlanadi — odatda, korxonaning zararsizligi va nochorligi bilan tavsiflanadi. Biroq bankrotlik tartiblaridan tashqarida bo‘lgan va inqiroz holatlarining oqibatlarini bartaraf etishga mo‘ljallangan inqirozni boshqarish kompaniyaning hayot siklining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi.

Inqirozga qarshi boshqaruv — bu inqirozga qarshi belgilarni ko‘rsatayotgan yoki inqiroz holatida bo‘lgan korxonaga tashqi va ichki ta’sir ko‘rsatish vositalari majmuasidir. Ushbu boshqaruv yondashuvi korxonani to‘liq tugatishga qaratilmagan; uning bosh maqsadi moliyaviy barqarorlikni tiklash va normal faoliyat uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir.

O‘zbekiston qonunchiligi doirasida bankrotlikning oldini olish choralari

O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 5 maydagi ‘Bankrotlik to‘g‘risida’gi Qonuniga muvofiq, bankrotlikning oldini olish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilangan.[12] Birinchidan, tashkilotning moliyaviy tiklanishi — unga moliyaviy yordam ko‘rsatish, aktivlar va majburiyatlar strukturasini optimallashtirish, tashkiliy tuzilmani isloh qilish. Ikkinchidan, qo‘shilish yoki birlashish shaklida qayta tashkil etish — bu yangi kapital jalb qilishning va boshqaruv salohiyatini kuchaytirishning samarali yo‘li. Uchinchidan, haqiqiy moliyaviy holatni baholash va kelajakda ishlash istiqbollarini aniqlash uchun vazifalari bo‘lgan vaqtinchalik ma’muriyatni tayinlash.

Bankrotlikning oldini olishga qaratilgan barcha boshqaruv qarorlarining asosiy farqi shundaki, ular qarzdor korxonalar faoliyatini tugatishni nazarda tutmaydi. Asosiy maqsad transport korxonasining nochorlikdan chiqarilishini ta’minlash va uning normal ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u resurslarni yo‘q qilishdan ko‘ra korxonaning potentsial qiymatini saqlab qolish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Restrukturizatsiya: inqirozni bartaraf etishning tizimli yo‘li

Korxona oldida turgan muammolarni hal qilish yoki ularning yuzaga kelish imkoniyatini yo‘q qilishning eng samarali usuli — puxta ishlab chiqilgan strategiya asosida amalga oshiriladigan restrukturizatsiyadir. Restrukturizatsiya umumiy kompaniyalar faoliyatini ta’minlovchi barcha tuzilmalarda murakkab va o‘zaro bog‘liq o‘zgarishlarni ko‘zda tutuvchi, zararkeltiruvchi korxonalarning sog‘lig‘ini yaxshilashning eng oqilona yo‘li sifatida qaralishi mumkin.

Qayta qurish korxonani modernizatsiya qilish va rekonstruktsiya qilish, texnologiyani yangilash va ishlab chiqarishni tashkil etishni isloh etish, xizmat sifatini yaxshilash uchun boshqaruvni qayta tashkil etish va mahsulot portfelini diversifikatsiya qilish kabi o‘zaro bog‘liq tizim o‘zgarishlariga asoslangan bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda qayta qurish axborot tizimlaridagi yangiliklari, vakolatlarni delegatsiya qilish,

huquq va majburiyatlarni taqsimlash, xodimlarning kasbiy va malaka tarkibidagi o‘zgarishlarni va moliyaviy faoliyatni — pul oqimlarini tartibga solish, aktivlar va majburiyatlarni shakllantirish — o‘z ichiga oladi.

Restrukturizatsiyaga bunday yondashuv korxonaning ishlab chiqarish tarkibini, texnik va texnologik bazasini o‘zgartirish hamda uning marketing va moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini boshqarishni takomillashtirish orqali erishiladigan moliyaviy faoliyatini yaxshilaydi. Shunday qilib, qayta qurish — zararkeltiruvchi korxonani inqiroz holatidan chiqarish, uning transport xizmatlari bozorida mavjud raqobat sharoitida saqlanib qolishining zaruriy shartidir.

Ish va dam olish vaqti O‘zR Mehnat kodeksi hamda DATK farmoylari, buyruqlari, yo‘riqnomalari orqali tartibga solinadi.[224] Ish vaqti — ishchi-xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan vaqtidir. Ish vaqti fondi ma’lum bir davrdagi (yil, kvartal, oy) ish vaqtlarining jamlanmasini aks ettiradi va kunlarda yoki soatlarda hisoblanadi.

Ish vaqti fondi uch turga bo‘linadi. **Takvim fondi** — rejalashtirilgan davrdagi takvimiy kunlar soni. **Nominal fond** — bu takvim kunlaridan bayram va dam olish kunlari chiqarib tashlangan ish vaqti fondi. **Samarali ish vaqti fondi** — bu reglamentlangan va reglamentlanmagan ishga chiqmaslik hisobiga ishda bo‘lmaslik vaqtlarini ayirib tashlangandan keyingi nominal ish vaqti fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga asosan ish vaqtining nominal davomiyligi haftasiga 40 soatdan oshmaydigan miqdorda belgilangan[225]. Zararli mehnat sharoitida ishlaydiganlar uchun haftasiga 36 soatlik, 18 yoshgacha bo‘lgan ishchilar va xizmatchilar uchun esa haftasiga 24 soatlik ish vaqti belgilangan. Olti kunlik ish haftasida normal ish vaqti davomiyligi 7 soat, besh kunlik ish haftasida esa 8 soat. O‘rtacha oylik ish vaqti davomiyligi olti kunlik ish haftasida 25,5 kun (169,5 soat), besh kunlikda esa 21,5 kun (169 soat)ni tashkil etadi. Yillik ish vaqti fondi mos ravishda 2034 va 2028 soatga teng.

Lokomotiv va poyezd brigadalarining ish vaqti poyezdlar harakati jadvali bo‘yicha, lekin 12 soatdan ziyod bo‘lmagan vaqt bilan belgilanadi. Lokomotiv va poyezd brigadalari ishchilariga har haftali dam olish kunlari bir oy davomida haftaning xohlagan kunida safarlar orasidagi normal dam olish vaqtiga 24 soatni qo‘shish yo‘li bilan taqdim etiladi. Lokomotiv va poyezd brigadalari dам olish vaqtini hisoblash uchun quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$T_{\text{dam}} = 2{,}57 \times T - T_{\text{ayl.p}}$$

[224] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2015 (tahrir 2022). 117-120-moddalar.
[225] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2015 (tahrir 2022). 117-120-moddalar.

Bu yerda: $\mathbf{T}_{dam}$ — dam olish vaqtining davomiyligi; 2,57 — 103:40 nisbatidan hosil bo‘lgan koeffitsient; **T** — brigadaning aylanish vaqti davomiyligi; $\mathbf{T}_{ayl.p}$ — aylanma punktda brigadaning dam olish vaqti.

Har bir xodimga yil davomida 15 ishchi kundan kam bo‘lmagan muddatda mehnat ta’tili taqdim etiladi.[226] Yangi ishga kirganlar uchun bu huquq 6 oydan keyin beriladi. Vaqtinchalik ishlaydiganlar (ikki oydan ziyod bo‘lmagan muddatda) va mavsumiy xodimlar (olti oydan ziyod bo‘lmagan sharoitda) bunday huquqdan foydalanmaydilar.

Mehnat resurslarining tarkibi va tuzilishi

Mehnat resurslarini shakllantirish manbalari bir nechta aholi toifalarini birlashtiradi.[227] Asosiy manba — mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholi, ya’ni amaldagi qonunchilikda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan yosh chegaralari oralig‘idagi shaxslar. Bundan tashqari, mehnat yoshidan o‘tgan ishlayotgan shaxslar va ishlayotgan o‘smirlar ham mehnat resurslarining qo‘shimcha manbaini tashkil etadi.

Iqtisodiy faol aholi (ish kuchi) — bu aholining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish uchun o‘z ishchi kuchini taklif etishni ta’minlaydigan qismidir. Iqtisodiy faol aholi soni ish bilan bandlarni va ishga joylashishga muhtoj shaxslarni o‘z ichiga oladi.

Ish bilan bandlar toifasiga quyidagilar kiradi: pul bilan to‘lanadigan yoki natura holidagi haq evaziga yollanib ishlayotganlar; haq yoki daromad olish uchun yollanmasdan haftasiga kamida 2 soat mobaynida ish bajarganlar; kasalligi, dam olishi yoki boshqa sabablar bilan vaqtincha ishda bo‘lmaganlar; oilaviy korxonada haq olmasdan ish bajargan shaxslar.

Ish bilan band bo‘lmagan, ishga joylashishga muhtoj aholi — amaldagi qonunlarga muvofiq ishsizlar sifatida rasman ro‘yxatdan o‘tgan, shuningdek mehnatga qobiliyatli yoshda bo‘lib, vaqtincha ish bilan band bo‘lmagan, haq to‘lanadigan ishi bo‘lmagan, mehnat organlari yordamida yoki mustaqil ravishda faol ish izlayotgan va o‘zlariga ish taklif etilishi bilanoq unga kirishishga tayyor bo‘lgan shaxslardir.[228] Ushbu toifalarning to‘g‘ri tasniflanishi bandlik siyosatini ishlab chiqish va mehnat bozorini tahlil qilishning asosiy metodologik shartidir.

[226] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2015 (tahrir 2022). 117-120-moddalar.
[227] ILO. Key Indicators of the Labour Market. 10th ed. Geneva: ILO, 2022. P. 18.
[228] OECD. Employment Outlook 2022: Building Back More Inclusive Labour Markets. Paris: OECD Publishing, 2022. P. 84.

5.2. Korxona mehnat salohiyatining holatini va ta’minlanganligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Boshqaruv amaliyotida mehnat salohiyatini ob’ektiv baholash, iqtisodiy tahlil o‘tkazish va asosli boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur.[229] Ushbu tizimning metodologik asosi shundan iboratki, mehnat salohiyatining har bir jihati — miqdoriy, tarkibiy, ta’minotli va samaradorlik jihatidan — turli metodologik yondashuvlar yordamida o‘lchanganda, ular birgalikda korxona insoniy kapitalining to‘liq manzarasini shakllantirib beradi.

Mazkur tizimda barcha ko‘rsatkichlar uch mustaqil guruhga taqsimlanadi.[230] Birinchi guruh xodimlar tarkibining joriy holatini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarni — o‘rtacha son, tarkib, aylanuvchanglik, qo‘nimsizlik va turg‘unlik mezonlarini — birlashtiradi. Ikkinchi guruh korxonaning inson resurslari bilan qanchalik to‘liq ta’minlanganligini o‘lchaydi: shtat jadvali bajarilishi, sig‘im, texnik qurollanganlik va aylanma mablag‘lar bilan moslik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Uchinchi guruh esa yuqoridagi ikki guruhning mantiqiy yakunini tashkil etadi — xodimlar faoliyatidan olinadigan iqtisodiy natijani, ya’ni mehnat unumdorligini turli metodologik usullar orqali ifodalaydi.

Quyidagi uch guruhli tizim bir-birini to‘ldirib boradi: birinchi guruh diagnostik vazifani bajarsa, ikkinchisi resurslar bilan ta’minlanganlik darajasini ko‘rsatadi, uchinchi esa ularning iqtisodiy samaradorligini aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlarning har biri alohida ham tahlil qilinishi mumkin, biroq ularning kombinatsiyasi korxona inson kapitalini boshqarishda ancha to‘liqroq va ishonchli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Birinchi guruh: Mehnat salohiyati holatini o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar

Ushbu guruh ko‘rsatkichlari xodimlar sonining o‘zgarishi va harakatlanish dinamikasini raqamli shaklda ifodalaydi. Ularning metodologik qiymati shundaki, ular kadrlar inqirozining dastlabki belgilarini erta aniqlash, shuningdek xodimlarni boshqarish sifatini baholashning ob’ektiv vositasiga aylanadi.

[229] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 286-bet.
[230] Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard. Boston: HBS Press, 1996. P. 108.

5.2-jadval.

Mehnat salohiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar: uch guruhli tizim[231]

Guruh	Tarkibiy ko‘rsatkichlar	Nima uchun zarur?
I — Holat ko‘rsatkichlari	O‘rtacha son (Ms); Tarkibi (Ms.tarkibi); Aylanuvchangligi (Ms.ayl); Qo‘nimsizligi (Ms.qon); Turg‘unligi (Ms.turg)	Xodimlar harakatini kuzatish, turg‘unlik darajasini va almashinuv xatarlarini aniqlash
II — Ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari	Shtat jadvali ta’minlanganlik (Ms.shtat.t); Sig‘im (Ms.sig); Qurollanganlik (Ms.quroll); AM.Ms nisbati	Xodimlar sonini rejaga nisbatan baholash; texnik-iqtisodiy muvozanatni o‘lchash
III — Samaradorlik ko‘rsatkichlari	Mehnat unumdorligi: natural, shartli-natural, pul daromadi, me’yorlashtirilgan vaqt usullarida	Xodimlar samarali ishlatilayotganligini aniqlash; strategik qarorlar uchun asos

O‘rtacha ro‘yxatdagi xodimlar soni (M_s) tanlangan hisobot davri uchun hisoblab chiqiladi. Uning uslubiyoti oddiy: davr boshidagi va oxiridagi xodimlar soni jamlanib, ikkiga bo‘linadi:[232]

$$M_s = (M_{s.boshi} + M_{s.oxiri}) / 2$$

Bir nechta sana bo‘yicha ma’lumot mavjud bo‘lsa, barcha ko‘rsatkichlar yig‘iladi va kuzatuv sanalar soniga bo‘linadi.

Mehnat salohiyatining tarkibiy tahlili xodimlarni alohida toifalar bo‘yicha ajratib o‘rganishni talab qiladi. [4] Masalan, umumiy xodimlar sonida oliy ma’lumotli xodimlar (OMX) yoki o‘rta maxsus ma’lumotli xodimlar (UMX) ulushini, boshqaruv va muhandis-texnik kadrlar nisbatini aniqlash mumkin:

$$M_{s.tarkibi} = M_{si} / M_s \times 100$$

Bu yerda: M_{si} — alohida guruhning xodimlar soni; M_s — umumiy xodimlar soni.

Tarkibiy ko‘rsatkich rahbariyatga xodimlar malaka strukturasining optimal kasbiy portretga qanchalik mos kelishini ko‘rsatib, kadrlar rivojlantirish dasturlarini aniq maqsadlashtirishga imkon beradi.

[231] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

[232] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 286-bet.

Aylanuvchanglik darajasi hisobot davri ichida yangi qabul qilingan va tashkilotni tark etgan xodimlarning umumiy sonini belgilaydi. [1] Bu ko‘rsatkichni hisobga olish almashinuv xarajatlari (ishga qabul, o‘qitish, moslashish) ni boshqarish nuqtai nazaridan muhim:

$M_{s.ayl} = (M_{siqqx} + M_{sibx}) / M_s$

Qabul va ketish bo‘yicha alohida koeffitsientlar ham hisoblanishi mumkin[233]:

$M_{s.ayl.q} = M_{siqqx} / M_s$; $M_{s.ayl.b} = M_{sibx} / M_s$

Qo‘nimsizlik ko‘rsatkichi xodimlarning o‘z tashabbusi yoki intizomiy sabablar bilan tashkilotni tark etish nisbatini ko‘rsatadi[234]. U aylanuvchanlikdan farqli ravishda faqat salbiy chiqishni (ishdan bo‘shatilganlar va o‘z arizasi bilan ketganlarni) hisobga oladi:

$$M_{s.qon} = M_{sibx} / M_s$$

Turg‘unlik ko‘rsatkichi — uch yildan ortiq muddatda bir xil tashkilotda uzluksiz mehnat faoliyati yuritgan xodimlar ulushini ifodalaydi. [5] Bu ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, korxonada tajriba va korporativ bilimlarning o‘sishi shunchalik intensiv bo‘ladi — bu esa aylanma mablag‘lar unumdorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

$M_{s.turg} = M_{3+} / M_s$

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, qo‘nimsizlik va turg‘unlik ko‘rsatkichlari o‘zaro teskari bog‘liq, ammo ular bir-birini avtomatik tarzda almashtira olmaydi. Turg‘unlikning haddan ziyod oshib ketishi korxonada yangi g‘oyalar oqimini cheklashi mumkin; shu boisdan optimal muvozanat saqlanishi — kadrlar siyosatining bosh vazifalaridan biridir.

Ikkinchi guruh: Mehnat salohiyati bilan ta’minlanganlikni o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar

Ta’minlanganlik ko‘rsatkichlar guruhi xodimlar sonini korxonaning ishlab chiqarish quvvati, texnik-texnologik bazasi va moliyaviy imkoniyatlari bilan mos kelish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. [6] Bu ko‘rsatkichlar bir tomondan mehnat resurslarining yetarlilik-yetishmaslik diagnostikasini, ikkinchi tomondan xodimlar bilan moddiy-texnik ta’minotning samarali nisbatini ifodalaydi.

Shtat jadvali bilan ta’minlanganlik ($M_{s.shtat.t}$) haqiqiy ro‘yxatdagi xodimlar sonining normativ (shtat jadvali bo‘yicha talab qilingan) son bilan nisbatini ko‘rsatadi. Ko‘rsatkich 1 dan past bo‘lganda kadrlar tanqisligi, 1 dan yuqori bo‘lganda esa ortiqcha shtat bandligi mavjud:

[233] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU, 2015. 164-bet.
[234] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 191-bet.

$$M_{s.shtat.t} = M_{s.haq} / M_{s.shtat}$$

Mehnat salohiyatining sig‘imi ($M_{s.sig}$**)** yaratilgan (realizatsiya qilingan) mahsulot yoki xizmatlarning bir birligiga to‘g‘ri keladigan xodimlar sonini anglatadi. Aslida bu ko‘rsatkich mehnat unumdorligining aksidir — sig‘im qanchalik past bo‘lsa, bir xodim hisobiga shunchalik ko‘proq mahsulot yaratilayotganligi anglashiladi:

$$M_{s.sig} = M_{s.haq} / Q$$

Mehnat salohiyatining texnik qurollanganligi — bu xodimlarning zamonaviy ishlab chiqarish jihozlari bilan ta’minlanish darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichdir. Jahonda ilmiy-texnika taraqqiyoti jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan sharoitda O‘zbekiston ham texnik modernizatsiya yo‘lida faol ishtirok etishi zarur. Qurollanganlik ko‘rsatkichi asosiy fondlarning faol qismi (AV_f) ni xodimlar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi, teskari ko‘rsatkich esa xodimlar sonini aosiy fondlar faol qismiga bo‘ladi:[235]

$$M_{s.quroll} = AV_f / M_s \quad ; \quad M_{s.sig2} = M_s / AV_f$$

Aylanma mablag‘larning mehnat salohiyati bilan nisbati ($AM.M_s$**)** xodimlar sonining korxona aylanma mablag‘larining umumiy hajmiga munosabatini ko‘rsatadi.[236] Bu ko‘rsatkich boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sir qiluvchi omillar tahlilida yordamchi vosita sifatida qo‘llaniladi:

$$AM.M_s = M_s / AM$$

Ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari birgalikda korxona rahbariyatiga ikki muhim strategik savolga javob berish imkonini yaratadi: xodimlar yetarlimi va ular to‘g‘ri texnik-iqtisodiy muhitda ishlamoqdami? Ushbu savollar yuzasidagi aniq javoblar, o‘z navbatida, ishchi o‘rinlari sonini rejalashtirish va texnologik investitsiyalarni asoslash uchun zaruriy metodologik asos bo‘ladi.

Uchinchi guruh: Mehnat unumdorligi va uning hisoblash metodologiyasi

Mehnat unumdorligi — birlik mehnat sarfiga yaratilgan iqtisodiy natijani ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida xodimlardan foydalanish samaradorligini belgilaydigan asosiy mezonga aylanadi. Klassik iqtisodiy nazariyada bu tushuncha ikki jihatdan qaraladi: bir tomondan, mahsulot birligiga sarflangan mehnat xarajatlari (mehnat ko‘pligi); ikkinchi tomondan, ish vaqtining muayyan birligida yaratilgan mahsulot miqdori (mahsuldorlik). Mehnat unumdorligi

[235] Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 15th ed. Mason: Cengage, 2016. P. 614.

[236] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU, 2015. 164-bet.

oshgani sari mahsulot birligiga sarflangan xarajat kamayadi — bu esa pirovardida xizmatlar raqobatbardoshligini oshiradi.

K. Marksning kapital nazariyasiga koʻra, mehnat unumdorligining oʻsishi ikki omil kombinatsiyasiga bogʻliq: texnik-texnologik rivojlanish (qurollanganlik darajasi) va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar (ish tashkili, ragʻbatlantirish tizimi). [13] Shu boisdan uni faqat raqamlar orqali emas, balki kontekstual tahlil asosida baholash kerak.

Avtomobil transportida asosiy ishlab chiqarish jarayonini bevosita amalga oshiruvchi xodimlar — haydovchilardir[237]. Shu sababli avtotransport korxonalarida mehnat unumdorligini aniqlash ikki yoʻnalishda parallel olib boriladi: barcha xodimlarga nisbatan (umumiy) va faqat haydovchilarga nisbatan (xususiy). Ushbu ikki koʻrsatkichning uygʻunligi xizmat sifati, harakatlanuvchi tarkib va ma’muriy xodimlar oʻrtasidagi nisbatning toʻgʻriligini nazorat qilish imkonini beradi.

5.3-jadval.

Mehnat unumdorligini hisoblash usullarining qiyosiy tahlili[238]

Usul	Formula asosi	Qoʻllanish sohasi	Cheklovlar
I. Natural koʻrsatkich	ΣBti / Ish.s (tonna-km yoki yoʻlovchi-km)	Bir xil tashish turi uchun: faqat yuk yoki faqat yoʻlovchi	Aralash korp.da taqqoslab boʻlmaydi
II. Shartli natural (keltirilgan t-km)	Bshart = Bti.km + Qt × Kkel; MU = ΣBshart / Ish.s	Aralash korxonalar; turli tashish turlarini birlashtirib tahlil qilishda	Kkel koeffitsienti tanlovida subyektivlik
III. Pul daromadi	D / Ish.s yoki D / Hay.s (sum hisobida)	Turli korxona va tarmoqlarni qiyoslashda; universal	Tarif oʻzgarishi natijalari tahlilga ta’sir qiladi
IV. Me’yorlashtirilgan vaqt	Standart vaqt me’yorlari asosida bajarilgan ish birligi	Me’yorlar puxta belgilangan korxonalarda	Me’yorlar eskirsa, natija notoʻgʻri boʻladi

Jadvalda keltirilgan toʻrtta usulning har biri oʻz maqsadli qoʻllanilish doirasiga ega. Amaliyotda ular koʻpincha bir-birini toʻldiruvchi diagnostik vositalar sifatida kombinatsiyada qoʻllaniladi — bu esa mehnat unumdorligi tahlilining toʻliqligini ta’minlaydi.

I usul: Natural koʻrsatkich

[237] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 207-bet.
[238] *Manba: tarmoq amaliyoti va iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

Bu usulda mehnat unumdorligi hisob-kitob davri uchun bajarilgan umumiy transport ishini (tonna-km yoki yo‘lovchi-km) barcha ishlovchilar soniga bo‘lish orqali topiladi:[239]

$$MU = \Sigma Bti \,/\, Ish.s$$

Bu yerda: *Bti* — bajarilgan transport ishi, tonna-km yoki yo‘lovchi-km; *Ish.s* — barcha ishlovchilar soni.

Usulning asosiy kamchiligi: u ma’lum masofaga tashilayotgan yuk massasi yoki yo‘lovchilar sonini alohida ko‘rsatmas, balki faqat ish hajmini (ya’ni mesafaga ko‘paytirilgan og‘irlik) ifodalaydi. [3] Aralash avtomobil transporti korxonalarida bu usul yolg‘iz qo‘llanilib bo‘lmaydi, chunki yuk va yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari tabiati jihatidan farqli bo‘lib, ularni bir xil birlikka keltirmasdan bevosita qiyoslab bo‘lmaydi.

II usul: Shartli natural (keltirilgan tonna-km) ko‘rsatkichi

Aralash transport korxonalari sharoitida, ya’ni bir vaqtda yuk ham, yo‘lovchi ham tashilganda, mehnat unumdorligini aniqlashning yagona to‘g‘ri yo‘li shartli natural ko‘rsatkichga asoslangan metoddan foydalanishdir. Bu usulning mohiyati: turli xil transport ishlarini keltirilgan tonna-kilometrlar (Bshart) orqali yagona o‘lchov birligiga aylantirish:

$$MU = \Sigma Bshart \,/\, Ish.s$$

Shartli ko‘rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$Bshart = Bti.km + Q_t \times K_{kel}$$

Bu yerda: *Bti.km* — bajarilgan transport ishi, tonna-km yoki yo‘lovchi-km; Q_t — tashilgan yuk hajmi, tonna; K_{kel} — keltirish koeffitsienti (tashilgan yuk hajmini, yo‘lovchi-km ni, yo‘lovchilar sonini, avtomobil-soatini tkm-ga aylantiradi).

Keltirish koeffitsientining fizik mohiyati quyidagicha: tashish masofasi uzayishi bilan avtomobil harakat vaqtining umumiy balansidagi ulushi ortadi, yuk ortish-tushirish to‘xtashlaridagi vaqt ulushi esa qisqaradi. Bu esa transport ishini tonna-km hisobiga o‘sganini, biroq tashilgan tovar hajmining tonna hisobida kamayib borishini anglatadi. Shuning uchun ushbu usul aralash korxonalarda mehnat unumdorligini hisoblashning standart vositasiga aylangan.

III usul: Pul daromadi ko‘rsatkichi

Barcha transport xizmatlarini yagona pul o‘lchoviga keltirish imkoniyati pul daromadi usulini eng universal metodga aylantiradi[240].

[239] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 207-bet.
[240] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 191-bet.

Ushbu usulda mehnat unumdorligi ikkita variantda aniqlanadi — barcha xodimlar yoki faqat haydovchilar bo‘yicha:

$MU = \Sigma D / Ish.s$ yoki $MU = \Sigma D / Hay.s$

Bu yerda: *D* — umumiy daromad, so‘m; *Ish.s* — barcha ishlovchilar soni; *Hay.s* — haydovchilar soni.

Biroq bu usulning iqtisodiy tahlilda qo‘llanilib bo‘lmaydigan metodologik zaif tomonlari ham mavjud. Birinchidan, pul ifodasida olinadigan mahsulotlarga sarflangan mehnat xarajatlarining har xilligi taqqoslashni qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, umumiy daromad miqdori ba’zan korxona ichki faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan tashqi omillar — masalan, tarif o‘zgarishi — tufayli sezilarli o‘zgarib ketishi mumkin, bu esa mehnat unumdorligi dinamikasini noto‘g‘ri ifodalash xavfini tug‘diradi. Uchinchidan, yillar mobaynidagi o‘zgarishlarni qiyoslashda narx deflyatori hisobga olinmasa, xulosalar noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

Mehnat unumdorligini uzluksiz oshirishning strategik ahamiyati va omillari

P. Drukker ta’kidlaganidek, ‘unumdorlik — bu xodimning qiymat yaratish qobiliyati, u esa hech qachon o‘z-o‘zicha oshmaydi[241]‘. Shu nuqtai nazardan avtomobil transportida mehnat unumdorligini muttasil oshirish nafaqat korxonaning ichki moliyaviy natijasini yaxshilaydigan omil, balki milliy iqtisodiyotdagi boshqa tarmoqlar uchun yuk va yo‘lovchi tashish tannarxini pasaytirib beruvchi tashqi iqtisodiy effekt manbaiga aylanadi.

Yangi texnikaning mehnat unumdorligiga ikki xil ta’siri bor: birinchi ta’sir to‘g‘ridan-to‘g‘ri — transport ishchilarining faoliyat samaradorligini oshirish; ikkinchi ta’sir bilvosita — iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ishlayotgan xodimlarning unumdorligini oshirish orqali yuzaga keladi. [9] Yuk ko‘tarish qobiliyati va yo‘lovchilar sig‘imi katta, chidamliligi va texnik ko‘rsatkichlari yaxshilangan harakatlanuvchi tarkibni joriy etish — bu ikki darajali samaraning asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘rtta asosiy yo‘nalishga bo‘linadi.[242] Birinchi yo‘nalish — **texnik yo‘nalish:** transport va garaj ishlarini mexanizatsiyalashtirish hamda avtomatlashturish, zamonaviy yuqori samarali harakatlanuvchi vositalar parki bilan qurollantirish. Ikkinchi yo‘nalish — **tashkiliy yo‘nalish:** ishlab chiqarishda mehnatning ilg‘or usullari va fan yutuqlarini joriy

[241] Drucker P.F. The Practice of Management. New York: Harper & Row, 1954. P. 134.
[242] Toshmatov N.A. O'zbekistonda transport tizimini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: Yangi nashr, 2019. 143-bet.

qilish, marshrutlarni optimallashtirish, ish vaqtidan to‘liq foydalanish. Uchinchi yo‘nalish — **boshqaruv yo‘nalishi:** ishchilar mehnatini me’yorlashtirishni takomillashtirish va oylik ish haqi tashkil etishni iqtisodiy asosda qurlash. To‘rtinchi yo‘nalish — **ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalish:** moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning professional o‘sishiga investitsiyalar qilish[243].

Kadrlar, mehnat unumdorligi va ish haqi — bu uchta ko‘rsatkich alohida emas, balki yaxlit boshqaruv tizimining bir butuni sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.[244] Har bir korxonada mehnat va ish haqi bo‘yicha ishlab chiqiladigan rejaning strategik maqsadi aniq: ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilash zaxiralarini aniqlash va shu asosda mehnat mahsuldorligini tizimli ravishda oshirish. Bunda rejalashtirish tamoyillarining eng muhimi shundaki, mehnat unumdorligining o‘sish sur’ati o‘rtacha ish haqi o‘sish sur’atlaridan albatta tezroq bo‘lishi kerak — bu boshqaruv samaradorligining asosiy iqtisodiy mezoni hisoblanadi[245].

5.3. Temir yo‘l transportida mehnat unumdorligi va uni hisoblash uslublari

Temir yo‘l transportida mehnat unumdorligi jamoa mehnat faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimida ustuvor o‘rin egallaydi. [1] Bu ko‘rsatkichni to‘g‘ri tushunish uchun ishlab chiqarish jarayonida qatnaşadigan ikki toifadagi mehnatni farqlash zarur. Birinchisi — **jonli mehnat** — xodimlarning bevosita joriy ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llayotgan kuchi, vaqti va malakasidir. Ikkinchisi — **moddiylaşgan mehnat** — avvalgi davrlarda yoki boshqa tarmoqlarda sarflangan va hozir ishlab chiqarish omili sifatida foydalanilayotgan mashina, uskunalar, xomashyo hamda energiyadagi mehnatdir[246]. Ushbu ikki toifaning nisbati mehnat unumdorligini tahlil qilishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mehnat unumdorligi — bu muayyan vaqt oralig‘ida maqsadga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatining natijaviyligini aks ettiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, foydali va aniq mehnatning qanchalik samarali sarflanayotganligini belgilaydi[247]. Bu tushunchaning fundamental

[243] OECD. Compendium of Productivity Indicators 2022. Paris: OECD Publishing, 2022. P. 37.
[244] World Bank. Productivity and the Business Environment. Washington D.C., 2021. P. 41.
[245] Raxmatullayev B.X. Korxona faoliyatini rejalashtirish. Toshkent: Moliya, 2020. 81-bet.
[246] Marx K. Kapital. 1-jild. Moskva: Politizdat, 1983. 208-bet.
[247] ILO. Measuring Labour Productivity and Unit Labour Costs. Geneva: ILO, 2020. P. 31.

ahamiyati shundaki, u nafaqat alohida xodim yoki bo‘linmaning, balki butun tizimning iqtisodiy salohiyatini ifodalaydi. Mehnat unumdorligining doimiy o‘sib borishi ob’ektiv iqtisodiy qonun — uni sun’iy ravishda «muzlatib» qo‘yish uzoq muddatda korxonaning raqobatbardoshligini yo‘qotishiga olib keladi.

Mehnat unumdorligini o‘lchashning uch darajasi

Tahlil miqyosiga qarab mehnat unumdorligining uch darajasini farqlash qabul qilingan:[248] **jamoa (umumiy) unumdorlik** — milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida band bo‘lgan xodimlar bo‘yicha; **lokal (guruh) unumdorlik** — korxona, sex, brigada, uchastka yoki ish joyida; **individual unumdorlik** — alohida xodimning shaxsiy mehnat natijaviyligini ifodalaydi.

Jamoa mehnat unumdorligi jonli va moddiylaşgan mehnat sarfini birga aks ettiradi — bu esa uni lokal va individual darajadan tubdan farqlantiradi. Lokal va individual unumdorlik esa mahsulot birligini tayyorlash uchun sarflangan jonli mehnatni hisobga oladi. Milliy darajada jamoa unumdorligi YaIM ni barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo‘lgan xodimlar soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Lokal va individual unumdorlikni tavsiflash uchun ikkita asosiy ko‘rsatkich qo‘llaniladi: ishlab chiqarish me’yori va mehnat sig‘imi.[249] **Mehnat sig‘imi (*t*)** — bu mahsulot yoki xizmatning bir birligini yaratish uchun sarflangan umumiy ish vaqtini ifodalaydi:

$$t = T / Q$$

Bu yerda: T — umumiy mehnat sarfi (kishi-soat); Q — mahsulot yoki xizmat hajmi.

Mehnat sig‘imi ko‘rsatkichi qanchalik past bo‘lsa, xuddi shuncha yuqori darajada mehnat unumdorligi ta’minlanayotganligi anglashiladi. Ushbu ko‘rsatkich texnik modernizatsiya, xodimlarni qayta tayyorlash va mehnat tashkiloti bo‘yicha investitsiyalarning samaradorligini baholashning universal vositasiga aylanib bormoqda.

Temir yo‘l transportida mehnat unumdorligini hisoblashning uch uslubi

Temir yo‘l transportida mehnat unumdorligini hisoblash uchun uchta asosiy uslub qo‘llaniladi. Ularning har biri o‘z maqsadli qo‘llanilish

[248] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. Minsk: Novoe znanie, 2009. 291-bet
[249] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 198-bet.

sohasiga ega bo‘lib, tanlangan o‘lchov birligi va amaliy kontekstga qarab farqlanadi.

5.4-jadval.

Temir yo‘l transportida mehnat unumdorligini hisoblash uslublarining tavsifi[250]

Uslub	Mohiyati va o‘lchov birligi	Qo‘llanilish sohasi	Cheklov
I. Natural (shartli-natural)	Mahsulot natural birlikda o‘lchanadi (dona, metr, tonna-km, keltirilgan t-km); shartli-natural usulida koeffitsiyentlar orqali yagona birlikka keltiriladi	Bir turdagi mahsulot ishlab chiqarilganda; temir yo‘l bo‘yicha butun kompaniya va MTU darajasida	Turli mahsulot aralashganda bevosita taqqoslab bo‘lmaydi
II. Qiymat	Yaratilgan barcha mahsulot pul ko‘rinishiga o‘tkaziladi; so‘m/kishi-soat hisobida aniqlanadi	Harakatlanuvchi tarkibni ta’mirlash zavodlari; ta’mirlash-qurilish ishlari	Inflyatsiya va narx o‘zgarishi tahlilni qiyinlashtiradi
III. Mehnat (normativ)	Ishlab chiqarish hajmi me’yor-soat, kishi-soat, kishi-kun sarflari orqali hisobga olinadi	Harakatlanuvchi tarkibni ta’mirlash bilan band bo‘lgan ishchilar; mehnat sig‘imi me’yorlari mavjud korxonalar	Me’yorlar eskirganda natija noto‘g‘ri chiqishi mumkin

Natural uslub — eng qulay va aniq hisoblanadi. Mehnat unumdorligi yil, kvartal, oy, smena yoki soat kesimida tayyorlangan mahsulot miqdori bilan ifodalanadi. Lekin yirik korxonalarda bir nechta turdagi mahsulot ishlab chiqarilganda sof natural uslub yetarli emas. Shu sababli uning **shartli-natural ko‘rinishi** qo‘llaniladi: korxona chiqaradigan barcha turdagi mahsulotlar muayyan koeffitsiyentlar yordamida bitta yagona o‘lchov birligiga — keltirilgan tonna-kilometrga — o‘tkaziladi. Temir yo‘l transportida ushbu usul butun kompaniya bo‘yicha, MTU va ko‘plab tarkibiy ishlab chiqarish korxonalari bo‘yicha qo‘llanilishi mumkin.

[250] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va tarmoq amaliyoti asosida muallif tuzildi*

Qiymat uslubida barcha yaratilgan mahsulot pul koʻrinishiga oʻtkaziladi, soʻngra mehnat unumdorligi vaqt birligi uchun soʻmlarda aniqlanadi. Temir yoʻl transportida bu koʻrsatkich harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlash zavodlarida va ta'mirlash-qurilish ishlarida qoʻllaniladi. Uning kamchiligi shundaki, inflyatsiya va narxlarning oʻzgarishi natijalar taqqoslanuvchanligini yoʻqotishi mumkin.

Mehnat (normativ) uslubida ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi me'yor-soat, kishi-soat va kishi-kun sarflari orqali hisobga olinadi. Bu uslub harakatlanuvchi tarkibni ta'mirlashda band boʻlgan ishchilarning mehnat unumdorligini aniqlashda qoʻllaniladi va mahsulotning mehnat sigʻimi me'yorlarini ishlab chiqishni talab etadi. Mehnat unumdorligi odatda yil uchun hisoblanadi, lekin bir soat, bir smena, oy yoki chorak uchun ham hisob-kitob amalga oshirilishi mumkin.

Vaqt kesimiga qarab mehnat unumdorligini tahlil qilish

Mehnat unumdorligi koʻrsatkichining har bir hisoblash davri oʻziga xos ma'lumotni aks ettiradi.[251] Soatlik unumdorlik haqiqiy ish vaqtidagi mehnat samaradorligi darajasini tavsiflab, smenali (kunlik) koʻrsatkich bilan birgalikda ish vaqtidan foydalanish sifatini va smenalar ichidagi tanaffuslar ta'sirini koʻrsatadi. Oylik va choraklik koʻrsatkichlar muayyan davrdagi ish kunlari soni, ta'tillar davomiyligi, kasallik varaqlari, mavsumiy sharoitlar va shunga oʻxshash omillarning ta'sirini hisobga oladi.

Shu sababli toʻgʻri va toʻliq tahlil soatlik mehnat unumdorligidan boshlangan holda yillik koʻrsatkich bilan yakunlanishi metodologik zaruriyatdir. [4] Hisob-kitoblarni ortiqcha murakkablashtirib yubormaslik maqsadida amaliyotda mehnat unumdorligi koʻpincha yil uchun hisoblanadi; faqat lokomotiv brigadalari uchun oylik ishlab chiqarish hajmi alohida belgilanadi. Prognoz davri uchun ham hisob-kitob amalga oshirilishi mumkin — bu strategik rejalashtirish va mehnat resurslariga boʻlgan ehtiyojni muddatli aniqlash uchun zarurdir.

Temir yoʻl kompaniyasida mehnat unumdorligini tarkibiy boʻlinmalar boʻyicha aniqlash

Butun kompaniya boʻyicha mehnat unumdorligi keltirilgan tonna-kilometrlarni tashishda band boʻlgan oʻrtacha roʻyxatdagi xodimlar soniga nisbati sifatida aniqlanadi. Kompaniya mintaqaviy uzellarida ekspluatatsion tonna-kilometr netto hisobga olinadi. Tarkibiy birlikda bir nechta turdagi ish bajarilsa, indeks uslubi qoʻllaniladi.

[251] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. Minsk: Novoe znanie, 2009. 291-bet.

Lokomotiv depo misolida ushbu yondashuv quyidagicha qo‘llaniladi. Agar lokomotiv depoda poyezd ishi ulushi katta bo‘lsa, o‘lchov sifatida tonna-kilometr brutto hisobga olinadi. Poyezd ishi va katta hajmdagi ta’mirlash ishlari bajarilgan hollarda esa ekspluatatsiya uchastkasidagi ish uchun tonna-kilometr brutto, ta’mirlash uchastkalari uchun rejali tannarx yig‘indisi, yaxlit holda indeks uslubi qo‘llaniladi. Xo‘jalik ishlari va manyovr ishlari ustun bo‘lsa — suratda lokomotiv-kilometr turadi; manyovr ishlari yetakchilik qiladigan depoda esa keltirilgan vagonlar hisobga olinadi.

Vagon depo ishi yaxlit holda ko‘rilganda, ish hajmi vagon-kilometrda o‘lchanadi.[252] Salmoqli hajmda ta’mirlash ishlari olib borilsa, bu ko‘rsatkich vagonlar harakati, ko‘rikdan o‘tkazish, ularni yuk ortishga tayyorlashni nazarda tutuvchi keltirilgan vagonlar bilan o‘lchanadi. Agar vagon deposi vagon kuzatuvchilari zahirasini ham o‘z ichiga olsa, ular uchun bu ko‘rsatkich butun yo‘l davomidagi vagon-kilometr bo‘ladi; butun depo bo‘yicha indeks uslubidan foydalaniladi. Refrijerator depoda o‘lchov sifatida bitta ishchiga to‘g‘ri keluvchi vagonlarning bosib o‘tgan masofasi xizmat qiladi.

Yuk stansiyalari uchun suratda tonna hisobida jami yuklar miqdori; saralash stansiyalari uchun jami qayta ishlangan vagonlar soni; yo‘lovchi stansiyalar uchun jo‘natilgan yo‘lovchilar soni hisobga olinadi. Yo‘l masofasi uchun bu ko‘rsatkich tonna-kilometr brutto yoki keltirilgan yo‘l uzunligining 1 kilometriga to‘g‘ri keluvchi mehnat sarfi bo‘ladi. Signallashtirish va aloqa xo‘jaligi uchun — poyezd-kilometr, ortish-tushirish ishlarining mexanizatsiyalashgan distansiyasida — yuklarni tonna hisobida yoki vagonlarda qayta ishlash ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Barcha xo‘jaliklar bo‘yicha maxrajida ekspluatatsiyada band bo‘lgan xodimlar soni turadi.

Ishga chiqadigan va ro‘yxatdagi shtat: farqlari va hisoblash metodlari

Xodimlar sonini aniqlashda ikki farqli tushunchadan foydalaniladi. [8]**Ishga chiqadigan shtat** — bu har kuni ishlab chiqarishda bevosita band bo‘lgan xodimlar soni. **Ro‘yxatdagi shtat** — ro‘yxat bo‘yicha ishlaydiganlarning umumiy soni bo‘lib, u ishga chiqadigan shtattan mehnat ta’tilida, dekret ta’tilida yoki kasalligi sababli ishga kelmagan xodimlar soni hisobiga doimo ko‘p bo‘ladi.

Ishga chiqadigan shtat to‘rtta usuldan biri yordamida hisoblanadi. Birinchi usulda — ish hajmi va mehnat unumdorligi (ishlab chiqarish

[252] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 215-be

me’yori) bo‘yicha — butun korxona bo‘yicha xodimlar soni va lokomotiv brigadalari soni rejalashtiriladi. Ikkinchi usul — bajarilayotgan ishlarning mehnat sig‘imi bo‘yicha — lokomotiv, vagon va boshqa texnikani ta’mirlash bilan band bo‘lgan ishchilar sonini rejalashtirish uchun mo‘ljallangan. Uchinchi usul — xizmat ko‘rsatiladigan ob’ektlar soni va bitta ob’ektga to‘g‘ri keluvchi xizmat ko‘rsatish me’yori bo‘yicha — tashish xo‘jaligi bo‘yicha xodimlar, doimiy qurilmalarni muhofaza qilish bo‘yicha navbatchilar uchun qo‘llaniladi. To‘rtinchi usulda — namunaviy shtat jadvali bo‘yicha — haqiqiy ish sharoiti va ularni saqlash imkoniyatidan kelib chiqib, mutaxassislar va xizmatchilar soni rejalashtiriladi.

Ro‘yxatdagi shtat ishga chiqadigan shtatdan kelib chiqib, shuningdek kasal, ta’tilda bo‘lgan, davlat va jamoat ishlarini bajarish bilan band bo‘lgan shaxslarni o‘rniga ishlaydigan xodimlarni hisobga oluvchi koeffitsiyent yordamida hisoblanadi. Bu koeffitsiyent butun korxona bo‘yicha va har bir xodimlarning ishlab chiqarish guruhlari bo‘yicha alohida aniqlanadi.

Temir yo‘l transportida mehnat unumdorligini oshirish omillari va ularning tasnifi

Temir yo‘l transportida mehnat unumdorligi darajasiga ta’sir etuvchi omillar majmuini tizimli ravishda tahlil qilish strategik boshqaruv qarorlarini asoslashning zamin bo‘lib xizmat qiladi[253]. Asosiylari quyidagilar: tashish hajmi va tashish tuzilmasi; yangi texnika va texnologiyani joriy etish; ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashturish; mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish; xodimlarning mehnat natijalariga ko‘ra moddiy manfaatdorligi; malakani oshirish hamda rejalashtirish va boshqaruvni takomillashtirish.

Tashish hajmiga bog‘liqlik avvalo xodimlar va mehnat unumdorligining tashish miqdoriga bog‘liqlik darajasini aniqlashdan boshlanadi. Bu temir yo‘l transportining barcha bo‘linmalari bo‘yicha xodimlar sonini va mehnat unumdorligini belgilash uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Tashish tuzilmasiga bog‘liqlik umumiy tashish hajmida yo‘lovchi va yuk tashishning solishtirma og‘irligini hisobga oladi. Yo‘nalish turlari va tashish masofasi ham muhim rol o‘ynaydi: yo‘lovchi tashishning solishtirma ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘rtacha mehnat unumdorligi shunchalik past bo‘ladi. Uzoq yo‘nalishda mehnat unumdorligi shahar

[253] Toshmatov N.A. O'zbekistonda transport tizimini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: Yangi nashr, 2019. 151-bet.

atrofi yo‘nalishiga qaraganda ancha yuqori. Yuqori solishtirma og‘irlikka ega bo‘lgan yuklarning ulushi oshishi bilan mehnat unumdorligi ham o‘sadi. Tranzit tashish ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, mehnat unumdorligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Elektr tortuvini qo‘llash, ikkinchi yo‘llarni qurish, avtoblokirovka, dispetcherlik markazlashuvi va shunga o‘xshash texnik yangiliklar joriy etilishi natijasida ishchi kuchiga bo‘lgan talab sezilarli qisqaradi. Ekspert baholashlarga ko‘ra, mehnat unumdorligi o‘sishining taxminan 60 foizi texnik taraqqiyot hisobiga ta’minlanadi — bu ko‘rsatkich texnik modernizatsiyaga yo‘naltirilgan investitsiyalarning naqadar to‘g‘ri qaror ekanligini isbotlab turibdi.

Mehnat unumdorligining o‘sish holatlari: mahsulot va xodimlar soni nisbati

Ba’zi hollarda mehnat unumdorligi o‘sishini bir vaqtning o‘zida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va ishlovchilar soni o‘zgarishi hisobiga aniqlash zarur bo‘ladi. Bu holatda beshta asosiy nisbat yuzaga kelishi mumkin:

5.5-jadval.

Mehnat unumdorligi o‘sishining besh holati: mahsulot va xodimlar soni nisbati[254]

№	Mahsulot hajmi	Xodimlar soni	Natija
1	O‘sadi	O‘zgarmaydi	Unumdorlik o‘sadi (optimal holat)
2	O‘sadi	Kamayadi	Unumdorlik keskin o‘sadi
3	O‘sadi	Ortadi (sekin sur’atda)	Unumdorlik o‘sadi
4	O‘zgarmaydi	Kamayadi	Unumdorlik o‘sadi
5	Kamayadi (sekin sur’atda)	Kamayadi	Unumdorlik o‘sadi

Jadvalda keltirilgan beshala holatda ham mehnat unumdorligi o‘sishi mumkin, ammo ularning iqtisodiy mazmuni va strategik ahamiyati farqli. [4] Eng samarali holat — ikkinchisi, ya’ni mahsulot hajmi o‘sib, xodimlar soni kamaygan taqdirda. Biroq to‘rtinchi holat (xodimlar kamayadi, mahsulot o‘zgarmaydi) ham korxona ichki resurslardan tejamkor foydalanishini ko‘rsatuvchi muhim signal hisoblanadi.

[254] Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi

Jonli va moddiylaşgan mehnat sarflari nisbati bo‘yicha tasnif

Mehnat unumdorligining o‘sishi bir vaqtning o‘zida ham jonli mehnat sarfi, ham moddiylaşgan mehnat sarfini o‘zgarishi hisobiga namoyon bo‘lishi mumkin. Bu nisbatning beshta holati mavjud:

5.6-jadval.

Jonli va moddiylaşgan mehnat sarflari o‘zgarishi holatlari[255]

№	Jonli mehnat sarfi	Moddiylaşgan mehnat sarfi	Natija
1	Kamayadi	O‘zgarmaydi	Unumdorlik o‘sadi
2	Kamayadi	Kamayadi	Unumdorlik o‘sadi
3	Ortadi	Kamayadi (tez sur’atda)	Unumdorlik o‘sadi
4	O‘zgarmaydi	Kamayadi	Unumdorlik o‘sadi
5	Kamayadi	Ortadi (sekin sur’atda)	Unumdorlik o‘sadi

Ushbu tasnif mehnat unumdorligining o‘sishi ko‘p yo‘lda amalga oshishi mumkinligini ko‘rsatadi. Amaliyotda eng maqsadga muvofiq holat ikkinchi stsenariy: jonli mehnat ham, moddiylaşgan mehnat ham kamayadi, ya’ni ishlab chiqarish barcha resurslardan tejamli foydalanish asosida rivoj topadi. Uchinchi stsenariy (xodimlar ko‘payadi, lekin texnik tejam yanada tezroq o‘sadi) texnik taraqqiyotga asoslangan unumdorlik o‘sishining klassik modelini ifodalaydi.

Mehnatni tashkil qilish: mohiyati, vazifalari va yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 13-bobi (211-223-moddalar) mehnat muhofazasiga taalluqli muhim masalalarni tartibga soladi va temir yo‘l transporti xodimlariga to‘liq tatbiq etiladi.[256] Ushbu normativ asosdan kelib chiqib, mehnatni tashkil qilish masalasi tarmoq iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Mehnatni tashkil qilish — bu inson, mashina va ishlab chiqarish muhitini eng samarali yo‘l bilan yagona tizimga birlashtirish imkoniyati paydo bo‘lganda mehnatni takomillashtirish jarayonidir.[257] F. Teylor ilmiy mehnat tashkilotining asoschisi sifatida ta’kidlaganidek, mehnat

[255] *Manba: Marx K., Savitskaya G.V. asarlari asosida muallif tuzildi*
[256] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. 13-bob, 211-223-moddalar. Toshkent, 2015 (tahrir 2022).
[257] Taylor F.W. Principles of Scientific Management. New York: Harper & Brothers, 1911. P. 36.

tashkilotining har qanday takomillashishi ishlab chiqarish jarayonidagi hamkorlik elementlarini yanada uyg‘unlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mehnatni tashkil qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ish joylarida, ishlab chiqarish uchastkalarida, sexlarda va butun korxona bo‘yicha ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

Korxonalarda mehnatni tashkil qilish uchta asosiy guruh masalani hal qiladi:

Iqtisodiy masalalar — mehnat unumdorligi va mehnat samaradorligini oshirishdir. Bu temir yo‘l transporti oldida turgan bosh vazifa — yuk va yo‘lovchi tashishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun harakatlanuvchi tarkib, texnik vositalar, yonilg‘i-energetika, moddiy resurslardan foydalanishni yaxshilashdir.

Ruhiy-fiziologik vazifalar temir yo‘l transporti xodimlarining sog‘lig‘i va ishlash qobiliyatini saqlash bilan bog‘liq.[258] Ayniqsa, inson yangi funksiyalarni bajarishida turli avtomatlashgan tizimlardan foydalanishi bilan bog‘liqligi uchun bu masala hozirgi kunda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonning mashinalar bilan birgalikdagi faoliyati ergonomik talablarga to‘liq javob berishi va xodimlarning ish qobiliyati hamda psixologik barqarorligini uzoq muddatda saqlab qolishi shart.

Ijtimoiy masalalar og‘ir va kam malakali ishlarni qisqartirish, tugatish, ishlab chiqarish jarohatlarini va kasb kasalliklarini bartaraf etish bilan bog‘liq. Ijtimoiy masalalar qatoriga mehnat miqdori va sifatini to‘liq hisobga oladigan ish haqi tizimini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, ish sifatini yaxshilash va resurslarni tejamli sarflash ham kiradi. Ushbu uch guruh chora-tadbirlar kompleks ravishda hal qilinishi zarur — ulardan birini e’tibordan chetda qoldirish qolgan ikki guruhning samaradorligini ham kamaytiradi.

Mehnatni tashkil qilishda to‘rtta asosiy yo‘nalish ajratib ko‘rsatiladi

Ish joylarini tashkil qilish va ularga xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida ish joylarini barcha zarur mehnat vositalari va predmetlari, inventar, kichik mexanizatsiya vositalari bilan jihozlash, nazorat, yorug‘lik ta’minoti bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Ish joyi individual hamda jamoaviy bo‘lishi mumkin — masalan, zveno yoki brigada ish joyi, ya’ni har bir a’zoga individual ish joylari biriktirilmaydi.

Mehnat taqsimoti — bu mehnat jarayonida insonlarning faoliyatini chegaralashdir. **Mehnat kooperatsiyasi** esa bir-biri bilan o‘zaro

[258] Armstrong M. A Handbook of Human Resource Management Practice. 10th ed. London: Kogan Page, 2006. P. 96.

bog‘langan bitta yoki turli mehnat jarayonlarida xodimlarning hamkorlikda ishtirok etishidir. [10] Bunda ishlar, o‘rinbosh kasblar, lavozimlarni ratsional taqsimlanishi nazarda tutiladi. Mehnat kooperatsiyasi mehnatni tashkil etishning brigada shaklida to‘liq namoyon bo‘ladi.

Mehnat uslubi — bu ma’lum bir me’yorlar, operatsiyalar va ularni ma’lum bir ketma-ketlikda bajarilishi bilan tavsiflanadigan mehnat jarayonlarini amalga oshirish usulidir[259]. Mehnat uslublarini standartlashtirish va ularni xodimlarga o‘rgatish eng yaxshi amaliyotlarni tarqatish va yangi xodimlarni tezroq moslashtirishning samarali vositasiga aylanadi.

Mehnatni me’yorlashtirish va rag‘batlantirish yo‘nalishi mehnatni me’yorlashtirish sifatini oshirishni, texnik asoslangan me’yorlardan foydalanishni, o‘z vaqtida kamaygan va eskirgan me’yorlarni qayta ko‘rib chiqishni anglatadi. [13] Bu to‘rtta yo‘nalishga qo‘shimcha ravishda **mehnat sharoitlari** yo‘nalishida ham tizimli ish olib borilishi lozim: ish zonasidagi meteorologik sharoitlar, shovqin va tebranish darajalari, ish joylarini yoritilganligi, turli nurlanishlar ta’siri kabi insonning sog‘lig‘i va ishlash qobiliyatiga bevosita ta’sir etuvchi omillarni yaxshilash nazarda tutiladi.

Belgilangan chora-tadbirlar bo‘yicha reja ishlab chiqiladi va unda joriy etish joyi va muddati, bajaruvchi belgilanadi, iqtisodiy samarasi hisoblanadi.[260] Mehnatni tashkil qilish samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi absolyut yoki foizlarda hisoblab chiqiladi. Amaliy tahlilga ko‘ra, mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar temir yo‘l transporti korxonalarida mehnat unumdorligini 15—25 foizga, mehnat sharoitlarini yaxshilash esa ishchilar ish qobiliyatini 10—18 foizga oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi[261].

5.4. Korxonada moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish.

Mehnat motivatsiyasi tushunchasi. Ma’lumki, mehnat bu — insonning birorta ehtiyojini qondirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatidir.

[259] Armstrong M. A Handbook of Human Resource Management Practice. 10th ed. London: Kogan Page, 2006. P. 96.
[260] Raxmatullayev B.X. Korxona faoliyatini rejalashtirish. Toshkent: Moliya, 2020. 87-bet.
[261] World Bank. Railway Reform: Toolkit for Improving Rail Sector Performance. Washington D.C., 2017. P. 58.

Motivatsiya ingliz tilidan olingan bo‘lib, eng avvalo, o‘zini va so‘ngra butun jamoani umumiy maqsadlarni bajarishga da’vat etuvchi faoliyatni rag‘batlantirish jarayonidir.

Mehnat motivatsiyasi deganda esa insonning maqsadga muvofiq faoliyatini turli rag‘batlantirish yo‘llari bi-lan yuqori samaradorlikka erishishga yo‘naltirmoq, uni unumli mehnat qilishga undamoq, ichki tuyg‘ularini qo‘zg‘atmoq tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir inson mehnatni majbur bo‘lib emas, balki o‘z ixtiyori bilan qilishi lozim. Shundagina bu borada yuqori natijalarga erishiladi. Lekin har kim hamisha o‘z ixgiyori bilan samarali mehnat qilavermaydi. Buning uchun insonda eng avvalo shunday mehnat qilishga da’vat etuvchi tuyg‘u uyg‘otilishi kerak. Bunday tuyg‘u turli rag‘batlantirish yo‘llari bilan amalga oshiriladi.

Rag‘batlantirish asosan ikki yo‘nalishda olib boriladi. Birinchisi moddiy rag‘batlantirish, ikkinchisi ma’naviy.

Mehnatning rag‘batlantirilishi deganda mehnatning sodir bo‘lishini ta’minlovchi va uning faolligini oshiruvchi moddiy, ma’naviy va hukuqiy manfaatlar majmuasi tushuniladi.

Mehnatning o‘zi, ta’kidlanganidek, kishilarning birorta ehtiyojini qondirishga qaratilgan maqsadli faoliyatdan iborat. Demak, kishilar mehnatni shunchaki qilmaydi, balki zamirida birorta manfaatni qondiradigan maqsad yotadi.

Kishilarning mehnat qilishdan manfaati, eng avvalo, moddiy rag‘batlantirishni talab qiladi, chunki u mehnati evaziga o‘zining va oila a’zolarining yashashini, ya’ni yetarli darajada moddiy ne’matlar bilan ta’minlashi lozim.

Mehnatning rag‘batlantirilishi nimalarda namoyon bo‘ladi? Eng avvalo, mehnatkash mehnati uchun olgan maoshi o‘zining va oila a’zolarining yashashi uchun bemalol yetishi lozim. Shundagina mehnatning bir qismi bo‘lgan ish kuchining qiymati to‘liq to‘langan, mehnatkash esa to‘liq rag‘batlantirilgan bo‘ladi.

Endi mehnatning o‘lchami nima degan savolga javob berish lozim, chunki hamma bir xil mehnat qila olmaydi va bir xil rag‘batlantirilmaydi. Mehnatning birlamchi o‘lchami mehnatkashning sarf qilgan vaqti, ya’ni ish vaqti bilan o‘lchanadi.

Mehnatni rag‘batlantirishda eng avvalo kimning qancha vaqt ishlagani inobatga olinadi. Hamma bir xil ish vaqti sarf qilib ishlashi

mumkin. Lekin hammaga bir xil ish haqi to‘lanmaydi. Chunki ular bir ish vaqtida turli natijalarga erishishlari mumkin.

Rag‘batlantirishning ikkinchi o‘lchovi ishning natijasidir. Mehnatkash bir vaqt birligida 10 ta ish bajarsa — 10mln. so‘m, 30 ta ish bajarsa — 30 mln. so‘m ish haqi olishi mumkin. Ammo ishchilar bir xil ish bajardi deb ham faraz qilamiz.

Lekin ular oladigan ish haqi yana bir xil bo‘lishi mumkin. Bu holda rag‘batlantirishning uchinchi o‘lchovi ishga tushadi. Endi rag‘batlantirish ish natijasining sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Demak, mehnatni rag‘batlantirishning o‘lchovi uchta, ya’ni ish vaqti, ish natijasi va sifatidan iborat ekan.

Rag‘batlantirish qancha yuqori bo‘lsa, mehnatning ham samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi.

Mehnatni moddiy rag‘batlantirish bilan birga ma’naviy rag‘batlantirish ham mavjudki, buning ta’sir kuchi ham moddiy rag‘batlantirishdan kam emas. Ma’naviy rag‘batlantirishga quyidagilar kiradi:

Moddiy rag‘batlantirish. Mehnatkashni moddiy rag‘batlantirish bilan birga bevosita ma’naviy rag‘batlantiriladi, chunki uning qanday ishlayotganligi e’tirof etilganligi namoyon bo‘ladi.

Jamoa oldida yaxshi ishlayotganligini qayd etish, ma’muriyat buyrug‘i bilan rahmatnoma va tashakkur e’lon qilish.

Faxriylar taxtasiga, kitobiga yozish, faxriy yor-liqlar bilan taqtsirlash.

Unvonlar berish, shu sohada xizmat ko‘rsatilganligini qayd qilish.

Masalan, «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi», «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jalik xodimi», «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi» kabilar.

Orden va medallar bilan taqdirlash.

O‘zbekiston Qahramoni unvonini berish kabi tadbirlar mehnatkashlarni ma’naviy rag‘batlantirishga kiradi.

Shu o‘rinda ta’kidlamoqchimizki, manfaatlar, ular o‘rta-sidagi karama-qarshilik va ziddiyatlarni muvofiqlashtiruvchi, ularga barham beruvchi omil bu — ma’naviyatdir.

Ma’naviyat kuchli bo‘lgan joyda manfaatlar o‘rtasida nomuvofiqlik bo‘lmaydi, bunday vaziyatda qarama-qarshilik va ziddiyat ham kelib chiqmaydi. Shu tufayli O‘zR Prezidenti va hukumati tomonidan ma’naviyat masalasiga juda katta e’tibor qaratilayotganligi bejiz emas.

Ma’naviyati boy mamlakatda tinchlik, barqarorlik, ahillik hukm suradi. Bunday joyda iqtisodiy yuksalish, farovonlik va manfaatlar mushtarakligi ta’minlanadi.

Biz mehnat motivatsiyasinish ayrim yo‘nalishlarigagina to‘xtaldik, xolos. Bu masala yuqorida ta’kidlanganlar bilan cheklanib qolmaydi Buning juda ko‘p tiplari, omillari va yo‘nalishlari mavjud.

Mehnat motivatsiyasi tiplari haqida turli fikrlar mavjud. Lekin ularning barchasi mehnat qiluvchining moddiy va ma’naviy ehtiyojini qondirish uchun his-tuyg‘ularni uyg‘otish yo‘lini axtarishga qaratilgan. Shu boisdan mehnat motivatsiyasining ikkita tipi alohida ahamiyat kasb etishi-ni ta’kidlash joiz. Bunga quyidagilar kiradi: birinchidan, his-tuyg‘uni uyg‘otuvchi tadbirlar majmuasi bo‘lsa, ikkinchidan, aql-idrok bilan qilinadigan ishlardir.

Kishilarning yaxshi mehnat qilishi uchun ikkalasi ham muhim ahamiyatga ega. Ba’zi tadbirlar borki, aql-idrok bilan qilinib, kishilarda yaxshi mehnat qilish uchun kuchli his-tuyg‘u uyg‘otadi. Masalan, millatparvar, fidoyi, jonkuyar inson uchun yaxshi mehnat qilish his-tuyg‘usini uyg‘otishda O‘zbekistonning mustaqillikka erishganligi juda katta omil bo‘lib xizmat qiladi. Yoki kompaniyaning ravnaqi uchun ahil bo‘lgan mehnat jamoasining bir tan, bir jon bo‘lib, kechayu-kunduz uni yuksaltirish uchun qilgan ishlari.

Mehnat qiluvchining, ya’ni mehnatkashning mehnat qilishi uchun bir qancha motivlar borki, bularsiz samarali mehnatning sodir bo‘lishi mumkin emas. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Ko‘prok mexnat xaki to‘lanishi. Hayotiy tajribalar ko‘rsatayaptiki, masalan, paxta terimida terilgan paxta uchun har kuni hisob-kitob qilib borilsa, mehnat unumdorligi odatdagidan 2-2,5 baravar yuqori bo‘ladi. Mehnatning natijasi qancha tez rag‘batlantirilib borilsa, u shuncha unumli, samarali bo‘ladi. Juda ko‘p mamlakatlarda oylik maosh to‘lanadi. Ammo AQShda har haftada, ba’zan har kuni oylik to‘lanishi evaziga ham yuqori mehnat unumdorligiga erishadilar. Xo‘jalikni yuritishda mehnatning bu motivini inobatga olish yuqori samaradorlikka erishish uchun juda muhimdir.

2. Yaxshi mexnat sharoitining yaratilishi. Mehnat sharoiti xodimlarni ishga olib kelish, ishlash jarayonini ta’minlash va ishdan uygacha kuzatib qo‘yishni o‘z ichiga oladi. Har bir xodimning ishlaydigan joyi har tomonlama qulay, yorug‘, ozoda, bahavo bo‘lishi lozim. Bu borada mehnat ergonomikasi talablariga javob beradigan bo‘lishi kerak. Bu ham yaxshi va samarali ishlash uchun asosiy

motivlardan biridir. Korxona jug‘rofiy jihatdan ham qulay joylashgan bo‘lishi lozim. U transport vositasi bekatiga yaqin, do‘konga, oshxonaga, bozorlarga yaqin va ularga borish ham qulay joyda joylashishi ham unda ishlaydigan xodimlar uchun ahamiyatlidir.

3. Xodimning malakasiga mos ish bilan ta’minlanishi.

4. Korxonada yaxshi ma’naviy-ruxiy muhitnint yaratilishi. Korxonaning umumiy muvaffaqiyati uchun shu korxonada ishlayotgan birorta yushsh o‘zini ortiqcha yoki jamoadan chetda his qilmasligi kerak. Rejali iqtisodiyotda amal qilgan juda ko‘p ma’muriy-buyruqbozlik usullari bozor sharoiti uchun yot unsurlardir. Endi kishilar tazyiq bilan majbur bo‘lib ishlamasliti kerak. Ularda ishlash uchun ichki tuyg‘ular, imkoniyatlar ishga tushib, mehnat qilish ixtiyoriy ehtiyojga aylanishi lozim.

5. Xar bir kishining o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlash..

6. Har bir kishini shu korxonaning egasi, xujayini va uning bu yerda zarur ekanligini his qilishni ta’minlash.

Tayanch so‘zlar va iboralar

1-guruh — Asosiy tushunchalar: inson kapitali va mehnat resurslari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
1	**Kadrlar salohiyati**	Korxona xodimlarining yosh, jins, ma’lumot, kasbiy ko‘nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi bilan ifodalangan umumiy ish qobiliyati va imkoniyatlari majmui; jamiyat mehnat salohiyatining tarkibiy qismi.
2	**Kadrlar**	Korxonada mehnat bilan band bo‘lgan hamda uning shaxsiy tarkibiga kiruvchi turli kasbiy-malakaviy guruhlardagi xodimlar majmuasi.
3	**Mehnat resurslari**	Korxonaning ishchi kuchini tavsiflovchi ko‘rsatkich; mehnatga qobiliyatli yoshdagi, iqtisodiy faol, ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilgan yoki jalb etilishi mumkin bo‘lgan xodimlar soni.

4	**Korxona personali**	Doimiy va yollanib ishlovchi, malakali va malakasiz barcha xodimlardan iborat bo‘lgan shaxsiy tarkib; korxona bilan mehnat shartnomasi tuzgan barcha ishlovchilar.
5	**Ishchi kuchi**	Insoning mehnat qilishga bo‘lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlari majmui; bozor munosabatlari sharoitida tovar sifatida namoyon bo‘ladi, o‘z qiymatidan ortiq qiymat yaratish xususiyatiga ega.
2-guruh — Xodimlar tasnifi: tarkibiy-funksional guruhlar		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
6	**Sanoat-ishlab chiqarish personali (S.ICh.P)**	Ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi xodimlar guruhi: haydovchilar, ta’mirlovchilar, texnik xizmat ko‘rsatuvchi ishchilar, dispetcherlik xodimlari. Asosiy va yordamchi xodimlarga bo‘linadi.
7	**Noishlab chiqarish personali**	Korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan tashqarida — uy-joy, kommunal va yordamchi xo‘jaliklarda, sog‘liqni saqlash, profilaktika hamda ta’lim muassasalarida band bo‘lgan xodimlar.
8	**Rahbarlar**	Korxonalar va tarkibiy bo‘linmalarning rahbarlik lavozimlarini egallaydigan xodimlar: direktor, bosh direktor, boshlig‘in va ularning o‘rinbosarlari, bosh muhandis, bosh iqtisodchi va boshqalar.
9	**Xizmatchilar**	Hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, hisob va nazorat, xo‘jalikka xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan xodimlar: agentlar, kassirlar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazolar.
3-guruh — Sifat tavsifi va mehnat sharoitlari		

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
10	**Korxona personaling sifat tavsifi**	Xodimlarning mazkur ishlab chiqarishga kasbiy va malakaviy jihatdan yaroqlilik darajasini ko‘rsatuvchi mezonlar majmui: ta’lim darajasi, mutaxassislik, kasb va malaka.
11	**Kasb**	Faoliyatning maxsus va tor ko‘rinishdagi turi; mutaxassislik kabi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talab qilishi bilan birga, ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qo‘shimcha ko‘nikmalarni ham taqozo etadi.
12	**Malaka**	Biron-bir kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan mehnat ko‘nikmalari va bilimlar darajasi; tarif razryadlari va koeffitsiyentlar orqali baholanadi.
13	**Mehnat uchun ijtimoiy sharoitlar**	Xodimlarning mehnat faoliyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar majmui: jamoada psixologik muhit, ijtimoiy himoya, mehnat xavfsizligi, rag‘batlantirish tizimi, kasb kasalliklari va jarohatlardan muhofaza.
14	**Mehnat yuklamasiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar**	Xodimlar sonini, ish vaqtini va mehnat jadalligi darajasini belgilovchi omillar: ishlab chiqarish dasturi, texnik vositalar soni, xizmat ko‘rsatish me’yorlari va ishlari murakkabligi.
4-guruh — Boshqaruv ko‘rsatkichlari va kadrlar siyosati		
№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
15	**Kadrlar siyosati**	Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq xodimlarni ishga qabul qilish, saqlash va rivojlantirishning optimal muvozanatini ta’minlashga qaratilgan usullar, prinsiplar va talablar belgilash tizimi.

16	**O‘rtacha ro‘yxat soni**	Hisobot davri (oy, chorak, yil) mobaynida korxona ro‘yxatidagi xodimlar sonining o‘rtacha arifmetik qiymati; mehnat unumdorligi va boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblashda asos sifatida qo‘llaniladi.
17	**Ko‘rsatkichlar (mehnat salohiyati)**	Korxona mehnat salohiyatining holatini, ta’minlanganligini va samaradorligini ifodalovchi o‘lchov tizimlari; uch guruhga bo‘linadi: holat ko‘rsatkichlari, ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Bozor munosabatlari sharoitlarida korxonaning kadrlar siyosatini qay tarzda tasavvur qilasiz?
2. Kadrlar tuzilmasi deganda nima tushuniladi va uni belgilab beruvchi omillar qanday?
3. Real ish haqi nominal ish haqidan nimasi bilan farq qiladi?
4. Mehnatga haq to‘lashning qanday tizim va shakllarini bilasiz?
5. Qaysi hollarda vaqtbay va ishbay haq to‘lashdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
6. Nima sababli korxonada mehnat unumdorligi sur’atlari o‘rtacha ish haqi sur’atlaridan ortiq bo‘lishi lozim?
7. Mehnat unumdorligi nima? Korxonada mehnat unumdorligining o‘sish qanday ahamiyati kasb etadi?
8. Korxonada mehnat unumdorligini aniqlashning qanday usularini bilasiz?
9. Mehnat unumdorligi va ish haqini rejalashtirish mohiyati nimada?
10. Qaysi omillar korxonada ishlab chiqarishning o‘sishini belgilab beradi?

VI BOB. TRANSPORT KORXONALARIDA MEXNATGA XAQ TO‘LASH

6.1. Mehnatga haq to‘lashning tashkil qilish asoslari.

6.2. ATKda mehnatga haq to‘lash tizimi va shakllari. Ishbay va vaqtbay ish haqi to‘lovlari.

6.3. Fuqaro aviatsiyasi ishchilarining turli toifalari uchun ish haqi

6.4. Temir yo‘l saralash va yuk stansiyalari xodimlariga o‘rtacha oylik ish haqi va mehnatga haq to‘lash fondini rejalashtirish.

6.1. Mehnatga haq to‘lashning tashkil qilish asoslari.

Mehnatga haq to‘lash kategoriyasini tushunish iqtisodiy munosabatlar tizimida xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi eng muhim aloqani ifodalab beradi[262]. Ilgari — markazlashgan iqtisodiyot davrida — xodimlar mehnatiga haq to‘lash davlat tomonidan rejalashtirilgan tartibda, bajarilgan ish miqdori va sifatiga muvofiq amalga oshirilgan. Hozirgi kunda esa ish haqi mexanizmi tubdan o‘zgardi: u endi ishchi kuchi bahosining pul shakli sifatida — xodimlarni mehnatga hamda uning yakuniy natijalari uchun taqdirlash vositasi sifatida — belgilanmoqda.

Mehnat bozori talqiniga ko‘ra, ish kuchining sotuvchisi (mehnat qiluvchi shaxs) va ish kuchini sotib oluvchi (ish beruvchi) bozorda munosabatga kirishib, ish kuchining bahosini kelishib belgilaydilar — keyinchalik bu baho mehnat shartnomasida mustahkamlanadi[263]. Ushbu jarayon iqtisodiy kategoriya sifatidagi ish haqining mohiyatini ochib beradi: u mehnat bozorida shakllanadi va xodimlarning ijtimoiy mahsulot taqsimlanishidagi ishtirok usullarini belgilab beradi. Huquqiy kategoriya sifatida esa ish haqi iqtisodiy omillar bilan belgilanadi va mehnat bozori sharoitida namoyon bo‘ladi.

Yollanma mehnat munosabatlarida ish haqi fuqarolik-huquqiy munosabatlardan (pudrat, topshiriq, mualliflik shartnomalari) tubdan farqlanadi.[264] Ish beruvchi xodimni bajargan ishi uchun taqdirlash majburiyatini oladi, xodim esa mehnat majburiyatlari bajarilganda haq to‘lashni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Haq to‘lash hajmi mehnatning miqdori va sifatiga muvofiq holda belgilanadi, ish haqi esa oldindan o‘rnatilgan norma bo‘yicha — kafiylatlanganlik sharti asosida —

[262] Marx K. Kapital. 1-jild. Moskva: Politizdat, 1983. 211-bet.
[263] Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. 19th ed. New York: McGraw-Hill, 2009. P. 247.
[264] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2015 (tahrir 2022). 153-165-moddalar.

to‘lanadi. Fuqarolik-huquqiy shartnoma bo‘yicha esa taqdirlash belgilangan muddatlarda ashyolashgan mehnatga, mehnatning yakuniy natijasi uchun to‘lovdir; ish haqi asosiy va qo‘shimcha qismlarga bo‘linsa, fuqarolik-huquqiy shartnomalarda bunday bo‘linish yo‘q; ish haqi uchun davlat minimal miqdori belgilangan bo‘lsa, fuqarolik-huquqiy shartnomalarda bu o‘rnatilmagan.

Ish haqi o‘zida ishlab topilgan haqni ifodalaydi va shu bilan u nafaqa, qo‘shimcha to‘lov, ustama, kafolatli va kompensatsiya to‘lovlaridan, shuningdek mehnat natijasi sifatidagi foyda ulushidan farqlanadi[265]. Kompensatsiya to‘lovi ma’lum holatlarda xodim qiladigan chiqimlarni qoplash, kafolatli to‘lov xodimlar qonun yo‘l qo‘ygan hollarda korxonadagi ishni bajarmaganda to‘lanadi, ish haqi esa xodimlar korxonadagi muayyan ishni bajarishi evaziga to‘lanadigan haq hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonalarida olingan sof daromad, davlat muassasalarida esa davlat byudjeti hisobidan ajratiladigan mablag‘lar ish haqining asosiy manbai hisoblanadi.

Tuzilishi jihatidan ish haqi ikki qismdan iborat.[266] **Asosiy ish haqi** — tarif stavkalari va mansab okladlaridan tashkil topib, markazlashgan tartibda tasdiqlanadi, oldindan belgilangan fondlar hisobidan to‘lanadi va mazkur korxonaning foydasi hajmiga bog‘liq emas. Xodimlarga bajarilgan ish uchun asosiy ish haqi har doim to‘lanishi shart. **Qo‘shimcha ish haqi** — mukofot, ustama va boshqa to‘lovlardan iborat bo‘lib, ushbu to‘lovlar korxonalarning foydasi va rentabelligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Shuning uchun olingan foyda bevosita xodimning mukofot hajmiga ta’sir qiladi. Qo‘shimcha to‘lovlarni to‘lash manbai — korxonalarda tashkil etiladigan moddiy rag‘batlantirish fondi hisoblanadi.

Insoniyat uchun qanday shaklda va qancha miqdorda ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olish mumkinligi muhim ahamiyat kasb etadi. [267] Shu sababdan ish haqining ikki turi mavjud. **Nominal ish haqi** — ma’lum vaqt davomida olingan pul shaklidagi ish haqi bo‘lib, xodimning rasmiy daromadini ifodalaydi. **Real ish haqi** — nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori, boshqacha aytganda, nominal ish haqining haqiqiy ‘xarid qilish’ quvvatidir. Inflyatsiya sharoitida nominal ish haqi o‘sganda ham real ish haqi pasayishi mumkin — bu iqtisodiy tahlilning muhim

[265] Armstrong M. Reward Management: A Handbook of Remuneration Strategy and Practice. 6th ed. London: Kogan Page, 2010. P. 31.
[266] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 206-bet.
[267] Samuelson P.A., Nordhaus W.D. Economics. 19th ed. New York: McGraw-Hill, 2009. P. 247.

muammolaridan biri hisoblanadi. Mehnatga haq to‘lashni to‘g‘ri tashkil qilish ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish, ayniqsa mehnat unumdorligini o‘stirishning muhim vositalaridan biridir. Ish haqining asosiy vazifasi mehnatkashlarning hayot va mehnat sharoitini yaxshilash, mehnat me’yori bilan iste’mol me’yori o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlashdan iborat.

Mehnatga haq to‘lashni tashkil qilishning beshta asosiy vazifasini farqlash zarur. **Takror ishlab chiqarish vazifasi** — mehnatkashlarni va ularning oila a’zolarini farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Bunday inson ehtiyojlarining o‘sib borishini belgilovchi iqtisodiy qonun aks etadi. **Rag‘batlantiruvchi vazifa** — xodimlarning ish haqi miqdorini sarflagan mehnati bilan bog‘liqligini, korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalari asosida hisoblanganligini belgilaydi. **Taqsimlovchi vazifa** — yollanma ishchi va ishlab chiqarish vositalarining egalari orasida iste’mol fondlarini taqsimlashda jonli mehnat me’yorlarining aks etishini ko‘rsatadi. **Resurslarni taqsimlash vazifasi** — hududlar, iqtisodiyotning tarmoqlari va korxonalar bo‘yicha mehnat resurslarini joylashtirish optimallashtirish masalasini hal qiladi. **Aholini haridorgirligini ta’minlash vazifasi** — aholining haridorgirligini pul mablag‘lari bilan ta’minlash o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilaydi.

6.1-jadval.

Mehnatga haq to‘lashni tashkil qilishning vazifalari va ularning mazmuni[268]

Vazifa turi	Iqtisodiy mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi
Takror ishlab chiqarish	Xodimlar va oilasi farovonligini ta’minlash; ehtiyojlarning o‘sib borishini hisobga olish	Minimal ish haqi, tarif stavkalari, ijtimoiy to‘lovlar tizimi
Rag‘batlantiruvchi	Xodimlarning mehnat natijalarini doimo yaxshilashdan manfaatdor bo‘lishini ta’minlash	Mukofot tizimi, ishbay ish haqi, KPI ga bog‘liq to‘lovlar
Taqsimlovchi	Har bir xodimning sarflagan mehnatiga ko‘ra iste’mol fondidagi ulushini aniqlash	Tarif razryadlari, malaka koeffitsientlari tizimi

[268] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

Resurslarni taqsimlash	Mehnat resurslarini hududlar, tarmoqlar va korxonalar bo‘yicha optimallashtirish	Tarmoq va mintaqaviy tarif bitimlari, qo‘shimcha to‘lovlar
Haridorgirlikni ta’minlash	Aholining haqiqiy xarid qilish qobiliyatini oshirish	Nominal ish haqini inflyatsiyadan himoya qilish; indeksatsiya

Keltirilgan beshta vazifadan ko‘rinishiki, ish haqi bir vaqtning o‘zida iqtisodiy, ijtimoiy va boshqaruv funksiyasini bajaradi.[269] V. Vrum motivatsiya nazariyasiga ko‘ra, xodimlar ish haqi darajasi va bajarilayotgan mehnat o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni aniq his qilgan taqdirdagina maksimal samaradorlikka erishish mumkin.

Mehnatga haq to‘lashning asosiy tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga haq to‘lashni tashkil qilishning olti tamoyili mavjud. Birinchi tamoyil — ishlab chiqarish va mehnatning samaradorligi o‘sishi hisobiga real ish haqi miqdorini o‘sishi. Ikkinchi tamoyil — mehnat unumdorligini o‘sish darajasini ish haqining o‘sish darajasidan yuqori bo‘lishi; bu iqtisodiy barqarorlikning asosiy mezoni. Uchinchi tamoyil — xodimning korxona faoliyatining natijalariga qo‘shgan hissasi bo‘yicha ish haqi differensiatsiyasi. To‘rtinchi tamoyil — mehnatiga yarasha ish haqi belgilash. Beshinchi tamoyil — mehnatga haq to‘lashni davlat tomonidan tartibga solinishi. Oltinchi tamoyil — mehnat bozori ta’sirini hisobga olish, ya’ni ish kuchiga bo‘lgan talab va taklif nisbatining ish haqi darajasiga ta’sirini monitoring qilish.

Mehnatga haq to‘lashni tartibga solishning uch darajali tizimi

O‘zbekiston Respublikasida mehnatga haq to‘lashni tashkil qilish masalalari huquqiy jihatdan asoslangan bo‘lib, u uch darajada tartibga solinadi[270].

Birinchi daraja — davlat miqyosi. O‘zbekiston Respublikasining mehnat kodeksida mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi huquq me’yorlari, shu jumladan, mehnatga haq to‘lash masalalari bo‘yicha me’yorlar belgilangan. Davlat tomonidan minimal ish haqi darajasi o‘rnatilgan bo‘lib, agar xodim to‘liq belgilangan ish vaqtida ishlagan va ishlab chiqarish vazifasini to‘liq bajargan bo‘lsa, uning oylik ish haqi minimal ish haqidan kam bo‘lmasligi kerak. Byudjet sohasida ishlayotgan xodimlar uchun yagona tarif setkasi qabul qilingan bo‘lib, tabiiy-iqlim

[269] Vroom V.H. Work and Motivation. New York: Wiley, 1964. P. 17.
[270] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2015 (tahrir 2022). 153-165-moddalar.

sharoitlari noqulay bo‘lgan mintaqalarda ishlayotgan xodimlar uchun rayon koeffitsientlari belgilangan[271].

Ikkinchi daraja — tarmoq (hudud) miqyosi. Mehnatga haq to‘lashni tartibga solish masalalari tarmoq bo‘yicha qabul qilingan shartnomalar yoki maxsus bitimlarda belgilangan bo‘lib, tarmoq darajasidagi kasaba tashkilotlari, mehnat vazirligi yoki boshqa vakolatga ega bo‘lgan tashkilot xodimlari tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

Uchinchi daraja — korxona miqyosi. Mehnatga haq to‘lash masalalari jamoa shartnomalari asosida tartibga solinadi. Jamoa shartnomalari bir yoki bir nechta kasaba tashkilotlarining vakolat berilgan xodimlari tomonidan qabul qilinadi. Bu shartnomalar mulkchilikning har xil shakllarida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun ham tegishli bo‘lib, unda ish beruvchi va ishlovchilarning o‘zaro munosabatlari, mehnat sharoitlari, moddiy rag‘batlantirish va ish haqini tartibga solish bo‘yicha tadbirlar ko‘rsatiladi.[272]

Ish haqining tariflari ish haqini asosiy tartibga soluvchi mezon bo‘lib hisoblanadi. Ish haqining tarifi o‘zida turli xil mehnatning malakasi, og‘irligi va ijtimoiy ahamiyatiga bog‘liq bo‘lib uning bahosini ifodalaydi[273]. Tarif tizimi — xodimlarning ish haqi darajasini ularning malakasi, mehnatining unumdorligi, xususiyati va sharotiga, ular bajaridigan ishning mas’uliyatliligiga, ishlab chiqarish tarmog‘i, korxonalarning hududiy joylashishi, qo‘llaniladigan ish haqi shakllariga ko‘ra tabaqalashtirish va tartibga solishga asos bo‘ladigan normativlar majmuasidir. Tarif tizimi yordamida davlat mehnatga haq to‘lashning differensiatsiyasini amalga oshiradi.

Tarif tizimi uchta asosiy unsurdan tashkil topadi: tarif-malaka ma’lumotnomasi, tarif setkasi va tarif stavkalari.

Tarif-malaka ma’lumotnomasi — muayyan tarmaqda bajariladigan ishlar ro‘yxatini, bu ishlarning kvalifikatsiya xususiyatini, xodimning bilim darajasi, ishlab chiqarish mahorati, uslublari va boshqalarga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oluvchi normativ hujjatdir. U ikki xil bo‘ladi: birinchisi — tarmoq bo‘yicha ishchilarning mutaxassisligini ko‘rsatuvchi; ikkinchisi — ish va kasblarning yagona tarif-malaka ma’lumotnomasi, qaysi tarmoq va tashkilotga qarashliligidan qat’iy nazar barcha korxonalarda qo‘llaniladigan kasblar uchun. Tarif-malaka ma’lumotnomasi ikki qismdan iborat: ishchilar

[271] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2015 (tahrir 2022). 153-165-moddalar.
[272] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2015 (tahrir 2022). 153-165-moddalar.
[273] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. Minsk: Novoe znanie, 2009. 296-bet.

kasbining malaka tafsiloti va ishchilarni tarifikatsiya qilish bo‘yicha tasnif.

Tarif razryadi — tarif jadvalining asosiy elementlaridan biri bo‘lib, xodimning malakasiga muvofiq beriladi. Tarif razryadi bajarilayotgan ishning yoki operatsiyaning malaka darajasini ko‘rsatadi: ishning aniq bajarilish darajasi, mas’uliyatliligi va murakkabligini aks ettiradi. Xodimga muayyan malaka darajasini belgilashda topshirilgan vazifasini bajarishdagi bilim va ko‘nikma hisobga olinadi.

Tarif koeffitsienti u yoki bu razryadlar uchun mehnatga haq to‘lashning necha barobar oshganligini ko‘rsatadi, ya’ni tarif koeffitsienti ayni razryad stavkasining nol razryad stavkasiga nisbatini xarakterlab beradi. Birinchi razryad tarif stavkasi va tarif stavkasi asosida shundan keyingi har bir razryadning tarif stavkasi hisoblab chiqiladi.

6.2-jadval.

Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasi (22 razryad)[274]

Razryad	Tarif koeffitsienti	Razryad	Tarif koeffitsienti
1	*2,476*	**12**	*6,115*
2	*2,725*	**13**	*6,503*
3	*2,998*	**14**	*6,893*
4	*3,297*	**15**	*7,292*
5	*3,612*	**16**	*7,697*
6	*3,941*	**17**	*8,106*
7	*4,284*	**18**	*8,522*
8	*4,640*	**19**	*8,943*
9	*4,997*	**20**	*9,371*
10	*5,362*	**21**	*9,804*
11	*5,733*	**22**	*10,240*

Jadvaldan ko‘rinishiki, 22 razryadli yagona tarif setkasida birinchi razryaddan so‘nggi razryadga o‘tishda tarif koeffitsienti 2,476 dan 10,240 gacha ko‘tariladi. Bu ko‘rsatkich malakali va malakasiz mehnat o‘rtasidagi ish haqi farqini ob’ektiv aks ettiradi. Aksionerlik jamiyatlarida rahbar (direktor)ning, bosh direktor, jamiyat kollegial ijro organi a’zolari (boshqaruv)ning ish haqi ularning har birining jamiyat bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Minimal ish haqi va bazaviy hisoblash miqdori: 2023 yil yangiliklari

[274] *Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi normativlari asosida tuzildi*

Xodim uchun ish haqi — uning shaxsiy daromadidagi bosh va asosiy manba bo‘lib, u va oilasining farovonligini ta’minlash va yuksaltirishda asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Minimal ish haqini belgilashdagi asosiy mezonlardan bo‘lib, mehnatkashlar va ularning oila a’zolarini ehtiyojini hisobga olish hisoblanadi. Minimal ish haqi ularning faqat jismoniy faolliklarini emas, balki ishlashga bo‘lgan qobiliyatlarini qayta tiklash, rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak; u jismoniy ehtiyojlarni qondirishi bilan birga, ularning ixtisosligini oshirish va ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishini ham ta’minlash kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 martdagi PF-45-son Farmoniga ko‘ra, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 2023 yil 1-maydan boshlab 920 ming so‘mdan 980 ming so‘mga oshirildi[275]. Ma’lumki, 2019-yilning 1-sentabridan ‘eng kam ish haqi miqdori’ tushunchasi bekor qilinib, uning o‘rniga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori hamda bazaviy hisoblash miqdori joriy qilingan edi. Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori maosh, ustamalar, qo‘shimcha haq, gonorar, qo‘shimcha ish uchun kompensatsiya to‘lovlari va rag‘batlantiruvchi tusdagi to‘lovlarning boshqa turlarini aniqlashda qo‘llaniladi.

Bazaviy hisoblash miqdori quyidagilarni aniqlashda qo‘llaniladi: soliqlar, yig‘imlar, jarimalar, davlat bojlari va ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari uchun boshqa to‘lovlarning miqdorlarini; tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun patent, litsenziya va boshqa to‘lovlarning qiymatini, tashkilotlarning ustav fondlari miqdori, mikrokreditlar va lizing, shuningdek boshqa moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning cheklangan miqdorini[276]. 2023 yil 1-maydan bazaviy hisoblash miqdori 300 ming so‘mdan 330 ming so‘mga oshdi. Binobarin, bazaviy hisoblash miqdoriga bog‘langan to‘lovlar — ma’muriy jarimalar, soliqlar, davlat bojlari va shu kabi boshqa to‘lovlar — ham mos ravishda o‘sdi.

O‘zbekistonda mehnatga haq to‘lashning 22 ta razryadi bor. Har bir razryadning oklad ish haqi turlicha bo‘ladi. Aholi o‘zining okladi qancha bo‘lishini jadval asosida hisoblab ko‘rishi mumkin: buning uchun razryad ro‘parasidagi koeffitsiyentni mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga (1-maydan 980 ming so‘m) ko‘paytirish kerak. Masalan, 9-razryadda ishlaydigan xodimlarning oklad ish haqini hisoblasak: 1,755 × 980 000 = 1 719 900 so‘m. Oklad — bu ish beruvchi har bir to‘liq

[275] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-45-son Farmoni 'Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida'. 2023 yil 28 mart

[276] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-45-son Farmoni 'Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida'. 2023 yil 28 mart

ishlangan oy uchun xodimga to‘lashi shart bo‘lgan qat’iy miqdor; ish haqi o‘z ichiga oklad, bonus va premiyalarni oladi.

Avtomobil transporti haydovchilari mehnatiga haq to‘lash: normativ asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 23 yanvarda ro‘yxat raqami 3130 bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Avtomobil transporti haydovchilari mehnatiga haq to‘lashning umumiy shartlari to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ko‘proqni tashkil etadigan tashkilotlarning haydovchilariga mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasi bo‘yicha belgilangan razryadlar asosida amalga oshiriladi[277].

6.3-jadval.

Tashkilotlar haydovchilarining mehnatga haq to‘lash razryadlari (yengil va avtobus)

Avtomobil sinfi / Avtobus o‘lchami	YTS bo‘yicha umumiy razryad	Tibbiy xizmat va maxsus signalli avtomobillar
I. Yengil avtomobillar		
O‘ta kichik va kichik (1,8 litrgacha)	1	2*
O‘rtacha (1,8 dan 3,5 litrgacha)	2	3*
Katta (3,5 litrdan ortiq)	3	4*
II. Avtobus o‘lchamlari		
O‘ta kichik (5 metrgacha)	2	3*
Kichik (5–7,5 metr)	3	4*
O‘rta (7,5–9,5 metr)	4	5*
Katta (9,5–11 metr)	5	6*
Katta (11–15 metr)	6	7*
O‘ta katta (15 metrdan ortiq)	7	—
III. Mototsikllar va uch g‘ildirakli motovositalar	1	—

*Izoh: * Tez tibbiy yordam avtomobillari haydovchilariga razryadlar jadvalda belgilanganidan bir razryad yuqori belgilanadi. VMA apparati Avtoxo‘jaligi balansidagi yengil avtomobillar haydovchilariga 3 razryad,*

[277] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Avtomobil transporti haydovchilari mehnatiga haq to'lashning umumiy shartlari to'g'risidagi Nizom. Ro'yxat raqami 3130. Toshkent, 2019 yil 23 yanvar.

boshqa avtomoбillar haydovchilariga 2 razryad yuqori. Manba: Nizom №3130, 2019

6.4-jadval.

Tashkilotlardagi yuk avtomobillari haydovchilarining mehnatiga haq to‘lash razryadlari[278]

Avtomobillar guruhlari (yuk ko‘tarish qobiliyati, tonna)	I guruh (bort)	II guruh (ixtisoslashtirilgan)	III guruh (maxsus xavfli)
1,5 tagacha	—	—	1
1,5 dan 3 gacha / 0,5 dan 1,5 gacha / 0,5 gacha	2	2	2
3 dan 5 gacha / 1,5 dan 3 gacha / 0,5 dan 1,5 gacha	3	3	3
5 dan 10 gacha / 3 dan 5 gacha / 1,5 dan 3 gacha	4	4	4
10 dan 20 gacha / 5 dan 10 gacha / 3 dan 5 gacha	5	5	5
20 dan 40 gacha / 10 dan 20 gacha / 5 dan 10 gacha	6	6	6
40 dan ortiq / 20 dan 40 gacha / 10 dan 40 gacha	7	7	7
— / 40 dan ortiq / —	—	8	—

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldagi 538-son qaroriga muvofiq avtomobil transporti haydovchilari mehnatiga haq to‘lashning umumiy shartlarini belgilaydi. Qonun hujjatlarida tashkilotga o‘zi uchun alohida razryad belgilash vakolati berilgan bo‘lsa, ushbu tashkilotda mazkur jadvalda belgilangan razryaddan boshqa razryadlar qo‘llanilishi mumkin.

Quyidagi holatlar uchun ustamalar va qo‘shimcha haqlar belgilanadi: tungi vaqtda, dam olish va bayram kunlari ishlaganlık, shuningdek xizmat vaqtidan tashqari ishlaganlık; ikkinchi darajali haydovchilarga malaka darajasi uchun; xalqaro yuk tashuvlarni amalga oshirganligi; alohida mehnat sharoitlari uchun; bir yo‘la bir nechta kasbda ishlaganlık, xizmat

[278] *Izoh: VMA apparati Avtoxo'jaligi balansidagi yuk avtomobillari haydovchilariga razryadlar jadvalda belgilanganidan ikki razryad yuqori. Manba: Nizom №3130, 2019*

ko‘rsatish zonasi kengayganliği; bo‘lingan ish smenasida (smena o‘rtasidagi tanaffus 2 soatdan ortiq bo‘lganda) ishlaganlık; safar xususiyatiga ega mehnat sharoitlarida ishlaganlık uchun[279].

Mehnatga haq to‘lashning shakllari: ishbay va vaqtbay

Mehnatga haq to‘lashning asosini mehnatni me’yorlash, tarif tizimlari va mehnatga haq to‘lashning shakl va tizimlari tashkil etadi. Korxonalarda mehnatga haq to‘lashning ikki shakli: ishbay va vaqtbay shakli qo‘llaniladi. Sarflangan mehnatning miqdor o‘lchov birligi ishlab chiqarilgan mahsulotning soni yoki sarflangan vaqt bilan belgilanadi.

Vaqtbay ish haqi shakli — xodimning ish haqi amalda ishlangan vaqt uchun tarif stavkasi yoki maosh bo‘yicha aniqlanadigan sistema. Ko‘p asrlik bozor iqtisodiyotining qonuniyatlariga ko‘ra, ish haqi — bu xodimning mehnatidan foydalanilganligining narxidir, va uning kattaligi mehnat bozori, ya’ni ish kuchiga bo‘lgan talab va taklif bilan o‘lchanadi. Vaqtbay ish haqi shakli odatda xizmat ko‘rsatish sohasidagi mutaxassis va ishchilar, konveyer turidagi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonidagi ishchilar uchun ko‘proq qo‘llaniladi.

Ishbay ish haqi shaklida haq to‘lash ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, sifati va tovar bozoridagi sotilishiga qarab belgilanadi, ammo uni hisoblashning asosini mahsulot ishlab chiqarishning miqdor ko‘rsatkichlari tashkil etadi[280]. Ingliz tilidagi adabiyotlarda mehnatning ishbay to‘lovi, mahsuldorlik bo‘yicha ish haqi deb ta’riflanadi. Firmalar ikki shartga rioya qiladilar: birinchidan, firma tomonidan to‘lanayotgan ish haqi darajasi har bir xodimning mehnat mahsuldorligini o‘stirish hisobiga o‘z ish haqini oshirishga qaratilgan munosabati minimumga yo‘naltirilishi; ikkinchidan, firma to‘layotgan ish haqining darajasi minimum chegaradagi ish haqidan yuqori bo‘lishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, mehnatning ishbay to‘lovida shaxsiy qobiliyatning ish haqi darajasiga nisbati o‘zgaruvchanligi birga teng. Bunda ish haqi darajasi va mehnat mahsuldorligi o‘rtasidagi o‘zaro uzviy aloqa korxona darajasida emas, faqat ish joyi darajasida namoyon bo‘ladi.

Mehnat haqi tizimini to‘g‘ri tashkil qilish uchun tarif stavkasining 0-razryadi belgilash tarif tizimini tuzishning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, u vaqt birligida (soat, kun, oy) eng kam malakali mehnatga to‘lanadigan haq miqdorini ko‘rsatadi. Avtomobil transport korxonalarida ishbay ishchilarning mehnati vaqtbay ishchilarga nisbatan intensiv bo‘lganligi

[279] O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Avtomobil transporti haydovchilari mehnatiga haq to'lashning umumiy shartlari to'g'risidagi Nizom. Ro'yxat raqami 3130. Toshkent, 2019 yil 23 yanvar.

[280] World Bank. Fair Wages and Labor Standards: Implications for Developing Countries. Washington D.C., 2020. P. 24.

uchun, ishbay ishchilarning tarif stavkalari vaqtbay ishchilarning tarif stavkalaridan yuqoriroqdir. Yordamchi sexlaridagi ishchilarni tarif stavkalari asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning tarif stavkalaridan yuqori belgilanadi — bu mehnat intensivligi va mas’uliyat darajasining farqini aks ettiradi.

Demak, mehnatga haq to‘lashning tartibga solinishi quyidagilar asosida amalga oshirilishi kerak: yuqori malakali ishchining ish haqi malakasi past ishchining ish haqidan yuqori bo‘lishi; yuqori mehnat unumdorligiga to‘lanadigan ish haqi unumdorligi past ishchining ish haqidan yuqori bo‘lishi; og‘ir tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga oladigan rayon koeffitsientlaridan foydalanish; sog‘liqqa zarar, og‘ir mehnat sharoitlari uchun differensiallangan qo‘shimchalarni qo‘shish.[281] Bozor iqtisodiyoti sharoitida keng qo‘llaniladigan va yollanish bo‘yicha ishlayotgan barcha ishchi-xodimlarni qamrab oluvchi mehnat tarifikatsiyasining universal tizimi mehnat tizimi darajasini differensiallash masalasiga nisbatan samarali va adolatli tizim bo‘lib hisoblanadi.

6.2. ATKda mehnatga haq to‘lash tizimi va shakllari. Ishbay va vaqtbay ish haqi to‘lovlari

Ishchilar mehnatiga ishbay haq to‘lash — hozirgi kunda eng keng tarqalgan ish haqi shakli bo‘lib, yengil sanoati korxonalarida uning ulushi umumiy ish haqi fondining qariyb 70 foizini tashkil etadi.[282] Bu shaklning asosiy afzalligi shundan iboratki, ish haqi darajasi ishning ma’lum sifatda bajarilgan hajmiga qat’iy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan ishlab chiqarishning zamonaviy rivojlanish darajasida ishbay haq to‘lash ishchilarning shaxsiy manfaatlarini va butun jamiyat manfaatlarini muvofiq ravishda birlashtiradigan rag‘batlantirish mexanizmi sifatida tan olingan.

Ishbay ish haqi to‘lashning metodologik asosini **ratsenka** — mahsulot birligiga yoki bajarilgan ma’lum operatsiyalarga to‘lanadigan ish haqining miqdori — tashkil qiladi.[283] Ishbay ratsenka quyidagi formulalar bo‘yicha aniqlanadi:

$R = (S_0 \times K_n) / I_m$ yoki $R = (S_0 \times K_n \times B_m) / 3600$

Bu yerda: R — ishbay ratsenka; S_0 — 0-razryadning soatlik tarif stavkasi; K_n — ishning tarif razryadiga mos keladigan tarif koeffitsienti;

[281] OECD. Employment and Labour Market Statistics. Paris: OECD Publishing, 2022. P. 62.
[282] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. Minsk: Novoe znanie, 2009. 301-bet.
[283] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 213-bet.

I_m — soatlik ishlab chiqarish me’yori; B_m — operatsiyani bajarishda vaqt me’yori (minut).

Mehnatga haq to‘lashning ishbay shakli faqat mehnatni me’yorlash imkoni mavjud bo‘lganda, ya’ni yangi operatsiyani bajarish uchun vaqt me’yori yoki mahsulot ishlab chiqarish me’yori aniqlangan taqdirdagina qo‘llanilishi mumkin. [10] Aynan shu sababdan u ishlab chiqarishning o‘sishidan, jihozlardan samarali foydalanishdan va ish vaqtining texnik-tashkiliy sabablarga ko‘ra yo‘qotilishining kamaytirilishidan manfaatdorlikni rag‘batlantiradi.

Ishbay ish haqi to‘lashning besh tizimi: tasnif va hisoblash uslubi

Hozirgi sanoatda ishbay ish haqi to‘lashning beshta asosiy tizimi qo‘llaniladi: bevosita individual (yakka), ishbay-mukofot, bilvosita, akkord va brigada. Ularning har biri o‘ziga xos hisoblash metodikasiga va qo‘llanilish sharoitiga ega.

6.5-jadval.

Ishbay ish haqi tizimlarining qiyosiy tavsifi[284]

Tizim nomi	Mohiyati	Hisoblash asosi / Qo‘llanish sohasi
Bevosita individual (yakka) ishbay	Ish haqi bevosita bajarilgan mahsulot soni yoki operatsiyalar miqdoriga bog‘liq	IH = R × Mx; Mx — haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot. Ishchi alohida hisobga olinishi mumkin bo‘lgan joylarda
Brigada (jamoaviy) ishbay	Guruh ishchilar natijasini alohida-alohida ajratib hisoblab bo‘lmaydigan holatlarda qo‘llaniladi	IH_brigada = Mhaq^br × Rbr; Brigade narxi bo‘yicha taqsimlanadi
Ishbay-mukofot	Asosiy ishbay ish haqiga mehnatdagi ma’lum yutuqlar uchun qo‘shimcha mukofot qo‘shiladi	Mukofot tizimlari Nizom asosida belgilanadi; me’yor bajarilishi, sifat yaxshilanishi mezon sifatida
Bilvosita	Yordamchi ishchilarning ish haqi asosiy ishchilar ishlab chiqarishiga bog‘liq bo‘ladi	Yordamchi tsexlar va xizmat ko‘rsatish bo‘limlari xodimlari uchun
Akkord	Muddatli topshiriqning yaxlit to‘lovi muqaddim belgilanadi	Qurilish va ta’mirlash ishlarida; muddatidan avval bajarishga rag‘batlantirish uchun

Bevosita yakka ishbay tizimida ishchining ish haqi hisob-kitob qilinayotgan vaqt ichida bevosita ishlab chiqargan mahsulotining soniga

[284] *Manba: tarmoq amaliyoti va iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

bog‘liq bo‘ladi.[285] Ish haqi miqdori ishbay ratsenka yoki bitta texnologik operatsiyani bajarish narxini haqiqatda ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot miqdoriga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi:

$IH_{ishbay} = R \times M_x$

Bu yerda: R — ratsenka, so‘m; M_x — haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, dona, juft, p.m.

Brigadali ishbay tizim ishlab chiqarish jarayonini yoki texnologik operatsiyani bajarish guruh ishchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lganda, har bir brigada a’zosining ishlab chiqarishga qo‘shgan hissasini alohida-alohida hisobga olish mumkin bo‘lmaganda qo‘llaniladi. Brigadaning ishbay ish haqi brigadadagi operatsiyalarning brigada narxini haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot soniga ko‘paytirish bilan aniqlanadi:

$IH_{brigada} = M_{haq\wedge br} \times R_{br}$

Brigada narxi — barcha texnologik operatsiyalar bajarilish narxlarining yig‘indisi:[3]

$R_{br} = \Sigma R_n = R_1 + R_2 + \ldots + R_n$

Brigadali ishbay ish haqining o‘ziga xos xususiyati — uni brigada a’zolari o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash zaruriyatida namoyon bo‘ladi. [5] Taqsimlashda har bir brigada a’zosining malakasini belgilovchi tarif stavkasi, shu mahsulotni tayyorlashda haqiqatda sarflagan vaqti va brigadaning belgilangan me’yorni bajarish darajasi hisobga olinadi:

$IH_{ishchi} = K_{bosh} \times C_{m\wedge ishchi} \times T_{haq}$

Bu yerda: $C_{m\wedge ishchi}$ — ishchining malakasiga mos tarif stavkasi; T_{haq} — ishchining haqiqatda ishlagan vaqti, soatlarda; K_{bosh} — me’yorni bajarish darajasi yoki ishlab chiqarishda ishtirok etish koeffitsienti.

Ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish darajasi ularning ishga bo‘lgan munosabati: brigada a’zolari bilan hamkorlikda ishlash, bir-biriga yordam berish, mehnat intizomini buzmaslik, nuqsonlarga yo‘l qo‘ymaslik kabilar bilan belgilanadi[286]. Me’yorni bajarish darajasi esa brigada ishbay ish haqining tarif ish haqiga nisbati sifatida quyidagicha aniqlanadi:

$K_{baj} = IH_{br\wedge ish} / IH_{br\wedge tar}$

[285] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 213-bet.
[286] [4] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU, 2015. 184-bet.

$IH_{br\text{^}tar}$ — brigadaning tarif ish haqi (brigada a’zolarining tarif stavkalarini ularning haqiqatda ishlagan vaqtiga ko‘paytirish bilan aniqlanadi).

Mehnatga haq to‘lashning bunday tizimi brigada a’zolarining mehnat intizomini mustahkamlashga, ularning jamoat oldidagi mas’uliyatini oshirishga yordam beradi. Agar brigada a’zolariga ishbay-mukofot tizimi bo‘yicha haq to‘lash joriy etilgan bo‘lsa, u holda brigadaning mukofot puli ham ishchilarning ishbay ish haqiga proporsional ravishda taqsimlanadi.

Korxonalarda keng tarqalgan tur — ishbay-mukofotli tizimdir. Bu tizimda ishchining ish haqi ikki tarkibiy qismdan tashkil topadi: ishbay ish haqi hamda mehnatdagi ma’lum yutuqlar uchun beriladigan mukofot. Mukofot — bu ishchilarning erishgan yutuqlariga to‘lanadigan qo‘shimcha haqdir.

Har qanday korxona o‘zining oldiga qo‘ygan vazifalarining mohiyati, ishlab chiqarish vazifalarini bajarishda ishchilarning javobgarligi va mas’uliyati, oladigan yillik daromadiga ko‘ra Mukofotlash Nizomini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Mukofotlash Nizomiga ko‘ra ishlab chiqarish jarayonining har xil uchastkalarida faoliyat yuritayotgan ishchilar uchun alohida-alohida mukofotlash ko‘rsatkichlari belgilanadi. Masalan, bichuvchilar uchun mukofotlash mezoni bo‘lib, gazlamalardan to‘liq foydalanish va chiqindilarni kamaytirish bo‘lsa, tikuvchilar uchun ishlab chiqarish me’yorini sifatli bajarish yoki oshirib bajarish hisoblanadi.

Ishbay-mukofotli tizimda ishchilar o‘z mehnatlarining unumdorligini oshirishdan manfaatdor bo‘ladilar. Mukofotlash uchun asosiy ko‘rsatkich bo‘lib ishlab chiqarish me’yorlarining bajarilishi, oshirib bajarilishi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va boshqalar hisoblanadi. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha korxona ishchilariga to‘lanadigan mukofotning miqdori korxonaning daromadiga ko‘ra alohida-alohida belgilanadi.

Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay shakli va uning tizimlari

Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay shakli ishlab chiqarish korxonalarida keng tarqalgan bo‘lib, uning yordamida asosan yordamchi ishchilarning mehnatiga haq to‘lanadi. Bu shakl sarflangan mehnat miqdorini hisobga olish va mehnatni me’yorlash qiyin bo‘lgan yoki mehnatga haq to‘lashning ishbay tizimi bajarilayotgan ishning sifatini pasayishiga olib keladigan vaziyatlarda qo‘llaniladi.

Vaqtbay shaklida xodimlarning ish haqi ishlagan vaqtiga to‘g‘ri proporsional ravishda o‘zgaradi va ish haqi ishlovchining malakasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Bu shakl uchta tizimga bo‘linadi: oddiy vaqtbay, mukofotli vaqtbay va maoshli tizimlar. Ularning har biri o‘ziga xos hisoblash mexanizmiga va tatbiq etilish sohasiga ega.

Oddiy vaqtbay tizimida ishchilarning ish haqi ularning tarif razryadlariga mos keladigan tarif stavkalarini haqiqatda ishlagan vaqtlariga ko‘paytirish bilan aniqlanadi:[287]

$$IH_{vaqt} = C_{t\wedge 0} \times K_n \times T_{haq}$$

Bu yerda: $C_{t\wedge 0}$ — 0-razryadli vaqtbay ishchining soatlik tarif stavkasi, so‘m; K_n — kerakli razryadning tarif koeffitsienti; T_{haq} — ishchining haqiqatda ishlagan ish vaqti, soatlarda.

Ushbu tizimda ishchilarga xizmat qilish me’yorlarining asoslanganligiga, tarif razryadlarining to‘g‘ri belgilanganligiga va sarflangan vaqtni to‘g‘ri hisobga olishga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish va uning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash ustuvor bo‘lgan sharoitda asosiy ishchilarning mehnatini vaqtbay tizimida hisoblash maqsadga muvofiqdir — bunda ishchilar son qiymatiga emas, balki sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga intiladilar, ularning mas’uliyati va javobgarlik hissi ortadi.

Mukofotli vaqtbay tizimi ishchi va xodimlarning moddiy manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida qo‘llaniladi. Ishda erishilgan miqdor va sifat yutuqlari, xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, elektr energiyasining tejalganligi, mahsulot sifatining yaxshilanganligi, mashina va mexanizmlarning avariyasiz ishlashi va boshqalar mukofot to‘lash uchun asosiy ko‘rsatkichlar bo‘lib hisoblanadi. Bunlardan tashqari tsexlarning va ishlab chiqarish korxonalarining erishgan yutuqlari ham mukofot to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maoshli tizim — vaqtbay haq to‘lashning xodim tavsifi va malaka darajasi tarif-malaka ma’lumotnomacida ko‘rsatilmagan ishlar uchun qo‘llaniladigan ko‘rinishi. Uning miqdori davlat tomonidan belgilangan minimal ish haqi miqdoridan kam bo‘lmagan holda belgilanadi. Farroshlar, bog‘bonlar, qorovullar va shunga o‘xshash xodimlar mehnati bunga misol bo‘la oladi. Korxonada qabul qilingan Mukofotlash Nizomiga ko‘ra bu turdagi ishchilar ham erishgan yutuqlari uchun mukofotlanadilar.

[287] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 213-bet.

6.6-jadval.

Vaqtbay ish haqi to‘lashning uch tizimi: qiyosiy tavsif

Tizim nomi	Hisoblash asosi	Qo‘llanilish sohasi	Asosiy ustunligi
Oddiy vaqtbay	IH = C_t⁰ × Kn × T_haq. Faqat tarif stavkasi va ishlangan vaqtga qarab	Xizmat ko‘rsatish, nazorat, boshqaruv funksiyasini bajaruvchi xodimlar	Sodda hisoblash; sifatga e’tibor; me’yorlash qiyin joylarda qulayroq
Mukofotli vaqtbay	Asosiy vaqtbay + mukofot (sifat, tejamkorlik, avariyasizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha)	Asosiy ishchilar, texnik xizmat xodimlari; sifat ustuvor bo‘lgan tarmoqlar	Rag‘batlantiruvchi kuch kuchli; miqdor va sifat birlashtirilgan
Maoshli	Belgilangan oylik maosh (minimal ish haqidan past bo‘lmagan); Nizom bo‘yicha mukofot ham qo‘llanishi mumkin	Malaka darajasi tarif-malaka ma’lumotnomacida ko‘rsatilmagan: farrosh, bog‘bon, qorovul	Kafolatlangan minimal daromad; tatbiq etish soddaligi

Manba: iqtisodiy adabiyotlar va tarmoq normativlari asosida muallif tuzildi

Keltirilgan uch tizim bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida baholanishi lozim. [5] Optimal tanlov korxonaning texnologik xususiyatiga, xodimlar toifasiga va mahsulot sifatini ta’minlash zaruriyatiga qarab amalga oshiriladi.

6.7-jadval.

Ishbay va vaqtbay ish haqi shakllarini qiyoslash[288]

Mezon	Ishbay shakl	Vaqtbay shakl
Haq to‘lash asosi	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (natural birlikda)	Amalda ishlangan vaqt (soat, kun, oy)
Mehnat me’yorlash zarurati	Majburiy: ratsenka hisoblash uchun vaqt yoki ishlab chiqarish me’yori kerak	Ixtiyoriy: sarflangan vaqtni hisobga olish yetarli

[288] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

Rag‘batlantirish yo‘nalishi	Miqdorni ko‘paytirish; unumdorlikni oshirish	Sifatni yaxshilash; intizomni saqlash; mas’uliyatni oshirish
Qo‘llanilish sohasi	Ishlab chiqarish liniyalari; tikuvchilik; ta’mirlash; haydovchilar	Xizmat ko‘rsatish; boshqaruv; konveyer ishlab chiqarish; yordamchi xodimlar
Asosiy xavfi	Sifat pasayishi xavfi; uskunaga haddan ortiq yuklanish	Passiv mehnat xavfi; rag‘batlantirish zaifroq bo‘lishi mumkin

Ushbu jadval shuni ko‘rsatadiki, ish haqi shaklini tanlash — bu mehnatni boshqarishning strategik qarorlaridan biri. Zamonaviy korxonalarda ikkala shaklning birgalikdagi qo‘llanilishi — asosiy ishchilar uchun ishbay-mukofot, yordamchi xodimlar uchun mukofotli vaqtbay — optimal natija berishi isbotlangan.

Mehnatga haq to‘lashning shartnoma shakli va qo‘shimcha to‘lovlar tizimi

O‘zbekiston Respublikasini bozor munosabatlari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonida mehnatga haq to‘lash muammosi va shaklining ijtimoiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu maqsadga erishish uchun mehnat va mehnat munosabatlariga ta’sir etishning ilmiy jihatdan asoslangan yangi shakl va uslublarini ishlab chiqarish va turmushga tatbiq etishni amalga oshirish, shu bilan birga mehnatni boshqarishning ishlab chiqilgan mexanizmini mulkchilikning va xo‘jalikning har qanday shakllaridan qat’iy nazar milliy iqtisodiyot sohalarini yagona tizimga birlashtirish lozim.

Mehnat masalalari respublikamizdagi millionlab xodimlarning manfaatiga dahldor bo‘lib, ularning hal etilishi iqtisodiy va ijtimoiy pozitsiyadan turlicha yondoshishni, mehnat munosabatlarini boshqarishning odatdan tashqari shakl va uslublaridan foydalanishni talab etadi. Mulkchilikning turli shakllariga (ijara, jamoa, xususiy, davlat) asoslangan korxonalarning vujudga kelishi bilan respublika milliy iqtisodiyotining bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida mehnatni boshqarish ob’ektiv iqtisodiy qonunlar amalda qo‘llanilayotgan o‘ziga xos shart-sharoitini hisobga olgan darajada talabga javob berishi aniq belgilanishi lozim.

Mehnatni rag‘batlantirish muammosi faqat ijtimoiy ehtiyojni qondirish nuqtai nazaridangina emas, balki ijodiy, yuqori malakali va unumli mehnatdagi ehtiyojni ham qondirishni hisobga olishi kerak. Bu

vazifalarni hal etishdagi ijobiy tarzda bayon qilingan dastlabki qoidalar boshqaruv tizimini, uning shakli va uslublari, mehnatga haq to‘lash shakllari, tizim va miqdorlarini mustaqil belgilash huquqlari korxonalarga berilgan va O‘zbekiston Respublikasi ‘Korxonalar to‘g‘risida’gi qonun bilan mustahkamlangan.[289]

Xodimlarning mulkchilikda ishtirok etishi, ya’ni jamiyatda asta-sekin mulkchilikka ega bo‘lgan o‘rta sinfning tashkil topish printsipi negiziga asoslangan mehnat asoslarini kuchaytirish konsepsiyasi turli yondoshishlarni tavsiya etadi. [13] Xodimlarning mulkchilikda ishtiroki aksionerlik, xususiylashtirish kabi turlicha shaklda bo‘lishi mumkin.

‘O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘g‘risida’gi qonunda tadbirkorlarning yollanma xodimlar bilan mehnat shartnomasi (kontrakt)lari tuzishlari asoslab berilgan[290]. Shartnoma asosidagi ish, agar mutaxassislar va ishchilarning mas’uliyat va manfaatdorliklari ishlab chiqarishning rivojlanishi va korxona moliyaviy ahvoli bilan o‘zaro bog‘lanadigan bo‘lsa, shartnoma asosida mehnatga haq to‘lash katta ahamiyatga ega.

Xodimlarning korxona faoliyatining pirovard natijasidagi mas’uliyati va manfaatlaridan tashqari, ularning shaxsiy mahoratlarini ochib berishga yordam beradigan, kelajakka bo‘lgan ishonchini bunyod etadigan va malakasini oshirishga bo‘lgan harakatini kuchaytirish nuqtai nazaridan ham mehnatga haq to‘lashning shartnoma shaklining ahamiyati kattadir. Tavsiya etilayotgan shartnoma tizimi mehnatga haq to‘lash sharoitini albatta o‘zgartirishni ko‘zda tutmay, balki bu shakl birmuncha qulay va iqtisodiy samara kafolatlaydigani uchun korxonalarda tatbiq etish uchun tavsiya etilmoqda.

O‘zbekiston fuqarolarining mehnat munosabatlari mehnat qonunchiligida asoslab berilgan bo‘lib, u mehnat unumdorligini o‘stirishga, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, kishilarning turmush sharoitlarini yaxshilashga, mehnat intizomini mustahkamlashga va ishchi hamda xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Shunga ko‘ra, ishchilar va xodimlariga bir qancha turdosh qo‘shimchalar to‘lanadi.

Birinchi qo‘shimcha — bolalarni emizish uchun beriladigan tanaffus vaqtiga haq to‘lash. Bir yoshgacha bolasi bor bo‘lgan emizuvchi ayollarga ovqatlanish, dam olish uchun mo‘ljallangan umumiy tanaffusga qo‘shimcha ravishda bolani emizish uchun tanaffus beriladi.

[289] O'zbekiston Respublikasi 'Korxonalar to'g'risida'gi Qonun. Toshkent, 1998 (tahrir 2022). 18-modda.
[290] O'zbekiston Respublikasi 'Tadbirkorlik to'g'risida'gi Qonun. Toshkent, 2020. 24-modda.

Tanaffuslar har uch soatda yarim soatdan belgilanadi va bu tanaffus o‘rtacha ish haqi miqdorida to‘lanadi.

Ikkinchi qo‘shimcha — bekor turib qolishlar uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haq. Ishchi yoki xizmatchilarning aybi bilan bo‘lmagan bekor turib qolishlar uchun qo‘shimcha haq ishchining malakasiga mos ravishda vaqtbay ish haqi tizimi bo‘yicha to‘lanadi. Bu holatda ishchining oylik ish haqi davlat tomonidan tasdiqlangan minimal miqdordan kam bo‘lmasligi kerak.

Uchinchi qo‘shimcha — ko‘p smenali ishda bajarilgan mehnatga haq to‘lash. Korxonalarda uch smenali, ikki smenali ish tashkil qilingan bo‘lib, ishchilar, ustalar va mutaxassislarga kechki va tungi smenada ishlaganliklari uchun qo‘shimcha haq va qo‘shimcha ta’tillar beriladi. Tungi soat qilib kech soat 22:00 dan ertalab 06:00 gacha qabul qilingan. Korxonada belgilangan Nizomlariga ko‘ra, har bir kechki yoki tungi soat uchun ishchining tarif stavkasining 50 foizdan ko‘p miqdorida qo‘shimcha to‘lanadi.

To‘rtinchi qo‘shimcha — o‘smirlar uchun. O‘smirning to‘liq ishlamaydigan ish kuniga to‘la ish kuni uchun haq to‘lanadi.[291] Mahsulotga ishbay tizimida haq to‘lashda o‘smir ishlab chiqargan mahsulotga katta yoshdagi ishchilar bilan bir xil narxlar bo‘yicha haq to‘lanadi; qisqartirilgan ish kunlari uchun esa ishbay tarif stavkasi bo‘yicha qo‘shimcha haq to‘lanadi.

Beshinchi qo‘shimcha — asosiy ishdan ozod qilinmagan holda faoliyat yuritayotgan brigadirlarga qo‘shimcha haq to‘lash. Asosiy ishdan ozod qilinmagan ishchilardan saylangan brigaadirlap uchun qo‘shimcha ish haqi brigadadagi ishchilarning soniga ko‘ra tarif stavkasining 10-15 foizi miqdorida to‘lanadi.

6.8-jadval.

Mehnatga haq to‘lashda qo‘llaniladigan qo‘shimcha to‘lovlarning tavsifi[292]

№	Qo‘shimcha to‘lov turi	Qo‘llanilish sharti	Miqdori / uslubi
1	**Emizish tanaffusiga haq to‘lash**	Bir yoshgacha bolasi bor emizuvchi ayollar	Har 3 soatda 30 daqiqa; o‘rtacha ish haqi miqdorida

[291] O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent, 2015 (tahrir 2022). 155-158-moddalar

[292] *Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va tarmoq normativlari asosida muallif tuzildi*

2	**Bekor turib qolishlarga to‘lov**	Ishchi aybisiz bo‘lgan to‘xtab qolishlar	Malakasiga mos vaqtbay tizimi bo‘yicha; oylik minimal ish haqidan kam bo‘lmasin
3	**Ko‘p smenali ishda qo‘shimcha**	Kechki (22:00–06:00) va tungi smenalarda ishlash	Tarif stavkasining 50 foizidan ko‘p; qo‘shimcha ta’tillar ham beriladi
4	**O‘smirlar uchun qo‘shimcha**	Qisqartirilgan ish kunida ishlayotgan 16-18 yoshdagi ishchilar	Katta yoshdagi bilan bir xil ratsenka; qisqartirilgan kunlar uchun tarif stavkasi bo‘yicha qo‘shimcha
5	**Brigadir lavozimiga qo‘shimcha**	Asosiy ishdan ozod qilinmagan holda brigada boshqaruvchi	Brigada hajmiga qarab tarif stavkasining 10–15 foizi

Keltirilgan beshta qo‘shimcha to‘lov kategoriyasi xodimlarni turli mehnat sharoitlari uchun differensiallangan rag‘batlantirish va kafolatlangan himoya tizimini shakllantiradi. Ularning to‘g‘ri tatbiq etilishi nafaqat mehnat qonunchiligi talablarini bajarishni ta’minlaydi, balki xodimlar sadoqatini va mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasiga aylanadi.

6.3. Fuqaro aviatsiyasi ishchilarining turli toifalari uchun ish haqi

Ekipaj a’zolari, muhandis-texnik xodimlar va boshqa fuqarolik aviatsiyasi ishchilarining mehnatining o‘ziga xos xususiyati ish haqiga ma’lum yondashuvlarni talab qiladi. [293] Fuqaro aviatsiyasining barqaror ishlashini ta’minlash, davlat va fuqarolar iqtisodiyotining havo transportida ehtiyojlarini qondirish, parvozlar xavfsizligini ta’minlash, soha xodimlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini ta’minlash va bandlik masalalarini tartibga solish maqsadida ijtimoiy sheriklik va mehnat munosabatlari taraflari va ularning vakillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar asosida Fuqarolik aviatsiyasida sanoat tariflari to‘g‘risidagi bitim (OTS) ishlab chiqilgan.

Sanoat tariflari bitimi (OTS) — bu ijtimoiy va mehnat munosabatlari va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha xodimlar va ish beruvchining

[293] ICAO. Doc 9587: Policy and Guidance Material on the Economic Regulation of International Air Transport. 4th ed. Montréal: ICAO, 2018. P. 33

kelishilgan manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat bo‘lib, u tegishli bo‘lgan ish beruvchilar va xodimlar uchun majburiydir.[294] OTS ijtimoiy va mehnat munosabatlarini tartibga solish tamoyillarini belgilaydi va jamoaviy hamda mehnat shartnomalarini tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Fuqaro aviatsiyasi tashkilotida eng kam ish haqi fuqarolik aviatsiyasi tashkiloti joylashgan mintaqadagi mehnatga layoqatli odamning yashash darajasidan past bo‘lmagan stavka bo‘yicha belgilanadi va jamoaviy shartnomalarda mustahkamlanadi.[295] Muayyan minimal ish haqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashkilotlarda belgilanadi, lekin jamoaviy, mehnat shartnomasi yoki OTSni imzolash paytida haqiqatan ham erishilgan darajadan past emas. FA tashkilotida eng kam ish haqini belgilashning aniq shartlari tomonlar tomonidan jamoaviy bitimlarda belgilanadi.

Minimal ish haqi tarif stavkalari va xodimlarning rasmiy maoshlarini farqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ish haqi shakllari, tizimlari va tarif stavkalarining hajmi (rasmiy ish haqi), shuningdek ularni o‘zgartirish tartibi va muddatlari kasb, malaka, murakkablik, zararli va mehnat sharoitlariga qarab belgilanadi va jamoaviy bitimlarga kiritiladi.

Parvoz xodimlarining ishlarining o‘ziga xos xususiyatlariga oid OTS bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi samolyotlarining parvoz brigadalari a’zolari uchun professional tarif shartnomasida ko‘rsatilgan. Fuqaro aviatsiyasi muhandislik va aviatsiya xizmatlari muhandis-texnik xodimlarining professional tarif shartnomasida to‘lov me’yorlari va boshqa ish sharoitlari, shuningdek, muhandislik-texnik xodimlar, muhandislik va aviatsiya xizmatlari (IAS), fuqaro aviatsiyasi tashkilotlari uchun ijtimoiy kafolatlar va imtiyozlar belgilanadi.

Ushbu professional tarif shartnomasida ishchilarning ish haqi miqdorining tasdiqlangan eng kam ish haqi miqdorida eng kam tarmoq kafolatlari belgilangan bo‘lib, ish haqi o‘lchovining birinchi toifasi uchun 2,0 dan 4,5 baravar ko‘paytirilgan stavkalar nazarda tutilgan. Maxsus ish haqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri FA tashkilotlarida, ularning moliyaviy holatiga qarab belgilanadi, lekin jamoaviy (mehnat) shartnomasi (shartnomasi) yoki xodimlarga eng qulay sharoitlarni ta’minlaydigan bitim imzolangan paytda erishilgan haqiqiy darajadan past emas.

[294] ICAO. Doc 9587: Policy and Guidance Material on the Economic Regulation of International Air Transport. 4th ed. Montréal: ICAO, 2018. P. 33
[295] World Bank. Jobs and Development: Aviation Sector Labor Markets. Washington D.C., 2020. P. 18

Professional tarif shartnomasida O‘zbekiston Respublikasida eng kam ish haqining o‘zgarishiga muvofiq ish haqini indeksatsiya qilish ko‘zda tutilgan. Indeksatsiya tartibi FA tashkilotining jamoaviy shartnomasida belgilanadi. FA tashkilotida belgilangan tarmoq koeffitsienti o‘zgarishi munosabati bilan rasmiy ish haqining oshishi bilan o‘rtacha xodimning daromadi tegishli nisbatda oshadi. Bu mexanizm xodimlarning xarid qobiliyatini saqlab qolish hamda malakali kadrlarni sektorда ushlab turish uchun zaruriy vosita hisoblanadi.

Fuqaro aviatsiyasi tashkilotlari xodimlarining ayrim toifalari uchun qo‘shimcha kompensatsiya va rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha to‘lovlar va nafaqalar belgilanadi: zararli va og‘ir, ayniqsa zararli va ayniqsa og‘ir mehnat sharoitida ishlash uchun; tunda ishlash uchun; malaka klassi uchun; bajarilgan ishning murakkabligi uchun; xizmat ko‘rsatiladigan uskunaga qarab; parvozlar xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ishlarni bajarish uchun; kasbiy mahorat uchun; vaqtincha yo‘q bo‘lgan ishchilarning lavozimlarini birlashtirish uchun; xizmat ko‘rsatish maydonlarini kengaytirish uchun; ishda chet tilidan foydalanish uchun va hokazo. Ushbu to‘lovlar belgilangan hajmdan past bo‘lmasligi shart — ilgari kuchga kirgan hukumat qarorlari, qoidalari, shuningdek tashkilotda amal qiladigan darajalarga muvofiq.

6.9-jadval.

Fuqaro aviatsiyasi xodimlariga qo‘shimcha kompensatsiya to‘lovlari tasnifi[296]

To‘lov kategoriyasi	Qo‘llanilish sohasi	Asoslash tamoyili
Zararli va og‘ir mehnat sharoiti uchun	Yer bilan bog‘lanmagan barcha parvoz xodimlari; texnik ta’mirlash ishchilari	Sog‘liqqa zarar va hayot xavfini kompensatsiya qilish
Malaka klassi uchun	Parvoz brigadasi a’zolari (uchuvchilar, bortmuhandislar)	Professional mahorat darajasini rag‘batlantirish
Tunda ishlash uchun	Tungi reyslar, texnik xizmat (22:00–06:00)	Sirkadiyalik ritmni buzilishi uchun kompensatsiya
Parvozlar xavfsizligini ta’minlash uchun	Dispetcherlar, xavfsizlik tekshiruvchilari, navigatsiya xodimlari	Yuqori mas’uliyat va xavfni qoplash

[296] *Manba: ICAO Doc 9587 va OTS asosida muallif tuzildi*

Lavozimlarni birlashtirish uchun	Vaqtincha yo‘q bo‘lgan xodim o‘rnini bosuvchi	Qo‘shimcha yuklamani teng taqsimlash
Chet tilidan foydalanish uchun	Xalqaro reyslar, xorijiy yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar	Kommunikatsiya qiyinligi va maxsus ko‘nikmani rag‘batlantirish

6.4. Temir yo‘l saralash va yuk stansiyalari xodimlariga o‘rtacha oylik ish haqi va mehnatga haq to‘lash fondini rejalashtirish

Saralash va yuk stansiyalari ishchilarining mehnatga vaqtbay, vaqtbay-mukofot, va ishbay-mukofot tizimi bo‘yicha to‘lanadi.

Ishbay mukofot tizimi manevr ishlari, poyezdlarni qabul qilish va jo‘natishni bajaradigan majmuaviy brigada ishchilarining mehnatiga haq to‘lash uchun qo‘llaniladi. Yirik stansiyalarda majmuaviy brigada tarkibiga quyidagi stansiya ishchilari kiradi: poyezd tuzuvchilar va ularning yordamchilari, vagon harakati tezligini rostlovchilar, tepalik va manevr rayonlari signalistlari, mexanizatsiyalashgan tepalik operatorlari, texnik kontorachilar, yuk qabul qiluvchilar, tarkibdagi tijorat nosozligini bartaraf etuvchilar, hujjatlarni yetkazib beruvchilar.

Majmuaviy brigadaning har bir a’zosiga va ba’zi bir ishchilari majburyatiga mos holatda ish yoki operatsiyani bajarish yuklatiladi. Bu ish yoki operatsiyaga ishlab chiqarish me’yori belgilangan. Ishbay qiymati ma’lum bir ishchining soat tarif stavkasini bir birlik ishni bajarishi uchun belgilangan vaqt me’yoriga ko‘paytirishi orqali aniqlanadi.

Manevr ishlari hajmi unchalik ko‘p bo‘lmagan stansiyalarda majmuaviy brigadalar tuzilmaydi, manevr ishlarida band bo‘lgan ishchilarning mehnati esa vaqtbay-mukofot tizimi bo‘yicha to‘lanadi.

Ishlab chiqarish shtatining boshqa barcha ishchilariga ishbay haq to‘lash imkoni bo‘lmaganda va maqsadga nomuvofiq bo‘lganda vaqtbay shaklida haq to‘lanadi.

O‘rtacha oylik ish haqi oylik tarif stavkasi yoki maosh, ishbay haq, mukofot, tungi vaqtdagi ish va bayram kunlaridagi ish uchun qo‘shimcha haqlardan tashkil topadi.

Saralash va yuk stansiyalari ishlab chiqarish shtatining yillik mehnatga haq to‘lash fondi har bir kasb bo‘yicha xarajatlar Nominklaturasining tegishli badlari va butun xo‘jalik bo‘yicha rejalashtiriladi.

Har bir kasb bo‘yicha yillik mehnatga haq to‘lash fondi ($F_{\text{M.X}}^{yil}$) ishchilar sonini o‘rtacha oylik ish haqi va yildagi oylar soniga (12)

ko‘paytirish orqali aniqlanadi:

$$Ô_{ì.õ}^{éèë} = ×_{ÿâ_i} \cdot S_{¢ð.î.ì_i} \cdot 12 \ ,$$

bu yerda, Ch_{yavi} – i kasbidagi ishga chiqadigan ishchilar soni;

$S_{o‘r.o.mi}$ – i kasbidagi ishchining o‘rtacha oylik ish haqi.

Stansiya ishchilariga lavozim va kasblar o‘rindoshligida ishlaganlik uchun tarif stavkasi yoki lavozim maoshidan 50% gacha qo‘shimcha haq beriladi.

Og‘ir va sog‘liq uchun zarar bo‘lgan sharoitlarda ishlaydigan ba’zi bir guruh ishchilariga tarif stavkasidan 4/24 % gacha miqdorda qo‘shimcha haq to‘lanadi.

Barcha stansiya turlarida ish jarayoni uzluksiz bo‘lgani sababli tungi vaqtdagi ish uchun tungi vaqtning har bir soati uchun soat tarif stavkasidan 50% miqdorda qo‘shimcha haq, bayram kunlarida bajarilgan ish uchun bayram kunining har bir ish soati uchun soat tarif stavkasidan 100 % miqdorda qo‘shimcha haq to‘lanadi.

Ishchilarni ish stajiga bog‘liq holda xizmat qilgan muddati uchun qo‘shimcha to‘lov amalga oshiriladi.

Misol. I klassli saralash stansiyasining ba’zi bir kategoriyadagi ishchilarni – stansiya navbatchilari va poyezd tuzuvchilarni talab qilinadigan sonini va yillik mehnatga haq to‘lash fondini aniqlang. Stansiyada 2 post mavjud, 5 manevr lokomotivlari xizmat ko‘rsatadi. Poyezd tuzuvchilar V tarif razryadi, qolganlari esa IV tarif razryadiga ega. Stansiya to‘rt smenali jadval bo‘yicha ishlaydi.

Stansiya navbatchilarni vaqtbay-mukofot, poyezd tuzuvchilar – ishbay mukofot tizimi bo‘yicha haq oladilar. Poyezd tuzuvchilar rejada belgilangan ishlab chiqarish me’yorini 10% ortig‘i bilan bajarilishi ko‘zda to‘tilgan. Stansiya navbatchisiga 20% oylik maoshdan, poyezd tuzuvchilariga 25% ishbay haqidan mukofot to‘lanadi.

Bu sharoitlarda stansiya navbatchilarining soni quyidagiga teng bo‘ladi:

2*4,34*1,07 = 9 kishi

bu yerda 1,07 – kasal ta’tilda bo‘lgan davlat va jamoat majburiyatlarini bajarayotgan ishchilarning o‘rnini etoborga oluvchi koeffitsient.

Poyezd tuzuvchilar:

5,1*4,34*1,07 = 23 kishi

Ulardan 10 kishi V razryadga va 13 kishi V razryadga ega

Stansiya navbatchining oylik ish haqi 138580 so‘m.

Tungi vaqtdagi ish uchun qo‘shimcha haq:

138580*0,1667 = 23101,29 so‘m

Bayram kunlarigi ish uchun qo‘shimcha haq:

138580*0,0247 = 3422,93 so‘m

Mukofot:

138580*0,20 = 27716 so‘m

Demak stansiya navbatchisining o‘rtacha oylik ish haqi:

138580+23101,29+3422,93+27716=192820,22 so‘m

Yillik mehnatga haq to‘lash fondi:

192820,22*9*12=20824,58 ming so‘m

Poyezd tuzuvchilarning o‘rtacha oylik ish haqi quyidagi usul bilan aniqlanadi:

IV razryad: 526,52*168,2=88559,9 so‘m

V razryad: 633,14*168,2=106493,3 so‘m

bu yerda 526,52; 633,14 – mos ravishda IV va V razryadli og‘ir va zararli mehnat sharoitida band bo‘lgan poyezd tuzuvchilarning soat tarif stavkalari.

Ishbay haq:

IV razryad 88559,9 + 88559,9*0,1 = 97415,89 so‘m

V razryad 106493,3 + 106493,3*0,1 = 117142,63 so‘m

Tungi vaqtdagi ish uchun qo‘shimcha haq:

IV razryad 88559,9*0,1667 = 14762,94 so‘m

V razryad 106493,3*0,1667 = 17750,43 so‘m

Bayram kunlaridagi ish uchun qo‘shimcha haq:

IV razryad 97415,89*0,0247 = 2406,17 so‘m

V razryad 117142,63*0,0247 = 2893,42 so‘m

Мукофот:

IV razryad (97415,89 + 14762,94)*0,25 = 28044,71 so‘m

V razryad (117142,63 + 17752,43)*0,25 = 33723,77 so‘m

Poyezd tuzuvchining o‘rtacha oylik ish haqi:

IV razryad 97415,89 + 14762,94 + 2406,17 + 28044,41 = 142629,71 so‘m

V razryad 117142,63 + 17752,43 + 2893,42 + 33723,77 = 171512,25 so‘m

Yillik mehnatga haq to‘lash fondi:

IV razryad 142629,71*13*12 = 22250,23 ming so‘m

V razryad 171512,25*10*12 = 20581,47 ming so‘m

Stansiya nabatchilar va poyezd tuzuvchilarning umumiy yillik mehnatga haq to‘lash fondi quyidagiga teng bo‘ladi:

20824,58 + 22250,23 + 20581,47 = 63656,28 ming so‘m

Tayanch so‘zlar va iboralar

1-guruh — Ish haqining asosiy tushunchalari		
№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
1	*Ish haqi*	Xodimning bajargan mehnati evaziga ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan pul shaklidagi haq; ishchi kuchi bahosining pul ko‘rinishi. Asosiy va qo‘shimcha qismlardan iborat.
2	*Xodimlar mehnatiga haq to‘lash*	Sarflangan mehnat miqdori va sifatiga muvofiq holda xodimlarga belgilangan tartibda to‘lanadigan haq tizimi; iqtisodiy va huquqiy kategoriya sifatida bir-biridan farqlanadi.
3	*Nominal ish haqi*	Ma’lum vaqt davomida olingan pul shaklidagi ish haqi summasi; xodimning rasmiy daromadini ifodalaydi, ammo haqiqiy xarid qobiliyatini bevosita aks ettirmaydi.
4	*Real ish haqi*	Nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori; nominal ish haqining haqiqiy ‘xarid qilish’ quvvati. Inflyatsiya sharoitida real ish haqi pasayishi mumkin.
5	*Tarif stavkasi*	Ishchiga vaqt birligi (soat, kun, oy) uchun to‘lanadigan ish haqi me’yori; ish haqini belgilovchi dastlabki asosiy miqdoriy o‘lchov. 0-razryad stavkasi asosida boshqa razryadlar hisoblanadi.
2-guruh — Ishbay ish haqi shakli va tizimlari		
№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
6	*Mehnatga ishbay haq to‘lash*	Ish haqi bevosita ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan operatsiyalar soniga bog‘liq bo‘lgan haq to‘lash shakli. Ishbay ratsenka hisoblash asosini tashkil etadi.
7	*Ishbay ratsenka*	Mahsulot birligiga yoki bajarilgan ma’lum operatsiyalarga to‘lanadigan ish haqi miqdori. $R = (S_0 \times Kn) / Im$ formulasi asosida aniqlanadi.

8	*Mehnatga ishbay-mukofotli haq to‘lash*	Asosiy ishbay ish haqiga mehnat natijalari uchun qo‘shimcha mukofot biriktirilgan tizim. Ishlab chiqarish me’yorini bajarish, sifat yaxshilanishi Nizom bo‘yicha mukofot asosi bo‘ladi.
9	*Mehnatga akkord haq to‘lash tizimi*	Aniq muddatli ishning yaxlit to‘lovi oldindan belgilanadigan tizim. Muddatidan avval bajarishga rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha mukofot ko‘zda tutilishi mumkin. Qurilish va ta’mirlash ishlarida keng qo‘llaniladi.

3-guruh — Vaqtbay ish haqi shakli va tizimlari		
№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
10	*Mehnatga vaqtbay haq to‘lash*	Ish haqi amalda ishlangan vaqt miqdoriga to‘g‘ri proporsional ravishda o‘zgaradigan haq to‘lash shakli. IH = C_t⁰ × Kn × T_haq formulasi asosida hisoblanadi.
11	*Oddiy vaqtbay tizim*	Ishchilarning ish haqi faqat tarif razryadiga mos stavka va ishlangan vaqt asosida aniqlanadigan eng sodda ko‘rinish. Xizmat ko‘rsatish, nazorat, boshqaruv funksiyalarida qo‘llaniladi.
12	*Vaqtbay-mukofotli haq to‘lash*	Asosiy vaqtbay ish haqiga mehnat natijalari uchun mukofot (sifat, tejamkorlik, avariyasizlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha) qo‘shilgan tizim. Rag‘batlantiruvchi kuchi yuqori.
13	*Maoshli tizim*	Tarif-malaka ma’lumotnomacida ko‘rsatilmagan malaka darajasidagi ishlar uchun qo‘llaniladigan tizim. Belgilangan oylik maosh minimal ish haqidan past bo‘lmasligi shart.

4-guruh — Tarif tizimi va ish haqini tartibga solish		
№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
14	*Tarif tizimi*	Ishchi va xizmatchilarning ish haqi darajasini malaka, mehnat sharoiti, og‘irligi va mas’uliyatiga ko‘ra

		tabaqalashtirish hamda tartibga solishga asos bo‘ladigan normativlar majmuasi. Tarif-malaka ma’lumotnomasi, tarif setkasi va tarif stavkalaridan iborat.
15	*Tarif razryadi*	Ishchining malaka darajasini yoki texnologik operatsiyaning murakkablik darajasini ko‘rsatuvchi tarif jadvalining asosiy elementi. Malaka oshishi bilan razryad va unga mos tarif koeffitsienti ham o‘sadi.
16	*Tarif koeffitsienti*	Muayyan razryad uchun mehnatga haq to‘lashning 0-razryad stavkasiga nisbatan necha barobar oshganligini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich. O‘zbekistonda yagona tarif setkasida 2,476 dan 10,240 gacha.

Nazorat savollari

1. Ish haqining turlari va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Korxonada mehnatga haq to‘lashning vazifalari va tamoyillari?
3. Davlat miqyosida mehnatga haq to‘lashni tartibga solinishi?
4. Tarif tizimi va uning tarkibi?
5. Tarif setka, tarif stavka va uning mohiyati?
6. Mehnatga haq to‘lashning qanday shakllari mavjud?
7. Qanday vaziyatlarda mehnatga haq to‘lashning ishbay shaklidan foydalaniladi?
8. Mehnatga haq to‘lashning vaqtbay shakli, uning mohiyati, qo‘llanish o‘rni?
9. Mehnatni ilmiy tashkil etishning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
10. Mehnat taqsimoti va mehnat kooperatsiyasi deb nimaga aytiladi?
11. Ishni rejalashtirishning qanday usullari bor?
12. Mehnatni texnikaviy normalashtirish deb nimaga aytiladi?
13. To‘g‘ri kelish tanaffuslari qanday normalanadi?
14. Mahsulot ishlab chiqarish normasi va vaqt normasi haqida tushuncha bering.
15. Turli tipdagi trikotaj to‘quv mashinalarida mehnatni normalashtirishning o‘ziga xos tomonlari nimalardan iborat?

VII BOB. TRANSPORT KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI

7.1. Avtomobil transporti korxonalari ishlab chiqarish harajatlari, ularning mohiyati.

7.2. Xarajatlarning tasniflanishi.

7.3. Tashish tannarxi va uning strukturasi.

7.4. Temir yo‘l ekspluatatsion xarajatlarini rejalashtirish va tashish tannarxini hisoblash.

7.5. Temir yo‘lda tashish tannarxini hisoblash va uni kamaytirish yo‘llari.

7.6. Tashish tannarxini kamaytirish yo‘llari.

7.1. Avtomobil transporti korxonalari ishlab chiqarish xarajatlari, ularning mohiyati

Avtotransport xizmatlari bozoridagi narx belgilash masalasi — raqobatbardosh tariflarni iqtisodiy jihatdan asoslash zarurati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu masalani hal etmasdan turib ATK faoliyatini samarali tashkil etib bo‘lmaydi. Tarif stavkalarini asoslashda qo‘llaniladigan uslubiyat, avvalambor, yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar uchun joriy narxlarning maqsadga muvofiqligi hamda asosliligini isbotlashga qaratilgan bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida transport sohasidagi narxlar bir qator tashqi va ichki omillar kesishmasida shakllanadi. [1] Bunda talab va taklif nisbati hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Avtomobil transporti xizmatlari bozorida raqobat darajasi va ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati ham tarif miqdoriga ta’sir etadi; makroiqtisodiy inflyatsiya, davlat soliq siyosati va resurs intensivligi ham bu omillar qatoriga kiradi. O‘zbekiston Respublikasida transport sohasidagi narxlarni tartibga solishning asosiy normativ hujjati 1997 yil 25 apreldagi ‘Shahar yo‘lovchilar transporti’ to‘g‘risidagi qonun hisoblanadi[297]. Tarif stavkalarini belgilashda uchta asosiy hisob parametri qo‘llaniladi: tashilgan yuklarning tonnasi, bosib o‘tilgan yurish-kilometri va avtotransportning ish vaqti[298]. Parametrlarni tanlash har bir aniq munosabat uchun — ya’ni ‘buyurtmachi-ijrochi’ tomonlarining o‘ziga xos tashish shartlaridan va o‘zaro kelishuvidan kelib chiqqan holda — amalga oshiriladi. Bu yondashuv tomonlarga tarif tuzilmasini real ish sharoitlariga moslashtirish imkonini beradi.

[297] O'zbekiston Respublikasi 'Shahar yo'lovchilar transporti' to'g'risidagi Qonun. 1997 yil 25 aprel.
[298] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 224-bet.

ATK xarajatlarini har tomonlama tahlil qilish uchun ularni turli mezonlar bo‘yicha guruhlash zarur bo‘ladi. [299] Ishlab chiqarish va tijorat faoliyati jarayonidagi iqtisodiy rolidan kelib chiqib, xarajatlar asosiy va qo‘shimcha guruhlarga ajratiladi. ATK xizmatlari turiga ko‘ra esa tovar-moddiy boyliklarni ombordan saqlash jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar, logistika va ekspeditorlik xizmatlari xarajatlari, transport va yuk xarajatlari, yuk ortish hamda tushirish operatsiyalaridan kelib chiqadigan xarajatlar alohida ko‘rsatiladi.

Xarajatlarning kelib chiqish davriyligi bo‘yicha bir martalik va joriy xarajatlar farqlanadi. Turi bo‘yicha — kilometrli, ishbay va vaqtbay xarajatlar. Mo‘ljallangan maqsad bo‘yicha: tijorat xarajatlari, brak mahsulotlardan zararlar, umumxo‘jalik va umumiy ishlab chiqarish xarajatlari, ijtimoiy ajratmalar, ishchilar ish haqi, texnologik energiya va yoqilg‘i, uchinchi tomon xizmatlari, qaytariladigan chiqindilar, xom ashyo va materiallar[300].

Vujudga kelish vaqti va tannarxga o‘tkazilishi bo‘yicha kelgusi davr va joriy xarajatlar farqlanadi. Mahsulot tannarxiga kiritish usuli bo‘yicha to‘g‘ri va egri xarajatlar. Ishlab chiqarish hajmiga nisbatan shartli o‘zgaruvchan va shartli doimiy xarajatlar. Moliyaviy natijalarga daxlliligi bo‘yicha tannarxga qo‘shiladigan va foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar. Ushbu to‘qqiz mezonning barchasi bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, bir-birini inkor etmaydi.

Ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari

Korxona iqtisodiyotida xarajatlarning ikki yirik toifasi — ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari — tubdan farqlangan mohiyatga ega. [4] Ishlab chiqarish xarajatlari deganda mahsulotni bevosita yaratish uchun sarflanadigan barcha to‘lovlar tushuniladi: xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i va energiya, asosiy kapital amortizatsiyasi, xodimlar ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar, foiz to‘lovlari. Tovar birligi qiymatida ishlab chiqarish xarajatlari uning bir qismini tashkil qiladi, xolos — tovar qiymatidan foyda miqdoriga kam.

Muomala xarajatlari tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarni ifodalaydi. [4]**Qo‘shimcha muomala xarajatlari** — tovarlarni o‘rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari — tovar qiymatini oshiradi va sotgandan olingan pul tushumidan qoplanadi. **Sof muomala xarajatlari** esa savdo xodimlari

[299] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 221-bet.
[300] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU nashriyoti, 2015. 191-bet.

maoshi, marketing tadqiqotlari va reklama xarajatlaridan iborat bo‘lib, tovar qiymatini oshmaydi — foyda hisobidan qoplanadi.

Korxonaning ishlab chiqarishda foydalanadigan resurslari o‘z mulki yoki ijaraga olingan bo‘lishi mumkin — bu farq xarajatlar tasnifida fundamental ahamiyat kasb etadi. [6] Nobel mukofoti laureati R. Kouz ta’kidlaganidek, korxona chegaralari aynan tranzaksion xarajatlarning ichki va tashqi shakllarini taqqoslash natijasida belgilanadi.

Tashqi xarajatlar korxona o‘ziga zarur resurs va xizmatlar uchun amalga oshiradigan haqiqiy pul to‘lovlaridir. [6] Yollanma ishchilar ish haqi, xom ashyo va materiallar uchun to‘lovlar, kredit uchun foiz to‘lovlari, ijaraga olingan yer uchun renta, transport va boshqa xizmatlar uchun to‘lovlar shu toifaga kiradi. Tashqi xarajatlar to‘lov hujjatlari bilan rasmiylashtirilib, buxgalteriya (hisobdorlik) xarajatlari deb ham ataladi.

Ichki xarajatlar — korxonaning o‘z mulkidagi resurslardan foydalanishi bilan bog‘liq, lekin pul to‘lovi shaklida ko‘rinmaydi. Ularni baholash uchun o‘z resurslari qiymatini shunga o‘xshash resurslarning bozor baholariga taqqoslash yo‘li tutiladi. Tadbirkorlik faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan normal (me’yoridagi) foyda ham — renta va ish haqi bilan birga — xarajatlar tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Ana shu nuqtada buxgalteriya xarajatlari iqtisodiy xarajatlardan farq qiladi: iqtisodiy xarajatlar ichki xarajatlarni ham qamrab oladi.

7.1-jadval.

Ishlab chiqarish xarajatlarining tashqi va ichki ko‘rinishlari[301]

Tashqi xarajatlar (buxgalteriya xarajatlari)	Ichki xarajatlar (yashirin xarajatlar)
Yollanma ishchilar ish haqi	Bino va inshootlar amortizatsiyasi (o‘z mulki)
Xom ashyo va materiallar uchun to‘lovlar	Mashina-uskunalar amortizatsiyasi (o‘z mulki)
Yoqilg‘i va energiyaga to‘lovlar	O‘z kapitalini alternativ foydalanishdan voz kechilgan narxi
Transport va aloqa xizmatlariga to‘lovlar	Tadbirkorning vaqti va mehnati uchun normal foyda
Bank xizmatlari va kredit foizlari	O‘z yerini ishlatishdan renta

Sarf-xarajatlarni tashqi va ichki shakllarga ajratish korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

[301] *Manba: Coase R.H., Savitskaya G.V. va iqtisodiy nazariya asosida muallif tuzildi*

Yaxshi tashkillashtirilgan korxona nafaqat tashqi xarajatlarni minimallashtirishga, balki o‘z resurslarining muqobil qiymati haqida ham doim hisob-kitob qilib turishga majbur bo‘ladi.

Ishlab chiqarish hajmiga bog‘liqlik nuqtai nazaridan xarajatlarning ikki asosiy turi farqlanadi[302].

Doimiy xarajatlar — ishlab chiqarish qanchalik ko‘paytirilib yoki qisqartirilmasin, mutlaq miqdori o‘zgarmaydigan xarajatlar. Korxonaning to‘lov majburiyatlari (zayomlar bo‘yicha foiz), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo‘riqlash xizmatiga to‘lov, uskunalarga xizmat ko‘rsatish sarflari, boshqaruv xodimlari maoshi — bularning barchasi ishlab chiqarish nol darajada ham, maksimal yuklamada ham bir xil miqdorda sarflanadi.

O‘zgaruvchan xarajatlar esa ishlab chiqarish ko‘lami o‘sganda ko‘payib, qisqarganda kamayadigan xarajatlardir. [1] Xom ashyo, material, yoqilg‘i, transport xizmatlari, ishchilar ish haqi — bularning hammasi bajarilgan ishlar hajmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Avtomobil transportida o‘zgaruvchan xarajatlar qo‘shimcha ravishda tashish turlari, yo‘nalishlar va texnologik operatsiyalar bo‘yicha ham farqlanadi. Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarning yig‘indisi umumiy (yalpi) xarajatlarni hosil qiladi.

7.2-jadval.

Doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarning tarkibi va xususiyatlari[303]

Doimiy xarajatlar (ishlab chiqarishdan mustaqil)	O‘zgaruvchan xarajatlar (ishlab chiqarishga proporsional)
Korxona to‘lov majburiyatlari (zayomlar bo‘yicha foiz)	Xom ashyo va materiallar sarflari
Soliqlar, majburiy yig‘imlar va boj to‘lovlari	Yoqilg‘i va moylash materiallari
Amortizatsiya ajratmalari (asosiy fondlar)	Transport xizmatlari va ekspeditorlik
Ijara haqi (yer, bino, uskunalar)	Ishchilar ish haqi (ishlab chiqarish xodimlari)
Qo‘riqlash, texnik xizmat, boshqaruv xodimlari maoshi	Yuk ortish-tushirish, bojxona ko‘rik, ehtiyot qismlar

[302] Mankiw N.G. Principles of Economics. 8th ed. Mason: Cengage Learning, 2018. P. 268.
[303] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va ATK tarmoq amaliyoti asosida muallif tuzildi*

To‘g‘ri xarajatlar bevosita hisobga olinib, aniq ish yoki xizmat turiga yo‘naltiriladi — mahsulot tannarxiga belgilangan me’yorlar bo‘yicha kiritiladi. Egri xarajatlar bir nechta ish turlari bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir ulushda ularning tannarxiga taqsimlanadi. Shartli-doimiy xarajatlar kategoriyasi alohida ajratiladi: ishlab chiqarish hajmi o‘zgarganda ularning absolyut miqdori o‘zgarmasligi yoki juda kam o‘zgarishi bilan xarakterlanadi[304].

Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan sarf-xarajatlarni hisoblash uchun iqtisodiy tahlilda uchta ko‘rsatkich qo‘llaniladi: o‘rtacha umumiy xarajatlar, o‘rtacha doimiy xarajatlar va o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar[305]. O‘rtacha umumiy xarajatlar — yalpi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga nisbatan ifodalaydi; o‘rtacha doimiy xarajatlar — doimiy xarajatlarni shu miqdorga bo‘lish orqali aniqlanadi; o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar esa o‘zgaruvchan sarflarning bir birlikka to‘g‘ri keladigan qismidir.

Maksimal foyda olinishi uchun ishlab chiqarish qay darajada bo‘lishi kerakligini aniqlashda qo‘shilgan xarajat ko‘rsatkichi qo‘llaniladi — bu keyingi qo‘shimcha mahsulot birligi ishlab chiqarilishi bilan yuzaga keladigan sarfni bildiradi.

Mahsulot tannarxini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ichida amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan ko‘rsatkich — bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat[306]. U quyidagicha hisoblanadi:

$$X_{1\ so‘m} = Ishlab\ chiqarish\ tannarxi\ /\ Mahsulotning\ ulgurji\ bahosi$$

Bu ko‘rsatkich qanchalik past bo‘lsa, sarflarning samaradorligi shunchalik yuqori deb baholanadi[307]. Vaqt o‘tishi bilan uning o‘zgarishini kuzatish, rejalashtirilgan va haqiqiy qiymatlarni solishtirish korxona iqtisodiy faoliyati dinamikasini yildan-yilga baholash uchun qulay vositadir.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilishning normativ asosi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 5 fevralda tasdiqlangan 54-sonli Nizom bilan belgilangan. Ushbu hujjat mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi tarkibi, ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini guruhlash hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibini tartibga soladi.

---

[304] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 307-bet.

[305] [1] Mankiw N.G. Principles of Economics. 8th ed. Mason: Cengage Learning, 2018. P. 268.

[306] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 307-bet

[307] Raxmatullayev B.X. Korxona faoliyatini rejalashtirish. Toshkent: Moliya, 2020. 106-bet.

7.2. Xarajatlarning tasniflanishi

Amaldagi qonunchilikka muvofiq xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning barcha xarajatlari to‘rtta asosiy guruhga ajratiladi[308]. Bu guruhlanish O‘zbekiston moliya hisobi standartlarining asosini tashkil etib, korxona faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy natijalarni aniqlashda amaliy vosita vazifasini bajaradi.

7.3-jadval.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar xarajatlarining to‘rt guruhli tasnifi[309]

Guruh	Guruh nomi	Tarkibiy kichik guruhlar
I guruh	**Mahsulot tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlar**	a) Bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar; b) Bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari; v) Ishlab chiqarishdagi ma’muriy xarajatlar
II guruh	**Davr xarajatlari**	a) Sotish bo‘yicha xarajatlar; b) Boshqaruv xarajatlari; v) Boshqa muomala xarajatlari va zararlar
III guruh	**Moliyaviy faoliyat xarajatlari**	a) Foizlar bo‘yicha sarflar; b) Chet el valyutasi kursi o‘zgarishidan zarar; v) Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan zarar; g) Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar
IV guruh	**Favqulodda zararlar**	Odatda kichik guruhlarga bo‘linmaydi. Korxonaning odatiy faoliyatidan tashqari, kutilmagan va takrorlanmaydigan hodisalar natijasida yuzaga kelgan xarajatlar

To‘rtinchi guruh — favqulodda zararlar — amaliyotda ularni odatiy zararlardan farqlash muhim muammo hisoblanadi. [310] Biron-bir moddaning favqulodda zarar sifatida tasniflanishi uchun uch mezonga javob berishi shart: mazkur hodisa korxonaning odatiy xo‘jalik faoliyatiga xos bo‘lmasligi kerak; bir necha yil mobaynida takrorlanmagan bo‘lishi zarur; boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog‘liq bo‘lmasligi lozim. Agar shu uch mezondan bittasi ham bajarilmasa — xarajat favqulodda emas, balki moliyaviy faoliyat yoki davr xarajatlariga kiritiladi.

[308] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 'Mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi to'g'risida'gi Nizom No54. Toshkent, 1999 yil 5 fevral.

[309] *Manba: O'zR Moliya vazirligi Nizomi No54, 1999 yil asosida muallif tuzildi*

[310] *O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 'Mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi to'g'risida'gi Nizom No54. Toshkent, 1999 yil 5 fevral.*

Mahsulot yaratilishi bilan bevosita bog‘liq barcha sarflar ishlab chiqarish xarajatlari kategoriyasiga kiradi[311]. Bu kategoriya uch tarkibiy unsurni birlashtiradi: moddiy (material) xarajatlar, mehnat haqi xarajatlari va ishlab chiqarish xarakteridagi ma’muriy xarajatlar. Bevosita material xarajatlari bilan mehnat haqi birgalikda ‘dastlabki xarajatlar’ deb ataluvchi guruhni hosil qiladi. Mehnat haqi va ishlab chiqarish xarakteridagi ma’muriy xarajatlar esa ‘konversiya xarajatlari’ga birlashadi. Material xarajatlar va konversiya xarajatlarining yig‘indisi to‘liq ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi.

Noishlab chiqarish xarajatlari — ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan barcha sarflar.[312] Ularning tarkibiga sotish xarajatlari, ilmiy-tekshirish va tadqiqot xarajatlari, umumiy va ma’muriy boshqaruv xarajatlari, olingan kredit uchun foiz to‘lovlari kiradi. Moliyaviy hisobning talabiga ko‘ra noishlab chiqarish xarajatlari tannarxga kiritilmaydi, balki davr xarajatlari sifatida alohida hisobga olinadi.

Mahsulot tannarxini umumlashtiruvchi uchta ko‘rsatkich qo‘llaniladi: bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat; taqqoslanadigan mahsulot tannarxi; mahsulot birligining tannarxi[313]. Xarajatlarni tahlil qilishda joriy davr va o‘tgan yil ma’lumotlari, biznes-reja ko‘rsatkichlari, o‘rtacha ko‘rsatkichlar va tarmoq bo‘yicha boshqa ma’lumotlar taqqoslanadi. Mutlaq o‘zgarishlar nisbiy ko‘rsatkichlar — o‘sish sur’atlari va ulushlar bilan to‘ldirilganda tahlil yanada to‘liqroq bo‘ladi.

Yuqoridagi asosiy to‘rt guruhdan tashqari korxona xarajatlari bir qator qo‘shimcha mezonlar bo‘yicha ham tasniflanadi[314]. Yuzaga chiqish shakliga ko‘ra: asosiy ishlab chiqarish xarajatlari; moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar; tasodifiy va favqulodda xarajatlar. Mahsulot tannarxiga qo‘shilishiga ko‘ra: kiritiluvchi va kiritilmovchi xarajatlar. Yuzaga chiqish o‘rni bo‘yicha: bo‘lim, tsex va uchastkalar bo‘yicha xarajatlar.

Sotish hajmiga hisobdan chiqarilishiga ko‘ra: mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari va davr xarajatlari. Davriga ko‘ra: joriy davr va kelgusi davr xarajatlari. Soliqqa tortiladigan foyda summasini aniqlashdagi rolga ko‘ra: soliqqa tortiladigan bazaga qayta qo‘shiladigan

[311] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU nashriyoti, 2015. 191-bet.
[312] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 221-bet.
[313] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 307-bet.
[314] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU nashriyoti, 2015. 191-bet.

doimiy tafovutlar, davriy tafovutlar; shuningdek soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmaydigan xarajatlar.[315]

Avtotransport korxonalari buxgalteriya hisobi va hisobotida xarajatlarni ikki parallel yo‘nalish bo‘yicha guruhlash maqsadga muvofiq: iqtisodiy elementlari va kalkulyatsion moddalari bo‘yicha.[316] Iqtisodiy elementlar bo‘yicha guruhlanish xarajatlar tuzilmasi va dinamikasini kuzatish imkonini bersa, kalkulyatsion moddalar bo‘yicha guruhlanish aniq tashish turlari uchun tannarxni hisoblashga xizmat qiladi.

7.4-jadval.

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kalkulyatsion moddalari bo‘yicha turkumlanishi[317]

Iqtisodiy elementlari bo‘yicha	Kalkulyatsion moddalar bo‘yicha
Ishlab chiqarish xarakteri bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Yoqilg‘i-moylash materiallari; TXK va ta’mirlash xarajatlari; Avtoshina xarajatlari; Boshqa moddiy ashyolar
Ishlab chiqarish xarakteri bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	Asosiy ish haqlari; Qo‘shimcha ish haqlari; Ish haqiga ustamalar
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ijtimoiy ta’minot bo‘limiga ajratmalar; Kasaba uyushmasiga ajratmalar; Boshqa ijtimoiy majburiy to‘lovlar
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, eskirish xarajatlari	Asosiy vositalarning eskirishi; Nomoddiy aktivlarning eskirishi; Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar ijara haqqlari
Ishlab chiqarish xarakteri boshqa xarajatlar	Turli ishlar va xizmatlar uchun to‘lovlar; Soliqlar, yig‘imlar va boshqalar

Iqtisodiy elementlar bo‘yicha taqqoslov tahlili orqali jonli mehnat sarflarining boshqa xarajat turlari bilan nisbatini aniqlash, ishlab chiqarish zahiralarini normallashtirish, aylanma mablag‘lar aylanish tezligini hisoblash mumkin.[318] Tahlil natijalariga muvofiq material sig‘imi, mehnat sig‘imi va fond sig‘imi darajalari bo‘yicha tannarxni pasaytirish imkoniyatlari aniqlanadi. Jami xarajatdagi har bir elementning salmog‘ini joriy yil, o‘tgan yil va reja ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash — barcha

[315] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 'Mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi to'g'risida'gi Nizom No54. Toshkent, 1999 yil 5 fevral.
[316] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 221-bet.
[317] *Manba: O'zR Moliya vazirligi Nizomi No54 va ATK tarmoq amaliyoti asosida muallif tuzildi*
[318] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 307-bet.

to‘rtta guruh bo‘yicha xarajat o‘zgarishlarining sabablarini oydinlashtiradi.

7.3. Tashish tannarxi va uning strukturasi

Har qanday mahsulotni yaratish o‘zi yetarli emas — uni iste’molchiga yetkazish, taqsimlash va sotish ham zarur.[319] Bu iqtisodiy zanjirda qiymat shaklidagi taqsimlot birinchi bo‘g‘in hisoblanadi: mahsulot o‘z qiymatiga muvofiq ulushlar bo‘yicha taqsimlanadi, bu jarayon pul manbalari va jamg‘armalar yuzaga keltiradi, ular esa tovarlarga almashinib iste’molni shakllantiradi. Umumjamiyat iste’moli davlat tomonidan ta’minlanadi — buning uchun resurslar turli pul jamg‘armalarini vujudga keltiradi, shu mablag‘lar orqali turli tarmoq va sohalar ehtiyoji qondiriladi. Bu jarayon davlat organlarining moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadi.

Moliya — bu davlat, korxona, birlashma va boshqa tashkilotlar hamda mehnatkashlarning moddiy va ijtimoiy-madaniy talablarini qondirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari jamg‘armalarini tashkil qiluvchi iqtisodiy aloqalar yig‘indisidir.[320] Avtotransport korxonalari ishlab chiqarish faoliyatini xo‘jalik hisobi usulida tashkil qilinganligi sababli ularning barcha faoliyat natijalari bitta maqsadga — xarajatlardan ortiq daromad olishga — yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mabodo daromadlar xarajatlarni qoplamasa, korxona bank kreditiga murojaat qilishga majbur bo‘ladi, bu esa moliyaviy mustaqilligini zaiflashtiradi.

ATK moliyasi ikki tomonlama bog‘liq: bir tomondan, ish faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishi moliyaviy imkoniyatni kengaytiradi; ikkinchi tomondan, moliyaning yetarliligi keyingi muvaffaqiyatlar uchun zamin bo‘ladi. Avtotransport korxonalarining moliyaviy holati uch asosiy ko‘rsatkich bilan bevosita bog‘liq: yuk tashish qatnovi o‘z vaqtida bajarilishi, mehnat unumdorligi darajasi va tannarxni belgilangan chegarada ushlab turish. Shu boisdan ATK faoliyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichi foyda hisoblanadi — tannarxni kamaytirish esa foydani oshirishning bevosita yo‘li.[321]

Tannarx — bu korxonaning mahsulot yoki xizmatning bir birligini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha xarajatlarini pul shaklida

[319] Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 15th ed. Mason: Cengage, 2016. P. 623.
[320] Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 15th ed. Mason: Cengage, 2016. P. 623.
[321] Toshmatov N.A. O'zbekistonda transport tizimini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: Yangi nashr, 2019. 158-bet.

ifodalaydi. [322] Avtomobil transport tashuvlari tannarxi, transport korxonasining ekspluatatsiya xarajatlari summasini o‘rtacha transport ishlab chiqarish mahsuloti birligiga to‘g‘ri kelishini pul shaklida ifodalaydi. Bu xarajatlar tarkibiga amaldagi qonunchilikka muvofiq tashuvchilarni majburiy sug‘urta qilish xarajatlari, transport xizmatining sifat talablarini ta’minlash xarajatlari, tovarlar va yo‘lovchilar xavfsizligini kafolatlash xarajatlari, harakat jadvaliga rioya qilish va texnologik aloqa vositalarini ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlar kiradi.

Avtomobil transportida tashuvlar tannarxi transport ishlarining har xil turlari uchun alohida aniqlanadi. [2] Tarif bo‘yicha ishlaydigan yuk mashinalari uchun birlik mahsulot — 1 t.km; soatlik tarif stavka bilan ishlaydigan transport vositalari uchun — 1 avtomobil-soat; yo‘lovchi avtobuslarini tashish uchun — 1 yo‘lovchi-kilometr.

Avtotransport mahsulotining tannarxini hisoblash uchun umumiy xarajatlarni tegishli transport mahsuloti birligi miqdoriga bo‘lish formulasidan foydalaniladi.[323] [3]

Yuk tashuvchi avtomobillar uchun:

$$T_{yuk} = SX_{umumiy} / R_{t.km} \quad (so‘m / t.km)$$

Bu yerda: SX_{umumiy} — umumiy xarajatlar, so‘m; $R_{t.km}$ — transport mahsuloti, tonna-km.

Avtobus korxonasi uchun:

$$T_{yulov} = SX_{umumiy} / R_{y.km} \quad (so‘m / yo‘l.km)$$

Bu yerda: $R_{y.km}$ — yo‘lovchi-kilometr.

Yengil avtomobil-taksilar uchun:

$$T_{engil} = SX_{umumiy} / R_{pul.km} \quad (so‘m / pulli km)$$

Bu yerda: $R_{pul.km}$ — pulli kilometr (iste’molchi to‘laydigan masofa).

Uchala formulada ham suratdagi umumiy xarajatlar deganda 1 tonna yukni 1 km ga olib borish yoki 1 yo‘lovchini 1 km masofaga yetkazib qo‘yish uchun ketgan barcha xarajatlar tushuniladi.[324]

[322] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 224-bet.
[323] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 224-bet.
[324] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 224-bet.

Umumiy xarajatlar yettita asosiy modda bo‘yicha hisoblanadi.

7.5-jadval.

ATK umumiy xarajatlari moddalari va ularning tasnifi[325]

1	Haydovchilarning ish haqi (ijtimoiy sug‘urta bilan)	*Shartli-o‘zgaruvchan*	Ishbay to‘lovda bajarilgan ish masofaga bog‘liq
2	Avtomobil yoqilg‘ilari uchun xarajatlar	*O‘zgaruvchan*	Yurish masofasiga to‘g‘ri proporsional o‘sadi
3	Moylash va boshqa foydalanish materiallari	*O‘zgaruvchan*	Masofaga bog‘liq; yoqilg‘i bilan birga o‘zgaradi
4	Texnik xizmat ko‘rsatish va joriy ta’mirlash (TXK va JXT)	*O‘zgaruvchan*	Yurish masofasi oshganda ta’mirlash ehtiyoji ko‘payadi
5	Avtomobil shinalarini qayta tiklash va ta’mirlash	*O‘zgaruvchan*	Shina resursi to‘g‘ridan-to‘g‘ri masofaga bog‘liq
6	Transport vositasini amortizatsiyasi	*O‘zgaruvchan*	ATKda masofaviy amortizatsiya usuli qo‘llaniladi
7	Ustama xarajatlar (umumxo‘jalik, boshqaruv)	*Doimiy*	Masofaga bog‘liq emas; vaqt va tashkilot kattaligiga bog‘liq

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, etti moddaning oltitasi o‘zgaruvchan, bittasi esa doimiy tabiatga ega. Haydovchilar ish haqi o‘rtacha holatda shartli-o‘zgaruvchan deb belgilanadi: ishbay tizimda haq to‘langanda bajarilgan ish (va shu orqali masofa) inobatga olinadi, ammo vaqtbay tizimda bu xarajat doimiy tabiat kasb etadi.

Avtotransport mahsulotining odatiy tannarxi faqat avtomobilni ishlatish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z ichiga oladi.[326] Lekin tashish jarayoni ko‘pincha boshqa xarajat turlarini ham o‘z ichiga oladi — ortish-tushirish ishlari va yo‘lni qayta tiklash hamda ta’mirlash xarajatlari bundan

[325] *Manba: ATK tarmoq normativlari va iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*
[326] Shodiyeva G.M. Transport iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. 231-bet.

mustasno qolmaydi. Transport mahsulotini to‘liq tannarxi quyidagicha hisoblanadi:[327]

$$T_{\text{to‘liq}} = (X_{\text{umumiy}} + X_{\text{ortish-tushirish}} + X_{\text{yo‘l}}) / R_{\text{t.km}}$$

Bu yerda: X_{umumiy} — avtomobilni ishlatish bilan bog‘liq xarajatlar; $X_{\text{ortish-tushirish}}$ — ortish va tushirish operatsiyalari xarajatlari; $X_{\text{yo‘l}}$ — yo‘lni qayta tiklash va ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar.

Korxonalar o‘z tovarini yuqori narxlarda sotishga intilishi bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga ham harakat qiladi — chunki sotish narxlari ko‘p hollarda tashqi bozor sharoitlari bilan belgilanadi va korxona ularga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Ishlab chiqarish xarajatlari esa buning aksi — ular korxona ichki tashkiloti, texnologiya darajasi va mehnat samaradorligiga bog‘liq. Tannarxning kamayishi avvalambor foydaning oshishiga olib keladi, bu esa keyingi investitsiyalar va modernizatsiya uchun zamin yaratadi.[328]

7.4. Temir yo‘l ekspluatatsion xarajatlarini rejalashtirish va tashish tannarxini hisoblash

Ekspluatatsion xarajatlar tarkibi va tuzilmasi. Tashish jarayoni bilan bog‘liq pullik xarajatlar ekspluatatsiya xarajatlari deb aytiladi. Ekspluatatsiya xarajatlari xarajat elementlari bo‘yicha rejalashtiriladi. Iqtisodiy elementlar – bu mahsulotni ishlab chiqarish uchun bir turkumli xarajatlar turidir.

Ekspluatatsion xarajatlar tuzilmasi mehnatga haq to‘lash xarajatlari, xomashyo, yoqilg‘i, elektr energiya va boshqa material xarajatlaridan tarkib topadigan moddiy xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari asosiy vositalar amortizatsiyasi, ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar va boshqa xarajatlar ham kiritiladi. Alohida moddalar xarajatlari xarajatlarni yuzaga kelish joyi bo‘yicha va temir yo‘l transporti xo‘jaliklari bo‘yicha guruhlanadi. Alohida xo‘jaliklar xarajatlarini solishtirma ulushi umumiy ekspluatatsiya xarajatlari miqdorida bir xil emas. Yuqori solishtirma ulush hisobida lokomotiv xo‘jaligi (27 %), yo‘l xo‘jaligi (25 %), vagon xo‘jaligi (12%) xarajatlarni egallaydi. Bu xo‘jaliklar hissasiga umumiy ekspluatatsiya xarajatlarining 64% ga yaqini to‘g‘ri keladi.

Alohida ish turlari, ishlab chiqarish operatsiyalari yoki bir turkumli operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar mos keluvchi xarajat moddalariga birlashtiriladi.

[327] Xolmo'minov Sh.R. Transport sohasi iqtisodiyoti. Toshkent: ToshDTU, 2021. 224-bet.
[328] World Bank. Urban Transport Pricing and Cost Recovery. Washington D.C., 2020. P. 33.

Ekspluatatsiya xarajatlar miqdoriga tashish hajmi, transportning texnik jihozlanganligi, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, texnik vositalardan foydalanish va ularni yangilash jadalligi, mehnat sifati va moyilligi, resurslar va xarajatlarni me’yorlash va boshqa ko‘p omillar ta’sir etadi. Ekspluatatsiya xarajatlari nomenklatura moddalari bo‘yicha rejalashtiriladi va hisobga olinadi.

Har bir moddaga ma’lum bir raqam berilgan va o‘lchov belgilangan, unga muvofiq berilgan moddaning xarajatlari miqdori aniqlanadi.

Ekspluatatsiya xarajatlariish haqi, yoqilg‘i, elektr energiya, materiallar, amortizatsiya ajratmalari xarajatlari va boshqa xarajatlar yig‘indisidan tarkib topadi. Ekspluatatsiya xarajatlaritemir yo‘l transporti tuzilmaviy korxonalari bo‘yichatashishni bajarish uchun zarur bo‘lgan joriy xarajatlarni kiritgan holda hisobga olinadi.

Alohida tuzilmalar bo‘yicha xarajatlar tuzilmasi bir xil emas. U texnik jihozlanganlik, mehnat unumdorligi, materiallar, yoqilg‘i, elektr energiya narxlariga bog‘liq.

O‘zR moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

Temir yo‘lda O‘zR moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom amal qiladi.

Bu Nizomda korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi keltiriladi. Moliyaviy natijalar quyidagi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi: mahsulotni sotishdan olinadigan yalpi foyda (mahsulotni sotishdan olinadigan sof tushum bilan sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi orasidagi farq); asosiy faoliyatdan olingan foyda (mahsulotni sotishdan olinadigan yalpi foyda bilan davr xarajatlariorasidagi farq plyus, minus boshqa daromadlar yoki asosiy faoliyatda ko‘rilgan zarar); umumxo‘jalikdan olingan foyda (yoki zarar) (asosiy faoliyatdan olingan jami yalpi foyda minus divident bo‘yicha daromad va davr xarajatlari plyus asosiy faoliyatdan olingan foyda asosiy faoliyatda ko‘rilgan boshqa zararlar); soliq to‘lagandan keyingi foyda (umumxo‘jalik faoliyatdan olingan foyda va favqulotda foyda va zararlar saldosini yig‘indisi); soliq to‘lagandan so‘ng korxonani ixtiyorida qoluvchi yilning sof foydasi (soliq to‘lagangacha bo‘lgan foyda minus daromad (yoki foyda) solig‘i minus yana qaerdadir hisobga olinmaydigan boshqa soliqlar).

Bu hujjatda korxonalarning xo‘jalik faoliyatida yuzaga keluvchi xarajatlar ro‘yxati beriladi.

Barcha xarajatlar quyidagicha guruhlanadi: mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar; ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, lekin asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar; korxonaning umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararni hisoblashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar; daromad yoki foyda solig‘ini to‘laganga qadar olingan foyda yoki zararni hisoblashda hisobga olinadigan favqulotda zararlar

“Nizomda” mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi berilgan. Unda mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ishlab chiqarish yoki mahsulotni qayta ishlash jarayonida foydalaniladigan – tabiiy resurslar, xomashyo, yoqilg‘i, mehnat resurslari va ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar qiymatini aks ettirishi qayd qilingan.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etilishi bilan asoslanadigan bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar kiritiladi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlanadi: ishlab chiqarish material xarajatlari, ishlab chiqarish tusidagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari, yagona ijtimoiy to‘lov ajratmalari, ishlab chiqarish tusidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, ishlab chiqarish ahamiyatidagi boshqa xarajatlar. Bu elementlar bo‘yicha ularning mazmuniga ko‘ra moddalar keltiriladi.

Davr xarajatlari – *bu bevosita ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan sarf-xarajatlardir: boshqaruv bo‘yicha xarajatlar, mahsulotni yetkazish xarajatlari, umumxo‘jalik ahamiyatidagi xarajatlar.*

Masalan, davr xarajatlariga boshqaruv personaliga kiruvchi xodimlarning mehnatiga haq to‘lash xarajatlari, boshqaruv apparatiga kiruvchi xodimlarga tegishli yagona ijtimoiy to‘lov ajratmalari, korxona va uning tuzilmaviy bo‘linmalarini boshqaruv apparati xodimlarini, moddiy-texnik bazasi, transport xizmatini saqlash va hokazolar kiradi. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha moddalar va ularning mazmuni keltirilgan..

Mustaqil bo‘limga korxonalarning ishlab chiqarish xo‘jalik faoliyati natijasida olinadigan daromadlar ro‘yxati ajratilgan. Nihoyada, tovar-moddiy zaxiralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelajak davri xarajatlariga baho beriladi va soliqqa tortiladigan bazani aniqlash tartibi yoritiladi.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK xarajatlari Nomenklaturasi. Temir yo‘l transportida ekspluatatsiya xarajatlari hisobi va rejalashtirish “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK xarajatlari Nomenklaturasi bilan tartibga solinadi.

Nomenklatura ikki qismdan iborat. 1-qism “Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi” deb nomlanadi. Bu qismda quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: Davlat aksionerlik temir yo‘l kompaniyasining ekspluatatsiya faoliyati.

Ishlab chiqarish tannarxi xo‘jalikning alohida tarmoqlari bo‘yicha hisoblanadi:

1. Yo‘lovchi, konteynerda tashish va tijorat ishlari xo‘jaligi(1-32mod.);

1. Lokomotiv xo‘jaligi(41-140mod.);
2. Vagon xo‘jaligi (151-180mod.);
3. Yo‘l xo‘jaligi(181- 204mod.);
4. Fuqarolik inshootlari xo‘jaligi (205 –210mod.);
5. Signallashtirish va aloqa xo‘jaligi(211-228mod.);
6. Elektrlashtirish va energetika xo‘jaligi (229-235mod.);
7. Hisoblash tovar kontoralari va tiklash poyezdlari (236-237mod.);
8. MDH territoriyasida xorijiy temir yo‘llar tomonidan tashishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar (238-239mod.).

Nomenklaturada xarajatlar guruhlarga taqsimlanadi. Bu guruhlash asosiy (ekspluatatsiya) va yordamchi-ko‘makchi faoliyatga taqsimlanadigan faoliyat turlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan ekspluatatsiya xarajatlar asosiy va umumxo‘jalik xarajatlariga bo‘linadi. Har bir xo‘jalikning ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog‘langan, xo‘jalikning barcha tarmoqlari uchun umumiy bo‘lgan xarajatlar asosiy xarajatlar deb aytiladi. Lekin har bir xo‘jalik uchun xos bo‘lgan asosiy xarajatlarda xo‘jalikning barcha tarmoqlari uchun umumiy bo‘lgan xarajatlar ajratib ko‘rsatiladi.

Xo‘jalikning barcha tarmoqlari uchun umumiy bo‘lgan asosiy xarajatlar tarkibiga ishlab chiqarish personalining qo‘shimcha ish haqi xarajatlari, ta’til, davlat va jamoat topshiriqlarini bajargan davri uchun to‘lovlar, forma kiyimlarini chegirma narxi, boshqaruv apparati tarkibiga kirmaydigan xodimlarning xizmat safarlari xarajatlari, texnika xavfsizligi bo‘yicha xarajatlar va hakazo kiradi.

Umumxo‘jalik xarajatlari deb, korxonani boshqarish va ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarga aytiladi.

Ular o‘z navbatida boshqaruv apparatini saqlash xarajatlarisiz va boshqaruv apparatini saqlash bo‘yicha umumxo‘jalik xarajatlariga bo‘linadi.

Bu guruhga ishlab chiqarish uchastkalari (sexlari) personalining ish haqi xarajatlari, xizmat ko‘rsatish, umumxo‘jalik ahamiyatidagi bino, inshootlar va inventarlarni joriy ta’mirlash, umumxo‘jalik ahamiyatidagi asosiy vositalar amortizatsiyasi, kadrlarni tayyorlash bo‘yicha xarajatlar kiritiladi.

Tashish tannarxiga kiritilishiga nisbatan xarajatlar to‘g‘ri va egri xarajatlarga bo‘linadi.

To‘g‘ri xarajatlar bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan va to‘g‘ridan to‘g‘ri hisobga olinuvchi hujjatdan ma’lum bir tashish turining tannarxiga kiritilishi mumkin (masalan, yuk va saralash stansiyalarining xarajatlari hisob hujjatlaridan to‘g‘ri yuk tashish tannarxiga kiritilishi mumkin).

Egri xarajatlar bir necha turdagi mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar hisoblanadi. Bu xarajatlarni ma’lum bir turdagi mahsulot tannarxiga kiritish uchun ularni avval tashish turlari bo‘yicha taqsimlash zarur. Masalan, yo‘l xo‘jaligi xarajatlarini yuk va yo‘lovchi tashish tannarxiga kiritish kerak. Ularni avval u yoki bu turdagi ish ko‘rsatkichlariga proporsional bo‘lgan ish o‘lchovlariga taqsimlaydilar.

Xarajatlarning umumiy miqdorida egri xarajatlar salmoqli hajmni tashkil etadi.

Tashish jarayoni, yuk aylanmasini o‘sishi yoki kamayishi hisobiga xarajatlar miqdorini o‘zgarishiga bog‘liq holda xarajatlar tashish hajmiga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmaganga (yoki shartli-doimiy) xarajatlarga bo‘linadi.

Bog‘liq xarajatlar deb, tashish hajmining o‘zgarishiga to‘g‘ri proporsional o‘lchanadigan xarajatlarga aytiladi. Bunday xarajatlarga poyezdlarni tortish uchun yoqilg‘i, elektr energiya, lokomotiv va vagonlarni ta’mirlash, ularni amortizatsiyasi va hokazolar kiradi.

Shartli-doimiy xarajatlar deb, tashish hajmini o‘zgarishiga bog‘liq holda o‘zgarmaydigan yoki kam o‘zgaradigan xarajatlarga aytiladi. Bu xarajatlarga temir yo‘lning doimiy qurilmalarini (tortuv nimstansiyalari, signallashtirish va aloqa qurilmalari, boshq.) joriy saqlash, ta’mirlash va ularni amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar kiradi.

Nomeklaturada temir yo‘lning ekspluatatsiya va yordamchi-ko‘makchi faoliyatiga ko‘ra barcha bo‘limlar bo‘yicha xarajatlar stavkasi va o‘lchovlar ajratib ko‘rsatilgan. Nomenklatura jami 760 moddadan

iborat, ulardan 288 tasi xo‘jaliklar bo‘yicha taqsimlanib, ekspluatatsiya faoliyatiga kiritilgan. Xo‘jalik ichida temir yo‘l transporti korxonalarida bajariladigan har bir ish turiga modda raqami beriladi va unda aniq bir ish turini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar va xarajat o‘lchovi ko‘rsatiladi.

Masalan, 1-modda – biletlarni sotish (1000 ta jo‘natilgan yo‘lovchilar), 2-modda – bagajni qabul qilish va topshirish (1t jo‘natilgan va kelgan bagaj).

Moddalar bo‘yicha yordamchi-ko‘makchi faoliyat ham taqsimlanadi. U 301 moddadan 760 moddagacha bo‘lgan moddalarni qamrab olgan.

Biroq, agar ekspluatatsiya faoliyatida moddalar raqami ketma-ketlikda 1 dan 288 gacha bo‘lsa, yordamchi-ko‘makchi faoliyat bo‘yicha esa bu holat kuzatilmaydi. Yordamchi qishloq xo‘jaligi bo‘yicha xarajat moddalari – 350-376 gacha tashkil etadi, so‘ngra konteyner tashish va tijorat ishlari xo‘jaligi 421 dan 428 gacha keladi, keyin lokomotiv xo‘jaligi 475 dan 477 gacha boshlanadi, vagon xo‘jaligi 481-483 gacha, yo‘l xo‘jaligi 501-538 gacha bo‘lgan moddalarni o‘z ichiga oladi va hokazo, ya’ni avvalgi Nomenklatura bilan qiyoslaganda qayd etilgan xo‘jaliklarda qandaydir o‘zgarishlar yuz bergani uchun bu moddalar o‘z kuchini yo‘qotib mavjud bo‘lmay qoldi.

Ekspluatatsion xarajatlarni rejalashtirish. Ekspluatatsiya xarajatlari rejasi temir yo‘l ekspluatatsiya rejasining bir qismi hisoblanadi. Bu reja rejalashtirilgan tashish hajmini zarur bo‘ladigan ish haqi miqdori, materiallar, yoqilg‘i va hokazolarni pul mablag‘i bilan ta’minlashni nazarda tutadi.

Ekspluatatsiya xarajatlarinirejalashtirish usullari ko‘p, lekin ularni bir nechta guruhga birlashtirish mumkin:

1) e*kspluatatsion xarajatlarni bir qismi rejalashtirilgan ish hajmi va ish birligi uchun xarajatlar me’yorlar bo‘yicha aniqlanadi (tkm brutto, vag-km, lok-km va hokazo). Lokomotivlar va vagonlarni ta’mirlash, moylash, poyezdlarni tortish uchun yoqilg‘i, elektr energiya xarajatlari shu usul bilan hisoblanadi.*

2) ekspluatatsiya xarajatlarini bir qismi mavjud qurilmalar soni va har bir birlik uchun xarajatlar me’yori bo‘yicha aniqlanadi. Bu usul bilan yo‘llar, doimiy qurilmalarni saqlash, yo‘lning ustki tuzilishini bir martalik almashtirish, kontakt tarmog‘i, yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalarini saqlash xarajatlari rejalashtiriladi.

3) xarajatlarni bir qismi har bir kasb xodimlarining soni va bir ishchi uchun xarajatlar me'yori bo'yicha hisoblanadi. Maxsus kiyim, forma kiyimi narxidan chegirmalar, maxsus sovun, xizmat safarlaribo'yicha xarajatlar aniqlanadi.

4) xarajatlarni bir qismi turli klassdagi korxonalar soni va ularning har biriga to'g'ri keluvchi me'yorlar xarajati bo'yicha rejalashtiriladi. Bu usul bilan tuzilmaviy bo'linmalar, MTU, kompaniya apparatining umumxo'jalik xarajatlari aniqlanadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, ekspluatatsiya xarajatlari iqtisodiy elementlar bo'yicha rejalashtiriladi. Birinchi element – *ish haqi, bu haqda siz bilan to'liq gaplashdik.*

Ajratmalar "O'zRning fuqarolar, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan soliq undirish to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshiriladi. Bu qonun negizida o'zgarishlar, shuningdek yangi qonunlar, farmonlar, qarorlar ko'rinishidagi qo'shimchalar qabul qilinadi. Masalan, "O'zR fuqarolari, xorijiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan soliq undirish to'g'risidagi O'zR qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Qaror qabul qilingan. Bu hujjatlar yordamida minimal ish haqi miqdori va soliqqa tortilmaydigan minimum belgilanadi.

Materiallar, elektr energiya, yoqilg'i xarajatlarini rejalashtirish.

Materiallar. Temir yo'l transportida material xarajatlari yuqori. Ularning yuqori darajadagi iste'moli lokomotiv, vagon va yo'l xo'jaligiga to'g'ri keladi. Shuning uchun materiallar xarajatini aniqlashning ko'plab usullari mavjud.

1. Bajarilgan ish hajmi va ish hajmining mos keluvchi o'lchov birligi uchun xarajatlar me'yori bo'yicha. Masalan, 1000 lok-km bosib o'tilgan masofa uchun materiallar sarfi me'yori, vagonlarni bitta depo ta'miri uchun materiallar sarfi me'yori ,bitta lokomotivni joriy ta'miri uchun materiallar sarfi me'yori, 100 kv.m maydon uchun materiallar sarfi me'yori va hokazo.

2. Xizmat ko'rsatiladigan obyektlar soni va bitta obyektga to'g'ri keladigan xarajatlar me'yori bo'yicha. Masalan, 1 ta strelkali o'tkazgich uchun materiallar sarfi me'yori.

3. Xodimlar soni va bir xodimga to'g'ri keladigan materiallar sarfi me'yori. Masalan, bir kishi uchun maxsus sovun, maxsus kiyim sarfi me'yori.

4. Yuqorida ta'kidlaganimizdek,me'yorlar o'lchovlar uchun aniqlanadi. Masalan, lokomotivlarni qum bilan ta'minlash tkm brutto

o‘lchovidagi ish hajmi va 1 mln. tkm brutto uchun xarajatlar me’yori bo‘yicha rejalashtiriladi.

5. Vagonlarni joriy ta’mirlash xarajatlari vagonlarning bosib o‘tgan masofasi va 1 mln. vag-km uchun xarajatlar me’yori bo‘yicha aniqlanadi.

6. Sisternalarni yonilg‘i quyish, yopiq va izotermik vagonlarni yuvishga tayyorlash uchun xarajatlar 1000 ta vagonga belgilangan me’yor va qayta ishlash talab etiladigan vagonlar soni bo‘yicha aniqlanadi.

7. Yo‘lning ustki tuzilishini joriy saqlash xarajati 1 km ekspluatatsion uzunlik yoki bitta strelkali o‘tkazgich uchun xarajat me’yori va talab etiladigan materiallar narxi bo‘yicha rejalashtiriladi. Qolgan barcha xo‘jaliklar bo‘yicha ham xarajatlar shu usullar yordamida aniqlanadi.

Yoqilg‘i. Yoqilg‘ining 90%dan ziyodi poyezdlarni tortish va manyovr ishi uchun sarflanadi.

Yoqilg‘i uchun xarajatlar talab etiladigan yoqilg‘i va uning 1 tonnasi uchun belgilangan narx asosida aniqlanadi.

Poyezdlarni tortish uchun yoqilg‘i miqdori *tkm brutto hisobidagi ish hajmi va 10 ming tkm brutto o‘lchovi uchun shartli yoqilg‘ini sarflanish me’yori* bo‘yicha hisoblanadi. Bunda harakat turlari, poyezdlar kategoriyasi, uchastka va yo‘nalishlar bo‘yicha differensiatsiya o‘tkaziladi. Shartli yoqilg‘iga o‘tkazish foydalaniladigan shartli yoqilg‘ini kaloriyasini hisobga oluvchi koeffitsiyentlar yordamida amalga oshiriladi. Shartli deb, yonish issiqligi 7000 kkal/kg bo‘lgan yoqilg‘i qabul qilinadi. O‘tkazish koeffitsiyenti natural va shartli yoqilg‘ini yonish issiqligini nisbati bilan hisoblanadi.

Shartli yoqilg‘ini sarflanish me’yori darajasiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi:

-teplovozni massasi, tezligi va boshalar hisobga olgan holda pasport ma’lumotlari;

-yuk poyezdlarining massasi, tezligi va boshqa ko‘rsatkichlarning o‘sishi kutilayotgan o‘zgarishlari me’yorlarni kamayishiga olib keladi.

Yoqilg‘i me’yoriga poyezdlarning nisbatan to‘xtash soni, yo‘llarning va harakatlanuvchi tarkibning texnik holati, teplovozlar quvvatidan foydalanish darajasi, lokomotiv brigadalarining malakasi ta’sir ko‘rsatadi.

1 tonna shartli yoqilg‘i o‘rtacha narxi tayyorlov narxi, tashish to‘lovi, omborxonalar xarajati va yoqilg‘i tartibiga bog‘liq bo‘ladi.

Poyezdlarni tortishda boshqa ehtiyojlar uchun ham yoqilg‘i sarfi rejalashtiriladi (refrijerator harakatlanuvchi tarkibning ishi, vagonlarni, ishlab chiqarish binolarini isitish va hokazo). Bu xarajatlar talab etiladigan yoqilg‘i miqdori va uning narxi asosida aniqlanadi.

Yo‘lovchi vagonlarni isitish uchun yoqilg‘i xarajati «vagon-sutka» o‘lchovi uchun belgilangan sarf me’yori bo‘yicha aniqlanadi. Me’yorlar tashqi havo harorati, vagonlarni yo‘lda harakatda bo‘lish vaqti va to‘xtash punktlaridagi turish vaqtlarini nisbatiga bog‘liq holda korrektorlanadi elektr energiya alohida poyezdlarni tortish va boshqa ehtiyojlar uchun rejalashtiriladi.

Poyezdlarni tortish uchun elektr energiya sarfi xuddi yoqilg‘i kabi me’yorlarni differensiatsiyasini o‘tkazgan holda hisoblanadi. Boshlang‘ich me’yorlarni aniqlashning xuddi shu usullaridan foydalaniladi. elektr energiya sarfi me’yori 10 ming tkm brutto, yakka holda yurgandagi lok-km, 1 soat ish o‘lchovlari uchun belgilanadi. Poyezdlarni tortish uchun elektr energiya xarajati iste’mol qilinadigan elektr energiya turi, yo‘l profili, poyezdning harakat tezligi, poyezdning og‘irligi, rekuperatsiyaga bog‘liq.

Boshqa ehtiyojlar uchun elektr energiya xarajati binolar va korxona hududlarini yoritish, ATS qurilmalarini ishlashi, dastgohlar, mashinalar, mexanizmlarni ishlashi, avtomobil akkumulyatorlarini zaryadlashni nazarda tutadi. Elektr energiya sarfi me’yori ish joyini yoritish me’yori va yoritish moslamasining turi, zaryadlanadigan batareyalarning quvvatiga bog‘liq.

Turli xil tortuvlarni qo‘llashning texnik-iqtisodiy maqsadga muvofiqligini aniqlashda va natural ko‘rinishda energetik xarajatlarni taqqoslashda elektr energiya xarajati shartli yoqilg‘iga o‘tkazilib hisoblanadi. Bunda 1 kvt-soat elektr energiyani ishlab chiqarish uchun 320 kg shartli yoqilg‘i talab etilgandagi nisbat qabul qilinadi.

*Amortizatsiya.*Amortizatsiya – bu lotin tilidan olingan so‘z bo‘lib, asosiy fondlarni eskirib borishi natijasida ularning qiymati asta sekin pasayib borishi va ularning narxi ishlab chiqiladigan mahsulotga o‘tkazilishini anglatadi. Aslida asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt davomida ishlatiladi. Bunda ular eskiradi va ularning iste’mol narxi asta-sekin teng ulushlar bilan xizmat ko‘rsatish davomida ishlab chiqilgan mahsulotga o‘tadi, mos ravishda ularning qiymati kamayadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot sotilgandan so‘ng tushumni ma’lum bir qismi asosiy fondlarni tiklashga mo‘ljallangan maxsus amortizatsiya fondiga o‘tkaziladi. Amortizatsiya to‘g‘ri chiziqli, teng qismli bo‘lishi mumkin.

Bunday amortizatsiya asosiy fondlar qiymatiga proporsional hisoblanadi va ularni butun ekspluatatsiya davri hisobida teng qismlarga taqsimlanadi. Teng qismli amortizatsiyadan tashqari tezkor amortizatsiya bo‘lishi mumkin. Bu uslub ekspluatatsiyaning birinchi yilida ikkilangan amortizatsiya me’yorini nazarda tutadi, ikkinchi yili qoldiq qiymatdan 20% ajratiladi va hokazo. Natijada asosiy fondlar qiymatining uchdan ikki qismi ularning xizmat muddatini yarmisida amortizatsiyalanadi. Bunday amortizatsiyani qo‘llash tadbirkorlarga soliqqa tortiladigan foyda miqdorini kamaytirishga imkon beradi. Bundan tashqari asosiy vositalarni tezkor ro‘yxatdan chiqishi tadbirkorni ma’naviy eskirish bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘qotishlardan sug‘urta qiladi, yangi texnika va texnologiyalarni tezkor joriy qilinishini rag‘batlantiradi.

Tayyorlangan mahsulotga o‘tkaziladigan narxning bir qismini puldagi aksi amortizatsiya ajratmalari deb nomlanadi. Ularning miqdori korxonaning balansida turgan asosiy fondlarning qiymati va bu ajratmalarning me’yoriga bog‘liq. Me’yor asosiy fondlarning boshlang‘ich qiymatidan har yillik ajratmalar ulushini aniqlaydi. Asosiy fondlarning har bir turi uchun alohida amortizatsiya ajratmalar me’yorlari belgilanadi.

Ekspluatatsiya xarajatlarining keyingi qismi boshqa xarajatlar hisoblanadi. Bu xarajatlarga yuqorida ko‘rilgan xarajat elementlarining faqat bittasiga kiritish qiyin bo‘lgan xarajatlar kiritiladi. Ularga boshqa tashkilotlarning ishi va xizmati uchun hisob to‘lovlari bo‘yicha xarajatlar, temir yo‘llarni elektrlashtirish bo‘yicha tuzatish ishlariga haq to‘lash, ko‘chib yurish bilan bog‘liq ishlarga ustamalar, qor, suv, qumga qarshi kurash xarajatlarining ma’lum bir qismi, pochta, kanselyariya xarajatlari, forma kiyimidan chegirmalar, ish haqiga ustamalar, boshqa tashkilotlardan olingan suv uchun hisob to‘lovlari va hokazo xarajatlar kiradi.

Ekspluatatsion xarajatlarning umumiy miqdori xarajat elementlari bo‘yicha xarajatlar va xo‘jalik xarajatlariga temir yo‘l kompaniyasini xarajatlarini qo‘shgan holda aniqlanadi.

Ish birligi uchun hisobga olinadigan ekspluatatsiya xarajatlari tannarx deb aytiladi.

7.5. Temir yo‘lda tashish tannarxini hisoblash va uni kamaytirish yo‘llari

Tannarx – *bu korxonaning ish sifatini to‘liq tavsiflovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir.* Korxona xo‘jalik faoliyatini olib borishda

barcha xarajatlar mahsulotni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga, ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, lekin asosiy faoliyatdan olinadigan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlariga kiritiladigan xarajatlarga, korxonaning umumxo‘jalik faoliyatida daromad yoki foyda solig‘i to‘lagandan keyin ko‘rilgan foyda yoki zararni hisoblashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga guruhlanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarish tannarxida quyidagi moddalar mavjud:

a) to‘g‘ri va egri moddiy xarajatlar;

b) to‘g‘ri va egri mehnatga doir xarajatlar;

v) ishlab chiqarish tusidagi qo‘shimcha xarajatlarni hisobga olgan holda boshqa to‘g‘ri va egri xarajatlar.

Tashish tannarxi asosiy faoliyat bilan bog‘liq xarajatlar bo‘yicha hisoblanadi. Yordamchi–ko‘makchi faoliyat bo‘yicha xarajatlar, yuk ortish, tushirish, stansiyaga yukni olib kelish va olib ketish xarajatlari tashish tannarxiga kiritilmaydi.

Butun temir yo‘l va mintaqaviy uzellar bo‘yicha tannarx 10 tkm netto, 10 yo‘l-km, na 10 keltirilgan tkm uchun hisoblanadi.

Har bir tuzilmaviy korxona bajaradigan ish xarakteriga muvofiq tannarxni hisoblaydi. Masalan, vagon deposi bitta depo ta’miri bilan ta’mirlangan vagon, bitta ta’mirlangan konteyner, bitta yuvilgan yoki bug‘langan sisterna tannarxini hisoblaydi.

Lokomotiv deposida yukli harakatda 1000 tkm brutto, yo‘lovchi harakatida 1000 tkm brutto, xo‘jalik harakatida 1000 lok-soat, manyovr ishida 1000 lok-soat tannarxi hisoblanadi. Stansiyalar uchun 1 tonna ortilgan va tushirilgan yuk tannarxi, bitta jo‘natilgan vagon tannarxi hisoblanadi va hokazo.

Ekspluatatsiya xarajatlarini hisobga olish va hisobot shakllaridan kelib chiqib, tashish tannarxini tashish turlari, tortuv turlari bo‘yicha hisoblashning alohida metodikasi mavjud. MTUda tashish turlari bo‘yicha tashish tannarxini hisoblash uchun uchta uslub qo‘llaniladi: 1) xarajatlarni mos keluvchi tashish turiga kiritish; 2) xarajatlar tashish turlari bo‘yicha o‘lchovlarga proporsional ravishda taqsimlanadi; 3) avval taqsimlangan asosiy xarajatlar yoki asosiy ish haqiga proportsional taqsimlanadi.

Yuk va yo‘lovchi tashish tannarxini hisoblash uchun ekspluatatsiya xarajatlarini yuk va yo‘lovchi tashishga ajratish bo‘yicha jadval tuziladi. Bu yerda ikki tashish turiga ham kiradigan egri xarajatlarni taqsimlashda qiyinchiliklar tug‘iladi. Ularni taqsimlash ikki usul bilan olib boriladi,

ya’ni u yoki bu ish o‘lchovlariga proporsional, yoki barchasiga proporsional yoki avval taqsimlangan xarajatlarning qismiga proporsional taqsimlanadi. Qolgan xarajatlar to‘g‘ri xarajatlar hisoblanadi yoki bevosita yuk, yoki yo‘lovchi tashishga kiritiladi. Xarajatlarni taqsimlashning bu uslubi tortuv turlari bo‘yicha yuk va yo‘lovchi tashish tannarxi, yo‘lovchi, bagaj va pochta tashish tannarxini aniqlashda qo‘llaniladi.

Mintaqaviy temir yo‘l uzellari bo‘yicha tashish tannarxi yo‘llar profili va liniyalarning joylashgan joyi, tashish hajmi va xarakteri, texnik qurollanganlik, ekspluatatsiya xususiyatlariga bog‘liq holda o‘zgarib turadi.

Profil va joylashgan joylarni ko‘rib chiqishda nishablik va qiyaliklarni mavjudligi, ayniqsa poyezdning og‘irligi va tezligiga ta’sir etuvchi hisobiy nishabliklarni; poyezdni tortish uchun yoqilg‘i va elektr energiyani solishtirma xarajatiga ta’sir etuvchi og‘ir profillarni, harakatlanuvchi tarkib va yo‘lning ustki tuzilishini ta’mirlash va saqlash xarajatlarini; qo‘shimcha saqlash xarajatlarini talab etadigan tonnel va ko‘priklarni mavjudligini; poyezdlarni tortish uchun yoqilg‘i va elektr energiyani solishtirma xarajatiga ta’sir etuvchi iqlim sharoiti, vagon va binolarni isitish, shpallar, aloqa liniyalari ustunlarini xizmat ko‘rsatish muddati uchun xarajatlarni, shuningdek ish haqiga rayon va qo‘shimcha koeffitsiyentlar, yoqilg‘i, elektr energiya va materiallar narxini o‘zgarib turishini hisobga olish kerak.

Tashish hajmi va xarakteri ta’sirini ko‘rib chiqishda tashish zichligini; yo‘nalishlar bo‘yicha tashish hajmi nisbatini, vagonlarni bo‘sh holda va lokomotivlarni zaxirada yurishi mavjudligini; yuk oqimi tuzilmasi va tannarxga ta’sir qiluvchi va o‘zgarishiga olib keluvchi yuklangan vagonlarning dinamik yuklamasi miqdorini; yo‘lovchi oqim tuzilmasi va vagon sig‘imini; maxsus harakatlanuvchi tarkibni talab etuvchi yuklarni mavjudligini; yuk va yo‘lovchi tashishda mavsumlar, oylar bo‘yicha, shuningdek oy va sutka ichidagi tengsizliklarni; mahalliy ishni solishtirma ulushini hisobga olish zarur.

Texnik qurolanganlikni ko‘rib chiqish ikki yo‘llik uchastkalarni mavjudligi, stansiyalarning rivojlanganlik darajasi, tortuv turi va lokomotiv quvvati, yerning ustki tuzilishi va aloqa qurilmalarini quvvati bilan bog‘liq.

Ekspluatatsiya xususiyatlari uzoq yo‘nalishga harakatlanadigan poyezdlarni shakllantirish, yuk jo‘natuvchilarning yo‘nalish marshrutlarini shakllantirish bilan bog‘liq.

Tashish tannarxini kamaytirishning ma’lum bir yo‘llari mavjud. Tashish tannarxini pasayishi resurslar sarfini kamayishini bildiradi. Lekin tashish tannarxini o‘zgarishini baholashda shuni hisobga olish zarurki, har doim ham tashish tannarxini kamayishi temir yo‘l transporti ishini yaxshilanganidan darak bermaydi. Demak, tashish tannarxini iste’mol qilinadigan resurslar narxini kamayishiga nisbatan sekin sur’atlar bilan kamayishi resurslarni natural ko‘rinishda iste’mol qilinishi ortganini bildiradi.

Tashish tannarxini o‘sishi ham har doim transport ishini yaxshilanganligidan darak bermaydi. Masalan, maxsus vagonlarda yuqori tannarx bilan tashiladigan yuklar ulushini ortishi yuk tashish tannarxini o‘sishiga olib keladi, biroq bu transport ishini samaradorligi kamayganini bildirmaydi.

Shuning uchun tannarxning o‘zgarishini tahlil qilishda o‘zgarish sabablarini aniqlash va ularni miqdoriy baholanishini amalga oshirish lozim. Tannarxning o‘zgarishini baholashda tannarxning o‘zgarishini tashishdan olinadigan daromadning o‘zgarishi bilan taqqoslash kerak.

Tashish tannarxini kamaytirish ma’lum bir tadbirlarni o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirish mumkin. Bunday tadbirlar qatoriga tashish hajmini oshirish, harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish, elektr energiya, yoqilg‘i va materiallar sarfi me’yorini kamaytirish, ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etish, ish sifatini oshirish kabi vazifalarni kiritish mumkin.Ularni quyida ko‘rib chiqamiz.

Tashish hajmini o‘sishi. Tashish hajmini o‘sishi bilan xarajatlar ham o‘sadi, lekin tashishga nisbatan sekinroq o‘sadi. Bunga asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash, yangi texnikani qo‘llash, tashish jarayonini takomillashgan uslublar bilan tashkil etish, katta quvvatga ega harakatlanuvchi tarkib ishini yo‘lga qo‘yish, ishchi kuchidan foydalanishni yaxshilash turtki bo‘ladi. Tashishni ortishi xarajatlarga bir necha yillardan keyin, ya’ni qachonki lokomotivlar, vagonlarni ta’mirlashning barcha turlari, yo‘llar ta’miri oshgandagina ta’sir qilishi mumkin.

Harakatlanuvchi tarkibdan foydalanish sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash. Ba’zi bir sifat ko‘rsatkichlari bilan tannarx teskari aloqa sifatida bog‘langan: poyezd og‘irligi, vagonning dinamik yuklamasi, uchastka tezligi, vagon sig‘imi, tarkibdagi vagonlar soni. Boshqa ko‘rsatkichlar bilan esa to‘g‘ri bog‘langan bo‘lib, ularga vagonlarning

bo‘sh holda yurish foizi, lokomotivlarning yordamchi holda yurish foizi va boshqa ko‘rsatkichlar kiradi.

Mehnat unumdorligini o‘sishi. Odatda mehnat unumdorligini o‘sishi bilan o‘rtacha oylik ish haqi miqdori ham o‘sadi.

Elektr energiya, yoqilg‘i va materiallar sarfi me’yorini kamayishi ham tannarxning kamayishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ilg‘or texnika va texnologiyani joriy etish. Harakatlanuvchi tarkibdan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini o‘sishi, moddiy xarajatlar solishtirma ulushini kamayishi, ishlab chiqarish xavfsizligi va mehnat muhofazasiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ish sifatini oshirish harakatlanuvchi tarkibni sifatli ta’mirlash, lokomotivlarni rejadan tashqari ta’mirlash foizini kamaytirish bilan bog‘liq, parkda qo‘shimcha lokomotivlarni saqlash yoki yo‘llarning holati yomonligi hisobiga poyezdlarning harakat tezligini chegaralash esa xarajatlarni oshishiga olib keladi.

7.6.Tashish tannarxini kamaytirish yo‘llari.

Tannarxni kamaytirish uchun ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri bu mehnat unumdorligini oshirishdir, ikkinchisi moddiy va pul manbalarini tejashdir.

Mamlakatimizda 2009 yil qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda mahsulot ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish yuzasidan alohida vazifa belgilab olingan, jumladan Yurtboshimiz “uchinchidan – qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish lozim”- deb ta’kidladilar.

Shu maqsadda yaqinda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiyotimizdagi etakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 20 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma’qullanganini qayd etish lozim.

Buning uchun har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha tannarxni pasaytirish omillari to‘g‘risida keng va chuqur tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Umumiy holda, mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir



7.1-rasm. Tannarxni pasaytirishning asosiy yo‘nalishlari

Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya), mehnat rusurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog‘liq harajatlarning qiymat qo‘rinishini ifoda etadi.

Tayanch so‘zlar va iboralar

1-guruh — Tannarx: mohiyati va tarkibi		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
1	***Mahsulot tannarxi***	Korxonaning mahsulot yoki xizmatning bir birligini ishlab chiqarish hamda sotish uchun sarflangan barcha xarajatlarini pul shaklida ifodalaydigan ko‘rsatkich. Avtotransportda tannarx tashilgan tonna-kilometr, yo‘lovchi-kilometr yoki pulli kilometr bo‘yicha aniqlanadi. Tannarxning kamayishi foydaning oshishiga bevosita yo‘l ochadi.
2-guruh — Ishlab chiqarish xarajatlarining turlari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
2	***Ishlab chiqarish pul xarajatlari***	Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan va to‘lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladigan barcha pul sarflari majmuasi. Tashqi xarajatlar deb ham ataladi: ularga yollanma ishchilar ish haqi, xom ashyo

		va materiallar uchun to‘lovlar, kredit foizlari, ijara haqi va boshqa pul ko‘rinishidagi sarflar kiradi.
3	***Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari***	Mahsulot ishlab chiqarishga bevosita sarflangan ashyoviy resurslarning qiymati: xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i, elektr energiyasi, ehtiyot qismlar, moylash materiallari. ATKda bu guruhga yoqilg‘i-moylash materiallari, avtoshina xarajatlari va TXK/JXT xarajatlari ham kiradi. Bevosita material xarajatlari mehnat xarajatlari bilan birga ‘dastlabki xarajatlar’ni tashkil etadi.
3-guruh — Aktivlar va amortizatsiya		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
4	***Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi***	Nomoddiy aktivlar (litsenziyalar, patentlar, tovar belgilari, dasturiy ta’minot, franchayzing huquqlari va shu kabilar)ning foydali xizmat muddati davomida ularning dastlabki qiymatini qismlarga bo‘lib mahsulot tannarxiga o‘tkazish jarayoni. ATK balansida uchrashiyotgan asosiy nomoddiy aktivlarga marshrutlardan foydalanish huquqlari va transport boshqaruv dasturlari kiradi. Yillik amortizatsiya summasi aktivni foydalanish muddatiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.
4-guruh — Favqulodda moliyaviy kategoriyalar		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
5	***Favqulodda zarar***	Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning odatdagi faoliyatidan tashqarida, kutilmagan holda yuzaga keladigan va takrorlanmaydigan hodisalar natijasida yuzaga kelgan xarajatlar moddalari. Favqulodda zarar sifatida tasniflanish uchun uch shart bajarilishi lozim: korxonaning odatiy faoliyatiga xos bo‘lmasligi; bir necha yil mobaynida

	takrorlanmasligi; boshqaruv qarorlariga bog‘liq emasligi. Soliq to‘lashgacha aniqlanadigan foydani hisoblashda ishtirok etadi.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarish xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
3. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi:
4. Amaldagi qonunchilikka muvofiq xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning barcha xarajatlari qanaqa guruhlarga ajratiladi?
5. Noishlab chiqarish xarajatlari nimalarni o‘z ichiga oladi?
6. Tashish tannarxi va uning strukturasini tushuntirib bering.
7. Tashish tannarxini kamaytirish yo‘llari
8. Ekspluatatsiya xarajatlari deb nimaga aytiladi?
9. “Mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida” gi Nizomning mazmuni nimadan iborat?
10. DATK xarajatlar Nomenklaturasining tarkibiy qismini aytib bering.
11. Xo‘jalikning barcha tarmoqlari uchun umumiy bo‘lgan asosiy xarajatlarga nimalar kiradi?
12. Umumxo‘jalik xarajatlari deb nimaga aytiladi?
13. Bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar nima?
14. Ekspluatatsiya xarajatlarini rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?
15. Temir yo‘lda tashish tannarxi deganda nimani tushunasiz?
16. Tashish tannarxini o‘zgarishi qanday omillarga bog‘liq?

VIII BOB. TRANSPORT KORXONALARI MOLIYASI

8.1. Korxonalar moliyasi.

8.2. Avtotransport korxonalarining moliyasini mohiyati va funksiyalari.

8.3. Avtotransport korxonalari daromadi, uning shakllanishi.

8.4. Korxona foydasi va rentabelligi.

8.5. FA korxonalarida daromad, foyda va rentabellik.

8.1. Korxonalar moliyasi[329]

Moliya tizimi — iqtisodiyotning qon-tomiri sifatida barcha pul munosabatlari zanjirini birlashtiruvchi murakkab tuzilmadir[330]. U moliyaviy munosabatlarning turli bo‘g‘inlari yig‘indisidan iborat bo‘lib, har bir bo‘g‘in o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalari bilan jamiyatda pul mablag‘lari jamg‘armalarini shakllantirishda alohida o‘rin egallaydi. Moliya tizimining bo‘g‘inlari mustaqil rivojlanmaydi — ular bir-birini to‘ldiradi va yagona iqtisodiy organizm sifatida ishlaydi.

Moliya tizimining tarkibiy bo‘g‘inlari ikki asosiy guruhni o‘z ichiga oladi: umumdavlat moliyasi va tadbirkorlik moliyasi[331]. Umumdavlat moliyasi tarkibiga davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg‘armalar, davlat krediti va sug‘urta jamg‘armalari kiradi. Tadbirkorlik moliyasi esa mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalar va tadbirkorlar faoliyatini moliyaviy ta’minlaydi.

Moliya tizimining har bir bo‘g‘ini o‘z funksiyalarini bajarish jarayonida boshqa bo‘g‘inlar bilan chambarchas o‘zaro munosabatda bo‘ladi.[332] Davlat byudjeti soliqlar orqali tadbirkorlik sektoridan mablag‘ oladi, bu mablag‘lar esa o‘z navbatida infratuzilma va ta’lim xarajatlari orqali yana tadbirkorlik muhitini yaxshilashga yo‘naltiriladi. Ushbu aylanma harakat moliya tizimining barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Korxonalar moliyasi — mustaqil iqtisodiy kategoriya bo‘lib, xo‘jalik sub’ektlarining pul daromadlarini shakllantirish va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan pul munosabatlar yig‘indisini ifodalaydi.[333] Moliya iqtisodiy munosabatlar tizimida o‘ziga xos uch belgiga ega: u doim pul shaklida namoyon bo‘ladi; taqsimot xarakteriga egadir; moddiy ishlab

[329] Zaynalov J.R., Rasulov Z.J., Axrorov Z.O. Korxonalar moliyasi. Ma’ruzalar matni. – Samarqand: Samarqand iqtisodiėt va servis instituti, 2015

[330] Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 15th ed. Mason: Cengage Learning, 2016. P. 41.

[331] IMF. Fiscal Monitor: Policies for the Recovery. Washington D.C.: IMF, 2021. P. 27.

[332] IMF. Fiscal Monitor: Policies for the Recovery. Washington D.C.: IMF, 2021. P. 27.

[333] Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. 12th ed. New York: McGraw-Hill, 2019. P. 5.

chiqarish sohasi qatnashchilarining turli daromad va jamg‘armalarining shakllanishi hamda ishlatilishini aks ettiradi.

8.1-jadval.

Moliya tizimining tarkibiy bo‘g‘inlari va ularning vazifalari[334]

Bo‘g‘in nomi	Tarkibi	Asosiy vazifasi
Umumdavlat moliyasi	Davlat byudjeti; byudjetdan tashqari jamg‘armalar; davlat krediti; sug‘urta jamg‘armalari	Umumijtimoiy ehtiyojlarni qondirish; qayta taqsimlash; davlat funksiyalarini moliyalashtirish
Mahalliy hokimiyat moliyasi	Mahalliy byudjetlar; mahalliy maqsadli jamg‘armalar	Hududiy ehtiyojlarni qondirish; mahalliy infratuzilmani moliyalashtirish
Tadbirkorlik moliyasi	Davlat, xususiy va aralash korxonalar moliyasi; tadbirkorlik birlashmalari moliyasi	Milliy daromad yaratish; tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish; foydani taqsimlash
Moliya-kredit institutlari	Tijorat banklari; investitsiya fondlari; sug‘urta kompaniyalari	Moliyaviy vositachilik; kreditlash; investitsiyalarni yo‘naltirish

Korxona moliyasi davlatning yagona moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlaridagi korxonalarda daromadlarning shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonini aks ettiradi.[335] Korxonalar moliyasi milliy daromad va milliy boylik yaratiladi egangan moddiy ishlab chiqarish sohasiga xizmat ko‘rsatadi — bu jihat uni umumdavlat moliyasidan tubdan farqlantiradi. Boshqacha aytganda, davlat moliyasi qayta taqsimlaydi, korxona moliyasi esa avvalo yaratadi.

Korxona moliyasi o‘z munosabatlarini amalga oshirishda to‘rtta asosiy yo‘nalish bo‘yicha harakat qiladi[336].

Birinchisi — boshqa korxona va tashkilotlar bilan moliyaviy munosabatlar: bu tovar-xom ashyo almashinuvi, mahsulot realizatsiyasi, jarimalar to‘lash va shartnoma majburiyatlarini bajarishdagi moliyaviy aloqalarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchisi — korxonaning ichki moliyasi: bunda ustav kapitali, qarz mablag‘lari va foyda hisobiga resurslar shakllantiriladi va taqsimlanadi.

Uchinchi yo‘nalish — yuqori tashkilotlar bilan munosabatlar: sho‘ba korxonalar va holding tuzilmalarida moliyaviy resurslar oqimining

[334] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*
[335] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 229-bet.
[336] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU, 2015. 198-bet.

boshqarilishini ifodalaydi. To‘rtinchisi — moliya-kredit tizimi bilan munosabatlar: davlat byudjeti va nobyudjet fondlariga soliqlar to‘lash, tijorat banklaridan kreditlar olish va ularni qaytarish, kredit foizlarini to‘lash. Ushbu to‘rtta yo‘nalishning barchasi bir-biri bilan bog‘liq holda korxonaning moliyaviy hayotini tashkil qiladi.

Korxonalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va foydalanish jarayonida bir qancha moliyaviy institutlar bilan rang-barang munosabatlarda bo‘ladi[337]. Yalpi daromadni shakllantirish va foydalanish jarayonida xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar — xom ashyo, yoqilg‘i, materiallar, butlovchi asbob-uskunalar sotib olish, tayyor mahsulotni realizatsiya qilish, jarima to‘lash va ikki tomonlama shartnomalar bajarilishi — birinchi o‘rinni egallaydi.

Investitsiyaga mo‘ljallangan korxona qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish hamda qo‘shma korxonalar tashkil etishda hissali mablag‘lar orqali ishtirok etish moliyaviy munosabatlarning ikkinchi muhim qirrasini tashkil qiladi[338]. Korxonalar valyuta fondini tashkil etishda va foydalanishda tashqi iqtisodiy aloqa kompaniyalari bilan bo‘lgan munosabatlar ham shu toifaga kiradi. Nobel mukofoti sovrindorlari F. Modilyani va M. Miller ta’kidlaganidek, kapital tuzilishini optimal tanlash — qarz va o‘z mablag‘lari nisbati — korxona qiymatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyasining salmog‘i yanada kengayadi[339]. Buning asosiy sababi — korxonalar moliyaviy rejalarini mustaqil ishlab chiqaruvchi sub’ekt sifatidagi huquq va imkoniyatlarining tobora kengayib borishi. Markazlashgan direktiv boshqaruv usullari — limitlar, markaziy ta’minot va shunga o‘xshashlar — o‘rnini bozor mexanizmlari egallagan sharoitda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish korporativ strategiyaning birinchi darajali tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda.

Korxonalar moliyasi iqtisodiy nazariyada an’anaviy ravishda uchta asosiy funktsiyaning tashuvchisi sifatida qaraladi.[340] Bu funktsiyalar moliyaning passiv hisobot tizimi emas, balki faol boshqaruv vositasi ekanligini ko‘rsatib beradi.

---

[337] Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. 13th ed. New York: McGraw-Hill, 2020. P. 7.

[338] Modigliani F., Miller M.H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. American Economic Review. 1958. Vol. 48. No. 3. P. 261-297.

[339] World Bank. Corporate Financial Governance in Emerging Markets. Washington D.C., 2019. P. 31

[340] Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. 12th ed. New York: McGraw-Hill, 2019. P. 5.

8.2-jadval.

Korxonalar moliyasining uch asosiy funktsiyasi va ularning mazmuni[341]

Funktsiya nomi	Iqtisodiy mazmuni	Amaliy namoyon bo‘lishi
Taqsimlash va qayta taqsimlash	Korxonaning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonidagi moliyaviy natijalarini taqsimlash va qayta taqsimlash	Foyda egalariga bo‘linishi; zarur fondlar shakllantirilishi; investitsiyalarga yo‘naltirilishi
Nazorat qilish	Pul fondlarining shakllanishi va tegishli moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni monitoring qilish	Moliyaviy nazorat tizimi; audit; budjet ijrosini kuzatish
Rag‘batlantirish	Korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantirish va samaradorlikni oshirishga undash	Mukofot fondlari; bonus tizimi; dividend siyosati

Uchta funktsiyaning o‘zaro uyg‘unligi muhim shartdir[342]. Nazorat funktsiyasi zaiflashganda taqsimlash funktsiyasi adolatsiz natijalar berishi mumkin; rag‘batlantirish funktsiyasi bo‘lmasa xodimlar va investorlar faolligi pasayadi. Zamonaviy korporativ moliya nazariyasi bu uch funktsiyani birlikda amalga oshirish korxona qiymatini maksimallashtirish uchun zaruriy shart deb hisoblaydi.

Korxonalarni moliyaviy boshqaruv tizimi bir qancha fundamental kontseptsiyaga tayanadi[343]. Pul resurslarining vaqtli qiymati kontseptsiyasi (hozirgi 1 so‘m kelajakdagi 1 so‘mdan qimmatroq), pul oqimlari kontseptsiyasi, tadbirkorlik va moliyaviy xatarlar kontseptsiyasi, kapitallar bahosi, samarali bozor kontseptsiyasi — bular zamonaviy

[341] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va moliyaviy nazariya asosida muallif tuzildi*

[342] Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 15th ed. Mason: Cengage Learning, 2016. P. 41

[343] Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. 13th ed. New York: McGraw-Hill, 2020. P. 7.

korporativ moliya boshqaruvining nazariy poydevori hisoblanadi. J. Keyns ta’kidlaganidek, korxona investitsiya qarorlarini qabul qilishda kapital chekkaviy samaradorligi va foiz stavkasi o‘rtasidagi munosabat hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Korxonalar moliyasini boshqarish — bu korxonaning moliyaviy faoliyatini tartibga solish bo‘lib, sotishdan tushgan tushum va uning taqsimot ob’ektlari moliyaviy boshqarishning asosiy ob’ekti hisoblanadi[344]. Moliyaviy boshqaruvni ma’lum bir uslub va tamoyillarga hamda rag‘batlantirish va sanktsiyalarga tayanib, maxsus apparat amalga oshiradi. Boshqaruv qo‘llaniladigan usullar qanchalik samarali bo‘lsa, korxona qo‘lida mavjud imkoniyatlardan shunchalik to‘liq foydalanish yoki yangi davr talabiga mos usullarni joriy etib ko‘zlangan maqsadga erishish imkoni tug‘iladi.

Har qanday boshqaruv tizimiga xos bo‘lgani kabi, moliyani boshqarishda ham ob’ektlar va sub’ektlar aniq farqlanadi.[345] Moliyani boshqarishning ob’ekti turli moliyaviy munosabatlardir: davlat byudjeti, pensiya fondi, sub’ektlarning ixtiyoridagi markazlashmagan fondlar va sug‘urta munosabatlari.

Moliyaviy munosabatlarning turkumlanishidan kelib chiqib, ushbu ob’ektlarga quyidagi moliyani boshqaruv sub’ektlari mos keladi: moliya organlari va soliq nazoratchilar, moliya xizmat (bo‘lim)lari va sug‘urta organlari[346]. Har bir sub’ekt o‘z vakolat doirasida ob’ektlarga ta’sir o‘tkazadi — biri soliq siyosati orqali, boshqasi korporativ moliyaviy rejalashtirish orqali, uchinchisi sug‘urta mexanizmlari orqali. Bu taqsimot moliyaviy boshqaruvni bir tizim sifatida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi vakolatlar majmuasi sifatida tasavvur qilishni talab etadi.

Korxonalar moliyasini samarali tashkil qilish ma’lum tamoyillarga rioya qilishni taqozo etadi[347]. Ushbu tamoyillar normativ talab emas — ular bozor iqtisodiyotida korporativ moliyaviy barqarorlikka erishishning amaliy yo‘riqnomasidir.

Yetti tamoyilning ichida o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyili va ish natijasidan manfaatdorlik tamoyili amaliy jihatdan eng muhimi hisoblanadi.[348] 0OECD tavsiyalariga ko‘ra, samarali korporativ boshqaruv tizimida bu ikki tamoyil bir-biri bilan sintetik ravishda

[344] Raxmatullayev B.X. Korxona faoliyatini rejalashtirish. Toshkent: Moliya, 2020. 113-bet.
[345] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU, 2015. 198-bet.
[346] Ulashev I.O., Atamyradov Sh.A. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent: TDTU, 2015. 198-bet.
[347] O'zbekiston Respublikasi 'Korxonalar to'g'risida'gi Qonun. Toshkent, 1998 (tahrir 2022). 14-modda.
[348] OECD. Corporate Governance Factbook 2021. Paris: OECD Publishing, 2021

qo‘llanilganda — ya’ni xodimlar foyda ulushiga ega bo‘lganda — korxona mahsuldorligi sezilarli darajada oshadi.

8.3-jadval.

Korxonalar moliyasini tashkil etishning yetti tamoyili[349]

№	Tamoyil nomi	Iqtisodiy mazmuni va amaliy ifodasi
1	**Moliyaviy-xo‘jalik faoliyatida mustaqillik**	Korxona moliyaviy qarorlarni mustaqil qabul qiladi; resurslarni taqsimlash, investitsiya va daromaddan foydalanish bo‘yicha davlat aralashuvi minimal darajada
2	**O‘z-o‘zini moliyalashtirish**	Korxona faolyatini davom ettirish va kengaytirish uchun asosiy manba — o‘z daromadlari va amortizatsiyasi; tashqi mablag‘larga tayanish ikkilamchi rol o‘ynaydi
3	**Ish natijasidan manfaatdorlik**	Xodimlar, rahbarlar va mulkdorlar moliyaviy natijalardan bevosita manfaatdor bo‘lishi; rag‘batlantirish tizimi ushbu manfaatni mustahkamlashi kerak
4	**Moliyaviy resurslarni tashkil etish**	Moliyaviy resurslar maqsadli fond va zahiralarga bo‘linib, har birining aniq foydalanish yo‘nalishi belgilanadi
5	**Vositalarni o‘ziniki va boshqalarnikiga ajratish**	Balansda o‘z kapitali va qarz majburiyatlari aniq farqlanib, moliyaviy hisobning asosiy tamoyili sifatida saqlanib qoladi
6	**Byudjet va nobyudjet fondlari oldida majburiyatlarni birinchi bajarish**	Davlat majburiyatlari — soliqlar va boshqa to‘lovlar — boshqa xarajatlardan ustuvor bo‘lishi lozim; bu qonuniy talab va iqtisodiy barqarorlik shartidir
7	**Korxona faoliyati ustidan moliyaviy nazorat**	Ichki nazorat tizimi, audit va moliyaviy hisobot orqali resurslarning maqsadli ishlatilishini kuzatib borish

Korxonada moliyaviy mexanizm boshqaruvchi tizim va korxona xo‘jalik faoliyatining o‘zaro ta’siridan iborat bo‘ladi.[350] Boshqaruvchi tizim o‘z tarkibiga texnika, kommersiya, ishlab chiqarish, moliya, buxgalteriya hisobi va boshqa bo‘limlarni oladi. Korxonaning xo‘jalik faoliyati esa ishlab chiqarishni texnik jihozlash, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnatni tashkil qilish, tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil qilish,

[349] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va korporativ moliya nazariyasi asosida muallif tuzildi*

[350] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 318-bet.

mehnat jamoasining ijtimoiy sharoitini tashkil qilish va tabiat resurslaridan foydalanishni tartibga solishni o‘z ichiga oladi.

Tadbirkor korxonaning moliyaviy mexanizmi — korxonaning moliyaviy munosabatlarini boshqarish tizimi bo‘lib, bu boshqarish moliyaviy richtag va usullar orqali amalga oshiriladi.[351] Moliyaviy mexanizm besh asosiy element bilan tavsiflanadi: moliyaviy boshqarish ob’ekti sifatidagi moliyaviy munosabatlar; moliyaviy richaglar; moliyaviy usullar; moliyaviy boshqarishni qonuniy asoslari; axborot-uslubiy manbalar.

8.4-jadval.

Korxona moliyaviy mexanizmining besh asosiy elementi[352]

Element nomi	Tarkibi	Boshqaruv ta’siri
Moliyaviy munosabatlar	Investitsiyalashtirish, kreditlashtirish, soliqqa tortish, sug‘urtalash va boshqa moliyaviy aloqalar	Pul oqimlarini shakllantiradi va yo‘naltiradi; kapital harakatini ta’minlaydi
Moliyaviy richaglar	Foyda, daromad, moliyaviy jazolar, baho, dividendlar, ish haqi, soliqlar va boshqalar	Boshqaruvchi tizimning xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta’sir vositasi; rag‘batlantiruv va cheklovlar
Moliyaviy usullar	Moliyaviy hisob; moliyaviy tahlil; moliyaviy rejalashtirish; moliyaviy nazorat	Boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlaydi; reja va haqiqatni taqqoslaydi
Qonuniy asoslar	Qonunlar, me’yoriy hujjatlar, nizomlar; xalqaro standartlar (IFRS, ISA)	Moliyaviy munosabatlar doirasini belgilaydi; nazorat uchun asos yaratadi
Axborot-uslubiy manbalar	Moliyaviy hisobot; statistik ma’lumotlar; bozor axboroti; ichki boshqaruv hisobi	Qaror qabul qilish uchun zarur ma’lumot bazasini shakllantiradi

Moliyaviy richaglar ichida foyda va soliqlar ayniqsa muhim rol o‘ynaydi[353]. Foyda — korxona samarali ishlayotganligining asosiy signali, soliq esa davlatning iqtisodiyotga ta’sir o‘tkazishning eng kuchli moliyaviy richagi hisoblanadi. Bu ikkisi o‘rtasidagi nozik muvozanat — soliq yukini haddan oshirmaslik va shu bilan birga fiskal ehtiyojlarni

[351] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 229-bet.
[352] *Manba: moliyaviy boshqaruv nazariyasi va tarmoq amaliyoti asosida muallif tuzildi*
[353] Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. 13th ed. New York: McGraw-Hill, 2020. P. 7.

qondirish — har qanday davlatning soliq siyosatidagi doimiy muammosidir.

Har qanday tadbirkorlik korxonasining xo‘jalik faoliyatidagi asosiy maqsad mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmatlar ko‘rsatish natijasida foyda olishdan iborat.[354] Bu maqsadga erishish yo‘lida korxona faoliyati uchta ketma-ket bosqichdan o‘tadi: ta’minot, ishlab chiqarish va sotish. Bu bosqichlar bir-birini shartlaydigan zanjir bo‘lib, har birining moliyaviy samaradorligi keyingisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi.

Bu jarayonlarda buxgalteriya hisobi quyidagi axborot manbalariga ega bo‘ladi: tovar-material qiymatliklarni yig‘in (zagotovka); yig‘ilgan tovar-moddiy qiymatliklarni omborlarga taxlash; sotish uchun tovar (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish; tayyor mahsulotni taxlash, saqlash, mahsulotni sotish. [355] Ushbu axborot zanjiri moliyaviy boshqaruvning ko‘zi hisoblanadi — u bo‘lmasa, korxona rahbariyati qarorlarni ‘ko‘r’ holatda qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Korxonada boshqarish funktsiyasi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: boshqarish uchun axborot manbalarini to‘plash, uni tahlil qilish va qaror qabul qilish.[356] Qaror qabul qilish esa o‘z navbatida prognozlash (rejalashtirish), reglamentlash (operativ boshqarish) va nazorat (taftish va audit) kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy boshqaruvning sifati bu bosqichlarning qanchalik uyg‘un va tizimli amalga oshirilishiga bog‘liq.

Moliyaviy munosabatlar korxonalardan tortib umumdavlat miqyosigacha bo‘lgan bosqichdagi pulning harakati bilan bog‘liq munosabatlarni o‘z ichiga olganligi sababli umumdavlat, mahalliy hokimiyat organlari hamda korxonalar moliyasi farqlanadi.[357] Ushbu uch darajaning o‘zaro munosabati — fiskal federalizm deb ataladigan murakkab tizim — moliyaviy resurslarning iqtisodiy jihatdan eng samarali yo‘nalishda taqsimlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar moliyasining ob’ektiv shakllanishiga ta’sir etgan omillar tarkibi xilma-xildir[358].Tovar-pul munosabatlarining mavjudligi, xo‘jalik sub’ektlarining turli xil mulk shakllarida faoliyat ko‘rsatishi, iqtisodiy rag‘batlantirish va kengaytirilgan ishlab chiqarishni moliyaviy ta’minlash maqsadida pul

[354] Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. 12th ed. New York: McGraw-Hill, 2019. P. 5.
[355] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 318-bet.
[356] Raxmatullayev B.X. Korxona faoliyatini rejalashtirish. Toshkent: Moliya, 2020. 113-bet.
[357] IMF. Fiscal Monitor: Policies for the Recovery. Washington D.C.: IMF, 2021. P. 27.
[358] Toshmatov N.A. O'zbekistonda transport tizimini rivojlantirish strategiyasi. Toshkent: Yangi nashr, 2019. 164-bet

daromadlari hamda jamg‘armalarini shakllantirish — bu uch omil birgalikda korxona moliyasining bozor xarakterini belgilaydi.

8.2. Avtotransport korxonalarining moliyasini mohiyati va funksiyalari.

Bozor iqtisodiyotidagi har qanday faoliyat pul, mablag‘ talab qiladi, bu esa moliyani yuzaga keltiradi.

Moliyaning mohiyati milliy iqtisodiyotdagi pul mablag‘lari bilan bog‘langan bo‘lib, bunday resurslarni hosil qilish, taqsimlash va ishlatish jarayonlarining majmuidan iboratdir.

Bizga m’lumki har qanday ishlab chiqarish iste’moldan oldin taqsimotni talab qiladi. Avvalo qiymat shaklidagi taqsimot amalga oshirilib, mahsulot ana shu qiymatlar hissasiga qarab taqsimlanadi. Qiymat taqsimoti o‘z navbatida turli pul manbalari va jamg‘armalarni yuzaga keltiradi. Bular esa tovarlarga almashinilib, iste’molni shakllantiradi.

Umumjamiyat iste’moli davlat tomonidan ta’minlanadi. Buning uchun resurslar turli xil pul jamg‘armalarini yuzaga keltiriladi. Shu pul manba va jamg‘armaning ishlatilishi tufayli turli tarmoq va sohalarining ehtiyoji kondiriladi. Bular davlat tomonidan amalga oshirilib, davlat organlarining moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadi.

Yuqorilardan xulosa qilib aytganda moliya bu davlat, korxona, birlashma va boshqa tashkilotlar hamda ishlovchilarning moddiy va ijtimoiy - madaniy talablarini qondirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari jamg‘armalarini tashkil qiluvchi iqtisodiy aloqalar yig‘indisidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Avtotransport korxonalar ishlab - chiqarish faoliyatini xo‘jalik hisobi usulida tashkil qilganliklari uchun barcha faoliyatlari natijasidan kelayogan daromadlar, harajatlardan ko‘p bo‘lgan foyda olishga asoslangandir, aks holda Avtotransport korxonalar o‘z faoliyatini davom ettirish uchun qarz mablag‘larini olishga majburdirlar.

ATKlar moliyasi bir tomondan, ish faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan moliyaning yetarligi ular ishining muvaffaqiyatli bo‘lishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Avtotransport korxonalarining moliyaviy holati yuk tashish qatnovi o‘z vaqtida bajarilishi, mehnat unumdorligini oshirish, tannarxni kamaytirish bo‘yicha belgilangan tadbirlarni bajarilishiga bog‘liqdir.

Shunday qilib, Avtotransport korxonalari moliya orqali o‘z xizmatlari bilan bog‘liq bo‘lgan korxona va tashkilotlari bilan hisob-kitob qiladilar.

Avtotransport korxonalari moliya tashkilotlari, bank muassasalari bilan o‘zaro aloqalari orqali davlat byudjetiga olinadigan soliq banklardan qarzga pul (kredit) olish va ularning kassa rejalari bajarilishi bilan doimo bog‘liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona moliya xizmatining asosiy ishlaridan biri, yillik, yarim yillik va chorak yillik moliya rejasini loyihalash va unga zarur bo‘lgan hisoblarni bajarishdir.

8.3.Avtotransport korxonalari daromadi, uning shakllanishi.

Avtotransport korxonasining yalpi daromadi uning faoliyatining barcha turlaridan olinadigan daromadlar yig‘indisidan iboratdir, bularga yuk tashish(D_{yuk}), transport ekspeditsion xizmatlar ($D_{\text{eks.xiz}}$), ortish tushirish va boshqa xizmatlardan($D_{boshqa\ xiz.}$)kelgan daromadlar kiradi.

Yalpi daromad quyidagicha hisoblanadi.

$$D_{yalpi} = D_{yuk} + D_{\text{eks.xiz}} + D_{ortish} + D_{boshqa\ xiz.}$$

Yuk tashishdan keladigan daromad ishbay avtomobillarda tashilgan yuk hajmini 1 t yukni tashish tarifiga ko‘paytmasiga teng bo‘lib quyidagicha aniqlanadi.

$$D_{yuk} = Q_t \times T_{1t}$$

bu yerda Q_t-yuk hajmi,

T_{1t} – 1t yuk tashish tarifi, u masofa va yukning toifasiga bog‘liqdir.

Soatbay avtomobillardan olinadigan daromad bajarilgan ish vaqtini soatbay tarifga kupaytmasi shaklida aniqlanadi.

$$D_{\text{soat}} = A_s \times T_{1soat}$$

bu yerda, A_s - avtomobil soat

T_{1soat} - vaqtbay tarif.

Avtobus saroylarining daromadini aniqlash uchun yuqoridagi formuladan foydalaniladi.

Soatbay avtomobillar va avtobuslar uchun daromadni hisoblashda vaqtbay tarifdan tashqari kilometr tarifi xam ishlatiladi.

$$D_{\text{km}} = A_s \times T_{vaqt} + 1kmTkm$$

bu yerda: 1 tkm - 1 kilometr uchun tarif.

Yuk tashuvchi avtomobillari uchun soatiga 9 km me’yor qo‘yilgan, agarda soatiga 9 kmdan ko‘p yo‘l yursa unda har bir ortiqcha kilometri

uchun kilometr tarifiga asosan qo‘shimcha daromad hisoblanadi. Avtobuslar uchun bu me’yor 15 kilometrni tashkil etadi.

Misol. Soatbay ishlovchi yuk avtomobili 10 soatlik (naryad) ish vaqtida 150 km yo‘l bosdi. Vaqtbay daromad aniqlansin.

berilgan me’yorga nisbatan avtomobil 60 km kup yo‘l yurgan

(150-10*9=150-90=60)

Demak daromad aniqlashda 10 soat uchun vaqtbay tarif asosida va kolgan 60 km uchun km tarif oraligi aniqlanadi.

Transport - ekspedigiya ishlardan olinadigan daromad junatilayotgan yoki ekspedigiyadagi yuklarni toifalariga asosan bo‘lib, yuk tashishdan olgan daromadni ma’lum foizini tashkil etadi.

Avtotransport korxonasining ortish - tushirish ishlaridan olinadigan daromad urnatilgan tarifga bog‘liq va bajarilgan ish hajmiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Yuqorida aytilganlardan tashqari boshqa daromadlar tarkibiga mijozlardan undirilgan jarimalar va boshqa xil to‘lovlar kiradi.

Amaliyotda daromadni rejalashtirish uchun o‘rtacha daromad stavkasidan foydalaniladi $D_{\text{o‘rtacha daromad stavkasi}}$va u quyidagicha aniqlanadi, ya’ni amaldagi daromadni D_{amal}usha turdagi bajarilayotgan ishga $R_{t.km}$ nisbati kurinishida.

$$D_{\text{o‘rtacha daromad stavkasi}}= \sum D_{amal} /R_{t.km}$$

8.4. Avtotransport korxonasining foydasi va rentabelligi.

Avtotransport korxonasining umumiy foydasi yuk tashishdan (yo‘l qurilishiga ajratma berilgandan sung) transport ekspedigiyasi, ortish-tushirish va boshqa ish va xizmatlaridan olingan foydalar yig‘indisidan iboratdir.

Avtotransport korxonasining umumiy foydasi yuk tashishdan (yo‘l qurilishiga ajratma berilgandan sung) transport ekspedigiyasi, ortish-tushirish va boshqa ish va xizmatlaridan olingan foydalar yig‘indisidan iboratdir.

Avtotransport korxonalarining umumiy (balansdagi) foydasi barcha faoliyatlardan kelayotgan daromadlar va harajatlar ayirmasi sifatida aniqlanadi.

$$F_{umumiy} = \left[\left(D_{yuk} - A_{yuk\ tashish\ daromadidan} + D_{\text{eks.xiz}} + D_{ortish} + D_{boshqa\ xiz.}\right)\right] - \left[\left(X_{yuk} - X_{\text{eks.xiz}} + X_{ortish} + X_{boshqa\ xiz.}\right)\right]$$

bu yerda $X_{yuk} - X_{\text{eks.xiz}} + X_{ortish} + X_{boshqa\ xiz.}$ - mos ravishda yuk tashish, transport -ekspedigion xizmatlar, ortish-tushirish va boshqa harajatlar

$A_{yuk\ tashish\ daromadidan}$-yuk tashish daromadidan 2% yo‘l qurilish va ta’mirlashga ajratma.

Avtotransport korxonalarining ishlarini rejalashtirishda rejadagi foyda

quyidagi ko‘rsatkichlari bilan harakterlanadi:

1. Yalpi foyda. Bu ko‘rsatkich mahsulot sotishdan kelib tushgan tushum bilan tannarx o‘rtasidagi farq ko‘rinishida aniqlanadi.

F_{yalpi} = mahsulot sotishdan kelib tushgan tushum - tannarx

2. Korxona asosiy ish faoliyati foydasi.

$F_{\text{as.ish.faol.}} = F_{yalpi}$ − Davr harajatlari + Boshqa ko‘zda tutilmagan foydalar -Boshqa ko‘zda tutilmagan zararlar

3. Soliq to‘lagunga qadar foyda.

$F_{soliq\ \text{to‘lagunga qadar}} = F_{umum\ xujalik}$ + ko‘zda tutilmagan foyda va zararlar

4. Sof foyda.

$F_{sof\ foyda} = F_{soliq\ \text{to‘lagunga qadar}} - F_{soliq}$ - Boshqa soliqlar

Foydaga soliq miqdori soliq to‘lagunga qadar foydaga nisbatan foizda aniqlanadi.

Sof foyda umumiy foydadan avtotransport korxonasining to‘lovlari chegirib tashlangandan sung aniqlanadi. Bu to‘lovlarga agarda korxona kredit olgan bo‘lsa, bank kreditlari, yer solig‘lari va barcha turdagi soliqlar kiradi.

Foyda bu muhim iqtisodiy ko‘rsatkich hisoblanib rag‘batlantirish fondlarini miqdorini, byudjetga to‘lanadigan to‘lovlar miqdorini, korxona rentabellik darajasini ko‘rsatib beradi.

Sof foydani shakllanishida quyidagi soliqlarni hisobga olish kerak:

1) Qo‘shimcha qiymat solig‘i.

$$QQS = \frac{Daromad * QQS\%}{100}$$

2) Transport solig‘i (S_{tr}).

$$S_{tr} = \frac{\text{IXYF} * O_{soni} * QQS\%}{100}$$

Bu yerda, IXYF - ish haqining yillik fondi, O_{soni} - oylar soni.

3) Yo‘l solig‘i ($S_{\text{Yo‘l}}$).

$$S_{\text{Yo‘l}} = \frac{\text{DAROMAD} - QQS\%}{100}$$

4) Sotsial sug‘urta fondi va meditsina xizmati fondiga ajratma.

$$Sos_{sugurta} = \text{IXYF} * \frac{\%Sos_{sugurta}}{100}$$

5) Nafaqa fondi.

$$F_{nafaqa} = \text{IXYF} * \frac{\%F_{nafaqa}}{100}$$

6) Daromadga soliq.

$$D_{soliq} = \text{IXYF} - F_{nafaqa}(IH_{min} * I_{soni} + K_k \frac{\%D_{soliq}}{100}$$

Bu yerda, IH_{min}- minimal ish haqi, I_{soni}- ishchilar soni.

7) Turar joy fondini saqlashga oid soliq.

$$S_{turar\ joy} = (\text{Daromad} - QQS) \frac{\%QQS}{100}$$

8) Foydaga soliq.

$$S_{foydaga} = (\text{Daromad} - QQS - \sum S_1) \frac{\%S_{foydaga}}{100}$$

Bu yerda, $\sum S_1$- foydadan to‘lanadigan barcha soliqlar.

Rentabellik deganda, avtotransport korxonalarining asosiy va aylanma jamg‘armalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkich tushuniladi.

Umumiy rentabellik bu umumiy foydani, rejadagi asosiy ishlab-chiqarish vositalarning va me’yorlangan aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymatlariga nisbati bilan aniqlanadi.

$$R_{umumiy} = F_{umumiy} * 100/(AF_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}} + AM_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}}$$

bu yerda $AF_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}}$-asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati.

$AM_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}}$-me’yorlangan aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati.

bu yerda $AF_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}}$-asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati.

$AM_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}}$-me’yorlangan aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymati.

Bu ko‘rsatkich korxonaning umumiy ish samaradorligini baholash uchun foydalaniladi. Hisobdagi rentabellik esa bu rejadagi foydadan, asosiy va aylanma fondlar to‘lovi, bankdan qarzi, yer to‘lovlari qiymatlari ayrilgandan sung asosiy va aylanma fondlarning yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$R_{hisobdagi} = F_{umumiy} - M\left(AF_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}} + AM_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}}\right) - B_k - YER_{\text{tulovi}} * 100/(AF_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}} + AM_{\text{o‘rtacha yillik qiymati.}}$$

yerda: M-asosiy va aylana fondlarga to‘lov % miqdori,

B_k-bank krediti (qarzi) ga tulanadigan foiz qiymati,

YER_{tulovi}- yer to‘lovi,

Asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlarini o‘rtacha yillik qiymatlariga to‘lovlar tulashlik, ulardan unumli foydalanishga chorlaydi.

Yuqorida aytilgan to‘lovlaridan sung korxonada birinchi navbatda rag‘batlantirish jamg‘armalariga foydadan ajratiladi. Shundan so‘ng foyda kapital mablag‘larini va o‘ziga biriktirilgan aylanma mablag‘larini kupaytirish uchun, uy-joylardan foydalanishdagi harajatlarni qoplash va madaniy-ishlar harajatlari, banklarning xizmat qilish harajatlariga ajratiladi.Rentabellik darajasini oshirishning asosiy omillaridan biri - asosiy ishlab chiqarish vositalaridan va aylanma mablag‘lardan unumli foydalanishdir.

8.5. FA korxonalarida daromad, foyda va rentabellik FA korxonalarida daromadlari.

Fuqaro aviatsiyasi korxonalarida daromad, foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari ularning moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi hamda bozordagi raqobatbardoshligini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida aviakompaniyalar faoliyatini rivojlantirishda daromadlarni shakllantirish, narx belgilash va xizmatlar hajmini oshirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Korxona daromadlari mahsulot sotish, xizmatlar ko‘rsatish, budjet investitsiyalari, maqsadli subsidiyalar, qarz mablag‘lari hamda korxona faoliyatidan kelib tushadigan boshqa tushumlar hisobiga shakllanadi.

Rejalashtirilgan daromadni ikki asosiy qismga ajratish mumkin:

1. Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar

2. Realizatsiya bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlar

Asosiy faoliyatdan olinadigan daromad aviatsiya xizmatlarini sotishdan tushgan mablag‘larni ifodalaydi. Ushbu daromad tarkibiga ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi hamda rejalashtirilgan foyda kiradi.

Realizatsiya bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlar esa korxonaning qo‘shimcha moliyaviy tushumlari hisoblanadi. Bunday daromadlarga ishlab chiqarish faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan tushumlar, jumladan, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlardan olinadigan dividendlar, kontragentlardan undiriladigan jarimalar, bankdagi mablag‘lar bo‘yicha foizlar va boshqa rejadan tashqari moliyaviy tushumlar kiradi.

Agar aviakompaniya nafaqat o‘z xizmatlarini, balki boshqa aviakompaniyalar aviatashuvlarini ham sotish bilan shug‘ullansa, uning umumiy daromadi oddiy tushumga teng bo‘lmaydi. Bunday holatda daromad quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$D\sum AK = VAK + DAK - K\%part - Dpart + K\%AK$

Bu yerda:

D∑AK — aviakompaniya transport xizmatlaridan olinadigan umumiy daromad;

VAK — aviakompaniyaning o‘z xizmatlarini sotishdan olgan tushumi;

DAK — hamkorlar tomonidan aviakompaniya xizmatlarini sotishdan olingan mablag‘lar;

K%part — aviakompaniya tomonidan sotilgan transport xizmatlari uchun hamkorga ajratiladigan ulush;

Dpart — hamkor aviakompaniya xizmatlarini sotishdan olingan mablag‘lar;

K%AK — hamkor tomonidan sotilgan transport xizmatlari uchun aviakompaniyaga ajratiladigan ulush.

Soddalashtirilgan shaklda daromad quyidagicha ifodalanadi:

$V = Sed \times Qpr$

Bu yerda:

V — daromad; Sed — mahsulot yoki xizmat birligining narxi; Qpr — sotilgan mahsulot yoki ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi.

Aviakompaniya tushumi uning daromadiga teng bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar ham mavjud. Masalan, faqat o‘z xizmatlarini sotadigan va realizatsiyadan tashqari daromadga ega bo‘lmagan charter aviakompaniyalarida tushum va daromad o‘zaro teng bo‘lishi mumkin.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida aviatsiya mahsulotlari va xizmatlari narxi bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bular jumlasiga talab, taklif, ishlab chiqarish xarajatlari, raqobat darajasi, xizmat sifati, yoqilg‘i narxi, aeroport yig‘imlari va boshqa iqtisodiy omillar kiradi. Ushbu omillar narx shakllanishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Narx shakllanishida asosiy iqtisodiy qonunlardan biri — talab qonuni muhim o‘rin tutadi. Mazkur qonunga ko‘ra, narx pasayganda talab ortadi, narx oshganda esa talab kamayadi. Demak, aviakompaniya xizmatlari narxi bilan ularga bo‘lgan talab o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud.

Shuningdek, taklif qonuni ham aviatsiya xizmatlari bozorida muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonunga ko‘ra, narx oshishi ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat ko‘rsatuvchilar tomonidan taklif hajmining ortishiga olib keladi. Ya’ni aviatsiya xizmatlari narxi va taklif hajmi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

Talab va taklifga faqat narx emas, balki narxdan tashqari omillar ham ta’sir qiladi.

Talabga ta’sir etuvchi asosiy narxdan tashqari omillar quyidagilardan iborat:

aviatsiya bozoridagi iste’molchilar soni, aholining pul daromadlari, yo‘lovchilarning aviatsiya xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoji, muqobil transport xizmatlari narxi, iste’molchilarning afzalliklari, xizmat sifati, texnologik yangiliklar, yangi xizmat turlarining paydo bo‘lishi hamda mijozlar fikridagi o‘zgarishlar.

Taklifga ta’sir etuvchi asosiy narxdan tashqari omillarga esa quyidagilar kiradi:

resurslar narxi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, bozordagi aviatsiya xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar soni, yoqilg‘i xarajatlari, mehnat resurslari qiymati, texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari hamda muqobil xizmatlar narxi.

Shunday qilib, fuqaro aviatsiyasi korxonalarida daromad, foyda va rentabellikni oshirish nafaqat xizmatlar hajmini ko‘paytirish, balki narx siyosatini to‘g‘ri yuritish, xarajatlarni optimallashtirish, xizmat sifatini yaxshilash va bozor talablariga moslashish bilan bevosita bog‘liqdir**.**

Tayanch so‘zlar va iboralar

1-guruh — Moliya tizimi va rejalashtirish		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
1	***Moliya***	Davlat, korxona, birlashma va boshqa tashkilotlar hamda mehnatkashlarning moddiy va ijtimoiy-madaniy talablarini qondirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘lari jamg‘armalarini tashkil qiluvchi iqtisodiy aloqalar yig‘indisi. Moliya doim pul shaklida keladi va taqsimot xarakteriga ega.
2	***Moliya rejasi***	Korxonaning ma’lum davr (yil, yarim yillik, chorak) uchun moliyaviy faoliyatini rejalashtiradigan hujjat. Daromadlar, xarajatlar, investitsiyalar va foydani taqsimlash ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning asosiy boshqaruv vositasi.
2-guruh — Daromad turlari va daromad stavkasi		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
3	***Daromad***	Korxonaning tovar yoki xizmatlarni sotishdan oladigan pul tushumlari yig‘indisi; foyda va xarajatlarni hisoblab chiqishda boshlang‘ich ko‘rsatkich. Avtotransportda daromad tashilgan yuklardan, yo‘lovchilar tashishdan va boshqa xizmatlardan kelib tushadi.
4	***Yalpi daromad***	Korxonaning barcha faoliyat turlaridan — asosiy ishlab chiqarish, yordamchi va noishlab chiqarish faoliyatidan — olingan jami daromad. Yalpi daromaddan xarajatlar chiqarilganda sof foyda aniqlanadi.
5	***Vaqtbay daromad***	Avtotransportda transport vositasi xizmat ko‘rsatgan vaqt (soat, smena, kun) uchun hisoblangan daromad. Tarif stavkasi ish vaqti birligiga ko‘paytirilishi bilan aniqlanadi.

		Qo‘llanilish sohasi: soatlik tarif bilan ishlayotgan transport vositalari.
6	***Daromad stavkasi***	Bir birlik xizmat (1 tonna-km, 1 yo‘lovchi-km, 1 soat) uchun belgilangan daromad miqdori. Tarif asosida shakllanadi va korxona daromadining prognozlash hamda tahlil qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.
3-guruh — Foyda va rentabellik ko‘rsatkichlari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
7	***Foyda***	Korxonaning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi ijobiy farq; tadbirkorlik faoliyatining asosiy moliyaviy natijasi. Balans foydasi, soliqqa tortilgunga qadar foyda va sof foyda shakllarida ko‘rinadi. Foyda investitsiya, rag‘batlantirish va rivojlanishning manbai.
8	***Sof foyda***	Soliqlar, majburiy ajratmalar va boshqa to‘lovlar chiqarib tashlanganidan keyin korxona ixtiyorida qoladigan foyda qismi. Sof foydadan dividendlar to‘lanadi, zaxira fondlari shakllantiriladi va korxona rivojlantiriladi.
9	***Rentabellik***	Korxona faoliyatining daromadlilik darajasini ko‘rsatuvchi nisbiy ko‘rsatkich; foyda va resurslar (kapital, xarajat, aktivlar) nisbati foizda ifodalanadi. Turli korxonalar va davrlarni taqqoslashda asosiy vosita.
10	***Umumiy rentabellik***	Korxonaning jami aktivlari yoki ishlab chiqarish fondlaridan olingan foydaning nisbiy ko‘rsatkichi. Formula: Umumiy rentabellik = Balans foydasi / (Asosiy fondlar + Aylanma mablag‘lar) × 100%. Korxona iqtisodiy samaradorligini umumiy baholashda qo‘llaniladi.
4-guruh — Tashish tariflari va soatbay tarif		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
11	***Tashish tariflari***	Transport xizmatlari uchun belgilangan narxlar tizimi; xizmat turi (yuk/yo‘lovchi), masofa, vaqt

		va boshqa parametrlarga qarab differensiallashtirilgan stavkalar majmuasi. O‘zbekistonda transport tariflari qisman davlat tomonidan tartibga solinadi.
12	***Soatbay tarif***	Transport vositasidan foydalanishning har bir soati uchun belgilangan to‘lov stavkasi. Buyurtma asosida ishlayotgan yuk va maxsus transport vositalariga qo‘llaniladi. Tarif tarkibiga haydovchi ish haqi, amortizatsiya, yoqilg‘i va ustama xarajatlar ulushi kiradi.

Nazorat savollari

1. Avtotransport korxonalarining moliyasining mohiyatini tushuntirib bering?
2. Avtotransport korxonasining yalpi daromadi qanday uning faoliyatining barcha turlaridan olinadigan daromadlar yig‘indisidan?
3. Sof foydani shakllanishida qaysi soliqlarni hisobga olish kerak?
4. Korxonaning foydasi qanday aniqlanadi?
5. Rentabellik deb nimaga aytiladi?
6. Samolyotlarga texnik xizmat ko‘rsatish tariflari mohiyatini tushuntirib bering?
7. Ekipaj xizmatlari uchun tariflar mohiyatini tushuntirib bering?
8. Havo kemalarining yuklanishini markazlashtirish va boshqarish tariflari qanday maqsadda belgilanadi?
9. FA korxonalarida daromadlari mohiyatini tushuntirib bering

IX BOB. TRANSPORT KORXONALARIDA BOSHQARISH

9.1. Transport korxonalari boshqaruvining mohiyati va o‘ziga xos-xususiyatlari.

9.2. Boshqaruv jarayonining mohiyati.

9.3. ATK da ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy maqsadlari.

9.4. Ishlab chiqarishni boshqarishning mohiyati. Ishlab chiqarishni boshqarish usullari.

9.5. Davlat aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasi korxonalarini iqtisodiy-ijtimoiy tashkil etish hususiyatlari. Boshqarish mexanizmi tuzilmasi va uning vazifalari.

9.6. Avtoservis sub’ektlarida lean-logistik boshqaruv.

9.1. Avtotransport korxonalari boshqaruvining mohiyati va o‘ziga xos-xususiyatilari.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida avtomobil transporti tizimi strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari faoliyati transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi va transport xizmatlari samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli transport tizimi mamlakat hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz tashkil etish hamda aholi va xo‘jalik subyektlarining harakatchanligini ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi.So‘nggi yillarda respublikada transport kommunikatsiyalarini modernizatsiya qilish, logistika tizimini rivojlantirish va avtomobil transporti xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan transport infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy avtomobil yo‘llarini qurish, yuk va yo‘lovchi tashish tizimini raqamlashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga qaratilgan dasturlar avtomobil transporti sohasiga bo‘lgan e’tiborning yuqori ekanligini namoyon etadi.

Shu bilan birga, tarmoqda erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, avtomobil transporti sohasida o‘z yechimini kutayotgan qator dolzarb masalalar mavjud. Avvalo, avtotransport xizmatlari bozorini to‘liq shakllantirish va unda sog‘lom raqobat muhitini yaratish zarurati saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy

etish hamda investitsion faollikni rag‘batlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.Shuningdek, avtotransport korxonalarining moddiy-texnik bazasini zamonaviy talablar asosida mustahkamlash, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlariga ilg‘or boshqaruv mexanizmlarini tatbiq etish zarurati ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Korxonalarda mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va transport vositalaridan samarali foydalanish, texnik-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni yaxshilash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligini yangi bosqichga olib chiqish mumkin bo‘ladi. Natijada avtomobil transporti tizimini modernizatsiya qilish va boshqaruv samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlararo integratsiyani kuchaytirish hamda aholiga ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari sifatini yuksaltirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

9.1-jadval.

ATK oldidagi dolzarb muammolar va ularga qarshi chora-tadbirlar yo‘nalishlari[359]

Muammo	**Sababi**	**Yechim yo‘nalishi**
Avtotransport xizmati bozorini to‘laqonli shakllanmaganligi	Tariflarning nomuvofiqligi; raqobatning yetarli darajada rivojlanmaganligi	Bozor infratuzilmasini rivojlantirish; tarif siyosatini takomillashtirish
Tadbirkorlik va innovatsion faollikning pastligi	Xususiylashtirish jarayonining to‘la tugallanmaganligi	Xususiylashtirish chuqurlashtirilishi; innovatsion ekotizim yaratish
Moddiy-texnik bazaning eskirganligi	Investitsiya yetishmasligi; modernizatsiya uchun mablag‘lar cheklanganligi	Xorijiy investitsiyalar jalb qilish; davlat-xususiy sheriklik
Boshqaruv tizimining zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi	Boshqaruv uslublari va tuzilmalarining eskirishi	Raqamli texnologiyalar joriy etish; boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish
Texnik-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarning yetarli darajada emasligi	Transport vositalari parki eskirganligi; TXK tizimining kamchiliklari	Park yangilash; TXK va JT standartlarini kuchaytirish

[359] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va tarmoq tahlili asosida muallif tuzildi*

Keltirilgan muammolar majmui avtotransport korxonalari faoliyatida mavjud bo‘lgan eng muhim tizimli masalalardan biri — boshqaruv samaradorligini oshirish zarurati bilan bevosita bog‘liqdir. Tarmoq faoliyatidagi ko‘plab iqtisodiy va tashkiliy kamchiliklar boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli transport tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish alohida yo‘nalishlar bo‘yicha emas, balki yagona kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zamonaviy menejment nazariyasida ham korxona faoliyatidagi strukturaviy nomutanosibliklar boshqaruv tizimining samarasizligi bilan izohlanadi va ularni hal etishda strategik hamda tizimli boshqaruv usullaridan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi.

Avtotransport korxonalari ishlab chiqarish faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini chuqur tahlil qilmasdan turib samarali boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin emas. Mazkur korxonalar faoliyati odatda ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi. Birinchi yo‘nalish — transport jarayonlari bo‘lib, u yuk va yo‘lovchilarni tashish xizmatlarini tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi yo‘nalish esa yordamchi ishlab chiqarish jarayonlari hisoblanib, transport vositalarining texnik jihatdan soz holatda bo‘lishini ta’minlashga qaratiladi. Bunga texnik xizmat ko‘rsatish, diagnostika ishlari hamda joriy ta’mirlash jarayonlari kiradi.

Avtotransport korxonalarining asosiy faoliyati boshqa ko‘plab ishlab chiqarish tarmoqlaridan farqli ravishda korxona hududidan tashqarida amalga oshiriladi. Ya’ni transport xizmatlari bevosita yo‘nalishlarda, harakat jarayonida hamda mijozlarga xizmat ko‘rsatish davomida bajariladi. Shu jihati bilan avtotransport korxonalari an’anaviy zavod yoki fabrikalardan keskin farq qiladi. Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va nazorat qilish jarayonlari bir hududda amalga oshirilsa, avtotransport tizimida boshqaruv jarayoni masofadan turib olib boriladi. Masalan, haydovchi marshrut bo‘ylab harakatlanayotgan vaqtda korxona boshqaruvi uning faoliyatini tezkor aloqa vositalari, monitoring tizimlari va dispetcherlik xizmatlari orqali nazorat qiladi.

Mazkur xususiyatlar boshqaruv tizimiga alohida talablarni qo‘yadi. Xususan, boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish, transport jarayonlarini muvofiqlashtirish, uzluksiz aloqa tizimini tashkil etish hamda harakat xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois avtotransport korxonalarida boshqaruv shakllari va usullarini

takomillashtirish jarayonida ishlab chiqarishning o‘ziga xos jihatlarini to‘liq hisobga olish zarur bo‘ladi.

Shuningdek, transport xizmatlarini tashkil etishda mijozlar ehtiyojini o‘z vaqtida qondirish, tashish jarayonining uzluksizligini ta’minlash hamda barcha bosqichlarda bir maromdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish boshqaruv samaradorligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Bu esa raqamli texnologiyalar, dispetcherlik boshqaruvi va zamonaviy logistika yechimlarini keng joriy etishni talab etadi.

Avtotransport ishlab chiqarish tizimlari boshqaruv ob’ekti sifatida murakkab tashkiliy tuzilishga ega bo‘lib, o‘zining ko‘p bosqichli va turli yo‘nalishdagi faoliyati bilan boshqa ishlab chiqarish tizimlaridan ajralib turadi. Transport tizimida boshqaruv jarayonlari nafaqat texnik vositalarni, balki harakat jarayonlari, inson omili va xizmat ko‘rsatish sifati bilan bog‘liq ko‘plab elementlarni ham qamrab oladi.

Yo‘lovchi tashish tizimida boshqariladigan ob’ektlar tarkibiga shahar ichki avtobus yo‘nalishlari, shahar atrofi va shaharlararo transport marshrutlari, shuningdek, yirik sanoat hamda qurilish korxonalariga xodimlarni tashishga xizmat qiluvchi maxsus transport tizimlari kiradi. Avtotransport korxonalari ichida esa boshqaruvning asosiy ob’ektlari sifatida avtojamlanmalar, brigadalar, texnik uchastkalar, xizmat ko‘rsatish zonalari, dispetcherlik bo‘limlari va ish joylari faoliyat yuritadi.

Avtotransport ishlab chiqarish tizimining murakkabligi, avvalo, uning doimiy harakatdagi texnik vositalar bilan bog‘liqligi orqali namoyon bo‘ladi. Transport vositalarining real vaqt rejimida harakatlanishi ularning faoliyatini uzluksiz nazorat qilishni talab etadi. Bundan tashqari, marshrutlarning o‘zgaruvchanligi, yo‘lovchilar va mijozlar ehtiyojining muntazam ravishda almashib borishi, tashish jarayonida texnik xavfsizlikni ta’minlash hamda haydovchilar faoliyatini nazorat qilish zarurati boshqaruv tizimini yanada murakkablashtiradi.

Mazkur omillar zamonaviy avtotransport korxonalarida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashni taqozo etmoqda. Xususan, GPS monitoring tizimlari, elektron dispetcherlik markazlari, avtomatlashtirilgan nazorat platformalari va raqamli boshqaruv vositalari transport jarayonlarini samarali tashkil etishning muhim elementiga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida transport vositalarining harakati, yoqilg‘i sarfi, texnik holati hamda harakat xavfsizligi ko‘rsatkichlari tezkor monitoring qilinadi.

Avtotransport ishlab chiqarishini boshqarishning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyoti va aholining transport xizmatlariga bo‘lgan

ehtiyojini o‘z vaqtida, sifatli va uzluksiz ravishda qondirishdan iboratdir. Mazkur maqsadga erishish uchun korxonaning mavjud texnik, texnologik, iqtisodiy, tashkiliy va mehnat resurslaridan oqilona hamda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, zamonaviy menejment konsepsiyalariga ko‘ra, boshqaruv tizimining samaradorligi mijozlar ehtiyojini qanchalik darajada qondira olishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, avtotransport korxonalari faoliyatida asosiy e’tibor tashish xizmatlari sifati, xavfsizligi, tezkorligi va mijozlar uchun qulayligini oshirishga qaratilishi lozim. Natijada transport tizimining samarali boshqarilishi iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatining uzluksizligini ta’minlash va aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

9.2. Boshqaruv jarayonining mohiyati

Boshqaruv jarayoni korxona faoliyatini belgilangan maqsadlar asosida muvofiqlashtirish, tartibga solish va nazorat qilishga qaratilgan uzluksiz faoliyat tizimi hisoblanadi. Ushbu jarayon orqali boshqaruv organlari tanlangan usullar va vositalar yordamida korxona faoliyatining turli yo‘nalishlarini boshqaradi hamda umumiy strategik maqsadlarga erishishni ta’minlaydi.

Avtotransport korxonalarida boshqaruv jarayonlari murakkab va doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi xususiyatga ega. Chunki transport tizimi faoliyatiga ta’sir qiluvchi tashqi va ichki omillar muntazam ravishda yangilanib boradi. Bozor talabi, yo‘lovchi oqimi, texnik holat, yoqilg‘i narxlari, logistika sharoitlari hamda raqobat muhiti kabi omillar korxona faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli boshqaruv tizimi oldida turli darajadagi yangi vazifalar va muammolar doimiy ravishda yuzaga keladi.

Bunday sharoitda boshqaruv jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri samarali qarorlar qabul qilish va ularni amaliyotga tatbiq etishni tashkil etishdan iborat bo‘ladi. Aynan boshqaruv qarorlari korxona faoliyatining barqarorligini saqlash, resurslardan samarali foydalanish hamda transport xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muammo va qarorning iqtisodiy-boshqaruv mazmuni

Boshqaruv tizimida muammo deganda korxonaning amaldagi holati bilan erishilishi zarur bo‘lgan holat o‘rtasidagi tafovut tushuniladi. Ya’ni korxona faoliyatining mavjud natijalari belgilangan maqsad va kutilayotgan ko‘rsatkichlarga mos kelmagan vaziyat boshqaruv muammosi sifatida namoyon bo‘ladi. Muammoning yuzaga kelishi ko‘pincha resurslardan foydalanishdagi kamchiliklar, tashqi muhitdagi

o‘zgarishlar yoki boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida muammoni aniqlash jarayoni faqat mavjud holatni baholash bilan cheklanmaydi. Muhimi, ushbu holatning korxona maqsadlariga qanchalik mos kelishi va u tashkilot faoliyatiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini tahlil qilishdir. Shu bois boshqaruv tizimida muammoni to‘g‘ri aniqlash samarali qaror qabul qilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Qaror esa boshqaruv ob’ektini mavjud holatdan zarur yoki rejalashtirilgan holatga olib o‘tishga qaratilgan amaliy harakatlar tizimini ifodalaydi. Boshqaruv qarori turli muqobil variantlar ichidan eng maqbulini tanlash natijasida shakllanadi. Qaror qabul qilish jarayonida iqtisodiy samaradorlik, vaqt omili, mavjud resurslar, texnik imkoniyatlar hamda ehtimoliy xavflar hisobga olinadi.

Shuningdek, boshqaruv qarorini faqat ishlab chiqish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Uning amaliy ijrosi, nazorati va natijadorligini baholash ham boshqaruv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Aks holda, qabul qilingan qaror amaliyotga tatbiq etilmagan nazariy hujjat sifatida qolib ketishi mumkin.

Korxonada qabul qilinadigan har bir boshqaruv qarori tashkilotning strategik maqsadlari va rivojlanish yo‘nalishlariga mos bo‘lishi zarur. Shu sababli boshqaruv tizimida qarorlar qabul qilish jarayoni ilmiy asoslangan tahlil, tezkor axborot almashinuvi hamda zamonaviy boshqaruv usullariga tayangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir[360].

9.2-jadval.

Boshqaruv qaroriga qo‘yiladigan o‘n talabning tavsifi[361]

№	Talab nomi	Mazmuni va buzilish oqibati
1	Xususiy talablarga rioya qilish	Qaror tegishli yo‘riqnomalar, standartlar va reglamentlarga mos bo‘lishi kerak; aks holda ijrochilar qaysi hujjatga amal qilishni bilmaydi
2	Har tomonlama asoslanganligi	Qaror mantiqiy asosga, tahliliy ma’lumotlarga va raqamlarga tayanishi kerak; asossiz qarorlar moliyaviy zararlar va xato yo‘nalishlar keltirib chiqaradi
3	O‘z vaqtidagilik	Kech qaror ko‘pincha to‘g‘ri qarordan ko‘ra ko‘proq ziyon keltiradi — muammo o‘z-o‘zidan hal bo‘lmaydi, balki chuqurlashadi

[360] Raxmatullayev B.X. Korxona faoliyatini rejalashtirish. Toshkent: Moliya, 2020. 121-bet.
[361] *Manba: boshqaruv nazariyasi va ATK tarmoq amaliyoti asosida muallif tuzildi*

4	Mazmunan zaruriy to‘laqonlik	Barcha tafsilotlar, muddatlar va mas’ul shaxslar ko‘rsatilmagan qaror amalga oshirilmay qolish xavfini oshiradi
5	Vakolatlililik	Qaror uni qabul qilishga vakolati bo‘lgan shaxs tomonidan imzolanishi kerak; vakolatsiz qaror huquqiy kuchga ega emas
6	Oldingi qarorlarga zid bo‘lmaslik	Qarama-qarshi qarorlar ijrochilarda ikkilanishga va mas’uliyat tarqalishiga olib keladi
7	Huquqiylik (qonunlarga muvofiqligi)	Amaldagi me’yorlar va qonunlarga zid qarorlar ijrochini ham, tashkilotni ham yuridik javobgarlikka tortilishi mumkin
8	Aniqligi va lo‘ndaligi	Noaniq iboralar va ikki xil talqin qilinadigan formulirovkalar ijrochi uchun qiyinchilik yaratadi
9	Maqsadlar va mablag‘lar muvozanati	Qaror maqsadni belgilashi bilan birga unga erishish uchun zarur resurslarning mavjudligini ham ko‘rsatishi kerak
10	Majburiyligi (direktivaligi)	Qaror ijrosi ixtiyoriy emas, majburiy; nazorat tizimi bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim

Boshqaruv qarorlariga qo‘yiladigan ko‘plab talablar orasida eng muhimlari sifatida qarorning o‘z vaqtida qabul qilinishi, ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan bo‘lishi hamda uning ijrosi majburiy tarzda ta’minlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kechikib qabul qilingan yoki yetarlicha asoslanmagan qaror korxona faoliyatining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, qabul qilingan qarorlarning amalda bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatilmasa, boshqaruv tizimida kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi.

Zamonaviy boshqaruv amaliyotida qarorlar sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida qaror qabul qilish jarayonini aniq tartibga solish va uning barcha bosqichlarini tizimli ravishda tashkil etish e’tirof etiladi. Qaror qabul qilish mexanizmining tartibli va izchil tashkil qilinishi boshqaruv samaradorligini oshirish, mas’uliyatni taqsimlash hamda nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Qaror qabul qilish va uni amalga oshirish jarayoni odatda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat bo‘ladi. Ushbu bosqichlar muammoni aniqlash, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, muqobil variantlarni ishlab chiqish, eng maqbul variantni tanlash, qarorni rasmiylashtirish, uni amaliyotga joriy etish hamda natijalarni nazorat qilish kabi jarayonlarni qamrab oladi.

Amaliyotda mazkur bosqichlar doimo qat’iy ketma-ketlikda amalga oshirilavermaydi. Ayrim holatlarda yangi ma’lumotlarning paydo

bo‘lishi, tashqi muhitdagi o‘zgarishlar yoki kutilmagan vaziyatlar sababli oldingi bosqichlarga qaytish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli boshqaruv jarayoni moslashuvchan va takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lib, qaror qabul qilish tizimidan tezkorlik va yuqori darajadagi tahliliy yondashuvni talab qiladi.[362]

9.3-jadval.

Qaror qabul qilish va amalga oshirishning yetti bosqichi[363]

Bosqich	Nomi	Mazmuni va asosiy savol
I	Muammoni aniqlash	Muammo bormi? Nimada? Qaysi tizim elementida nomuvofiqlik yuzaga kelgan? Vaziyat tahlilini boshlash uchun asos
II	Muammoni tahlil qilish va vazifalarni qo‘yish	Muammoning ildizi nima? U qanchalik dolzarb? Uni yechishning maqsadi qanday ifodalanadi? Tahlil natijasida qarorning vazifasi shakllanadi
III	Qarorni tayyorlash	Muqobil yechimlar qanday? Har birining afzalligi va kamchiligi nima? Zarur resurslar mavjudmi?
IV	Maqbul variantlarni baholash va tanlash	Qaysi variant maqsadga eng muvofiq? Xarajat-foyda nisbati qanday? Xatarlar hisobga olinganmi?
V	Qarorni qabul qilish	Tanlangan variant rasmiy qaror shaklida rasmiylashtiriladi; imzolanadi; ijrochilarga etkaziladi
VI	Qarorni rejalashtirish va tashkil etish	Kim, nima, qachon bajaradi? Resurslar taqsimlanadi; muddatlar belgilanadi; javobgarlar tayinlanadi
VII	Qarorning bajarilishini nazorat qilish	Bajarildi yoki yo‘qmi? Agar yo‘q — sababini aniqlash va korrektiv chora ko‘rish

Yuzaga kelgan muammoni chuqur tahlil qilish natijasida boshqaruv qarorining asosiy vazifalari belgilanadi, muammoning dolzarblik darajasi aniqlanadi hamda uni hal etishdan ko‘zlangan maqsadlar shakllantiriladi. Boshqaruv jarayonida muammoni to‘g‘ri baholash va uning sabablarini aniqlash samarali qaror ishlab chiqishning muhim bosqichlaridan biri

[362] Cyert R.M., March J.G. A Behavioral Theory of the Firm. 2nd ed. Oxford: Blackwell, 1992. P. 117

[363] *Manba: boshqaruv nazariyasi va tizimli tahlil asosida muallif tuzildi*

hisoblanadi. Chunki aynan muammoning mazmuni va ko‘lamini aniq tushunish keyingi amaliy harakatlarning yo‘nalishini belgilab beradi.[364]

Maqsadlarni shakllantirish jarayonida qarorning kimga va qaysi faoliyat yo‘nalishiga qaratilganligini aniq belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Avtotransport korxonalarida qabul qilinadigan qarorlar nafaqat iqtisodiy natijalarga, balki mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati, ichki ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligi hamda korxonaning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli zamonaviy boshqaruv tizimida maqsadlarni kompleks yondashuv asosida baholash muhim hisoblanadi. Bunda korxona faoliyati moliyaviy natijalar, mijozlar manfaatlari, ichki jarayonlar samaradorligi va innovatsion rivojlanish imkoniyatlari nuqtai nazaridan birgalikda tahlil qilinadi. Bunday yondashuv boshqaruv qarorlarini yanada puxta asoslash, resurslardan samarali foydalanish hamda korxonaning strategik rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi.

Natijada boshqaruv qarorlari faqat qisqa muddatli iqtisodiy foydaga emas, balki transport xizmatlari sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

9.3. Transport korxonalarida ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy maqsadlari

Transport Transport korxonalarida ishlab chiqarishni boshqarish tizimi, avvalo, korxona faoliyatining umumiy strategik maqsadlariga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Boshqaruv jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun asosiy maqsadlarni aniq belgilash, ularni o‘zaro uyg‘unlashtirish hamda yakuniy natijalarga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshqaruv tizimining barcha bo‘g‘inlari yagona maqsad asosida faoliyat yuritgandagina korxonaning barqaror va samarali ishlashi ta’minlanadi.

Transport korxonalarida boshqaruv maqsadlari o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega. Ular ma’lum bir ketma-ketlik va ustuvorlik asosida shakllanadi hamda yagona boshqaruv tizimining tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli boshqaruvning ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha natijadorlik past bo‘lsa, bu holat boshqa maqsadlarga erishish jarayoniga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

[364] Raxmatullayev B.X. Korxona faoliyatini rejalashtirish. Toshkent: Moliya, 2020. 121-bet.

Ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy maqsadlari qatoriga transport xizmatlari sifatini oshirish, tashish jarayonining uzluksizligini ta’minlash, texnik vositalardan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda mijozlar ehtiyojini to‘liq qondirish kabi vazifalar kiradi. Bundan tashqari, korxona resurslaridan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, harakat xavfsizligini ta’minlash va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish ham muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, transport korxonalarida boshqaruv maqsadlarini amalga oshirish jarayoni bozor talablari, raqobat muhiti, texnologik rivojlanish va mijozlar ehtiyojidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois boshqaruv tizimi doimiy ravishda moslashuvchan va innovatsion yondashuv asosida takomillashtirib borilishi zarur.

Natijada ishlab chiqarishni samarali boshqarish transport korxonasining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, xizmat ko‘rsatish sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda transport tizimining umumiy samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

9.4-jadval.

ATK ishlab chiqarishini boshqarishning sakkiz asosiy maqsadi[365]

№	Maqsad nomi	Mazmuni va o‘lchamlari
1	Tashish rejasini bajarish	Tashish hajmi bo‘yicha rejalar, topshiriqlar va shartnomaviy majburiyatlarni belgilangan muddatlarda tashilayotgan yuklarning saqlanishini ta’minlagan holda muntazam bajarish. O‘lchov: reja/haqiqiy nisbat, vaqtida bajarilgan buyurtmalar ulushi
2	Tashish sifatini yaxshilash	Tashish tarkibi, ularning muntazamligi va muddatining xizmat ko‘rsatiladigan korxonalar (mijozlar) ehtiyojlariga doimiy monandligini ta’minlash. O‘lchov: mijoz shikoyatlari soni, punktuallik darajasi
3	Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash	Transport vositalaridan intensiv foydalanishni ta’minlash; passiv ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish darajasini oshirish; TXK va JT ni tashkil etish darajasini yaxshilash. O‘lchov: avtomobillar yuklarlanish koeffitsienti, texnik tayyor holat koeffitsienti

[365] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va ATK tarmoq normativlari asosida muallif tuzildi*

4	Resurslardan foydalanishni yaxshilash	Mehnat, yoqilg‘i-energetik, moddiy (birinchi navbatda ehtiyot qismlar va materiallar), moliyaviy resurslardan intensiv foydalanishni yaxshilash. O‘lchov: 100 km ga yoqilg‘i sarfi, bir transport vositasiga to‘g‘ri keluvchi xodimlar soni
5	Ilmiy-texnik rivojlanishni ta’minlash	Ishlab chiqarishni doimo qayta qurish va modernizatsiyalash asosida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlarini qo‘llagan holda ishlab chiqarish va texnik bazani mustahkamlash. O‘lchov: yangi texnologiyalar joriy etilgan uchastkalar ulushi
6	Jamoaning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash	Jamoa a’zolarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, mehnat, maishiy va dam olish sharoitlarini yaxshilash. O‘lchov: xodimlar qoniqishi indeksi, kadrlar almashinuv darajasi
7	Tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish	Tashkil etishning ilg‘or shakllarini va usullarini qo‘llagan holda transport jarayoni, TXK va JT ni tashkil etishni va ularni tezkor boshqarishni ta’minlash. O‘lchov: boshqaruv xarajatlari ulushi, qarorlar qabul qilish vaqti
8	Atrof-muhitni muhofaza qilish	Atrof-muhitga avtomobillarning ta’siri bo‘yicha me’yorlarni bajarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tiklash. O‘lchov: zararli chiqindilar miqdori, Euro emissiya standarti bajarilishi

Sakkizinchi strategik maqsad sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi zamonaviy transport tizimida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda transport faoliyatining ekologik holatga ta’siri tobora kuchayib borayotgani sababli, avtotransport korxonalari oldida ekologik xavfsizlikni ta’minlash muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar hajmini kamaytirish, yoqilg‘i sarfini optimallashtirish hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish transport korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, ekologik me’yor va standartlarga rioya qilish nafaqat qonunchilik talablarini bajarish, balki korxonaning ijtimoiy mas’uliyatini namoyon etuvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.[366] Zamonaviy bozor sharoitida ekologik talablarga amal qiluvchi transport korxonalari mijozlar ishonchini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish hamda o‘z faoliyatining barqarorligini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

[366] World Bank. Urban Transport and Climate Change. Washington D.C., 2020. P. 27.

Belgilangan maqsadlarni amalga oshirish boshqaruv sub’ektlari zimmasiga yuklatiladi. Avtotransport ishlab chiqarishini boshqarish tizimi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Ushbu tizimning asosiy elementlari boshqaruv jarayonining uzluksiz va samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Birinchi element — chiziqli rahbariyat tizimi bo‘lib, u korxona faoliyatining umumiy boshqaruvini amalga oshiradi hamda strategik qarorlarni qabul qiladi. Ikkinchi element transport va boshqa ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita boshqarishga xizmat qiladi. Mazkur tizim tashish jarayonlari, texnik xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish faoliyatining kundalik muvofiqlashtirilishini ta’minlaydi.

Uchinchi element boshqaruv faoliyatini ta’minlovchi yordamchi tizimlardan iborat bo‘lib, ular moddiy-texnik, moliyaviy va tashkiliy resurslarni boshqarishga xizmat qiladi. To‘rtinchi element esa ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va boshqaruv qarorlarini tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi axborot tizimidir. Zamonaviy sharoitda ushbu tizim raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari asosida faoliyat yuritadi.

Beshinchi kichik tizim boshqaruvning maxsus funksiyalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, rejalashtirish, nazorat qilish, tahlil va monitoring jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Oltinchi element esa korxonaning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi maqsadli dasturlarni shakllantirish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshiradi.

Shunday qilib, avtotransport korxonalarining boshqaruv tizimi ko‘p bosqichli va murakkab tuzilishga ega bo‘lib, uning samarali faoliyat yuritishi barcha kichik tizimlarning o‘zaro uyg‘un va muvofiqlashtirilgan holda ishlashiga bog‘liqdir.

Avtotransport korxonasining boshqaruv tizimini tashkil etuvchi oltita kichik tizim o‘zaro chambarchas bog‘langan holda faoliyat yuritadi va yagona yaxlit boshqaruv mexanizmini shakllantiradi. Ushbu tizimlarning har biri ma’lum funksiyalarni bajarishiga qaramasdan, ular bir-birini to‘ldiruvchi va umumiy maqsadga xizmat qiluvchi elementlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli boshqaruv tizimining samaradorligi barcha kichik tizimlarning uyg‘un va muvofiqlashtirilgan faoliyatiga bevosita bog‘liqdir.[367]

[367] Savitskaya G.V. Analiz khozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. 5-nashr. Minsk: Novoe znanie, 2009. 326-bet.

9.5-jadval.

Avtotransport ishlab chiqarishi boshqaruv tizimining olti kichik tizimi[368]

Kichik tizim nomi	Asosiy vazifasi	Tarkibiy elementlari
Chiziqli rahbariyat	Bevosita ishlab chiqarish bo‘linmalarini boshqarish	Korxona direktori, bo‘lim boshliqlar, ustalar, brigadirlar
Bevosita boshqaruvchi kichik tizim	Transport va boshqa ishlab chiqarish jarayonlarini operativ boshqarish	Dispetcherlik xizmati; transport harakati nazorati; marshrut rejalashtirish
Boshqaruvni ta’minlovchi kichik tizim	Boshqaruv jarayoniga zarur resurslar va shart-sharoit bilan ta’minlash	Iqtisodiy xizmat; kadrlar bo‘limi; moddiy-texnik ta’minot bo‘limi
Ma’lumot to‘plovchi va tayyorlovchi kichik tizim	Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot bazasini shakllantirish	Statistik hisobot; monitoring tizimi; buxgalteriya hisobi
Maxsus funktsiyalar kichik tizimi	Boshqaruvning ixtisoslashgan yo‘nalishlarini amalga oshirish	Marketing bo‘limi; texnik nazorat; xavfsizlik bo‘limi
Maqsadli kichik tizim	Strategik maqsadli dasturlarni shakllantirish va kuzatib borish	Strategik rejalashtirish bo‘limi; KPI tizimi; boshqaruv monitoringi

Amaliy faoliyatda ayniqsa axborot almashinuvi jarayonining tezkorligi va aniqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki boshqaruv tizimida axborot oqimining uzilishi yoki kechikishi transport jarayonining umumiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Avtotransport tizimida yuzaga keladigan har qanday nosozlik, texnik muammo yoki tashkiliy uzilish haqida o‘z vaqtida ma’lumot berilmasa, bu boshqaruv qarorlarining kechikishiga olib keladi.

Masalan, haydovchi yo‘nalish davomida yuzaga kelgan muammoni dispetcherlik xizmatiga tezkor ravishda yetkazmasa, transport harakati jadvalining buzilishi, xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishi hamda

[368] *Manba: avtotransport tarmoq amaliyoti va boshqaruv nazariyasi asosida muallif tuzildi*

mijozlar noroziligining ortishi kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Ayrim hollarda bunday uzilishlar korxonaning iqtisodiy zarar ko‘rishiga va mijozlar ishonchining pasayishiga ham sabab bo‘ladi.

Shu bois zamonaviy avtotransport korxonalarida boshqaruv tizimini raqamlashtirish va real vaqt rejimida ishlovchi dispetcherlik tizimlarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. GPS monitoring, elektron aloqa vositalari, avtomatlashtirilgan boshqaruv platformalari va raqamli nazorat tizimlari transport jarayonlarini tezkor boshqarish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar yordamida transport vositalarining harakati, texnik holati va xizmat ko‘rsatish jarayonlari doimiy nazorat ostida bo‘ladi.

Natijada axborot oqimining uzluksizligi va boshqaruv tizimining tezkor ishlashi avtotransport korxonalarida xizmatlar sifati, harakat xavfsizligi hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

9.4. Ishlab chiqarishni boshqarishning mohiyati. Ishlab chiqarishni boshqarish usullari.

Ijtimoiy ishlab chiqarish butun tizimining faoliyat ko‘rsatishi faqat milliy iqtisodiyot, tarmoq va korxona boshqaruvini qamrab oluvchi boshqaruv jarayoni mavjud bo‘lgandagina amalga oshirilishi mumkin. Bunda o‘z mohiyati jihatidan ishlab chiqarishni boshqarish jarayoni kutiladigan natijalarga erishish uchun zaruriy holatga o‘tkazish maqsadida tegishli ishlab chiqarish tizimining tarkibiy qismlariga (komponentlariga) ta’sir etish sifatida tavsiflanadi.

Ishlab chiqarish va boshqaruvni ajratish nafaqat ularning turli mazmun-mohiyati bilan, balki jarayonlarning xususiyatlari, aniq ijtimoiy-iqtisodiy ob’ektning maqsadlariga erishishga ta’sir qiluvchi turli uslub va vositalar bilan taqozalanadi.

Xar bir korxona murakkab ijtimoiy – texnikaviy tizim bo‘lib, bunda ishlab chiqarish jarayonida ko‘p sonli ashyoviy elementlar, odamlar resurslari va axborotli aloqalar integrallashadi. Shu bilan birga u boshqaradigan (boshqaruv sub’ekti) va boshqariladigan (boshqaruv ob’ekti) kichik tizimlardan iborat bo‘lgan o‘z boshqaruv tizimiga egadir.

Boshqaradigan kichik tizim bo‘lib boshqaruv organlari (ma’muriy-boshqaruv apparati), boshqariladigan esa – boshqaradigan kichik tizimdan keladigan farmoyishli axborot asosida ishlab chiqarish jarayonini bevosita amalga oshiruvchi korxona jamoasi hisoblanadi.

Korxona xulki tizim sifatida alohida kichik tizimlar va umuman butun tizimning vaqt buyicha holatining o‘zgarishini tavsiflaydi. Korxona xulkining asosiy tavsifi bo‘lib tizimning kirish va chiqishida o‘zgarishlarni solishtirish hamda kerakli yunalishda tashqi sharoitlarning o‘zgarishi, bozorda talab va taklif funksiyalarining muvofiqlik darajasiga nisbatan chiqishning qanchalik tez o‘zgarishi hisoblanadi.

Tizim holati va xulkini baholash teskari aloqa yordamida amalga oshirilib, u boshqaruv ob’ektiga o‘zgartiruvchi ta’sirning shakllanishi uchun baza bo‘lib xizmat kiladi. Boshqaruv tizimlarida teskari aloqa deganda shunday aloqa tushuniladiki, u boshqariladigan kichik tizimdan boshqaradiganga axborotlar borishini ta’minlaydi. U tashqi va ichki (ma’lum ob’ektga nisbatan) muhitning ajablanarli ta’sirini sintezlaydi, turli sabab-oqibatli aloqalarni aks ettiradi.

Teskari aloqa buxgalterlik hisobi, statistik va tezkor hisobot ma’lumotlari orkali boshqariladigan kichik tizim ishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zatish shaklida amalga oshiriladi.

Murakkab tizimlarni o‘rganish, loyihalash va optimal boshqarish uchun tizimli yondashuv qo‘llaniladi. Uning mohiyati shundaki, boshqaruvning har qanday tizimi faoliyat va rivojlanishning maqsadlari, resurslar, tuzilma, jarayonlar va boshqa tizimlar bilan o‘zaro aloqalari bilan tavsiflanadigan yaxlit, mustaqil vokelik sifatida kuriladi.

Xar qanday tizimning asosiy tasnifiy tavsifi bo‘lib uning murakkablik ko‘rsatkichi hisobdanadi. Bu belgi bo‘yicha barcha tizimlar uch guruhga bo‘linadi – oddiy, murakkab va o‘ta murakkab. Korxona boshqaruv ob’ekti sifatida murakkab, extimolli tizim bo‘lib hisoblanadi, chunki ushbu tizim elementlarining soni va ularning o‘rtasidagi o‘zaro aloqalari keng ko‘lamli, alohida elementlarining o‘zgarishi esa tasodifiy harakterga egadir.

Korxona boshqaruv tizimi bo‘linuvchan bo‘lib, o‘zaro ma’lum munosabatlarda bo‘lgan kichik tizimlar va elementlarni qamrab oladi.

Xar qanday korxona atrof-muhitda faoliyat ko‘rsatuvchi va u bilan muloqatda buluvchi ochiq tizim sifatida namoyon buladi. Bu tizim quyidagilarni nazarda tutadi:

- kirish – materiallar ko‘rinishida resurslar, bilimlar va axborotlar;
- ishlab chiqarish jarayoni – resurslarni tayyor mahsulotga aylantirish;
- chiqish – tayyor mahsulotni chiqarish (avtomobil transporti uchun – yuk va yo‘lovchilarni tashish).

Korxona boshqaruv tizimi ierarxiyali (ko‘p pog‘onali) bo‘lib hisoblanadi, chunki uning tarkibida o‘zaro bo‘ysunishiga asoslangan munosabatlarda bo‘lgan turli pog‘onadagi kichik tizimlardan iborat.

Korxona boshqaruv tizimi emerjent (ingl. Emergent – tusatdan sodir, paydo bo‘luvchi) xususiyatga ega bo‘lib, u tizimning yangi sifati sakrash bilan paydo

bo‘lishi hamda tizim umumiy xolda elementlari xususiyatlarining oddiy yigindisiga nisbatan yangi xususiyatlari bilan tavsiflanishini anglatadi.

Boshqaruv tizimining eng muhim xususiyati bo‘lib uning dinamizmi, ya’ni boshqaruvli ta’sirni anglash va yangi holatga utish kobiliyati hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni boshqarish usullari.

Boshqaruv vazifalari boshqaruv usullari yordamida amalga oshiriladi. Boshqaruv usullari – qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun boshqaruv ob’ektiga ta’sir qilishning aniq yullari, shakllari,priyomlaridir.

Mehnat jamoalariga ta’sir etish buyicha boshqaruvning barcha usullari quyidagi uch guruhga bo‘linadi:

- iqtisodiy usullar;
- tashkiliy-farmoyishli usullar;
- ijtimoiy-ruxiy usullar;

Boshqaruvning iqtisodiy usullari ob’ektiv iqtisodiy konunlar va jamiyatning manfaatlarini hisobga olishga asoslangan xo‘jalik yuritish usullaridan iborat. Ular boshqaruv ob’ektiga bilvosita ta’sir etuvchi turli usullarni o‘z ichiga oladi: xo‘jalik hisobi, narxlarning shakllanishi, moliyalashtirish, kreditlash, iqtisodiy sanktsiyalar va ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida moddiy rag‘batlantirish. Boshqaruvning iqtisodiy usullari korxonalar, ularning jamoalari va har bir xodimning ularga yuklatilgan vazifalarni yaxshi natijalar bilan bajarishlarini yuqori moddiy rag‘batlantirish va shu bilan bir vaqtda mas’uliyatlarini oshirishni ta’minlashga qaratilgan.

Tashkiliy-farmoyishli usullar boshqaruvning ixcham tuzilmasini ishlab chiqish, boshqaruv apparatining huquqlari, vazifalari va ma’suliyatini aniq belgilash, kadrlarni to‘g‘ri tanlash va joy-joyiga ko‘yish, qabul qilinadigan qarorlarni batafsil tayyorlash va ularning bajarilishi bo‘yicha nazoratni to‘g‘ri tashkil etish, boshqaruvning barcha bo‘g‘inlarida intizomning yuqori darajasini ushlab turishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarishni boshqarish faqat iqtisodiy, tashkiliy va muxandisli-texnikaviy masalalarni yechish bilan kifoyalanmasligi kerak,

shuningdek odamlar mehnat faoliyatining ijtimoiy va ruxiy qirralari xam hisobga olinishi lozim.

Ijtimoiy-ruxiy usullar boshqaruv tizimiga turli xil rag‘batlantirishlar va moyilliklar orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatib, malaka oshirish, ijtimoiy rag‘batlantirish, mehnatkashlar faolligini oshirish, ishlab chiqarish jamoalarida sog‘lom ruhiy muhitni yaratish va saqlash masalalarini qamrab oladi.

Boshqaruvning ijtimoiy usullari jamoaning shakllanish va rivojlanish jarayonlari hamda jamoada kechadigan ijtimoiy jarayonlarga ta’sir qilishning aniq usullari va primyolaridan iborat. Ijtimoiy usullar tarkibiga ijtimoiy muvofiqlashtirish, ijtimoiy me’yorlash, ijtimoiy rejalashtirish va ma’naviy rag‘batlantirish kiradi. Ruxiy usullar jamoada optimal ijtimoiy-ruxiy muhitni yaratish yuli bilan organlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga yunaltirilgan. Ruxiy usullar kichik jamoalarni shakllantirish, mehnat gumanizmi, malakaviy tanlash va o‘qitish, xodimlarning mehnatga ruhiy moyilligini o‘z ichiga oladi.

Boshqaruvning ta’kidlangan usullari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib yagona majmuani tashkil etadi. Ularni usullar tizimi sifatida ko‘rish lozim.

9.5. Davlat aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasi korxonalarini iqtisodiy-ijtimoiy tashkil etish hususiyatlari. Boshqarish mexanizmi tuzilmasi va uning vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 2-martdagi “Temir yo‘l transportini monopoliyadan chiqarish va aksiyalashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonini bajarish va “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik kompaniyasining boshqaruv tizimini takomillashtirish, temir yo‘l transporti korxonalarini xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, rivojlantirish, texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish uchun investitsiyalar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar jalb etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 3-martdagi “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik kompaniyasini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 108-sonli qarori bilan “O‘TY” DATK boshqaruvining yangi tuzilmasi ma’qullandi.

DATK korxonalarining ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatini boshqarishning yangi tuzilmasi asosini bozor munosabati sharoitida kam xarajat bilan ishlab chiqarishning o‘sishini va uning samaradorligini

oshirishni ta’minlaydigan ekspluatatsiya funksiyalarini taqsimlash va infratuzilmaga javobgarlik tashkil qiladi.

Tarmoqni markazlashgan boshqaruv tizimidan bosqichma-bosqich chiqarish va xo‘jalik yuritishning bozor mexanizmiga hamda xo‘jalik sub’yektlarining o‘zaro shartnoma munosabatlarga asoslangan xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy boshqaruv usullariga o‘tishi qayta qurishning tub mohiyatini ifodalaydi.

Temir yo‘l transportining bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashi korporativ tuzilma shakllanishi va rivojlanib borishi bilan kuzatiladi.

Korporativ boshqarish – tarmoqdagi sifat jihatdan yangicha tuzilmaviy holatda boshqarish bo‘lib, uning xarakterli tomoni quyidagilardir:

– korporativ boshqaruv tarkibida xo‘jalik yuritishning aksioner, aralash, transmilliy va boshqa shakllari bo‘lishi;

– iqtisodni huquqiy-me’yoriy aktlarga asoslangan, muvofiqlashtirilgan boshqarish jarayonini erkinlashtirish, shuningdek, korxonaning nizomiy va strategik o‘sishi;

– integratsiya natijasida iqtisodiy ishlab chiqarish tizimining turli bo‘g‘inlarini bir xil shaklda boshqarish orqali keng ko‘lamli samaraga erishish;

– tarmoqda korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish;

– korporativ tuzilmaning xo‘jalik yuritish faoliyatiga davlat xokimiyati organlari aralashuvini cheklash;

– korporativ xo‘jalik yuritish shakllanishi va rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash;

– ishlab chiqarishni boshqarishda aksionerlarning faol ishtiroklarini ta’minlash va korxona ishidagi samaradorlik hamda sifatni oshiradigan omillarni kuchaytirish.

Korporativ boshqaruvda mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning faoliyatini kuchaytirish, ularning xo‘jalik yuritish faoliyati natijalariga mas’uliyatini oshirish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar to‘g‘risida”gi qonunining “Korxonani boshqarish” bo‘limiga asosan korxona o‘z nizomiga muvofiq boshqariladi. Korxona boshqaruv tuzilmasi, shakli, uslubi va shtat jadvalini mustaqil belgilaydi. “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi qonunda transport markazlashgan holda boshqarilishi alohida belgilangan.

Temir yo‘lni boshqarish tamoyillari bu majburiy boshqarish qonuni, intozimning asosiy nizomi va me’yorlari.

O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar to‘g‘risida”gi qonuniga asosan korxona rahbari korxona faoliyati bilan bog‘liq masalalarni mustaqil hal qiladi, korxona nomidan ishonch qog‘ozisiz ish olib boradi, shartnomalar tuzadi, ishonch qog‘ozi beradi, bankda hisob raqami ochadi, mablag‘larni tasarruf etish huquqidan foydalanadi, ma’muriyatning ijroiya apparati shtatlarini tasdiqlaydi, korhonaning barcha xodimlari uchun majburiy buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi.

Davlat va mehnat intizomiga rioya qilish temir yo‘l transporti uchun katta ahamiyatga ega, chunki yuk va yo‘lovchi tashish ishlarining bajarilishi, tashish va o‘tkazish imkoniyatlarini ta’minlash har bir ishchi o‘z majburiyatlarini aniq bajarishiga bog‘liq.

Kadrlarni to‘g‘ri tanlash va joylashtirish temir yo‘l transporti ishining asosidir. Rahbar yuqori malakali, kerakli mehnat ko‘nikmasiga, ma’naviy hislatlarga ega yahshi mutahassis, jamoa ishi istiqbolini belgilay oladigan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5 noyabr 2002 yildagi “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik kompaniyasining boshqarish tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan temir yo‘l transportining tarkibiy bo‘limlarini boshqarish MTU (Mintaqaviy temir yo‘l uzeli) orqali amalga oshiriladi va “O‘TY” DATK ning har bir bo‘limlaridagi holatiga javobgarlik ular zimmasiga yuklatiladi.

“O‘TY” DATK korxonalari va tarkibiy bo‘limlari xo‘jalik moliyaviy faoliyati to‘g‘risidagi Nizomi 01.05.2003 yilda tasdiqlangan.

28.08.2003 yilda N292-H “O‘TY” DATK “Ishchilar mehnatiga haq to‘lash sharoitlarini o‘zgartirish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Boshqaruv tizimini takomillashtirish quyidagilarni nazarda tutadi:

– xo‘jalik faoliyatiga aralashishni kamaytirish maqsadida boshqaruvning yuqori bo‘g‘ini bilan tarkibiy bo‘linmalarining vakolatlarini chegaralash;

– tashish jarayoni qatnashchilari o‘rtasida boshqaruv va xo‘jalik aloqalari tizimiga bozor tamoyili va mexanizmlarini tadbiq etishga. Bu rahbarlarga talab bozorini doimo o‘rganishni tashkil etish, salohiyatli iste’molchilarga yangi xizmat turlarini ko‘rsatishda tashabbuskor bo‘lish va shu orqali moliyaviy resurslar manbalarini ko‘paytirishga sharoitlar yaratadi;

– transport jarayoni alohida operatsiyalarini bajarish bo‘yicha amaldagi qonun hujjatlari doirasida xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning mustaqilligini va javobgarligini oshirish. Bu ularning faoliyat natijalari uchun resurslarni samarali ishlatish, ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini oshirish manfaatini kuchaytiradi. Xo‘jalik faoliyati mustaqilligini kengaytirish, rahbarlarga yordamchi ishlab chiqarish mahsulot turlarini va sotish hajmini oshirish uchun tashabbus ko‘rsatishga imkon beradi;

– temir yo‘l transporti majmuasini rekonstruktsiyalash, yangilash va zamonaviylashtirishga chet el kapitalini jalb etish uchun qulay sharoit yaratish. Bu orqali ishlab chiqarish salohiyatini o‘sishi ta’minlanadi, sotish hajmi va u bilan bog‘liq daromadni oshirishga yo‘l ochib beradi.

Yangi tuzilma bo‘yicha kompaniya tarkibiga MTU lar bilan bir qatorda, faoliyat tavsifi bo‘yicha farqlanadigan korxona va muassasalarning alohida funksional bo‘linmasidan tashkil topgan besh guruh kiradi:

– tashish jarayonini ta’minlovchi bo‘linmalar;
– tashishga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar;
– ta’mirlash ishlab chiqarish korxonalari;
– ta’mirlash - qurilish va ishlab chiqarish infratuzilmasi;
– ijtimoiy infratuzilmalar.

Tashish jarayonini ta’minlovchi bo‘linmalarga DATKning funksional boshqarma, markaz va ularning filiallari, umumyo‘l tuzilmaviy bo‘linmalari, jumladan (alohida balans chiqarilganlari) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asosan yuridik shaxs bo‘lmaganlar: Yo‘l xo‘jaligi boshqarmasi, Signallashtirish va aloqa boshqarmasi, Elektr ta’minot markazi, Lokomotivlarni ekspluatasiya qilish bo‘yicha boshqarma, yagona dispetcherlik markazi va boshqalar kiradi.[369]

DATKning yangi tuzilmasida yuk tashishga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarga “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” OAJ, “Yo‘lreftrans” OAJ, “O‘ztemiryo‘lkonteyner” OAJ, “O‘ztemiryo‘l ekspeditsiya” UK va MTUlar kiradi (4-rasm).

O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol - mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy xuquqlarga ega bo‘la oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda

[369]O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 3 avgustdagi “O`zbekiston temir yo`llari” davlat aktsiyadorlik komponiyasini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish to`G`risida”gi 366 - sonli qarori.

da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shahs hisoblanadi (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 39- moddasi).

Demak, korxona – davlat tizimining elementidir, shu sababli u davlat siyosatidan va davlat boshqaruvidan butunlay holi bo‘lishi mumkin emas.

Iqtisodiyoti markazlashgan davlatlardagi bozor munosabatlarini liberallashtirishga qaratilgan islohatlar, ishlab chiqarish jarayonini chetlab o‘tsada, shu vaqtning o‘zida, kimning mulkiy javobgarligida bo‘lishidan qat’iy nazar, korxonada rejalashtirish tizimini va mehnatga moyillashtirishni tubdan o‘zgartiradi.

*Mintaqaviy temir yo‘l uzeli ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishni tashkillashtirish va uning xususiyatlari MTUning moddiy tehnika bazasi, mablag‘lari va daromadlari.*Temir yo‘l tizimini tashkil etishni yanada takomillashtirish, uni boshqarishda funksional va hududiy yondashuvlarning yanada mustahkam o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash, yuk tashishlarni boshqarish tizimini markazlashtirishdan chiqarish darajasini oshirish, shuningdek temir yo‘l transporti texnika vositalarini saqlash va ularga xizmat ko‘rsatish tizimini yaxshilash maqsadida O‘zbekistion Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 5 noyabrdagi 378-sonli “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik kompaniyasining tugatilayotgan “O‘ztemiryo‘lyuktrans” yuk tashish boshqarmasi hamda uning mintaqaviy markazlari, shuningdek kompaniyaning tarkibiy bo‘linmalaridan yo‘l xo‘jaligi, elektr ta’minoti, signallashtirish va aloqa uchastkalari, shuningdek Toshkent, Qo‘qon, Buxoro, Qarshi funksional – foydalanish vagon depolari negizida mintaqaviy (Toshkent, Qo‘qon, Buxoro, Qo‘ng‘irot, Qarshi-Termiz) temir yo‘l uzellari tashkil etish to‘g‘risidagi taklif qabul qilindi.

Shu qaror asosida MTU kompaniya tarkibiga sho‘’ba korxona tariqasida kiradi va belgilangan chegaralarda iste’molchilariga temir yo‘l transporti xizmati ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish xo‘jalik majmuasi bo‘lib hisoblanadi.

Uzelning faoliyati O‘zbekistion Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekistion Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, temir yo‘l transportida harakat xavfsizligini nazorat qilish bo‘yicha Davlat inspektsiyasi qarorlari, yuklarni tashish qoidalari, kompaniya boshqaruvi raisi buyruqlari, boshqa me’yoriy hujjatlar, shuningdek MTU Nizomi asosida amalga oshiriladi. Uzel Nizomi kompaniya raisi tomonidan tasdiqlanadi.



9.1-rasm. Mintaqaviy temir yo‘l uzellarining (MTU) tashkiliy tuzilmasi

MTUning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– aholi va xo‘jalik sub’yektlarini temir yo‘l tashishlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘la va o‘z vaqtida qondirish;

– tashish mintaqaviy bozori konyukturasini o‘rganish, ularning infratuzilmasini shakllantirish, shuningdek temir yo‘l tarmoqlarini rivojlantirish chora - tadbirlarini amalga oshirish;

– temir yo‘l transportining xizmat ko‘rsatiladigan hudud doirasida barqaror va havfsiz ishlashini ta’minlash, foydalanuvchilarga keng ko‘lamda temir yo‘l xizmatlarini ko‘rsatish;

– joylardagi davlat xokimiyati va boshqaruv organlari bilan birgalikda temir yo‘l transporti bo‘linmalarining moddiy - texnika bazasini mustahkamlashga doir chora - tadbirlar majmuasini amalga oshirish;

– xizmat ko‘rsatiladigan hududdagi temir yo‘l tarmoqlarining barqaror ishlashini, hamda temir yo‘llarni o‘tkazish qobiliyatini oshirish chora - tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasi chegaralari orqali yuk va yo‘lovchilarni tashish borasida joylardagi bojxona va soliq organlari, chegara xizmati bilan aniq muvofiqlashtirilgan holda o‘zaro hamkorlikni ta’minlash.

Mintaqaviy temir yo‘l uzelining huquq va majburiyatlari:

– Uzel tarkibiga kiruvchi bo‘linma xodimlari “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATK xodimlari uchun belgilangan barcha huquq va imtiyozlardan foydalanadilar;

– “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATKsi Uzel majburiyatlari bo‘yicha mas’ul bo‘lmagandek “O‘zbekiston temir yo‘llari” DATKsi Uzel majburiyatlari bo‘yicha javobgar emas;

– “O‘zbekiston temir yo‘llari” tarkibiga kirmaydigan korxona va muassasalar uchun ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar bo‘yicha shartnomalar orqali erkin narxlar belgilash;

– Uzel vakolati chegarasida birgalikda ishlamoqchi bo‘lgan boshqa korxonalar va alohida shaxslar bilan o‘zaro faoliyatni amalga oshirish;

– Kompaniyaning ruxsati bo‘yicha, uning nomidan, ishchilar oyligini to‘lash uchun kreditlar olish va uni to‘lash.

Mintaqaviy temir yo‘l uzeli (MTU) temir yo‘l transportining asosiy ishlab chiqarish korxonasidir.

Uning faoliyati tashish jarayonini tashkillashtirish va uni uzliksiz bosh-qarishdan iborat. Shu vaqtning o‘zida, tarkibidagi yuridik va xo‘jalik mus-taqilligini saqlab qolgan bo‘limlarning xo‘jalik hisobidagi birlashmasidir.

Tarkibiy bo‘limlar faoliyatining yagona maqsadi - berilgan tashish hajmini ta’minlash va transport ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Shu bilan birgalikda MTUning har bir tarkibiy bo‘limi o‘zining zimmasidagi tashish jarayoniga tegishli bo‘lgan aniq texnologik jarayonga javob beradi. Shu sababli MTU rejasi uning tarkibidagi ishlab chiqarish - xo‘jalik bo‘limlari rejasi yig‘indisidan tashkil topgan oddiy reja bo‘lishi mumkin emas.

MTU rejasi majmuaviy ko‘rsatkichlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, butun MTU bo‘yicha ishlab chiqilgan tadbirlar, hisob - kitoblardan va tarkibidagi bo‘limlar rejalaridan iborat.

Rejani ishlab chiqishda MTU ko‘rsatkichlari tizimi, turli yo‘nalishlarda xo‘jalik faoliyatini olib boruvchi tarmoq tarkibiy bo‘limlari ko‘rsatkichi bilan uyg‘unlashgan va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tartibi va davrini nazarda tutishi lozim.

MTU tarkibidagi bo‘limlar faoliyati natijasini uyg‘unlashtirish maqsadida yagona texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar belgilanadi, ya’ni bu ko‘satkichlar tarkibiy bo‘limlar uchun qanday ahamiyatli bo‘lsa, MTU uchun shunchalik zarurdir. Albatta transport ishlab chiqarishda bunday holat ma’lum qiyinchiliklarni tug‘diradi, bunga sabab transport mahsuloti son va sifat ko‘rsatkichlarining, ya’ni ishlab chiqarishning oxirgi natijasining turli o‘lchamdaligidadir.

Bunday ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– Olib kelingan (tushirilgan) yuk hajmi tonna va vagon hisobida (MTU va yuk bekatlari uchun);

– Lokomativlarning bajargan ishi, tonna - kilometr bruttoda (MTU va lokomotiv depolari uchun);

– Vagonlarning bajargan texnik ishi vagon-kilometrda;

– Jo‘natilgan vagonlar (MTU, vagon depolari va texnik bekatlar uchun va boshqalar).

“O‘zbekistion Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 3 avgustdagi “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik temir yo‘l kompaniyasini boshqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 366-son qarori bilan MTUlarning tashkiliy tuzilmasi va ularning boshqaruv apparati namunaviy tuzilmasi takomillashtirilgan.

MTUlarning xo‘jalik faoliyatini va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tashkil etishning asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, yuridik shaxs maqomi bilan DATK sho‘’ba korxonasi hisoblanib, MTU o‘zining tarkibiy bo‘linmalari – tashish jarayoniga xizmat ko‘rsatish bilan bevosita bog‘liq

ishlarni hamda yordamchi ko‘makdosh faoliyat xizmati realizatsiyasini bajaruvchi temir yo‘l stansiyalari, vagon va lokomotiv deposi, yo‘l uchastkalari, signallashtirish aloqa va boshqalar boshqarish organi hisoblanadi.

MTU faoliyatini bunday tashkiliy xususiyati tuzilmaviy bo‘linmalarning xo‘jalik faoliyatida mustaqillikni saqlash, ichki zahiralarni aniqlash va ishlatish bo‘yicha, tashish hajmini oshirish, sifatli transport xizmati ko‘rsatishda yordam berishga majburlaydi.

Tashish funksiyalarini bajarayotgan aksionerlik jamiyatlarini tashkil etishni hisobga olgan holda, o‘rnatilgan boshqaruv tuzilmasida DATK uchun yagona tashuvchi va temir yo‘l sohasida xalqaro munosabatlar sub’yekti maqomi saqlanib qolingan.

Yuqoridagi vazifalarni va ko‘rsatkichlarni bajarish uchun kompaniya quyidagi strategik rejalarni amalga oshirishi lozim:

– kuchli marketing potensialini yaratish. Bu kompaniyani kelajakda bozor munosabatlariga asoslanib faoliyat yuritishga va foydani oshirishga yordam beradi;

– harakatlanuvchi tarkibdan oqilona foydalanib, yoqilg‘i va materiallarni tejab, ishchilar sonini, harakatlanuvchi tarkibni tashish hajmiga moslash asosida ekspluatatsion xarajatlarni qisqartirish;

– kompaniya ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini ilg‘or texnik va texnolo-gik vositalarini qo‘llash, personal malakasini oshirish orqali yaxshilash.

MTUning istiqboldagi rejasi ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat bo‘yicha tuziladi, yillik va chorak rejalari DATK ”O‘zbekiston temir yo‘llari”ning ijro organi tomonidan tasdiqlanadi.

Temir yo‘l MTUsi uchun ishlab chiqarish rejasining quyidagi tizimi optimal hisoblanadi. (9.2-rasm)

MTUning moddiy tehnika bazasi, mablag‘lari va daromadlari

Korxona faoliyatining iqtisodiy farovonligi, ishlab chiqarish uchun kerakli bo‘lgan ma’lum moddiy – texnik baza bo‘lgandagina amalga oshishi mumkin. MTU o‘zining moddiy – texnik bazasini asosiy vositalar, boshqa aktivlar va Uzel tarkibiga kiruvchi bo‘linmalar va liniya stansiyalarining aylanma mablag‘lari tashkil etadi. Uzelning Ustav jamg‘armasi Uzel tarkibiga kiruvchi bo‘linmalar mulki asosida shakllanadi. Uzelning mulkini asosiy va aylanma mablag‘lar hamda Uzel balansida qiymati ifoda etiladigan boshqa mulklar va pul mablag‘lari tashkil etadi. Korxona mulki ishlab chiqarishda foydalanadigan moddiy va nomoddiy elementlardan iborat. Korxona mol - mulkining egasi o‘ziga qarashli mol

- mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega.



9.2.-rasm. MTUning iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanish rejasi.

Korxona mol - mulkining egasi o‘z mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday harakatlarni qilishga haqli. Ular mol - mulkidan qonunda ta’qiqlab qo‘yilmagan har qanday ho‘jalik faoliyatini yoki o‘zga faoliyatni amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin. Davlat korxona egasining mulkiy huquqlari himoya qilinishiga kafolat beradi. Korxonada mulkni tashkil etish va undan foydalanish shartlari quyidagicha:

•asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, shuningdek qiymati korxonaning mustaqil balansida aylanadigan boshqa boyliklar korxona mulkini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va korxona nizomiga muvofiq mol - mulk huquqi yoki to‘la xo‘jalik yuritish huquqi asosida unga tegishli bo‘lishi mumkin.

Korxona mol - mulkini tashkil etuvchi manbaalarga quyidagilar kiradi:

– ***ta’sis etuvchilarning pul va moddiy badallari;***

– ***mahsulot, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilishdan, shuningdek xo‘jalik faoliyatining boshqa turlaridan olingan daromadlar;***

– ***qimmatli qog‘ozlardan (aksiyalar) olinadigan daromadlar;***

– ***bank va boshqa qarz beruvchilarning kreditlari;***

– ***kapital mablag‘va byudjetdan dotatsiyalar.***

Korxona xo‘jalik korxonalari yoki kredit beruvchilar oldidagi majburiyatlarini bajara olmasa, bu holda o‘ziga tegishli mulki bilan javob beradi. Moddiy elementlarga - yer uchastkalari, qurilma, bino, inshoot, mashina, dastgoh, xom - ashyo, yarim, tayyor mahsulot, pul vositalari kiradi. Nomoddiy elementlar bu – korxonaning hayot faoliyati jarayonida yaratiladi va ularga barcha sotilishi mumkin bo‘lgan korxonaning

obro‘-e’tibori, doimiy mijozlari, firma nomi va ishlatiladigan tovar belgisi, rahbarning bilimi, personalning malaka darajasi, nou-xau, avtorlik huquqi, shartnomalar va boshqalardir.

Korxona mulki, korxona iqtisodiyotini o‘rganishda xo‘jalikning iqtisodiy kursi bo‘lib, uni ishlatish natijasida muvaffaqiyatli faoliyat ta’minlanadi.

Tarkibiy bo‘linmalarning mulklari va mulk mablag‘lari hamma bo‘lin-malarining manfaati uchun ishlatiladi, belgilangan tartibda qurish, tiklash, xarid qilish, ko‘chmas va ko‘char mulkni ijaraga olish va berish mumkin.

Korxona Ustav jamg‘armasi turg‘un holdagi qiymat bo‘lib, uni aksiyadorlik jamiyatning iqtisodiy fundamenti tariqasida ko‘rish mumkin. Ustav jamg‘armasining qiymatini hisoblash biznes-reja loyixasiga kiritiladi va loyihaning foydali ekanligini oldindan izohlashda, texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar orqali amalga oshiriladi.

Ustav jamg‘armasining qiymati mulkning, asosiy fondlarning qayta baholanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ustav jamg‘armasi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarori bilan, aksiya-dorlik jamiyati mulki hajmining o‘zgarishi sababli o‘zgarishi

mumkin. Us-tav jamg‘armasining oshishi aksiya qiymatining o‘zgarishiga bog‘liq bo‘la-di (aksiya bahosining ko‘tarilishi yoki qo‘shimcha aksiyalar chiqazish).

Ko‘chmas mulkni qayta baholash natijasida narhning oshishi – oshiqcha kapitalni tashkil qiladi.

Oshiqcha kapitaldan dividendlar to‘lanmaydi. Ular umumiy kapital yig‘indisini ko‘paytiradi.

Moddiy kapital asosiy va aylanma mablag‘larga bo‘linadi.

Asosiy kapitalga uzoq muddat ishlatiladigan vositalar kiradi - binolar, inshootlar, qurilmalar, mashinalar, dastgohlar va h.k.

Aylanma mablag‘lar har qanday ishlab chiqarish vositalarini – xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, maosh to‘lovlari va mehnat haqi to‘lovlariga sarflanadi.

Asosiy mablag‘lar – asosiy fondlar, tugallanmagan qurilish va uzoq muddatli investitsiyalar – kapital o‘sishi va zahirasiga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari.

Zayom kapitali – bu korxona tomonidan tashqaridan ma’lum davrga olingan kafolatlangan moddiy yordam, garovga qo‘yilgan mablag‘lardir.

Bank tomonidan berilgan kreditlarga ma’lum miqdorda foiz to‘lanishi lozimligi korxonani undan samaraliroq foydalanishga undaydi.

Vazirlar Mahkamasi qarorlarida belgilangan MTUning asosiy vazifalaridan biri tashishlar mintaqaviy bozori kon’yunkturasini o‘rganish, ularning infratuzilmasini shakllantirish, shuningdek temir yo‘l tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishdir.

9.6. Avtoservis sub’ektlarida lean-logistik boshqaruv[370]

Lean-logistik boshqaruvning mohiyati va avtoservis samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari

Transport korxonalarida ishlab chiqarishni boshqarish usullari (9.4-paragraf) avtoservis sub’ektlariga tatbiq etilganda muayyan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Avtoservis korxonasida «mahsulot» xizmat natijasi bilan ifodalanadi, har bir avtomobilning texnik holati individual xarakterga ega, ehtiyot qismlar ta’minoti esa ko‘p hollarda tashqi yetkazib beruvchilarga bog‘liq. Shu sababli sanoat korxonalari uchun shakllangan an’anaviy ko‘rsatkichlar tizimi — ishlab chiqarish hajmi, tannarx, foyda, rentabellik, asosiy va aylanma mablag‘lar samaradorligi — avtoservis

[370] Ushbu paragrafni yozishda Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi ishtirok etdi.

faoliyatini to‘liq aks ettira olmaydi: u xizmat sifati, mijoz qoniqishi, xizmat ko‘rsatish tezkorligi hamda ustalar malakasi kabi nomoddiy omillarni yetarlicha hisobga olmaydi. Ushbu cheklovlarni bartaraf etishning samarali yo‘li **Lean-logistik boshqaruv** hisoblanadi.

Lean-logistik boshqaruv — tejamkor ishlab chiqarish (Lean Production) tamoyillarini ta’minot zanjiri menejmenti (Supply Chain Management) va servis logistikasi bilan uyg‘unlashtirib, xizmat ko‘rsatish jarayonidagi barcha qiymat yaratmaydigan harakatlarni (isroflarni) aniqlash va bartaraf etish, moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni mijoz talabiga muvofiq sinxronlashtirish orqali xizmat siklini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va mijoz uchun qiymatni oshirishga qaratilgan boshqaruv tizimidir. Uning asosida besh tamoyil yotadi: qiymatni mijoz nuqtai nazaridan belgilash; qiymat oqimini xaritalash; oqimning uzluksizligini ta’minlash; «tortuvchi» (Pull) tizim — faqat real talabga javoban ishlash; doimiy takomillashtirish (kaizen).

Avtoservis sub’ektlari samaradorligini oshirishda to‘rt metodologik yondashuv keng qo‘llaniladi: jarayonli, resurslarga asoslangan, raqamli transformatsiya va mijozga yo‘naltirilgan yondashuvlar. Har bir yondashuv o‘z ko‘rsatkichlar tizimiga ega [1; 6].

Jarayonli yondashuv xizmat ko‘rsatishni o‘zaro bog‘liq operatsiyalar tizimi sifatida ko‘rib, uni standartlashtirish va ortiqcha operatsiyalarni bartaraf etish orqali samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Uning asosiy ko‘rsatkichlari — xizmat ko‘rsatish sikli va jarayon samaradorligi:

$$CT = T_e - T_s, \qquad PE = \frac{T_v}{T_t} \cdot 100\%$$

bu yerda: *CT* — avtoservis xizmati ko‘rsatishga sarflangan umumiy vaqt; T_s, T_e — xizmat ko‘rsatish boshlangan va yakunlangan vaqt; *PE* — jarayon samaradorligi; T_v — qo‘shimcha qiymat yaratilgan ish vaqti; T_t — umumiy jarayonga sarflangan vaqt.

Resurslarga asoslangan yondashuv korxonaning moddiy-texnik bazasi, kadrlari va logistika tizimidan foydalanish samaradorligini baholaydi. Avtoservis uchun ushbu yondashuvning markaziy ko‘rsatkichi texnik shaylik koeffitsiyenti bo‘lib, u «avtomobil — texnik ta’minot tizimi» majmuasidagi barcha to‘xtab qolishlarni o‘z ichiga oladi:

$$\alpha_t = \frac{D_{\text{ish}}}{D_{\text{ish}} + D_{\text{tx}} + D_t + D_k}$$

bu yerda: D_{ish} — avtomobilning texnik soz holatda bo‘lgan kunlari; D_{tx} — rejali texnik xizmatga sarflangan kunlar; D_t — joriy va kapital ta’mirga sarflangan kunlar; D_k — ehtiyot qismlar taqchilligi, materiallar

va navbatlar sababli yuzaga kelgan tashkiliy to‘xtab qolishlar. Qishloq joylarda α_t ning pastligi asosan D_k — ehtiyot qismlar logistikasi va tashkiliy kamchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan (boks va postlardan) foydalanish koeffitsiyenti $K_{\text{ish}} = T_{\text{haqiqiy}}/T_{\text{umumiy}}$ ning tavsiya etiladigan qiymati 0,8–0,9 ni tashkil etadi; uning past bo‘lishi bokslarning bo‘sh turib qolishi yoki tashkiliy ishlarning sustligidan dalolat beradi.

Raqamli transformatsiya yondashuvi raqamli tayyorgarlik indeksi ($IDR = N_{\text{raqamli}}/N_{\text{jami}}$ — raqamli diagnostika va onlayn tizim orqali xizmat ko‘rsatilgan avtomobillar ulushi) va raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi orqali baholanadi:

$$E_{\text{raqamli}} = \Delta R + \left(C_b - C_j\right) - I_{\text{at}}$$

bu yerda: ΔR — raqamli diagnostika va sodiqlik tizimi hisobiga tushumning ortishi; $C_b - C_j$ — xato diagnostika, ortiqcha ish vaqti va qog‘ozbozlikning qisqarishi hisobiga operatsion xarajatlarning kamayishi; I_{at} — raqamli texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar. $E_{raqamli} > 0$ bo‘lsa, raqamlashtirish iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydi.

Mijozga yo‘naltirilgan yondashuv SERVQUAL modeliga tayanib, iste’molchilarning qoniqish indeksi ($CSI = \sum S_i/n$, bu yerda S_i — avtomobil egalarining bahosi, n — respondentlar soni) va sotuvdan keyingi servis samaradorligi ($A_{\text{se}} = R_r/R_t \cdot 100\%$, bu yerda R_r — takroriy tashrif buyurgan, R_t — jami mijozlar soni) orqali baholanadi.

Qishloq sharoitida resurslar cheklanganligi, mijozlar bilan ijtimoiy munosabatlarning (xususan, «og‘zaki reklama» samarasining) kuchliligi sababli mijozga yo‘naltirilgan yondashuvni jarayonli, resursga asoslangan va qisman raqamli yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish eng samarali yechim hisoblanadi. Buning uchun quyidagi integral ko‘rsatkichdan foydalanish tavsiya etiladi [1]:

$$E = \alpha \cdot CSI + \beta \cdot RE + \gamma \cdot PE$$

bu yerda: *CSI* — mijoz qoniqishi; *RE* — resurslar samaradorligi; *PE* — jarayon samaradorligi; α, β, γ — ekspert usulida aniqlanadigan ahamiyatlilik koeffitsiyentlari ($\alpha + \beta + \gamma = 1$).

Avtoservis jarayonidagi isroflar va ularni bartaraf etish

Lean konsepsiyasida **isrof** (yap. *muda*) deganda mijoz uchun qiymat yaratmaydigan, lekin resurs sarflaydigan har qanday faoliyat tushuniladi. Avtoservisda isroflar ortiqcha harakatlar, kutish, ortiqcha zaxiralar, mijoz buyurtmasisiz ko‘rsatilgan xizmatlar, qayta ishlash va noto‘g‘ri rejalashtirish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Samarqand viloyati qishloq

joylaridagi avtoservis sub’ektlarida o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Chevrolet Cobalt, Damas va Nexia egalarining aksariyati so‘ralmagan ortiqcha xizmatlar va ombordagi ortiqcha zaxiralarni asosiy muammo sifatida ko‘rsatgan. Isroflarni kamaytirish orqali xizmat muddatini qisqartirish va narxni pasaytirish mijozlarning «qiymatga nisbatan qoniqishi»ni oshirishi aniqlangan [4; 5]. Avtoservisdagi isrof turlari va ularni bartaraf etish vositalari 9.6-jadvalda umumlashtirilgan.

9.5-jadval

Qishloq joylardagi avtoservis sub’ektlarida isrof turlari va ularni bartaraf etishning Lean vositalari

Isrof turi	Avtoservisdagi namoyon bo‘lishi (qishloq joylar misolida)	Bartaraf etish vositasi
Ortiqcha ishlab chiqarish (overproduction)	Moy almashtirishga kelgan mijozga majburiy «to‘liq texnik xizmat» paketi, ehtiyot qismlarni mijoz roziligisiz oldindan almashtirish	Tortuvchi (Pull) tizim, mijoz tasdiqlagan ish buyurtmasi
Ortiqcha zaxira (inventory)	Cobalt uchun ilashish muftasi to‘plamlarini oldindan ko‘p xarid qilish, Damas uchun turli o‘lchamdagi shinalar, qishki shina va antifriz qoldiqlari	VED tahlili, kooperativ ombor, «o‘z vaqtida» (JIT) yetkazib berish
Kutish (waiting)	Ehtiyot qismlarni kutish, navbat, diagnostika natijasini kutish — xizmat vaqtidagi eng katta yo‘qotish	VED zaxira xablari, onlayn navbat, real vaqtda kuzatish
Tashish (transportation)	Ustaning filtr, svecha, tasmani olish uchun shahardagi do‘konga alohida-alohida uch marta qatnashi	3PL-provayder, markazlashgan yetkazib berish
Ortiqcha harakat (motion)	Turli markadagi moyni turli do‘konlardan izlash, zarur asbobni topa olmaslik	5S tizimi, standart asbob to‘plamlari
Nuqsonlar va qayta ta’mir (defects)	An’anaviy usulda noto‘g‘ri diagnostika, qayta murojaat	Raqamli diagnostika, «birinchi martadan to‘g‘ri bajarish» tamoyili
Ortiqcha ishlov (over-processing)	Qog‘ozbozlik, takrorlanuvchi operatsiyalar, tartibsiz ish rejimi	Standart operatsion kartalar, CRM tizimi
Foydalanilmagan salohiyat	Ustalar malakasi va g‘oyalaridan to‘liq foydalanmaslik	Malaka oshirish, KPI va rag‘batlantirish tizimi

Manba: [4; 5; 6] va Lean Production konsepsiyasi asosida tuzilgan.

Masalan, tadqiq qilingan avtoservis korxonalaridan birida Cobalt dvigatelini ta’mirlash jarayonida ustalar zarur ehtiyot qismlarni olish uchun shahardagi do‘konga uch marta alohida borishga, Nexia avtomobiliga moy almashtirishda kerakli markadagi moyni turli do‘konlardan izlashga, Damas salon qoplamasini almashtirishda esa zaruriy asbobni qidirishga majbur bo‘lgan; natijada jami 281 daqiqa qiymat yaratmaydigan vaqt sarflangan. Qishloq xo‘jaligi mavsumida Cobalt va Nexia egalari (asosan taksi haydovchilari va oilaviy foydalanuvchilar) buyurtmalarining 70–80% moy almashtirish va tormoz tizimi ta’miriga to‘g‘ri kelishi esa ehtiyot qismlar zaxirasini aynan real talab tarkibiga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Avtoservis xizmatlari ko‘rsatishning integratsiyalashgan logistik tizim modeli

Avtoservis sub’ektlarida buyurtmalar nomuvofiqligi, xizmat ko‘rsatish jarayonlarining uzoq davom etishi va moddiy resurslar harakatining samarasiz tashkil etilishi tizimli xarakterga ega muammolar hisoblanadi. Ularni hal etish uchun D.H.Shaymardonova tomonidan **integratsiyalashgan logistik tizim modeli** taklif etilgan [2; 3]. Ushbu model buyurtmani qabul qilishdan boshlab diagnostika, ehtiyot qismlar ta’minoti, ta’mirlash va avtomobilni mijozga topshirishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab olgan holda moddiy, axborot va moliyaviy oqimlarni yagona algoritm doirasida muvofiqlashtiruvchi kompleks boshqaruv tizimidir (9.3-rasm). Model avtotransport egalari, ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchilari va yetkazib beruvchilari, avtodilerlar va avtoservis sub’ektlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Modelning asosiy bloklari va ularning qishloq sharoitidagi amaliy mazmuni quyidagicha:

1. **Buyurtmalar nomuvofiqligini kamaytirish.** Avtoservis sub’ekti tortuvchi (Pull) logistik tizim va qiymat oqimi xaritasi (Value Stream Mapping, VSM) orqali faqat real talabga muvofiq buyurtmalarni qabul qiladi, mijoz so‘ramagan xizmatlar va ortiqcha zaxiralarni bartaraf etadi. Tizim buyurtmalarni real vaqtda tahlil qilib, ehtiyot qismlarning ortiqcha zaxirasi shakllanishining oldini oladi.



9.3-rasm. Avtoservis samaradorligini oshirishning integratsiyalashgan logistik tizim modeli

Manba: [2; 3].

2. **Xizmat ko‘rsatish muddatini qisqartirish.** Lean tamoyillari va mobil avtoservisni qo‘llash natijasida buyurtma qabul qilingandan keyin 2–4 soat ichida mobil brigada jo‘natiladi va xizmat muddati an’anaviy 2–3 kundan 6–8 soatgacha qisqaradi. Bu qishloq aholisining vaqt va transport xarajatlarini kamaytiradi.

3. **Moddiy oqimlarni samarali boshqarish.** Uchinchi tomon logistika provayderi (3PL) yordamida shahardagi markazlashgan kooperativ ombor yoki ehtiyot qismlar do‘koni orqali zarur qismlar aynan kerakli vaqtda yetkazib beriladi; avtoservis kooperativlarida umumiy ombor tashkil etilib, saqlash va transport xarajatlari kamaytiriladi.

4. **Avtoservis jarayonini takomillashtirish.** Servis jarayonlari DMAIC sikli asosida qayta ko‘rib chiqiladi: *Define* — takomillashtirilishi lozim bo‘lgan jarayonlarni aniqlash; *Measure* — avtoservis holatini o‘lchash va baholash; *Analyze* — «zaif nuqta»larni tahlil qilish; *Improve* — samarasiz jarayonlardan voz kechish va yangi usullarni tanlash; *Control* — erishilgan natijalarni nazorat qilish.

5. **Yuqori servis qiymati yaratish.** To‘lovni bo‘lib yoki kechiktirib to‘lash, avtomatik eslatmalar yuborish, kafolat muddatini belgilash va

mijoz ehtiyojiga asoslangan xizmat paketlarini shakllantirish orqali mijozning qiymatdan qoniqishi oshiriladi.

Qiymat oqimini xaritalash natijalari avtoservisning «zaif nuqta»si aynan ta’mirlash jarayonining tashkil etilishi ekanligini ko‘rsatdi: kuzatuvlar davomida tugallangan avtoservis xizmati uchun jami 5,7 kun sarflangani, holbuki qiymat yaratish uchun zarur vaqt atigi 3,1 kunni tashkil etgani aniqlangan (9.6.2-rasm). Bu jarayon samaradorligi $PE = 3{,}1/5{,}7 \cdot 100\% \approx 54\%$ ekanligini, ya’ni sarflangan vaqtning qariyb yarmi isrof ekanligini anglatadi. Vaqt resurslari sarfidagi nomutanosiblik ish vaqti rejimiga rioya qilinmasligi, ehtiyot qismlar va ta’mirlash-diagnostika uskunalaridan oqilona foydalanilmasligi, operatsiyalarning takrorlanishi va xizmat ko‘rsatish jarayonlarida izchillikning zaifligi bilan bog‘liq.



9.4-rasm. Qishloq joylardagi avtoservis sub’ektlarida xizmatning to‘liq sikli tarkibi

Manba: [2; 3] ma’lumotlari asosida tuzilgan.

«Qishloq paketi» va statsionar logistik holatning integratsiyalashgan modeli

Integratsiyalashgan logistik tizimning qishloq sharoitiga moslashtirilgan amaliy shakli **«Qishloq paketi»** hisoblanadi. U qishloq aholisi va avtoservis sub’ektlarining real ekspluatatsion ehtiyojlariga (Cobalt, Nexia, Damas avtomobillarining mavsumiy yuklamasi) moslashtirilgan, Lean tamoyillari, logistik optimallashtirish va raqamli vositalar uyg‘unligiga asoslangan kompleks xizmatlar majmuidir. Paket bir tashrif doirasida uchta jarayonni — moy almashtirish, diagnostika va to‘lov yechimini (bo‘lib to‘lash) birlashtiradi. Natijada har bir xizmat uchun alohida qatnov bilan bog‘liq transport xarajatlari va navbatlar bartaraf etiladi, xizmat «birinchi martadan to‘g‘ri bajarish» tamoyiliga moslashadi. Ushbu modellar uchun ehtiyot qismlar va yoqilg‘i-moylash materiallarining standartlashtirilishi ombor xarajatlarini kamaytiradi, qishloq yo‘llarining changliligi va notekisligi sharoitida moy almashtirish bilan birga beriladigan imtiyozli diagnostika esa nosozliklarni erta aniqlab, mijozning kelgusidagi yirik xarajatlarining oldini oladi.

Mijozning xizmatdan qoniqish darajasi an’anaviy SERVQUAL modelini logistik cheklovlar va moliyaviy moslashuvchanlik koeffitsiyentlari bilan to‘ldiruvchi integral indeks orqali ifodalanadi [2; 3]:

$$S_{\text{total}} = \sum_{i=1}^{n} \omega_i \cdot \frac{V_{\text{act}}\,(1+\varphi)}{T_{\text{proc}} + \frac{L_{\text{dist}}}{V_{\text{o‘rt}}} + W_{\text{parts}}}$$

bu yerda: ω_i — xizmat sifati ko‘rsatkichlarining vazn koeffitsiyenti; V_{act} — avtoservis xizmatining real texnik qiymati; φ — to‘lov tizimining moliyaviy moslashuvchanlik koeffitsiyenti; T_{proc} — avtoservis boksidagi texnologik jarayonlarga sarflanadigan vaqt; $L_{dist}/V_{o‘rt}$ — masofa va o‘rtacha harakat tezligidan kelib chiqadigan logistik yo‘qotishlar; W_{parts} — ehtiyot qismlarni kutish vaqti (Lean tamoyiliga ko‘ra $W_{parts} \to 0$).

Formuladan ko‘rinib turibdiki, mijoz qoniqishi xizmatning real qiymati va to‘lov qulayligiga to‘g‘ri, vaqt va masofa yo‘qotishlariga esa teskari proporsionaldir. «Qishloq paketi» samarasi an’anaviy (S_{oddiy}) va yangi (S_{yangi}) holatlarni taqqoslash orqali baholanadi:

$$\Delta S = \frac{S_{\text{yangi}} - S_{\text{oddiy}}}{S_{\text{oddiy}}} \approx 0{,}5\ (50\%)$$

Har bir omilning ta’sir kuchi elastiklik koeffitsiyenti orqali aniqlanadi:

$$\varepsilon_x = \frac{\partial S}{\partial x} \cdot \frac{x}{S}, \qquad x \in \{W_{\text{parts}},\ \varphi,\ T_{\text{proc}},\ L_{\text{dist}}\}$$

Cobalt va Damas avtomobillari misolida omillarning 50% gacha bo‘lgan o‘zgarish diapazonidagi sezgirlik tahlili natijalari 9.6-jadval va 9.5-rasmda keltirilgan.

9.6-jadval

«Qishloq paketi» misolida Cobalt va Damas avtomobillari uchun omillarning mijoz qoniqishiga ta’sir kuchi, %

Omilning o‘zgarishi (Δx)	W_{parts} (kutish vaqti)	φ (to‘lovning moslashuvchanligi)	T_{proc} (xizmat ko‘rsatish vaqti)	L_{dist} (masofa)
5%	3,9	3,0	2,1	–1,1
10%	7,8	6,0	4,3	–2,1
15%	11,7	9,0	6,4	–3,2
20%	15,6	12,1	8,6	–4,2

25%	19,5	15,1	10,7	–5,3
30%	23,4	18,1	12,9	–6,3
35%	27,3	21,1	15,0	–7,4
40%	31,2	24,1	17,2	–8,4
45%	35,1	27,1	19,3	–9,5
50%	39,0	30,1	21,5	–10,5

Manba: [2; 3].



9.5-rasm. «Qishloq paketi» modelida omillar o‘zgarishining mijoz qoniqishiga ta’siri (sezgirlik tahlili)

Manba: [2; 3] ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Sezgirlik tahlili quyidagi xulosalarni beradi. *Birinchidan*, ehtiyot qismlarni kutish vaqti (W_{parts}) eng yuqori ta’sir kuchiga ega (ε = 0,78): kutish vaqtining har 1% ga qisqarishi mijoz qoniqishini 0,78% ga oshiradi. Qishloq joylarda avtomobil daromad manbai bo‘lganligi sababli kutish vaqtining qisqarishi ikki yoqlama samara beradi — transport vositasining majburiy to‘xtab turishi va mijozning muqobil xarajatlari kamayadi hamda avtoservisga ishonch ortadi. Xususan, avtoservis davomiyligini 30% ga, ya’ni 3,1 sutkadan taxminan 2,1 sutkagacha qisqartirish mijoz qoniqishini faqat shu omil hisobiga quyidagicha oshiradi:

$$\frac{\Delta S}{S} = \varepsilon_W \cdot \frac{\Delta W_{\text{parts}}}{W_{\text{parts}}} = 0{,}78 \cdot 30\% \approx 23{,}4\%$$

Ikkinchidan, to‘lov tizimining moliyaviy moslashuvchanligi (φ) barqaror ta’sirga ega bo‘lib, 50% lik maqsadli o‘sishda 30,1% hissaga

to‘g‘ri keladi — bu qishloq aholisi uchun moliyaviy xatarlarni boshqarish xizmat sifati kabi muhim ekanligini ko‘rsatadi. *Uchinchidan*, masofa omilining (L_{dist}) ta’siri nisbatan sust va salbiy yo‘nalishga ega. *To‘rtinchidan*, omillarning hech biri alohida olinganda 50% lik o‘sishni ta’minlamaydi, biroq ularning bir vaqtda 30% ga yaxshilanishi sinergetik samara beradi: 23,4% + 18,1% + 12,9% – 6,3% = 48,1%, bu esa strategik maqsadga (50%) deyarli teng.

Demak, integratsiyalashgan logistik model doirasida $W_{parts} \rightarrow min$ va $\varphi \rightarrow max$ shartlarining bir vaqtda bajarilishi tizimdagi noaniqlikni (entropiyani) pasaytirib, mijozlar qoniqishining 1,5 barobar ortishini ta’minlovchi **statsionar logistik holat**ni yuzaga keltiradi. Ushbu natijalardan kelib chiqib, qishloq avtoservis sub’ektlari uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

- Damas va Cobalt avtomobillari uchun hududiy **VED zaxira xablari**ni tashkil etish va ularni raqamli logistika platformalari bilan integratsiyalash. VED tahlilida ehtiyot qismlar hayotiy muhim (Vital), zarur (Essential) va maqbul (Desirable) guruhlarga ajratiladi va birinchi guruh qismlarining doimiy mavjudligi kafolatlanadi;
- mobil avtoservis, sayyor diagnostika va onlayn buyurtma tizimlari orqali masofa omilining salbiy ta’sirini kamaytirish;
- bo‘lib-bo‘lib to‘lash, raqamli to‘lov, mikromoliyalash va «Pay-per-service» kabi moliyaviy instrumentlarni joriy etish;
- resurslarni **«78/22» tamoyili** asosida taqsimlash: kutish vaqtini nolga yaqinlashtirish maqsadida investitsiyalarning 78% ini ehtiyot qismlar logistikasiga, 22% ini servis jarayonlarini optimallashtirishga yo‘naltirish; bunda to‘lov tizimining moslashuvchanligi doimiy barqarorlashtiruvchi omil sifatida saqlanadi.

«Qiymatga nisbatan qoniqish» va «qiymat yaratish» zanjiri

Lean konsepsiyasining bosh g‘oyasi qiymatni mijoz nuqtai nazaridan belgilashdir. Avtoservis xizmatlarida mijozning harid tanlovi **«qiymatga nisbatan qoniqish»** — olingan xizmatning sifati, tezligi va qulayligini to‘langan narx bilan taqqoslash natijasida shakllanadi. Rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha xizmatlar va qulayliklar (vaqtinchalik avtomobil taklifi, doimiy mijozlar uchun imtiyozlar, ehtiyot qismlarga kafolat, onlayn yozilish, dam olish kunlari ishlash, joyiga chiqib ta’mirlash) esa **«qiymat yaratish»** zanjirini shakllantiradi. «Tejamkor ishlab chiqarish» tamoyillariga asoslangan holda mijozlar buyurtmasi va moddiy oqimlarni boshqarish ushbu ikki jarayonni bog‘laydi: isroflarni

bartaraf etish xizmat narxi va muddatini kamaytirib, qiymatga nisbatan qoniqishni oshiradi, bo‘shagan resurslar esa qo‘shimcha qiymat yaratuvchi xizmatlarga yo‘naltiriladi [4; 5].

Qiymatga nisbatan qoniqishni baholash uchun ekspert usulida vazn koeffitsiyentlari aniqlangan beshta ko‘rsatkichlar guruhi taklif etilgan (9.6.3-jadval). Har bir ko‘rsatkich 1,0 ga teng bo‘lgan me’yoriy standart qiymatga taqqoslanadi, so‘ngra guruhlar integral ko‘rsatkichga umumlashtiriladi:

$$\Sigma = \sqrt[5]{K_{\text{iqt}} \cdot K_{\text{inf}} \cdot K_{\text{kadr}} \cdot K_m \cdot K_{\text{tex}}}$$

bu yerda: K_{iqt} — moliyaviy-iqtisodiy; K_{inf} — infratuzilmaviy; K_{kadr} — xodimlar malakasi; K_m — mijozga yo‘naltirilganlik; K_{tex} — texnik-texnologik holat ko‘rsatkichlari guruhlarining integral bahosi.

9.7-jadval

Avtoservis xizmatlariga harid tanlovini shakllantiruvchi «qiymatga nisbatan qoniqish» ko‘rsatkichlari tizimi

Ko‘rsatkichlar guruhi	Mezonlar
Moliyaviy-iqtisodiy	avtoservis korxonalarining rentabellik darajasi; xizmat uchun o‘rtacha to‘lov miqdori; avtoservisdan tushadigan soliqlarning hududiy byudjetdagi ulushi
Infratuzilmaviy	har 100 avtomobilga to‘g‘ri keladigan avtoservis korxonalari soni; eng yaqin avtoservisgacha masofa; zamonaviy diagnostika jihozlari bilan ta’minlangan korxonalar ulushi; o‘rtacha kutish vaqti; texnik nosozlik tufayli sodir bo‘lgan YTHlar soni
Xodimlarning kasbiy malakasi	mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olgan xodimlar ulushi; malaka oshirgan mutaxassislar ulushi; avtoservis bilan band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni
Mijozga yo‘naltirilganlik	takroriy tashrif buyurgan mijozlar soni; takroriy servis ko‘rsatilgan mijozlar soni; mijoz so‘roviga javob berish vaqti
Texnik-texnologik holat	zamonaviy diagnostika uskunalari soni; raqamli texnologiyalardan foydalanadigan korxonalar ulushi; ta’mirlash-diagnostika uskunalarining eskirish darajasi; joriy etilgan innovatsion texnologiyalar soni

Manba: [4; 5].

Samarqand viloyati qishloq joylaridagi avtoservis korxonalarida o‘tkazilgan baholash mijozlar qoniqishining uchta intervalini aniqlagan:

quyi (1,75 gacha), o‘rtacha (1,80–1,99) va yuqori (2,0 va undan yuqori). Eng yuqori qoniqish (2,04) kuzatilgan korxonalarda asosiy drayverlar xodimlarning kasbiy malakasi va mijozga yo‘naltirilganlik bo‘lgan; quyi intervaldagi (1,76) korxonalarning zaif nuqtasi esa diagnostika uskunalarining eskirganligi, raqamli texnologiyalarning yo‘qligi va innovatsiyalarning past darajada joriy etilganligi bilan bog‘liq. Bu natija qishloq hududlarida xizmat sifati bir xil emasligini va resurslarni har bir korxonaning «zaif» guruhiga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

Avtoservis samaradorligi omillarining SEM-modeli

Ko‘p o‘lchovli va o‘zaro bog‘liq, bevosita o‘lchab bo‘lmaydigan (latent) omillar ta’sirini o‘rganishda **strukturaviy tenglamalar modellashtirish** (Structural Equation Modeling, SEM) usuli qo‘llaniladi. SEM bir modelda omillarning natijaviy ko‘rsatkichga bevosita va bilvosita ta’sirini baholash imkonini beradi. Qishloq joylardagi avtoservis sub’ektlari uchun D.H.Shaymardonova tomonidan umumiy samaradorlik va mijozning qiymatga nisbatan qoniqishini ta’minlash omillarining SEM-modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u beshta latent o‘zgaruvchidan iborat (9.6.4-jadval, 9.6.4-rasm) [4; 5].

9.8-jadval

SEM-modelining latent o‘zgaruvchilari, gipotezalari va tekshirish natijalari

Latent o‘zgaruvchi	Indikatorlar soni	Gipoteza	Natija
Chiqindilarni (isroflarni) bartaraf etish (LWE)	4	H1: LWE → PerVl (ijobiy)	Qisman qo‘llab-quvvatlangan
Qishloq hududlari spesifikasi (RCS)	4	H2: RCS → LOpt; H5: RCS → NDig	To‘liq tasdiqlanmagan (zaif bog‘liqlik)
Raqamli avtoservisga ehtiyoj (NDig)	4	H3: NDig → LOpt	Zaif qo‘llab-quvvatlangan
Logistik jarayonlarni optimallashtirish (LOpt)	4	H4: LOpt → PerVl	Qisman qabul qilingan
Samaradorlik va mijozning qiymatga nisbatan qoniqishi (PerVl) — natijaviy o‘zgaruvchi	4	H6: LWE ↔ LOpt birgalikda samaradorlikning asosiy omili	Qisman qo‘llab-quvvatlangan



9.6-rasm. Avtoservis sub'ektlarining umumiy samaradorligi va mijozning qiymatga nisbatan qoniqishini ta'minlash omillarining strukturaviy modeli

Manba: [4; 5].

Model natijalarining mazmuni quyidagicha. Isroflarni bartaraf etish va logistik jarayonlarni optimallashtirish o'rtasida kuchli funksional bog'liqlik aniqlangan: logistik jarayonlar optimallashgan sari ortiqcha resurs sarfi va isroflar hajmi qisqaradi, isroflarni samarali boshqarish esa logistika xarajatlarini pasaytiradi. Bu Lean va ta'minot zanjiri menejmenti integratsiyasining sinergetik samarasini tasdiqlaydi. Qishloq hududlarining geografik va infratuzilmaviy xususiyatlari — masofalarning uzoqligi, ehtiyot qismlar ta'minotidagi kechikishlar, yo'l infratuzilmasining mavsumiy omillari — logistik jarayonlarni qayta tashkil etish va raqamli vositalarga (Telegram-bot orqali navbatga yozilish, ta'mirni real vaqtda kuzatish, SMS-eslatmalar) bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Biroq raqamlashtirishning samaradorlikka ta'siri tizimning

ichki tashkil etilishi, inson resurslari va xizmat sifatiga bog‘liq bo‘lib, raqamli vositalarning o‘zi samaradorlikni avtomatik tarzda oshirmaydi.

SEM-modelning sifati muvofiqlik indekslari orqali baholanadi. Ularning qabul qilingan chegaraviy qiymatlari va ko‘rib chiqilayotgan model uchun olingan natijalar 9.9-jadvalda keltirilgan.

9.9-jadval

SEM-modelining muvofiqlik indekslari

Indeks	Maqsadi	Qabul qilinadigan daraja	Model natijasi
CFI (qiyosiy muvofiqlik indeksi)	Modelning bazaviy modelga nisbatan yaxshiligi	≥ 0,90 (yaxshi ≥ 0,95)	0,577
TLI (Taker–Lyuis indeksi)	Modelning yaxshiligi (murakkablikka tuzatilgan)	≥ 0,90	0,511
RMSEA	Taxminiy xatolik darajasi	≤ 0,08 (yaxshi ≤ 0,06)	0,152
SRMR	Qoldiqlarning o‘rtacha darajasi	≤ 0,08	0,253
χ^2/df	Modelning umumiy muvofiqligi	≤ 3,0 (yaxshi ≤ 2,0)	370,784/148 = 2,51

Manba: [4; 5].

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, χ^2/df ko‘rsatkichi me’yor doirasida bo‘lsa-da, CFI, TLI, RMSEA va SRMR indekslari tavsiya etilgan chegaralardan tashqarida. Bu nazariy model tuzilmasi qishloq avtoservislarining empirik ma’lumotlarida qisman o‘z tasdig‘ini topganini, ammo so‘rovnoma indikatorlarini takomillashtirish va tanlanmani kengaytirish zarurligini anglatadi. Shu sababli model natijalari omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik yo‘nalishlarini ko‘rsatuvchi dastlabki (izlanuvchan) baho sifatida talqin etilishi lozim. Mazkur holat talabalar uchun muhim uslubiy saboq hamdir: SEM natijalarini iqtisodiy talqin qilishdan oldin har doim modelning muvofiqlik indekslarini tekshirish zarur.

Lean-logistik boshqaruvni tashkiliy qo‘llab-quvvatlash: kooperativ-klaster modeli

Qishloq joylarda avtoservis sub’ektlarining tarqoqligi, kichik miqyosi va qisman norasmiy faoliyati Lean-logistik tamoyillarni har bir ustaxona darajasida alohida joriy etishni qiyinlashtiradi. Shu bois ularni kooperativ-klaster modeli asosida birlashtirish maqsadga muvofiq. Model quyidagi funksional bo‘linmalardan iborat: *avtotransport egalari* (uy xo‘jaliklari, fermerlar, tadbirkorlar — talab markazlashgan holda o‘rganiladi); *avtoservis kooperativi* (kichik sub’ektlarni birlashtirib «miqyos samarasi»ni yaratadi); *kooperativ logistika markazi* (umumiy ombor orqali moddiy oqimlarni optimallashtiradi va yetkazib berish muddatini qisqartiradi); *mobil avtoservis*; *raqamli boshqaruv tizimi* (Telegram-bot, CRM, SMS-platformalar); *malaka oshirish markazlari*.

Raqamli boshqaruv tizimi quyidagi algoritm bo‘yicha ishlaydi: mijoz Telegram-bot, SMS yoki telefon orqali murojaat qiladi → tizim avtomobil modeli, nosozlik turi, joylashuv va mavsumiy omillarni tahlil qilib buyurtmani ro‘yxatga oladi → umumiy ombordagi ehtiyot qismlar mavjudligini tekshiradi va eng maqbul mobil brigadani tanlaydi → brigada ko‘chma uskunalar yordamida diagnostika o‘tkazib, natijalarni platformaga yuklaydi, mijozga xizmat holati haqida onlayn xabar beriladi → xizmatdan so‘ng mijoz sifatni baholaydi va ustaning reytingi yangilanadi → tizim har oyda asosiy KPIlarni tahlil qilib, boshqaruv qarorlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi. Tadqiqot baholariga ko‘ra, Lean tamoyillarini raqamli boshqaruv va mobil xizmat bilan uyg‘unlashtirish xizmat muddatini 35–50% ga qisqartirish, xarajatlarni 30–45% ga kamaytirish va mijozlar qoniqishini 40% gacha oshirish imkonini beradi [2; 3]. Bundan tashqari, raqamli ro‘yxatdan o‘tish, o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida rasmiylashtirish, mikromoliyalash va kasbiy sertifikatlash orqali norasmiy ustaxonalar bosqichma-bosqich rasmiy iqtisodiy munosabatlarga jalb etiladi.

Xulosa qilib aytganda, avtoservis sub’ektlarida Lean-logistik boshqaruv xizmat ko‘rsatishni alohida ta’mirlash operatsiyalari yig‘indisidan mijoz uchun qiymat yaratuvchi yagona oqimga aylantiradi. Uning samaradorligi faqat texnik modernizatsiya bilan emas, balki logistik, moliyaviy va raqamli omillarning integratsiyasi, isroflarni tizimli bartaraf etish va tashkiliy kooperatsiya bilan belgilanadi.

Tayanch atamalar va iboralar

1-guruh. Tizim nazariyasining asosiy tushunchalari

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
1	**Tizim**	O‘zaro bog‘liq bo‘lgan elementlar yig‘indisi bo‘lib, ular birgalikda alohida elementlar amalga oshira olmaydigan yangi sifat xususiyatlarini namoyon qiladi. Avtotransport korxonasi ham — xodimlar, texnika, marshrut va moliya elementlaridan tashkil topgan murakkab tizim.
2	**Kichik tizim**	Yirik tizimning tarkibiy qismi; o‘z ichki tuzilmasi va funktsiyalariga ega bo‘lgan, katta tizim maqsadlariga xizmat qiluvchi nisbatan mustaqil element. ATK da chiziqli rahbariyat, dispetcherlik xizmati va iqtisodiy bo‘lim — har biri alohida kichik tizim.
3	**Kichik tizimlar**	Boshqaruv tizimining tarkibiy elementlarining yig‘indisi; ular birgalikda ishlashi orqali bosh maqsadga erishiladi. ATK boshqaruv tizimi oltita kichik tizimdan iborat: chiziqli rahbariyat, bevosita boshqaruvchi, ta’minlovchi, ma’lumot to‘plovchi, maxsus funktsiyalar va maqsadli kichik tizimlar.
4	**Boshqaradigan kichik tizim**	Boshqaruv ob’ektiga ta’sir o‘tkazuvchi, ya’ni qarorlar qabul qilib, ularni amalga oshirishni tashkil etuvchi tizim qismi. ATK da bu — rahbariyat, dispetcherlar va boshqa mas’ul xodimlar guruhi. Boshqaruvchi tizim axborot qabul qilib, qaror chiqaradi va buyruq beradi.
5	**Boshqariladigan kichik tizim**	Boshqaruv ta’siri yo‘naltirilgan ob’ekt; boshqaruvchi tizimning topshiriqlari va ko‘rsatmalarini bajara turuvchi tizim qismi. ATK da bu — haydovchilar, ta’mirlash va texnik xizmat xodimlari, transport vositalari parki. Boshqariluvchi tizimdan aks aloqa (natijalar haqidagi ma’lumot) boshqaruvchi tizimga qaytib keladi.

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
6	**Emergentlik**	Tizimning tarkibiy elementlari alohida-alohida emas, faqat birgalikda ishlashi natijasida paydo bo‘ladigan yangi sifat xususiyati. Masalan, yaxshi haydovchi, yaxshi mashina va optimal marshrut alohida-alohida emas, faqat birgalikdagina yuqori sifatli tashish xizmatini yuzaga keltiradi.
7	**Dinamizm**	Tizimning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borish xususiyati; tashqi muhit ta’siriga moslasha olish qobiliyati. ATK boshqaruvida dinamizm tashish talabining mavsumiy o‘zgaruvchanligi, yoqilg‘i narxlarining tebranishi va yo‘l sharoitlarining o‘zgarishiga operativ moslashishni talab qiladi.

2-guruh. Boshqaruv jarayonining asosiy elementlari

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
8	**Jarayon**	Biron-bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan ketma-ket harakatlar va o‘zgarishlar tizimi. Boshqaruv jarayoni — muammoni aniqlashdan qarorning bajarilishini nazorat qilishgacha bo‘lgan yaxlit faoliyat sikli.
9	**Muammo**	Maqsadga erishish nuqtai nazaridan boshqaruv ob’ektining zaruriy (kerakli) holati bilan uning amalda kuzatiladigan holati o‘rtasidagi nomuvofiqlik. Muammo mavjudligi qaror qabul qilish zaruratini yuzaga keltiradi.
10	**Qaror**	Boshqaruv ob’ektini kuzatiladigan holatdan zaruriy holatga o‘tkazishga imkon beruvchi nomuvofiqlikni bartaraf qilish jarayoni; ko‘p sonli mumkin bo‘ladigan muqobillardan birini tanlash akti. Qaror o‘z vaqtida, asoslangan va vakolatli bo‘lishi shart.
11	**Bosqich**	Boshqaruv yoki ishlab chiqarish jarayonining nisbatan tugallangan, aniq natijaga olib keladigan bosqichma-bosqich qismi. Qaror qabul qilish jarayoni yettita bosqichdan iborat: muammoni

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
		aniqlash; tahlil qilish; tayyorlash; baholash; qabul qilish; rejalashtirish; nazorat qilish.
12	**Usul**	Boshqaruv maqsadlariga erishishning ma’lum tartib va qoidalarga asoslangan amaliy yo‘li; muammolarni hal etishning tekshirilgan va tizimlashtirilgan uslubi. ATK da iqtisodiy, ma’muriy va ijtimoiy-psixologik boshqaruv usullari qo‘llaniladi.
13	**Funktsiya**	Boshqaruv tizimi yoki uning kichik tizimlarining aniq belgilangan vazifasi va majburiyatlari majmui. Boshqaruvning asosiy funktsiyalari: rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya qilish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish.
14	**Printsip**	Boshqaruv faoliyatini tashkil etishda amal qilinadigan, tajriba va nazariyaga asoslangan asosiy qoida yoki tamoyil. ATK boshqaruvida tizimlilik, maqsadga yo‘nalganlik, tezkorlik va ilmiylik prinsiplari ustuvor hisoblanadi.
15	**Ratsional**	Maqsadga erishish uchun eng tejamli, samarali va asoslangan yo‘l yoki qarorni tavsiflash uchun qo‘llaniladigan sifat belgisi. Ratsional boshqaruv — mavjud resurslar doirasida eng yuqori natijaga erishishga yo‘naltirilgan boshqaruv.

3-guruh. ATK boshqaruvining asosiy maqsadlari

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
16	**Asosiy maqsadlar**	Avtotransport korxonasida ishlab chiqarish boshqaruvining bosh maqsadini amalga oshirishga xizmat qiluvchi sakkizta yo‘naltirilgan vazifalar tizimi. Ular o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri bajarilmasa, boshqalariga erishish ham qiyinlashadi.
17	**Tashish rejasini bajarish**	Tashish hajmi bo‘yicha rejalar, topshiriqlar va shartnomaviy majburiyatlarni belgilangan muddatlarda tashilayotgan yuklarning

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
		saqlanishini ta’minlagan holda muntazam amalga oshirish. ATK ning birinchi va asosiy operatsion maqsadi.
18	**Tashish sifatini yaxshilash**	Tashish tarkibi, ularning muntazamligi va muddatining xizmat ko‘rsatiladigan korxonalar va mijozlar ehtiyojlariga doimiy monandligini ta’minlash. Sifat ko‘rsatkichlari: punktuallik darajasi, yo‘qotishlar miqdori, mijozlar qoniqish indeksi.
19	**Boshqaruvni takomillashtirish**	Tashkil etishning ilg‘or shakllari va usullarini qo‘llagan holda transport jarayoni, TXK va JT ni tashkil etishni hamda ularni tezkor boshqarishni ta’minlash; raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish.

4-guruh. Ishlab chiqarish va muammolar kategoriyalari

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
20	**Ishlab chiqarish**	Korxonaning tovar, ish yoki xizmat yaratishga qaratilgan asosiy faoliyati. ATK da ishlab chiqarish ikki qismdan iborat: asosiy jarayonlar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashish) va yordamchi jarayonlar (texnik xizmat ko‘rsatish va joriy ta’mirlash).
21	**Muammolar**	ATK faoliyatida hal etilishi zarur bo‘lgan tizimli qiyinchiliklar va nomuvofiqliklarning yig‘indisi. O‘zbekistonda ATK ning dolzarb muammolari: xizmat bozorining shakllanmaganligi, moddiy-texnik bazaning eskirganligi, boshqaruv tizimining zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi va texnik-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarning yetarli emasligi.

5-guruh. Tejamkor (Lean) boshqaruv konsepsiyasi va uning vositalari

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
22	**Lean-logistik boshqaruv**	Tejamkor ishlab chiqarish tamoyillarini logistika va transport jarayonlariga tatbiq etishga asoslangan boshqaruv konsepsiyasi. Maqsadi — yuk oqimining harakatidagi qiymat yaratmaydigan barcha bosqichlarni (ortiqcha kutish, bo‘sh yurish, takroriy qayta yuklash, ortiqcha zaxira) bartaraf etish. ATK sharoitida Lean-logistik yondashuv yurish kilometrining foydali ulushini oshirish, dispetcherlik jarayonini soddalashtirish va yoqilg‘i sarfini kamaytirish orqali namoyon bo‘ladi.
23	**Tejamkor ishlab chiqarish**	Toyota ishlab chiqarish tizimi (TPS) negizida shakllangan va T. Ono hamda J. Vumek ishlarida nazariy asoslangan konsepsiya (Lean Production). Mohiyati: mijoz uchun qiymat yaratmaydigan har qanday resurs sarfini isrof deb tan olish va uni tizimli ravishda qisqartirish. Beshta asosiy tamoyili: qiymatni aniqlash; qiymat oqimini belgilash; oqimni uzluksiz qilish; tortuvchi tizimga o‘tish; mukammallikka intilish.
24	**Isrof (muda)**	Resurslarni iste’mol qiladi, ammo iste’molchi uchun qiymat qo‘shmaydigan har qanday faoliyat turi. Klassik tasnifda yetti turi ajratiladi: ortiqcha ishlab chiqarish, kutish, keraksiz tashish, ortiqcha qayta ishlash, ortiqcha zaxira, keraksiz harakatlar va nuqsonlar; keyinchalik sakkizinchi tur — xodimlar ijodiy salohiyatidan foydalanilmasligi qo‘shilgan. Transport korxonasida isrofning eng ko‘zga ko‘ringan shakllari — bo‘sh (yuksiz) yurish, ortish-tushirishdagi navbat va texnikaning majburiy bo‘sh turishi.
25	**Tortuvchi (Pull) tizim**	Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish hajmi oldindan tuzilgan reja bo‘yicha emas, iste’molchining real talabi asosida belgilanadigan tashkiliy model. Itaruvchi (Push) tizimning aksi

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
		bo‘lib, ortiqcha zaxira va ortiqcha quvvatni yuzaga keltirmaydi; amalda kanban signallari orqali boshqariladi. Transport xizmatlarida bu — «reysni jadval bo‘yicha emas, buyurtma bo‘yicha shakllantirish» tamoyili sifatida qo‘llaniladi.
26	**Qiymat oqimi xaritasi (VSM)**	Value Stream Mapping — mahsulot yoki xizmatning buyurtmadan mijozga yetkazilishigacha bo‘lgan butun yo‘lini moddiy va axborot oqimlari bilan birga grafik tasvirlash vositasi. Xaritada har bir bosqichning qiymat qo‘shuvchi vaqti (VA) va umumiy davomiyligi (Lead Time) qayd etiladi, natijada isrof manbalari vizual tarzda aniqlanadi. Odatda ikki variantda tuziladi: mavjud holat (current state) va maqsadli holat (future state) xaritasi.
27	**DMAIC**	«Olti sigma» (Six Sigma) metodologiyasining jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha besh bosqichli tsikli: Define (muammoni aniqlash) — Measure (o‘lchash) — Analyze (tahlil qilish) — Improve (takomillashtirish) — Control (nazorat qilish). Har bir bosqich statistik ma’lumotlarga tayanadi, bu esa qarorlarning intuitiv emas, dalilga asoslangan bo‘lishini ta’minlaydi. Transport korxonasida DMAIC yetkazib berish muddatining buzilishi yoki ta’mirlash muddatining cho‘zilishi kabi takrorlanuvchi muammolarni hal etishda samarali.

6-guruh. Logistik tizimlar va samaradorlik ko‘rsatkichlari

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
28	**Jarayon samaradorligi**	Jarayonda qiymat qo‘shuvchi vaqtning umumiy tsikl davomiyligiga nisbati bilan o‘lchanadigan ko‘rsatkich (Process Cycle Efficiency): PCE = Qiymat qo‘shuvchi vaqt / Umumiy tsikl vaqti × 100%. An’anaviy jarayonlarda bu ko‘rsatkich odatda past

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
		bo‘ladi, chunki vaqtning katta qismi kutish va oraliq amallarga sarflanadi. Transport jarayonida yuk bilan yurish vaqtining reysning to‘liq davomiyligiga nisbati shu ko‘rsatkichning amaliy ifodasi hisoblanadi.
29	**Texnik shaylik koeffitsiyenti**	Transport vositalari parkining texnik jihatdan ishga yaroqli holatini tavsiflovchi asosiy ekspluatatsion ko‘rsatkich: αt = Texnik soz avtomobil-kunlar / Ro‘yxatdagi avtomobil-kunlar. Uning qiymati texnik xizmat ko‘rsatish tizimining sifati, parkning yosh tarkibi va ehtiyot qismlar bilan ta’minlanish darajasiga bog‘liq. Texnik shaylik koeffitsiyentining pasayishi bevosita tashish hajmi va daromadning kamayishiga olib keladi.
30	**Integratsiyalashgan logistik tizim**	Ta’minot, ishlab chiqarish, omborlash, tashish va sotuv bo‘g‘inlari alohida-alohida emas, yagona optimallashtirilgan zanjir sifatida boshqariladigan tizim. Asosiy tamoyili — lokal (bo‘g‘in darajasidagi) optimum emas, global (zanjir bo‘ylab umumiy) optimumga erishish. Integratsiyaning texnologik negizini yagona axborot maydoni, umumiy hujjat aylanmasi va real vaqtdagi monitoring tashkil etadi.
31	**3PL-provayder**	Third Party Logistics — buyurtmachining logistik funktsiyalarini kompleks tarzda o‘z zimmasiga oluvchi ixtisoslashgan operator: tashish, omborlash, yuk qayta ishlash, bojxona rasmiylashtiruvi va zaxiralarni boshqarish. 1PL (o‘z kuchi bilan) va 2PL (faqat tashish xizmati) dan farqli o‘laroq, 3PL shartnoma asosidagi uzoq muddatli hamkorlikka quriladi. Buyurtmachi uchun afzalligi — o‘z transport parkiga kapital sarflamasdan logistik

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
		xarajatlarni o‘zgaruvchan xarajatga aylantirish imkoniyati.
32	**VED tahlili**	Zaxiralar va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish uzluksizligi uchun zarurlik darajasiga ko‘ra uch guruhga ajratish usuli: Vital (hayotiy muhim — ularsiz transport vositasi ishlay olmaydi), Essential (zarur — yetishmasligi samaradorlikni pasaytiradi), Desirable (maqbul — bo‘lmasa ham jarayon davom etadi). ABC tahlilidan farqi shundaki, u qiymat emas, kritiklik mezoniga tayanadi. Amalda ikkala usul birgalikda (ABC-VED matritsasi shaklida) qo‘llanilib, zaxira siyosati shakllantiriladi.
33	**«Qishloq paketi»**	Qishloq joylarida aholi va tadbirkorlik sub’ektlariga transport-logistik xizmatlarni alohida emas, yagona kompleks taklif sifatida ko‘rsatish modeli. Tarkibiga odatda quyidagilar kiradi: qishloq xo‘jaligi mahsulotini yig‘ib olish, sovutilgan saqlash, shahar bozoriga yetkazish hamda qaytish reysida sanoat tovarlari va resurslarni olib kelish. Modelning iqtisodiy mohiyati — qaytish yo‘nalishini yuk bilan ta’minlash orqali bo‘sh yurishni kamaytirish va bir birlik yuk tannarxini pasaytirish.
34	**Statsionar logistik holat**	Logistik tizimning kirish va chiqish oqimlari muvozanatlashgan, zaxira darajasi va asosiy parametrlari vaqt o‘tishi bilan barqaror qoladigan holati. Statistik ma’noda bu — vaqt qatorining o‘rtacha qiymati va dispersiyasi vaqtga bog‘liq bo‘lmasligini anglatadi; ekonometrik modellashtirishda qatorlarning statsionarligi ADF va KPSS testlari yordamida tekshiriladi. Tizim statsionar holatdan chiqqanda (mavsumiy tebranish, talabning

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
		keskin o‘sishi) boshqaruv ta’sirini kuchaytirish zarurati yuzaga keladi.

7-guruh. Iqtisodiy tahlil, modellashtirish va tashkiliy modellar

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
35	**Sezgirlik tahlili**	Model yoki loyiha natijaviy ko‘rsatkichining kirish parametrlaridagi o‘zgarishlarga qanchalik ta’sirchanligini aniqlash usuli (sensitivity analysis). Har bir omil navbatma-navbat ma’lum foizga o‘zgartirilib, natijaning (foyda, NPV, tannarx) mos o‘zgarishi o‘lchanadi. Tahlil natijasida kritik omillar ajratiladi va risklarni boshqarish ustuvorliklari belgilanadi; transport loyihalarida odatda eng sezgir parametrlar yoqilg‘i narxi, yuklanish koeffitsiyenti va tarif darajasi bo‘lib chiqadi.
36	**«78/22» tamoyili**	Pareto qonunining (80/20) transport-logistika amaliyotidagi empirik variantlaridan biri bo‘lib, natijaning taxminan 78 foizi omillarning 22 foizi hisobiga shakllanishini ifodalaydi. Tamoyilning boshqaruvdagi ahamiyati — resurslarni tarqoq emas, eng katta samara beruvchi tor doiradagi omillarga jamlash zarurligini asoslashda. Amalda daromadning asosiy qismini bir necha yirik mijoz yoki bir necha yo‘nalish ta’minlashi shaklida namoyon bo‘ladi.
37	**Qiymatga nisbatan qoniqish**	Iste’molchining olgan foydasi (xizmat sifati, tezlik, ishonchlilik) bilan sarflagan mablag‘i o‘rtasidagi nisbatni sub’ektiv baholashi (value-for-money satisfaction). Oddiy qoniqish ko‘rsatkichidan farqi shundaki, u narx omilini bevosita hisobga oladi: yuqori sifat ham, agar narx unga mos kelmasa, past baholanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida mijozning takroriy murojaat qilish qaroriga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
38	**Qiymat yaratish zanjiri**	M. Porter (1985) tomonidan asoslangan konsepsiya bo‘lib, korxona faoliyatini asosiy (kiruvchi logistika, operatsiyalar, chiquvchi logistika, marketing va sotuv, servis) hamda yordamchi (infratuzilma, kadrlar, texnologiya, ta’minot) turlarga ajratib tahlil qilish vositasi. Har bir bo‘g‘inda yaratilgan qiymat va sarflangan xarajat qiyoslanib, raqobat ustunligining manbai aniqlanadi. Transport korxonasi ko‘pchilik ishlab chiqaruvchilar uchun ushbu zanjirning kiruvchi va chiquvchi logistika bo‘g‘inlarini ta’minlovchi sifatida namoyon bo‘ladi.
39	**SEM-model**	Structural Equation Modeling — strukturaviy tenglamalar modellashtirishi; bevosita o‘lchab bo‘lmaydigan tushunchalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini bir vaqtning o‘zida baholash imkonini beruvchi ko‘p o‘lchovli statistik usul. Ikki qismdan iborat: o‘lchov modeli (latent o‘zgaruvchilarning indikatorlar bilan bog‘lanishi) va strukturaviy model (latent o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlar). An’anaviy regressiyadan ustunligi — o‘lchov xatoligini hisobga olishi va bir nechta bog‘liq o‘zgaruvchini birgalikda tahlil qila olishi.
40	**Latent o‘zgaruvchi**	Bevosita kuzatib yoki o‘lchab bo‘lmaydigan, faqat bir nechta kuzatiladigan indikator (anketa savollari) orqali bilvosita baholanadigan yashirin tushuncha. Misollari: xizmat sifati, mijoz sadoqati, xodim motivatsiyasi, korxona obro‘si. Latent o‘zgaruvchining ishonchliligi Kronbax alfa koeffitsiyenti va ajratilgan o‘rtacha dispersiya (AVE) ko‘rsatkichlari bilan tekshiriladi.
41	**Muvofiqlik indekslari**	Model nazariy tuzilmasining empirik ma’lumotlarga qanchalik mos kelishini baholovchi statistik ko‘rsatkichlar majmui (goodness-of-fit indices). Eng ko‘p qo‘llaniladiganlari: χ^2/df

№	Atama / Ibora	Mazmuni va ta’rifi
		(odatda 3 dan kichik), CFI va TLI (0,90 dan yuqori), RMSEA (0,08 dan kichik), SRMR (0,08 dan kichik). Indekslar maqbul chegaradan chiqsa, model qayta spetsifikatsiya qilinadi yoki ayrim indikatorlar tahlildan chiqariladi.
42	**Kooperativ-klaster modeli**	Hududda joylashgan mayda va o‘rta transport-logistika sub’ektlarining mustaqilligini saqlagan holda yagona kooperativ tuzilma doirasida birlashishiga asoslangan tashkiliy model. Birlashtiruvchi elementlar: umumiy dispetcherlik platformasi, birgalikdagi ta’mirlash bazasi, markazlashtirilgan ehtiyot qism xaridi va yagona brend. Iqtisodiy samarasi — miqyos samarasiga erishish, bo‘sh yurishni qisqartirish va yakka tadbirkor uchun erishib bo‘lmaydigan yirik shartnomalarda ishtirok etish imkoniyati.

Nazorat savollari:

1. ATK ishlab chiqarishini boshqarishning o‘ziga xos – xususiyatlari;
2. ATK da ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy maqsadlari;
3. Avtotransport ishlab chiqarishini boshqarish tizimi qanday kichik tizimlardan iborat?.
4. ATK da ishlab chiqarish va boshqaruvni ajratish nimalar bilan taqozalanadi?
5. ATK boshqaradigan va boshqariladigan qanday kichik tizimlardan iborat?
6. ATK boshqaruv tizimini tavsiflang.
7. Ishlab chiqarishni boshqarishning iqtisodiy usullarining mohiyati.
8. Ishlab chiqarishni boshqarishning tashkiliy-farmoyishli usullarining mohiyati.
9. Ishlab chiqarishning boshqarishning ijtimoiy-ruxiy usullarining mohiyati;
10. Korxona boshqaruv jarayonining mohiyati.
11. Qaror qabul qilishning korxona maqsadlariga mos kelishiga qanday yullar bilan erishiladi?.

12. Qaror qabul qilish va amalga oshirish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?

13. Nima uchun an’anaviy samaradorlik ko‘rsatkichlari avtoservis faoliyatini to‘liq aks ettira olmaydi?

14. Lean-logistik boshqaruvning mohiyati va asosiy tamoyillarini tushuntiring.

15. Avtoservisda qanday isrof turlari uchraydi va ular qanday vositalar bilan bartaraf etiladi?

16. Integratsiyalashgan logistik tizim modelining asosiy bloklarini tavsiflang.

17. Qiymat oqimi xaritasi yordamida jarayon samaradorligi qanday aniqlanadi?

18. «Qishloq paketi»ning mazmuni nimadan iborat va u qaysi Lean tamoyillariga asoslanadi?

19. S_{total} integral indeksiga qaysi omillar kiradi va ular mijoz qoniqishiga qanday ta’sir qiladi?

20. Nima uchun ehtiyot qismlarni kutish vaqti mijoz qoniqishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatadi?

21. «78/22» tamoyili va VED zaxira xablarining iqtisodiy mazmunini izohlang.

22. SEM-modelning muvofiqlik indekslari nimani ko‘rsatadi va ular qanday talqin qilinadi?

Paragraf bo‘yicha adabiyotlar

1. Shaymardonova D.H., Mamarajabov A.N. Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini yaxshilash uchun ayrim takliflar // «O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I qism. – 2024. – B. 108–111.

2. Shaymardonova D.H. The «Rural Package» Model: Integrating Lean Logistics, Financial Flexibility, and Customer Satisfaction in Rural Automotive Services // Miasto Przyszłości. – 2026. – Vol. 74. – P. 1–6.

3. Shaymardonova D.H. The «Rural Package» Model: A Lean-Logistic and Financial-Flexibility Framework for Optimizing Customer Satisfaction in Rural Automotive After-Sales Services (Evidence from the Samarkand Region, Uzbekistan) // American Journal of Economics and Business Management. – 2026. – Vol. 9(8). – P. 201–208.

4. Shaymardonova D.H. Avtoservis sub’ektlarining umumiy samaradorligi va mijozning qiymatga nisbatan qoniqishiga ta’sir qiluvchi

omillar tahlili // Yosh olimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – 4(61).

5. Shaymardonova D.H. Directions for Developing Customer-Centric Automotive Service Systems in Rural Areas // International Conference on Science, Education & Law. – Vol. 2, Issue 6. – P. 284–290.

6. Shaymardonova D.H. Raqamli CRM/ERP tizimlarining qishloq joylardagi avtoservis sub’ektlariga integratsiyasi va uning iqtisodiy zaruriyati // «Barqaror rivojlanish va yashil transformatsiyaning zamonaviy mexanizmlari» xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Samarqand: SamISI, 2026. – B. 320–323.

7. Shaymardonova D.H. Qishloq joylarda avtoservis xizmatlari ko‘rsatuvchi sub’ektlar samaradorligini oshirish: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: SamISI, 2026.

X BOB. TRANSPORT KORXONALARINING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISH

10.1. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning mohiyati va mazmuni.

10.2. Kichik biznes va tadbirkorlik muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar.

10.3. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari.

10.4. Korxonalarning davlat tomonidan ro‘yxatga olinishi.

10.1. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning mohiyati va mazmuni

Bozor munosabatlariga Bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy xo‘jalik tizimida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi.[371] Ushbu soha nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, raqobat muhitini shakllantirish, aholining daromadlarini oshirish hamda iqtisodiyotning moslashuvchanligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli tadbirkorlik bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida qaralmoqda.

“Tadbirkor” va “tadbirkorlik” tushunchalari iqtisodiy nazariya rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha talqin qilingan. Mazkur tushunchalarning ilmiy mazmuni uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib, iqtisodiy maktablar va olimlarning qarashlari asosida takomillashib borgan.

Tadbirkorlik tushunchasini ilmiy muomalaga zamonaviy mazmunda kiritgan dastlabki iqtisodchilardan biri ingliz olimi Richard Kantillon hisoblanadi. U XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida tadbirkorni tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyekt sifatida tavsiflagan. Kantillonning fikricha, tadbirkor bozor noaniqligi sharoitida faoliyat olib boradi va iqtisodiy foyda olish maqsadida ma’lum darajadagi xavfni o‘z zimmasiga oladi. Aynan shu yondashuv tadbirkorlik faoliyatining asosiy belgilaridan biri sifatida tavakkalchilik omilini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

[371] OECD. Small Business, Job Creation and Growth: Facts, Obstacles and Best Practices. Paris: OECD Publishing, 2023. P. 17.

Keyinchalik fransuz iqtisodchisi Jan Batist Sey[372] tadbirkorlik nazariyasini yanada rivojlantirdi. U o‘zining “Siyosiy iqtisod risolasi” asarida tadbirkorlikni ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi va ularni samarali tashkil etuvchi faoliyat sifatida izohladi. Seyning ta’kidlashicha, tadbirkor yer, kapital va mehnat resurslarini yagona ishlab chiqarish jarayoniga birlashtirib, iqtisodiy natijaga erishadi. U tadbirkor daromadini esa ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va mahsulotni bozorda muvaffaqiyatli realizatsiya qilish uchun olinadigan mukofot sifatida baholagan.

Shuningdek, iqtisodiy nazariya rivojlanishining keyingi bosqichlarida tadbirkorlik faoliyati innovatsiyalarni joriy etish, yangi texnologiyalar yaratish, bozor imkoniyatlarini aniqlash va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liq holda talqin qilina boshlandi. Natijada tadbirkorlik nafaqat foyda olishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat, balki iqtisodiyotda yangilik yaratish va rivojlanishni jadallashtiruvchi muhim mexanizm sifatida shakllandi.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqobatbardosh ishlab chiqarishni rivojlantirish, aholining bandligini ta’minlash va hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu sohani rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ingliz klassik iqtisodiy maktabining yirik namoyandalari hisoblangan Adam Smit va Devid Rikardo iqtisodiyotni tabiiy ravishda muvozanatlashuvchi va o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tizim sifatida baholaganlar. Ularning ilmiy qarashlarida bozor mexanizmlarining erkin faoliyati iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, Adam Smit tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratgan iqtisodchilardan biri hisoblanadi.[373]

Smitning fikricha, tadbirkor iqtisodiy resurslarga egalik qiluvchi va ularni foyda olish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga yo‘naltiruvchi shaxsdir. U kapitalni muayyan tijorat g‘oyasiga safarbar etadi, bozor sharoitida tavakkalchilikni o‘z zimmasiga oladi hamda iqtisodiy faoliyatni tashkil etadi. Shu jihatdan tadbirkor nafaqat ishlab chiqarishni tashkil qiluvchi subyekt, balki iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

---

[372] Say J.B. A Treatise on Political Economy. Philadelphia: Claxton, 1803. P. 103.

[373] Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan & T. Cadell, 1776. Vol. 1. P. 48.

Adam Smit iqtisodiy nazariyada erkin raqobat mexanizmini ham chuqur asoslab bergan. Unga koʻra, bozorda har bir xoʻjalik yurituvchi subyekt, avvalo, oʻz manfaatini koʻzlab harakat qiladi. Biroq bozordagi koʻplab ishtirokchilarning manfaatlari oʻzaro toʻqnashuvi natijasida raqobat muhiti shakllanadi. Natijada ishlab chiqaruvchilar iste'molchilar talabiga moslashishga, xarajatlarni kamaytirishga va raqobatbardosh narxlarni taklif etishga majbur boʻladi. Shu tariqa bozor mexanizmi iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tadbirkorlik nazariyasi yanada rivojlantirildi. Fransuz iqtisodchisi Alfred Marshall ishlab chiqarish omillari haqidagi klassik qarashlarni kengaytirib, yer, kapital va mehnat bilan bir qatorda tashkillashtirish omilini ham alohida ishlab chiqarish resursi sifatida koʻrsatdi. Marshallning yondashuviga koʻra, ishlab chiqarish jarayonining muvaffaqiyati mavjud resurslarni samarali birlashtirish va boshqarish qobiliyatiga ham bogʻliqdir.

Mazkur yondashuv tadbirkorning iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirdi. Chunki tadbirkor endilikda faqat kapital egasi emas, balki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etuvchi, resurslarni muvofiqlashtiruvchi va boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi iqtisodiy subyekt sifatida qarala boshlandi. Natijada tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy oʻsish, innovatsion rivojlanish va bozor munosabatlarini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi.[374]

Amerikalik iqtisodchi Jon Beyts Klark iqtisodiy nazariyada ishlab chiqarish omillari haqidagi qarashlarni yanada rivojlantirib, klassik "uch omil" konsepsiyasini kengaytirgan olimlardan biri hisoblanadi. U ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi omillarni toʻrtta asosiy guruhga ajratgan: kapital, ishlab chiqarish vositalari va yer resurslari, tadbirkorlik faoliyati hamda ishchi mehnati. Klarkning fikricha, ushbu omillarning har biri ishlab chiqarish natijasida yaratilgan daromadda oʻz ulushiga ega boʻladi.

Uning nazariyasiga koʻra, kapital egasi investitsiya kiritgani uchun foiz shaklida daromad oladi, yer egasi renta bilan ta'minlanadi, ishchi oʻz mehnati evaziga ish haqi oladi, tadbirkor esa ishlab chiqarishni tashkil etish va biznes faoliyatini boshqarish natijasida foyda koʻradi. Shu tariqa tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy tizimning mustaqil va muhim omili sifatida alohida ajratib koʻrsatildi.

XX asr iqtisodiy tafakkurida tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan olimlardan biri Yozef Shumpeter

[374] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 248-bet

hisoblanadi. [375]U o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida tadbirkorni, avvalo, yangilik yaratuvchi va iqtisodiy tizimga innovatsiyalar olib kiruvchi shaxs sifatida tavsiflagan. Shumpeterning fikricha, iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai oddiy ishlab chiqarish jarayoni emas, balki yangi texnologiyalar, yangi mahsulotlar, yangi bozorlar va yangi boshqaruv usullarining joriy etilishidir.

Olim tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini “yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish” bilan izohlaydi. Ya’ni tadbirkor mavjud resurslardan yangicha usulda foydalanadi, ilgari mavjud bo‘lmagan mahsulot yoki xizmatlarni yaratadi hamda bozor tizimiga yangilik olib kiradi. Shu sababli Shumpeter tadbirkorni oddiy kapital egasi emas, balki innovatsion rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholagan.

Mazkur yondashuv zamonaviy innovatsion iqtisodiyot va startap tizimlari nazariyasining shakllanishida muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kunda ham tadbirkorlik faoliyati ko‘pincha innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish, yangi texnologiyalar yaratish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Shu jihatdan Shumpeterning nazariy qarashlari hozirgi raqamli iqtisodiyot va innovatsion biznes muhitida o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Nobel mukofoti laureati Fridrix fon Xayek tadbirkorlik nazariyasiga o‘ziga xos yondashuvni ilgari surgan iqtisodchilardan biri hisoblanadi. U tadbirkorlik mohiyatini faqat ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyati bilan cheklab qo‘ymaydi. Xayekning qarashlariga ko‘ra, tadbirkorlik, avvalo, iqtisodiy tizimdagi yangi imkoniyatlarni aniqlash, ulardan samarali foydalanish va bozor sharoitidagi o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatini anglatadi.

Olimning fikricha, bozor iqtisodiyotida muvaffaqiyatga erishish ko‘p jihatdan axborotdan qay darajada samarali foydalanishga bog‘liqdir. Chunki iqtisodiy tizimda mavjud ma’lumotlar barcha ishtirokchilar o‘rtasida bir xil taqsimlanmaydi. Shu sababli tadbirkor boshqalardan oldinroq yangi imkoniyatlarni ko‘ra olishi, bozor ehtiyojlarini sezishi hamda resurslarni samarali yo‘naltirishi orqali ustunlikka ega bo‘ladi.

Fridrix fon Xayek[376] tadbirkorlikni oddiy xo‘jalik yuritish faoliyati emas, balki iqtisodiy axborotni izlash, uni tahlil qilish va amaliy qarorlarga aylantirish jarayoni sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda

[375] Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934. P. 74.
[376] Hayek F.A. The Use of Knowledge in Society. American Economic Review. 1945. Vol. 35. No. 4. P. 519

bilim, tajriba va bozor haqidagi ma’lumotlar tadbirkorlik muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.

Mazkur nazariya zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va tez o‘zgaruvchan bozor muhitida axborotga egalik qilish hamda undan samarali foydalanish tadbirkorlik faoliyatining muhim ustunligiga aylanmoqda. Shu jihatdan Xayekning qarashlari tadbirkorlikni bilim va axborotga asoslangan iqtisodiy faoliyat sifatida tushunishga nazariy asos yaratdi.

Amerikalik olim Robert Xizrich[377] tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini yangi qiymat yaratish jarayoni bilan bog‘laydi. Uning fikricha, tadbirkorlik — bu jamiyat va bozor uchun yangilik hisoblangan mahsulot, xizmat yoki g‘oyani yaratishga qaratilgan faoliyatdir. Bunday faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs esa maqsadiga erishish yo‘lida o‘zining vaqti, bilimi, kuch-g‘ayrati va imkoniyatlarini safarbar qiladi hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy, ijtimoiy va psixologik xavflarni o‘z zimmasiga oladi.

Xizrichning ta’kidlashicha, tadbirkorlik faoliyati doimo ma’lum darajadagi tavakkalchilik bilan bog‘liq bo‘ladi. Chunki yangi g‘oya yoki loyihaning muvaffaqiyati oldindan to‘liq kafolatlanmaydi. Shunga qaramasdan, tadbirkor iqtisodiy foyda olish, biznes muvaffaqiyatiga erishish hamda o‘z faoliyati natijasidan ma’naviy qoniqish hosil qilish maqsadida faol harakat qiladi. Shu jihatdan tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy foyda olish vositasi, balki shaxsiy tashabbus va ijodkorlikni namoyon etish shakli sifatida ham qaraladi.

Ingliz iqtisodchisi Allan Xoskin esa tadbirkorlikni mustaqil ravishda biznes yuritish va uni shaxsiy javobgarlik asosida boshqarish bilan bog‘laydi. Uning qarashlariga ko‘ra, yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini o‘z mablag‘i yoki resurslari asosida tashkil etadi, biznesni bevosita boshqaradi va qabul qilinadigan qarorlar uchun shaxsan javob beradi.

Mazkur yondashuv tadbirkorning iqtisodiy mustaqilligi va tashabbuskorligini alohida ta’kidlaydi. Chunki tadbirkor bozordagi vaziyatni mustaqil tahlil qiladi, faoliyat yo‘nalishini tanlaydi, resurslarni boshqaradi hamda biznes natijalari uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash, tavakkalchilikka tayyorlik va boshqaruv qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi.

[377] Hizrich R., Peters M., Shepherd D. Entrepreneurship. 9th ed. New York: McGraw-Hill, 2013. P. 8.

Iqtisodiy tafakkur taraqqiyoti davomida tadbirkorlik nazariyasi bosqichma-bosqich rivojlanib, mazmunan boyib borgan. Turli davrlarda iqtisodchi olimlar tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini turlicha talqin qilganlar va natijada ushbu nazariyaning shakllanishida bir necha asosiy bosqichlar yuzaga kelgan.

Tadbirkorlik nazariyasining dastlabki bosqichi XVIII asrda shakllangan bo‘lib, unda asosiy e’tibor tavakkalchilik omiliga qaratilgan. Ushbu davr iqtisodchilari tadbirkorni noaniqlik va xavf-xatar sharoitida faoliyat yurituvchi shaxs sifatida baholaganlar. Tadbirkorning asosiy vazifasi iqtisodiy xavfni o‘z zimmasiga olib, foyda olish maqsadida ishlab chiqarish va savdo faoliyatini tashkil etishdan iborat deb qaralgan. Shu tariqa tavakkalchilik tadbirkorlik faoliyatining ajralmas belgilaridan biri sifatida shakllandi.

Ikkinchi bosqich tadbirkorlikning innovatsion mohiyatini yoritish bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, Yozef Shumpeterning ilmiy qarashlari ushbu yo‘nalish rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. U tadbirkorni iqtisodiyotga yangilik olib kiruvchi novator sifatida talqin etdi. Shumpeterning fikricha, tadbirkorlik faoliyati yangi mahsulotlarni yaratish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yangi bozorlarni egallash, yangi resurs manbalarini topish va ishlab chiqarishni yangicha tashkil qilish orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli innovatsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy manbalaridan biri sifatida qarala boshlandi.

Tadbirkorlik nazariyasining uchinchi bosqichida esa tadbirkorning shaxsiy fazilatlari va boshqaruv qobiliyatlariga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, tadbirkor muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi, iqtisodiy vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligi hamda boshqaruv mahoratiga bog‘liqdir. Natijada tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki alohida shaxsiy sifat va kompetensiyalar majmui sifatida ham talqin qilina boshlandi.

Tadbirkorlik nazariyasining zamonaviy, to‘rtinchi bosqichi esa ushbu tushunchaning kompleks va ko‘p tarmoqli yondashuv asosida o‘rganilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi davrda tadbirkorlik masalalari iqtisodiyot, menejment, psixologiya, sotsiologiya, marketing va innovatsion rivojlanish kabi bir qator fanlar doirasida tadqiq qilinmoqda. Shu bilan birga, faqat mustaqil biznes yuritish emas, balki yirik kompaniyalar ichida innovatsion tashabbuslarni rivojlantirish masalalariga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur yo‘nalish “intraprenyorlik” tushunchasi bilan ifodalanadi. Intraprenyorlik korxona ichida yangi g‘oyalarni ilgari surish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va ichki tadbirkorlik muhitini shakllantirishni anglatadi. Ushbu atama amerikalik olim Gifford Pinchot tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida innovatsion rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.[378]

10.1-jadval.

Tadbirkorlik tushunchasiga berilgan asosiy ta’riflar: tarixiy taqqoslama[379]

Olim / Davr	Asosiy g‘oya	Tadbirkorlik ta’rifi
R. Kantillon (XVIII asr)	Tavakkalchilik	Noaniqlik sharoitida faoliyat yurituvchi, narxlar o‘zgarishidan foydalanadigan shaxs
J.B. Say (1803)	Uch omilning yaxlitligi	Yer, kapital va mehnatni birlashtiruvchi, ishlab chiqarishni tashkil etuvchi sub’ekt
A. Smit (1776)	Kapital egasi va raqobat	Kapital egasi bo‘lib, tijorat g‘oyasini amalga oshirish va daromad olish uchun tavakkalchilik qiluvchi
J.Shumpeter (1934)	Innovatsiya — asosiy kuch	Yangi kombinatsiyalar (texnologiyalar, mahsulot, bozor)ni joriy etuvchi novator
F.Xayek (1945)	Bilim va imkoniyat izlash	Tarqoq bilimdan foydalanib yangi iqtisodiy imkoniyatlarni topuvchi sub’ekt
R. Xizrich (XX asr)	Ijod va xavf-xatar birligi	Yangi qiymat yaratar ekan, moliyaviy va psixologik xatarni o‘ziga oluvchi hamda muvaffaqiyatdan qanoat topuvchi shaxs

Jadvalda keltirilgan tadbirkorlikka oid ta’riflar turli tarixiy davrlarda shakllangan iqtisodiy qarashlar va xo‘jalik yuritish sharoitlarini o‘zida aks ettiradi. Har bir iqtisodchi tadbirkorlik faoliyatining ma’lum jihatlariga alohida urg‘u bergan bo‘lsa-da, ularning barchasini birlashtirib turuvchi umumiy xususiyat mavjud.

Mazkur umumiy jihat shundan iboratki, tadbirkor har doim noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida faoliyat yuritadi hamda qabul qilgan qarorlari natijasi uchun shaxsan javob beradi. Bozor muhitidagi o‘zgarishlar, raqobat, talab va taklifdagi tebranishlar, moliyaviy xavflar

[378] Muratov R.S., Jalolov I.A., Oripov S.Sh. Korxona iqtisodiyoti. Toshkent: Fan, 2012. 248-bet.
[379] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

hamda boshqa iqtisodiy omillar tadbirkorlik faoliyatini doimo ma’lum darajadagi noaniqlik bilan bog‘lab turadi. Shu sababli tadbirkor mavjud vaziyatni mustaqil baholashi, muqobil variantlarni tahlil qilishi va eng maqbul qarorni tanlashi zarur bo‘ladi.

Aynan mana shu jihat tadbirkorlik faoliyatini yollanma mehnatdan tubdan farqlaydi. Yollanma xodim odatda belgilangan vazifalarni bajarish bilan cheklanadi va faoliyat natijalari uchun to‘liq iqtisodiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Tadbirkor esa biznes faoliyatining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi bilan bog‘liq barcha iqtisodiy va moliyaviy oqibatlarni qabul qiladi.

Shuningdek, tadbirkorlik davlat boshqaruvi tizimidagi faoliyatdan ham farq qiladi. Chunki davlat boshqaruvida asosiy e’tibor ma’muriy tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni bajarishga qaratilsa, tadbirkorlik faoliyatida tashabbuskorlik, iqtisodiy manfaatdorlik, innovatsion yondashuv va bozor talablariga moslashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa tavakkalchilik, mustaqil qaror qabul qilish va natija uchun shaxsiy javobgarlik tadbirkorlik faoliyatining eng muhim va fundamental belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadbirkorlikning muhim xususiyatlari va tadbirkor shaxsiy sifatlari

Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatning mustaqil va o‘ziga xos shakli bo‘lib, u tashabbuskorlik, iqtisodiy manfaatdorlik, mas’uliyat hamda foyda olishga yo‘naltirilgan faoliyat asosida amalga oshiriladi. Mazkur faoliyatning asosiy mohiyati mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish va iqtisodiy natijaga erishishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Shu sababli tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining eng faol va harakatchan segmentlaridan biri hisoblanadi.[380]

Tadbirkorlik faoliyati ko‘pincha yangilik yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish yoki biznesni yangicha tashkil qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu jihatdan u iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishni rag‘batlantiruvchi muhim mexanizm vazifasini bajaradi. Tadbirkor o‘z faoliyati orqali bozor ehtiyojlarini aniqlaydi, iste’molchilarga mos mahsulot va xizmatlarni taklif qiladi hamda iqtisodiy resurslarning samarali harakatini ta’minlaydi.

Tadbirkorlik faoliyatining asosiy belgilaridan biri xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy mustaqilligidir. Tadbirkor faoliyat

[380] Hizrich R., Peters M., Shepherd D. Entrepreneurship. 9th ed. New York: McGraw-Hill, 2013. P. 8.

yo‘nalishini erkin tanlaydi, ishlab chiqarish hajmini belgilaydi, resurslarni boshqaradi va biznes qarorlarini mustaqil ravishda qabul qiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy manfaatdorlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, asosiy maqsad foyda olish va faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Biroq tadbirkorlik doimo tavakkalchilik va mas’uliyat bilan birga kechadi. Bozor sharoitidagi noaniqlik, raqobatning kuchayishi, moliyaviy xavflar hamda tashqi iqtisodiy omillar tadbirkordan tezkor va puxta qarorlar qabul qilishni talab etadi. Shu sababli tadbirkor o‘z faoliyati natijalari uchun to‘liq javobgarlikni zimmasiga oladi.

Tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun, avvalo, insonning o‘z imkoniyatlari va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi muhim ahamiyatga ega. Tadbirkor tashabbuskor, qat’iyatli va faol bo‘lishi zarur. Chunki bozor sharoitida muvaffaqiyat ko‘pincha yangilikni birinchi bo‘lib amaliyotga joriy etish, imkoniyatdan tez va samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shuningdek, zamonaviy tadbirkorlik faoliyati jamoaviy hamkorliksiz samarali rivojlana olmaydi. Tadbirkor o‘z g‘oyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun malakali, tashabbuskor va bir maqsad sari harakat qiluvchi jamoani shakllantira olishi kerak. Kuchli jamoa biznes jarayonlarini samarali tashkil etish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mehnat madaniyati ham tadbirkorlik muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy taraqqiyot nafaqat texnologik yangiliklar, balki mehnatga bo‘lgan munosabat, intizom va samarali ish tashkiloti bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Xususan, Yaponiya tajribasida yuqori mehnat madaniyati, jamoaviy mas’uliyat va doimiy takomillashishga intilish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynagan omillardan biri sifatida baholanadi. adbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida insonning ichki motivatsiyasi muhim o‘rin tutadi. Iqtisodchi Yozef Shumpeter[381] tadbirkor faoliyatini harakatga keltiruvchi asosiy omillar sifatida bir necha muhim motivlarni ajratib ko‘rsatgan. Unga ko‘ra, tadbirkorni faoliyatga undovchi omillardan biri — boshqaruv va ta’sir doirasini kengaytirishga bo‘lgan intilishdir. Bundan tashqari, muvaffaqiyatga erishish istagi, aniq maqsad sari qat’iyat bilan harakat qilish ham tadbirkorlik faoliyatining muhim rag‘batlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

[381] Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934. P. 74.

Shumpeter, shuningdek, tadbirkorlikni ijodkorlik bilan bog‘lab, yangi g‘oya va loyihalarni amalga oshirish jarayonida inson ma’naviy qoniqish hosil qilishini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston sharoitida tadbirkorlik faoliyatining motivatsion omillari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, ko‘plab tadbirkorlar o‘z bilim va salohiyatini amaliyotda namoyon etish, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish istagi bilan faoliyat boshlaydilar. Shu bilan birga, iqtisodiy mustaqillikka erishish, erkin faoliyat yuritish, jamiyatdagi mavqe va obro‘ni oshirish ham muhim motivatsion omillar qatoriga kiradi. Tadbirkorlik ko‘pincha insonning o‘zi va oilasi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, daromad manbaini kengaytirish hamda kelajakdagi barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida ham qaraladi.

Tadbirkor va menejer tushunchalarini o‘zaro farqlash ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu ikki tushuncha bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning funksional vazifalari turlicha hisoblanadi. Tadbirkor, avvalo, mulk egasi va biznes tashabbuskori sifatida namoyon bo‘lsa, menejer korxona faoliyatini boshqarish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis hisoblanadi. Menejerning asosiy vazifasi ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va korxona faoliyatining uzluksizligini ta’minlashdan iboratdir.

Amaliyotda esa ushbu ikki faoliyat turi ko‘pincha o‘zaro uyg‘unlashib ketadi. Ko‘plab tadbirkorlar o‘z korxonasini mustaqil ravishda boshqaradi, ayrim professional menejerlar esa vaqt o‘tishi bilan biznes egasiga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, yirik korxonalarda boshqaruvning murakkablashuvi professional menejerlarga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. Chunki zamonaviy boshqaruv tizimida strategik rejalashtirish, tashkiliy tuzilmani shakllantirish va murakkab jarayonlarni boshqarish yuqori malakali menejment ko‘nikmalarini talab qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda iste’molchilar bilan ishlash usullari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda biznesni rivojlantirishning ikki asosiy yondashuvi keng qo‘llaniladi. Birinchi yondashuv iste’molchilarning ehtiyoj va manfaatlarini chuqur o‘rganish hamda ularga mos mahsulot yoki xizmatlarni taklif etishga asoslanadi. Ikkinchi yondashuv esa bozorda yangi mahsulot va xizmatlarni shakllantirish orqali iste’molchilarda yangi ehtiyojlarni yuzaga keltirish bilan bog‘liqdir.

Zamonaviy bozor sharoitida tadbirkor mahsulot yoki xizmatning raqobatbardoshligini ta’minlash uchun bir qator omillarni hisobga olishi

zarur. Jumladan, mahsulotning yangiligi, sifati, narx darajasi, foydalanish qulayligi, tashqi ko‘rinishi, standartlarga mosligi, sotuvdan keyingi servis xizmatlari va reklama samaradorligi iste’molchilarni jalb etishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati faqat ishlab chiqarish bilan emas, balki marketing, innovatsiya va mijozlar bilan samarali munosabatlarni yo‘lga qo‘yish bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

10.2. Kichik biznes va tadbirkorlik muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar

Har qanday tadbirkorlik faoliyati muayyan hududiy va iqtisodiy makonda amalga oshiriladi. Tadbirkorlik subyektlari mamlakat, viloyat, shahar yoki qishloq miqyosida faoliyat yuritar ekan, ularning samaradorligi ko‘p jihatdan mavjud tashqi muhit va yaratilgan shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlik muhiti deganda tadbirkorlik faoliyatining tashkil etilishi, rivojlanishi va barqaror faoliyat yuritishiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi omillar va sharoitlar majmui tushuniladi. Mazkur muhit tadbirkorning iqtisodiy faoliyatni erkin amalga oshirishi, resurslardan foydalanishi, investitsiyalarni jalb qilishi hamda bozorda raqobat olib borish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Tadbirkorlik muhiti odatda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir necha asosiy omillar ta’sirida shakllanadi. Ularning eng muhimlari huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar hisoblanadi. Ushbu omillarning har biri tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Huquqiy omillar tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat kafolatlari bilan bog‘liqdir. Mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari himoya qilinishi, mulk daxlsizligi ta’minlanishi, soliqqa oid qonunchilikning barqarorligi hamda biznes yuritish tartib-taomillarining soddalashtirilishi tadbirkorlik rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Siyosiy omillar esa davlatning iqtisodiy siyosati, boshqaruv tizimining barqarorligi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar va investitsion muhit bilan bog‘liqdir. Siyosiy barqarorlik mavjud bo‘lgan mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratiladi va investorlarning ishonchi ortadi.

Ijtimoiy omillar aholining turmush darajasi, bandlik holati, ta’lim va madaniyat darajasi, mehnat resurslari sifati hamda jamiyatning tadbirkorlikka bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Jamiyatda tadbirkorlik madaniyati va innovatsion fikrlash rivojlangan bo‘lsa, biznes faoliyatining kengayishi uchun yanada qulay imkoniyatlar yuzaga keladi.

Iqtisodiy omillar esa bozor infratuzilmasi, moliyaviy resurslarning mavjudligi, kredit tizimi, inflyatsiya darajasi, raqobat muhiti, soliq yuki va aholining xarid qobiliyati kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur omillar tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, tadbirkorlik muhiti murakkab va ko‘p qirrali tizim bo‘lib, uning samarali shakllanishi kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli davlat tomonidan qulay huquqiy, iqtisodiy va institutsional sharoitlarni yaratish bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

10.2-jadval.

Tadbirkorlik muhitiga ta’sir etuvchi to‘rtta asosiy omil[382]

Omil turi	Mohiyati	O‘zbekiston sharoitidagi ifodasi
Huquqiy omil	Tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, yo‘riqnomalar; «o‘yinlar qoidasi»ni belgilaydi	‘Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari’ to‘g‘risidagi Qonun (2000); soliq, yer, mehnat munosabatlariga oid normativlar; Harakatlar strategiyasi (2017)
Siyosiy omil	Davlatning tadbirkorlik jarayonlariga munosabati va ta’sirini belgilaydi; siyosiy barqarorlik uzoq muddatli rejalashtirish imkonini beradi	Siyosiy barqarorlik — investitsiyalar jalb etishning asosi; raqobatbardosh siyosat; xususiy biznesni tartibga soluvchi normativlar
Ijtimoiy omil	Jamiyatdagi mafkura, milliy urf-odatlar, madaniy odatlar, aholining tadbirkorlikka munosabati	‘Har bir oila — tadbirkor’ dasturi (2018); oilaviy tadbirkorlik an’analari; tadbirkorlik ta’limini kengaytirish
Iqtisodiy omil	Bozordagi raqobat, narx-navo holati, kredit stavkalari, soliq yuku, ishchi kuchi narxi	Bozor raqobati sharoitlari; 2019 yildan valyuta liberalizatsiyasi; soliq imtiyozlari tizimi; Biznes ombudsmani instituti

[382] *Manba: iqtisodiy adabiyotlar va O'zR qonunchilik asosida muallif tuzildi*

Tadbirkorlik muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar orasida huquqiy omil alohida muhim o‘rin egallaydi. Chunki aynan huquqiy tizim tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning asosiy qoidalari, chegaralari va tartiblarini belgilab beradi. Qonunchilik bazasining barqarorligi, aniq va izchil ishlashi biznes yuritish uchun ishonchli muhit yaratadi.[383] Aksincha, huquqiy me’yorlarning tez-tez o‘zgarishi yoki ularning amaliyotda bir xil qo‘llanilmasligi tadbirkorlik faolligining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois tadbirkorlikni rivojlantirishda mulk huquqini himoya qilish, shartnomaviy munosabatlarni kafolatlash va biznes yuritish tartib-taomillarini soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy barqarorlik ham tadbirkorlik muhitining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Barqaror siyosiy tizim mavjud bo‘lgan sharoitda tadbirkorlar o‘z faoliyatini uzoq muddatli istiqbol asosida rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa yirik investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni kengaytirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi. Siyosiy noaniqlik hukm surgan holatlarda esa tadbirkorlar ko‘pincha qisqa muddatli va tez daromad olishga qaratilgan faoliyat turlarini afzal ko‘radilar. Natijada iqtisodiyotda uzoq muddatli investitsion faollik sustlashishi mumkin.

Ijtimoiy omil tadbirkorlik muhitining eng murakkab tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu omil jamiyatdagi mafkuraviy qarashlar, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, madaniy an’analar, aholining tadbirkorlikka bo‘lgan munosabati hamda davlatning biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash siyosati bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyatda tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat shakllangan bo‘lsa, aholining biznesga qiziqishi va iqtisodiy faolligi ortadi. Aksincha, tadbirkorlik tashabbuslari yetarlicha qo‘llab-quvvatlanmagan muhitda biznes rivojlanishi sekinlashadi.

Iqtisodiy omillar esa bozor infratuzilmasining rivojlanganligi, moliyaviy resurslarning mavjudligi, kredit tizimi, raqobat muhiti, inflyatsiya darajasi va narxlar barqarorligi kabi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotida sog‘lom raqobat muhitining mavjudligi tadbirkorlik subyektlarini xizmat va mahsulot sifatini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga undaydi.

[383] O'zbekiston Respublikasi 'Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida'gi Qonun. 2000 yil 25 may. №69-II.

Tadbirkorlik muhitini shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy islohotlarni, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy tafakkuridagi o‘zgarishlarni ham qamrab oladi. Shu bilan birga, aholining tadbirkorlikka bo‘lgan munosabati, iqtisodiy faolligi va psixologik tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy sharoitda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish davlat tomonidan maqsadli dasturlar, institutsional islohotlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Biroq tadbirkorlikni boshqarish ma’muriy-buyruqbozlik usullari asosida emas, balki qulay iqtisodiy va tashkiliy sharoitlar yaratish orqali olib borilishi lozim. Ya’ni davlatning asosiy vazifasi tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosim o‘tkazish emas, balki ularning erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur infratuzilma, huquqiy kafolatlar va iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

10.3. Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyotda tutgan o‘rni

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu soha iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli O‘zbekistonda ham tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratib, biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlari oldidagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish hamda ular uchun yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish zarurligini ta’kidlagan edi. Bu yondashuv mamlakat iqtisodiyotida xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirishga qaratilgan islohotlarning muhim yo‘nalishini ifodalaydi.[384]

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari tarkibiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va ayrim tarmoqlarda faoliyat yurituvchi kichik korxonalar kiradi. Agar xo‘jalik yurituvchi subyekt bir nechta faoliyat turi bilan shug‘ullansa, u holda uning qaysi toifaga mansubligi yillik aylanmadagi

[384] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. Toshkent

eng yuqori ulushga ega bo‘lgan faoliyat turi asosida belgilanadi. Mazkur mezonlar kichik biznes subyektlarini aniqlash va ularga nisbatan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasi ham kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni nihoyatda katta ekanligini ko‘rsatmoqda. Xalqaro Valyuta Fondi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosidagi korxonalarning asosiy qismi kichik va o‘rta biznes subyektlaridan iborat bo‘lib, ular global bandlikning katta qismini ta’minlaydi. Mazkur sektor millionlab insonlar uchun daromad manbai yaratish bilan birga, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasida ham kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning tayanch segmentlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu sektor korxonalar sonining mutlaq ko‘pchiligini tashkil etib, bandlikni ta’minlash va yalpi qo‘shilgan qiymat yaratishda muhim ulushga ega. Bu holat kichik biznesning iqtisodiyotdagi moslashuvchanligi, innovatsion faolligi va bozor talablariga tez javob bera olish qobiliyati bilan izohlanadi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi oshgani sari uning eksport salohiyati va innovatsion faoliyati ham kuchayib bormoqda. Kichik biznes subyektlari yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishda faol ishtirok etmoqda.

Shu tariqa kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini ta’minlash, raqobat muhitini rivojlantirish hamda innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ushbu sohani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy siyosatning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026 yil 1 yanvar holatida mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1,2 milliondan ortiqni tashkil etdi. Mazkur ko‘rsatkich kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi. Aholi soniga nisbatan hisoblaganda, har ming nafar fuqaroga o‘rtacha 31,7 ta tadbirkorlik subyekti to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa iqtisodiy faollikning

kengayib borayotgani va biznes yuritishga qiziqish ortayotganidan dalolat beradi.

Faoliyat yuritayotgan subyektlar tarkibida mikrofirmalar va kichik korxonalar asosiy ulushni egallaydi. Shu bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlik, dehqon xo‘jaliklari, oilaviy biznes va hunarmandchilik faoliyatining ham rivojlanib borayotgani kuzatilmoqda. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik milliy iqtisodiyotda aholining bandligini ta’minlash, daromad manbalarini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda kichik biznes muhitining shakllanishiga bir qator huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta’sir ko‘rsatmoqda. Huquqiy jihatdan tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, soliq tizimi, mehnat va yer munosabatlariga oid me’yoriy hujjatlar biznes yuritishning asosiy qoidalarini belgilaydi. Xususan, tadbirkorlik erkinligini kafolatlovchi qonunchilik bazasining yaratilishi biznes subyektlari faoliyatining huquqiy himoyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Siyosiy omillar ham tadbirkorlik rivojida muhim o‘rin tutadi. Mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash siyosati va xususiy sektor manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan islohotlar tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirmoqda. Barqaror siyosiy muhit tadbirkorlarga uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish va investitsion rejalarni shakllantirish imkonini beradi.

Ijtimoiy omillar tarkibida esa aholining tadbirkorlikka bo‘lgan munosabati, oilaviy biznes an’analari, milliy qadriyatlar hamda tadbirkorlik ta’limining rivojlanish darajasi muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan “Har bir oila — tadbirkor” kabi dasturlar aholining biznes faoliyatiga jalb qilinishini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy omillar esa bozor infratuzilmasi, raqobat muhiti, kredit resurslari, soliq imtiyozlari va valyuta siyosati bilan bog‘liqdir. Xususan, valyuta bozorini liberallashtirish, soliq yukining kamaytirilishi va tadbirkorlarni himoya qiluvchi institutsional mexanizmlarning joriy etilishi kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyatini faollashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Keltirilgan statistik ma’lumotlar va institutsional o‘zgarishlar O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu sektor iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida aholi bandligini ta’minlash, raqobat

muhitini kuchaytirish, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish hamda mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.

10.3-jadval.

O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik sub’ektlarining 2025-yil asosiy ko‘rsatkichlari[385]

Omil turi	**Mohiyati**	**O‘zbekiston sharoitidagi ifodasi**
Huquqiy omil	Tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, yo‘riqnomalar; «o‘yinlar qoidasi»ni belgilaydi	‘Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari’ to‘g‘risidagi Qonun (2000); soliq, yer, mehnat munosabatlariga oid normativlar; Harakatlar strategiyasi (2017)
Siyosiy omil	Davlatning tadbirkorlik jarayonlariga munosabati va ta’sirini belgilaydi; siyosiy barqarorlik uzoq muddatli rejalashtirish imkonini beradi	Siyosiy barqarorlik — investitsiyalar jalb etishning asosi; raqobatbardosh siyosat; xususiy biznesni tartibga soluvchi normativlar
Ijtimoiy omil	Jamiyatdagi mafkura, milliy urf-odatlar, madaniy odatlar, aholining tadbirkorlikka munosabati	‘Har bir oila — tadbirkor’ dasturi (2018); oilaviy tadbirkorlik an’analari; tadbirkorlik ta’limini kengaytirish
Iqtisodiy omil	Bozordagi raqobat, narx-navo holati, kredit stavkalari, soliq yukи, ishchi kuchi narxi	Bozor raqobati sharoitlari; 2019 yildan valyuta liberalizatsiyasi; soliq imtiyozlari tizimi; Biznes ombudsmani instituti

Keltirilgan statistik ma’lumotlar O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi[386]. So‘nggi yillarda ushbu sektorning iqtisodiyotdagi ulushi ortib, u aholi bandligini ta’minlash, xizmatlar hajmini kengaytirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Kichik tadbirkorlik subyektlarining son jihatdan o‘sishi bilan bir qatorda ularning iqtisodiy faolligi va tarmoqlar bo‘yicha ishtiroki ham kengayib bormoqda.

[385] *Manba: O'zR Milliy statistika qo'mitasi, 2026 yil yanvar. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari axborotnomasi.*

[386] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Ijtimoiy-iqtisodiy holat axborotnomasi. XI. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari. 2025 yil yanvar-dekabr. Toshkent, 2026.

Ayniqsa, transport xizmatlari sohasida kichik biznesning ulushi yuqori darajada ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi. Avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining asosiy qismi aynan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yo‘lovchi aylanmasining mutlaq katta ulushi ham mazkur sektor hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat kichik biznes subyektlarining transport xizmatlari bozorida yetakchi o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur tendensiya bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, avtomobil transporti sohasi katta hajmdagi boshlang‘ich investitsiyalarni talab qilmaydigan va nisbatan tez daromad olish imkonini beruvchi faoliyat yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, aholining transport xizmatlariga bo‘lgan doimiy ehtiyoji ushbu bozorda barqaror talabni shakllantiradi. Uchinchidan esa, xususiy sektorning moslashuvchanligi va bozor talablariga tez javob bera olish qobiliyati transport xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, transport sohasida kichik biznesning keng rivojlanishi raqobat muhitining kuchayishiga, xizmat sifati yaxshilanishiga va aholiga ko‘rsatilayotgan transport xizmatlari turlarining ko‘payishiga olib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sektorini rivojlantirish va hududlararo transport aloqalarini mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Natijada avtomobil transporti sohasi kichik biznes va tadbirkorlik uchun eng istiqbolli va barqaror faoliyat yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu sektorni yanada qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy logistika va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali transport xizmatlari samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 1-yanvar holatida mamlakatda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni qariyb [387]475 mingga yetgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etib, ularning ulushi umumiy korxonalar sonining katta qismini egallamoqda. Mazkur holat mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yetakchi o‘rin tutayotganini hamda iqtisodiy faoliyatning asosiy drayverlaridan biriga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

[387] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. XV. O'zbekiston Respublikasida korxona va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot. 2026 yil 1 yanvar holati. Toshkent, 2026.

Tashkiliy-huquqiy shakllar tarkibida mas’uliyati cheklangan jamiyatlar ustun mavqega ega ekanligi kuzatilmoqda. Bu turdagi korxonalar tadbirkorlik faoliyatini yuritishda qulay boshqaruv tizimi, moliyaviy javobgarlikning cheklanganligi va biznesni tashkil etishdagi soddaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli mamlakatda biznes yuritishning eng ommabop shakllaridan biri aynan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, xususiy va oilaviy korxonalar ulushining ham sezilarli darajada ekanligi mamlakatda oilaviy tadbirkorlik va kichik biznesning faol rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, oilaviy korxonalar aholining bandligini ta’minlash, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ortib borayotgani ham mamlakat iqtisodiyotida ijobiy tendensiyalardan biri sifatida baholanmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2026 yil boshiga kelib xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli darajada oshgan. Bu holat O‘zbekistonning investitsion jozibadorligi ortib borayotganini va mamlakatda biznes yuritish uchun qulay muhit shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Xorijiy investitsiyalar tarkibida Xitoy yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Shu bilan birga, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston va Janubiy Koreya kabi davlatlar ham O‘zbekiston iqtisodiyotiga faol investitsiya kiritayotgan mamlakatlar qatoridan joy olgan. Ushbu hamkorlik sanoat, xizmat ko‘rsatish, transport, qurilish va boshqa tarmoqlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Mazkur ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda tadbirkorlik va investitsion faoliyat uchun yaratilayotgan sharoitlar tobora yaxshilanib borayotganini tasdiqlaydi. Kichik biznes va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ortishi iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, raqobat muhitining kuchayishi va mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi faolligi oshib borayotganidan dalolat beradi.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu sektorni rag‘batlantirish uzoq yillar davomida shakllangan

institutsional mexanizmlar asosida amalga oshirilmoqda.[388] Davlat tomonidan tadbirkorlarga maslahat xizmatlari koʻrsatish, moliyaviy yordam berish, soliq imtiyozlari yaratish hamda biznes yuritish uchun qulay muhitni shakllantirish kichik biznesni rivojlantirishning asosiy vositalari sifatida qoʻllaniladi.

Fransiya tajribasida kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash tizimi kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan. Ushbu mamlakatda tadbirkorlarni zarur iqtisodiy va huquqiy axborotlar bilan ta’minlash, ichki bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirish, eksport faoliyatini rivojlantirish hamda moliyaviy koʻmak mexanizmlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratiladi. Natijada kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning faol va barqaror segmentiga aylangan.

Kanadada esa kichik biznesni rivojlantirishda bandlik markazlari va maslahat xizmatlari muhim rol oʻynaydi. Ushbu tizim orqali tadbirkorlarga malakali xodimlarni tanlash, biznesni boshqarish, moliyaviy rejalashtirish va bozor faoliyatini tashkil etish boʻyicha amaliy yordam koʻrsatiladi. Bu esa kichik korxonalarning samarali faoliyat yuritishi va bozor sharoitiga tez moslashishiga xizmat qiladi.

Oʻzbekistonda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Soʻnggi yillarda ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan keng koʻlamli institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlik subyektlari uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash boʻyicha muhim chora-tadbirlar koʻrilmoqda.

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi Harakatlar strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiyada tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, biznes yuritish tartib-taomillarini soddalashtirish, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish hamda investitsion muhitni yaxshilash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi Oʻzbekiston iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, xizmat koʻrsatish

[388] OECD. Small Business, Job Creation and Growth: Facts, Obstacles and Best Practices. Paris: OECD Publishing, 2023. P. 17.

sohasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur sektor iqtisodiyotning moslashuvchan va tez rivojlanadigan qismi sifatida qisqa muddat ichida yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining daromad manbalarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kichik biznesning muhim afzalliklaridan biri nisbatan kam moliyaviy resurslar hisobiga yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkoniyatidir. Kichik korxonalar bozor talabidagi o‘zgarishlarga tez moslashadi, yangi faoliyat turlarini o‘zlashtiradi va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tez joriy etadi. Shu sababli kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kichik biznes bozor iqtisodiyotining eng faol va moslashuvchan tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U odatda xususiy mulkka asoslangan, mahalliy bozorda faoliyat yurituvchi hamda yirik korporatsiyalar bilan taqqoslaganda nisbatan kichik hajmdagi iqtisodiy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritib, yangi ish o‘rinlarini yaratish, xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, kichik biznes faoliyati bir qator o‘ziga xos xavf va murakkabliklar bilan ham bog‘liqdir. Yirik kompaniyalardan farqli ravishda, kichik korxonalar moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli iqtisodiy tavakkalchiliklarga ko‘proq duch keladi. Biznes faoliyatida yuzaga keladigan xatolar, bozor tebranishlari yoki kutilmagan iqtisodiy holatlar kichik korxonalar faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki ko‘plab tadbirkorlar o‘z biznesini tashkil etishda shaxsiy mablag‘lari va oilaviy resurslariga tayanadilar.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining ma’lum qismi faoliyatining dastlabki yillaridayoq bozor raqobatiga bardosh bera olmaydi. Ayniqsa, moliyaviy boshqaruvdagi kamchiliklar, marketing strategiyasining yetarli emasligi, tajriba va boshqaruv ko‘nikmalarining sustligi biznesning muvaffaqiyatsiz yakunlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va psixologik tavakkalchiliklarni ham o‘z ichiga oladi. Yangi biznesni yo‘lga qo‘yish ko‘pincha uzoq vaqt davomida intensiv mehnat qilishni talab etadi. Bu esa tadbirkorning oilaviy hayoti, dam olish va ijtimoiy munosabatlariga

ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish katta mas’uliyat, sabr-toqat va qat’iyatni talab qiladi.

Biroq mavjud xavflarga qaramasdan, kichik biznes ko‘plab insonlar uchun iqtisodiy mustaqillikka erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘pchilik tadbirkorlarni biznes faoliyatiga jalb qiluvchi asosiy omillardan biri — mustaqil qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini erkin boshqarish imkoniyatidir. Tadbirkor o‘z ish vaqti, biznes strategiyasi va rivojlanish yo‘nalishini mustaqil belgilaydi. Aynan mana shu erkinlik hissi ko‘plab insonlarni tadbirkorlik faoliyatiga undaydi.

Daromad olish omili ham tadbirkorlikning muhim rag‘batlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Muvaffaqiyatli biznes katta iqtisodiy foyda keltirishi mumkinligi ko‘plab insonlarni ushbu faoliyat turiga qiziqtiradi. Biroq zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlar uchun faqat moliyaviy manfaat emas, balki shaxsiy rivojlanish, mustaqillik, jamiyatga foyda keltirish va o‘z salohiyatini namoyon etish kabi omillar ham muhim ahamiyatga ega.

Kichik biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko‘p jihatdan samarali boshqaruvga bog‘liqdir. Tadbirkor tashkilotni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, inson resurslaridan oqilona foydalanish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Chunki tadbirkor tomonidan qabul qilinadigan har bir qaror korxona faoliyatining moliyaviy natijalari va istiqboldagi rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, biznesning uzoq muddatli faoliyat yuritishi uchun rentabellikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Foyda korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash, ishlab chiqarishni kengaytirish va bozor raqobatida muvaffaqiyat qozonishning asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy natijadorlik doimo ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Umuman olganda, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida hali ham qator muammolar va to‘siqlar mavjud. Ularni bartaraf etish uchun zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, biznes infratuzilmasini rivojlantirish, tadbirkorlarga amaliy va moliyaviy yordam ko‘rsatish hamda qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish zarur. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlanish, raqamli texnologiyalar va zamonaviy menejment usullari asosida qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

10.4. Korxonalarning davlat tomonidan ro‘yxatga olinishi.

Har qanday shakldagi korxona joylashgan manzilgohi bo‘yicha davlat organlarida ro‘yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi.

Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatiga olish, tegishli ravishda, yustitsiya organlari yoki tuman (shahar)lar hoqimliklari huzuridagi Tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatga olish inspektsiyalari o‘rniga tashkil etilgan “yagona darcha” markazlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015 yil 15 maydagi PF-4725-sonli farmonining ijrosini ta’minlash va tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshirish va shaffofligini ta’minlash maqsadida tuman (shahar) hoqimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspektsiyalari negizida tadbirkorlik sub’ektlariga yagona darchaprintsipi bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlari tashkil etildi.

Bundan kelib chiqqan holda, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlarida mavjud “yagona darcha”xizmatlarining faoliyati 2016-yilning 1-yanvaridan boshlab to‘xtatildi.

Mazkur hujjatga ko‘ra, “Yagona darcha” markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi[389]:

– “yagona darcha” printsipi bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatish; tadbirkorlik sub’ektlariga ro‘yxatdan o‘tkazish, ruxsat berish

– va litsenziyalash tartib-taomillarida shaffoflikni ta’minlash; tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko‘rsatishda byurokratik

– g‘ov-to‘siqlarga yo‘l qo‘ymasdan davlat xizmatlari ko‘rsatayotgan davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatish;

– arizachilarga axborot yordam ko‘rsatish, shuningdek davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi va muddatlari to‘g‘risida bepul konsultatsiya berish.

Korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi va muddatlarini “Tadbirkorliksub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga

[389] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo’lidagi to’siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2015 yil 15 maydagi PF-4725-sonli farmoni

qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-oktyabrdagi PQ-2646 sonli qarori belgilab beradi.

Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibini tubdan takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ularning davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarida bevosita muloqot qilmaydigan shakllaridan foydalanishni jadal rag‘batlantirish maqsadida mazkur qarorda alohida chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi. Chora-tadbirlarda tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimini bosqichma-bosqich ishlab chiqish va joriy etish, 2017-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat interaktiv xizmatlari yagona portaliga integratsiyalashgan Internet tarmog‘idagi Tizim orqali kechayu kunduz o‘tkazish va hisobga qo‘yish, ta’minlash belgilab berildi.Ushbu talablar banklar va kredit byurolari, ularning filiallari va vakolatxonalari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlariga tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017 y. 1-fevral PQ-2750[390] Qaroriga muvofiq tuman va shaharlarda faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlariga “yagona darcha” printsipi asosida davlat xizmatlarini ko‘rsatish markazlari tuman (shahar) hoqimliklari tuzilmasidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi boshqaruviga o‘tkazilmoqda. Bu esa “yagona darcha” markazlarini samarali boshqarish, ularning faoliyatini va boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligini tashkil etishga nisbatan tizimli yondashuvni belgilash imkoniyatini beradi.

Banklar va kredit byurolari, ularning filiallari va vakolatxonalaridan tashqari barcha tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish “yagona darcha” markazlari zimmasiga yuklatilmoqda. Bunday chora tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning mavjud tarqoq tizimi o‘rniga yangi, yaxlit tizimni yaratishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi “yagona darcha” markazlari faoliyatiga umumiy rahbarlikni hamda tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatishga oid qonunchilikka rioya

[390] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlarini ko’rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2017 y. 1 fevral PQ-2750

etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi vakolatli organ etib belgilandi.

“Yagona darcha” markazlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 16 turdagi ruxsatnomalarni boshqa idoralarga bormasdan rasmiylashtirish amaliyoti tadbirkorlik sub’ektlari- ning vaqti va moddiy sarf-harajatlarini tejashga ko‘maklashadi.

10.2-jadval

Tadbirkorlik sub’ektlariga “Yagona darcha” printsipi bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlari[391]

	Xizmat nomi
1.	Tadbirkorlik sub’ektlarini muhandislik-kommunikatsiya tizimlariga “foydalanishga tayyor” shartlarda ulash
2.	Bino va inshootlarning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirishga (fasadni ta’mirlashga) kelishish
3.	Bino va inshootlarni qayta-ixtisoslashtirish va rekonstruktsiya qilishga ruxsat berish
4.	Qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsat berish
5.	Yer uchastkalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqida guvohnoma berish
6.	Bino, inshoot va ko‘p yillik darahtlarga bo‘lgan huquqlarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqida guvohnoma berish
7.	Ipoteka, bino va inshootlar, shuningdek, yer uchastkasiga bo‘lgan ashyoviy huquqlar ipotekasi to‘g‘risidagi shartnomalarning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi haqida guvohnoma berish
8.	Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish huquqini beradigan ruxsat guvohnomasini berish
9.	Alkogolli mahsulotlar bilan umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo qilish huquqini beradigan ruxsat guvohnomasini berish
10.	Ko‘chma savdoni amalga oshirish huquqini beradigan ruxsat guvohnomasini berish
11.	Tashqi reklamani joylashtirishga ruxsat berish
12.	Turarjoy binolarini noturar joy toifasiga o‘tkazishga ruxsat berish
13.	Yer osti konlaridan foydalanishda buzilgan yerlar rekultivatsiyasi o‘tkazilganligi to‘g‘risida xulosa berish
14.	O‘rmon fondiga kirmaydigan hududlarda daraxtlarni kesishga ruxsat berish

[391] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlariga «yagona darcha» tamoyili bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” - 2015 yil 28 sentyabrdagi PQ-2412-sonli qarori.

15.	Suvdan maxsus foydalanish va iste’mol qilishga ruxsat berish
16.	O‘simlik dunyosi ob’ektlaridan maxsus foydalanishga ruxsat berish

Bundan tashqari 2018-yil 1-yanvardan boshlab “yagona darcha” markazlari orqali taqdim etiladigan litsenziya va ruxsatnomalarni qog‘oz shaklidagi maxsus blankalarda majburiy rasmiylashtirish talabi bekor qilinadi. Bunda berilgan, to‘xtatib qo‘yilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan, shuningdek, amal qilishi tugatilgan ruxsatnoma va litsenziyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “Litsenziya” axborot tizimlari majmuasi orqali olish imkoniyati yaratiladi.

Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va davlat hisobiga qo‘yish tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil

28 oktyabrdagi PQ–2486-sonli qarorini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi 2017 yil 9 fevraldagi 66-sonli hukumat qaroriga muvofiq, tadbirkorlik sub’ektlarini – yuridik va jismoniy shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazishning mutlaqo yangi tartibi o‘rnatildi[392].

2017-yilning aprel oyidan boshlab, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish mexanizmini batafsil yoritib beruvchi yagona hujjatni tasdiqlash yo‘li bilan tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibotini tartibga soluvchi 62 ta me’yoriy-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritildi[393]

2017-yilning Fevral oyidan boshlab “yagona darcha” markazlari barcha tadbirkorlik sub’ektlari uchun yagona ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ etib belgilandi, banklar va kredit byurolari bundan mustasno. Davlat statistika qo‘mitasining firma nomini zaxira qilib qo‘yishga doir, Davlat soliq qo‘mitasining tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib kiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga doir, shuningdek, Adliya vazirligining xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar, sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlari, auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari, birjalar, lombardlar, investitsiya fondlari, bozorlar hamda boshqa tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazishga doir funksiyalari 194 ta “yagona darcha” markazlariga topshirildi.

---

[392] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yish tizimini takomillashtirish to’g’risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori.

[393] I. Hotamov, Sh. Mustafaqulov, M. Isakov, A. Abduvaliev Korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish (o‘quv qo‘llanma),- T.:2019 yil, 95б

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimi vositasida Yagona portalda.

Ariza beruvchilar davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun tegishli (pochta manziliga muvofiq joylashgan joydagi – yuridik shaxslar uchun yoki doimiy ro‘yxatda turgan joyidagi yoxud doimiy yashash joyidagi – jismoniy shaxslar uchun) ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga o‘zlari kelib murojaat qilgan holda.

Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali quyidagilar amalga oshiriladi[394]:

– davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

– qayta tashkil etish yo‘li bilan tashkil etilayotgan tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

– qayta ro‘yxatdan o‘tkazish;

– davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun davlat bojini to‘lash;

– ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomani erkin olish;

– yakka tartibdagi tadbirkor faoliyatini vaqtincha to‘xtatib turish va tiklash to‘g‘risida ariza topshirish;

– ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar va vakolatli tashkilotlarning belgilangan tartibdagi hamkorligi;

– ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlar va vakolatli tashkilotlarni, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarini tadbirkorlik sub’ektining manzili (joylashgan joyi, yashash joyi) o‘zgarganligi to‘g‘risida xabardor qilish;

– “tadbirkorlik sub’ektining shaxsiy kabineti”ni ochish va undan erkin foydalanish;

– reestrdan ko‘chirma, so‘ralayotgan hujjat, tadbirkorlik sub’ektlarining ro‘yxati yoki so‘ralayotgan ma’lumotning va (yoxud) hujjatning mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma shaklidagi aniq tadbirkorlik sub’ektlari haqida ma’lumot so‘rash va olish.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi

[394] I. Hotamov, Sh. Mustafaqulov, M. Isakov, A. Abduvaliev Korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish (o‘quv qo‘llanma),- T.:2019 yil, 966

to‘g‘risidagi nizom”da nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi (10.3-jadval).

10.3-jadval

Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun belgilangan muddatlar[395]

T/r	Tadbirkorlik faoliyati shakllarining nomi	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning belgilangan muddatlari
I. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish		
1.	Yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan, dehqon xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda
2.	Tadbirkorlik faoliyatining boshqa shakllari	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda
II. Tadbirkorlik sub’ektlarinidavlat ro‘yxatidan qayta o‘tkazish		
.	Dehqon xo‘jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati sub’ektlari boshlig‘i o‘zgarganda	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda
4.	Ta’sis hujjatlariga ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning (hissaning) boshqa shaxsga o‘tishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganda	16 ish soatidan oshmagan vaqtda
5.	Ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlariga (ta’sis hujjatlariga) kiritilayotgan boshqa o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritilganda	real vaqt rejimida, lekin 30 minutdan oshmagan vaqtda

2017-yilning aprel oyidan boshlab, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish real vaqt rejimida ariza yuborilgan paytdan e’tiboran 30 daqiqa davomida amalga oshiriladi, quyidagi ikki holat bundan mustasno – ro‘yxatdan o‘tkazilishi 16 ish soati davomida amalga oshiriladigan ustav fondining oshirilishi va ta’sischilarning ulushlari (hissalari) boshqa shaxsga o‘tishi Biznesni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, shuningdek, qayta ro‘yxatdan o‘tkazishga arizani quyidagi usullardan biri orqali topshirish mumkin – my.gov.uz. ga integratsiya qilingan, 24/7 rejimida ishlovchi avtomatlashtirilgan ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi orqali yoki arizachida Internetdan foydalanish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda – ro‘yxatdan o‘tkazish joyidagi respublikaning barcha tumanlari va shaharlarida ishlaydigan “yagona darcha” markazlariga murojaat qilgan holda. Yuridik

[395] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yish tizimini takomillashtirish to’g’risida” 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori.

shaxsni (tijorat tashkilotini) ro‘yxatdan o‘tkazishda taqdim etilayotgan hujjatlar soni 6 tadan 2 tagacha qisqartirilgan, ya’ni faqatgina ariza va ta’sis hujjatlari talab etiladi (shuningdek, topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansi taqdim etilishi lozim bo‘lgan qo‘shib yuborish, bo‘lish hamda ajratib chiqarish holatlari bundan mustasno), yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) uchun zarur bo‘lgan hujjatlar soni 7 tadan 1 tagacha qisqartirilgan, ya’ni faqatgina ariza taqdim etish talab etiladi.

Yagona portal –my.gov.uz orqali avtomatlashtirilgan tizim vositasida ro‘yxatdan o‘tkazish tartiboti hozir bo‘lgan tartibda murojaat qilishga nisbatan bir qator ustunliklarga ega ekanligini ta’kidlash joizdir. Xususan, birinchidan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga qog‘oz shaklidagi hujjatlarning asl nusxalarini taqdim etish zarurati bo‘lmaydi, bu esa arizachilarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tkazishga davlat bojlarini to‘lash uchun bank kassalariga shaxsan borishlari majburiyatidan ozod qiladi, natijada arizachining bilvosita harajatlari qisqaradi, ikkinchidan hujjatlar Internet orqali topshirilganda ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun davlat bojlari stavkalari hozir bo‘lish tartibida murojaat qilish holatiga nisbatan ikki barobar past qilib belgilangan, uchinchidan biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun hujjatlarni topshirishni arizachiga qulay bo‘lgan istalgan vaqtda boshlash, to‘xtatish yoki rasmiylashtirishni qaytadan davom ettirish mumkin. Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, tadbirkorlik sub’ektlari yagona davlat reestridan ma’lumotlar berish uchun tegishlicha stavkalar bo‘yicha davlat bojlari va yig‘imlar to‘lanadi.

10.4-jadval

Tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun davlat bojlari stavkalari[396]

Tadbirkorlik sub’ektlari	Davlat bojlari stavkalari
xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun	hozir bo‘lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining besh baravari va 500 AQSh dollari, Internet butunjahon tarmog‘i orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda esa hozir bo‘lish tartibida murojaat etganlik uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida

[396] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yish tizimini takomillashtirish to’g’risida" 2016 yil 28 oktyabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi 66-son qarori

sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlari, auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari, birjalar, lombardlar, investitsiya fondlarini, “O‘zbekoziqovqatzaxira” meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash va g‘amlash korxonalari uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalarni, bozorlarni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining tegishli qarorlari bilan aktsiyadorlik jamiyatlari (shu jumladan, xolding) shaklida tashkil etilayotgan xo‘jalik boshqaruvi organlarini ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun	hozir bo‘lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining to‘rt baravari, Internet butunjahon tarmog‘i orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda esa hozir bo‘lish tartibida murojaat etganlik uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida";
yuridik shaxslarni – tadbirkorlik sub’ektlarini, yuridik shaxs bo‘lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarni hamda yuridik shaxs bo‘lmagan oilaviy tadbirkorlik sub’ektlarini ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun	hozir bo‘lish tartibida murojaat etilganda eng kam oylik ish haqining bir baravari, Internet butunjahon tarmog‘i orqali davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda esa hozir bo‘lish tartibida murojaat etganlik uchun belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida;

Quyida muhim qulaylik mavjud – ro‘yxatdan o‘tkazishga so‘rovnoma tanlanayotgan firma nomini avtomatik tarzda tekshirishni inobatga olgan holda arizachi tomonidan ma’lumotlarni, asosan, ochiladigan menyudan tanlash yo‘li bilan onlayn to‘ldiriladi, bu esa noaniqliklarni bartaraf etadi, taqdim etilayotgan ma’lumotlarni standartlashtiradi va ularni qayta ishlashni soddalashtiradi. Shuningdek, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun hujjatlarni elektron raqamli imzo bilan imzolash talab etilmaydi, bunda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Yagona portalda unda ko‘rsatilgan usullardan biri orqali masofadan ro‘yxatdan o‘tishlari lozim bo‘ladi. Arizachilarning xohishiga ko‘ra, avtomatlashtirilgan tizim arizada ko‘rsatilgan ma’lumotlardan kelib chiqib shakllantiradigan, ta’sis hujjatlarining namunaviy shakllaridan foydalanish yoki arizaga skaner qilingan ta’sis hujjatlarini ilova qilish mumkin. Ilk marotaba davlat bojlarini respublikada faoliyat yuritib turgan elektron to‘lov tizimlari orqali to‘lash mumkin bo‘ladi, bunda arizachidan belgilangan davlat boji stavkasining 1 foizi miqdoridato‘lov undiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) o‘z faoliyatlarini vaqtinchalik to‘xtatib turish yoki qayta tiklash to‘g‘risidagi arizani avtomatlashtirilgan tizim orqali topshirishlari mumkin bo‘ladi, bu esa YaTTning soliqlar to‘lamaslik bilan bog‘liq bo‘lgan tavakkalchiliklarini soddalashtirish va pasaytirishga yordam beradi. Tadbirkorlik sub’ekti barcha tegishli vakolatli davlat (litsenziyalovchi va hokazo) organlarini uning manzili (joylashgan joyi, yashash joyi) o‘zgarganligi to‘g‘risida avtomatlashtirilgan tizim vositasida bir vaqtning o‘zida xabardor qila oladi, bu esa davlat organlariga alohida xabarnomalar jo‘natishga zarurat qoldirmaydi. Shuningdek, qayta tashkil etish to‘g‘risidagi axborotni bosma ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish to‘g‘risidagi talabni bekor qiladi, bunda axborotni kreditorlar tanishib chiqishlari uchun Yagona portalda elon qilish yetarli bo‘ladi, bu esa tadbirkorlar harajatlarini kamaytiradi.

Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish uchun asoslarning batafsil ro‘yxati belgilangan. Demak, ro‘yxatdan o‘tkazish uchun so‘rovnoma to‘ldirilayotganda ko‘rsatilgan ma’lumotlar avtomatlashtirilgan tizimning tegishli ma’lumotlar bazalari bo‘yicha avtomatik tarzda tekshiriladi.

Yuridik shaxsni va YaTTni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomani, shuningdek, ularning dublikatlarini maxsus blanklarda qog‘oz ko‘rinishida berish amaliyoti bekor qilinadi, bu esa ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organlarning ularni tayyorlash uchun ketadigan yillik harajatlarini qisqartiradi. Tadbirkorlik sub’ektlari ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnoma va ta’sis hujjatlarini istalgan vaqtda hamda istalgan nusxada nashr qilib olishlari mumkin. Shu tarzda davlat organlari Yagona portaldagi Elektron hujjatlarning repozitoriysi orqali qayta tashkil etish to‘g‘risidagi guvohnomadan foydalanish (shu jumladan, litsenziyalar, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar berishda, bank hisob raqami ochishda va boshqa turdagi davlat xizmatlarini ko‘rsatishda), shuningdek, avtomatlashtirilgan tizim vositasida, tadbirkorlardan talab qilib olmasdan ta’sis hujjatlaridan foydalanishga tadbirkorlardan ruxsat olishlariga imkon beruvchi mexanizm yo‘lga qo‘yildi. Avtomatlashtirilgan tizimda mavjud bo‘lgan, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha elektron hujjatlar, shuningdek, skaner qilingan hujjatlarga giperhavolalar, axborot xavfsizligini ta’minlash hamda ulardan foydalanish qulayligini inobatga olgan holda elektron hujjatlarning repozitoriysida saqlanadi.

Tadbirkorlik sub’ektiga tizim imkoniyatlaridan foydalangan holda unga taalluqli bo‘lgan hujjatlar va ma’lumotlar davlat organlari

tomonidan so‘ralgan holatlari to‘g‘risida axborot olish huquqi berilgan, qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik sub’ekti erkin foydalanishi taqiqlangan axborot bundan mustasno. Yuritilishi markazlashtirilgan tarzda elektron ko‘rinishda amalga oshiriladigan Tadbirkorlik sub’ektlari yagona davlat reestrida (TSYaDR) mavjud bo‘lgan dolzarb ma’lumotlarning shaffofligini va ulardan erkin foydalanish imkonini oshirish o‘ta muhimdir. Yagona portalga joylashtiriladigan va ular o‘zgarishi bilanoq har soatda yangilanib boriladigan ma’lumotlarning eng kam hajmi belgilandi. Demak, yuridik shaxslar to‘g‘risidagi quyidagi axborotdan ommaviy foydalanish mumkin bo‘ladi: nomi, STIR, maqomi (faoliyat yuritayotgan, tugatilish jarayonida, faoliyatini to‘xtatgan), tashkiliy-huquqiy shakli, mulkchilik shakli, ustav fondining miqdori, qimmatli qog‘ozlari to‘g‘risidagi axborot, manzili va hokazo; YaTTlar qismida: ismi, familiyasi, STIR, amalga oshirilayotgan faoliyat turi, jinsi va hokazo. Ro‘yxatdan o‘tkazish ma’lumotlari o‘rtasidagi farqlanishlarning oldini olish maqsadida ularning nisbatan ustunligini aniqlash qoidalari belgilangan. Demak, ta’sis hujjatlaridagi ma’lumotlar bir-biridan farq qilganida, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organda saqlanayotgan hujjatlar nisbatan ustunroq kuchga ega bo‘ladi.

Shu bilan bir qatorda, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi va vakolatli organlar o‘rtasidagi hamkorlik, ma’lumotlar almashish, ularni solishtirish hamda boshqa masalalar alohida hujjatga ajratilgan, bu esa ham tegishli davlat organlari xodimlari uchun hamda tadbirkorlik sub’ektlari uchun (tadbirkorlarga taalluqli bo‘lmagan ichki tartibotlarni o‘rganib chiqish zaruratini istisno qilgani holda) qo‘shimcha qulayliklar beradi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida nazarda tutilgan, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini isloh qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish davlat xizmatining – “biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish”ning shaffofligi va sifatini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekistonni 2017–2021 yillarda rivojlantirishga doir harakatlar strategiyasida mamlakatning Jahon banki “Doing Business” tadqiqotlaridagi davlat xalqaro reytingini oshirishni ta’minlashga oid vazifa qo‘yilgan. Demak, korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazishning yangi mexanizmi Jahon bankining navbatdagi “Doing Business-2018 tadqiqotlarida “biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish” mezoniga ijobiy ta’sir qiladi.

Jahon banki uslubiyatiga muvofiq, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish yangi tartibga ko‘ra ikkita jarayonda (birinchisi – barcha ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tartibotlarini avtomatlashtirish bilan real vaqt rejimida ro‘yxatdan o‘tkazish, ikkinchisi – taqdim etiladigan qog‘oz hujjatlarni kamaytirish bilan bank hisob raqamini ochish) amalga oshiriladi. Biznes yuritishni boshlash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha rasmiyatchiliklarni inobatga olgan holda korxonani ochish jarayoni (ushbu vaqtga firma nomini zaxiraga olib qo‘yish, ro‘yxatdan o‘tkazish uchun davlat bojini to‘lash, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma va ro‘yxatdan o‘tkazilgan ta’sis hujjatlarini olish, muhrni tayyorlash, soliq organlarida, statistika organlarida hamda Xalq bankida hisobga qo‘yish, shuningdek, bankda hisob raqamini ochish kiradi) bir kundan kam vaqtni talab qiladi.

Quyidagilar davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni, qayta ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish uchun asos bo‘ladi:

– davlat boji to‘lanmaganligi yoki uning to‘liq bo‘lmagan miqdorda to‘langanligi;

– tegishli bo‘lmagan ro‘yxatdan o‘tkazish organiga murojaat qilinganligi;

– qonunchilikda nazarda tutilgan hujjatlar va (yoki) ma’lumotlar to‘liq bo‘lmagan hajmda taqdim etilganligi;

– qonunchilik va ta’sis hujjatlari bilan vakolat berilmagan organ tomonidan ta’sis hujjatlarini tasdiqlash (xulosaga kelish), ularga o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi – ustav fondi miqdori oshirilgan, ulush (hissa) boshqa shaxsga o‘tgan, qayta tashkil etilgan taqdirda;

– davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda, qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda qonun hujjatlari bilan ustav fondining miqdoriga doir talablar belgilangan tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar uchun ta’sis hujjatlarida qonunchilikda nazarda tutilgan ustav fondining eng kam miqdoridan kam bo‘lgan miqdorning belgilanganligi.

Tayanch atamalar va iboralar

1-guruh — Tadbirkorlikning asosiy tushunchalari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
1	***Tadbirkorlik***	Mustaqil tashabbus, javobgarlik va ijodkorlikka asoslangan, foyda olishga

		yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyatning alohida turi. Tadbirkorlikka berilgan asosiy ta’rif bo‘yicha (R. Xizrich): o‘z qiymatiga ega yangi narsa yaratish jarayoni bo‘lib, tadbirkor moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni o‘ziga ola faoliyat ko‘rsatadi. J. Shumpeter ta’rifida — innovatsiya (yangi kombinatsiyalarni joriy etish) asosiy belgi hisoblanadi. Qonuniy ta’rif: o‘z nomidan, o‘z mulkiy mas’uliyati evaziga amalga oshiriladigan mustaqil faoliyat.
2	***Kichik biznes***	Xususiy sektorga ega, o‘z bozorida dominant bo‘lmagan, nisbatan kichik ishchi kuchi bilan ishlaydigan va mahalliy operatsiyalarga yo‘naltirilgan tashkilot. O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra kichik tadbirkorlik sub’ektlari: yakka tartibdagi tadbirkorlar; mikrofirmalar (xizmat ko‘rsatishda 10 tagacha, ishlab chiqarishda 20 tagacha xodim); va tarmoqqa qarab 25-200 kishigacha xodimli kichik korxonalar. 2026 yil 1 yanvar holatiga O‘zbekistonda 1 201 612 ta kichik tadbirkorlik sub’ekti faoliyat yuritmoqda.
2-guruh — Tadbirkorlik muhiti va uni shakllantiruvchi omillar		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
3	***Tadbirkorlik muhiti***	Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlar yig‘indisi. To‘rtta asosiy omildan iborat: huquqiy omil (qonunlar, yo‘riqnomalar); siyosiy omil (siyosiy barqarorlik, davlatning tadbirkorlikka munosabati); ijtimoiy omil (milliy urf-odatlar,

		jamiyatning tadbirkorlikka munosabati); iqtisodiy omil (raqobat sharoiti, narxlar, kredit stavkasi). Muhit qulay bo‘lganda tadbirkor faoliyatini uzoq muddatga rejalashtirishga imkon topadi.
4	***Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish***	Davlat va jamiyatning kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga, ular faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasi. Asosiy yo‘nalishlar: moliyaviy yordam (kreditlar, grantlar, imtiyozlar); ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish; tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish; kasbiy ta’lim va maslahat xizmatlarini kengaytirish. O‘zbekistonda 2017 yil Harakatlar strategiyasida kichik biznesni rivojlantirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan.
3-guruh — Raqobat va samaradorlik		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
5	***Raqobat***	Bozorda iste’molchilarning e’tibori, manfaati va xarid uchun bir xil yoki o‘xshash tovar va xizmatlar taklif etuvchi tadbirkorlar o‘rtasidagi iqtisodiy kurash. A. Smit tomonidan bozor tizimining markaziy mexanizmi sifatida ta’riflangan: o‘z manfaatini ko‘zlab yurgan har bir kishi bozorda raqobatchi taklif qilgan narxlarga rozi bo‘lishga majbur bo‘ladi. Raqobat narxlarni me’yorida ushlab turadi, sifatni oshiradi va iste’molchilarni himoya qiladi.
6	***Tadbirkorlikning samaradorligi***	Tadbirkorlik faoliyatining natijalarini sarflangan resurslar (kapital, vaqt, mehnat) bilan taqqoslab baholash ko‘rsatkichi. Iqtisodiy samaradorlik:

		foyda miqdori, rentabellik, mehnat unumdorligi; ijtimoiy samaradorlik: yangi ish o‘rinlari yaratish, aholining daromadini oshirish; milliy samaradorlik: YaIM ga qo‘shilgan qiymat, eksport salohiyati. 2025 yilda O‘zbekiston kichik tadbirkorligining YaIM dagi hajmi 923 514,6 mlrd so‘mni tashkil etdi. Samaradorlik iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlaydigan asosiy mezon hisoblanadi.
4-guruh — Qo‘shimcha tayanch tushunchalar		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
7	***Innovatsion tadbirkorlik (intrapreneurlik)***	Yirik tashkilot ichida yangi g‘oyalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan ichki tadbirkorlik shakli. «Intrapreneur» atamasi amerikalik olim G. Pinchot tomonidan muomalaga kiritilgan. Tashkilot bo‘linmalari harakat erkinligini olib, tadbirkorlik asosidagi g‘oyalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan intrakitalini ishlatadi. Zamonaviy yirik korporatsiyalar yangiliklar joriy etish uchun aynan shu mexanizmdan foydalanadi.

Nazorat savollari

1. Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalarining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
2. Tadbirkorlik nazariyasining shakllanishiga hissa qo‘shgan asosiy iqtisodchi olimlar kimlar va ularning qarashlari qanday farqlanadi?
3. Y. Shumpeter tadbirkorni qanday tavsiflaydi va uning innovatsion yondashuvi nimaga asoslanadi?
4. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy xususiyatlari va tamoyillarini izohlang.
5. Tadbirkorlik muhitiga ta’sir etuvchi huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar qanday ahamiyatga ega?

6. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qanday davlat siyosati va dasturlar amalga oshirilmoqda?

7. Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va aholi bandligini ta’minlashdagi ahamiyatini tushuntiring.

8. Tadbirkor va menejer tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?

9. Kichik biznes faoliyatida uchraydigan asosiy risklar va ularni kamaytirish yo‘llarini izohlang.

10. Zamonaviy sharoitda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning roli qanday?

XI BOB. TRANSPORT SOHASIDA DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK MUNOSABATLARINI ISTIQBOLLARI

11.1. Davlat xususiy hamkorlikning mohiyati, huquqiy va institutsional asoslari.

11.2. Davlat-xususiy sheriklik asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

11.3. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va uning amalga oshirish bosqichlari.

11.1. Davlat-xususiy hamkorlikning mohiyati, huquqiy va institutsional asoslari

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va xususiy sektor faolligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida mamlakatda investorlar uchun yanada qulay iqtisodiy va huquqiy sharoitlar shakllanib, xorijiy hamda mahalliy investitsiyalar hajmi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Ayniqsa, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirish iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.[397]

Bugungi kunda davlat-xususiy sherikchilik modeli jahondagi ko‘plab mamlakatlarda samarali iqtisodiy mexanizm sifatida keng qo‘llanilmoqda. Hozirgi davrda dunyoning yuzdan ortiq davlatlarida davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan loyihalar infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va davlat xizmatlari sifatini oshirishda muhim vosita sifatida foydalanilmoqda. Ushbu tajriba DXSh tizimining iqtisodiy samaradorligi va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Davlat-xususiy sherikchilik davlat organlari va xususiy sektor o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini anglatadi. Mazkur hamkorlik asosida davlat va xususiy investorlar ma’lum loyiha yoki xizmatlarni amalga oshirish jarayonida o‘z resurslari, moliyaviy imkoniyatlari, tajribasi va boshqaruv salohiyatini birlashtiradi. Bunda davlat, asosan, strategik yo‘nalishlarni belgilash, huquqiy kafolatlar yaratish va ijtimoiy manfaatlarni himoya qilish vazifasini bajarsa, xususiy sektor investitsiya kiritish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va loyiha samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Transport sohasida davlat-xususiy sherikchilikning ahamiyati ayniqsa yuqori hisoblanadi. Chunki transport infratuzilmasini

397 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 'O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida'gi Farmoni. PF-4947.

rivojlantirish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Zamonaviy avtomobil yo‘llari, temir yo‘l liniyalari, aeroportlar, logistika markazlari va transport terminallarini qurish davlat budjeti imkoniyatlari bilan bir qatorda xususiy kapitalni ham jalb qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli DXSh mexanizmi transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur tizimning iqtisodiy ahamiyatini turizm sohasi misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Turizmni rivojlantirish uchun mehmonxonalar, transport kommunikatsiyalari, aeroportlar va servis infratuzilmasining zamonaviy talablar asosida shakllantirilishi zarur. Bunday infratuzilma loyihalari esa ko‘pincha katta investitsion mablag‘larni talab qiladi. Davlat-xususiy sherikchilik orqali ushbu loyihalarni amalga oshirish nafaqat infratuzilma sifatini oshiradi, balki yangi investitsion imkoniyatlarni ham yuzaga keltiradi.

Shuningdek, DXSh mexanizmi davlat xarajatlarini optimallashtirish, xususiy sektorning boshqaruv tajribasidan foydalanish hamda xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Xususiy investorlar tomonidan zamonaviy texnologiyalar va innovatsion boshqaruv usullarining joriy etilishi loyiha samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada transport tizimining raqobatbardoshligi ortadi va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanadi.[398]

Davlat-xususiy sherikchilikning samarali faoliyat yuritishi mustahkam huquqiy va institutsional bazaning mavjudligini talab qiladi. Shu sababli O‘zbekistonda DXSh sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari kuchaytirilmoqda hamda loyiha boshqaruvi tizimlari rivojlantirilmoqda.

Umuman olganda, davlat-xususiy sherikchilik transport infratuzilmasini rivojlantirish, investitsion faollikni oshirish, zamonaviy xizmatlar tizimini shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim strategik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik tizimini rivojlantirish va ushbu sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida muhim qadamlardan biri sifatida 2019 yil 10 may kuni “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etdi.[399]Mazkur qonun uzoq muddat davomida ishlab chiqilib, mutaxassislar, ekspertlar va keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilindi. Natijada

[398] World Bank. Public-Private Partnerships Reference Guide. Version 3.0. Washington D.C.: World Bank, 2017. P. 23.
[399] O'zbekiston Respublikasining 'Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida'gi Qonuni. 2019 yil 10 may. №ORQ-537.

davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini tartibga soluvchi zamonaviy huquqiy mexanizm shakllantirildi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi mamlakatda iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish va iqtisodiyotda samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirish davlat va biznes hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risidagi qonunchilik bazasini shakllantirish jarayonida xalqaro tashkilotlar va xorijiy ekspertlarning tajribasidan ham keng foydalanildi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati bilan hamkorlikda amalga oshirgan loyihalari mazkur qonun loyihasini ishlab chiqishda muhim ekspertlik yordamini ko‘rsatdi. [400] Bu esa qonunchilikning xalqaro standartlarga mos ravishda shakllanishiga hamda milliy iqtisodiyot ehtiyojlariga uyg‘unlashtirilishiga imkon yaratdi.

Davlat-xususiy sherikchilikning asosiy maqsadi davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlik muhitini yaratish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb etishdan iboratdir. Mazkur tizim orqali davlat va xususiy investorlarning moliyaviy, texnik va tashkiliy resurslarini birlashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada infratuzilma loyihalarini amalga oshirish samaradorligi oshadi, davlat budjeti yuklamasi kamayadi va zamonaviy xizmatlar ko‘rsatish tizimi rivojlanadi.

Ayniqsa, transport, energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim, kommunal xizmatlar va ekologiya sohalarida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining joriy etilishi katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Yo‘llar, aeroportlar, logistika markazlari, shifoxonalar, maktablar, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kabi infratuzilma loyihalarida xususiy sektor ishtirokining kengayishi zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

[400] BMT TDning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati bilan 'O'zbekistonda investitsiyaga oid muhitni takomillashtirish' mavzusidagi loyiha ekspert xulosasi. 2018. 34-bet.

Shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik tizimi hukumat, biznes va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi tamoyillar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Bunda davlat strategik nazorat va ijtimoiy manfaatlarni ta’minlash vazifasini bajarsa, xususiy sektor investitsiyalar, innovatsiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish orqali loyiha samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik tizimining huquqiy va institutsional asoslarini shakllantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, investitsion faollikni oshirish va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi mamlakatda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayoniga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Chunki davlat va xususiy sektor hamkorligi iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy rivojlanishni jadallashtirishda muhim mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, investitsiyalarni keng jalb qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sifatini oshirish orqali BRM doirasidagi ko‘plab vazifalarni amalga oshirish imkoniyati kengaymoqda.[401]

Barqaror rivojlanish maqsadlarining sakkizinchi yo‘nalishi — “Munosib ish va iqtisodiy o‘sish” — davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ushbu maqsad doirasida moliyaviy institutlar faoliyatini mustahkamlash, aholining bank, sug‘urta va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Davlat-xususiy sherikchilik orqali moliyaviy resurslarni iqtisodiyotga faol jalb qilish, yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari kengayadi. Natijada yangi ish o‘rinlari yaratiladi, iqtisodiy faollik ortadi va aholining daromad manbalari kengayadi.

To‘qqizinchi Barqaror rivojlanish maqsadi — “Sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma” — ham DXSh mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu maqsadning asosiy yo‘nalishlaridan biri sanoatni modernizatsiya qilish, ekologik xavfsiz texnologiyalarni keng joriy etish hamda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishdan iborat. Davlat-xususiy sherikchilik loyihalari aynan shu vazifalarni amalga oshirishda muhim moliyaviy va institutsional vosita sifatida xizmat qiladi.

[401] UNCTAD. World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. Geneva: UN, 2023. P. 74.

Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish va ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni rivojlantirish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladi. Bunday loyihalarni faqat davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirish ko‘pincha murakkab bo‘ladi. Shu sababli xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish va zamonaviy boshqaruv tajribasidan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

Shuningdek, transport, energetika, logistika va kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish ham davlat-xususiy sherikchilikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy yo‘llar, aeroportlar, logistika markazlari, energetika tizimlari va ekologik loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshadi va resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi.

Davlat-xususiy sherikchilikning yana bir muhim jihati shundaki, u innovatsion texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv usullarini iqtisodiyotga joriy etishni tezlashtiradi. Xususiy sektorning investitsion faolligi va texnologik tajribasi davlat infratuzilma loyihalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish ham ta’minlanadi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirish O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim investitsion salohiyatni oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish hamda iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

onunni qabul qilish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va qator harakatlarga erishishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. [4] Jumladan, 8-BRM «Munosib ish va iqtisodiy o‘sish» doirasida milliy moliyaviy muassasalar qobiliyatini mustahkamlash, barcha uchun bank, sug‘urta va moliyaviy xizmatlardan foydalanish huquqini kengaytirish (8.10-vazifa) DXSh mexanizmi orqali yangi investitsiya imkoniyatlarini yaratish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

9-BRM «Sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma» bo‘yicha ikkita muhim vazifa DXSh bilan bevosita bog‘liq. 9.2-vazifa: 2030 yilga kelib sanoatning keng qamrovli va barqaror rivojlanishi hamda resursni saqlovchi ekologik jihatdan xavfsiz texnologiyalarni keng qo‘llash bilan mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish va yangilarini yaratish. 9.4-vazifa: toza va ekologik xavfsiz texnologiyalar hamda sanoat jarayonini keng qo‘llash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish

hisobiga infratuzilmani zamonaviylashtirish va sanoat korxonalarini qayta jihozlash. Ushbu ikkala vazifa ham xususiy investitsiyalarni jalb etmasdan holda davlat byudjeti hisobiga amalga oshirib bo‘lmaydigan ko‘lamli loyihalarni nazarda tutadi.

Bozor mexanizmi Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tobora yangi mazmun kasb etib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiy tizimda infratuzilmani rivojlantirish, aholiga sifatli xizmatlar ko‘rsatish va yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida davlat hamda xususiy sektor hamkorligining samarali mexanizmlariga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sherikchilik zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional vositalaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sherikchilik jamoat xizmatlari va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda transport, energetika, sog‘liqni saqlash, ta’lim va kommunal xizmatlar kabi sohalarga bo‘lgan talabning ortishi davlat budjeti imkoniyatlariga qo‘shimcha yuklamalarni yuzaga keltirmoqda. Yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun davlat mablag‘larining cheklanganligi esa yangi investitsion mexanizmlarni qo‘llash zaruratini kuchaytiradi.

Albatta, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy institutlar mablag‘larini jalb qilish muhim manbalardan biri hisoblanadi. Biroq bunday moliyalashtirish shakllari ayrim hollarda davlat tashqi qarzining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi davlat budjeti yuklamasini kamaytirish bilan birga xususiy investitsiyalarni iqtisodiyotning strategik tarmoqlariga faol jalb qilish imkonini beradi.

Davlat-xususiy sherikchilik davlat organlari va xususiy sektor vakillari o‘rtasida muayyan loyiha doirasida amalga oshiriladigan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini anglatadi. Mazkur hamkorlik asosida davlat va xususiy investorlar strategik ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni birgalikda moliyalashtiradi, boshqaradi va amalga oshiradi. DXShning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, loyiha bilan bog‘liq tavakkalchilik va moliyaviy mas’uliyatning ma’lum qismi xususiy sektor zimmasiga yuklatiladi.

Davlat-xususiy sherikchilik, avvalo, aholining infratuzilma va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan sohalarda qo‘llaniladi. Jumladan, avtomobil yo‘llari, aeroportlar, logistika markazlari, energetika tizimlari, sog‘liqni saqlash

muassasalari, ta’lim obyektlari va kommunal xizmatlar DXSh mexanizmi faol qo‘llanilayotgan ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

DXSh loyihalari odatda uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lib, ular bir necha yildan o‘nlab yillargacha davom etishi mumkin. Bunday loyihalarni tayyorlash jarayoni murakkab tashkiliy va huquqiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Loyihaning konsepsiyasini ishlab chiqish, texnik-iqtisodiy asoslash, investorlarni tanlash va shartnomalarni rasmiylashtirish ma’lum vaqt va puxta tayyorgarlikni talab qiladi.

Davlatning DXSh tizimidagi asosiy maqsadi xususiy investitsiyalarni iqtisodiyotga keng jalb qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda davlat xizmatlari sifatini yaxshilashdan iboratdir. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o‘rtasida teng va shaffof hamkorlik munosabatlarini shakllantirish orqali sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshiriladigan infratuzilma loyihalari bir qator iqtisodiy va tashkiliy afzalliklarga ega. Eng avvalo, loyiha boshlanish bosqichidayoq davlat va investor manfaatlarini muvofiqlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, loyihaning maqsadlari, moliyalashtirish manbalari, tavakkalchiliklarni taqsimlash mexanizmlari va amalga oshirish bosqichlari aniq huquqiy asosda belgilab qo‘yiladi.

Shuningdek, DXSh tizimi davlat va xususiy investor manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa investitsion xavflarni kamaytirish, loyihalarning barqarorligini ta’minlash hamda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Umuman olganda, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmi infratuzilmani rivojlantirish, investitsion faollikni oshirish va iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida tobora keng qo‘llanilmoqda.

Ijtimoiy va kommunal sohalar, shaharsozlik, yo‘l xo‘jaligi va energetika sohasidagi davlat monopoliyasi tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sifatini pasaytirmoqda, davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. [5] Aynan shu omil DXSh tizimini joriy etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. DXSh sxemasini amalga oshirish uchta ustuvor vazifani hal etishga imkon beradi: davlat va xususiy investorlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir samaradorligini oshirish; davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini yaxshilash; mamlakat iqtisodiyoti sanoat infratuzilmasining investitsion jozibadorligini ko‘tarish.

11.1-jadval.

DXSh mexanizmi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan asosiy tarmoqlar[402]

№	Soha	DXSh doirasidagi asosiy loyiha yo‘nalishlari
1	**Transport infratuzilmasi**	Havo transporti; avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish va qurish; logistika parklari; jamoat transporti; temir yo‘l transporti
2	**Energetika va ekologiya**	Qayta tiklanadigan energiya manbai; elektr energiyasi ta’minoti; chiqindilarni yig‘ish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish
3	**Kommunal xizmatlar**	Suv ta’minoti va suvoqava; shaharsozlik va obodonlashtirish; yo‘l xo‘jaligi
4	**Ijtimoiy infratuzilma**	Ta’lim; sog‘liqni saqlash va farmatsevtika; sport, madaniyat, turizm
5	**Agrar va sanoat**	Qishloq xo‘jaligi; sanoat infratuzilmasi; maxsus iqtisodiy hududlar

Ijtimoiy O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik tizimini samarali tashkil etish hamda ushbu yo‘nalishda yagona davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida muhim institutsional mexanizmlar shakllantirildi. Xususan, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega loyihalarni davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida tezkor hamda samarali amalga oshirish uchun 2018 yil 20 oktyabrda Prezident qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Mazkur agentlik davlat muassasasi shaklida faoliyat yurituvchi maxsus vakolatli organ sifatida belgilandi va unga mamlakatda DXSh sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish vazifasi yuklatildi. Agentlikning tashkil etilishi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash, investitsion loyihalarni muvofiqlashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda muhim bosqich bo‘ldi.

Agentlikning asosiy faoliyat yo‘nalishlari iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ustuvor tarmoqlarida davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, u DXSh asosidagi tarmoq

[402] *Manba: O'zR 'DXSh to'g'risida'gi Qonun va xalqaro amaliyot asosida muallif tuzildi*

dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uslublarini takomillashtiradi hamda turli vazirlik va idoralar o‘rtasidagi muvofiqlashtirish ishlarini amalga oshiradi.

Shuningdek, agentlik davlat-xususiy sherikchilik loyihalariga oid ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash, loyihalar reyestrini yuritish va investorlar uchun shaffof axborot muhitini yaratish vazifalarini ham bajaradi. Bu esa investitsion jozibadorlikni oshirish hamda xususiy sektor ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agentlik faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri xalqaro moliya institutlari, xorijiy investorlar, donor tashkilotlar va ekspert hamjamiyatlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Bunday hamkorlik orqali O‘zbekistonda zamonaviy DXSh tajribalarini joriy etish, ilg‘or boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish hamda yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Bundan tashqari, agentlik DXSh loyihalari ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga ko‘maklashadi, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqadi hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy, texnik va tijorat tavakkalchiliklarini baholash va taqsimlash bo‘yicha takliflar tayyorlaydi. Bu esa loyiha barqarorligini ta’minlash va investitsion xavflarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Agentlik faoliyatini tashkil etishda ixcham va samarali boshqaruv tizimi shakllantirilgan bo‘lib, uning boshqaruv xodimlari soni cheklangan tartibda belgilangan. Agentlikka O‘zbekiston Respublikasi moliya vaziri o‘rinbosari maqomidagi direktor rahbarlik qiladi. Bu esa davlat moliyaviy siyosati va DXSh loyihalari o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Agentlik faoliyatini moliyalashtirish bir nechta manbalar asosida amalga oshiriladi. Ularning tarkibiga davlat budjeti mablag‘lari, xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlar grantlari hamda kreditlari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik mablag‘lari kiradi. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalashuvi agentlik faoliyatining barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

Agentlik tashkil etilganidan so‘ng qisqa vaqt ichida transport, energetika, suv ta’minoti va aeroport infratuzilmasi kabi strategik sohalarda yirik DXSh loyihalari amalga oshirila boshlandi. Mazkur loyihalar mamlakatda infratuzilmani modernizatsiya qilish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, keyingi yillarda davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan yangi normativ-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi. Bu esa DXSh tizimining institutsional va huquqiy bazasini mustahkamlashga imkon yaratmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda loyiha tavakkalchiliklarini boshqarish, budjet tizimiga ta’sirini baholash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish hamda ularni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

11.2. Davlat-xususiy sheriklik asosida transport sohasida xorijiy tajriba

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini samarali rivojlantirish uchun mustahkam institutsional tizim va aniq huquqiy baza zarur hisoblanadi. Shu sababli ko‘plab davlatlarda DXSh loyihalarini muvofiqlashtirish, monitoring qilish hamda investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga ixtisoslashgan davlat organlari va maxsus institutlar tashkil etilgan. Bunday mexanizmlar xususiy investorlar uchun ishonchli va barqaror investitsion muhit yaratishga xizmat qiladi.[403]

Davlat-xususiy sherikchilik tizimini institutsional rivojlantirish bo‘yicha dastlabki tajribalardan biri Buyuk Britaniyada shakllangan. XIX asr oxirlaridayoq ushbu mamlakatda DXSh loyihalarini rivojlantirish va moliyalashtirishni muvofiqlashtiruvchi maxsus markazlar tashkil etilgan. Mazkur institutlarning asosiy vazifalari infratuzilma loyihalari uchun moliyaviy resurslarni safarbar qilish, davlat organlariga maslahat berish hamda investitsion loyihalarni samarali boshqarishdan iborat bo‘lgan.

Kanadada davlat-xususiy sherikchilik tizimini rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi maxsus tashkilotlar faoliyat yuritadi. Ushbu mamlakatda federal darajadagi DXSh loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, moliyalashtirish va muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi markazlar tashkil etilgan bo‘lib, ular yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishida muhim rol

[403] European Commission. Guidelines for Successful Public-Private Partnerships. Brussels: EC, 2003. P. 31.

o‘ynaydi. Ayniqsa, maxsus jamg‘armalar orqali transport, energetika va kommunal infratuzilma loyihalariga mablag‘ yo‘naltirilishi tizim samaradorligini oshirmoqda.

Yaponiyada esa davlat-xususiy sherikchilik loyihalari “Xususiy moliyalashtirish tashabbusi” konsepsiyasi asosida rivojlantirilgan. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi xususiy sektorning moliyaviy imkoniyatlari, boshqaruv tajribasi va zamonaviy texnologiyalarini ijtimoiy hamda transport infratuzilmasini rivojlantirishga faol jalb qilishdan iboratdir. Natijada Yaponiyada transport kommunikatsiyalari, logistika tizimlari va shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilishda DXSh mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda.

Fransiyada ham davlat-xususiy sherikchilik tizimini rivojlantirish maqsadida maxsus agentlik tashkil etilgan va keyinchalik DXSh shartnomalarini tartibga soluvchi alohida qonunchilik bazasi shakllantirilgan. Bu esa davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan aniq tartibga solish hamda investitsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilgan.[404]

Shuningdek, Rossiya va Qozog‘iston kabi MDH davlatlari ham transport infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlaridan faol foydalanmoqda. Ayniqsa, avtomobil yo‘llari, logistika markazlari, aeroportlar va temir yo‘l tizimlarini modernizatsiya qilishda xususiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha muhim tajribalar shakllangan.

Avstraliya, Gollandiya, Polsha va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi ham transport sohasida DXShning samarali ishlashini ko‘rsatmoqda. Ushbu mamlakatlarda davlat-xususiy sherikchilik orqali transport infratuzilmasi sifati oshirilgan, davlat budjeti xarajatlari optimallashtirilgan va xizmat ko‘rsatish samaradorligi yaxshilangan[405].

O‘zbekiston uchun ushbu xorijiy tajribalarni o‘rganish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika tizimini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirishda xalqaro tajribadan foydalanish milliy DXSh tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Ayniqsa, transport sohasida investorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish, loyiha tavakkalchiliklarini samarali boshqarish, shaffof tanlov tizimini joriy etish va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan

[404] Delmon J. Private Sector Investment in Infrastructure: Project Finance, PPP Projects and PPP Frameworks. 3rd ed. Alphen: Kluwer Law International, 2015. P. 48.
[405] European Commission. Guidelines for Successful Public-Private Partnerships. Brussels: EC, 2003. P. 31.

foydalanish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasi O‘zbekiston uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Jahon amaliyotida temir yo‘l transporti sohasida davlat-xususiy sherikchilik loyihalari keng qo‘llanilib, ular infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport xizmatlari sifatini oshirish va yirik investitsiyalarni jalb etishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Temir yo‘l transportidagi DXSh loyihalari o‘zining texnik, moliyaviy va tashkiliy xususiyatlariga ko‘ra bir necha asosiy yo‘nalishlarga ajratiladi.[406]

Xalqaro tajribaga ko‘ra, temir yo‘l transportidagi davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini shartli ravishda uchta yirik guruhga bo‘lish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

1. Yuqori tezlikdagi temir yo‘l magistral yo‘llari;
2. Harakatlanuvchi tarkibni yangilash va texnik xizmat ko‘rsatish;
3. Umumiy foydalanishdagi temir yo‘l liniyalarini qurish va modernizatsiya qilish.

Mazkur yo‘nalishlarning har biri moliyalashtirish mexanizmi, tavakkalchiliklarni taqsimlash tartibi, investitsiya hajmi va hamkorlik muddati bilan o‘zaro farqlanadi. Shu sababli DXSh loyihalarini amalga oshirishda har bir yo‘nalishning iqtisodiy va texnologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

I guruh. Yuqori tezlikdagi temir yo‘l magistral yo‘llari

Davlat-xususiy sherikchilikning eng yirik va kapital talab qiluvchi yo‘nalishlaridan biri yuqori tezlikdagi temir yo‘l magistrallarini barpo etish hisoblanadi. Bunday loyihalar, odatda, temir yo‘l infratuzilmasini loyihalash, moliyalashtirish, qurish, boshqarish va ekspluatatsiya qilish kabi murakkab bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqori tezlikdagi temir yo‘l tizimlari zamonaviy transport infratuzilmasining strategik elementi bo‘lib, hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va yo‘lovchi tashish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli bunday loyihalar ko‘pincha davlat va xususiy investorlar o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik asosida amalga oshiriladi.

Mazkur turdagi DXSh loyihalarida xususiy sektor odatda moliyalashtirish, qurilish va texnik boshqaruv jarayonlarida faol ishtirok etadi. Davlat esa huquqiy kafolatlar yaratish, yer ajratish, strategik

[406] Yescombe E.R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2007. P. 11.

nazoratni amalga oshirish va ayrim hollarda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vazifalarini bajaradi.

Yuqori tezlikdagi magistral yo‘llar ekspluatatsiyasi jarayonida bir yoki bir nechta yuk va yo‘lovchi tashuvchi operatorlar faoliyat yuritishi mumkin. Bu esa transport xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va infratuzilmadan foydalanish samaradorligini ta’minlash imkonini beradi.

Bunday loyihalar uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lib, ularda investitsiyalar hajmi juda katta bo‘lishi sababli tavakkalchiliklarni davlat va xususiy sektor o‘rtasida oqilona taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, qurilish tavakkalchiligi, moliyaviy xavflar, ekspluatatsiya xarajatlari va talab bilan bog‘liq xavflar sheriklar o‘rtasida oldindan belgilangan mexanizmlar asosida taqsimlanadi.

Jahon tajribasida Yaponiya, Fransiya, Xitoy, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda yuqori tezlikdagi temir yo‘l tizimlarini rivojlantirishda DXSh mexanizmlaridan samarali foydalanilgan. Ushbu loyihalar nafaqat transport tizimini modernizatsiya qilishga, balki iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish va investitsion faollikni oshirishga ham xizmat qilgan.

Yuqori tezlikdagi temir yo‘l magistrallari bo‘yicha amalga oshirilayotgan DXSh loyihalarining muhim xususiyatlaridan biri — ulardagi xususiy investitsiyalar ulushining turli davlatlarda keskin farqlanishidir. Ayrim mamlakatlarda xususiy kapitalning loyiha moliyalashtirishidagi ulushi yuqori bo‘lsa, boshqa davlatlarda davlat mablag‘lari asosiy manba sifatida saqlanib qolmoqda. Bu holat, avvalo, davlatning moliyaviy salohiyati, loyiha iqtisodiy samaradorligi, investorlar uchun jozibadorlik darajasi hamda mavjud tavakkalchilik omillari bilan izohlanadi.

11.2-jadval.

I guruh: Yuqori tezlikdagi temir yo‘l magistral yo‘llari bo‘yicha DXSh loyihalari[407]

Mamlakat	Yil	Loyiha nomi / yo‘nalishi	Qiymati	Xususiyatlari
Germaniya	—	«Maglev» — yuqori tezlikda yo‘lovchi tashish loyihasi	9,8 mlrd. nemis markasi	Yillik yo‘lovchi aylanmasi: 12 mln. yo‘lovchi

407

Manba: xalqaro DXSh amaliyoti materiallari asosida muallif tuzildi

Xitoy	—	Zhejiang viloyatida Hangzhou–Shaoxing–Taizhou (269 km) yuqori tezlikdagi liniya	44,9 mlrd yuan (51% xususiy)	Shartnoma muddati: 30 yil (4 yil qurilish). Xususiy investorlar: Fosun Group va boshqalar
Xitoy	—	«Golmud-Lxasa» temir yo‘l liniyasi (1118 km)	13,9 mlrd yuan	Qiyinchilik darajasi yuqori tog‘li hudud orqali o‘tadigan magistral
Tayvan	1998	Yuqori tezlikdagi temir yo‘l (394 km)	15 mlrd. dollar	35 yillik shartnoma; xususiy sherikka stantsiyalar atrofidagi yer maydonlaridan foydalanish xuquqi berilgan
Gollandiya	—	Amsterdam–Rotterdam magistral (125 km)	Xususiy ulush: 14%, davlat: 86%	Loyiha muddati: 25 yil
Fransiya	2011	Tours–Bordeaux Shimoliy-Sharqiy Atlantika temir yo‘l liniyasi (302 km)	7,8 mlrd yevro	50 yillik konsessiya; Paris–Bordeaux sayohat vaqti 2 soat 5 daqiqaga qisqaradi

Masalan, iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan ayrim mamlakatlarda xususiy sektor yirik infratuzilma loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Bunga sabab sifatida transport xizmatlariga bo‘lgan yuqori talab, yo‘lovchi oqimining barqarorligi va investitsiyalarning uzoq muddatli daromadlilik imkoniyatlari ko‘rsatiladi. Aksincha, ayrim davlatlarda yuqori tezlikdagi temir yo‘l loyihalari katta tavakkalchilik va uzoq muddatli investitsiya qaytimi bilan bog‘liq bo‘lgani sababli davlat moliyaviy ishtiroki ustunlik qiladi.

Bu tajriba davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini shakllantirishda investitsiya xavflarini to‘g‘ri baholash, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash hamda investorlar uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

II guruh. Harakatlanuvchi tarkibni yangilash va unga xizmat ko‘rsatish

Temir yo‘l transportida davlat-xususiy sherikchilikning yana bir muhim yo‘nalishi harakatlanuvchi tarkibni yangilash, modernizatsiya qilish va texnik xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq loyihalardan iboratdir. Mazkur turdagi loyihalarda xususiy sektor temir yo‘l vagonlari, elektrovozlar, teplovozlar va boshqa harakatlanuvchi tarkibni ishlab chiqarish, yangilash yoki modernizatsiya qilish jarayonida faol ishtirok etadi.

Bunday loyihalarning asosiy maqsadi temir yo‘l transportining texnik holatini yaxshilash, energiya samaradorligini oshirish, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish va transport xizmatlari sifatini yuqori darajaga olib chiqishdan iboratdir.

Ushbu guruhdagi DXSh loyihalarining o‘ziga xos jihatlaridan biri “hayot sikli kontrakti” mexanizmining qo‘llanilishidir. Mazkur yondashuvga ko‘ra, xususiy sherik nafaqat harakatlanuvchi tarkibni yetkazib beradi yoki modernizatsiya qiladi, balki uning butun foydalanish davri davomida texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va ekspluatatsiya samaradorligini ta’minlash bo‘yicha ham mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Hayot sikli kontrakti tizimi uzoq muddatli hamkorlik asosida quriladi va transport vositalarining ishonchliligi hamda texnik xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi. Bu model davlat uchun xarajatlarni rejalashtirishni yengillashtiradi, xususiy sektor uchun esa uzoq muddatli barqaror daromad manbaini yaratadi.

Shuningdek, mazkur turdagi DXSh loyihalari zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va transport tizimining innovatsion rivojlanishini rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy sektor tomonidan energiya tejamkor va ekologik xavfsiz transport vositalarining ishlab chiqarilishi temir yo‘l infratuzilmasining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida Germaniya, Fransiya, Yaponiya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda harakatlanuvchi tarkibni modernizatsiya qilish bo‘yicha DXSh loyihalari muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Ushbu tajribalar davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlik transport tizimini texnologik jihatdan yangilash va xizmatlar sifatini oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

11.3-jadval.

II guruh: Harakatlanuvchi tarkibni yangilash bo‘yicha DXSh loyihalari[408]

Mamlakat	Yil	Loyiha	Qiymati	Xizmat ko‘rsatish muddati
Avstraliya	—	Sidney shaharatrofi poyezdlar: 600 dona vagon xarid qilish va texnik xizmat	3,6 mlrd. dollar (davlat subsidiyasi: 175 mln. dollar)	30 yil (vagonlarni yetkazib berish + texnik xizmat)
Rossiya	2015	RJD: Siemens «Sapsan» elektropoyezdlari — 16 ta, har biri 10 vagonli (KJS asosida)	354 mln. yevro	30 yil (Siemens tomonidan texnik xizmat)
Rossiya	2014	RJD: «LokoTex» kompaniyasi — 15 ming lokomotivga texnik xizmat (RJD parkining ~70%)	Maxfiy	40 yil (eng yirik KJS shartnomalaridan biri)
Buyuk Britaniya	—	Shaharlararo ekspres dasturi: 866 dona vagon Yaponiyadan (Japan Overseas Railway System Association)	Yirik	27 yil 6 oy (texnik xizmat nazarda tutilgan)

II guruhdagi davlat-xususiy sherikchilik loyihalarining eng muhim xususiyatlaridan biri “hayot sikli kontrakti” mexanizmining qo‘llanilishidir. Ushbu modelga ko‘ra, xususiy sherik faqat texnika yoki harakatlanuvchi tarkibni yetkazib berish bilan cheklanib qolmaydi, balki uning uzoq muddatli texnik ekspluatatsiyasi va servis xizmatlari uchun ham mas’ul bo‘ladi. Odatda bunday shartnomalar bir necha o‘n yillik

[408] *Manba: xalqaro DXSh amaliyoti materiallari asosida muallif tuzildi*

muddatni qamrab olib, transport vositalarining uzluksiz va ishonchli ishlashini ta’minlashga qaratiladi.

Mazkur mexanizm davlat uchun bir qator muhim afzalliklarni yaratadi. Eng avvalo, temir yo‘l transport vositalarining butun foydalanish davri davomida texnik jihatdan tayyor holatda saqlanishi kafolatlanadi. Bundan tashqari, uzoq muddatli servis shartnomalari xarajatlarni oldindan rejalashtirish va moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish imkonini beradi. Natijada ekspluatatsiya xarajatlari ustidan nazorat kuchayadi hamda texnik xizmat ko‘rsatish sifati oshadi.

Hayot sikli kontrakti modeli xususiy sektorni yuqori sifatli va uzoq muddat xizmat qiladigan texnikalarni ishlab chiqarishga rag‘batlantiradi. Chunki texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari ham aynan xususiy sherik zimmasida bo‘ladi. Shu sababli investor zamonaviy, energiya tejamkor va ekspluatatsion jihatdan ishonchli texnologiyalarni joriy etishga intiladi.

III guruh. Umumiy foydalanishdagi temir yo‘l liniyalarini qurish

Temir yo‘l transportida davlat-xususiy sherikchilikning yana bir muhim yo‘nalishi umumiy foydalanishdagi temir yo‘l liniyalarini qurish va ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq loyihalardan iboratdir. Bunday loyihalarda xususiy sherik yangi temir yo‘l infratuzilmasini barpo etadi, uni texnik jihatdan foydalanishga tayyor holda saqlaydi va ayrim hollarda ekspluatatsiya jarayonida ham ishtirok etadi.

Mazkur turdagi loyihalar, ayniqsa, yirik logistika yo‘nalishlari, sanoat zonalari va yuk tashish hajmi yuqori bo‘lgan hududlarda keng qo‘llaniladi. Temir yo‘l liniyalarini qurish katta hajmdagi investitsiyalarni talab qilgani sababli davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik ushbu sohada muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi ushbu yo‘nalishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlaridan samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Mazkur davlatda yangi temir yo‘l liniyalarini qurish, mavjud infratuzilmani kengaytirish va yuk tashish imkoniyatlarini oshirish maqsadida bir qator yirik DXSh loyihalari amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarda davlat strategik infratuzilmani rivojlantirish va normativ-huquqiy qo‘llab-quvvatlash vazifalarini bajarsa, xususiy sektor investitsiya kiritish va qurilish ishlarini amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Umumiy foydalanishdagi temir yo‘l liniyalarini qurish bo‘yicha DXSh loyihalarining asosiy afzalliklaridan biri — davlat budjetiga tushadigan moliyaviy yuklamaning kamayishidir. Shu bilan birga,

xususiy sektorning zamonaviy boshqaruv usullari va texnologik tajribasi infratuzilma obyektlarining samarali va tezkor barpo etilishiga yordam beradi.

Bunday loyihalar iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish, hududlararo logistika aloqalarini rivojlantirish hamda yuk va yo‘lovchi tashish hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, transport koridorlarini kengaytirish va xalqaro tranzit salohiyatini oshirishda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining roli tobora ortib bormoqda.

Shunday qilib, temir yo‘l transportidagi davlat-xususiy sherikchilik loyihalari infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsion faollikni oshirish va transport tizimining raqobatbardoshligini kuchaytirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

III guruhdagi davlat-xususiy sherikchilik loyihalarining muhim jihatlaridan biri shundaki, ularda xususiy investitsiyalar ulushi juda yuqori darajaga yetadi. Ayrim hollarda loyiha xarajatlarining deyarli to‘liq qismi xususiy sektor mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu esa davlat budjetiga ortiqcha yuk tushirmasdan yirik temir yo‘l infratuzilma loyihalarini amalga oshirish imkonini yaratadi.

Mazkur yondashuv, ayniqsa, davlat moliyaviy resurslari cheklangan sharoitda muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Chunki transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi temir yo‘l liniyalarini qurish katta kapital qo‘yilmalarni talab qiladi. Xususiy investitsiyalarni faol jalb qilish orqali davlat strategik loyihalarni tezroq amalga oshirish va infratuzilma rivojlanishini jadallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

11.4-jadval.

III guruh: Umumiy foydalanishdagi temir yo‘l liniyalarini qurish (Rossiya tajribasi)[409]

Loyiha nomi	Moliyalashtirish	Qiymati	Xususiyatlari
«Elegest-Qizil-Kuragino» uchaskasida temir yo‘l liniyasi	100% xususiy	192,4 mlrd. rubl	Amal qilish muddati: 30 yil; tashishlardan va boshqa tashuvchilarga xizmatlar uchun daromad oladi
«Obskaya-Salexard-Nadim» — «Shimoliy	90% xususiy (103 mlrd. rubl) + 10% davlat	~115 mlrd. rubl	Amal qilish muddati: 35 yil; foydalanish uchun mavjudlik to‘lovi va tashish daromadlari

[409] *Manba: Rossiya temir yo'llari DXSh amaliyoti materiallari asosida muallif tuzildi*

kenglik o‘tish joyi»			
«Tolyatti» sanoat ishlab chiqarish tipidagi maxsus iqtisodiy hudud temir yo‘llari	100% xususiy	1,1 mlrd. rubl	Amal qilish muddati: 15 yil; to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanuvchi to‘lovlari asosida daromad

Biroq bunday loyihalarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning tijorat jozibadorligiga bog‘liqdir. Xususiy investor kiritilgan mablag‘larning qaytishini va uzoq muddatli daromadlilikni ta’minlashdan manfaatdor bo‘ladi. Shu sababli DXSh loyihalarida foydalanish to‘lovlari, yuk va yo‘lovchi tashishdan olinadigan daromadlar, logistika xizmatlari hamda boshqa operatorlarga ko‘rsatiladigan servis xizmatlari asosiy moliyaviy manba sifatida shakllanadi.

Agar loyiha iqtisodiy jihatdan yetarli darajada daromad keltirmasa yoki transport oqimi barqaror bo‘lmasa, xususiy investorlarning qiziqishi kamayishi mumkin. Shu bois davlat tomonidan investitsion tavakkalchiliklarni kamaytirish, huquqiy kafolatlar yaratish va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Qozog‘iston: DXSh loyihalari amaliyoti va statistikasi

Qozog‘iston MDH hududida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini transport sohasida faol qo‘llayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda DXSh asosidagi dastlabki yirik loyihalar 2006 yildan boshlab amalga oshirila boshlandi. Bu jarayon transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda xalqaro tranzit salohiyatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog‘liq edi.

Qozog‘istonda davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilgan ilk yirik loyihalar qatoriga yangi temir yo‘l liniyalari qurilishi, temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish hamda aeroportlarni modernizatsiya qilish ishlari kiradi. Ushbu loyihalar transport tizimining texnik holatini yaxshilash, hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va xalqaro logistika yo‘nalishlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Xususan, yangi temir yo‘l stansiyalari va liniyalarining qurilishi mamlakatning tranzit imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berdi. Elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyalari esa transport xarajatlarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni kuchaytirishga xizmat qildi.

Shuningdek, aeroport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan DXSh loyihalari xalqaro havo transporti xizmatlari sifatini yaxshilash, yo‘lovchi oqimini oshirish va turizm sohasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yirik investitsiyalarni jalb etish va davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu sababli ushbu tajribani o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish O‘zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega.

11.5-jadval.

2021 yil holatiga ko‘ra Qozog‘istonda DXSh asosida amalga oshirilgan hamda oshirilayotgan loyihalar[410]

Ko‘rsatkich	**Kelishilgan shartnomalar**	**Ekspluatatsiyaga topshirilgan**	**Qurilish davom etayotgan**
Miqdori (ta)	240	167	63
Qiymati (mln. tenge)	792,8	101,3	691,6

Qozog‘istonda davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar soni va ularning umumiy qiymati ushbu tizimning mamlakat iqtisodiyotida tobora muhim o‘rin egallab borayotganini ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, davlat va xususiy sektor o‘rtasida yuzlab sheriklik shartnomalari imzolangan bo‘lib, ularning katta qismi transport, qurilish va infratuzilma tarmoqlariga to‘g‘ri keladi.

Mazkur loyihalarning muhim qismi amaliy foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, yana ko‘plab loyihalar qurilish va amalga oshirish bosqichida davom etmoqda. Bu holat Qozog‘istonda davlat-xususiy sherikchilik tizimi faol rivojlanayotganini va investitsion faollikning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Loyihalarning asosiy ulushi aynan qurilish bosqichida ekanligi transport va infratuzilma sohalarida uzoq muddatli strategik loyihalar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Bunday tendensiya davlat tomonidan transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga ustuvor ahamiyat berilayotganini hamda xususiy investorlarning ushbu sohalarga qiziqishi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

[410] *Manba: Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, DXSh loyihalari yillik hisoboti, 2021*

Qozog‘iston tajribasi davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda samarali vosita bo‘la olishini namoyish etmoqda. Ayniqsa, transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish, tranzit salohiyatini oshirish va logistika tizimini modernizatsiya qilishda DXSh muhim rol o‘ynamoqda.

Temir yo‘l infratuzilmasini moliyalashtirishda davlat va xususiy kapitalning ishtiroki: xalqaro taqqoslama

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, temir yo‘l transporti strategik ahamiyatga ega tarmoq hisoblanganligi sababli ko‘plab mamlakatlarda uning rivojlanishida davlat muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Hatto xususiy sektor faol ishtirok etayotgan mamlakatlarda ham davlat temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi liniyalarni qurish va transport xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni saqlab qolmoqda.

Turli davlatlarda temir yo‘l infratuzilmasini moliyalashtirish modeli bir-biridan sezilarli farq qiladi. Ayrim mamlakatlarda davlat kapital qo‘yilmalarining asosiy qismini moliyalashtirsa, boshqa davlatlarda xususiy investorlarning ulushi yuqori bo‘lishi mumkin. Bu holat iqtisodiy rivojlanish darajasi, transport tizimining strategik ahamiyati va milliy iqtisodiy siyosat xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Masalan, Yevropa davlatlarida temir yo‘l transportini rivojlantirishda davlatning moliyaviy ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Chunki temir yo‘l nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ega transport turi sifatida qaraladi. Shu sababli davlat infratuzilma obyektlarini qurish, yuqori tezlikdagi liniyalarni rivojlantirish va transport xavfsizligini ta’minlash uchun katta hajmdagi investitsiyalarni yo‘naltiradi.

Boshqa tomondan, ayrim Osiyo va Amerika mamlakatlarida xususiy sektorning temir yo‘l infratuzilmasiga investitsiya kiritishdagi faolligi yuqori hisoblanadi. Bu yerda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlari orqali investorlar yangi temir yo‘l liniyalari, logistika markazlari va transport terminallarini qurishda faol ishtirok etmoqda.

Temir yo‘l infratuzilmasini moliyalashtirishda davlat va xususiy kapitalning uyg‘unlashuvi bir qator afzalliklarni ta’minlaydi. Davlat strategik nazorat va ijtimoiy manfaatlarni himoya qilsa, xususiy sektor moliyaviy resurslar, innovatsion texnologiyalar va samarali boshqaruv usullarini taqdim etadi. Natijada transport tizimining texnik darajasi oshadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi va infratuzilma obyektlarining ekspluatatsion samaradorligi kuchayadi.

Shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik temir yo‘l infratuzilmasiga investitsiya jalb qilishda tavakkalchiliklarni taqsimlash imkonini beradi. Bu esa yirik loyihalarni amalga oshirish jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va investorlar uchun qulay sharoit yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, xalqaro tajriba temir yo‘l transportini rivojlantirishda davlat va xususiy kapitalning o‘zaro hamkorligi infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport tizimining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishning samarali vositasi ekanligini ko‘rsatmoqda.

Quyidagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikki model ustunlik qilmoqda: to‘liq bozor modeli (AQSh, Yaponiya — xususiy kompaniyalar asosiy rol o‘ynaydi) va aralash model (Yevropa, Xitoy, Hindiston — davlat asosiy investor, xususiy sektor konsessiya yoki ulush shaklida jalb etiladi). [8] Ko‘plab davlatlar, xususan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, shahar atrofi va mintaqaviy tashishlarning «tushib qoladigan» daromadlarini davlat tomonidan qoplash, moliyaviy ta’minlash tizimi amal qiladi. Shu nuqtai nazardan, «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ korxonalarida byudjet bilan hisob-kitoblarni tashkil etish va auditni takomillashtirish talab etiladi.

11.6-jadval.

Davlat va xususiy kapitalning temir yo‘l infratuzilmasiga qo‘shilgan investitsiyalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki[411]

Mamlakat	**Investitsiyalarni moliyalashtirish usuli**	**Xususiy kapital ishtiroki darajasi**
Buyuk Britaniya	Davlat va infratuzilma egasi «infratuzilmadan foydalanish»ning tarif tarkibiy qismi orqali	Yuqori tezlikdagi liniyalarga uzoq muddatli konsessiyalar
Germaniya	Federal hukumat, munitsipalitetlar, infratuzilma egasi «infratuzilmadan foydalanish» uchun to‘lovlar orqali, o‘z zayomlari	Davlat-xususiy hamkorligi asosidagi ayrim loyihalarda ishtirok etish

[411] *Manba: World Bank PPP Reference Guide va xalqaro amaliyot materiallari asosida muallif tuzildi*

Fransiya	Davlat, mintaqaviy liniyalar, infratuzilma egasi to‘lovlar orqali, obligatsiya zayomlari	Davlat-xususiy hamkorligi asosidagi ayrim loyihalarda ishtirok etish
AQSh	Xususiy kompaniyalarning o‘z mablag‘lari, davlatning rag‘batlantiruvchi choralari (investitsiya imtiyozlari va boshqalar)	Bozorda faoliyat yuritayotgan asosiy xususiy kompaniyalar — to‘liq bozor modeli
Braziliya	Xususiy kompaniyalar, konsessiya egalarining o‘z mablag‘lari, ayrim loyihalarning davlat tomonidan moliyalashtirilishi	Asosiy liniyalar uchun konsessiyalar, davlat-xususiy biznes hamkorligi
Xitoy	Xususiy kapitalning tobora o‘sib borayotgan ishtirokidagi asosan davlat mablag‘lari (kompaniyalardagi ulushga ega bo‘lish, ayrim liniyalar uchun konsessiyalar)	Davlat-xususiy hamkorligi asosidagi ayrim loyihalarda ishtirok etish, ulush hajmi o‘sib bormoqda
Yaponiya	Davlat tomonidan qiymatni arzonlashtirish maqsadida beriladigan maxsus kontrakt orqali xususiy kompaniyalar mablag‘lari	Bozorda faoliyat yuritayotgan asosiy xususiy kompaniyalar ishtiroki — erkin raqobat modeli
Hindiston	Xususiy investorlarni kompaniyalar kapitaliga jalb etgan holda va uzoq muddatli konsessiyalar orqali asosan davlat mablag‘i	Davlat-xususiy biznes hamkorligi, uzoq muddatli konsessiyalar (30 yil va undan ko‘proqqa)

Transport sohasidagi davlatlararo hamkorlik zamonaviy mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Global iqtisodiy aloqalarning kengayishi, xalqaro savdo hajmining ortishi va logistika tizimlarining murakkablashuvi davlatlar o‘rtasida transport sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan ichki kontinental davlatlar uchun transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Davlatlararo transport hamkorligi transport infratuzilmasini rivojlantirish, tranzit salohiyatini oshirish, yuk va yo‘lovchi tashish samaradorligini yaxshilash hamda xalqaro logistika tizimlariga integratsiyalashuvni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli transport sohasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va geostrategik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Transport sohasidagi ikki tomonlama hamkorlik ikki davlat o‘rtasida transport kommunikatsiyalari, logistika infratuzilmasi va tranzit imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘zaro manfaatli munosabatlarni anglatadi. Bunday hamkorlik doirasida avtomobil yo‘llari, temir yo‘l liniyalari, chegara punktlari, logistika markazlari va aeroport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma loyihalar amalga oshiriladi.

Ikki tomonlama hamkorlikning asosiy maqsadi transport xarajatlarini kamaytirish, tranzit vaqtini qisqartirish va yuk tashish samaradorligini oshirishdan iboratdir. Shu bilan birga, bunday hamkorlik savdo aloqalarini rivojlantirish, hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ko‘p tomonlama transport hamkorligi esa uch va undan ortiq davlatlarning ma’lum transport loyihalari yoki xalqaro tashkilotlar doirasidagi o‘zaro hamkorligini anglatadi. Ushbu shakldagi hamkorlik odatda xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish, tranzit tizimlarini integratsiyalash, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va yagona logistika makonini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ko‘p tomonlama hamkorlik xalqaro transport tashkilotlari, mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar va transmilliy infratuzilma loyihalari orqali amalga oshiriladi. Bunday hamkorlik natijasida davlatlar transport salohiyatidan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro savdo oqimlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Transport sohasidagi davlatlararo hamkorlik samaradorligini baholash uchun bir qator mezonlardan foydalaniladi. Eng avvalo, transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi, tranzit yuk oqimlari hajmi, tashish tezligi va logistika xarajatlari muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Shuningdek, transport xizmatlari sifati, chegara bojxona jarayonlarining samaradorligi va xalqaro transport yo‘laklarining integratsiyalashuv darajasi ham muhim baholash mezonlari sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, davlatlararo hamkorlikning iqtisodiy samaradorligi eksport-import operatsiyalari hajmining oshishi, transport xarajatlarining kamayishi va tranzit daromadlarining ko‘payishi orqali ham baholanadi. Zamonaviy sharoitda ekologik xavfsizlik, raqamli logistika tizimlari va transport xavfsizligi kabi omillar ham hamkorlik samaradorligini aniqlovchi muhim mezonlarga aylanmoqda.

Umuman olganda, transport sohasidagi davlatlararo hamkorlik mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, xalqaro savdoni rivojlantirish va global logistika tizimiga integratsiyalashuvning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

11.7-jadval.

Transport sohasidagi davlatlararo hamkorlik darajasini baholash mezonlari[412]

№	Ko‘rsatkich	Baholash mazmuni	O‘lchov birligi
1	**Huquqiy bazaning shakllanganligi**	Ikki tomonlama shartnomalar; mintaqaviy shartnomalar; xalqaro huquqiy-me’yoriy hujjatlar	Mavjud (soni) / Mavjud emas
2	**Institutsional asosning shakllanganligi**	Muvofiqlashtiruvchi tashkilot yoki tuzilmaning mavjudligi, uning vakolat doirasi	Mavjud (soni) / Mavjud emas
3	**O‘zaro yuk tashuvi hajmining yillik o‘sish tendensiyasi**	Eksport yo‘nalishi; import yo‘nalishi; tranzit yo‘nalishi — har biri alohida baholanadi	Foizda (yillik o‘sish)
4	**Amaldagi qo‘shma transport loyihalarining mavjudligi**	Loyihalarning umumiy soni, qiymati va amalga oshirilganlik darajasi	Loyihalar soni (ta) va qiymati (mln. $)
5	**Investitsiyaviy hamkorlikning holati**	Transport loyihalariga kiritilgan investitsiyalarda ichki investitsiyalarning ulushi	Foizda
6	**Manfaatlar mutanosibligi**	To‘liq mos keladi; ayrim davlatlar manfaatiga mos keladi; bitta davlat manfaatiga mos keladi	Loyihalar soni bo‘yicha taqsimot

[412] *Manba: xalqaro transport hamkorligi metodikasi va iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tuzildi*

7	**Mintaqa davlatlarining o‘zaro transport koridorlariga bog‘liqlik darajasi**	Mintaqaviy transport tizimidagi integratsiya chuqurligi va infratuzilma o‘zaro bog‘liqligi	5 ballik tizimda

Transport sohasidagi davlatlararo hamkorlikni baholashda qo‘llaniladigan mezonlar tizimi faqat statistik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu tizim hamkorlikning miqdoriy natijalari bilan bir qatorda uning sifat jihatlarini ham kompleks ravishda tahlil qilishni nazarda tutadi. Shu sababli transport sohasidagi hamkorlik samaradorligini baholashda yuk tashish hajmi, investitsiyalar miqdori yoki tranzit oqimlari kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan birga huquqiy baza barqarorligi, davlatlar manfaatlarining muvozanati, hamkorlikning institutsional darajasi va transport siyosatining uyg‘unligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuv O‘zbekiston uchun alohida strategik ahamiyatga ega. Chunki mamlakat geografik jihatdan dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan ichki kontinental davlat hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekistonning tashqi savdo hajmi, eksport salohiyati va tranzit imkoniyatlari ko‘p jihatdan qo‘shni davlatlar bilan transport-kommunikatsiya aloqalarining rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir.

Ayniqsa, xalqaro transport yo‘laklariga integratsiyalashuv, tranzit marshrutlarini diversifikatsiya qilish va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiy xavfsizligi hamda tashqi iqtisodiy aloqalarining barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois transport sohasidagi davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash O‘zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Temir yo‘l transporti infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish ham aynan shu nuqtai nazardan katta amaliy ahamiyatga ega. Bunda asosiy masala xorijiy davlatlardagi mavjud muammolar va ularni hal qilish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish hamda ushbu tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirishdan iboratdir. Chunki har bir mamlakatning iqtisodiy, geografik va institutsional xususiyatlari turlicha bo‘lsa-da, transport tizimini rivojlantirishdagi umumiy tamoyillar va samarali boshqaruv yondashuvlari ko‘plab davlatlar uchun dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirishga strategik vazifa sifatida qaramoqda. Ayniqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan infratuzilma tizimlarini yaratish, raqamli logistika platformalarini joriy etish va innovatsion boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish transport tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining rivojlanishi esa yirik infratuzilma loyihalariga xususiy investitsiyalarni faol jalb qilish, transport xizmatlari sifatini oshirish va davlat budjeti yuklamasini kamaytirish imkonini beradi. Shu sababli ko‘plab mamlakatlarda DXSh modeli transport infratuzilmasini rivojlantirishning eng samarali iqtisodiy vositalaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Umuman olganda, xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va uni milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish O‘zbekiston transport tizimini modernizatsiya qilish, tranzit salohiyatini oshirish hamda global transport-kommunikatsiya tizimlariga integratsiyalashuvni jadallashtirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

11.3. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va uning amalga oshirish bosqichlari

Yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga byudjetdan tashqari investitsiyalarni jalb qilishning asosiy vositasi davlat-xususiy sheriklik instituti hisoblanishini yuqoridagi paragraflarda ko‘rib chiqdik. Davlat–xususiy hamkorlik mexanizmlarini ahamiyati modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi uchun shart-sharoitlar yaratishda alohida rol o‘ynaydi.

Infratuzilma loyihasi-davlat yoki yirik tashkilotlarning investitsiya shaklidagi kapital qo‘yilmalari hisobiga amalga oshiriladigan infratuzilma ob’ekti hisoblanadi. Infratuzilma loyihasini amalga oshirish jarayoni investitsiyalar jalb etilishini taqozo qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun xususiy biznes mablag‘lari hisobiga qo‘shimcha moliyalashtirishni jalb qilish kerak

Davlat va xususiy investorlar o‘rtasidagi hamkorlik har ikki tomon uchun ham foydali bo‘ladi. Bir tomondan, davlat eskirgan infratuzilmani yaxshilash yoki almashtirish uchun moliyalashtirishga, shuningdek, xususiy sektorning bilim va tajribasiga muhtoj. Boshqa tomondan, investorlar bunday hamkorlikdan foyda ko‘radilar, natijada ular

infratuzilmaga investitsiyalardan uzoq muddatga barqaror daromad oladilar.

DXShning maqsadi-har bir tomonning resurslari va tajribasini birlashtirib, kompaniya manfaatlari uchun infratuzilmani rivojlantirish, iqtisodiy sub'ektlarga yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatish sharti bilan eng kam xarajatlar va xavf-xatarlar bilan ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishdir. DXSh investitsiyalarni jalb qilishning sifat jihatidan yangi va samarali usulidir, chunki bunday hamkorlik nafaqat mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga hissa qo‘shishi, balki uning ijtimoiy muhim infratuzilmasini ham rivojlantirishi mumkin

Shuni ta'kidlash kerakki, DXSh mexanizmi o‘zaro hamkorlik va o‘zaro manfaatlarni tartibga solish bo‘yicha ikki tomon-davlat va xususiy investor uchun jozibador bo‘lishi kerak. DXSh amalga oshirish quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

1. Davlat va xususiy investor manfaatlarini birlamchi muvofiqlashtirish.
2. Strategik xususiyatga, uzoq davomiylikka (kamida 5 yil) ega bo‘lishi va amalga oshirish jarayonida keskin o‘zgarmasligi kerak bo‘lgan infratuzilma loyihasida ustuvorliklarni belgilash. Bu aniq amalga oshirish uchun vaqt, moliyalashtirish miqdori va mas'ul organlari belgilash kerak. Uni bir qator qonun hujjatlari qo‘llab-quvvatlashi lozim.
3. Infratuzilma loyihasini amalga oshirishda DXSh shaklini tanlashda manfaatlarni muvofiqlashtirish barcha qonun hujjatlariga to‘la mos keladi.
4. Infrastruktura loyihasini DXSh ning tanlangan shaklini hisobga olgan holda va qo‘llab-quvvatlanadigan Qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirish.

DXSh ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari sxemasi e'tibor qaratadigan bo‘lsak, unda xususiy investorlarni jalb qilgan holda loyiha ishlab chiqilishini ko‘rishimiz mumkin (1.2-rasmga qarang). Bunday shartnoma tarmoq tamoyiliga asoslangan bo‘lib, tarmoq shartnomasi deb ataladi.

Tarmoq shartnomasi infrastruktura hayot siklining barcha turlarini, ya'ni temir yo‘l transportini rivojlantirish loyihasi, joriy yildan ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va yangi qurilishni qamrab oladi DXSh tizimida tashabbuskor va kafilning asosiy roli davlat tomonidan ijro yetiladi. Tashqi va ichki iqtisodiy adabiyotlarda konsessiyaning turli ta'riflari mavjud. Davlat mulkini boshqarish modellari o‘xshash va konsepsiya qonuniyatlari uzoq tarixga yega

bo‘lgan YeI mamlakatlarida ham "konsessiya"tushunchasini talqin qilishda sezilarli farqlar mavjud.



Keyingi ishga integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan yaqin munosabatlar

Mijoz va loyiha konsorsiumi o‘rtasida tarmoq shartnomasi

Buyurtmachi va loyiha konsorsiumi o‘rtasidagi ichki shartnomalar

Loyiha konsorsiumi hamkorlari

Loyiha konsorsiumi va ba’zilari o‘rtasida mumkin bo‘lgan kelishuvlar moliyaviy institutlar va pudratchilar, masalan, sho‘ba korxonalar orqali

Shaxsiy kompyuter va DXSh guruhining qolgan a’zolari o‘rtasidagi shartnomalar

Kompyuter jamoasi DXSh jamoasi bilan birgalikda

11.1 -rasm. Loyiha ishtirokchilari o‘rtasidagi tashkiliy-shartnomaviy munosabatlar

2022-yil davomida amalga oshirilgan va 2022-2026-yillarda amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari yuzasidan ma’lumot

Respublikaning mas’ul vazirlik va idoralari tomonidan 2022-yil davomida umumiy qiymati 4,5 mlrd.dollardan ortiq bo‘lgan jami 212 ta davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalari bo‘yicha ishlar olib borilgan. Jumladan, energetika sohasida 8 ta, sog‘liqni saqlash sohasida 20 ta, suv xo‘jaligi sohasida 52 ta, ekologiya sohasida 53 ta, ta’lim sohasida 48 ta, madaniyat sohasida 24 ta, bandlik va mehnat munosabatlari sohasida 2 ta, transport, kommunal xizmatlar, soliq, hunarmandchilik sanoati va huquqni muhofaza qilish sohalarida 1 tadan DXSh loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shundan:

DXSh to‘g‘risidagi bitim imzolangan loyihalar soni – 173 ta;

DXSh to‘g‘risidagi bitimi imzolanish arafasida bo‘lgan loyihalar soni – 25 ta;

Tender bosqichida bo‘lgan loyihalar soni – 14 tani tashkil etadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat dasturining[413] 105-bandiga muvofiq, davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga qiymati qariyb 14 mlrd.dollardan iborat bo‘lgan 154 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan:

Energetika sohasida 11 ta;

Transport sohasida 5 ta;

Kommunal xizmatlar sohasida 3 ta;

Sog‘liqni saqlash sohasida 3 ta;

Ta’lim sohasida 6 ta;

Ekologiya sohasida 33 ta;

Suv ho‘jaligi sohasida 33 ta;

Boshqa ijtimoiy sohalarda 60 tani tashkil etadi.

Mazkur davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini sohalar kesimida tahlil qilinganda quyidagilar ma’lum bo‘ldi. Jumladan:

[413] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni

Transport sohasida 2022 yil davomida 6 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ishlar olib borilgan bo‘lib, shundan 1 ta loyiha bo‘yicha DXSh bitimi imzolangan.

✓ Toshkent shahrining 10ta ko‘chasida DXSh asosida avtomobilning yo‘l bo‘yi pullik to‘xtash joylar tizimini yaratish loyihasi bo‘yicha “Kasy Park” MChJ bilan DXSh to‘g‘risidagi bitim imzolandi va loyiha 2022 yil 22 avgust kuni reestrga olindi (loyiha qiymati – 0,08 mln AQSh dollari; loyiha muddati – 10 yil).

Shuningdek, 2022-2026 yillar davomida transport sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan 5 ta yirik loyihalar bo‘yicha hujjatlar tayyorlash va o‘rganish ishlari davom etmoqda:

✓ Jahon banki maslahat ko‘magida amalga oshirilayotgan Toshkent-Andijon pullik avtomobil yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha Yakuniy Texnik iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish uchun konsalting kompaniyani jalb qilingan va Yakuniy Texnik iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish ishlari davom etmoqda (loyihaning dastlabki qiymati – 2,831 mlrd AQSh dollari; loyiha muddati – 25 yil);

✓ Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki maslahat ko‘magida amalga oshirilayotgan Toshkent-Samarqand pullik avtomobil yo‘lini qurish loyihasi bo‘yicha Yakuniy Texnik iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish uchun konsalting kompaniyani jalb qilish ishlari davom etmoqda (loyihaning dastlabki qiymati – 1,37 mlrd AQSh dollari; loyiha muddati – 25 yil);

✓ Samarqand va Shahrisabz shaharlari orasida 66 kmlik avtomobil yo‘li va Tahtaqoracha dovonida 4,4 kmlik tunnel qurish loyihasi uchun maslahat xizmatini ko‘rsatuvchi kompaniyani jalb qilish ishlari davom etmoqda (loyihaning dastlabki qiymati – 484 mln AQSh dollari; loyiha muddati – 25 yil);

✓ Toshkent shahar va hududiy xalqaro aeroportlarni modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish loyihalari bo‘yicha Jahon banki guruhi tomonidan o‘rganish ishlari davom etmoqda (loyihaning dastlabki qiymati – 3,814 mlrd AQSh dollari; loyiha muddati – 25 yil);

✓ Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarni modernizatsiya qilish va boshqaruvga berish loyihasi bo‘yicha o‘rganish ishlari davom etmoqda (loyihaning dastlabki qiymati – 200 mln AQSh dollari; loyiha muddati – 25 yil)[414].

[414] https://www.pppda.uz/10897

Tayanch iboralar va atamalar

1-guruh — Loyihaning asosiy tushunchalari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
1	***Loyiha***	Aniq belgilangan maqsadga erishish uchun ma’lum muddat va byudjet doirasida amalga oshiriladigan bir martalik, noyob faoliyat majmuasi. DXSh kontekstida loyiha — davlat va xususiy sheriklar birgalikda amalga oshiradigan infratuzilma ob’ektini qurish, jihozlash, moliyalashtirish va ekspluatatsiya qilishga doir shartnomaviy majburiyatlar yig‘indisidir. Loyiha har doim aniq boshlanish va tugash sanasiga ega.
2	***Loyiha tushunchasi***	Loyihani yaratish va amalga oshirishning asosiy nazariy-metodologik asosi; loyihaning maqsadi, ob’ekti, sub’ekti va chegaralarini belgilovchi kontseptual hujjat yoki yondashuv. Loyiha tushunchasi loyiha g‘oyasidan kengroq bo‘lib, amalga oshirish yo‘llarini, kutilgan natijalarni va asosiy parametrlarni qamrab oladi.
3	***Loyiha g‘oyasi***	Loyihaning dastlabki ilhomlantiruvchi yadro fikri; hal etilishi kerak bo‘lgan muammo yoki foydalanilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatni ifodalovchi dastlabki taklif. DXSh loyihalarida g‘oya odatda ikkita manbadan kelib chiqadi: davlatning infratuzilma ehtiyojlari (masalan, yangi aeroportga talab) yoki xususiy investorning tijorat manfaati.
4	***Loyiha sohasi***	Loyiha amalga oshiriladigan iqtisodiyot tarmog‘i, geografik hudud yoki faoliyat yo‘nalishi. 11-bob doirasida loyiha sohalari: havo transporti, avtomobil yo‘llari, logistika parklari, jamoat transporti, temir yo‘l transporti. Sohaning to‘g‘ri tanlanishi

		loyihaning muvaffaqiyat ehtimolini belgilaydigan birinchi qadam hisoblanadi.
5	***Loyiha xususiyatlari***	Loyihani oddiy faoliyatdan farqlaydigan belgilar majmuasi: bir martaliligi va noyobligi; aniq maqsad va natija; belgilangan muddat; cheklangan byudjet; xavf-xatarni o‘z ichiga olishi; ko‘p ishtirokchilarning manfaatlarini birlashtirishi; boshlanish va tugash nuqtalarining mavjudligi. DXSh loyihalari uchun qo‘shimcha xususiyat — uzoq muddatlilik (3 yildan 49 yilgacha).
2-guruh — Loyiha turlari, sinflari va ko‘lami		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
6	***Loyiha turi***	Loyihaning mazmuni, maqsadi va amalga oshirish usuli bo‘yicha tasniflash kategoriyasi. Asosiy turlar: investitsiya loyihalari (yangi ob’ektlar yaratish); innovatsiya loyihalari (yangi texnologiya joriy etish); ijtimoiy loyihalar (ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish); DXSh loyihalari (davlat va xususiy sektor birgalikdagi sheriklik asosida).
7	***Loyiha sinfi***	Loyihaning murakkablik darajasiga qarab guruhlash: моноloyiha, multiloyiha va megaloyiha. Sinf belgilanishi loyihani boshqarish tuzilmasi, kerakli resurslar hajmi va xavf-xatarni boshqarish strategiyasini oldindan aniqlashga imkon beradi.
8	***Monoloyiha***	Bitta aniq maqsadga yo‘naltirilgan, nisbatan kichik ko‘lamli, yagona buyurtmachi va moliyalashtirish manbiga ega bo‘lgan mustaqil loyiha. Xususiyatlari: boshqarish sodda, qarorlar tez qabul qilinadi, natijalar aniq o‘lchanadi. Misol: bitta yo‘l uchastkasini rekonstruksiya qilish loyihasi.
9	***Multiloyiha***	Bir-biri bilan bog‘liq bir nechta alohida loyihani birlashtiruvchi murakkab loyihalar

		majmuasi. Bir necha buyurtmachi, moliyalashtirish manbai va bajaruvchi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi. Muvofiqlashtirish alohida boshqaruv tuzilmasini talab qiladi. Misol: mintaqaning barcha yo‘l tarmog‘ini modernizatsiya qilish dasturi.
10	***Megaloyiha***	Juda katta ko‘lamli, milliy yoki xalqaro ahamiyatga ega, bir necha mlrd. dollar investitsiya talab etadigan va ko‘p yillik amalga oshirish muddatiga ega bo‘lgan strategik loyiha. DXSh doirasidagi megaloyihalarga misol: Fransiyaning Tours–Bordeaux yuqori tezlikdagi temir yo‘li (7,8 mlrd yevro) yoki Tayvanning 394 km yuqori tezlikdagi temir yo‘l tizimi (15 mlrd. dollar).
11	***Loyiha ko‘lami***	Loyiha qamrab oladigan ishlar hajmi, geografik maydon, resurslar va kutilayotgan natijalarning chegaralari. Ko‘lam aniq belgilanishi «scope creep» (ko‘lam siljishi) — rejalashtirilmagan ishlar qo‘shilishi — xavfini kamaytiradi. DXSh loyihalarida ko‘lam yuridik shartnoma bilan mustahkamlanadi va o‘zgartirish ikkala tomonning roziligi bilan amalga oshiriladi.
3-guruh — Loyiha parametrlari: muhit, davomiylik va hayot tsikli		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
12	***Loyiha muhiti***	Loyihaning amalga oshirilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha tashqi va ichki omillar yig‘indisi. Tashqi muhit: iqtisodiy konjunktura, qonunchilik, siyosiy barqarorlik, raqobat, texnologik o‘zgarishlar. Ichki muhit: tashkilot madaniyati, kadrlar salohiyati, moliyaviy holat. DXSh loyihalarida muhit 30-49 yillik muddatda

		sezilarli o‘zgarishi mumkin — bu asosiy xavf-xatar manbayi hisoblanadi.
13	***Loyiha davomiyligi***	Loyihaning boshlanishidan to yakuniy topshirilgunga (yoki ekspluatatsiya muddati tugaguniga) qadar bo‘lgan vaqt oralig‘i. DXSh loyihalari uchun davomiylik odatda 3 yildan 49 yilgacha bo‘ladi: qurilish bosqichi (3-5 yil) va ekspluatatsiya bosqichi (20-45 yil). Davomiylik qanchalik uzun bo‘lsa, moliyaviy prognozlash shunchalik murakkablashadi.
14	***Loyiha hayot tsikli***	Loyihaning g‘oya va tashabbusdan to yakuniy baholash va xulosagacha o‘tadigan barcha bosqichlarini qamrab oluvchi ketma-ket fazalar majmuasi. Asosiy fazalar: 1) konsepsiya va tashabbusni shakllantirish; 2) rejalash va loyihalash; 3) amalga oshirish va qurilish; 4) ekspluatatsiya; 5) tugatish va natijalarni baholash. DXSh loyihalarida hayot tsikli g‘oyadan shartnomani imzolashgacha 18 oygacha davom etishi mumkin.
15	***Loyiha oldi bosqichi***	Loyihaning rasmiy boshlanishidan avvalgi tayyorgarlik bosqichi; bunda loyihaning maqsadga muvofiqligi, texnik va iqtisodiy amalga oshiriluvchanlik (feasibility study), muqobil variantlar va dastlabki xavf-xatarlar baholanadi. DXSh loyihalari uchun ushbu bosqich ayniqsa muhim: loyiha oldi xulosasi noto‘g‘ri bo‘lsa, keyingi o‘nlab yillar davomida zararlar ko‘riladi.
16	***Loyiha davri tushunchalari***	Loyiha hayot tsiklining turli bosqichlarini tavsiflovchi vaqt birliklari va ular bilan bog‘liq hodisalar: boshlanish sanasi, asosiy bosqich muddatlari, oraliq natijalar (milestones), shartnoma muddati, ekspluatatsiya davri, amortizatsiya muddati. Bu tushunchalar moliyaviy modellashtirish

		va xavf-xatarni taqsimlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.
17	***Loyiha tahlili tuzilmasi***	Loyihaning batafsil va tizimli baholash uchun qo‘llaniladigan metodologik doira. Standart tuzilma quyidagi bloklar: texnik tahlil (amalga oshiruvchanlik, standartlarga muvofiqlik); iqtisodiy tahlil (xarajat-foyda tahlili); moliyaviy tahlil (pul oqimlari, daromadlilik); ijtimoiy tahlil (aholiga ta’sir); ekologik tahlil; xavf-xatar tahlili. DXSh loyihalari uchun tomonlar manfaatlari tahlili ham qo‘shiladi.
4-guruh — Investitsiya loyihalari va ularning ishtirokchilari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
18	***Investitsiya loyihasi***	Kapital qo‘yilmalar (investitsiyalar) orqali yangi ob’ekt yaratish yoki mavjudini kengaytirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan loyiha. Asosiy belgilari: aniq investitsiya hajmi; kutilayotgan daromad yoki ijtimoiy samara; moliyalashtirish manbai (o‘z mablag‘lari, kredit, grant, DXSh). Transport sohasida investitsiya loyihalari ko‘pincha DXSh mexanizmi orqali amalga oshiriladi.
19	***Investitsiyaviy loyiha***	Investitsion qaror qabul qilish uchun tayyorlangan, ichki daromadlilik stavkasi (IRR), sof joriy qiymat (NPV) va investitsiyalar qaytish muddati (payback period) ko‘rsatkichlari bilan rasmiylashtirilgan hujjat. Investitsiyaviy loyiha texnik-iqtisodiy asoslash (TEA) va biznes-rejani o‘z ichiga oladi; DXSh kontekstida esa xususiy sherikka va kreditorlarga taqdim etiladi.
20	***Investitsiyaviy loyiha turlari***	Maqsadi, ko‘lami va moliyalashtirish xususiyatlariga ko‘ra tasnif: ishlab chiqarish investitsiya loyihalari (yangi korxona,

		uchastka); infratuzilma investitsiya loyihalari (yo‘llar, aeroportlar, temir yo‘l); ijtimoiy investitsiya loyihalari (maktab, kasalxona); innovatsion investitsiya loyihalari (texnologiya joriy etish). Davlat investitsiya loyihalari alohida toifani tashkil etadi.
21	***Loyiha ishtirokchilari***	Loyiha amalga oshirilishida bevosita yoki bilvosita ishtirok etuvchi barcha tomonlar. DXSh loyihalarida asosiy ishtirokchilar: buyurtmachi davlat organi (loyiha tashabbuskori); xususiy sherik (investor va quriluvchi); kredit beruvchi moliya institutlari (banklar, xalqaro fondlar); loyiha kompaniyasi (SPV — maxsus loyiha vositachisi); iste’molchilar (yakuniy foydalanuvchilar). Har bir ishtirokchining roli va mas’uliyati shartnomada aniq belgilanadi.
22	***Davlat investitsiya loyihalari***	Davlat byudjeti, davlat kafolatlari yoki davlat mulki hisobiga to‘liq yoki qisman moliyalashtiriladigan infratuzilma va ijtimoiy ob’ektlarni yaratishga qaratilgan loyihalar. O‘zbekistonda 2019 yil DXSh Qonuni qabul qilinganidan so‘ng, ushbu toifa loyihalarning bir qismi DXSh formatiga o‘tkazilmoqda: 2019 yil 4300-sonli qaror bilan 15 ta yirik davlat investitsiya loyihasi — umumiy 2 mlrd. dollardan oshiq — DXSh asosida amalga oshirish uchun tasdiqlandi.

Nazorat savollari:

1.Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tushunchasining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?

2.DXShning an’anaviy davlat boshqaruvi va xususiy sektor faoliyatidan asosiy farqlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

3.Transport sohasida DXShni joriy etishning asosiy iqtisodiy afzalliklari nimalardan iborat?

4.O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslari qaysi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?

5.DXShni amalga oshirishda institutsional tuzilmaning roli va ahamiyati nimada?

6.DXSh asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi qanday ishlaydi?

7.Transport infratuzilmasini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy yo‘nalishlari qaysilar?

8.Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bosqichlarini izohlang.

9.DXSh mexanizmini joriy etishda yuzaga keladigan asosiy muammolar va risklar nimalardan iborat?

10.Transport sohasida DXShni rivojlantirish istiqbollari va ustuvor yo‘nalishlarini baholang.

XII BOB O‘ZBEKISTON TRANSPORT TIZIMIDA HAVO TRANSPORTINING O‘RNI.

12.1. Aviakompaniya haqida umumiy tushuncha.
12.2. Fuqaro aviatsiyasi korxonalari va tashkilotlari.
12.3. Havo transportining texnik-iqtisodiy xususiyatlari.
12.4. "O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda aviakompaniyaning o‘rni.

12.1. Aviakompaniya haqida umumiy tushuncha

Havo transporti zamonaviy transport tizimining eng tez rivojlanayotgan va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U yo‘lovchilar, yuklar, pochta jo‘natmalari hamda boshqa turdagi logistika xizmatlarini havo yo‘llari orqali tashishni amalga oshiradi. Havo transportining boshqa transport turlaridan asosiy farqi uning yuqori tezlikka egaligi, uzoq masofalarni qisqa vaqt ichida bosib o‘tish imkoniyati hamda geografik jihatdan murakkab hududlarni o‘zaro bog‘lash xususiyatidir. Shu sababli aviatsiya tizimi bugungi globallashuv sharoitida xalqaro iqtisodiy integratsiya, turizm, investitsiyalar, tashqi savdo va logistika tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.

Ayniqsa, dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan davlatlar uchun havo transporti tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki aviatsiya transporti xalqaro bozorlarga tezkor chiqish, xorijiy investorlar bilan aloqalarni mustahkamlash hamda turizm oqimini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, havo transporti nafaqat transport-kommunikatsiya tizimi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik infratuzilma tarmog‘i sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida aviatsiya tarmog‘i yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va xizmatlar eksportini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (ICAO) va Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA) ma’lumotlariga ko‘ra, jahon iqtisodiyotida aviatsiya bilan bog‘liq xizmatlar millionlab ish o‘rinlarini yaratib, global logistika tizimining uzluksiz ishlashini ta’minlamoqda. Ayniqsa, elektron tijoratning rivojlanishi, tezkor yetkazib berish tizimlari va xalqaro

turizmning kengayishi havo transportiga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

Tarixiy jihatdan fuqaro aviatsiyasining shakllanishi Birinchi jahon urushidan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. XX asrning boshlarida samolyotlardan dastlab harbiy maqsadlarda foydalanilgan bo‘lsa, keyinchalik ularning iqtisodiy va tijorat ahamiyati ortib bordi. 1920-yillarga kelib Yevropa va Amerika davlatlarida fuqaro aviatsiyasi mustaqil transport tarmog‘i sifatida rivojlana boshladi. Ayniqsa, Germaniya va Fransiya aviatsiya sanoati ushbu yo‘nalishda yetakchi davlatlar qatoriga kirdi. Samolyotlar konstruksiyasining takomillashuvi, dvigatel quvvatining oshishi va navigatsiya tizimlarining rivojlanishi aviatsiyaning ommaviy transport vositasiga aylanishiga olib keldi.

O‘zbekiston hududida fuqaro aviatsiyasi rivojlanishi ham aynan shu tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Respublikadagi ilk havo yo‘li 1929-yil 12-mayda tashkil etildi. Toshkent–Avliyo ota–Pishpek–Olmaota marshruti bo‘yicha amalga oshirilgan dastlabki reys Markaziy Osiyo mintaqasida fuqaro aviatsiyasi rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo‘ldi. Ushbu yo‘nalishda Germaniyada ishlab chiqarilgan “Yunkers-13” samolyotlaridan foydalanilganligi o‘sha davr uchun katta texnologik yangilik hisoblangan. Keyinchalik Kogon–Xiva va Buxoro–Termiz–Dushanbe yo‘nalishlarining ochilishi mamlakat ichki hududlarini o‘zaro bog‘lash hamda iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi.

1930-yillardan boshlab O‘zbekistonda aviatsiya transportidan foydalanish ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Toshkent–Moskva muntazam aviaqatnovining yo‘lga qo‘yilishi respublikani markaziy iqtisodiy hududlar bilan bog‘lovchi muhim strategik yo‘nalishga aylandi. Shu bilan birga Toshkent, Nukus, Urganch, Termiz va Namangan shaharlarida aeroportlarning qurilishi aviatsiya infratuzilmasini rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratdi. Bu davrda havo transporti yuk va yo‘lovchi tashish bilan bir qatorda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham faol kirib bordi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr aviatsiya tizimi uchun texnologik modernizatsiya bosqichi bo‘ldi. Respublikada Il-12, Il-14, Li-2, An-2 kabi samolyotlardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Keyinchalik Tu-104, An-24, Yak-40 va Il-86 kabi zamonaviy havo kemalarining joriy etilishi aviatsiya xizmatlari sifatini yangi bosqichga olib chiqdi. Shu bilan birga aviatsiya qishloq xo‘jaligida ham keng qo‘llanila boshlandi. Mineral o‘g‘itlar sepish, zararkunandalarga qarshi kurashish va defoliatsiya ishlari

uchun aviatsiyadan foydalanish qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynadi.

1960–1980-yillar davomida O‘zbekiston aviatsiya infratuzilmasi izchil rivojlandi. Samarqand, Qarshi, Buxoro va Sergeli aeroportlarining qurilishi havo qatnovlari geografiyasini kengaytirdi. 1980-yilga kelib O‘zbekiston havo yo‘llarining umumiy uzunligi 155 ming kilometrdan oshdi. Bu esa respublika aviatsiya tizimi sobiq ittifoqdagi eng yirik transport tarmoqlaridan biriga aylanganligini ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston aviatsiya tizimi tubdan isloh qilindi. 1992-yil 28-yanvarda “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasining tashkil etilishi mamlakat fuqaro aviatsiyasining mustaqil rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Milliy aviakompaniya tashkil etilishi bilan aviatsiya tizimini xalqaro standartlar asosida boshqarish, xorijiy aviakompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish va zamonaviy havo kemalarini xarid qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Mustaqillikdan keyingi davrda aviatsiya tarmog‘iga milliardlab dollar investitsiyalar yo‘naltirildi. Natijada Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Navoiy, Termiz va boshqa shaharlardagi aeroportlar rekonstruksiya qilinib, xalqaro standartlarga moslashtirildi. Ayniqsa, Toshkent xalqaro aeroporti Markaziy Osiyodagi yirik tranzit markazlardan biriga aylandi. Zamonaviy aerovokzallar, yuk terminallari, logistika markazlari va navigatsiya tizimlarining joriy qilinishi O‘zbekistonning xalqaro aviatsiya bozoridagi mavqeini mustahkamladi.

Aviatsiya tarmog‘ini modernizatsiya qilish jarayonida Boeing, Airbus va boshqa yirik aviatsiya kompaniyalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Zamonaviy Boeing 757/767 va Airbus A310 samolyotlarining xarid qilinishi xalqaro aviaqatnovlar sifati va xavfsizligini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa O‘zbekistonning Yevropa, Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyo va MDH davlatlari bilan havo aloqalarini kengaytirishga xizmat qildi.

Bugungi kunda havo transporti O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida qaralmoqda. Aviatsiya tizimi mamlakatning xalqaro savdo aloqalari, turizm industriyasi, investitsion jozibadorligi va tranzit salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, ziyorat turizmini rivojlantirish, ichki aviaqatnovlarni kengaytirish hamda yangi xalqaro yo‘nalishlarni ochish davlat transport siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylangan.

COVID-19 pandemiyasi jahon aviatsiya sanoatiga katta salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Xalqaro aviaqatnovlarning to‘xtatilishi aviakompaniyalar

daromadining kamayishiga va aeroportlar faoliyatining qisqarishiga olib keldi. O‘zbekiston aviatsiya tizimi ham ushbu inqirozdan jiddiy zarar ko‘rdi. Shu sababli pandemiyadan keyingi davrda aviatsiya tizimini tiklash, aeroportlarni davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizatsiya qilish va xorijiy investorlarni jalb etishga qaratilgan yangi strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi bosqichda respublika aeroportlarida noaviatsiya xizmatlarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Duty Free, mehmonxona, keytering, logistika va bagaj xizmatlarini kengaytirish aeroportlarning daromad bazasini mustahkamlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ichki aviaqatnovlar uchun subsidiya mexanizmlarini joriy etish orqali aholining aviamobilligini oshirish va hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish maqsad qilingan.

Shunday qilib, aviatsiya transporti bugungi kunda nafaqat transport tizimining tarkibiy qismi, balki milliy iqtisodiy xavfsizlik, xalqaro integratsiya, logistika va xizmatlar iqtisodiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

12.2. Fuqaro aviatsiyasi korxonalari va tashkilotlari.

Fuqaro aviatsiyasi tizimi murakkab texnologik, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iborat bo‘lib, unda turli korxonalar, infratuzilma obyektlari, texnik vositalar va boshqaruv organlari o‘zaro uzviy bog‘langan holda faoliyat yuritadi. Zamonaviy havo transporti tizimining samarali ishlashi nafaqat samolyotlar mavjudligiga, balki aeroportlar, aerodromlar, aviatsiya texnik bazalari, samolyot ta’mirlash zavodlari, dispetcherlik tizimlari hamda yuqori malakali mutaxassislar faoliyatiga ham bevosita bog‘liqdir.

Havo transporti infratuzilmasining asosiy elementlarini uchish apparatlari — samolyot va vertolyotlar, aeroportlar, aerodromlar, samolyot ta’mirlash zavodlari, navigatsiya va aloqa tizimlari tashkil etadi. Mazkur elementlar birgalikda yagona transport-logistika tizimini hosil qilib, yo‘lovchi va yuk tashish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Fuqaro aviatsiyasi tizimining texnik va iqtisodiy samaradorligi ushbu elementlarning o‘zaro uyg‘un ishlashiga bog‘liq bo‘ladi.

Samolyot va vertolyotlar fuqaro aviatsiyasining eng muhim faol texnik vositasi hisoblanadi. Ular o‘z funksional vazifalariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Jumladan, yo‘lovchi tashuvchi samolyotlar, yuk tashuvchi havo kemalari, aralash yuk-va-yo‘lovchi tashuvchi samolyotlar, maxsus vazifalarni bajaruvchi aviatsiya vositalari hamda sport va o‘quv-

trenirovka samolyotlari mavjud. Maxsus vazifalarni bajaruvchi samolyot va vertolyotlar qishloq xo‘jaligi ishlarida, sanitariya aviatsiyasida, aerofotosuratga olishda, geologik qidiruvlarda va favqulodda vaziyatlarda keng qo‘llaniladi.

Aviatsiya texnikasining iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihatdan uning texnik-ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga bog‘liqdir. Samolyot va vertolyotlarning asosiy ko‘rsatkichlariga yo‘lovchi sig‘imi, yuk ko‘tara olish qobiliyati, maksimal uchish og‘irligi, kreyserlik tezligi va qo‘nmasdan ucha olish masofasi kiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar dvigatel quvvati, konstruktiv xususiyatlar va aerodinamik imkoniyatlarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy aviatsiya sanoatida aynan yoqilg‘i tejamkorligi, yuk ko‘tarish samaradorligi va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Yo‘lovchi tashuvchi samolyotlar o‘zining texnik imkoniyatlari va foydalanish xarakteriga qarab magistral va mahalliy havo yo‘nalishlarida foydalaniladigan samolyotlarga bo‘linadi. Magistral yo‘nalishlarda uzoq masofalarni bosib o‘tuvchi yirik samolyotlar ishlatiladi. Masalan, TU-154, IL-62 va TU-134 kabi samolyotlar uzoq masofali qatnovlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, katta yo‘lovchi sig‘imi va yuqori uchish tezligi bilan ajralib turadi. Mahalliy yo‘nalishlarda esa AN-24, YAK-40 va AN-2 kabi nisbatan kichik samolyotlardan foydalaniladi. Ushbu samolyotlar qisqa masofalarda va kam yo‘lovchi oqimiga ega hududlarda samarali transport vositasi sifatida xizmat qiladi.

Aviatsiya texnikasi maksimal ko‘tarilish og‘irligiga qarab ham bir necha sinflarga ajratiladi. Bu tasnif aeroportlar va aerodromlarning texnik talablarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Og‘ir samolyotlarni qabul qilish uchun yuqori darajadagi uchish-qo‘nish yo‘laklari, mustahkam qoplamalar va zamonaviy navigatsiya tizimlari talab qilinadi. Shu sababli aeroportlarning texnik imkoniyatlari ko‘p jihatdan ular xizmat ko‘rsatadigan samolyot sinfiga bog‘liq bo‘ladi.

Fuqaro aviatsiyasi tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri aeroportlardir. Aeroportlar yo‘lovchilar, yuklar va pochta jo‘natmalarini qabul qilish, jo‘natish, samolyotlarni uchishga tayyorlash hamda parvozlarni tashkil etish vazifalarini bajaradi. Zamonaviy aeroportlar murakkab transport-logistika majmuasi bo‘lib, ular tarkibida aerodrom, yo‘lovchi terminallari, yuk terminallari, texnik xizmat ko‘rsatish zonalari, boshqaruv markazlari va turli injenerlik kommunikatsiyalari mavjud bo‘ladi.

Aeroportlar tarkibiga kanalizatsiya tizimlari, elektr energiyasi ta’minoti, bosimli havo tizimlari, radioaloqa va yoritish tarmoqlari ham kiradi. Ayniqsa, xalqaro aeroportlarda murakkab meteorologik sharoitlarda ham samolyotlarning xavfsiz qo‘nishi va uchishini ta’minlovchi yuqori texnologiyali radio-navigatsiya tizimlari joriy etilgan bo‘ladi. Bu esa aeroportlarning kecha-kunduz uzluksiz ishlashini ta’minlaydi.

Aeroportlar yo‘lovchi oqimi hajmiga qarab bir necha sinflarga bo‘linadi. Yiliga millionlab yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatuvchi aeroportlar yuqori darajadagi xalqaro transport markazlari hisoblanadi. Aksincha, mahalliy aeroportlar nisbatan kichik yo‘lovchi oqimiga xizmat qiladi. Aeroportlarning texnik jihozlanish darajasi, terminal quvvati, xizmat ko‘rsatish sifati va infratuzilma hajmi aynan ularning sinfiga bog‘liq bo‘ladi.

Aeroportning asosiy qismi aerodrom hisoblanadi. Aerodrom — samolyot va vertolyotlarning xavfsiz uchishi, qo‘nishi va texnik xizmat ko‘rsatishi uchun mo‘ljallangan maxsus tayyorlangan hududdir. Aerodrom tarkibiga uchish-qo‘nish yo‘laklari, xavfsizlik hududlari, rulejka yo‘llari va samolyotlarni to‘xtatish maydonlari kiradi.

Uchish-qo‘nish yo‘laklari aerodromning eng muhim texnik elementi bo‘lib, ular sement-beton yoki asfalt-beton qoplamalardan quriladi. Zamonaviy aeroportlarda uchish-qo‘nish yo‘laklarining uzunligi bir necha kilometrga yetishi mumkin. Bunday yo‘laklar yirik va og‘ir samolyotlarning har qanday ob-havo sharoitida xavfsiz qo‘nishi va uchishini ta’minlash uchun mo‘ljallanadi.

Samolyotlarning uchish xavfsizligini ta’minlash maqsadida aerodrom hududi atrofida maxsus xavfsizlik zonalari tashkil qilinadi. Ushbu hududlarda bino va inshootlar balandligi qat’iy nazorat qilinadi. Bundan tashqari, aerodrom yaqinidagi havo fazosi — aerotoriya — ham maxsus boshqaruv va nazorat tizimi asosida faoliyat yuritadi.

Aerodromlar funksional vazifalariga qarab transport aerodromlari, maxsus aerodromlar, sport va o‘quv aerodromlariga bo‘linadi. Ular doimiy faoliyat yurituvchi, mavsumiy ishlovchi yoki favqulodda holatlar uchun mo‘ljallangan aerodromlar shaklida ham tashkil etilishi mumkin.

Fuqaro aviatsiyasi tizimida samolyotlarni texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash korxonalari ham alohida ahamiyatga ega. Samolyot ta’mirlash zavodlari havo kemalarining texnik holatini nazorat qilish, kapital ta’mirlash, modernizatsiya va ehtiyot qismlar bilan ta’minlash vazifalarini bajaradi. Markaziy Osiyo hududidagi yirik samolyot ta’mirlash

zavodlaridan biri Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, u nafaqat O‘zbekiston, balki MDH davlatlari aviatsiya texnikasiga ham xizmat ko‘rsatadi.

Zamonaviy aviatsiya tizimida texnik xizmat ko‘rsatish sifati parvozlar xavfsizligining asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Shu sababli samolyotlarni diagnostika qilish, texnik monitoring, raqamli nazorat tizimlari va avtomatlashtirilgan servis texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda.

O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasining tashkiliy boshqaruv tizimi ham bir necha bosqichlardan iborat. Tizimning yuqori boshqaruv bo‘g‘ini sifatida milliy aviatsiya direksiyasi faoliyat yuritadi. Hududiy aviatsiya boshqarmalari, aeroportlar, aviatsiya texnika bazalari, samolyot va vertolyot parklarini boshqaruvchi korxonalar ushbu tizimning quyi bo‘g‘inlarini tashkil etadi. Bunday ko‘p bosqichli boshqaruv tizimi havo transportining uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda fuqaro aviatsiyasi korxonalari faoliyatida raqamlashtirish, logistika integratsiyasi, ekologik xavfsizlik va xizmatlar diversifikatsiyasi asosiy rivojlanish yo‘nalishlari sifatida shakllanmoqda. Zamonaviy aeroportlar endilikda faqat transport obyektigina emas, balki logistika, savdo, turizm va servis xizmatlarini birlashtiruvchi yirik iqtisodiy markazlarga aylanmoqda. Shu sababli aviatsiya korxonalari faoliyatining samaradorligi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanmoqda.(12.1-jadval).

12.1-jadval

Fuqaro havo flotidagi samolyot va vertolyotlar texnika ko‘rsatkichlari

Samolyot va vertolyotlar turlari	Passajir joylari soni	Yuk ko‘tara olishi, t	Ko‘tarilish maksimal og’irligi, t	Kreyserlik uchish tezligi, km□soat	Qo‘nmasdan ucha olish masofasi, km
1	2	3	4	5	6
Magistral trassalarda uchuvchi samolyotlar					
TY-154	158-164	18,0	90,0	900-1000	7000
ИЛ-62	186-198	23,0	165,0	900-1000	9000-11000
TY-134	72	7,7	47,0	850-900	3200
Mahalliy trasslarda uchuvchi samolyotlar					
AH-24	50	5,7	21,0	450-500	1900
ЯК-40	24-30	2,28	13,7	550-600	500
AH-2	12	1,5	5,5	160-185	2000

Maksimal ko‘tarila olish og’irliklariga qarab samolyotlar va vertolyotlar to‘rt sinfga bo‘linadilar (12.2-jadval).

Aeroportlar havo transporti korxonalaridan biri bo‘lib, passajirlar, yuk va pochta jo‘natish va qabul qilish hamda samolyotlarni uchishga tayyorlash va uchishni tashkil qilish ishlari bilan shug’ullanadi. Aeroportlar tarkibida aerodrom, vokzal, maxsus injenerlik bino va inshootlari hamda vertolyotlar qo‘nish maydonlari bo‘lishi mumkin.

12.2-jadval

Maksimal ko‘tarila olish og’irligi bo‘yicha samolyot va vertolyotlar sinfi

	Maksimal ko‘tarila olish og’irligi	
	samolyotlar	**vertolyotlar**
I sinf	50 t dan ortiq	10 t dan ortiq
II sinf	20-50 t	5-10 t
III sinf	10-20 t	2-5 t
IV sinf	1 t gacha	2 t gacha

Aeroportlar zamonaviy fuqaro aviatsiyasi tizimining eng muhim infratuzilma obyektlaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat samolyotlarning uchishi va qo‘nishini ta’minlovchi texnik hudud, balki yo‘lovchilar, yuklar va pochta jo‘natmalariga kompleks xizmat ko‘rsatuvchi yirik transport-logistika markazlari sifatida ham faoliyat yuritadi. Zamonaviy aeroportlar murakkab muhandislik-kommunikatsiya tizimlari bilan jihozlangan bo‘lib, ular tarkibiga elektr energiyasi ta’minoti, kanalizatsiya tarmoqlari, bosimli havo tizimlari, yoritish vositalari, radioaloqa va navigatsiya qurilmalari kiradi. Mazkur tizimlarning uzluksiz ishlashi samolyotlar harakatining xavfsizligi va muntazamligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro va magistral yo‘nalishlarga xizmat ko‘rsatuvchi aeroportlar, ayniqsa, murakkab meteorologik sharoitlarda ham kecha-kunduz uzluksiz faoliyat yuritishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Shu sababli bunday aeroportlarda yuqori texnologiyali meteorologik kuzatuv tizimlari, avtomatik qo‘nish uskunalari, radar va radio-navigatsiya vositalari joriy etiladi. Bu esa kuchli shamol, tuman, qor yoki yomg‘ir sharoitida ham parvozlarning xavfsiz amalga oshirilishini ta’minlaydi. Zamonaviy xalqaro aviatsiyada aynan aeroport infratuzilmasining texnologik darajasi mamlakatning transport salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Aeroportlar yillik yo‘lovchi oqimi hajmiga qarab bir necha sinflarga bo‘linadi. Yiliga 7 milliondan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatuvchi

aeroportlar sinfdan yuqori aeroportlar deb yuritiladi. Aksincha, yil davomida 25 mingdan kam yo‘lovchiga xizmat qiluvchi aeroportlar alohida sinfga kiritilmaydi. Aeroportning sinfi va ahamiyatiga qarab uning texnik jihozlanish darajasi, terminal maydoni, xizmat ko‘rsatish sifati hamda ekspluatatsion imkoniyatlari belgilanadi. Shu sababli yirik xalqaro aeroportlar bilan mahalliy aeroportlar o‘rtasida texnologik va iqtisodiy farqlar sezilarli bo‘ladi.

Aeroportning eng muhim tarkibiy qismi aerodrom hisoblanadi. Aerodrom — samolyot va vertolyotlarning xavfsiz uchishi, qo‘nishi va texnik xizmat ko‘rsatishi uchun maxsus tayyorlangan hududdir. Aerodrom tarkibiga uchish-qo‘nish yo‘laklari, xavfsizlik hududlari, samolyotlarni to‘xtatish maydonlari, texnik xizmat ko‘rsatish zonalari va yordamchi kommunikatsiyalar kiradi. Fuqaro aviatsiyasining xavfsiz ishlashi ko‘p jihatdan aynan aerodrom infratuzilmasining sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Vertolyotlar uchun maxsus qo‘nish va uchish maydonchalari ham tashkil etiladi. Bunday maydonchalar vertolyotlarning uchishi, qo‘nishi va burilishi uchun moslashtirilgan bo‘lib, ular yuk va yo‘lovchi tashish, sanitariya aviatsiyasi, qutqaruv ishlari hamda maxsus topshiriqlarni bajarishda keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, tog‘li hududlar, olis aholi punktlari va favqulodda vaziyatlarda vertolyot transporti muhim strategik vosita hisoblanadi.

Aerodromlar o‘z funksional vazifalariga qarab bir necha turlarga bo‘linadi. Transport aerodromlari yo‘lovchi va yuk tashuvchi samolyotlarga xizmat ko‘rsatadi. Maxsus aerodromlar ma’lum texnik yoki harbiy vazifalarni bajarishga mo‘ljallanadi. Bundan tashqari, sport aerodromlari va o‘quv aerodromlari ham mavjud bo‘lib, ular uchuvchilar tayyorlash va aviatsiya sportini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Ishlash muddati va foydalanish xarakteriga ko‘ra aerodromlar muntazam faoliyat yurituvchi, mavsumiy ishlovchi hamda favqulodda topshiriqlarni bajarishga mo‘ljallangan aerodromlarga bo‘linadi. Muntazam aerodromlar yil davomida uzluksiz faoliyat yuritadi, mavsumiy aerodromlar esa ma’lum fasllarda yoki ob-havo sharoitlariga qarab foydalaniladi. Favqulodda aerodromlar esa asosan zaxira qo‘nish maydoni sifatida tashkil etiladi.

Aerodromlar vazifasiga ko‘ra asosiy, oraliq va zaxira aerodromlarga ham ajratiladi. Asosiy aerodromlar samolyotlarning uchish va qo‘nish marshrutidagi boshlang‘ich yoki yakuniy punkt hisoblanadi. Oraliq aerodromlar esa yo‘lovchilarni tushirish yoki chiqarish, texnik xizmat

ko‘rsatish va yonilg‘i bilan ta’minlash uchun foydalaniladi. Favqulodda holatlarda samolyotlarning xavfsiz qo‘nishini ta’minlash maqsadida zaxira aerodromlar ham faoliyat yuritadi.

Aerodromlarning asosiy funksional hududlari uchish zonalari, texnik xizmat ko‘rsatish hududi va samolyotlar turar joy zonalaridan iborat bo‘ladi. Uchish zonalariga uchish maydonchasi, xavfsizlik yo‘lagi va havodan tushish hududi kiradi. Uchish maydonchasi samolyotlarning uchish va qo‘nish oldidan harakatlanishi uchun maxsus tayyorlangan hudud hisoblanadi.

Uchish-qo‘nish yo‘laklari soni va joylashuvi aerodromning o‘tkazuvchanlik qobiliyati, shamol yo‘nalishi, yer rel’efi va gidrogeologik sharoitlarga bog‘liq ravishda belgilanadi. Zamonaviy aeroportlarda uchish-qo‘nish yo‘laklari sement-beton yoki asfalt-beton qoplamalar bilan mustahkamlanadi. Bunday qoplamalar har qanday ob-havo sharoitida samolyotlarning xavfsiz qo‘nishi va uchishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Aerodrom kategoriyasiga qarab uchish-qo‘nish yo‘laklarining uzunligi odatda 600 metrdan 2600 metrgacha va undan ortiq bo‘lishi mumkin. Kengligi esa 25 metrdan 80 metrgacha yetadi. Og‘ir va uzoq masofaga uchuvchi samolyotlarni qabul qilish uchun yuqori darajada mustahkam va uzun yo‘laklar talab qilinadi. Bu esa aeroport qurilishi va ekspluatasiyasida katta investisiyalarni talab qiladi.

Uchish-qo‘nish yo‘laklaridan samolyotlarning turish joylari va perronlargacha olib boruvchi maxsus yo‘llar rulejka yo‘llari deb ataladi. Ular samolyotlarning aeroport hududi ichida xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydi. Rulejka yo‘llarining kengligi odatda 10–25 metr atrofida bo‘ladi. Samolyotlar to‘xtab turadigan maydonlar ham qattiq qoplamali hududlardan iborat bo‘lib, aynan shu yerda texnik xizmat ko‘rsatish, yonilg‘i quyish va yuklash-tushirish ishlari amalga oshiriladi.

Tungi paytlarda va murakkab meteorologik sharoitlarda samolyotlarning muntazam qatnovini ta’minlash maqsadida aerodromlar maxsus yoritish tizimlari, elektr chiroqlari hamda radio-texnik vositalar bilan jihozlanadi. Zamonaviy aeroportlarda avtomatik qo‘nish tizimlari, lazerli navigatsiya vositalari va raqamli dispetcherlik texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda.

Parvozlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida aerodrom atrofidagi hududlarda bino va inshootlar balandligiga ma’lum cheklovlar o‘rnatiladi. Ushbu hudud aerodrom oldi hududi deb ataladi. Bundan tashqari, aerodrom ustidagi taxminan 50 kilometr radiusdagi havo fazosi

aeroportning aerotoriyasi hisoblanadi va u maxsus havo harakati boshqaruv tizimi orqali nazorat qilinadi.

Aerodromlar nafaqat samolyotlarga xizmat ko‘rsatish markazi, balki uchuvchilar, texnik xodimlar va aeroport mutaxassislarining faoliyat yuritish hududi hamdir. Shu sababli ko‘plab aerodromlar yaqinida xodimlar uchun turar joy massivlari, servis markazlari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari tashkil etiladi.

Fuqaro aviatsiyasi tizimida samolyot ta’mirlash zavodlari alohida strategik ahamiyatga ega. Markaziy Osiyodagi yirik samolyot ta’mirlash korxonalaridan biri Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, u nafaqat O‘zbekiston, balki MDH mamlakatlari aviatsiya texnikasiga ham xizmat ko‘rsatadi. Bunday korxonalar samolyotlarni kapital ta’mirlash, modernizatsiya qilish va texnik diagnostika bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi tizimining boshqaruv tuzilmasi ham ko‘p bosqichli xarakterga ega. Tizimning yuqori boshqaruv bo‘g‘ini sifatida milliy aviakompaniya direksiyasi faoliyat yuritadi. Hududiy aviatsiya boshqarmalari, aeroportlar, aviatsiya texnika bazalari, samolyot va vertolyot parklarini boshqaruvchi korxonalar ushbu tizimning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Mazkur boshqaruv tizimi fuqaro aviatsiyasi tarmog‘ining uzluksiz, xavfsiz va iqtisodiy samarali ishlashini ta’minlashga xizmat qiladi.

12.3. Havo transportining texnik-iqtisodiy xususiyatlari.

Barcha transport turlari ichida eng yuqori tezlikka ega bo‘lgan transport turi — bu havo transportidir. Zamonaviy fuqaro aviatsiyasida foydalanilayotgan samolyotlarning uchish tezligi soatiga o‘rtacha 900–1000 kilometrni tashkil etadi. Ayniqsa, Boeing-757, Boeing-767, Airbus A-310, RJ-85 hamda IL-62 kabi samolyotlar uzoq masofalarni qo‘nmasdan bosib o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lib, ularning uchish masofasi 9000–11000 kilometrgacha yetadi. Bu esa havo transportini uzoq masofali xalqaro tashuvlar uchun eng qulay va samarali transport vositasiga aylantiradi.

Havo transportining asosiy texnik-iqtisodiy ustunligi uning yuqori tezligi bilan bog‘liqdir. Samolyotlarning katta tezlikda harakatlanishi yo‘lovchilar, pochta jo‘natmalari va yuklarni yetkazib berish vaqtini keskin qisqartiradi. Masalan, kuryer poezdlarining o‘rtacha harakat tezligi 100–110 km/soat, shaharlararo avtobuslarning tezligi 50–60 km/soat, suv osti qanotli teploxodlarning tezligi esa 70–75 km/soat atrofida bo‘lsa, gaz-turbinali samolyotlar o‘rtacha 600–800 km/soat tezlikda harakatlana

oladi. Natijada uzoq masofalarda vaqt tejalishi juda katta iqtisodiy samaradorlik beradi.

Gaz-turbinali samolyotlarda yo‘lovchilarning o‘rtacha uchish masofasi taxminan 2000 kilometrni tashkil etadi. So‘nggi o‘n yilliklarda aviatsiya texnologiyalarining takomillashuvi natijasida samolyotlarning tijorat tezligi sezilarli darajada oshdi. Bu esa bir xil masofani bosib o‘tishda temir yo‘l transportiga nisbatan o‘nlab soat vaqt tejash imkonini bermoqda. Masalan, uzoq masofali qatnovlarda samolyotdan foydalangan yo‘lovchilar temir yo‘l transportiga nisbatan o‘rtacha 25–30 soat vaqt yutadi. Bu holat iqtisodiy nuqtai nazardan juda muhim bo‘lib, inson kapitalidan samarali foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Transport vositalarida vaqtni tejash ishlab chiqarish samaradorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki insonlarning safarda ortiqcha vaqt yo‘qotmasligi iqtisodiy faollikni oshiradi, biznes aloqalarni tezlashtiradi va hududlararo integratsiyani kuchaytiradi. Shu sababli aviatsiya transporti mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, global biznes va xalqaro savdo tizimida tezkor logistika omili raqobatbardoshlikning asosiy shartlaridan biriga aylanib bormoqda.

Havo transportining ikkinchi muhim afzalligi — yuk va yo‘lovchilarni eng qisqa marshrut bo‘yicha tashish imkoniyatidir. Temir yo‘l va avtomobil yo‘llari yer rel’efi, tog‘lar, daryolar va boshqa geografik to‘siqlarni hisobga olgan holda quriladi. Samolyotlar esa havoda to‘g‘ri yo‘nalish bo‘ylab harakatlanishi mumkin. Shu sababli havo marshrutlari temir yo‘l yo‘nalishlariga qaraganda o‘rtacha 20–30 foiz qisqaroq bo‘ladi.

Bu esa ortiqcha transport xarajatlari, yonilg‘i sarfi va vaqt yo‘qotishlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalqaro yuk tashishlarda marshrut uzunligining qisqarishi logistika xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Zamonaviy logistika tizimida aynan “time-sensitive cargo” — ya’ni tez yetkazilishi zarur bo‘lgan yuklarni tashishda aviatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Elektronika, farmatsevtika, tez buziluvchi mahsulotlar va qimmatbaho yuklar asosan havo transporti orqali tashilishi ham aynan shu bilan izohlanadi.

Havo transportining yana bir muhim ustunligi uning geografik jihatdan yuqori darajadagi mustaqilligidir. Temir yo‘l, avtomobil yoki daryo transporti ma’lum magistrallar va tabiiy yo‘nalishlarga bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Samolyot esa tog‘lar, cho‘llar, o‘rmonlar, suv

havzalari va boshqa tabiiy to‘siqlar ustidan erkin uchib o‘ta oladi. Shu sababli aviatsiya eng chekka va infratuzilmasi kam rivojlangan hududlarga ham tezkor transport aloqalarini o‘rnatish imkonini beradi.

Ayniqsa, shimoliy hududlar, cho‘l zonalari va tog‘li mintaqalarda aviatsiya yagona tezkor transport vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu jihat fuqaro aviatsiyasining strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Shu sababli ko‘plab davlatlar milliy xavfsizlik, favqulodda vaziyatlar va tibbiy transport tizimlarida ham aviatsiyadan keng foydalanadi.

Havo transportining to‘rtinchi ustunligi — aloqa va kommunikatsiya tizimini juda qisqa muddatlarda tashkil etish imkoniyatidir. Yangi aviaqatnovni yo‘lga qo‘yish uchun aeroport qurish va marshrutni radio-navigatsiya vositalari bilan jihozlash kifoya qiladi. Temir yo‘l yoki avtomobil magistrallaridan farqli ravishda havo yo‘llarini alohida qurish talab etilmaydi. Shu sababli fuqaro aviatsiyasi transportning boshqa turlariga nisbatan yangi yo‘nalishlarni tezroq tashkil eta olish imkoniyatiga ega.

Bu xususiyat ayniqsa iqtisodiy jihatdan tez rivojlanayotgan hududlar va yangi turistik markazlar uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda yangi aeroportlar va aviaqatnovlar hududlarning investitsion jozibadorligini oshiruvchi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Havo transportining beshinchi muhim afzalligi uning yuqori manevrchanligi va transport oqimlariga tez moslasha olish qobiliyatidir. Fuqaro aviatsiyasi qisqa va to‘g‘ri havo yo‘nalishlaridan foydalangan holda transportning boshqa turlari yetib bora olmaydigan hududlarga ham yuk va yo‘lovchilarni tezkor yetkazib bera oladi. Shuningdek, yo‘lovchi va yuk oqimlarining mavsumiy yoki iqtisodiy o‘zgarishlariga mos ravishda reyslar sonini tezkor o‘zgartirish imkoniyati mavjud.

Biroq havo transportining ayrim iqtisodiy kamchiliklari ham mavjud. Eng asosiy kamchilik — yuk va yo‘lovchi tashish tannarxining boshqa transport turlariga nisbatan ancha yuqoriligidir. Buning asosiy sababi samolyotlarning katta miqdorda yonilg‘i sarflashi, murakkab texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari hamda yuqori texnologiyali infratuzilma talab qilinishidir.

Samolyot dvigatellarining quvvati juda katta bo‘lib, bu katta miqdorda aviatsiya yonilg‘isi sarflanishiga olib keladi. Ayrim hollarda temir yo‘l transportiga nisbatan yonilg‘i sarfi 10–12 barobar yuqori bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, samolyotlarni texnik ta’mirlash, ehtiyot qismlar bilan ta’minlash va aeroport infratuzilmasini saqlash katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi.

Shu bilan birga, havo transportida yo‘lovchi tashishda samolyot vaznining bir tonna yuk ko‘tarishga nisbati ayrim hollarda temir yo‘l transportiga qaraganda samaraliroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli aviatsiya asosan uzoq masofalarga yo‘lovchi tashishda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq transport turi hisoblanadi.

Havo transportining yana bir muhim kamchiligi — ob-havo sharoitlariga yuqori darajada bog‘liqligidir. Kuchli shamol, tuman, qor yoki momaqaldiroq kabi meteorologik omillar samolyotlarning uchishi va qo‘nishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli aviatsiyada meteorologik xavfsizlik tizimlari alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy aeroportlarda radar, sun’iy yo‘ldosh navigatsiyasi va avtomatlashtirilgan meteorologik kuzatuv tizimlarining joriy etilishi aynan shu muammoni kamaytirishga qaratilgan.

Bugungi kunda jahon aviatsiya sanoatida ekologik xavfsizlik masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aviatsiya atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidrid emissiyasining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli “yashil aviatsiya”, bioyonilg‘i, elektr va vodorod dvigatellari asosidagi samolyotlarni yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. ICAO tomonidan ishlab chiqilgan ekologik standartlar aviakompaniyalarni energiya tejamkor samolyotlardan foydalanishga undamoqda.

Shunday qilib, havo transporti yuqori tezlik, qisqa marshrutlar, geografik mustaqillik va yuqori manevrchanlik kabi katta ustunliklarga ega bo‘lsa-da, uning yuqori tannarxi va ob-havo sharoitlariga bog‘liqligi kabi kamchiliklari ham mavjud. Shunga qaramay, zamonaviy iqtisodiyotda aviatsiya transportining strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda va u xalqaro iqtisodiy integratsiya hamda global logistika tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

12.4. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda aviakompaniyaning o‘rni

Mamlakatimiz havo transporti jahon standarti talablariga binoan rivojlanishi O‘zbekistonning mustaqillik yillariga to‘g’ri keladi. Shu yillar ichida O‘zbekiston samolyotlari saroyi rivojlangan g’arb mamlakatlarida, chunonchi Amerikada ishlab chiqarilgan "Boing"-757 va 767, Yevroaerobus A-310 hamda Britan-Frang’uz aviakompaniyasida ishlab chiqarilgan RJ-85 samolyotlari bilan to‘ldirildi. "Boing"-757 rusumli samolyotga o‘rnatilgan dvigatelning ish shovqini va zaharli gaz chiqarish darajasi o‘ta talabchan jahon standarti talabiga mos bo‘lganligi

uchun uni ekologiya talabiga binoan "ko‘k" samolyot deb ataladi. Bu samolyot piloti kabinasiga bortli kompqyuter, eng zamonaviy navigag’iya tizimi, jihozlar o‘rnatilishi bu samolyotni eng og’ir sharoitlarda (50 metr ko‘rish masofasida) ham aerodromga qo‘ndirish mumkinligini alohida ta’kidlash lozim. Yuqori parvoz tavsiflariga ega bunday havo mashinalari passajirlarning ko‘pgina qatnovlarga chiqishini ta’minladi. "O‘zbekiston havo yo‘llari" aviakompaniyasi samolyotlari bugungi kunda zaminimizning turli burchaklarida: Atlantika orqali Nqyu-Yorkka, Ovropa shaharlariga, Janubiy-Sharqiy va g’arbiy Osiyoga, Yaqin Sharq davlatlari va boshqa shaharlarga qatnovlarini amalga oshirmoqda.

MDH mamlakatlari bo‘yicha 30 dan ortiq yo‘nalishlar o‘zlashtirilgan, 20 dan ortiq uzoq xorijiy mamlakatlarga passajirlar tashish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Italiya poytaxti Rimga, Hindistonning Amritsar shahriga, u yerdan Bermingemga va boshqa bir necha havo yo‘llari ochilgan bo‘lib, sayyohlarni Yaponiyadan O‘zbekistonga eltish amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida Vatanimiz jahonga tanilgan va raqobatbardosh aviag’iya mamlakatiga aylandi. "O‘zbekiston havo yo‘llari" milliy aviakompaniyasi samolyotlari bilan 1995 yilda 1 mln. 531 ming passajirlar tashilgan bo‘lsa, bu raqam 2000 yilga kelib 1 mln. 791 mingga yetdi, bajarilgan passajirlar oboroti 1995 yili 2984 mln.pass.km ni, 2000 yili esa 3877,3 mln.pass.km ni tashkil etdi yoki passajirlar tashish bo‘yicha bajarilgan ish 17 foizga, passajirlar oboroti bo‘yicha bajarilgan ish 30 foizga oshdi.

Hozirgi kunda MDH davlatlari poytaxtlari Ashxabod, Boku, Bishkek, Kiev, Moskva va Rossiyaning quyidagi yirik shaharlari Chelyabinsk, Yekaterinburg, Qozon, Xabarovsk, Krasnodar, Mineral-Suvlar, Navosibirsk, Omsk, Rostov-Don, Samara, Sankt-Peterburg, Tyumen, Ufa, Qozog’istonning Olmata, Qaragandi, Ukrainaning Simferopolq shaharlari bilan, uzoq xorijiy davlatlarning yirik shaharlari bo‘lmish: Amsterdam, Bangkok, Baxreyn, Berlin, Dehli, Dakka(Bangladesh), Frankfurt, Stanbul, Jidda, Karachi, Kuala-Lumpur, Lahor, London, Nqyu-York, Parij, Seul, Shardja, Tel-Aviv, El-Riad bilan muntazam havo marshrutlari ishlab turibdi.

Respublikamiz poytaxti Toshkent quyidagi yo‘nalishlarda "O‘zbekiston havo yo‘llari" milliy aviakompaniyasi samolyotlari bilan

uchuvchi MDH va Ovropa mamlakatlari passajirlarga yuqori darajada qulayliklar yaratilgan:

1. Ashxabod-Toshkent-Bangkok, Dehli;
2. Bishkek-Toshkent-Frankfurt, Rim, Afina, Seul;
3. Ekaterinburg-Toshkent-Bangkok;
4. Qozon-Toshkent-Bangkok, Dehli, Seul, Dakka;
5. Kiev-Toshkent-Bangkok, Dehli, Seul, Dakka;
6. Krasnoyarsk-Toshkent-Bangkok;
7. Moskva-Toshkent-Bangkok, Kuala-Lumpur, Dehli, Seul, Pekin;
8. Samara-Toshkent-Dehli;
9. Sankt-Peterburg¬-Toshkent-Bangkok, Dehli;
10. Novosibirsk-Toshkent-Dehli-Bangkok, Seul, Shardja;
11. Rostov-Don-Toshkent-Dehli;
12. Simferopolq-Toshkent-Dehli;
13. Tyumenq-Toshkent-Bangkok, Pekin, Dehli, Kuala-Lumpur, Seul;
14. Ufa-Toshkent-Bangkok;
15. Xabarovsk-Toshkent-Afina, Rim, Stambul, Tel-Aviv;
16. Chelyabinsk-Toshkent-Dehli-Bangkok;
17. London-Birmengem-Toshkent-Dehli-Amritsar;
18. London-Toshkent-Dakka;
19. Frakfurt-Amsterdam-Parij-Toshkent-Dehli-Bangkok;
20. Tel-Aviv-Toshkent-Seul-Pekin-Bangkok;
21. Nqyu-York-Kiev-Toshkent-Dehli;
22. Afina-Rim-Toshkent- Dehli.

“O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasining quyidagi xorijiy davlatlar yirik shaharlarida vakolatxonalari bor:

Bokuda, Dakka(Bangladesh), Beming (XXR), Parijda, Frakfurt, London, Atxens (Greg’iya), Amsterdam, Dehli, Tel-Aviv, Rim, Tokio, Bishkek, Seul, Kuala-Lumpur, Moskva, Sankt-Peterburg, Chelyabinsk, Novosibirsk, Omsk, Rostov-Don, Samara, Tyumenq, Jidda (Saudiya Arabistoni), Bangkok (Tailand), Stambul, Ashxabod va boshqalar.

Mamlakatimiz bo‘yicha ham mahalliy havo yo‘nalishlari keng rivojlangan. Poytaxtimiz Toshkent quyidagi shaharlar bilan muntazam bog’langan: Andijon, Buxoro, Farg’ona, Qarshi, Namangan, Nukus, Samarqand, Termez, Urganch, Navoiy, Zarafshon.

Ichki va tashqi havo yo‘nalishlarida zamonaviy laynerlar va boshqa turdagi samolyotlar qatnamoqda.

"O‘zbekiston havo yo‘llari" MAK jahonning 75 aviakompaniyalari bilan turizmni rivojlantirish bo‘yicha hamda rivojlangan g’arbiy

mamlakatlarda chiqarilgan aviatexnikani ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha hamkorlik bitimlari bor. Markaziy Osiyo davlatlari ichida yagona samolyotlarni ta’mirlovchi zavod mavjud bo‘lib, u rivojlangan texnika va texnologiyaga ega bo‘lganligi uchun xorijiy aviakompaniyalarning juda ko‘p turdagi samolyotlari ta’mirdan chiqariladi.

Temir yo‘llari yo‘q, avtomobiль yo‘llari esa juda kam bo‘lgan joylar uchun havo transportining ahamiyati ayniqsa kattadir.

Shuningdek, havo transportidan pochta, tez buziladigan mahsulotlar tashishida, qishloq xo‘jalik zararkunandalariga qarshi kurashda, yong’inlarni o‘chirishda, joylarni aerofoto s’emka qilishda, geologo-razvedka ishlarida, aholi yashaydigan uzoq joylarda tibbiyot xizmatini o‘tashda va boshqa shu kabi ishlarda foydalaniladi. 2000 yilda mamlakatimiz havo transportida 34,2 ming tonna pochta va boshqa yuk tashildi.

Havo transportida ommaviy yuklar tashish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmaganligi sababli samolyotlarda faqat juda muhim va qimmatbaho yoki tez buziluvchi yuklar tashiladi.

Mamlakatimiz fuqaro aviatsiyasi transport masalalarini hal qilish bilan birga doim o‘sib borayotgan alohida vazifalarni ham bajaradi. Masalan, qishloq xo‘jaligi aviatsiya-kimyoviy ishlar. Samolyot va vertoletlar ekinzorlarga, bog’larga ishlov berishlari mumkin. O‘simliklarni aviag’iya yordamida muhofaza qilishga sarflangan har bir so‘m donli o‘simliklarda 3…10 marta va bog’dorchilikda 15…20 marta ortig’i bilan qaytadi.

Aviaciya ilmiy-tatqiqot ishlari o‘tkazishda, geologik va geofizik qidiruv, metereologiya ishlarida, elektr simlari yo‘nalishlarini qurishda, parmalash inshootlarida, gaz va neft quvurlari qurishda, iqtisodiyotning boshqa ko‘p sohalarida keng qo‘llanishi mumkin.

Mamlakatimiz aerofloti ichki va tashqi yo‘nalishlarida fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy samolyotlar ("Boing"-757 va 767, A-310 va RJ-85) parvoz qilayotir.

Zamonaviy samolyotlar ko‘p passajir sig’dirishi (85, 170, 220 va 350 passajir), shu bilan birga ko‘p yuk ortishi, harakat tezligi (800…1000 kmg’soat) va 9…11 ming metr balandlikda uzluksiz 7…11 ming km uzoqlikka ucha olishi bilan ajralib turadi.

Toshkent samolyotsozligi zavodida ishlab chiqarilgan 40 t yuk ko‘taruvchi IL-76T samolyotining maksimal ko‘tarilish og’irligi 150 t bo‘lib, 40 t gacha har xil katta gabaritli yuklar, shu jumladan konteynerlar,

avtobuslar va boshqa bahaybat yuklarni o‘z ichiga olishi mumkin. Samolyotning kreyserlik tezligi 850…900 km/soat.

Chkalov nomidagi Toshkent ishlab chiqarish birlashmasi Rossiyaning Ilyushin nomidagi maxsus konstruktorlik byurosi konstruktor, injener-texnik xodimlari bilan birgalikda IL-114 rusumli havo laynerini yaratishdi. Bu havo layneriga davlatlararo aviag’iya qo‘mitasining sertifikati berilgan bo‘lib, bu layner hozirgi kunda o‘z resurslarini tugatayotgan AN-24 va YaK-40 samolyotlarini almashtirishga mo‘ljallangan. Bu samolyot faqatgina MDH davlatlaridagina emas, uzoq xorijiy davlatlarda ham mahalliy passajirlar tashishda ham ishlatiladi.

Shaharlararo yo‘nalishdagi passajirlar oborotining 30 foizi fuqaro aviatsiya yordamida bajariladi, uzoq masofalarga passajirlar tashishda esa 80 foizdan ko‘p passajirlar havo transportidan foydalanadi. Bu havo transportining mamlakatimizda hamda viloyatlarda passajirlar tashishdagi ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Mustaqillikning o‘n yili ichida mamlakat taraqqiyotida, ayniqsa davlatimiz valyutasini mustahkamlashda aeroflotning roli juda katta. Hozir geologo-razvedka ishlarida, don va boshqa mahsulotlar hosildorligini oshirishda aeroflotning ahamiyati yanada o‘sadi.

Havo yo‘nalishlarida passajirlar tashish ishlarini ortib borishi temir yo‘li transporti passajirlar tashish ishini yengillashtirishga va uning yuk tashish qobiliyatini oshirishga olib keladi. Hisoblarga ko‘ra, havo transporti bajargan har bir million kilometr passajir oboroti temir yo‘l transportidan bir passajir poezdini bo‘shatishga yoki temir yo‘l transporti o‘tkazuvchanlik qobiliyatining qo‘shimcha ikki yuk poezdlari birligiga yoki 4,5 ming tonna yuk tashishga tenglashtirish mumkin. 2000y “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniya havo transportida bajarilgan passajirlar oboroti 3877 mln. passajir-kilometrdan ortiq bo‘lganligi hisobga olinsa, bu transport turining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini yanada ravshan ko‘rsatadi.

12.5. Havo transportini rivojlantirish muammolari

“O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniya kelajakdagi rivoji eskirib o‘z resurslari nihoyasiga yetib borayotgan (AN-24, YaK-40, TU-154 va boshqalar) samolyotlarni yangi, tejamli, qulay va shinam samolyotlar bilan almashtirilishi, magistral (uzoq xorijiy davlatlarga) va mahalliy yo‘nalishlaridagi aeroportlarni kengaytirilishi va ko‘paytirilishi, ularda passajirlar tashish ishlarini kengaytirilishi, yuk tashish

jarayonlarini va samolyotlarga xizmat ko‘rsatishni mexanizag’iyalash hamda avtomatlashtirish bilan bog’liqdir.

Kelajak 20 yil davomida "O‘zbekiston havo yo‘llari" milliy aviakompaniyasi samolyotlari saroyi 12,5 mingdan 28.5 mingga yetkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, unda "Boing"-757 turdagi tor fyuzelyajli mintaqaviy laynerlar ulushi 73…75 foizda bo‘lishi mo‘ljallanilgan.

Aviatsiya texnikasidan oqilona foydalanish, dvigatellarning tejamkorligini oshirish, samolyotlar va vertolyotlarning vazn hamda aerodinamik tavsiflarini yaxshilash hisobiga yonilg’i sarfini ancha kamaytirish tadbirlirini amalga oshirish ham muhim vazifalardan biridir.

Passajirlarga madaniy xizmat ko‘rsatish darajasini yanada yaxshilanishi lozim. O‘nlab yangi magistral va mahalliy havo yo‘nalishlari ochilishi, ularga xizmat qiluvchi agentliklar, chipta sotish kassalarini soni, aeroportlar va aviapassajirlar uchun mehmonxonalarni ko‘paytirilishi lozim. Passajirlarga samolyotlarda va yerda xizmat ko‘rsatishning ilg’or texnologiyalarini keng joriy etilishi lozim. Aeroportlarda passajirlarni samolyotga chiqarishni yengillashtirilishi, ularning bagaji va yuklarini tashishda konteyner va tagliklardan foydalanishni kengaytirilishi kerak.

Kelajak davr ichida geologlar, neftchilar, gazchilar va qurilish ob’ektlariga havo transporti yordamini kengaytirilishi lozim.

Havo transporti ob’ektlari quruvchilarining muhim vazifasi mavjud uchish-qo‘nish polosalarini rekonstruktsiya qilib kengaytirish va vaqtincha ishlari to‘xtatilgan Qo‘qon, Qo‘ng’irot, Mo‘ynoq, Uchquduq, To‘rtko‘l, Sariosiyo va boshqa aeroportlarni qaytadan ishga tushirish hisobiga ularni og’ir samolyotlarni qabul qilishga tayyorlash o‘ta zarur vazifalaridan biridir.

Kelajakda aerovokzal va aeroportlarning bir soatdagi o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirilishi lozim. Bu vazifa yangi aerovokzallar qurish va mavjudlarini rekonstruktsiya qilib kengaytirish hisobiga bajariladi.

Aeroflotning xalqaro yo‘nalishlari yanada kengaytiriladi. Ayniqsa xalqaro savdo-sotiq, texnologik integrag’iya bilan bog’liq bhlgan Boltiq bhyi davlatlari, Ovropa, Amerika qit’asi shaharlari bilan to‘ppa-to‘g’ri havo yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yishni belgilanishi lozim va unda mamlakatlararo manfaatli aloqalarini teng huquqlik asosida rivojlantirishga katta ahamiyat berilishini nazarda tutish lozim. Mamlakatimiz aeroflotining Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi

mamlakatlari o‘rtasidagi uchish yo‘nalishlarini yo‘lga qo‘yish ham muhim ahamiyatga egadir. Mavjud xalqaro yo‘nalishlaridagi uchishlarni oshirish hisobiga havo transportida tashish ishlarini oshirishlik lozim. Shu bilan birga hozirga qadar aloqa yo‘q joylarda yangi havo yo‘nalishlari ochish, keng fyuzelajli va katta sig’imli samolyotlarini xalqaro yo‘nalishlarda ishlatishni rejalashtirish ham lozim.

Olimlar samolyotlar borti ichidagi va yerdagi naviatsiya jihozlarini rivojlantirish ustida katta ishlar qilmoqdalar.

Hozir aviatsiya xodimlarining asosiy vazifalaridan biri har qanday ob-havo sharoitida ham ucha oladigan samolyotlar yaratishdir. Bunday samolyotlar ko‘rish uzoqligi 200 metr va undan kam, bulutlar eng past qavati 15 metr atrofida bo‘lgan holda ham uchishni davom ettira olishi uchun avtomatika tamoyilida ishlovchi jihozlar bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolardan biri katta quvvatli, takomillashgan va har tomonloma tejamli samolyotlarni amalda qo‘llanishidir. Nazariy tadqiqotlar, rivojlangan davlatlar samolyotsozlik tajribalari shuni ko‘rsatadiki, bu masalani hal qilishdagi bosh yo‘nalish samolyotlar passajir sig’imi va yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishdir. Bu narsa barcha mamlakatlar oldida hal qilishini zarur muammo bo‘lib turibdi.

Hozir mamlakatimizda ... passajir sig’adigan “Erbas indastri” g’arbiy Ovropa kong’erg’iumidi yaratilgan A-310 rusumli aerobus ishga tushirilgan. Bu keng fyuzelyajli samolyot bo‘lib, katta quvvatli dvigatelga ega, uchish tezligi 900...950 km□soat ga yetadi. Passajirlar uchun o‘z bagajini olib chiqish imkoniyati yaratilgan va bagajlar uchun maxsus hujralar ajratilgan.

Jahon samolyotsozligi taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, yaqin kelajakda 800 kishi sig’diruvchi va ko‘tarilish maksimal og’irligi 650..680 tonnali samolyot yaratilishi mumkin.

Yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish vertolyotlar konstruktsiyalarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga egadir. Rossiyada yaratilgan 12 tonna yuk ko‘taruvchi MI-6 vertolyoti jahonda eng katta hisoblanar edi. V-12 modelli vertalyotga to‘rtta (har biri 6500 ot kuchiga ega) dvigatelq o‘rnatilishi unga 240 km□soat tezligida uchish imkoniyatini berdi.

Qisqa masofada vertikal khtariluvchi samolyotlar yaratilishi texnika taraqqiyotida yangi yhnalishdir. Samolyotlar vazni va harakat tezligi orta borishi uchun-qhnish yhllarini ham oshirishni talab qiladiki, bu qisqa masofada va vertikal khtariluvchi samolyotlar yaratishni

nihoyatda tezlashtirishni taqozo etadi. Chunki khtarilish va qhnish yhllari uzun bhlgan aeroportlarni shaharlar yaqiniga qurish maqsadga muvofiq emas. Aeroportlarni shaharlardan olis masofalarga (50...60 km) joylashtirish esa havo transportining tezkorlik qadrini kamayotiradi.

Qisqa masofada vertikal ko‘tariluvchi samolyotlarning parvozi uchun ilgarigi 0,2...2,6 km uchish yo‘llari o‘rniga 300..500m uchish yo‘llari yetarlidir. Qo‘nishda esa undan ham qisqa masofali yo‘llar yetarlidir. Amalda vertikal ko‘tariluvchi samolyotlar uchish va qo‘nish yo‘llari o‘rniga kichikroq maydonchalar kifoyadir.

Tashish hajmi va samolyotlar vaznini, shinamlik, tejamkorlik darajasini oshirish hamda harakat xavfsizligini ta’minlash aeroportlar va ulardagi ish texnologiyalarini ham rivojlantirishni taqozo etadi.

So‘nggi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urgench (Xiva) shaharlardagi aeroport qurilishi (rekonstruktsiyalanishi) vokzallar loyihalaridagi yuqorida aytilgan talablarni amalga oshirilishi, ularni 1999 yildan boshlab xalqaro aeroportlar statusi darajasiga ko‘tardi. Navoiy viloyatining Uchquduq shahrida xalqaro statusli aeroport qurilishi nihoyasiga yetayotir.

Uchish va qo‘nish yo‘llariga mustahkam va chidamli qoplamalar yotqizish yuqorida aytilgan masalani hal qilishning texnik tomonidir.

Ayrim paytlarda qorning ko‘p yog’ishi, muz yaxmalaklari aeroport ishlari va jadvalda belgilangan vaqtlarni o‘zgartirishga majbur etadi. Yaxmalak va boshqa qiyinchiliklarni yengish uchun maxsus mashinalar qo‘llanishi lozim.

Samolyotlarni yonilg’i bilan o‘z vaqtida ta’minlash faol masalalardan biridir. Samolyotlar ko‘payishi, ularning yuk ko‘tarish qobiliyati va harakat tezligining oshishi yonilg’i sarfini ham ko‘paytiradi. Bunday hollarda yonilg’i ta’minatini avtomobiль shassisiga o‘rnatilgan benzovoz sisternalarda bajarish ko‘p vaqt va mehnat sarfini talab etadi. Shuning uchun kelajakda yonilg’i ta’minotini yer osti quvur orqali yuborg’ichlari orqali va ular ishini avtomatlashtirish yordamida hal qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Elektr, suv, gaz va texnik suyuqliklar ta’minoti tizimlarini ham rivojlantirish kelajakdagi vazifalarndir.

Tashish jarayonini tashkil qilishda samolyotlarga chipta sotish yoki joyni bronq (egallab) qilib qo‘yishga katta ahamiyat berish lozim. Toshkent aerovokzaliga mamlakatimiz bo‘yicha birinchi bo‘lib avtomatika yordamida chipta sotish tizimi o‘rnatildi va bu tizim xorijiy davlatlar aerovokzallari bilan birlashtirilgan. Interlayn kelishuviga binoan

passajirlar Toshkentning o‘zida faqatgina “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi Nьyu-York shahriga uchuvchi samolyotigagina emas, Amerikaning Atlantu, Chikago, Vashington, Sanfrantsisko shaharlariga uchuvchi samolyotlar reyslariga ham chipta oladilar. Rossiya poytaxti Moskva shahri avtomatik chipta sotish tizimi bilan, Rossiyaning 50 dan ortiq shaharlari bilan birlashtirilgan. Moskva shahridan uchuvchi har qanday reysdagi samolyotga 30 yoki undan kam kun ilgari chipta sotish imkoniyatiga ega. Toshkentdagi avtomatik tizim ham shunday. Buyurtma axborotlari avtomatik ravishda markazga yuborilishi bilan birga chipta sotuvchi kassir oldidagi ekranga ham yozilib boriladi va bu yuborilgan axborot aniqligini tekshirish imkonini beradi. Sotilgan chipta o‘rni avtomatik ravishda EHM xotirasida qoladi va bu bir o‘rin o‘rniga ikki (yoki undan ham ortiq) chipta sotmaslik vakolatli imkonini beradi.

Hozir EHM o‘z xotirasida 30 kunlik 250 va undan ortiq reyslarga sotilgan joylarni eslab qoladi. Chipta sotishda biror xatolik o‘tkazmaslik maqsadida Markaziy aerovokzalda parallel ishlovchi ikkita EHM o‘rnatilgan bo‘lib, uning biri ishlamay qolsa hamma bajarilishi lozim vazifalarni ikkinchisi bajarib turadi.

1950–52	Termizda daryo porti ochildi (1950); Xo‘jayli kema ta’mirlash zavodi qurildi (1952); yangi Sharlavuq, To‘rtko‘l, Beruniy, Qoratov, Xo‘jayli bandargoh (pristan)lari ishga tushirildi
1980	Suv yo‘llari 2800 km ga yetdi; Amudaryoda Panj (Tojikiston) bandarg‘ohidan Mo‘ynoqqacha paroxodlar qatnovi amalga oshirildi; yuk tashish 1420 ming tonna
1991	Mustaqillik: O‘rta Osiyo paroxodchiligi mulki Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston o‘rtasida taqsimlandi
1994–95	«Termiz daryo porti», «Xorazm daryo floti», «Qoraqalpog‘iston daryo floti» ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi
2001	Iyundan kemachilik registri va kemachilik inspeksiyasi faoliyati qayta tashkil etildi; hozirgi suv yo‘llari uzunligi ~1000 km

Jadvalda keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar daryo transporti tizimining institutsional asosini shakllantiradi. Ular nafaqat transport jarayonlarini tartibga soladi, balki xavfsizlik, ekologik barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu sababli daryo transportini rivojlantirishda normativ-huquqiy bazani xalqaro

[433] *Manba: O'zR normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati asosida muallif tuzildi*

standartlar asosida muntazam takomillashtirib borish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston daryo transporti tizimi oldida bir qator muammolar mavjud. Ularning asosiylari quyidagilar:

- flotning ma’naviy va texnik jihatdan eskirishi;
- suv sathining pasayishi;
- navigatsiya infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi;
- logistika integratsiyasining cheklanganligi;
- investitsiya resurslarining yetishmasligi.

Mazkur muammolarni hal qilish uchun flotni modernizatsiya qilish, yangi energiya tejamkor kemalarni xarid qilish, port infratuzilmasini rivojlantirish va davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

Kelgusida Transafg‘on transport yo‘laklari va Markaziy Osiyo logistika tizimlarining rivojlanishi O‘zbekiston daryo transporti uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi mumkin. Ayniqsa Termiz portining xalqaro logistika markazi sifatida rivojlanishi mamlakatning tranzit salohiyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Kemachilik inspeksiyasi nazoratidagi kemalar: 2024 yil holati

Bugungi kunda O‘zbekiston daryo transporti tizimi mamlakat transport-kommunikatsiya infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublika hududida Termiz daryo porti, Sharlovuq, To‘rtko‘l, Beruniy va Xo‘jayli bandargohlari faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, Amudaryo orqali tashkil etilgan To‘rtko‘l–Xonqa hamda Chalish–Beruniy suzuvchi ponton ko‘priklari hududlararo iqtisodiy va transport aloqalarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xo‘jayli kema ta’mirlash zavodi esa daryo flotining texnik barqarorligini saqlovchi asosiy sanoat obyektlaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda.

Mazkur infratuzilma obyektlari orasida Termiz daryo porti alohida strategik o‘rin egallaydi. Portning yillik yuk qabul qilish va jo‘natish quvvati 2 million tonnadan ortiq bo‘lib, u O‘zbekistonning janubiy transport darvozasi sifatida shakllangan. Ayniqsa Afg‘onistonning Hayraton bandargohi bilan bog‘langan transport yo‘nalishi Termiz portining xalqaro logistika tizimidagi mavqeini yanada kuchaytiradi. Ushbu yo‘nalish orqali eksport-import yuklari, qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, neft mahsulotlari va boshqa xalq xo‘jaligi yuklari tashiladi.

Termiz portining ahamiyati nafaqat yuk tashish hajmi bilan, balki uning geoiqtisodiy joylashuvi bilan ham belgilanadi. O‘zbekistonning Janubiy Osiyo davlatlari bilan transport aloqalarini rivojlantirish borasidagi strategik rejalari ushbu portning istiqboldagi rolini yanada oshirmoqda. Shu sababli Termiz daryo porti kelgusida xalqaro multimodal logistika markaziga aylanish salohiyatiga ega.

Daryo transporti orqali yuk tashish asosan Termiz–Hayraton, Sharlovuq–To‘rtko‘l, Xo‘jayli–To‘rtko‘l, Xo‘jayli–Beruniy hamda Qoratov–Taxiatosh yo‘nalishlarida amalga oshiriladi. Ushbu transport yo‘nalishlari hududlararo iqtisodiy integratsiyani ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa katta hajmdagi yuklarni tashishda daryo transportining iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lgani sababli ayrim hududlarda u eng maqbul transport vositalaridan biri hisoblanadi.

Respublika daryo flotining texnik bazasi ham muayyan darajada shakllangan bo‘lib, uning tarkibiga 200 dan ortiq teploxod, barja, zemlesos, suzuvchi ekskavator, port kranlari va boshqa yordamchi texnika vositalari kiradi. Suv yo‘llarining umumiy uzunligi qariyb 1000 kilometrni tashkil etadi. Shu bilan birga port va bandargohlarning temir yo‘l tarmoqlari bilan integratsiyalashganligi multimodal logistika tizimini rivojlantirish imkonini bermoqda. Bu esa transport xarajatlarini kamaytirish va tashish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Kemachilik inspeksiyasi nazoratidagi flot tarkibi va texnik salohiyat

Daryo transportining samarali faoliyati ko‘p jihatdan mavjud flot tarkibi va uning texnik holatiga bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Kemachilik inspeksiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatida respublika ichki suv yo‘llarida va suv havzalarida jami 224 ta suv transporti vositasi ro‘yxatga olingan. Mazkur ko‘rsatkich O‘zbekiston daryo flotining amaldagi texnik salohiyatini tavsiflaydi.

16.4-jadval.

O‘zbekiston daryo floti tarkibi — Kemachilik inspeksiyasi ma’lumotlari (2024)[434]

Yil	Muhim voqea va rivojlanish bosqichi
1847	Orol harbiy flotiliyasi tashkil etildi; Orol dengizining shimoliy qirg‘og‘i va quyi Sirdaryo nazorat ostiga olindi
1873	Amudaryoda bug‘li kemalar uzluksiz qatnovi boshlandi; aprelda Orol dengizidan Nukusgacha birinchi kema yurdi
1887/1893	Amudaryo harbiy flotiliyasi tashkil etildi (1887) va rasman tasdiqlandi (1893); 1913 yilga kelib 8 paroxod, 14 barja
1923	Flotiliya milliylashtirilib «O‘rta Osiyo paroxodchiligi» AJ ga aylantirilder; boshqarma Toshkentda tashkil etildi; suv yo‘llari 887 km
1930	Toshkentda dengiz texnikumi ochildi (1939 yilda Chorjo‘yga ko‘chirildi); Xorazm vohasi, Qoraqalpog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston daryo transporti hududiy iqtisodiyotda muhim o‘rin egallagan
1950–52	Termizda daryo porti ochildi (1950); Xo‘jayli kema ta’mirlash zavodi qurildi (1952); yangi Sharlavuq, To‘rtko‘l, Beruniy, Qoratov, Xo‘jayli bandargoh (pristan)lari ishga tushirildi
1980	Suv yo‘llari 2800 km ga yetdi; Amudaryoda Panj (Tojikiston) bandarg‘ohidan Mo‘ynoqqacha paroxodlar qatnovi amalga oshirildi; yuk tashish 1420 ming tonna
1991	Mustaqillik: O‘rta Osiyo paroxodchiligi mulki Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston o‘rtasida taqsimlandi
1994–95	«Termiz daryo porti», «Xorazm daryo floti», «Qoraqalpog‘iston daryo floti» ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi
2001	Iyundan kemachilik registri va kemachilik inspeksiyasi faoliyati qayta tashkil etildi; hozirgi suv yo‘llari uzunligi ~1000 km

Kema toifasi	Soni (ta)	Ulushi va izoh
Transport kemalari	132	58,9% — yuk va yo‘lovchi tashish uchun; teploxodlar, barjalar, yo‘lovchi kemalari
Texnik kemalar	74	33,0% — suv yo‘llarini chuqurlashtirish va saqlash; zemlesoslar, suzuvchi ekskavatorlar, port kranlari
Yordamchi kemalar	14	6,3% — ta’mirlash ustaxonalari, suzuvchi magazinlar, kechuv kemalari
Suzuvchi ponton ko‘priklar	4	1,8% — qirg‘oqlarni bog‘lovchi to‘rtko‘l–Xonqa, Chalish–Beruniy yo‘nalishlari
JAMI	**224**	**100% — Kemachilik inspeksiyasi nazoratida**

[434] *Manba: O'zR Transport vazirligi, Kemachilik registri ma'lumotlari, 2024*

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, flot tarkibida transport kemalari asosiy ulushni egallaydi. Ularning salmog‘i 58,9 foizni tashkil etib, yuk va yo‘lovchi tashish daryo transportining asosiy funksional yo‘nalishi ekanligini ko‘rsatadi. Transport kemalari tarkibiga teploxodlar, barjalar va yo‘lovchi tashuvchi kemalar kiradi.

Shu bilan birga texnik kemalarning ulushi ham yuqori — 33 foiz. Bu holat daryo transportining o‘ziga xos xususiyatini yaqqol namoyon etadi. Chunki suv yo‘llarini doimiy ravishda navigatsiya uchun yaroqli holatda saqlash katta texnik resurs va muntazam xizmat ko‘rsatishni talab qiladi. Zemlesoslar, suzuvchi ekskavatorlar va port kranlari daryo tubini chuqurlashtirish, suv oqimini tartibga solish hamda port infratuzilmasini texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash vazifalarini bajaradi.

Yordamchi kemalar son jihatidan kichik ulushni egallagan bo‘lsa-da, ular transport tizimining uzluksiz ishlashida muhim o‘rin tutadi. Suzuvchi ustaxonalar, texnik xizmat kemalari va kechuv vositalari asosiy flotning logistika va texnik ta’minot bazasi sifatida xizmat qiladi. Suzuvchi ponton ko‘priklar esa ayrim hududlarda transport bog‘liqligini ta’minlovchi muhim infratuzilma elementi hisoblanadi.

Suv yo‘llari uzunligining tarixiy davrda 2800 kilometrdan hozirgi qariyb 1000 kilometrgacha qisqarganiga qaramasdan, mavjud flotning faol ishlayotgani daryo transportining hali ham iqtisodiy ahamiyatini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga mazkur holat flotni modernizatsiya qilish, yangi energiya tejamkor kemalarni joriy etish va navigatsiya tizimlarini takomillashtirish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda.

Daryo transporti tizimining institutsional boshqaruvi

Daryo transportining samarali faoliyat yuritishi nafaqat texnik infratuzilmaga, balki institutsional boshqaruv tizimining qay darajada shakllanganiga ham bevosita bog‘liqdir. O‘zbekistonda ushbu vazifalar Transport vazirligi tarkibidagi Avtomobil va daryo transportini rivojlantirish departamenti hamda uning tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan Daryo transporti bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur tizim tarkibida O‘zbekiston kemachiligi registri va Kemachilik inspeksiyasi faoliyat yuritadi. Ushbu organlar o‘zaro bog‘langan holda daryo transportining texnik xavfsizligi, ekologik barqarorligi va normativ nazoratini ta’minlaydi.

Kemachilik registri bosh dvigatel quvvati 55 kVt va undan yuqori bo‘lgan o‘ziyurar kemalar hamda yuk ko‘tarish quvvati 80 registr tonna

va undan ortiq bo‘lgan suzuvchi vositalarni klassifikatsiya qilish va texnik nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega. Registr tomonidan kemalarga suzishga yaroqlilik, klassifikatsiya va ekologik xavfsizlik bo‘yicha tegishli guvohnomalar beriladi. Bu tizim kemalarning xalqaro va milliy texnik standartlarga mosligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kemachilik inspeksiyasi esa ichki suv yo‘llarida kemalarning xavfsiz harakatlanishi va yuk tashish jarayonlari ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. Inspeksiya ekologik me’yorlar, sanitariya qoidalari, yong‘in xavfsizligi va navigatsiya talablariga rioya qilinishini nazorat qiladi. Zarurat tug‘ilganda texnik yoki xavfsizlik talablariga javob bermaydigan kemalar ekspluatatsiyasini vaqtincha taqiqlash vakolatiga ham ega.

Daryo transportini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari

Bugungi kunda O‘zbekiston daryo transporti tizimi oldida bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, flotning ma’naviy va texnik jihatdan eskirishi transport samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayrim kemalar uzoq yillar davomida foydalanilgani sababli ekspluatatsiya xarajatlari ortib bormoqda.

Ikkinchi muhim muammo — Amudaryo havzasidagi suv sathining pasayishi va ekologik o‘zgarishlardir. Bu holat navigatsiya imkoniyatlarini qisqartirib, ayrim yo‘nalishlarda kemalar harakatini murakkablashtirmoqda. Shu sababli suv yo‘llarini muntazam chuqurlashtirish va gidrotexnik inshootlarni modernizatsiya qilish zarurati ortib bormoqda.

Shuningdek, logistika integratsiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham daryo transporti salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Zamonaviy multimodal transport markazlarini rivojlantirish, portlarni temir yo‘l va avtomobil transporti bilan chuqur integratsiyalash daryo transportining iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kelgusida Transafg‘on transport yo‘laklari va Markaziy Osiyo logistika tizimlarining rivojlanishi O‘zbekiston daryo transporti uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi mumkin. Ayniqsa Termiz portining xalqaro logistika markazi sifatida rivojlanishi mamlakatning tranzit salohiyatini oshirish va tashqi savdo geografiyasini kengaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

16.4 Daryo transportini rivojlantirish muammolari

Daryo transportida yuk va yo‘lovchilar tashishni barqaror va samarali tashkil etish uchun uning moddiy-texnik bazasini tubdan rivojlantirish zarur hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Amudaryo suv yo‘llarida kemalar qatnovi muddatlarini uzaytirish, navigatsiya davrini kengaytirish va transport imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlarda yuk tashishni avtomobil va temir yo‘l transportidan Amudaryo transportiga imkon qadar ko‘proq o‘tkazish daryo transportining ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Daryo transportining rivojlanishi, avvalo, port infratuzilmasining rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois Amudaryo portlarining yuk qabul qilish va jo‘natish imkoniyatlarini kengaytirish, yuk ortish-tushirish jarayonlarini mexanizatsiyalash va logistika xizmatlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonlar MDH davlatlari va qo‘shni Afg‘oniston bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Daryo flotini zamonaviy texnik vositalar bilan yangilash ham asosiy yo‘nalishlardan biridir. Xususan, og‘ir yuk ko‘tara oladigan “daryo–dengiz” tipidagi aralash kemalar, kuchli shatak kemalari, yuqori yuk sig‘imiga ega barjalar, muz yoruvchi kemalar hamda zamonaviy, qulay yo‘lovchi tashuvchi kemalar bilan flotni boyitish uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, kema ta’miri zavodlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash ham daryo transportining uzluksiz faoliyatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Daryo transportida tashiladigan yuklar nomenklaturasini kengaytirish ham muhim masalalardan biridir. Yuk turlarini diversifikatsiya qilish, tashish jarayonini soddalashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan va maxsus kemalarni joriy etish zarur. Bu esa daryo transportining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mintaqaviy miqyosda yagona suv transport tizimini shakllantirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Movarounnahr hududida yagona suv yo‘llarini tashkil etish Markaziy Osiyo davlatlari va qo‘shni Afg‘oniston uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, Kaspiy dengiziga chiqish imkoniyatini yaratish orqali “daryo–dengiz” transport tizimini shakllantirish, mintaqaning global savdo yo‘llariga integratsiyasini

ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday tizim orqali yuklarni Rossiyaning Yevropa qismi orqali G‘arb davlatlariga eng arzon suv yo‘li orqali yetkazish imkoniyati yuzaga keladi.

Daryo transportida harakat tezligini oshirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda Amudaryo transportida kemalar harakat tezligi nisbatan past bo‘lib, bu tashish samaradorligini cheklaydi. Ushbu muammoni hal etishda suv osti qanotli kemalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Jahon tajribasiga ko‘ra, bunday kemalar yordamida harakat tezligini 85–105 km/soatgacha oshirish mumkin, bu esa transport tizimining umumiy samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Amudaryo suv yo‘li bo‘yicha port va bekatlarni rivojlantirish, yuk ortish-tushirish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu jarayonlar logistika zanjirining samaradorligini oshirish, yuklarni qayta ortish vaqtini qisqartirish va transport xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Daryo transportida muzlash muammosi ham alohida e’tibor talab qiladi. Muz yoruvchi kemalardan foydalanish 90 sm qalinlikdagi muz qatlamlarini yorib o‘tish imkonini beradi. Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda suv osti quvurlari orqali havo yuborish texnologiyasi ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu usul yordamida suvning yuqori va pastki qatlamlarini aralashtirish orqali muz hosil bo‘lishining oldini olish mumkin. Bu esa daryo transporti faoliyatini yil davomida uzluksiz davom ettirish imkoniyatini yaratadi.

2024–2025-yillarda daryo transportini rivojlantirishda yangi tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Jumladan, logistika jarayonlarini raqamlashtirish, transport oqimlarini boshqarishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, ekologik toza transport vositalarini joriy etish va multimodal transport tizimlarini rivojlantirish ushbu sohaning istiqbolli yo‘nalishlari hisoblanadi. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash ham muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Shunday qilib, daryo transportini rivojlantirish:

- infratuzilmani modernizatsiya qilish
- flotni yangilash va ixtisoslashtirish
- logistika tizimlarini integratsiyalash
- innovatsion texnologiyalarni joriy etish

bilan uzviy bog‘liqdir.

Kelajakda esa:

- “daryo–dengiz” tizimlarini rivojlantirish

- tezkor va ekologik transport vositalarini joriy etish
- mintaqaviy transport integratsiyasini kuchaytirish

daryo transportining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar va atamalar

1-guruh — Daryo transportining asosiy tushunchalari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
1	***Daryo transporti***	Tabiiy (daryo, ko‘l) va sun’iy (kanal, suv ombori) suv havzalari orqali yuk va yo‘lovchi tashuvchi transport turi. Avtomobil transportiga nisbatan 3-5 barobar arzon; ekologik jihatdan ham quruqlik transportiga nisbatan ustundir. Vazifasiga ko‘ra magistral (davlatlararo), mintaqalararo va mahalliy turlarga bo‘linadi. Insoniyat tomonidan qo‘llanilgan eng qadimgi logistika tizimi — Mesopotamiya va Misrdan tortib hozirga qadar.
2	***Daryo floti***	Daryo va ichki suv yo‘llarida ishlatiluvchi barcha kemalar yig‘indisi. Vazifalari bo‘yicha uch asosiy toifaga: transport kemalari, texnik flot va yordamchi kemalarga bo‘linadi. O‘zbekistonda 2024 yil holatiga Kemachilik inspeksiyasi nazoratida 224 ta suv transporti vositasi hisobga olingan: transport kemalari 132 ta, texnik 74 ta, yordamchi 14 ta, ponton ko‘priklar 4 ta.
3	***Magistral daryo yo‘li***	Bir necha davlatlar o‘rtasida yoki yirik mintaqalararo tashqi savdo aloqalarini ta’minlovchi asosiy daryo transport yo‘nalishi. Dunyo magistral daryo yo‘llariga: Dunay (Yevropa), Reyn (G‘arbiy Yevropa), Amur (Rossiya-Xitoy), Missisipi (AQSh), Yantszi (Xitoy), Paragvay (Janubiy Amerika) kiradi. Dunyo

		daryo yo‘llarining umumiy uzunligi 550 ming km ga yaqin.
4	***Suv yo‘llari***	Kemalar muntazam qatnoviga mo‘ljallangan va kerakli chuqurlikda saqlanadigan daryolar, kanallar va suv omborlari. O‘zbekistonda hozirgi kunda suv yo‘llarining umumiy uzunligi ~1000 km (1980 yilda 2800 km bo‘lgan; Orol dengizi qurishidan so‘ng keskin qisqargan). Asosiy yo‘nalishlar: Termiz–Hayraton, Sharlavuq–To‘rtko‘l, Xo‘jayli–Beruniy, Qoratov–Taxiatosh.
5	***Ichki suv transporti ustavi***	O‘zbekiston Respublikasida daryo transporti faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjati (Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-fevraldagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan). Kema egasi va yo‘lovchi yoki yuk egasi o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar, tashish shartlari, mas’uliyat chegaralari, ekipaj vazifalari hamda avariya hollatlarida tartib-qoidalarni belgilaydi.
6	***O‘rta Osiyo paroxodchiligi***	1923 yilda Amudaryo harbiy flotiliyasi milliylashtirilib yaratilgan aksiyadorlik jamiyati; O‘rta Osiyo ichki suv transportini boshqargan yagona markazlashgan tashkilot (1923-1991). Boshqarma dastlab Toshkentda (1923), so‘ng Chorjo‘yda (1934) joylashgan; 1956 yildan Ittifoq Dengiz floti vazirligi ixtiyoriga o‘tkazildi. Mustaqillik yillarida mulki O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston o‘rtasida taqsimlandi.
2-guruh — Kema turlari va texnik xususiyatlari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
7	***Transport kemasi***	Tijorat maqsadida yuk yoki yo‘lovchi tashishga mo‘ljallangan kema. Daryo

		transport kemalari turlari: yo‘lovchi kemasi; quruq yuk kemasi (palubada yoki tryumda); suyuq yuk kemasi (neft, neft mahsulotlari — tryumga to‘ldiriladi yoki palubada maxsus baklar); suruvchi kema (barja va sollarni itarib yuruvchi); shatakchi kema. O‘zbekiston daryo flotida 132 ta transport kemasi ro‘yxatga olingan.
8	***Texnik flot***	Suv yo‘llarini kemalarga yaroqli holda saqlash va gidrotexnik ishlarni bajarish uchun mo‘ljallangan ixtisoslashgan kemalar. Tarkibiga kiradi: zemlesoslar (suv tubi cho‘kin qirindi va loyini so‘rib oluvchi), greyferli ekskavatorlar (tosh va qumni qazib oluvchi), suv yo‘llarini belgilovchi va sozlovchi kemalar. Tijorat foyda keltirmaydi, ammo butun daryo transporti tizimining ishlashini ta’minlaydi.
9	***Yordamchi kemalar***	Asosiy va texnik flotni logistik, ta’mirlash va boshqa xizmatlar bilan ta’minlovchi kemalar. Turlari: suzuvchi ta’mirlash ustaxonalari; suzuvchi magazinlar (ekipajlarga oziq-ovqat va zaruriy tovarlar yetkazish); kechuv kemalari; qum va shag‘al qazib oladigan suzuvchi jihozlar; paromlar. O‘zbekiston daryo flotida 14 ta yordamchi kema va 4 ta suzuvchi ponton ko‘prik mavjud.
10	***Paroxod / Teploxod***	Bug‘ (paroxod) yoki yonilg‘i (dizel/gaz) dvigateli (teploxod) yordamida harakatlanadigan o‘ziyurar kema. XIX asrda bug‘li paroxodlar daryo transportida inqilob yasadi; XX asrda ularning o‘rnini teploxodlar egalladi. O‘zbekistonda Amudaryoda bug‘li paroxodlar 1873 yildan ishlay boshlagan. Hozirgi flot asosan teploxodlardan iborat — respublikada 200 dan ortiq teploxod mavjud.

11	***Barja***	O‘z dvigateliga ega bo‘lmagan, paroxod, teploxod yoki suruvchi kema tomonidan harakatga keltiriladigan katta sig‘imli yuk kemasi. Afzalligi: juda katta yuk ko‘tarish qobiliyati (bir barja 1000-3000 tonna); past qurilish va ekspluatatsiya xarajatlari. Kamchiligi: mustaqil harakat qila olmaydi, tortuvchi kema kerak. O‘rta Osiyo paroxodchiligi 1913 yilda 8 paroxod va 14 barja bilan ish boshlagan.
12	***Shatakchi kema***	Boshqa kemalar, barja yoki sollarni arqon yordamida tortib yuruvchi o‘ziyurar kema (tyagach). Suruvchi kemadan farqi: shatakchi oldinda yuradi va yukni ortidan tortadi; suruvchi esa orqada turib itaradi. Suruvchi usul ko‘pincha ancha tejamkor va moslashuvchandir. Daryolarda tor va egri joylarda shatakchi usul afzalroq hisoblanadi.
3-guruh — Port, bandargoh va infratuzilma tushunchalari		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
13	***Daryo porti***	Kemalarni qabul qilish, jo‘natish, yuk yuklash-tushirish, saqlash va yo‘lovchilarni kuzatib qo‘yish uchun jihozlangan qirg‘oq inshootlari majmuasi. O‘zbekistondagi eng yirik daryo porti — Termiz daryo porti (yiliga 2 mln tonnadan ortiq yuk qabul-jo‘natish quvvati). Afg‘oniston Hayraton bandarg‘oxi bilan ulanishi tufayli xalqaro ahamiyatga ega. Port temir yo‘llar bilan bog‘langan.
14	***Bandargoh (pristan)***	Portdan kichikroq, odatda yo‘lovchi va kichik hajmdagi yuk qabul-jo‘natish uchun jihozlangan qirg‘oq to‘xtash nuqtasi. O‘zbekistonda Sharlavuq, To‘rtko‘l, Beruniy, Xo‘jayli, Qoratov bandargoxlari faoliyat ko‘rsatadi. Bandargoh qurilishi va

		texnik jihozlanishi portga nisbatan kamroq kapital talab qiladi; ko‘pincha mahalliy ichki yo‘nalishlarga xizmat qiladi.
15	***Parom (ferry)***	Qisqa masofada daryoning ikki qirg‘og‘i o‘rtasida yo‘lovchilar va transport vositalarini muntazam tashuvchi kema. Ro-Ro printsipida ishlaydi: avtomobillar rampadan kemaga kirib, narigi qirg‘oqda chiqib ketadi. O‘zbekistonda Amudaryo bo‘ylab bir necha parom kechuvi mavjud. Suzuvchi ponton ko‘prik — muddatli yoki mavsumiy parom muqobili sifatida ishlatiluvchi vosita.
16	***Ponton ko‘prik***	Suvda suzib turuvchi ponton (tashlanuvchi idish)lar ustiga qurilgan muvaqqat yoki mavsumiy ko‘prik. Tez va nisbatan arzon qilib o‘rnatiladi; to‘lqin va suv sathiga ko‘ra moslashib turadi. O‘zbekistonda To‘rtko‘l–Xonqa va Chalish–Beruniy yo‘nalishlarida suzuvchi ponton ko‘priklar ishlaydi. Kemachilik inspeksiyasi nazoratida 4 ta ponton ko‘prik ro‘yxatga olingan.
17	***Zemlesosy (daryoni chuqurlashtiruvchi)***	Daryo tubi cho‘kin qum, loy va cho‘kin qirindi qatlamlarini so‘rib olib, chuqurlikni me’yoriy darajada ushlab turuvchi maxsus suzuvchi mexanizm. Texnik flot toifasiga kiradi. Daryolarning tabiiy siltlanishi suv yo‘lining chuqurligini kamaytiradi va kemalar o‘tishiga to‘sqinlik qiladi. Zemlesosy ishlatmasdan suv yo‘llarini kemalarga yaroqli saqlash imkonsiz. O‘zbekiston texnik flotida 74 ta shunday kema mavjud.
18	***Kema guvohnomasi***	Kemaning O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i ostida suzish huquqini va mulkchilik huquqini tasdiqlovchi rasmiy hujjat. Kemachilik registri tomonidan beriladi. Bundan tashqari, kemaga:

		klassifikatsiya guvohnomasi (texnik holat yaroqliligi); suzishga yaroqlilik guvohnomasi; neft va oqova suvlar bilan ifloslanishning oldini olish guvohnomasi ham beriladi. Ushbu hujjatlar majmuasiz kema suzishga chiqarilmaydi.
4-guruh — Nazorat, boshqaruv va xavfsizlik tizimi		
№	**Atama / Ibora**	**Mazmuni va ta’rifi**
19	***Kemachilik registri***	Dvigatel quvvati 55 kVt va undan ortiq o‘ziyurar kemalar, yuk ko‘tarish quvvati 80 registr tonna va undan ortiq o‘ziyurmas kemalarni klassifikatsiya qilish va texnik nazorat olib borishga vakolat berilgan davlat boshqaruvi organi. O‘zbekiston Transport vazirligining tarkibiy bo‘limi. Kemalarni ro‘yxatga olish, texnik ko‘rikdan o‘tkazish, guvohnomalar berish — asosiy vazifalari. 2001 yil iyundan kemachilik inspeksiyasi bilan birgalikda faoliyat yuritadi.
20	***Kemachilik inspeksiyasi***	O‘zbekiston Respublikasining ichki suv yo‘llarida ekologiya normalari va inson hayotini muhofaza qilinishiga rioya etgan holda kemalar xavfsiz suzishini, yuklarning ishonchli tashilishini nazorat qilishga vakolat berilgan davlat boshqaruvi organi. Kemalar foydalanish, yong‘inga qarshi va sanitariya xavfsizligi qoidalari buzilganda kemalardan foydalanishni taqiqlash huquqiga ega. Kemachilik registri bilan birgalikda daryo transporti bo‘limini tashkil etadi.
21	***Ichki kema yo‘li***	Davlat tomonidan kemalarga qatnovga ochiq deb e’lon qilingan va belgilangan chuqurlik hamda kengliklarda saqlanadigan daryolar, kanallar, suv omborlari yo‘nalishlari. O‘zbekistonda ichki kema

		yo‘llari O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan belgilanadi va nazorat qilinadi; ularning holati to‘g‘risida hisobot Kemachilik inspeksiyasiga taqdim etiladi.
22	***Ekologik xavfsizlik (suv yo‘llarida)***	Kemalar tomonidan ichki suv yo‘llarini neft mahsulotlari, oqova suvlar va maishiy chiqindilar bilan ifloslantirishning oldini olish chora-tadbirlari tizimi. Normativ asosi: «Ichki suzish kemalari tomonidan ifloslantirishning oldini olish qoidalari» (2000-yil). Kema ekipajlari ekologik guvohnomaga ega bo‘lishi shart. Orol dengizi ekologik fojiasi daryo transportida ekologik xavfsizlik masalasini O‘zbekiston uchun ayniqsa dolzarb qiladi.

Nazorat savollari

1.Daryo transportining umumiy tushunchasi va transport tizimidagi o‘rni nimadan iborat?

2.Daryo transportining asosiy texnik jihozlari tarkibiga nimalar kiradi va ularning vazifalari qanday?

3.Daryo kemalari qanday turlarga bo‘linadi va ularning funksional xususiyatlari nimada?

4.Daryo transportining texnik-iqtisodiy xususiyatlarini boshqa transport turlari bilan solishtirib tahlil qiling.

5. Daryo transportining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillar qaysilar?

6.O‘zbekiston daryo flotining rivojlanish bosqichlari va tarixiy yutuqlarini izohlang.

7.Amudaryo transport tizimining texnik-iqtisodiy faoliyatini baholang.

8.O‘zbekiston daryo transportida kuzatilgan pasayish sabablarini tahlil qiling.

9.Daryo transportini rivojlantirishda mavjud muammolar va ularning yechimlarini ko‘rsating.

10.Kelajakda daryo transportini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va istiqbollarini baholang.

“TRANSPORT IQTISODIYOTI” FANIDAN INNOVATSION, TA’LIM TEXNOLOGIYALARI SHARHI

1. Ma’ruza mashg‘ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Ma’ruza mashg‘uloti –o‘qitishni tashkil etishning yetakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo‘naltirilgan.

Ma’ruzani asosiy belgilanishi – o‘qitishni nazariy asosini ta’minlab berish, o‘quv faoliyatga va Soha iqtisodiyoti va menejment faniga qiziqishni rivojlantirish, talabalarga o‘quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun yo‘nalishlarni shakllantirish**.**

Ma’ruza materiallarining mazmuni va hajmiga qo‘yiladigan talablar

Ma’ruza materiallari oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning sifati, mazmuni va ilmiy darajasi talabalarning bilim darajasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ma’ruza materiallarini tayyorlashda muayyan ilmiy-uslubiy mezonlarga qat’iy rioya etish talab etiladi.

Avvalo, ma’ruza materiallarining mazmuni yangilik, ilmiylik va asoslanganlik tamoyillariga javob berishi zarur. Ya’ni, ma’ruza zamonaviy ilmiy qarashlarga tayanishi, so‘nggi yillardagi yangiliklar va tadqiqot natijalarini o‘z ichiga olishi lozim. Ayniqsa, 2024–2025 yillardagi ilmiy va amaliy tendensiyalarni hisobga olish ma’ruzaning dolzarbligini oshiradi. Shu bilan birga, berilayotgan ma’lumotlar aniq maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi, ya’ni o‘quv dasturida belgilangan mavzuni to‘liq va tizimli yoritishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, ma’ruza materiallarida aniq, ishonchli misollar, faktlar, asosnomalar va ilmiy dalillar mavjud bo‘lishi shart. Bu esa nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan boyitish, talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish va mavzuni chuqurroq anglash imkonini beradi. Misollar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo‘lishi, statistik ma’lumotlar esa ishonchli manbalarga tayanishi lozim.

Uchinchidan, ma’ruza materiallarida faktlarga asoslangan (statistik va boshqa) ma’lumotlar me’yorida berilishi kerak. Ya’ni, statistik ma’lumotlar haddan tashqari ko‘p bo‘lmasligi, balki mavzuni tushuntirish va asoslash uchun yetarli darajada qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Bu talabalarning diqqatini asosiy mazmundan chalg‘itmaslik va materialni oson o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ma’ruza materiallarining hajmi esa rejalashtirilgan mavzuni to‘liq yoritish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Hajm jihatidan ortiqcha cho‘zilish yoki aksincha, yetarli darajada ochib berilmaslikka yo‘l qo‘yilmasligi zarur. Har bir mavzu mantiqiy izchillikda, kirish, asosiy qism va xulosa asosida bayon etilishi, bo‘limlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik ta’minlanishi lozim.

Shuningdek, zamonaviy talablarga muvofiq, ma’ruza materiallari interaktiv va innovatsion elementlar bilan boyitilishi tavsiya etiladi. Jumladan:

- jadval va diagrammalardan foydalanish
- grafik va infografik materiallarni kiritish
- muhokama savollari va keyslar bilan boyitish
- raqamli texnologiyalar (prezentatsiya, video, platformalar)dan foydalanish

bularning barchasi ma’ruza samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’ruzalar turlari va ularga xos xususiyatlar

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
Kirish ma’ruzasi	
Fan doirasida o‘quv axborotini o‘zlashtirish bo‘yicha talabalar harakatining yo‘naltiruvchi asosini ta’minlash.	Ta’lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o‘quv fani mazmuni, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi axamiyati to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo‘naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirlishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
Axborotli ma’ruza	
O‘quv mavzu bo‘yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an’anaviy ma’ruza turi: ma’ruza rejasiga muvofiq o‘quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
Muammoli ma’ruza	
Muammoni belgilash va uni yechimini topishni tashkillashtirish/an’anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha	Yangi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o‘qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	
Ko‘rgazma ma’ruza	
O‘TVdan keng foydalanish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma’ruzani o‘qish, ko‘rib chiqilayotgan ko‘rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
Binar ma’ruza.	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda yechishni namoyish etish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma’ruzani o‘qish ikki o‘qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o‘qituvchi va talabalarning dialogini o‘zida namoyon etadi.
Anjuman-ma’ruza	
O‘quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o‘quv mavzusi bo‘yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma’ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg‘ulot ko‘rinishida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi mustaqil ish va so‘zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to‘ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
Umumlashtiruvchi ma’ruza	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma’ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo‘limlarning ilmiy-tushunchali va kontseptual asosi tashkil etadi.
Maslahatli-ma’ruza	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha stsenariy bo‘yicha o‘tishi mumkin. 1. “Savol-javoblar”- o‘qituvchi bo‘lim yoki to‘liq kurs bo‘yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. “Savol-javoblar-munozaralar”: o‘qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
Yakuniy ma’ruza	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o‘rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o‘tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma’ruzada o‘qituvchi kursning asosiy g‘oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
	boshqa fanlarni o‘rganishda olgan bilimlarni qanday qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatadi, fan bo‘yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

2. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

- Amaliy mashg‘ulot:

-- o‘quvchilarni o‘qituvchi bilan va o‘zaro faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan,

--nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi,

-- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo‘ljallangan mashg‘ulotning o‘qitish shakli.

Amaliy mashg‘ulotning mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko‘rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta’minlanadi;
- ko‘rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliy mashg‘ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliy mashg‘ulot turi	Amaliy mashg‘ulot shakli, uning o‘ziga xos xususiyatlari
Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish: - metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o‘ziga xos fan mavzularining yaxshi o‘rganish. - tushunish va o‘zlashtirish uchun murakkab bo‘lgan mavzu savollarini batafsil o‘rganish. - kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo‘lgan mavzularni batafsil o‘rganish.	**Keng ko‘lamli suhbat.** Hamma uchun umumiy bo‘lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan mashg‘ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo‘llash bilan: so‘zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o‘ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so‘zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqatti va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o‘sha vaqtni o‘zida ajratib ko‘rsatish va boshqalar asosida ko‘pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko‘lamli suhbat ba’zi savollar bo‘yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo‘shimcha ravishda so‘zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma’lumotlar muhokama uchun asos bo‘lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to‘ldiruvchi bo‘ladi. Ilm-fanningalohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish. **Ma’ruza va referatlar muhokamasi.** Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma’ruzadan ko‘p bo‘lmagan ma’ruzalar olib chiqiladi. Ba’zida qo‘shimcha ma’ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma’ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko‘p holllarda, ma’ruzachi va opponentlar, qo‘shimcha ma’ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So‘zga chiquvchilarni o‘zlari ham faqat bir savolni

	o‘rganadilar. Shu bilan birga, odatiy seminar ishiga “quruq nazariyalik” elementini kiritib, bunday mashg‘ulotlar talabalarda ba’zi qiziqishlarni uyg‘otadi. Talabalarni har birini qo‘shimcha ma’ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o‘rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma’ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan muhokama qilib bo‘lingan, katta bir mavzu bo‘yicha ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. **Press-konferentsiya.** Qisqa so‘zga chiqishdan so‘ng birinchi savol bo‘yicha ma’ruzachiga (agarda ma’ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo‘lsa, o‘qituvchining o‘zi ulardan biriga so‘z beradi) so‘z beriladi. Shundan so‘ng har bir talaba ma’ruza mavzusi bo‘yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarning markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko‘p jiddiy tayyorgarlik ko‘rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma’ruzachi javob beradi, so‘ngra u yoki boshqalar bo‘yicha istagan bir talaba o‘z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo‘shimcha ma’ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo‘lsa,faol bo‘ladilar. O‘qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo‘yicha, yoki seminar yakunida o‘z xulosasini qiladi. O‘zaro o‘qish. Tushunish va o‘zlashtirish uchun eng ko‘p murakkablikdagi savollarni o‘rganish asosiy maqsadga ega bo‘lgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni o‘zaro o‘qishga yo‘naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo‘yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi,

Ilm-fanningalohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.	tayyorlangan ma’lumotlarni vizual taqdim etish bo‘yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarning ish natijalari taqdimotidan so‘ng o‘qituvchi xulosalar qiladi. Yumoloq (yozma /og‘zaki) stol. O‘tgan mavzu bo‘yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo‘llash, o‘z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo‘lgan, seminar. Har xil stsenariylar bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin. 1. «Yozma yumoloq stol» - talabaning savoli / yechimi topilishi kerak bo‘lgan g‘oya yozilgan varaq, doira bo‘yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o‘z mulohazalarini qo‘shadi. 2. «Og‘zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo‘yilgan savolning javobiga o‘z qo‘shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g‘oyani qo‘llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi. Spetsseminar. Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o‘tkaziladi. Ilmiy mavzu bo‘yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi.Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o‘ynaydi. Spetsseminarning yakuniy mashg‘ulotida o‘quituvchi, qoidaga ko‘ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollarini va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.

Maxsus (kasbiy) va umumo‘quv ko‘nikma va amaliy malakalarni shakllantirish: - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish jarayonida xarakatlar algoritmini aniqlash bilan bog‘liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash.	**Ta’limiy o‘yin**O‘qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu yerda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o‘zgaruvchan vaziyatlarda o‘zini tutish taktika ko‘nikmalarini shallantiradi; ыырабатыvayet dinamiku rolevogo povedeniya; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta’minoti belgilaydi: o‘yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o‘yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo‘riqnomalar, personajlar ta’rifi (agar o‘yin rolli yoki ishbilarmon bo‘lsa)yoki vaziyatli ko‘rsatmalar (agar o‘yin modellashtiruvchi bo‘lsa) tayyorlash. Amaliy topshiriqlarni bajarish. Amaliy topshiriqlarning ko‘pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: yo‘riqnoma berish → o‘quv topshiriqni bajarish bo‘yicha yo‘riqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash. **Masalalar yechish bo‘yicha mashq.** Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: yo‘riqnoma berish – masalani yechish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish. Muammoli masalalar va vaziyatlarni yechish.Muammoli masalalar va vaziyatlarniishlab chiqish juda katta mexnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni yechish va muammoli vaziyatlarni ko‘rib tahlil qilish nazariyani haqiqqiy amaliyot bilan bog‘lashga imkon beradi. Bu

	o‘qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o‘rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi. **Ta’lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (**keyslarni) yechish. Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq yechim variantlarini qidirishga yo‘naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o‘z ichiga oladi. Keysni yechish jarayoni quyidagi bosqichlarini o‘z ichiga olish muhim: → muammoni yakka tartibda tahlil qilish va yechish, → yakka tartibda topilgan yechimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o‘zaro maqbul yechim variantini rasmiylashtirish, → guruh ishini taqdimoti, → muammoni yechish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash. Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni yechish jarayonida paydo bo‘lingan, mustaqil topilgan dalilllar oriyentirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqkamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko‘maklashadи. **O‘quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi** Ushbu o‘quv mashg‘ulotini tayyorlashda o‘qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig‘ini ishlab chiqish; talabalarga ma’lumotlarni izlashda yordam berish; o‘zi axborot manbai bo‘lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo‘llab-

	quvvatlash va rag‘batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga oshirish; maslahat berish. Ushbu o‘quv mashg‘ulotida guruhlar o‘z faoliyatining natijalari to‘g‘risida ma’ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og‘zaki taqdimot ko‘rinishida). O‘qituvchi guruhlarning o‘zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.
Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash	**Kollokvium.** O‘qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo‘yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko‘pincha 1) dasturda ko‘zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg‘otgan qo‘shimcha mavzular bo‘yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirilmagan mavzulari bo‘yicha qo‘shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg‘ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun. Seminar-kollokvium mobaynida ma’ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin. **Yozma (nazorat) ish.** Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to‘plamini to‘g‘ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o‘quv materialni o‘zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta’minlashi kerak.

3. “Transport iqtisodiyoti” fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar

AQLIY HUJUM USLUBI

Aqliy hujum uslubini birinchi bo‘lib bundan bir necha o‘n yillar oldin F.Osborn Aleks reklamasi orqali Batter, Barton, Dastin va Osborn firmalarida qo‘llagan. Keyinchalik ushbu uslubdan yirik xalqaro korporastiyalar ham foydalana boshlashgan. Hozirgi kunda ko‘pgina rivojlangan davlatlarda, ushbu uslub ma’muriy boshqarishda va nodavlat tashkilotlarda oddiy odatiy holga aylandi.

Respublikamizdagi ta’lim muassasalarida ushbu uslubdan 2000 yillardan boshlab foydalanila boshlandi. Ushbu uslubning mohiyati juda oddiy. Talabalar mavzuga oid muammoli savol yoki masala bilan tanishtiriladi. Masala bo‘yicha talabalar o‘z g‘oya va fikrlarini bildirishlari uchun aniq vaqt ajratiladi, masalan - 10 minut. 10 minut ichida bildirilgan barcha g‘oyalar va fikrlar yozib boriladi. Bildirilayotgan g‘oyalar baholanmaydi, auditoriyada shovqin bo‘lishiga, ayrim talabalaraning boshqa talaba fikri ustidan kulishi yoki uni baholashiga ruxsat berilmaydi. Dastlabki maqsad-son! G‘oya qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi. Alohida faol talabalarning etakchilik qilishlariga, ya’ni faqat bir necha talaba fikr bildirishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Mumkin qadar barcha talabalar fikrini bayon etishlariga imkoniyat yaratiladi. Vaqt tugagach talabalarga ekranda yozilgan barcha fikrlarni o‘qib, mushohada qilishlariga vaqt ajratiladi. Keyin o‘qituvchi yordamida barcha g‘oyalar guruhlarga bo‘linadi va ular tahlil qilinib, eng maqbul variant tanlab olinadi.

Aqliy hujum uslubining asosiy qoidalari:

- ilgari surilgan fikr iva g‘oyalarni tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- taklif qilinayotgan fikr va g‘oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo‘lsa ham, uni baholashdan o‘zingizni tiying;
- tanqid qilmang! Hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir;
- fikr bildirilayotganda gapni bo‘lmang;
- maqsad-fikr va g‘oyalar sonini ko‘paytirish;
- qancha ko‘p g‘oya va fikr bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi, bebaho fikr va g‘oyaning tug‘ilish ehtimoli paydo bo‘ladi;
- agar fikrlar qaytarilsa, rad etmang;
- xayoliy fikrlashga ijozat bering;

● bu muammo faqatgina ma’lum, aniq usullar yordamida hal bo‘lishi mumkin deb o‘ylamang;

● fikrlar hujumini o‘tkazish vaqtiga qat’iy rioya qiling;

● berilgan savollarga qisqacha javob bering.

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib - INSERT – Interaktive-interfaol Noting – belgilash System - tizim for-uchun Effective – samarali Reading – o‘qish and– va Thinking – fikrlash degan ma’noni anglatadi).

1)Samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo‘yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(−) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu bo‘yicha menga qo‘shimcha axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: pin- mahkamlash, board – yozuv taxtasi) – o‘quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o‘rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o‘tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS–STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to‘plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo‘llash imkonini beruvchi o‘qitish vositasi.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o‘rganib va tahlil qilib, o‘quvchilar o‘zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘xshash vaziyatlarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo‘lsa, keysda, qoidaga ko‘ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O‘quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

• keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo‘lishi kerak;

• bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak

• keysni yechish uchun uslubiy ko‘rsatmalar bo‘lishi kerak

Keys–stadi (ingl.sase– to‘plam, aniq vaziyat, stadi-o‘qitish)–amaliy o‘qitish vaziyatlarmetodi.

Keys-stadi - o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o‘quvchilarni quyidagilarga undaydi:

•muammoni shakllantirishga;

•amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;

•muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O‘quv mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o‘rtacha miqdordagi, katta)

2. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli:

-savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)

-topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

“Blits-so‘rov” usuli

Usulning tavsifi. Ushbu usul talaba (yoki o‘quvchi)larning harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma’lumotlar ichidan kerakligini o‘ziga tanlab olish, shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish hamda o‘z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o‘rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi: ushbu usul orqali talaba (yoki o‘quvchi)larga tarqatilgan qog‘ozlarda ko‘rsatilgan harakatlar ketma-ketligi avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza olish yoki o‘z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikr bo‘la olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi.

Ushbu usul bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

•O‘qituvchi talaba (yoki o‘quvchi)larga ushbu mashg‘ulot bir necha bosqichda o‘tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga mo‘ljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

•o‘qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifa (tarqama materialda berilgan harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash, belgini qog‘ozda alohida ajratilgan bo‘limga raqamlar bilan qo‘yish kerakligi)ni tushuntiradi;

•tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta’kidlaydi;

•har bir talaba (yoki o‘quvchi) o‘zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdagi **“yakka baho”** bo‘limiga berilgan harakatlarning mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi;

•talaba (yoki o‘quvchi)larning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o‘qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so‘raydi. Kichik guruhlar talaba (yoki o‘quvchi)larning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo‘yicha tashkil etilishi mumkin;

•kichik guruhdagi talaba (yoki o‘quvchi)larning har biri o‘z qog‘ozidagi **“yakka baho”** bo‘limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin ular 3 kishida uch xil bo‘lgan ketma- ketlikni birgalashib (bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirib) kelishgan holda, tarqatilgan qog‘ozdagi **“guruh bahosi”** bo‘limiga muqobil raqamlarni belgilab chiqadilar;

•barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, o‘qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo‘yicha to‘g‘ri javobni beradi, ya’ni talaba (yoki o‘quvchi)lardan ularga tarqatilgan qog‘ozlardagi **“to‘g‘ri javob”** bo‘limiga u tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligi raqamlarni yozishini so‘raydi;

•o‘qituvchi “**to‘g‘ri javob**” bo‘limida berilgan raqamlar bilan “**yakka baho**” hamda “**guruh bahosi**” bo‘limidagi raqamlarni solishtirish va kattasidan kichigini ayirish, ayirmalarni mos holda “**yakka xato**” va “**guruh hatosi**” bo‘limlariga yozishlarini so‘raydi;

- o‘qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo‘yicha tushuncha beradi va ularni har birini alohida-alohida shartlab beradi;

•o‘qituvchi mashg‘ulotni yakunlab, ba’zi guruhlarning mashg‘ulot

mobaynidagi ish faoliyatlariga o‘z fikrini bildiradi va talaba (yoki o‘quvchi)larning bilimini ilovadagi mezonlar asosida baholaydi yoki mos kelgan to‘g‘ri javoblar soniga qarab har bir talaba (yoki o‘quvchi) o‘z bahosini ilovada ko‘rsatilgandek aniqlaydi.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya talabalarni o‘z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikriga boshqalarni ishontirishga, ochiq-oshkora bahslashishga, egallagan bilimlarni tahlil qilishi, ularni qay darajada egallaganligini baholashga hamda talabalarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. Ushbu texnologiya talabalarga qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etish tartibida amalga oshiriladi.

F – fikringizni bayon eting.

S - fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring. U - fikringizni umumlashtiring.

FSMU texnologiyasida mavzu bo‘yicha savol qo‘yiladi. Talabalarga FSMU texnologiyasining mohiti va ularning vazifasi tushuntiriladi. Topshiriqni bajarish uchun aniq vaqt belgilaydi, masalan 15-20 minut.

Topshiriqni har bir talaba shaxsan bajarishi talab etiladi. Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularning savollariga javob berib boradi, yo‘naltiradi, maslahatlar beradi. Kuzatuv davrida to‘g‘ri qaror yoki fikr yozayotgan talabalarni aniqlaydi. Javoblarni yig‘ib olib, kuzatuv davrida nisbatan to‘g‘ri deb topilgan talabalarning fikrlarini o‘qiydi, qo‘shimchalar kiritib, savol bo‘yicha to‘liq ma’lumot beradi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (talabalarning o‘quv-seminari haqidagi fikrlarni bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingachqo‘llanilishi mumkin.

«Vena» diagrammasi texnologiyasi

Bu metodni ta’lim jarayonida qo‘llashdan maqsad talabalarning aqliy faoliyatini har tomonlama taraqqiy ettirish bo‘lib, oldindan mavjud bo‘lgan bilimlar zaxirasiga tayanadi.

O‘qituvchi “VENA” diagrammasi usulini qo‘llab, doskaning o‘rta qismiga ikkita doirani chizadi va ikkita tushunchani yozadi. Shundan so‘ng talabalar berilgan tushunchalarga bir nechta tushunchalarni ayta boshlaydilar. O‘qituvchi so‘z tushunchalarni bir nechasini yozadi va

shu bilan bir qatorda har biri uchun umumiy va farqli tomonlarini yozadilar.

Bu metodni darsning turli etaplarida qo‘llaganda turlicha natijaga erishiladi. Ya’ni talabalarni darsda faollashtirish, yangi o‘quv materialini esda saqlash va boshqalar.

Muammoli seminar Munozara qatnashchilariga eslatma

1. Munozara munosabatlar yig‘indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko‘p gapirmasdan, boshqalarning so‘zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo‘lida xissiyotlarni jilovlab, batafsil o‘ylagan holda so‘zla.
4. Raqiblaring vaziyatini o‘rganib, ularga hurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti bo‘yicha chetga chiqmagan holda to‘g‘ri yondashib gapir.

Muammoli seminarning boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o‘ziga oladi - munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to‘g‘riligini tasdiqlash, qo‘llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to‘g‘ri qo‘llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to‘g‘ri boshqarish.

Taqrizchi - tomonlarning ma’ruzalarini yo‘nalishlar bo‘yicha belgilash va to‘liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qo‘yilganligi, xulosalarning aniq ko‘rsatilishi.

Raqib - qabul qilingan tadqiqot o‘rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma’ruzachining asosiy holatini tanqid qilish

emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki hato tomonlarini topish hamda o‘zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert - barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning mahsuldorligini baholaydi.

O‘QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma’lum muddat ichida (bitta o‘quv mashg‘ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta’lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig‘ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yangi ma’lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O‘quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste’molchiga mo‘ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish usuli;
- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o‘quv vosita va qurollari;
- rivojlantiruvchi, ta’lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

GRAFIK TAShKIL ETUVChILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li-barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma
1 Katta qog‘oz varag‘i markazida kalit so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing. 2. Kalit so‘z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- “yo‘ldoshcha” ichiga mavzu bilan aloqador so‘z yoki so‘z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan “bosh” so‘zga bog‘lang. 3. Ushbu “yo‘ldoshcha”larda “kichik yo‘ldoshlar” ham bo‘lishi mumkin, ular ichiga yana so‘z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g‘oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi

«NIMA UChUN?» SXEMASI –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:
1) Muammoni yozing va strelka chizig‘ini chiqarib «Nima uchun?» so‘rog‘ini yozing.
2) Savolga javob yozib nima uchun so‘rog‘ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«BALIQ SKELETI» ChIZMASI – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:
1.«Baliq skeletini” chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o‘ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Qanday?» diagrammasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko‘p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o‘ylashga hojat bo‘lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo‘ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo‘lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo‘ying va shu savolga javob bering. Shu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o‘ylab o‘tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g‘oyalarni grafik ko‘rinishda qayd etishni o‘zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko‘rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o‘ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko‘p miqdordagi foydali g‘oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to‘g‘ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

“Transport iqtisodiyoti” fanidan innovatsion, ta’lim texnologiyalari

namunalari

1-MAVZU	**“Transport iqtisodiyoti” fanining mazmuni, predmet va vazifalari**

1.1. Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

O‘quv soati: 2 soat	**Talabalar soni:**
O‘quv mashg‘uloti shakli	Kirish ma’ruzasi
Ma’ruza rejasi	1. Iqtisodiyot jamiyat hayotining asosi sifatida. Iqtisodiy tizimlarning turli modellari. 2. Fanni o‘qitishning maqsad va vazifalari,o‘rganish ob’ekti va predmeti 3. “Soha iqtisodiyoti va menejment” fani boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi. Fanni o‘rganishning qonunchilik, me’yoriy-huquqiy va o‘quv-uslubiy asoslari. 4. Avtomobiль transportining iqtisodiyotda tutgan o‘rni.Avtotransport korxonalari va ularning turlari vazifalari 5. Respublikamizda avtomobiль tpancpoptining rivojlanish istiqbollari
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘quv fani bo‘yicha umumiy tasav vurlarini shakllantirish va fanning strukturaviy tuzilishi bilan tanishtiri sh.	
Pedagogik vazifalar: • o‘quv fanining ahamiyati va vazifalari hamda o‘quv fanlari tizimidagi roli, o‘rni bilan tanishtirish; • fanning strukturaviy tuzilishi va tavsiya etiladigan o‘quv-uslubiy adabiyotlar haqida ma’lumot berish;	**O‘quv faoliyatining natijalari:** • fanning ahamiyati va vazifalarini tushuntiradi; • o‘quv faoliyati bo‘yicha fanning tuzilishini strukturaviy tuzilishini tushuntiradi;

• boshqaruv nazariyasi va amaliyoti sohasidagi yangiliklarni yoritish; • fanni o‘rgatish jarayonidagi uslubiy, tashkiliy ishlar mazmunini hamda baholash muddatlari va shakllarini yoritish; Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqlik tomonlari haqida ma’lumot berish.	• fandagi nazariy va amaliy yangiliklarni yoritadi; • fan bo‘yicha uslubiy va tashkiliy ishlarning asosiy tomonlari, hamda baholash shakllari va muddatlarini yoritadi; • fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligini tushuntiradi.
Ta’lim metodlari	Ma’ruza, «aqliy hujum», namoyish etish
Ta’lim asoslari	Ma’ruza matni, kodoskop, slaydlar, format qog‘ozlari, markerlar, skotch
O‘qitish shakllari	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
O‘qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalardan foydalanishga va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob, Nazorat savollari

“Transport iqtisodiyoti” fanining predmeti, mazmuni, mohiyati va asosiy vazifalari» kirish ma’ruzasining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchining	**Talabalarning**
I. Mavzuga kirish bosqichlari (20 daqiqa)	1.1. O‘quv fanining nomini e’lon qiladi. Fan haqida dastlabki tushuncha beradi va fan miqyosida uslubiy va tashkiliy ishlarning asosiy tomonlarini ochib beradi. 1.2. Mazkur fan bo‘yicha o‘rganiladigan mavzularni e’lon qiladi, ular haqida qisqacha ma’lumot beradi hamda seminar va amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘laydi. Fan reytingi: joriy, oraliq va yakuniy nazoratning baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova). Adabiyotlar ro‘yxatini taqdim etadi va izohlaydi (slayd). 1.3. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilajak o‘quv natijalarini e’lon qiladi. 1.4. «Aqliy hujum» metodini qo‘llab, mavzu bo‘yicha tanish tushunchalarni aytishlarini taklif qiladi (2-ilova). Barcha takliflarni doskaga yozib boradi. 1.5. Ushbu ishni o‘quv mashg‘ulotining yakunida oxiriga yetkazishlarini aytadi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar va yozib oladilar Mavzuni daftarlariga yozadilar O‘z fikrlarini bildiradilar.
II. Asosiy bosqich (50 daqiqa)	2.1. Mavzu bo‘yicha ma’ruza matnlarini tarqatadi: mavzu rejasi va asosiy tushunchalar bilan tanishib chiqishni taklif qiladi. 2.2. Namoyish qilish va izohlash yordamida asosiy nazariy ma’lumotlarni beradi. Fanning predmeti, vazifalari va boshqa fanlar	Tinglaydilar.

	bilan aloqasini slaydlarda namoyish etib, tushuntiradi (3-ilova). Mavzuning har bir qismi bo‘yicha xulosalar qiladi. Talabalarning e’tiborini asosiy tushunchalarga va ahamiyatli tomonlariga jalb qiladi. 2.3. Doskada qayd etilgan asosiy tushunchalarga qaytishni taklif qiladi. Talabalar bilan hamkorlikda tushunchalar ro‘yxatini aniqlashtiradi, qaytarilganlarini olib tashlaydi, mavzuga tegishli bo‘lmagan маълумотларни олиб ташлайди ҳамда qayd etilmagan zarur tushuncha va atamalarni qo‘shadilar (yozadilar).	Har bir tayanch ibora va atamani muhokama qiladilar, daf-tarlariga yozib oladilar
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo‘yicha yakuniy xulosalar qiladilar. Faoliyat natijalarini izohlaydi. Mazkur mavzu bo‘yicha egallangan bilimlar kelajakda qayerlarda qo‘llanilishi mumkinligi haqida ma’lumot beradi. 3.2. Talabalar faoliyatini va belgilangan o‘quv maqsadlariga erishilganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi. 3.3. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) bo‘sh sxemalarni to‘ldirish; (2) savollarga og‘zaki javob topib kelish.	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar

1-ilova

«Ақлий ҳужум» методининг асосий қоидалари:

- Auditoriyada olga surilgan fikr va g‘oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- • Har bir shaxs tomonidan taklif qilinayotgan fikr va g‘oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo‘lsa ham, uni baholashdan o‘zingizni tiying!
- • Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.
- • Fikr bildirilayotganda notiqni bo‘lma!
- • Maqsad – mazmunli fikr va g‘oyalar sonini ko‘paytirish.
- • Qanchalik ko‘p fikr va g‘oyalar bildirilsa, shunchalik yaxshi. Yangi va bebaxo fikr va g‘oyaning paydo bo‘lish ehtimoli ko‘payadi.
- • Agar fikrlar qaytarilsa asabiylashmang va hayron bo‘lmang.
- • Bu muammo faqatgina ma’lum usullar yordamidagina hal bo‘lishi mumkin, deb o‘ylamang.
- • Fikrlar «hujumi» ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat’iyan rioya qilinishi shart.
- • Berilgan savolga qisqacha (1-2 so‘zdan iborat) javob beriladi.

“Transport iqtisodiyoti” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi



3-ilova


«“Transport iqtisodiyoti” »
fanining boshqa fanlar bilan aloqasi
Fanning predmeti, mazmuni va asosiy vazifalari
ATKni shakllantirishning inson omili
ATKlarni tashkil etish va tugatish jarayoni
ATKni boshqarish strategiyasi
ATKda mahsulot ishlab chiqarish strategiyasi
ATKda mavjud asosiy vositalardan foydalanish va amartizatsion to`lovlar jarayoni
ATKda aylanma mablag`lardan samarali foydalanish jarayoni
ATKda marketing xizmatlarini yo`lga qo`yish
ATKning tadbirkorlik faoliyatini sug`urtalash
ATKning investitsion faoliyatini yo‘lga qo‘yish
ATKning harajatlarini kamaytirish va daromadalarini oshirishi yo‘llari
ATKning rentabelligini oshirish
Korxona faoliyati xavfsizligini boshqarish va tijorat sirini saqlash

4-ilova

“Transport iqtisodiyoti”
fani oldida turgan vazifalar

- ATK faoliyatini samarali boshqarishni o‘rganish
- ATKni tashkil etish strategiyasi va taktikasining mohiyati, mazmuni va xususiyatlaringi o‘rganish
- ATKni tashkil etish jarayoni zaruriy hujjatlarni to‘g‘ri va tez rasmiylashtirish tartiblarini o‘rganish
- ATKga malakali xodimlarni tanlash, malakasini oshirish, o‘qitish va lavozimlarga tayinlash masalalarini o‘rganish
- ATK faoliyatini samarasizlikka olib keluvchi omillarni izlab topish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini o‘rganish
- ATKning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va uni yanada oshirish yo‘llarini belgilash
- ATKdagi asosiy vositalardan samarali foydalanish va doimiy tarzda monitoring o‘tkazish
- ATK aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishni ta’minlash yo‘nalishlarini o‘rganish va korxona mablag‘larini ko‘paytirish
- ATKning investitsion faoliyatini va investitsiya kiritishni tashkil etish jarayonini o‘rganish
- ATK faoliyatini tahlil etish, barqarorligini oshirishi va korxona tijorat sirlarini saqlashni o‘rganish va hokazo.

5-ilova

Mustaqil ish uchun vazifa

1. Berilgan sxemani fanning strukturasi va boshqa fanlar bilan aloqasini ko‘rsatib, to‘ldiring.



6-ilova

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «Soha iqtisodiyoti va menejmenti» fanining mohiyati nimadan iborat?
2. «Korxonalar to‘g‘risida» gi qonunning maqsadini yoriting.
3. «Soha iqtisodiyoti va menejmenti» fanining predmeti nima?
4. «Soha iqtisodiyoti va menejmenti» fanining maqsadi nimadan iborat?
5. «Soha iqtisodiyoti va menejmenti» fanining asosiy vazifalarini bayon eting.
6. «Soha iqtisodiyoti va menejmenti» fani qanday iqtisodiy fanlar bilan bog‘liq?
7. «Soha iqtisodiyoti va menejmenti» fani qanday ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqada ish olib boradi?

2-MAVZU	**Avtomobil transportining iqtisodiyotda tutgan o‘rni. Avtotransport korxonalari va ularning turlar**

Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

O‘quv soati: 2 soat	**Talabalar soni:**
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Mavzuiy ko‘rgazmali ma’ruza
Mavzu rejasi	1.Milliy iqtisodiyot rivojlanishida korxonaning o‘rni va roli. 2. Avtomobil transportining iqtisodiyotda tutgan o‘rni 3.ATKning belgilari, vazifalari va funksiyalari. 4.ATKlarni tasniflash. 5. Korxona tuzilmasi va uni belgilovchi omillar.
Mashg‘ulotning maqsadi: Korxona haqida tasavvurlarini shakllantirish. Korxonalarning vazifalari va belgilari haqida tushuncha berish.	
Pedagogik vazifalar:	**O‘quv faoliyati natijalari:**
• Korxona va uning tasnifi haqida to‘liq ma’lumot berish;	• korxona va uning faoliyati haqida tushuntiradi;

• korxona va uning ijtimoiy hayotdagi roli haqida tushuncha berish; • korxonaning turlari va ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi jihatdan nazariy muammolarini yoritish; • Avtomobil transportining iqtisodiyotda tutgan o‘rni • ATK faoliyatning asosiy yo‘nalishlari haqida tushuncha berish; • ATKning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish. • ATKda mehnatni shakllantirish va tashkil qilish amaliyoti haqida tushuncha berish; • AT korxonalari haqida ma’lumotlar berish.	• korxonaning ijtimoiy hayotdagi roli haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tadi; • korxonaning turlarini nazariy jihatdan yoritadi va ixtisoslashuviga qarab sanab o‘tadi va mazmunini yoritadi; • korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuntiradi. • korxonada mehnatni shakllantirish va tashkil qilish amaliyotini tushuntiradi; • Avtomobil transportining iqtisodiyotda tutgan o‘rni • ATkorxonalari va ularning turlari haqida malumot beradi; • AT korxonalarining faoliyatlari haqida ma’lumot beradi.
Ta’lim metodlari	Ma’ruza, savol-javob, suhbat, o‘zaro o‘qitish metodi, klaster, insert texnikalari
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, kodoskop, slaydlar, format qog‘ozlari, markerlar, skotch, chizmali organayzerlar, asosiy ma’lumot va tayanch tushunchalardan iborat ma’ruza matnlari (tarqatma material).
Ta’lim shakllari	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash.
O‘qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriyalash.
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchining	**Talabaning**
I. Kirish bosqich (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini e’lon qiladi. 1.2. O‘quv mashg‘ulotining shakli va baholash mezonlarini tushuntiradi (1-ilova). 1.3. Mavzu bo‘yicha ma’ruza matnlarini tarqatadi (har bir talabaga). 1.4. Mavzuning rejasi va asosiy tushunchalarini eshittiradi va qisqacha izoh beradi.	Tinglaydilar. Mavzu nomini va rejasini yozib oladilar.
II. Asosiy bosqich (60 minut)	2.1. Berilgan savolarga o‘ylab javob berishlarini taklif qiladi: • Milliy iqtisodiyotda korxonaning o‘rni va roli deganda nimani tushunasiz? • Korxonaning ijtimoiy hayotdagi roli haqida nimalarni bilasiz? • Korxonalarning asosiy vazifalari va maqsadi nimadan iborat? • Korxona tuzilmasi va uni belgilovchi omillar deganda nimani tushunasiz? • Avtomobil transportining iqtisodiyotda tutgan o‘rnini qanday baholaysiz? Tezkor so‘rov o‘tkazadi. So‘rov o‘tkazish jarayonida talabalarni yo‘naltiradi, javoblarni aniqlashtirib to‘ldiradi. 2.2. Talabalarni to‘rtta kichik guruhlarga bo‘ladi. Har bir guruh o‘tilayotgan mavzuning bir rejadagi savoli bo‘yicha «ekspert» bo‘lib, o‘zgalarga ham o‘rgatishini tushuntiradi.	Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi. Guruhlarni faoliyat ni tashkil qiladilar. Matnlarini o‘qib, savollarga javob topadilar. Ma’lumotni muhokama qilib, fikr almashib, sis-temalashtiradilar. Tayyor ma’lumotni taqdim etish uchun chizmali organayzer-lar ishlab chiqadi. Guruh sardorlari tayyor ma’lumot-larni taqdim etadilar. Boshqa guruh a’zolarining bergan savollariga javob beradi.

	2.3. Guruhlarga ekspert varaqlarini tarqatadi va faoliyatlarini tashkil qiladi (2-ilova). 2.4. Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. Yo‘naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to‘ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi. 2.5. Taqdimot yakunida talabalar diqqatining mavzuning asosiy tomonlariga qaratib, har bita masala bo‘yicha qisqacha xulosalar qiladi.	
III. Yakuniy bosqich (10 minut)	3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiy xulosalar qiladi, yakun yasaydi. 3.2. Guruhlarga o‘zaro qo‘ygan baholarini e’lon qilishni taklif qiladi. Natijalarni sharhlaydi. 3.3. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) nazorat savollariga og‘zaki javob berish (3-ilova); (2) qo‘shimcha adabiyotlardan mavzuga tegishli bo‘lgan yangi ma’lumotlarni to‘plash.	Eshitadilar. Vazifani yozib oladilar.

1-Ilova

Ekspert varag‘i №1

ATKning ijtimoiy hayotdagi roli va uni turlari.
1. ATKorxonalarni tashkil etishning ahamiyati.
2. ATKorxona to‘g‘risidagi tasavvurlarning rivojlanishi.
3. ATKorxona tuzilmalari nazariyasi.
(Ma’lumot jadval /strukturaviy-mantiqiy sxema /klaster va hokozalarda taqdim etiladi)

Ekspert varag‘i №2

ATKlarni tasniflashning nazariy asoslari.
1. ATKorxonalarni tarmoqlarga ko‘ra taqsimlanishi.
2. ATKorxonalarning turlari va ularning vazifalari.
3. Sindikat, trestlar va integratsiya jarayolari haqida.
(Ma’lumot jadval /strukturaviy-mantikiy sxema /klaster va hokozalarda taqdim etiladi)

2-ilova

O‘z-o‘zini tekshirish va baholash uchun nazorat savollar va topshiriqlari:

1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi va korxonalarning mamlakat xalq xo‘jaligi majmuasidagi roli.
2. Korxonalarining tavsifi.
3. Korxonalarni tasniflashda ishlatiluvchi mezonlar.
4. Korxonalarning umumiy va ishlab chiqarish tuzilmasi tushunchalari.
5. Korxona tuzilmasini belgilab beruvchi omillar.
6. Korxona tuzilmasini mukammalashtirish yo‘llari.
7. Avtomobil transportining iqtisodiyotda tutgan o‘rni
8. ATK turlar**i**

3-ilova



4-Ilova



3-MAVZU	AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARINING ASOSIY FONDLARI

Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

O‘quv soati: 2 soat	Talabalar soni:
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Ma’ruza – anjuman Ko‘rgazmali (vizual) ma’ruza (2-mashg‘ulot)
MMavzu rejasi	1. ATKda asosiy fondlarning tarkibi va tuzilishi. 2. Asosiy fondlar harakatini hisobga olish. 3. Asosiy fondlarning ma’nan va jismonan eskirishi. 4. Asosiy fondlardan foydalanish ko‘rsatkichlari. 5. Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.
Mashg‘ulotning maqsadi: Korxonalar asosiy fondalardan samarali foydalanish, asosiy fondlarning eskirishini hisobga olish va ularga o‘z vaqtida amortizatsiya to‘lovlarini to‘g‘ri hisoblash, o‘z vaqtida ta’mirlash ishlarini to‘g‘ri tashkil etish, ulardan oqilona foydalanish, korxonaning ishlab chiqarish quvvatini oshirishdan iborat.	
Pedagogik vazifalar: • Asosiy fondlarning mohiyati va uning korxona faoliyatidagi ahamiyatini yoritib beradi; • Asosiy fondlarning eskirishi tushunchasini yoritib beradi; • Asosiy fondlarni baholash tartibini tushuntirib beradi; • Asosiy fondlardan foydalanish tizimini yaxshilash yo‘llari va	**O‘quv mashg‘ulotining natijalari:** • Asosiy fondlarning mohiyati va uning korxona faoliyatidagi ahamiyatini tushuntiradi; • Asosiy fondlarning eskirishi va unga handay tartibda amortizatsiya to‘lovlari hisoblanishini tushuntiradi; • Asosiy fondlarni ta’mirlash va ularni baholash tartibini tushuntiradi; • Asosiy fondlardan foydalanish tizimini yaxshilash yo‘llari va ko‘rsatkichlarini tushuntiradi; • Korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari nimadan iboratligini tushuntiradi;

ko‘rsatkichlarini tushuntirib beradi; • Korxonada asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rsatib beradi; • Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini izohlab beradi.	• Korxonada asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rsatib beradi; • Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini izohlab beradi.
Ta’lim metodlari	Aqliy hujum, namoyish etish, zigzag texnikasi savol-javob, munozara, chizmali organayzerlar texnikasi
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, dokladlar, kompyuter texnologiyalari, chizmali organayzerlar.
Ta’lim shakllari	Frontal, Jamoaviy
O‘qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash, nazorat savollari

3-MAVZU Avtomobil transporti korxonalarining aylanma mablag‘lari

Ma’ruzada ta’lim texnologiyasi

O‘quv soati: 2 soat	**Talabalar soni:**
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Ma’lumotli (ko‘rgazmali) ma’ruza Ko‘rgazmali (vizual) ma’ruza (2-mashg‘ulot)
Mavzu rejasi	1. ATKda aylanma mablag‘larning mohiyati, tarkibi va tuzilishi 2. Aylanma mablag‘larni shakllantirish manbalari.

	3. Aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlari 4. Korxona aylanma mablag‘lari samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholash va uni oshirish imkoniyatlari
Mashg‘ulotning maqsadi: Korxonaning aylanma mablag‘lari, ularning iqtisodiy tabiati, harakati, aylanma mablag‘larni me’yorlashtirish, ulardan foydalanish ko‘rsatkichlari va aylanishini tezlashtirish to‘g‘risidagi umumiy tushunchalarini shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar: • Aylanma mablag‘larning mohiyati va uning korxona faoliyatidagi ahamiyatini yoritib beradi; • Aylanma mablag‘larning tuzilmasi, harakati tushunchalarini yoritib beradi; • Aylanma mablag‘larni normallashtirish tartibini tushuntirib beradi; • Aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlari yaxshilash va aylanishini tezlashtirish yo‘llarini tushuntirib beradi; • Aylanma ishlab chiqarish fondlari nimadan iboratligini tushuntirib beradi; • Korxonada aylanma mablag‘lar-ning holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rsatib beradi; Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini izohlab beradi.	O‘quv mashg‘ulotining natijalari: • Aylanma mablag‘larning mohiyati va uning korxona faoliyatidagi ahamiyatini tushuntiradi; • Aylanma mablag‘larning tuzilmasi, harakati tushunchalarini tushuntiradi; • Aylanma mablag‘larni normallashtirish tartibini tushuntiradi; • Aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlari yaxshilash va aylanishini tezlashtirish yo‘llarini tushuntiradi; • Aylanma ishlab chiqarish fondlari nimadan iboratligini tushuntiradi; • Korxonada aylanma mablag‘larning holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rsatib beradi; • Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini izohlab beradi.

Ta’lim metodlari	Ma’ruza, aqliy hujum, namoyish etish, kutish hamrohi va chizmali organayzerlar texnikasi
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matni, kompyuter texnologiyalari, chizmali organayzerlar, format qog‘ozlari, markerlar, skotch.
Ta’lim shakllari	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
O‘qitish shart-sharoiti	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob, reyting tizimi asosida baholash, nazorat savollari va vazifalar.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi
(1-mashg‘ulot)

Faoliyat bosqichlari	**Faoliyat mazmuni**	
	O‘qituvchining	**Talabaning**
I. Kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1.Mavzuning nomi, maqsadi, o‘qitish natijalarini, mavzuning rejasini e’lon qiladi. 1.2.Mavzu bo‘yicha asosiy tushuncha va tayanch iboralarni sharhlaydi va ularni yozdiradi. 1.3.Baholash mezonlarini e’lon qiladi.	Tinglaydilar. Asosiy tushuncha va iboralarni yozib oladilar
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1.Bugungi o‘quv mashg‘ulotida nimalarni muhokama qilishimizni chuqur o‘ylab javob berishni, unda aosiy tushuncha va iboralarning o‘rnini aniqlashni ularning o‘rganilish ketma-ketligini raqamlar asosida belgilashni taklif qiladi (Kutish hamkori. 1-ilova). 2.2.Aqliy hujum metodi yordamida talabalarni faollashtiradi. «Aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish deganda nimani tushunasiz?» savolini beradi va qisqa iboralar bilan javob berishini so‘raydi. Javoblarni doskaga yozib boradi.	Daftarlariga yozib, asosiy tushuncha va iboralarni raqamlar bilan belgilab chiqadilar. Savolga javob beradilar. Javoblari guruhlashtirib, klaster ishlab

	2.3. Javoblarni guruhlashtirishni va sistemalashtirishni taklif qiladi. Talabalar bilan hamkorlikda, ularning javoblari asosida klaster ishlab chiqadi (2-ilova – o‘qituvchining varianti). Faoliyat jarayonida javoblarni aniqlashtiradi, tuzatadi, o‘zgartirishlar kiritadi. 2.4.Rejalar asosida (klasterga qarab) mavzuning mazmunini yoritadi. Ekranda chizmali organayzerlarni namoyish etib, xodimlarning xizmat-kasb jihatidan ko‘tarilish tizimini, kadrlar zaxirasi va ular bilash ishlash, kadrlar zaxirasini shakllantirish manbalari kabilarni sharhlaydi, tushuntiradi (slaydlar). 2.5.Talabalarni uchta guruhga bo‘ladi.T-sxemani to‘ldirish qoidasini tushuntiradi (3-ilova). Oldin individual, so‘ngra guruhlarda mavjud savollar (4-ilova) bo‘yicha T-sxemani to‘ldirishni aytadi. Format qog‘ozlarini tarqatib, guruhlarda faoliyatni tashkil qiladi. Guruhlar ishini kuzatadi, yo‘naltiradi, maslahatlar beradi. 2.6.Olingan natijalar bo‘yicha taqdimot o‘tkazilishini e’lon qiladi. Taqdimot jarayonida talabalar bilan birgalikda sxemaning to‘liq ishlab chiqilganini tahlil qiladi, kamchiliklarni to‘ldiradi, aniqlashtiradi, to‘g‘rilaydi va baholaydi. 2.7.T-sxemaning oxirgi to‘g‘ri variantini daftarlariga ko‘chirishni taklif qiladi.	chiqishga yordam beradi. Eshitadilar. Zarur ma’lumotlarni yozib oladilar. Fikr almashadilar. Har bir talaba individual T-sxemani ishlab chiqadi. So‘ng T-sxemalar solishtiriladi va bita umumiysi guruhlarda ishlab chiqiladi. Guruh sardorlari ishlarini doskaga ilib, uni sharhlay-di. (5 daq.). Boshqa guruh a’zolari qo‘shimchalar kirita-di, to‘g‘rilaydi, savollar beradi. T-sxemani daftar-lariga ko‘chiradilar.
III. Yakuniy bosqich	3.1. Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi va yakun yasaydi.	Eshitadilar.

(10 daqiqa)	Talabalar diqqatini mavzuning asosiy tomonlariga qaratadi. 3.2.Talabalar faoliyatini baholaydi: eng faol ishtirokchilar bilan birga guruh ishlarida eng sust ishtirok etganlarni ham aytib o‘tadi. Guruh ishlarini samarasini oshirish bo‘yicha takliflar beradi. 3.3.Talabalarga mashg‘ulot boshida belgilangan asosiy tushuncha va iboralarni ketma-ketligi taqdim etilgan ma’lumotni bayon etish strukturasi bilan solishtirishni taklif qiladi (5-ilova). 3.4. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) ma’ruza materialini insert texnikasini qo‘llagan holda o‘rganib chiqish; (2) insert jadvalini to‘ldirish.	Asosiy tushuncha va iboralarni uzlari tuzgan ketma-ketlik bilan solishtirib ko‘radilar. Vazifani yozib oladilar.

«ATKning aylanma mablag‘lari» mavzusi bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi (2-mashg‘ulot)

Faoliyat bosqichlari	**Faoliyatning mazmuni**	
	O‘qituvchining	**Talabaning**
I. Kirish bosqichi (5 daqiqa)	1.1.Mavzuni nomi, maqsadi, kutilajak o‘quv natijalarni hamda tayanch konspektdan foydalanish qoidasini eslatadi. 1.2. Mavzu yakunida o‘tilgan material bo‘yicha test o‘tkazilishi haqida ogohlantiradi (maks. baho 2 ball).	Tinglaydilar. Yozib oladilar.
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1.4-rejaning mazmunini yoritadi. (4-savol – Aylanma mablag‘lar, muomila fondlari kabi tushunchalar. Korxona faoliyatida aylanma mablag‘lardan foydalanish darajasi). 2.2.Ekranda tayanch konspektining 5-savolini (5-savol – aylanma mablag‘lardan	Eshitadilar. Tayanch konspektlarini to‘ldiradilar. Eshitadilar. Eshitadilar, kerak

	korxona faoliyatida foydalanishning ahamiyatini) tushuntiradi va sharhlaydi. 2.3 6-savolni (6-savol – Aylanma mablag‘lardan foydalanish va uning ko‘rsatkichlariga qisqacha tavsif) ekranda namoyish qiladi va ma’lumotlarni sharhlaydi, mazmunini ochib beradi. Talabalar diqqatini asosiy tushunchalarga qaratadi.	ma’lumotlarni yozib oladilar. Savollar bo‘yicha fikr bildiradilar. Eshitadilar. Qog‘oz varaqlariga ismi, familiyasi, guruhini yozadilar. Test savollariga javob berishadi va topshiradilar. Vazifani yozib oladilar.
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1.Mavzuni umumlashtiradi, xulosalar qiladi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy tomonlariga qaratadi. 3.2.Qog‘oz varaqlarini tarqatadi (test o‘tkazish uchun). Ekranda test savollarini namoyish qiladi (3-ilova). O‘tkazilgan test savollarining natijalarini keyingi o‘quv mashg‘ulotida e’lon qilishini aytadi. 3.4. Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi.	

1-ilova



2-ilova



11-mavzu Loyiha tushunchasi va uning moxiyati. Loyihalar turlari
1.1. Ma’ruzani olib borish texnologiyasi

Talabalar soni: 80	Vaqti: 2 soat
Mashg‘ulot shakli	Kirish mavzu bo‘yicha informatsion ma’ruza
Ma’ruza rejasi	**1.Loyiha tushunchasi va tasnifi.** **2.Loyiha muhiti.** **3.Loyiha hayot sikli (davri)ning asosiy bosqichlari.** **4.Davlatning investitsiya loyihalari.** 5.Loyiha ishtirokchilarining faolligini ta’minlash
Mashg‘ulotning maqsadi: Loyihalarning mohiyati, zarurligi va turlari to‘g‘risida talabalarning bilimini kengaytirish va chuqurlashtirish.	
Pedagogik vazifalar	O‘quv faoliyati natijalari:
- loyihalarning mohiyati, asosiy turlari va tuzilishi bilan tanishtirish;	• **loyihalarning mohiyati, asosiy turlari va tuzilishini tushuntiradi;**
- Loyiha muhiti talqini yoritib berish;	• **Loyiha muhiti talqini ko‘rsatadi;**
4.Davlatning investitsiya loyihalari asosiy iqtisodiy kontseptsiyalarini sanab o‘tish;	**- Davlatning investitsiya loyihalari asosiy asosiy iqtisodiy kontseptsiyalari sanab o‘tiladi**
Loyiha hayot sikli (davri)ning asosiy bosqichlarini ko‘rsatish;	**Loyiha hayot sikli (davri)ning asosiy bosqichlarini ko‘rsatadi;**
O‘qitish usullari va texnika	**Ma’ruza, «aqliy hujum», T-sxema, munozara, muammoli vaziyatlar usuli.**
O‘qitish vositalari	**Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.**
O‘qitish shakllari	**Jamoa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va guruhlarda ishlash.**
O‘qitish shart-sharoiti	**Texnik vositalar bilan ta’minlangan auditoriya.**
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat, savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

1.1. “Loyiha tushunchasi va uning moxiyati. Loyihalar turlari” mavzusidagi informatsion ma’ruzani o‘qitish texnologiyasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	O‘qituvchi	Talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish. (20 minut)	1.1. O‘quv kursi nomini aytib, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar
	1.2. Kurs bo‘yicha o‘tiladigan barcha mavzular bilan tanishtiradi, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma’lumot beradi	Tinglaydilar
	1.3. Kurs yakunida qo‘yiladigan reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova)	O‘UM ga qaraydilar
	1.4. Kursni o‘zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati Bilan tanishtiradi	O‘UM ga qaraydilar
	1.5. Birinchi o‘quv mashg‘uloti mavzusi bilan tanishtiradi va uning maqsadi, o‘quv faoliyati natijalarini bayon qiladi	Mavzu nomini yozib oladilar
	1.6. Birinchi mavzu yuzasidan aqliy hujum qoidasi asosida dars o‘tkazishni taklif etadi. Doskaga «Investitsiya mohiyati nima?» deb yozadi. Talabalar tomonidan aytilgan fikrlarni yozib boradi va umumlashtiradi (2-ilova)	Tushunchalarni erkin fikr orqali bildiradi
II-bosqich. Asosiy (50 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi	Tinglaydilar
	2.2. Ma’ruzani reja bo‘yicha tushun-tiradi, har bir rejani nihoyasida umumlashtiradi. Jarayon kompьyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi (3-ilova)	inglaydilar. Slaydga e’tibor qaratadi, uni o‘ziga yozib oladi va savollar beradi

	2.3. Har bir rejani mustahkamlash uchun quyidagicha savollar beradi: 1.Loyihaning mohiyati nimadan iborat. 2. Loyihalarning qanday turlarini bilasiz. 3. Loyihaning asosiy elementlari nimalarni o‘z ichiga oladi ? 4.Loyiha sikli deganda nimani tushunasiz?	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi. Talaba-lar ishtirokida ular yana bir bor takror-lanadi	Har bir tayanch tushuncha va ibo-ralarni muho-kama qiladilar. Konspekt qila-dilar
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. T-sxema texnikasidan foydalanil-gan holda juft-juft bo‘lib ishlash uchun tinglovchilarga: «O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan investitsiya siyosatining yo‘nalishlari va tamoyillari” Aksinchi-chi? deb yozilgan tarqatma materiallar tarqatadi. Ushbu texnika orqali mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosa qiladi (4-ilova)	Mustaqil T-sxemani to‘ldiradilar. Erkin fikrini bayon etadi
	3.2. Talabalarning faoliyatiga baho qo‘yiladi va rag‘batlantiriladi	Eshitadi
	3.3. Kelgusi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘-rish uchun topshiriqlar va foydalani-ladigan adabiyotlar ro‘yxati beriladi	Eshitadi va O‘UM ga qaraydilar

1(1.1)-Ilova

Kurs bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish, baholash mezonlari

Nazorat shakllari	Jami ballar
1. Joriy baholash (6 ball): a) Tinglovchining ma’ruza va amaliy mashg‘ulotdagi aktivligi; b) Uy vazifasini bajarish; v) Berilgan topshiriqlarni bajarishi (referat, tablitsalar, slaydlar tayyorlash va h.k.)	50 ball
2. Oraliq baholash (nazorat ishi va testlar o‘tkazish)	20 ball
3. Yakuniy baholash (yozma ish, test va boshqa turdagi nazoratlarni o‘tkazish)	30 ball
Jami:	***100 ball***

2(1.1)-Ilova

«Aqliy hujum»ning asosiy qoidalari:

 olg‘a surilgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;

 ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g‘oyalar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi;

 istalgan g‘oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;

 muammo yechimidan uzoq g‘oyalar ham qo‘llab-quvvatlanadi;

 barcha g‘oyalar yoki ularning asosiy mag‘zi (farazlari) qayd etish yo‘li bilan yozib olinadi;

 «hujum»ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;

 beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko‘zda tutilishi kerak.

3(1.1)-Ilova

O‘quv vizual materiallar:

Loyiha tushunchasi va uning moxiyati. Loyihalar turlari

11-Mavzu bo‘yicha o‘quv vizual materiallari

1.Loyiha tushunchasi va tavsifi 1-slayd,

2.Loyihaning asosiy elementlari 2-slayd,

3.«Investitsiyalar tahlilida asoslaniladigan asosiy iqtisodiy konsepsiyalar

4. Klaster «Loyiha turlari»– 4–slayd.

1-slayd

Klaster «Investitsiyalar tahlilida asoslaniladigan asosiy iqtisodiy konsepsiyalar»



2-slayd

Klaster «Loyiha turlari»



T-sxema Jadvali

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo‘llari nechta?	Aksincha-chi?

GLOSSARIY

O‘zbek tilidagi atamasi	Ingliz tilidagi atamasi	Rus tilidagi atamasi	Ma’nosi
